O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ORIENTAL UNIVERSITETI

ISMATULLAEV FARXODJON ODILJONOVICH

JAHON TARIXI (QADIMGI DAVR)

DARSLIK

Toshkent
“METODIST NASHRIYOTI”
2026

UDK:94(100)
BBK: 63.3(0)
I–83

F.O. Ismatullayev
Jahon tarixi (qadimgi davr). Darslik. – Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI”, 2026. – 392 b.

Ushbu darslikda Jahon tarixining qadimgi Sharq davri tarixiga oid eng muhim mavzular qamrab olingan. O‘rganilayotgan davrda jahon mamlakatlari rivojlanishining alohida va umumiy xususiyatlari, jumladan, shakllanishi, taraqqiyoti, inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Darslikda xronologik jihatdan eramizdan avvalgi IV ming yillikdan eramizning V asrgacha bo‘lgan qadimgi Sharq davlatchilgi tarixi tadqiq etilib, jumladan dastlabki davlatlar, ularning siyosiy tuzumi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va madaniy jarayonlar aks etgan. Tarixiy o‘lkalardagi eng muhim voqealar, xususan urushlar va qo‘zg‘olonlar, iqtisodiy, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ham yoritib berilgan. Darslikda keltirilgan materiallar o‘zlashtirilishi oson bo‘lishi uchun glossariy, bibliografiya hamda illyustrativ materiallar bilan boyitilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari va o‘qituvchilari hamda jahon tarixi va madaniyati tarixini o‘rganishga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:
D. Urakov
Tarix fanlari doktori, professor
A. Xazratqulov
Tarix fanlari doktori, professor
N. Egamberdieva
Tarix fanlari doktori, professor

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-12-095-4

© Ismatullayev Farxodjon, 2026.
© “METODIST NASHRIYOTI”, 2026.

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot oqimlarining jadallashuvi va jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida tarix fani, xususan, jahon tarixi inson tafakkurini shakllantirish, ijtimoiy ongni barqaror rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlarni anglashda muhim o‘rin tutadi. Tarix – bu o‘tmish voqealarining oddiy bayoni emas, balki insoniyat sivilizatsiyasining shakllanish qonuniyatlari, madaniy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot tajribasini o‘rganish orqali bugungi kun va kelajak uchun xulosa chiqarish imkonini beradigan ilmiy sohadir.

Qadimgi dunyo tarixi jahon sivilizatsiyasining ilk poydevorlari qo‘yilgan davrni qamrab olib, davlatchilikning vujudga kelishi, huquq, yozuv, din, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning shakllanish jarayonlarini o‘rganadi. Misr, Mesopotamiya, Hind, Xitoy, O‘rta yer dengizi Sharqiy hududlari, Kichik Osiyo va Eron sivilizatsiyalari misolida insoniyat taraqqiyotining umumiy va o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Ushbu sivilizatsiyalar qoldirgan siyosiy boshqaruv an’analari, huquqiy me’yorlar, falsafiy g‘oyalar va madaniy meros bugungi zamonaviy jamiyat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Zamonaviy tarix ta’limida faktlarni yodlashdan ko‘ra, tarixiy tafakkurni shakllantirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash, manbalar bilan ishlash, tanqidiy tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qadimgi dunyo tarixini o‘rganish talabalarda sivilizatsion yondashuv, madaniyatlararo muloqotga hurmat, bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarni anglash hissini qaror toptiradi. Bu esa global muammolarga duch kelayotgan hozirgi dunyoda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslik zamonaviy ta’lim standartlari va metodik talablar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilarga jahon tarixi qadimgi bo‘yicha tizimli, ilmiy asoslangan va tushunarli bilim berishni maqsad qiladi. Darslikda tarixiy jarayonlar xronologik izchillikda, sabab va natijalar o‘zaro bog‘liq holda yoritilgan, shuningdek, mavzular mazmunini chuqur anglashga xizmat qiluvchi tushunchalar, savol va topshiriqlar o‘rin olgan.

Darslikda oliy o‘quv yurti tarix fakulteti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda har bir mavzuga oid mustahkamlash savollari, tayanch iboralari, keys topshiriqlari, video darslar, glossariy va adabiyotlar ro‘yhati keltirilgan. Shu bilan birga shu kungacha bo‘lgan dasrliklarda kam uchraydigan o‘ziga hos yondashuv ya’ni mavzular doirasida genetik va retrospektiv tahlillarni ko‘rish mumkin. Bunday tarzda darslikning yaratilishi talabalar tomonidan o‘rganiladigan mavzularni puxta o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, muallif darslikni tayyorlashda, avvalgi yillarda yetakchi mutaxassislar R. Rajabov, A. Kabirov, D. Urakov va V. Kuzishinlar tomonidan nashr etilgan “Jahon tarixi”ga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalardan, shuningdek yangi ilmiy maqolalar va tarixiy ma’lumotlardan unumli foydalangan va buning uchun ularga o‘zining samimiy minnatorchiligini bildiradi. Yaratilgan darslik yuzasidan taklif va mulohazalar mavjud bo‘lsa, muallif minatdorchilik bildirib ularni qabul qilgan holda, albatta kelgusi nashrlarda inobatga oladi.

Aziz talaba! Davlatning barqarorligi va qudrati nafaqat uning iqtisodiy va siyosiy salohiyati, balki jahon hamjamiyati oldidagi ma’naviy-axloqiy qiyofasi hamda xalqaro nufuzi bilan ham belgilanadi. Tarix esa aynan ana shu ma’naviyatni aks ettiruvchi bebaho manbadir. Shu bois jahon tarixini chuqur o‘rganish orqali xalqimiz va millatimizning ma’naviy uyg‘onishiga, insoniyat yaratgan ma’naviy merosdan bahramand bo‘lishiga erishamiz. Tarix bizni tinch-totuv hayot kechirishga, do‘stlik va hamkorlik ruhida yashashga, o‘zaro hamjihatlikka chorlaydi.

Bugungi kunda oldimizda xalqimizning intellektual salohiyatini yuksaltira oladigan, jahon ilm-fani va madaniyatining eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassam etgan barkamol avlodni tarbiyalashdek ulkan va mas’uliyatli vazifa turibdi. Bu ezgu maqsadga esa millatning ongli vatanparvarlik ruhi va birligi asosida erishish mumkin.

Shuni doimo yodda tutish lozimki, yurtimiz azaldan buyuk allomalar va mutafakkirlarni yetishtirib bergan. Ularning ilmiy merosi bugun ham butun jahon ilm ahlining e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Ana shu ulug‘ ajdodlarimiz asos solgan milliy va ilmiy

tafakkur an’analarini davom ettirish va yanada boyitish uchun hozirgi kunda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud.

Zotan, fan jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim kuch sifatida e’tirof etilar ekan, tarix fani insoniyatga mustaqillikning beqiyos ahamiyatini anglatadi. U mustaqil bo‘lmagan millatning istiqboli bo‘lmasligini tarixiy tajriba va qonuniyatlar asosida isbotlab beradi hamda bu haqiqatning tabiiy va muqarrar ekanini ko‘rsatadi.

1-MAVZU. QADIMGI SHARQ TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Reja

1. Qadimgi Sharq tarixini davrlashtirish masalalari
2. Qadimgi Sharq tarixshunosligi va uning asosiy yoʻnalishlari
3.Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi
4. Qadimgi Sharq hududi va aholisi
5. Qadimgi Sharq jamiyati va davlatchiligi

Jahon tarixida davlatchilikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini oʻrganish, tadqiq etish eng muhim masalalardan sanaladi. Ushbu masalani tadqiq etgan olimlar ilmiy xulosalariga koʻra dastlabki sivilizatsiyalar aynan koʻhna Sharq hududlarida shakllangan, dastlabki sivilizatsiyalarga beshik boʻlganligini isbotlab berishgan. Shu oʻrinda zamonaviy davr nuqtai nazaridan fanda Sharq hududlari deyilganda asosan hozirgi Osiyo qitasida joylashgan davlatlar tushuniladi. Biroq, qadimgi davr nuqtai nazaridan qadimgi Sharq hududlari deyilganda nisbatan katta hududlar anglashiladi. Unga koʻra Qadimgi Sharq deb shartli ataladigan bepoyon geografik hudud gʻarbdan sharqqa qadimgi Karfagen joylashgan hozirgi Tunisdan Xitoy, Yaponiya va Indoneziyagacha, janubdan shimolga hozirgi Efiopiyadan Kavkaz togʻlari va Orol dengizining janubiy qirgʻoqlarigacha choʻzilib ketgan. Bu kenglikda insoniyat sivilizatsiyasining ilk oʻchoqlari boʻlgan koʻp sonli sharq davlatlari shakllangan. Qadimgi Misr podsholigi, Bobil davlati, Xett davlati, ulkan Ossuriya imperiyasi, Finikiya, Suriya va Falastindagi kichik davlatlar, Frigiya, Lidiya davlatlari, Eron togʻ tizmasidagi davlatlar, jumladan, Yaqin Sharq hududlarini oʻz tarkibiga kiritgan qudratli fors Ahmoniylar davlati, Oʻrta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Koreya va Janubiy-Sharqiy Osiyo hududlaridir.

Insoniyat tarixi ibtidoiy jamoadan sivilizatsiyaga oʻtishi shaharlarning paydo boʻlishi, ularning davlat hokimiyati va diniy markaz sifatida shakllanishi ibodatxona va saroylar qurilishi, yozuvning va shuningdek, jamiyatda turli sinflar va davlatchilikning paydo boʻlishi bilan boshlanadi. Qadimgi

sivilizatsiyalar davri, yuqorida ta’kidlangandek, qadimgi dunyo tarixi fani tomonidan o‘rganiladi. Tabiiyki, sivilizatsiyalar tarixi qadimgi sharqda eramizdan avvalgi IV ming yilliklardan jamiyatning taraqqiyoti natijasida turli ijtimoiy qatlamlarning paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi turli geografik hududlarda turli davrlarda tugallandi. Jumladan, Old Osiyoda Qadimgi Sharq tarixi Makedoniyalik Iskandarning yurishlari (er. avv. IV asr) bilan tugallandi. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uchun eramizning I ming yilligining II yarmigacha davom etdi.

Asosan bu hudud subtropik iqlimli, juda issiq va quruq yozi, yumshoq qishi bilan ko‘zga tashlanadi. Qadimgi Sharq xalqlarining sivilizatsiyalari asosan buyuk daryolar: Nil, Dajla va Frot, Hind, Gang, Xuanxe, Yanszi, Amudaryo kabi havzalarning unumdor vodiylarida sun`iy sug‘orishga asoslangan xo‘jalik hayotining samarali rivojlanishi bilan ajralib turadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi jahon xalqlari taraqqiyotining keyingi rivojlanishiga samarali ta`sir ko‘rsatadi va uning poydevori hisoblanadi.

Vujudga kelgan ilk sivilizatsiyalar katta daryolar vodiylarida Sharq (Misr, Ikki daryo oralig‘i, Eron, O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoy hududlari) kabi davlatlarga qaratiladi. Tog‘li mamlakatlar (Kichik Osiyo, Suriya, Falastin) uchun geografik, iqlim sharoitlari jamiyat va davlat taraqqiyotiga o‘z ta`sirini o‘tkazdi.

Dasht yerlarda, cho‘l sharoitida o‘ziga xos xo‘jaliklar tarkib topgan. Ularda ko‘chmanchi chorvachilik ustunlik qilgan. Qadimgi Sharq xalqlarining tarixini er. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Nil va Frot vodiylarida ilk davlatlar va jamiyatlar paydo bo‘lishidan boshlab o‘rganish qabul qilingan. Qadimgi Sharq tarixining so‘nggi davri makedoniyalik Iskandarning Yaqin Sharq, Eron tog‘ligi, O‘rta Osiyoning janubiy qismi va Hindiston shimoliy-g‘arbiy qismining er. avv. IV asrning 30-20-yillaridagi istilolari bilan tugaydi. Iskandar yurishlari bilan Ellin davlatlari vujudga keldi. O‘rta Osiyo, Hindiston va Uzoq Sharq mamlakatlari tarixida antik davr eramizning III-V asrlarigacha, qaysiki, bu hududlarda antik ishlab chiqarish munosabatlari yemirilgan vaqtgacha o‘rnatiladi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi insoniyat tarixining keyingi barcha bosqichlari uchun ibtido bo'lib xizmat qildi va uzoq vaqt o'z hayotbaxsh ta`sirini o'tkazib keldi. U yuzlab etnik birliklarning gullab-yashnashiga sabab bo'lgan umumiy asoslarni yaratdi, insoniyat tarixini yaxlitligi, bir butunligi va o'ziga xosligini aks ettirdi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tarixi bu insoniyat tarixida ilk davlat va jamiyatning paydo bo'lishi, bu sivilizatsiyalarning yutuqlari boshqa xalqlarning, Yevropa sivilizatsiyasining ilk episentrlari- Qadimgi Yunon va Rim davlati va jamiyatlarini paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratdi. Ayniqsa, qadimgi Sharq yozuvi, madaniyati va davlatchiligi yutuqlari yunon–rim sivilizatsiyasini oyoqqa turishida ustuvor ahamiyat kasb etdi. Qadimgi Yunon va Rim jamiyatlarining rivoj asoslari sharq sivilizatsiyasiga borib taqaladi. Bu jamiyatlar qadimgi sharq sivilizatsiyasining ulkan yutuqlarini o'zlashtirgan holda va o'zlarining butun taraqqiyoti davomida doimo orqaga Sharqqa qaragan holda harakat qildilar. Ilk yunon madaniyatida, qadimgi rimdagi ilk etrusk davlatchiligida qadimgi sharq an'analari yaqqol o'z ifodasini topdi.

Yunon-shahar davlatlarida tiranlar, oligarxiya o'z hukmronliklarida, rim imperiyasi davrida imperatorlar sharq boshqaruv tizimidan namuna oldilar.

Qadimgi Sharq tarixini davrlashtirish masalasi. Bizning zamonamizdan farqli oʻlaroq, Qadimgi Sharqning hech bir davlatida vaqtni hisoblash va voqealarni aniq qayd etishdan boshlash mumkin boʻlgan yagona sana mavjud boʻlmagan. Koʻp hollarda muhim voqealarga tayangan holda diniy kitoblarga tayanib yillar aniqlangan. Masalan Rim shahriga asos solinishi, Olimpiada oʻyinlarining oʻtkazilishi boshlanishi bilan bogʻliq sanalar Isus Masih tugʻilgan yildan oldingi voqealar sifatida koʻrilgan. Qadimgi Sharqning ayrim mamlakatlarida ma'lum davrlar uning tarixining keyingi bosqichlaridagina joriy qilingan. Bevosita qadimiy davr xronologiyasini oʻrgangan olimlar fikricha, oʻsha davr muhitida yuz berayotgan voqealarni oʻz vaqtida aniq qayd etish, sanalari va yillarini koʻrsatish ular uchun qiziq boʻlmagan. Shuning uchun ham koʻpgina qadimiy Sharq hujjatlari, materiallar va asarlarning sanasi yo koʻrsatilmagan yoki ularning daxllanishi ma'lum voqealar bilan bogʻliq. Shunday qilib, qadimgi Sharq tarixidagi koʻplab voqealarning aniq sanalarini aniqlash juda qiyin va bu masala xaligacha arxeolog va tarixchi olimlar uchun bahs-munozaralar mavzusi boʻlib kelmoqda.

Qadimgi Sharqning ba'zi mamlakatlarida ketma-ket sulolalar va podshohlarning roʻyxati (masalan, Misr va Ossuriyada) yoki maxsus amaldorlar roʻyxati (Ossuriyada har yili "limmu" oʻzgarib turadi) tuzilgan, ularga ya'ni hokimiyatda oʻtirgan hukmdorga koʻra tarixiy voqealar sanasi berilgan[1]. Boshqa tomondan, Qirollik yozuvlari va yilnomalari bizga oʻzgarishlar, kamchiliklar bilan yetib kelgan. Ammo davom etayotgan izlanishlar va bahs munozaralarga qaramay, eramizdan avvalgi II-IV ming yillarga tegishli davlatchilik tarixi, qazishlar natijasida topilgan moddiy ashyolar va ularni turli kimyoviy tajribalar asosida oʻrganish vositasida ancha aniq vaqtlarini koʻrsatib berishga xizmat qilmoqda.

Qadimgi Sharq tarixshunosligi va uning asosiy yoʻnalishlari. Qadimgi Sharq tarixi tarixshunosligi oʻzining oʻrganilishi va tadqiqot xususiyatlariga koʻra bir nechta bosqichlarga va yoʻnalishlarga boʻlinadi. Ushbu xususiyatlar jahon

[1] Захаров, А.О. История Древнего Востока. М.: НОЧУ ВПО «Институт стран Востока», Институт востоковедения РАН, 2016. – С. 28.

tarixi fani va jamoatchilik fikrining umumiy darajasi, mavjud manbalar hajmi va manbashunoslik holati, ilmiy xodimlarning mavjudligi va har bir davrda tarix fanining ushbu sohasini rivojlantirishdagi asosiy vazifalar bilan belgilanadi.

Qadimgi Sharq tarixshunosligining birinchi bosqichi XIX asrning 80-yillarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu qadimgi Sharq tarixshunosligining dastlabki qadamlari, qadimgi Sharq jamiyatlarini o‘rganishga dastlabki yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Masalan Qadimgi Hindiston tarixini tadqiq etgan, Sanskrit va qadimgi fors tillarining yunon va lotin tillari bilan aloqasi haqidagi gipotezani

asoslab bergan, qadimgi Hind adabiyotining ko‘plab yodgorliklarini, jumladan, eng qadimiy – Veda adabiyotlarini nashr etgan va Yevropa tillariga tarjima qilgan. Jons va F. Bopp faoliyati bilan bog‘liq hisoblanadi.

XIX asrning 20-yillaridan boshlab, fransiyalik tadqiqotchi, Grenobl universiteti professori Jak Fransua Shampollon tomonidan qadimgi Misr ierogliflarini o‘qishga qaratilgan dastlabki muvaffaqiyatli tajribalardan so‘ng, Bobil mixxat yozuvini o‘rganish va uni o‘qish borasidagi tadqiqotlar ham jadallashdi. Bu jarayonda ingliz tadqiqotchisi Genri Raulinsonning ilmiy xizmatlari alohida ahamiyat kasb etdi. Qazishmalar natijasida, ayniqsa Nil vodiysi va Mesopotamiyada ko‘plab shaharlar, aholi punktlari va ibodatxonalar hamda ko‘plab yozma materiallar topildi. Birinchi davr faktik materiallarni to‘plash davri bo‘ldi. Izlanishlar natijasida birinchi navbatda qadimgi Misr, qadimgi Bobil (va Ossuriya) va qadimgi hindlar haqidagi hayratlanarli ma’lumotlar aniqlanib, Yevropalik tadqiqotchilar oldida qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining yorqin ufqlari paydo bo‘la boshladi[2].

Qadimgi Sharq tarixini tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishning ikkinchi bosqichi XIX asrning 80-yillaridan Birinchi jahon urushi boshlanguniga qadar davom etdi. Mazkur bosqich eng samarali davrlardan biri bo‘lib, unda qadimgi Sharq tarixshunosligining klassik shakllanishi yakuniga yetdi. Bu, birinchi navbatda, Yevropa jamiyati va Yevropa davlatlarining qadimgi Sharq tarixini o‘rganishga bo‘lgan katta qiziqishi bilan

[2] Кузищин В.И. История древнего Востока. М., «Высшая школа». 2003. – С.34.

ajralib turardi, xususan, aynan shu davrda asosiy mustamlakachilik imperiyalari – ingliz, fransuz va nemislar faoliyati bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Aynan ushbu imperiyalar birinchi navbatda o‘z manfaatlari, metropoliya mamuriyati ehtiyojlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda qaram xalqlarning, jumladan, O‘rta va Uzoq Sharq xalqlarining urf-odatlari, an’analari, tarixi va insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasini tadqiq etishgan.

Angliya, Fransiya, Germaniya, so‘ngra AQSh hukumatlari Sharq mamlakatlari tarixini o‘rganish, ilmiy ishlanmalarni yaratish, arxeologik qazish ishlari uchun katta moliyaviy va moddiy resurslarni ajratishni boshladi. Qadimgi Sharq tarixshunosligi sohasidagi taniqli olimlarning katta guruhi paydo bo‘ldi: G. Maspero, Yed. Meyer, F. Petri, B. A. To‘raev, G. Vinkler, De Morgan, L. Vulli, J. Marshall, V. Smit, A. Masperov va boshqalar. Yevropa universitetlarida Sharqning qadimiy tarixini o‘rganish va bu sohada kadrlar tayyorlash tobora muhim o‘rin tuta boshladi. Qadimgi Sharq tarixining ilmiy rivojlanishi jarayonida ushbu davrda yangi, yanada takomillashgan tadqiqot usullari ishlab chiqildi. Bu davrda antik va o‘rta asrlarda shakllangan barcha mavjud tadqiqot yondashuvlari hamda texnikalarini o‘zida mujassam etgan yirik ilmiy majmuaning vujudga kelishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, mazkur davr qadimgi Sharq tarixshunosligining yana bir muhim xususiyati sifatida keng hududlarda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi, qazib olingan materiallarni tizimli qayta ishlash va saqlash, shuningdek, nafaqat monumental inshootlar, balki yuksak san’at asarlari hamda yozma yodgorliklarni o‘rganishga qaratilgan ilg‘or usullarning joriy etilishi bilan ajralib turadi.

Qohira, Berlin, London, Sankt-Peterburg va boshqa shaharlarda Sharq antikvarlarining boy to‘plamlari mavjud bo‘lib, ular diqqat bilan o‘rganilgan.

Keng manbalar bazasi, manbaviy tadqiqot usullarini takomillashtirish va mutaxassislar tomonidan falsafiy tushunchalarni, asosan pozitivizmni ishlab chiqish asosida fundamental tadqiqotlar tarixiy mavzularda va birinchi navbatda diniy, madaniy va siyosiy mavzularda olib boriladi.

Bu davrda G. Masperoning “Sharq xalqlari klassik tarixi” (1895-1899, I-III jild), Ed. Meyer tomonidan “Antik davr tarixi”. (1884-1910, I-V jild), B. A. To‘raev tomonidan “Qadimgi Sharq tarixi”(1912-1913, I-II jild.) Shuningdek, qadimgi Sharqning alohida mintaqalari bo‘yicha: F. Petrining “Misr tarixi qadim davrlardan buyon” (1894-1905, I-III jild.), D. Brasted tomonidan “Misr tarixi” (1905, vol. I-II jild.),) va uning “Qadimgi Misr yodgorliklari” (1906-1907, I-V jild.), “Bobil madaniyati va uning insoniyatning madaniy rivojlanishi bilan aloqasi” G. Vinkler (1903), L. Kingning “Bobil tarixi” (1915) va “Shumer va Akkad tarixi” (1916), V. Smitning “Hindistonning ilk tarixi” (1904), T. Ris Devidning “Buddaviy Hindiston” (1903). kabi klassik asarlar yaratildi. Bu asarlar qadimgi Sharq davlatlarining haqiqiy tarixini yaratilishiga, shu bilan birga keyingi avlod olimlari faoliyat yuritadigan faktik va kontseptual fikrlarga asoslangan tarixga asos soladi.

Qadimgi Sharq tarixshunosligining uchinchi bosqichi urushlararo davrga ya’ni XX-asrning 10-yillari oxiridan 30-yillari oxirigacha bo‘lgan davrga to‘g'ri keladi. Bu davrda jahon tarix fani va ijtimoiy tafakkurida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu holat SSSR davlatining shakllanishi va kommunistik mafkuraning qaror topishi, Italiyada fashizm, Germaniyada esa natsizmning hokimiyatga kelishi bilan izohlanadi. Natijada avval yagona bo‘lgan tarixshunoslik oqimi bir necha yo‘nalishlarga bo‘linib ketdi. Mazkur jarayonda qadimgi mamlakatlar tarixini o‘rganish turli nazariy va mafkuraviy pozitsiyalardan olib borildi: an’anaviy yo‘nalish — avvalgi tarixshunoslikning eng ilg‘or ilmiy an’analarini davom ettirgan yondashuv; sovet yo‘nalishi — SSSRda shakllangan marksistik metodologiyaga asoslangan qarashlar; irqchilikka moyil yo‘nalish esa asosan ayrim nemis va italyan olimlari faoliyatida namoyon bo‘ldi. Ushbu yo‘nalishlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar keskin, asosan siyosiylashgan tusda kechib, unda qarama-qarshi tomonlar ko‘pincha obyektiv tarixiy haqiqatni aniqlashdan ko‘ra, mafkuraviy raqib qiyofasini shakllantirishga intildilar. Bu holat, tabiiyki, tarixiy jarayonlarning biryoqlama va buzib talqin qilinishiga olib keldi.

An’anaviy yo‘nalish nisbatan kam siyosiylashtirilgan bo‘lib, shu sababli ilmiy tadqiqotlar uchun yanada samarali hisoblandi. Keng hududlarda olib borilgan yirik miqyosdagi arxeologik qazishmalar natijasida Xett jamiyati, Urartu davlati, Misr tarixining eng qadimgi bosqichi (miloddan avvalgi IV–III ming yilliklar) kabi yirik davlat va sivilizatsiyalar tarixiga oid muhim manbalar aniqlandi. Shuningdek, Mesopotamiyada (L. Vullining qazishmalari), Hindistonda esa Mohenjo-Daro va Xarappa markazlari orqali insoniyat tarixidagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri kashf etildi.

Turli toifadagi manbalarning umumiy soni keskin ko‘paydi, shu jumladan, ilgari tushunish qiyin bo‘lgan ko‘plab matnlarning deshifrovkasi (masalan, qadimgi shumer).

Qadimgi Sharq tarixshunosligining an’anaviy maktabiga xos muhim jihatlardan biri Osvald Shpengler tomonidan “Yevropaning tanazzuli” asarida (1922) umumiy tarzda bayon etilgan jahon sivilizatsiyalari konsepsiyasi doirasida qadimgi Sharq madaniyatlarining tarixiy rolini qayta baholashdan iborat edi. Ushbu g‘oyalar keyinchalik ingliz tarixchisi va faylasufi Arnold Jozef Toynbi (1889–1975) tomonidan mukammal ilmiy nazariya darajasiga ko‘tarildi. Xususan, uning “Tarix tadqiqoti” (“A Study of History”) nomli fundamental asarida (I–X jildlar, urushgacha bo‘lgan davrda dastlabki to‘rt jildi nashr etilgan) mazkur yondashuv tizimli ravishda ishlab chiqildi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, Qadimgi Sharq bir necha mustaqil sivilizatsiyalar shakllangan mintaqa sifatida e’tirof etilib, ular murakkab va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Jumladan, qadimgi Misr, Bobil, Yahudiy, Eron, Hindiston hamda Uzoq Sharq sivilizatsiyalari shular jumlasidandir.

Toynbi nazariyasining asosiy pozitsiyasi barcha qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan G‘arb sivilizatsiyalarining tarixiy jihatdan tengligi haqidagi tezisga asoslangan edi. Bu yondashuv G‘arb va Sharq o‘rtasida tub, murosasiz qarama-qarshiliklar mavjudligi hamda G‘arb sivilizatsiyasining “abadiy ustunligi” haqidagi Gegel davridan beri hukmron bo‘lib kelgan konsepsiyaga jiddiy zarba berdi. Mustamlakachilik tizimining chuqur inqirozga yuz tutishi, shuningdek, son jihatidan kam bo‘lsa-da, professional

tarixchi mutaxassislarning yetishib chiqishi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida milliy ongning kuchayishiga hamda ozodlik harakatlarining faollashuviga xizmat qildi. Bu jarayon, shubhasiz, milliy tarixga, uning kelib chiqishi va rivojlanish manbalariga bo‘lgan chuqur ilmiy qiziqishning uyg‘onishiga zamin yaratdi.

Biroq ularning aksariyati, xoh misrlik, xoh hind, xoh xitoylik bo‘lsin, qoida tariqasida, yevropalik mutaxassislarning talabalari bo‘lib, Yevropa universitetlarida ta’lim olgan va Yevropa tarixiy maktabi asosida ishlagan. Milliy tarixshunoslik an’analari endigina vujudga kela boshlagan edi.

Ikkinchi jahon urushi Qadimgi Sharq tarixi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni to‘xtatdi. Uning tugashi bilan dunyoda va ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix fanining rivojlanishida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qadimgi Sharq tarixshunosligi taraqqiyotining to‘rtinchi bosqichi boshlandi. Jahon mustamlakachilik tizimi yemirilib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida mustaqil suveren davlatlar vujudga keldi. Milliy o‘z-o‘zini anglashning kuchli portlashi yangi xalqlar va ularning sivilizatsiyalarining madaniy va ma’naviy rivojlanishini tezlashtira olmadi. Tarixshunoslikning yana bir xususiyati Kichik Osiyo va Shimoliy Mesopotamiya, Xitoy va Hindu-Xitoydagi yirik arxeologik kashfiyotlar tufayli qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining tarixdan oldingi yoki prototarix ildizlariga qiziqishning ortishi edi. Buning sharofati bilan ularning tarixiy rivojlanishining uzoq davrlarini o‘rganish va uning jarayonini qayta tiklash mumkin bo‘ldi. Urushdan keyingi davrda Yevropada ham, milliy maktablarda ham (masalan, Hindiston, Xitoy) ilmiy fikrning yanada rivojlanishi Qadimgi Sharq jamiyatlari va madaniyatlarining Yevropanikiga nisbatan chuqur o‘ziga xosligini ochib berishga imkon berdi. 1960-yillarda ilmiy yevrosentrizm deb аталган yondashuvga nisbatan kuchaygan tanqidlar Osiyo ishlab chiqarish usuli masalasi yuzasidan qizg‘in ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Dastlabki qarashda ushbu munozaralar aniq va yakuniy tarixiy xulosalarga olib kelmagandek tuyulsa-da, ular Qadimgi Sharq muammosini jahon ilm-fani taraqqiyoti doirasida qayta anglashda muhim bosqich vazifasini bajardi. Natijada, taniqli rus sinologi N. I. Konrad tomonidan ilgari

surilgan ilmiy yevrosentrizm tushunchasi to‘liq bo‘lmasa-da, sezilarli darajada yengib o‘tildi.

An’anaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan ushbu munozaralarning asosiy natijasi Arnold Toynbi tomonidan ishlab chiqilgan sivilizatsiyalar nazariyasini jiddiy qayta ko‘rib chiqish, ayrim jihatlarini esa rad etish zarurati bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu bilan birga, Toynbi konsepsiyasi va nazariy plyuralizmning imkoniyat hamda chegaralarini belgilab beruvchi yangi nazariy yondashuvlar vujudga keldi. Zamonaviy Qadimgi Sharq tarixshunosligida esa ushbu sivilizatsiyaga nisbatan gumanistik va liberal yondashuvlar tobora kengroq e’tirof etilmoqda. Bu tendensiyalar Qadimgi Sharq sivilizatsiyasini keyingi tarixiy jarayonga nisbatan mavhum va neytral hodisa sifatida emas, balki zamonaviy dunyo sivilizatsiyasining muhim asoslaridan biri bo‘lgan yaxlit va faol tarixiy hodisa sifatida talqin etishga yo‘naltirilgan

Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi. Jahon tarixida ro‘y bergan barcha jarayonlarni, uning alohida tomonlarini yoki bosqichlarini o‘rganishni manbashunoslik yordamisiz amalga oshirish mumkin emas. Manbalarni to‘plash, tanlash va tanqid qilish - tarixiy bilimning asosidir. Ushbu qoida jahon tarixining barcha bo‘limlari, shu jumladan Qadimgi Sharq mamlakatlari tarixi uchun tegishlidir.

Qadimgi Sharq mamlakatlari tarixi tarixshunoslikning nisbatan yosh sohasi hisoblanadi. Bu XIX-asrning asosi - qadimgi Sharq yozuvining murakkab tizimlarini ochish asri, qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ko‘plab markazlarining yorqin arxeologik kashfiyotlar asridir.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining jahon tarixshunosligiga nisbatan kechroq kiritilishi, murakkab yozuv tizimlarining shifrini ochishdagi qiyinchiliklar (Misr iyeroglifi, Bobil mixxati), o‘z o‘rnida manbalarni o‘qish madaniyatining rivojlanmaganligi sababli faktik manbalarning keskin ortib borishi qadimiy tarixshunoslikning manba tahlilida ma’lum bir orqada qolishga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy manbashunoslikning markaziy muammolaridan biri manbada sub'ektiv prinsipning roli va shuning uchun kengroq

ma’noda manbaning ishonchliligi muammosidir. Manbadagi sub'ektivlik ko‘p shakllarda namoyon bo‘ladi: yaratuvchining o‘ziga xos tasvirlari, so‘zlari, harakatlari, faqat unga xos bo‘lgan tajribasi, kasbiy tayyorgarlik darajasi, atrof-muhitning ta’siri. Bu ayniqsa, yozuvchining asarlarida yaqqol seziladi. Masalan, Gerodot o‘zining “Tarix” kitobida Misr haqida yozganlari Manofen[3]ning “Misr tarixi” asarida yoki Knidlik Ktesiyaning “Fors tarixi”ga oid yozganlaridan, Sima Syanning “Tarixiy yilnomalar” nomli buyuk asari Ban Guning “Xan dinastiyasi” yilnomasidan yoki Polibiy asaridan mavjud farqlarni angalash qiyin emas. Hattoki, o‘zi tirikligdayoq “tarix fani otasi[4]” nomini olgan Geradot o‘zining qariyb 20 yillik sayohatlari natijasida yozgan “Tarix” asari va undagi ma’lumotlar haqida “Men eshitganlarimni yozishga majburman, ammo ishonishga majbur emasman” deya bejizga ta’kidlamagan edi.

Qadimgi Sharq adabiyotini o‘rganish Qadimgi Sharqda (Qadimgi Xitoydan tashqari) tarixiy hikoya janrining sust rivojlanganligini ko‘rsatadi. Qadimgi Misr yoki Mesopotamiyadagi tarixiy hikoyaning boshlanishi g'alabalar yoki ibodatxonalarga xayr-ehsonlar qayd etilgan qirol yozuvlari ko‘rinishida ataylab an'anaviy uslubda ishlangan. Ya’ni muallif yo‘q, bu esa albatta, real voqealarni to‘liq aks ettirish imkoniyatini bermaydi. Turli xil sub’ektivlik manba turiga va manba tarixiy haqiqatni aks ettiradigan reallikka bog‘liq. “Piramidalar matnlari” yoki “Ipuserning so‘zlari”, “Gilgamish dostoni” yoki “Hammurapi qonunlari”da, payg‘ambarlarning va’zlarida yoki ochlik haqidagi risolalarda bu holatni ko‘rish mumkin. Demak, har qanday manba to‘laqonli haqiqatni aks ettira olmaydi, chunki u, o‘zi yashab turgan muhit va sharoit ta’siridan holi bo‘lmaydi. Shu bilan birga ulardagi ma’lumotlardan o‘sha davrdagi siyosiy boshqaruv, xalqning ijtimoiy ahvoli, qonunlardagi qo‘llangan jazolar va jarimalardan, o‘sha davrdagi umumiy holat haqida ma’lum bir tasavvur olish imkoniyati borligi ham ayni haqiqatdir. Shunday qilib, har bir manbada tarixiy voqelik haqida ma’lum ma’lumotlar

[3] Manofen- Misrlik bo‘lsada asarlarini deyarli grek tilida yozgan.

[4] Ushbu nomni Rim davlati siyosiy arboblaridan Sitseron (mil. avv. 106-43yillar) bergan degan ma’lumotlar ham uchraydi.

mavjud. Bundan tashqari, ushbu ma’lumot uch xil bo‘lishi mumkin: 1) qasddan, ongli ravishda manbaga kiritilgan ma’lumotlar; 2) yaratuvchi taxmin qilmaydigan ma’lumotlar; 3) haqiqiy vaziyatni ongli yoki bexosdan buzish elementlari, ya’ni mohiyatan ma’lumot emas, balki noto‘g‘ri ma’lumotlar.

Qadimgi Sharq manbalarini o‘rganish uchun, masalan, buyuk yunon va rim tarixchilari (Gerodot, Fukidid, Polibiy, Tit Liviy, Tatsit)ni misol qilish mumkin, chunki ular dastlabki materiallarni mohirona va ijodiy qayta ishlagan va ko‘pincha ilk manbalardagi tushunarsiz va tarqoq ma’lumotlarga qaraganda to‘liqroq va ishonchliroq tasvirni berishga harakat qilgan[5]. Ayniqsa, Fukidid o‘zining “Peleponnes urushi” asari orqali tarixda birinchi analitikadan ya’ni taxlil va qiyosiy usullardan unumli foydalangan tarixchi sifatida ta’riflanadi.

Albatta, talabalar manbalar va ulardagi faktlarni tushunishlari va taxlil qila olishlari uchun quyidagi misolni keltirish maqsadga muvofiq.

Misol uchun, Ramzes II sud kotibiga tegishli Kadet jangining mashhur tavsifida barcha uch turdagi ma’lumotlarni aniqlash mumkin: qurshab olingan Misr qo‘shinlarining og‘ir ahvoli, Fir’avn Ramzesning umidsiz yutug‘i, jangda shaxsan ishtirok etishi, misrliklar o‘zlarini tushib qolgan qiyin vaziyatni mohirona yashirish, ko‘p sonli dushmanlarning o‘limi va Fir’avnning g‘alabasi haqida ko‘rsatma shaklida qasddan noto‘g‘ri ma’lumot berilgan. Bundan ko‘rinadiki har qanday manbani solishtirish va qiyoslash orqali o‘rganishgina asl ilmiy haqiqatlarni topishga imkon beradi.

Yozma tarixiy manbalar kishilik jamiyatining ijtimoiy va shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Ular 8 turkumga bo‘linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, toponomik, og‘zaki (folklor), kino, fono, fotomateriallar. Manbalarni turkumlarga bo‘lish, ularning yuzaga kelishi, tadqiq qilish, mualliflarini aniqlash, haqqoniyligi va to‘liqligini belgilash kabi masalalar bilan manbashunoslik fani shug‘ullanadi.

Manbalarni turlarga, guruhlarga ajratish konsepsiyasi bilan bir qatorda, amaliy manbashunoslikda ularni tizimlashtirish ya’ni

[5] Кузищин В.И. История древнего Востока. М., «Высшая школа». 2003. – С. 34-35.

turli xil manbalarning ulkan materiallarini tartibga solish uchun ishlatiladi. Tizimlashtirish ya'ni sistemalashtirish tamoyillari tasniflashning asosiy mezonlaridan farq qiladi, balki manbalarni aniq oʻrganish uchun muhim hisoblanadi.

Masalan, siz manbalarni shu tarzda guruhlashingiz mumkin: qadimgi tarixga oid manbalar va qadimgi Sharq tarixiga oid manbalar. Ushbu keng boʻlinish doirasida manbalar mintaqaviy va xronologik mezonlarga koʻra tizimlashtirilgan, masalan: qadimgi Misr tarixiga oid manbalar, qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid manbalar, Oʻrta Osiyo va Eron tarixiga oid manbalar, kichik Osiyo va Kavkazorti, qadimgi Hindiston va qadimgi Xitoy tarixi. Ushbu mintaqalarga tegishli manbalarni xronologik ravishda birlashtirish mumkin: Misrdagi qadimgi, oʻrta va yangi shohliklar tarixiga oid manbalar va boshqalar. Shunday qilib, manbalarni tasniflash va tizimlashtirish bir-biri bilan chambarchas bogʻliq va bir-birini toʻldiradi.

Qadimgi Sharq aholisi. Qadimgi Sharq tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas, yaxlit bir qismi boʻlib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot qadimgi gʻarb sivilizatsiyasining genezisida namuna boʻlib xizmat qildi. Keyinchalik shakllangan gʻarb sivilizatsiyasi uchun u poydevor, namuna-etalon boʻlib xizmat qildi. Sharq davlat va huquqi, iqtisodiy munosabatlari gʻarb tarixida takrorlandi. Bu dunyo tarixining umumiyligining yaqqol dalilidir.

Qadimgi Sharqning ilk sivilizatsiyalari episentrlari (Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻi, Hindiston, Oʻrta Osiyo, Xitoy, Eron) boshda yopiq rivojlandi. Er.avv. II ming yillikdan boshlab ular oʻrtasida aloqalar oʻrnatildi va madaniyatlar muloqoti boshlandi. Natijada madaniy iqtisodiy va siyosiy aloqalar er.avv. I ming yillikda uzluksiz tusga kirdi. Etnoslarning migratsiyasi toʻlqini er.avv II ming yillik oʻrtalarida butun qadimgi sharq hududlarini qamrab oldi (oriylar) va bu jarayon insoniyat tarixiy taraqqiyotida tub oʻzgarishlarga olib keldi. Bir necha qit`ani qamrab olgan, oʻnlab etnos, elat xalqlarni birlashtirgan ulkan imperiya paydo boʻldi (Ahmoniylar Eroni). Insoniyat tarixida ilk bor uch qit`ani qamrab olgan nisbatan siyosiy barqaror boʻlgan Ahmoniylar davlati va jamiyati uch

qit`ani qamrab oldi. Bu davlat diniy, madaniy tolerantlikning ilk namunasi edi.

Qadimgi Sharq aholisi turli irq va irqiy guruhlarga: yevroosiyo, yevropoid, ekvatorial yoki negroavstroid xalqlar, osiyo-amerika yoki mongoloid irqi (Uzoq Sharqda), negroid irqi (Napate va Meroye hozirgi Sudan) Janubiy Hindiston kabilarga bo‘lingan. Irq etnologiyasi ko‘p sonli xalqlar, qabila va etnik guruhlarga bo‘linadi. U ba’zi hududlarga turli irqiy guruh va guruhchalarga bo‘lingan. Qadimgi Sharqda sekin-asta barqaror yirik til oilalari paydo bo‘ldi. Old Osiyoda ko‘p sonli somiy-homiy yoki afro-osiyo til oilasi somiy shoxchasiga Misr yoki homiy, berber-liviya, kushit va boshqalar kirgan turli xalq va qabilalar yashar edi. Somiy tillarida so‘zlashuvchi xalqlarga akkadlar, amoriylar, oromiylar, osuriylar, xanaanlar, yahudiy, arab va boshqalar kirgan. Somiy tilli xalqlar asosan Mesopotamiya cho‘llari va Arabiston yarimorolida yashar edilar. Misr yoki homiy shoxobchasiga qadimgi Misr aholisi, berber-liviya tillarida so‘zlashuvchi Nil vodiysining g‘arbidagi qabilalar, kushit tillarida Nil daryosining yuqori oqimidagi xalqlar so‘zlashar edilar. Xett-luviya va hind-eronlar hind-yevropa tillari oilasining shoxobchalaridan biri edi. Xett-luviya tillarida xettlar, luviyaliklar, koreyslar va Kichik Osiyoning boshqa kichik qabilalari so‘zlashar edi. Mesopotamiyadagi shumerlar qaysi til oilasiga mansubligi hozirgacha ma`lum emas.

Hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lgan Oriylar er.avv. II ming yillikda qadimgi Sirdaryo va Amudaryo daryolari havzasidan butun Osiyo qit`asiga tarqaldilar. Bir qism oriylar o‘troq, qolgan qismi ko‘chmanchi chorvachilik va ovchilik turmush tarzida edi. Oriylar er.avv. XVIII asrga Misrga, er.avv. XV asrda Hindistongacha etib bordilar. Ularning migratsiyasi dunyo xalqlarining keyingi taraqqiyotida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Oriylarning vorislari buyuk cho‘l-dashtlarni egallagan sak-skiflar edi. Er.avv. II ming yillikdan oriylar Old Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalari o‘choqlariga hujumni boshladilar. Eron, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Misr oriylarning tazyiqiga uchradilar. Hind-Yevropa tillarida midiyaliklar, forslar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar, saklar so‘zlashar edilar. Kichik Osiyoning ba’zi xalqlari hind-yevropa

tillar oilasining frako-frigiya guruhi tillarida soʻzlashar edi. Xurrit tillar oilasi alohida turar edi. Bu oilani xurriylar, urart va protoxettlar tashkil qilgan.

Qadimgi Hindiston aholisi dravid oilasiga mansub boʻlib, ular dravid, gujarat, assam, singal va tamil kabi qadimiy xalqlardan iborat edi. Qadimgi Xitoy qabilalari sino-tibet yoki tibet-xitoy tillar oilasiga kirgan. Shu bilan birga baʼzi tillar, misol uchun, shumerlar, Zagros togʻlarida yashagan lulubeylar biror-bir til oilasiga kirmay alohida turadilar.

Qadimgi Sharqning koʻp sonli etnik guruhlarining muntazam ravishda harbiy-siyosiy, savdo va madaniy aloqalari tufayli, turli etnik guruhlarning aralashib ketishiga va yanada murakkab etnik birliklarning paydo boʻlishiga olib keldi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasini yaratishda turli xalqlar, etnik guruhlar turli davrlarda faol ishtirok etdilar.

Eng qadimgi zamonlarda Kichik Osiyo yassi togʻligida yashagan qabilalarni fanda protexettlar deb atash rasm boʻlgan. Protexettlar va ularga til jihatidan yaqin turgan palaylar Old Osiyoning boshqa eng qadimgi qabilalariga qarindosh boʻlgan boʻlishi ham mumkin. Bu qabilalarni hozirgi zamon tadqiqotchilari «azianik» qabilalari deb ataydilar. Kichik Osiyodan topilgan qadimgi yozuvlarni oʻrganish shuni koʻrsatdiki, yagona xett xalqi maydonga kelishidan oldin, kichik dialekt (sheva)lar hamda qabilaviy tillarda soʻzlashgan qabilalardan iborat boʻlgan. Eramizdan avvalgi II ming yillikda Xett davlatining paydo boʻlishi arafasida Kichik Osiyoda yashagan eng qadimgi aholi orasida eng keng tarqalgan til protexett tili boʻlgan.

Kichik Osiyo va Shimoliy Suriya hududlarida eramizdan avvalgi II ming yillikda nesiylar deb atalgan qabilalar mavjud boʻlgan (Nesiy degan nom Galis daryosining janubida joylashgan Nesiy yoki Nesha degan mamlakat va shaharning nomidan olingan). Nesiylar protoxett qabilalaridan til jihatdan farq qilganlar. Chex olimi B.Grozniy oʻzining tadqiqotlarida koʻrsatishicha, nesiylar tili hind-yevropa guruhidagi xalqlar tillariga juda yaqin boʻlgan. Soʻnggi xett (nesiy) tilidagi bir qator soʻzlarni yunon, lotin, qadimgi hind va qadimgi slavyan tillaridagi ayni maʼnoli soʻzlar bilan solishtirsa boʻladi. Masalan, xett

olmoshlari “quis”, “quit” va lotin olmoshlari “quis”, “quid” (kim, nima), xett olmoshi “ug” va yunon olmoshi “men” kabilar shunday bir-biriga oʻxshashdir. Bundan tashqari, ot va fe’l shakllarida, xususan, sifatdoshlarning turlanishida ham oʻxshashlik borligi aniqlangan.

Til jihatidan boʻlgan shu yaqinlikka asoslanib, tarixchilar, Xett davlati Yevropadan Kichik Osiyoga koʻchib kelgan istilochi qabilalar tomonidan tuzilgan deb isbotlashga intilganlar. Xett tili va etnosi turli tillarda: protoxett, palay, luviya, nesiy tillarida soʻzlashgan va bir-biri bilan aralashib ketgan qabilalar guruhlari tomonidan bir necha asrlar davomida shakllangani tarixiy tadqiqotlarning natijasida ilmiy asoslab berilgan.

Oʻrta Osiyo antropogenez jarayoni sodir boʻlgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu hududda yashagan xalqlarda mongoloid belgilar ustivor boʻladi. Ular arxeologik, etnografik, lingvistik manbalarda hamda antik yozuvchilar asarlarida e`tirof etilgan sak-massagetlar, usun, soʻgʻd, xorazm, baqtr, fargʻonlar (fargʻonaliklar) edi. Strabon xorazmiylarni sak-massagetlar turkumiga kiritib, ularni soʻgʻd va baqtrlar turmush tarzi va xulq-atvorida farq yoʻq deb ta`kidlaydi.

XX asrning soʻnggi choragidagi tadqiqotchilar xulosasiga koʻra, jez davrida Oʻrta Osiyoning janubiy hududlarida baland boʻyli, boshi choʻzinchoq, yuzi tor irq (yevropoid) vakillari yashagan. Shimoliy dasht-choʻl hududlarida boshi dumaloq, yuzi kengroq va uncha choʻziq boʻlmagan etnoslar mavjud boʻlgan. Janubdagi etnoslar Oʻrtayer dengizi irqiga mansub deyiladi. Ular Old Osiyo, Hindistongacha boʻlgan hududlarda tarqaladi. Shimoliy qiyofadagi odamlar Sibir, Oltoy, Oʻrta Osiyo, Ural, Volga hududlarini qamrab oladi. Osiyo va Yevropaning bepoyon choʻl-dasht va tog‘oldi hududlarini egallagan sak-skif qabilalari hind-yevropa tillar oilasiga mansub deb hisoblanadi. Ular er.avv. III ming yillikdan Osiyoning barcha hududlariga tarqala boshladilar. Oʻsha vaqtning katta davlatlari Misr, Bobil, Ossuriya va Xett davlatlari ularning tazyiqiga uchradi. Sak-skiflar Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i, Oltoy, janubiy Sibir, toki shimoliy Xitoygacha boʻlgan hududlardan Old Osiyo, Yevropa, va Janubiy Osiyo tomon

siljidilar. Bu siljish er.avv. III ming yillikdan boshlanib to eramizning VI asrigacha davom etdi.

Jez davrida O‘rta Osiyodagi janubiy va shimoliy etnoslarning assimilyatsiyasi natijasida hududda jez davri va undan keyingi davrlarda yashagan O‘rta Osiyoning qadimgi etnoslari (sak-massagetlar, xorazmliklar, farg‘onaliklar, baqtriyaliklar, so‘g‘dlar, parfiyaliklar)ga asos solinadi. Sak-massagetlar, xorazmliklar, farg‘onaliklar, baqtriyaliklarning ajdodlari janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar bo‘lgan.

Qadimgi Sharq jamiyati va davlatchiligi. Qadimgi Sharq jamiyatlari uzoq davom etgan notekis tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdilar. Ba’zi Qadimgi Sharq mamlakatlari yuksak ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasiga erishdilar (Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Finikiya, Kichik Osiyo, Qadimgi Hindiston va Xitoy, Eron hamda O‘rta Osiyo). Bu hududlarda yuksak rivojlangan madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlar shakllandi va qo‘shni mamlakatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Er. avv. IV-III ming yilliklarda Qadimgi Sharqning turli sivilizatsiya markazlari (Misr, Mesopotamiya, Hindiston) nisbatan yopiq rivojlandi. Er. avv. II ming yillikning o‘rtalaridan Yaqin Sharqning turli hududlari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Er. avv. I ming yillikda esa, bu aloqalar yanada kuchaydi va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida Sharq madaniyatlari boyidi. Shu tarzda, Qadimgi Sharq dunyosining yaxlitligi amalga oshdi.

Qadimgi Sharq tarixini o‘rganishda yozma manbalarning ayrim uzuq-yuluq parchalar shaklida etib kelishi va ularni tarixiy sharhlashning murakkabligi katta qiyinchilik tug‘dirdi. Yirik sharqshunos olimlar G.Maspero, Ed. Meyer, B.A.Turayev va Kembrij qadimgi tarixi mualliflari qadimgi Sharq mamlakatlarining siyosiy, madaniy va diniy tarixi bo‘yicha noyob asarlar yaratdilar. G‘arbning ba’zi sharqshunoslari Qadimgi Sharq jamiyatining feodal tuzumga ega ekanligi tushunchasini ilgari surdilar.

Qadimgi Sharq jamiyatida ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar, urf-odat, an’analar va qonunlar asosida tartibga solindi (misol uchun: Bobil, Hindiston). XX asr boshlarida topilgan

qadimgi Bobil podshosi Hammurapining qonunlar to‘plamida va yanada ozroq topilgan Xett qonunlarida aholi, birinchi navbatda, erkin odamlarga va qullarga bo‘linadi.

Qadimgi sharq jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi qanday edi? Podsho boshliq oliy tabaqa-oliy amaldorlar, oqsuyak-zodagonlar, jamoachi dehqonlar, hunarmand-savdogarlar, qullar, kohinlar tabaqasidan iborat edi. Jamiyatning o‘zagi qishloq jamoasi, iqtisodiyotning asosi dehqonchilik edi.

Qullarning erkin odamlardan son jihatidan ustunligini quldorlikning asosiy belgisi deb hisoblash aslo mumkin emas. Qadimgi Sharq podsholarining, shuningdek, ibodatxonalar va akobir-a’yonlarining yer-mulklarida qul mehnatidan foydalanilgan. Butun boshli mamlakat miqyosida qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarining eng ko‘p qismi erkin mayda ishlab chiqaruvchilar tomonidan etishtirilgan. Davlat va ibodatxona yerlari jamoachilarga ijaraga berilgan

Sharqda quldorlik tuzumi Yevropadagiga qaraganda, oldinroq vujudga kelgani sababli, qadimgi Sharqda bu tuzum o‘ziga xos shakl kasb etgan. Xuddi shu xususiyat sharqshunos olimlarning Yevropadan farq qilgan holda Osiyo ishlab chiqarish usuli tushunchasini shakllantirishlariga asos bo‘ldi. Mazkur ishlab chiqarish usulining o‘ziga xos xususiyati yerga jamoaning egaligidir. Osiyo ishlab chiqarish usuli haqidagi masala murakkab va munozarali masaladir. Bu mavzudagi munozarani hali tugagan deb hisoblab bo‘lmaydi. Lekin Osiyocha ishlab chiqarish usuliga[6] asoslangan o‘ziga xos jamiyat (ba’zan uni hatto mahalliy emas, balki universal jamiyat deb e’tirof qiladilar) bo‘lmaganligi borgan sari ko‘proq ma’lum bo‘lib qolmoqda. Barcha ma’lumotlarga ko‘ra, Osiyo ishlab chiqarish usulini quldorlik jamiyatining mahalliy ko‘rinishi deb tushunish mumkin. Chunki bu yerda, Sharqda quldorlik asta-sekinlik bilan rivojlana borgan. Sug‘orma dehqonchilik ibtidoiy mehnat qurollari, ibtidoiy texnologiya asosida tashkil etildi, ular uzoq asrlar davomida o‘zgarmay qoldi.

[6] Bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tarixiy konsepsiyasi bo‘lib, asosan Qadimgi Sharq jamiyatlariga xos xo‘jalik va ijtimoiy munosabatlarni tushuntirish uchun qo‘llaniladi. Yer xususiy mulk hisoblanmaydi, u davlat yoki jamoa tasarrufida bo‘ladi.

Qadimgi Sharq davlatchiligi harbiy demokratik an’analarini asta-sekin tugatgan holda uzoq davom etgan jarayonda shakllandi. Harbiy boshliq qabila yo‘lboshchisining hokimiyati asta-sekin u yoki bu shakldagi mutloq hokimiyatga aylandi. Qadimgi Sharq mutloq hokimiyatining o‘ziga xos xususiyati davlat boshlig‘i hukmdorning alohida mavqei edi. Podsho sud, ijroiya va qonunchilik hokimiyatini o‘z qo‘lida to‘plagan bo‘lib, shu bilan birga, u eng oliy odam, xudolarning noibi, ularning avlodi yoki xudolardan biri hisoblangan. Mutloq hokimiyat turli mamlakatlarda turli darajada edi. Uning to‘liq ko‘rinishini Qadimgi Misrda, Eron va Xitoyda, cheklangan ko‘rinishini esa, Xett davlati podshosi misolida ko‘rish mumkin. Iqtisodiyot sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik bilan bog‘liq edi. Xo‘jalik hayotini yo‘lga qo‘yish uchun ko‘p sonli jamoalarni birlashtirish va yo‘naltirish zarurati Qadimgi Sharqda davlat hokimiyati rolini o‘sishga yordam berdi va cheklanmagan monarxiya shaklida o‘ziga xos hokimiyatning yaratilishiga olib keldi. Davlat hokimiyatining xo‘jalik hayotiga faol aralashuvi ko‘p sonli ma’muriy boshqaruv apparatini vujudga keltirdi.

Qadimgi Sharqda hukmron qatlamning o‘ziga xos xususiyati uning davlat apparati bilan yaqin aloqasi edi. Bunday ijtimoiy tabaqalanish ziddiyatli bo‘lib, doimiy ravishda jamiyatda norozilikni, turli g‘alayonlarni vujudga keltirar edi. Qadimgi Sharq mamlakatlari taraqqiyotini qadimgi yunon shahar-davlatlari va qadimgi Rim bilan qiyoslaganda, qadimgi Sharq jamiyati taraqqiyotidagi turg‘unlik, sekin an’anaviy rivojlanish darajasini ko‘rish mumkin. Bu qadimgi Sharq iqtisodiyotining turg‘unlik jihatini, tovar xo‘jaligining zaifligini, texnika va texnologiyaning sekin takomillashganini, mehnat taqsimotining chuqurlashmaganidan dalolat beradi.

Qadimgi Sharqda o‘ziga xos oligarxik respublikalarni Hindiston, Finikiya, Karfagen shahar-davlatlari misolida ko‘rish mumkin. Bu shahar-davlatlarda hokimning vakolatlari shahar kengashi nazorati ostida bo‘lib, cheklangan edi.

G‘arb tarixchilari, qadimgi Sharq davlat hokimiyatini despotiya (“despotes” yunoncha “xo‘jayin”), ya’ni hukmdorning tanho hokimiyatiga asoslangan bo‘lib, g‘arb davlatchiligidan farq

qiladi deb tushuntiradilar. Sharqning koʻpgina mamlakatlarida (Lisr, Bobil, Ossuriya, Xett) davlat hokimiyati podsho qoʻlida toʻplanib, podshoning hokimiyati ilohiy, mutloq, ya'ni cheksiz edi. Ammo podshoning mutlaq hokimiyati Sharqning barcha mamlatlarida tarqalmadi. Koʻpgina hududlarga podsho hokimiyati cheklangan yoki respublika koʻrinishida edi (Ilk shahar-davlatlar, Hindistondagi ba`zi davlatlar). Gʻarbning ayrim hududlarida ham podsho hokimiyati (misol uchun, qadimgi Rim, Makedoniya) cheksiz boʻlib, ular ham ilohiylashtirilgan.

Buyuk daryolar vodiylarida inson yashashi uchun qulay shart-sharoitlarning vujudga kelishi ishlab chiqarish kuchlarining paydo boʻlishiga imkon yaratib, ilk mudofaa inshootlari va shaharlar shakllanishiga olib keldi. Oʻsha davr uchun shahar yangi voqelik edi. Qadimgi Sharq ilk shaharsozlikni boshlab berdi. Ilk saroy, ibodatxona, bozor maydoni, boylarning hashamatli va kambagʻallarning kulbalari, mudofaa devorlari, maktablar, shahar atrofi yer va bogʻlari ilk shaharning asosiy qiyofasi edi.

Shahar boshqaruv va diniy e'tiqod markazi boʻlib qoldi. Shaharlarda hunarmandchilik ishlab-chiqarishi shakllandi. Shahar savdo markazi vazifasini bajardi. Ishlab chiqaruvchi xoʻjalikning vujudga kelishi, sugʻorma dehqonchilik, chorvachilikning rivojlanishi, metallarning oʻzlashtirilishi va shaharlarning paydo boʻlishi qadimgi Sharqda insoniyat jamiyatining progressiga sabab boʻldi. Bu jarayon ijtimoiy qatlamlarning paydo boʻlishi va ular oʻrtasidagi munosabatlarning murakkablashuviga olib keldi. Mulkiy tabaqalanish kuchayib ketdi. Yangi ijtimoiy muassasa-qulchilik vujudga keldi.

Qadimgi Sharqda yer egaligi va qulchilik. Qadimgi Sharqda davlat hokimiyati shakllanishi jarayonida yer egaligida jamoa yer egaligidan tashqari, davlat yerlari, ibodatxonalarga qarashli yerlar, xususiy va jamoa yerlari mavjud boʻlgan. Oʻz yeriga ega boʻlgan oddiy jamoachi davlatga soliqlarni toʻlashi va koʻp sonli majburiyatlarni oʻtashi lozim edi. Sugʻorma dehqonchilik juda katta kuch, mehnat talab qilar edi. Oddiy jamoachi yilning ma`lum kunlari, ma`lum muddat sugʻorish tarmoqlarining ta`miri va yangi kanallar qurilishiga mehnat qilishi majburiy edi. Yaylov, oʻtloq, daryo va oʻrmonlar jamoa mulki hisoblangan. Koʻp hollarda,

bunday yerlar davlat hokimiyati tomonidan tasarruf qilingan. Ayrim hollarda, davlat hokimiyati tomonidan jamoa yoki xususiy kishilarga foydalanishga berilgan. Shu bilan birga, bir qism yer podsho va kohinlar ixtiyorida boʻlgan. Bu yerlarda podsho va ibodatxona xoʻjaliklari tashkil qilinib, qullar va qaram kishilar ishlaganlar. Bir qism yerlar ijaraga berilgan. Shu tarzda Qadimgi Sharq hukmdori mamlakatda ishlab chiqariladigan qishloq xoʻjaligi va hunarmandchilik mahsulotlari hamda soliq yigʻimlariga ega boʻlib, shu tariqa uning ixtiyorida moddiy boyliklar yigʻilib qolgan.

Qadimgi dunyoda qulchilik doimo turli manbalardan toʻldirib borilgan. Shu bilan birga, oʻz mulkiga ega boʻlmagan yersiz kishilar davlat va ibodatxonalarda majburan ishlab, evaziga oziq-ovqat olganlar. Ular rasman erkin boʻlsalar-da, oilali boʻlib, qullarga yaqin qaram ahvolda boʻlganlar. Qullar qatlami ajnabiy qul, qarzi uchun qul qilingan, sotib olingan qullar, oilaning kichik a'zosidan qul qilinganlardan tashkil topgan.

Qadimgi Sharq jamiyatining oʻziga xos xususiyati toʻgʻrisidagi munozaralarda koʻpincha u yoki bu mamlakatda qullar sonining ozligi koʻrsatib oʻtilgan. Ularning sonini taxminan belgilashga toʻgʻri kelar edi. Bir qancha hollarda tegishli statistika ma'lumotlari topilmagan. Boshqa manbalardan keltirilgan qoʻshimcha dalillar esa, qullar mehnatining salmogʻini kutilgandan kamroq koʻrsatar edi. Bizda Sharqdagi ijtimoiy munosabatlarni oʻrganish uchun manbalar ham yetarlicha emas.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida asta-sekin uch qatlam: qullar va ularga yaqin qaram kishilar, mayda ishlab chiqaruvchilar va tarkibida yirik yer egalari, saroy amaldorlari, harbiy boshliqlar, urugʻ zodagonlarini birlashtirgan hukmron tabaqa shakllangan. Mayda ishlab chiqaruvchilar erkin va qaram yer egalari, turli mulkiy darajadagi hunarmandlardan iborat edi. Har bir ijtimoiy tabaqa yaxlit va bir xil boʻlmay, huquqiy ahvoli, turmush tarzi, boyligi miqdori boʻyicha bir-biridan farq qiladigan bir necha qatlamdan iborat boʻlgan.

Xufiya (yashirincha) qullikning eng qadimgi shakli patriarxal oila hali oʻsha vaqtda katta ahamiyatga ega boʻlgan. Patriarxal oilada ota yer-mulkni egasi hisoblangan va oilaning barcha

a’zolari bu xo‘jayinga so‘zsiz itoat qilishga majbur bo‘lganlar. Ota oilaning barcha a’zolariga nisbatan tug‘ma quldor huquqiga ega bo‘lgan. Ko‘p xotin olish odati ayollarning ijtimoiy ahvolini og‘irlashtirgan.

Qadimgi Sharq quldorlik munosabatlari qadimgi Yunon va Rim klassik qulchiligi darajasiga chiqa olmadi. Qullar sonining kamligi, ularning ishlab chiqarish jarayonida zaif ishtiroki, mehnat unumdorligining past darajasi Qadimgi Sharq qulchiligining asosiy xususiyati edi.

Qadimgi Sharq jamoasi. Qadimgi Sharqning turli hududlaridagi turli tabiiy sharoit o‘zining alohida xususiyatlari va umumiy tomonlariga ega: asosan subtropik iqlim va yozda juda issiq, qishda yumshoq iqlimli hudud. Qadimgi Sharq xalqlarining tarixiy taqdirida buyuk daryolar: Nil (6700 km) , Frot (2700 km), Dajla (1900 km), Hind (3180 km), Gang (2700 km), Xuanxe (4850 km), Amudaryo (2540 km), Sirdaryo (2212 km) muhim o‘rin tutadi. Bu daryolar dunyoda eng yirik daryolar bo‘lib, yaxshi sug‘oriladigan, hosildor keng vodiylarni tashkil qiladi. Bu hududlarda xo‘jalik faoliyatini sun’iy sug‘orish inshootlarini barpo qilib, ko‘pdan-ko‘p kanallar tizimini Nil, Frot vodiylarida, Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo havzalarida, Gang, Xuanxe va Mekong daryolarida to‘g‘onlarni qurish orqali suv toshqinlarini jilovlash mumkin edi. Bu hududlarda yashaydigan kishilar mahsuldor dehqonchilik qilish uchun juda katta kuch sarf qilishga majbur edilar. Daryolarda baliqlar juda ko‘p bo‘lib, odamlarga asosiy ovqat bo‘lar edi. Frot, Dajla, Nil va Mekong daryolari vodiylarida ko‘p sonli ekinlar yovvoyi holda o‘sar edi. Daryo vodiylarida arpa, sholi, bug‘doy, tariq va boshqa donli ekinlarni madaniylashtirish imkonini berdi. Boy hayvonot dunyosi ko‘pchilik hayvonlarni madaniylashtirish uchun shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga, allyuvial tuproqli vodiylarda tosh, qurilish uchun daraxt, metallar (mis, oltin, qalay, kumush) kabi uyg‘un xo‘jalik hayoti uchun zarur bo‘lgan xomashyo taqchil edi. Bu xomashyolar tog‘li hududlar, sahro-cho‘llarda mavjud edi. Shu sababli, eramizdan avvalgi IV ming yillikda allyuvial vodiylar (Nil, Dajla va Frot) aholisi tog‘li va sahro rayonidagi (Sinay, Nubiya, Arman, Tavr tog‘lari) aholi bilan xomashyo almashinuvi jarayoni

boshlandi. Ishlab-chiqarish munosabatlari savdoning past darajasi bilan, bu ayirboshlash koʻp hollarda talonchilik urushlariga aylanib ketgan. Bu xomashyo manbalari mavjud hududlarni oʻz tarkibiga kiritgan katta-katta harbiy davlatlar paydo boʻlishiga olib keldi.

Qadimgi Sharq jamiyatining tuzilishini oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri, bu asosiy ijtimoiy va hududiy birlik-jamoaning mavjudligidir. Har qanday qadimgi Sharq davlati bir necha shaharni hisobga olmaganda, oʻz tashkilotiga ega boʻlgan koʻpgina qishloq jamoalaridan iborat. Qon-qarindosh urugʻ jamoasi-bu ma'lum bir hududda yashab, boshqa jamoa va davlatga nisbatan huquq va majburiyat bilan bogʻlangan yopiq tashkilot edi. Jamoa davlat hokimiyati va jamoa a`zosi oʻrtasida vositachi, sud ishlarini amalga oshiruvchi, aholini hashar va boshqa ishlarga safarbar qilish tashkilotchisi boʻlgan. Katta daryolar havzasida joylashgan ilk sivilizatsiyalar iqtisodiyotining asosi sugʻorma dehqonchilik edi. Aholining deyarli 90-95 foizi dehqonchilik bilan shugʻullanar va jamoa boʻlib yashar edi. Qishloq jamoasi bir yoki bir necha urugʻdan tashkil topgan. Keyinchalik esa, jamoa turli urugʻlarga mansub oilalardan tashkil topgan. Jamoaning asosi boʻlgan katta patriarxal oilada uch avlod yashagan (bobo-buvi, ota-ona, ularning uylangan oʻgʻillarining oilalari). Oila boshligʻi ota jamoa oldida oʻz oila a`zolari uchun mas`ul edi. Patriarxal oilada urf-odat, an'analarga rioya qilib yashash ustuvor ahamiyatga ega edi. Oila boshligʻi ota vafotidan keyin oila parchalanib ketmagan, balki katta oʻgʻil oila boshligʻi oʻrnini egallagan. Oila boshligʻi ota oila mulkiga toʻliq mas'ul boʻlgan va uning kichik a'zolari oila boshligʻi roziligisiz mulkiy bitimlar yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshira olmagan. Masalan, Qadimgi Bobilda ota oʻz xotini yoki oʻgʻlini oʻzi olgan qarzning toʻlovi uchun ma'lum muddatga qullikka berish huquqiga ega boʻlgan. Shu bilan birga, ota oʻz oʻgʻlini uch martagacha qullikka sotish huquqiga ham ega boʻlgan.

Jamoa ichida mulkiy tabaqalanish kuchli boʻlib, jamoada boy va kambagʻal jamoachilar, yersiz oddiy jamoachilar koʻp edi. Shunga qaramasdan jamoada yashash va ishlab chiqarishning jamoachilik shakli saqlanib qoldi. Jamoa mulkchiligi, jamoa birdamligi xususiy mulkchilikning rivojlanishiga toʻsiq edi. Jamoa

tashkilotining turg‘unligi ishlab chiqarish va hayot kechirishning jamoachilik shaklini saqlanib qolishi, qadimgi Sharq iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilishi, davlat hokimiyati shakllarini belgilab berdi. Qadimgi Sharq hukmdori va uning boshqaruv apparati sun’iy sug‘orish tizimining tashkilotchilari rolida chiqqanlari uchun va oxir-oqibat davlat yer jamg‘armasining oliy egasi bo‘lib qoldi. Davlat asosan erning oliy egasi sifatida yerga egalik va nazorat qilish, ma’lum miqdorda soliq olish bilan cheklangan. Amalda esa, yerlarning katta qismi ko‘p sonli qishloq jamoalarining merosiy yeri edi. Bir qism yer saroy a’yonlari, zodagonlar, amaldor va harbiylarga berilgan edi. Yerdan foydalanadigan barcha toifalar davlatga yer solig‘i to‘lab, turli majburiyatlarni o‘taganlar. Barcha to‘lov-majburiyatlar o‘talgandan so‘ng, yer egalari yerni to‘la tasarruf qilishlari va sotish huquqiga ega bo‘lganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Sharq hududlari deganda qaysi hududlar tushiniladi?
2. Qadimgi Sharq tarixini o‘rganishda qaysi manbalar birlamchi hisoblanadi?
3. Tarixshunoslik nuqtai nazaridan ko‘hna Sharq tarixini o‘rganish qanday bosqichlarga bo‘linadi?
4. Qadimgi Sharqda davlat boshqaruvi qanday amalga oshirilgan?
5. Qadimgi Sharqda qulchilik va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
6. Qadimgi Sharq jamoasi va uning o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy o‘rganing.
7. Qadimgi Sharqda davlatlar paydo bo‘lishining sabab va shart-sharoitlari haqida esse tayyorlang.
8. Qadimgi Sharq davlatlarida Osiyocha ishlab chiqarish uslubi deganda nima tushuniladi?
9. ***Bahs uchun:*** Qadimgi Sharq Sivilizatsiyasi nima, uning boshqa sivilizatsiyalarga ta’siri va uning nomoyon etuvchi asosiy belgilarini “VEER” metodidan foydalangan holda taxlil eting.

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

2-MAVZU. ILK VA QADIMGI MISR PODSHOLIGI

Reja

1. Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari.
2. Misrshunoslik fanining rivojlanishi.
3. Arxeologiya yodgorliklari.
4. Qadimgi Misr tarixini davrlashtirish.
5. Eng qadimgi Misr hududi, tabiati va aholisi.
6. Ilk podsholikni yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari.

Qadimgi Misrliklar dunyo tarixidagi eng qadimiy, paydo bo‘lishi er.avv. IV ming yilliklarning o‘rtasiga borib taqaladigan sivilizatsiyani yaratdilar. Bu fikrni umrini dunyodagi sivilizatsiyalarni o‘rganishga bag‘ishlagan mashhur ingliz olim A. Toynbi ham o‘zining “Tarixni tushunish” nomli 12 jilddan iborat kitobida alohida e’tirof etgan. Qadimiy Misr Nil daryosi vodiysida, uning birinchi ostonasidan to O‘rta yer dengizi sohillarigacha yoyilgan manzilgohda joylashgan. Dastlabki shaharlardagi sezilarli darajadagi moddiy va ijtimoiy siljishlar qisqa vaqt ichida – er.avv. 4000 - 2000 yillarda Nil daryosining O‘rta yer dengiziga quyiluvchi shimoliy qismlarida yuz berdi.

Gerodot Misrni “Nil tuhfasi” deb atagan edi[7]. Qadimgi Misrning III ming yillik tarixi bir nechta yirik tarixiy davrlarga bo‘linib, ularning har biri qadimiy Misr sivilizatsiyasining o‘ziga xos oyoqqa turish, ko‘tarilish va rivojlanish pog‘onasi bo‘lgan.

Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari. Qadimgi Ikki daryo oralig‘ining tarixi singari, Misrning uzoq o‘tmishini muntazam suratda va chuqur o‘rganishga faqat XIX asrdagina imkon tug‘ildi. Ungacha Bibliya (Tavrot)dagi ayrim ma’lumotlardan, grek va lotin mualliflarining asarlaridangina foydalanishga to‘g‘ri kelgan, ammo bu mualliflar Misrning yozma hujjatlardan foydalana olmaganlar, faqat o‘zga xalqning og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan hikoyalarinigina bayon qilganlar. Gerodotning

[7] Geradot Misrda miloddan avvalgi 450-440 yillarda bo‘lgan va o‘zining 9 tomli “Tarix” asarini katta qismini aynan shu davlat tarixiga bag‘ishlagan.

(eramizdan avvalgi 484-425 yillarda yashagan) bizga ma’lum “Tarix” kitobida Misrning o‘tmishi u qadar izchil bo‘lmasa-da, Bobil-Ossur tarixidan ko‘ra mufassalroq bayon etilgan. “Tarix otasi” Nil bo‘ylab mamlakatning shimoliy chegaralaridan janubiy chegaralarigacha borib yetgan, qadimgi yodgorliklarni ko‘zdan kechirgan, jang maydonlarini ko‘rgan, grek tilini bilgan Misrliklardan o‘sha xalqning urf-odatlari va o‘tmishini surishtirgan. Suhbatdoshlar unga bir-biriga bog‘lanmagan, ayrim ma’lumotlarnigina aytib berganlar, ko‘pincha u ma’lumotlar noto‘g‘ri bo‘lgan, ammo ularning qanchalik to‘g‘ri noto‘g‘ri ekanligini Gerodot tekshira olmagan. Ba’zida Misrlik suhbatdoshlar o‘z ota-bobolarining harbiy qahramonliklarini ko‘pirtirib gapirib, grek sayyohini ataylab chalg‘itganlar.

Masalan, ular Sesostris deb atovchi fir’avn Qora dengizning shimoliy qirg‘oqlariga chiqib borib, skiflarni unga bo‘ysundirgan deb Gerodotni ishontirganlar. Aslida esa Misr fir’avnlarining qo‘shinlari hech qachon Qora dengizgacha yetib kelgan emas. Shu bilan birga Gerodotda ko‘pgina to‘g‘ri ma’lumotlar ham bor, ayniqsa uning o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan narsalari (dehqonchilikka doir ishlar, hayvonlarga sig‘inish, mumiyolashga oid fikrlar va shu kabilar) ana shunday ma’lumotlar sirasidandir. Ancha keyinroq grek yozuvchisi Plutarx (eramizning 46-126 yilarida yashagan) Misrliklar diniga bag‘ishlab (“Isida va Osiris to‘g‘risida”) maxsus asar yaratgan. Misr antik dunyoning boshqa yozuvchilarini ham qiziqtirgan, lekin ular ham, Gerodot va Plutarx singari o‘z asarlarini Misrliklar bilan qilingan suhbatlarga asoslanib yozganlar, garchi ular Misr yozuvlarini ko‘rgan bo‘lsalar-da, ammo ularni o‘qiy olmaganlar.



Eramizdan avvalgi 332 yilida Misr Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) tomonidan istilo qilinib, bu yerga juda ko‘p greklar ko‘chib kelgach, mamlakatning o‘tmishi bilan yanada ko‘proq qiziqa boshlaganlar va Manefon(asli Misrlik) degan kohin grek tilida “Misr tarixi”ni yozgan. U Misr tarixining xronologik

jadvalini (asosan to‘g‘ri) tuzgan va unda Misr tarixida yuz bergan bir qator voqealarni tasvir etgan, bunda haqiqiy dalillar afsonaviy hikoyalar bilan qo‘shib bayon etgan.

Misrshunoslik fanining rivojlanishi. Yangi zamon tarixchilari mana shu xildagi manbalardan foydalanib ish ko‘rishga majbur bo‘lganlar. To‘g‘ri, bugungi kunga qadar Misr hududlarida ko‘pgina yodgorliklari (piramidalar, ibodatxonalar, haykallar, ustunlar) saqlanib qolgan, ularning anchasi yozuvlar bilan qoplangan, lekin u yozuvlarni o‘qib chiqarish va mazmunini anglab olish yo‘lidagi urinishlar uzoq vaqtlargacha natija bermagan. Faqat 1822 yilda fransuz olimi F. Shampolyon (1790-1832yillar) Misr iyerogliflarini o‘qish yo‘lini topgan.

1798 yilda general Bonapart (bo‘lajak imperator Napoleon) Misrga qilgan yurishi vaqtida topilgan Rozet[8] toshidagi ikki tilda grek-misr tilida yozilgan yozuv Misr yozuvlarini o‘qib chiqarish uchun birinchi asos bo‘lgan[9]. Bu yozuvda Makedoniyadan chiqqan podsho Ptolemey V tilga olingan. Ptolemey farmonlarini o‘z fuqarolari (Misrliklar bilan makedoniyalik greklar) uchun ikki tilda chiqargan. Ptolemeyning nomi naqshli oval ichiga olingan va uni harflarga ajratish mumkin bo‘lgan. Lekin bu hali o‘qib chiqarishga qo‘yilgan birinchi qadam bo‘lgan. Yozuvdagi boshqa so‘zlar undosh harflar bilan (unli tovushlar yozuvda berilmagan, berilsa ham kamdan-kam hollardagina berilgan) bo‘g‘in alomatlari va lagogrammalar (“o‘g‘il, hayot, yaxshilik” va shular kabi butun-butun so‘zlarni anglatuvchi belgilar) aralashtirib yozilgan.

F. Shampolyon murakkab solishtirishlar vositasi bilan bir qancha alomatlarni aniqlashga muvaffaq bo‘lgan. Uning shogirdlari va izdoshlari u boshlagan ishni davom ettirib, oxiriga yetkazganlar. Dastlab bu ish toshlardagi yozuvlarni o‘qib chiqarish bilangina cheklangan. Bu matnlarning ko‘pi tez yozuv (iyeratika)

[8] Bu shaharning nomi.

[9] Bu yurish haqida Jan Kristofer Xeroldning “Bonapart v Yegipte” (1962) ilmiy asari orqali ma’lumot olish mumkin.

usulida yozilib, keyinchalik borib demotika usulida yozilgan. Demotika yozuvlari hozirgi zamon stenografiyasiga o‘xshab ketadi. Papiruslardan: 334-sonli (xalq qo‘zg‘olonini tasvirlovchi) Leyden Papirusini, Turin papirusini (mashhur “O‘liklar kitobi”ning birinchi nusxasi) va Ermitaj (Sankt- Peterburg)da hamda A. S. Pushkin nomidagi Tasviriy san’at muzeyi (Moskva)da saqlanayotgan bir qancha qo‘lyozmalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Arxeologiya yodgorliklari. Antik dunyo madaniyatining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan qadimgi Misr madaniyati Yevropa sayyohlari va olimlarining diqqatini ko‘p vaqt o‘ziga tortib kelgan. Uyg‘onish davrida bunga yana ham ko‘proq qiziqqanlar. Qadim Sharq madaniyati bilan juda yaqindan tanishib o‘sgan qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim tarixi hamda madaniyatini Yevropada o‘sha Uyg‘onish davrida zo‘r berib o‘rganila boshlangan. XVI asrning buyuk faylasuf Jordano Bruno o‘z asarlarida qadimgi Misr madaniyatining ahamiyatiga yuksak baho bergan, uning fikricha, qadimgi dunyoning keyinroq yashagan xalqlari, qadimgi yahudiylar, yunonlar va rimliklar o‘sha madaniyatdan foydalanganlar. XVIII asr o‘rtalarida Misrga kelib ketgan Pokok, Norden va Bryus qadimgi piramidalar mamlakatining saqlanib qolgan yodgorliklarini, jumladan Fiva yaqinidagi yashirin vodiyda berkitilgan podsho maqbaralarini tasvir qilgan juda muhim asarlar qoldirganlar. Ammo G‘arbiy Yevropaning o‘qimishli doiralari Napoleon Bonapartning 1798 yildagi Misr ekspeditsiyasi tufayli qadimgi Misr madaniyati bilan birinchi marta bir qadar kengroq tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu ekspeditsiya tarkibida turli olimlar, shu jumladan arxeologlar ham bo‘lgan. Bu ekspeditsiyaning ilmiy tekshirishlari natijasida “Misr tasvirlari”ga bag‘ishlangan.

Napoleon Bonapart davrida juda qimmatbaho asar nashr etildi. Ushbu asar 24 jild matndan iborat bo‘lib, unda qadimgi Misr ibodatxonalari xarobalarining rasmlari, yozuvlarning nusxalari va ekspeditsiya qatnashchilari

to‘plagan ko‘plab qadimgi yodgorliklarni aks ettiruvchi 24 tomlik jadvallar mavjud. Asar nafis va sifatli nashr etilgan bo‘lib, Yevropaga olib kelingan qadimgi Misr yodgorliklari kolleksiyalari nafaqat olimlar orasida, balki o‘qimishli jamiyatning keng qatlamlarida ham qadimgi Misr tarixi va madaniyatiga chuqur qiziqish uyg‘otdi. Ba’zi olimlar qadimgi Misr yozuvlarini o‘qib chiqarishga juda qizg‘inlik bilan kirishganlar. Bular o‘rtasida yuqorida ta’kidlaganimdek, mashhur fransuz filologi Fransua Shampolyon (1790-1832 yillar) o‘zining xizmatlariga ko‘ra birinchi o‘rinni egallaydi. Shampolyon Misr iyerogliflarini o‘qish kalitini topish orqali misrshunoslikka asos soldi va ko‘plab ilmiy asarlar yaratdi. Shu bilan birga uning e’tibori Misrdagi mavjud moddiy yodgorliklarni tadqiq etishga ham asosiy e’tiborini qaratgan. Misrshunoslik tarixidagi ana shu birinchi davr moddiy madaniyat yodgorliklari, yozuvlar, rasmlar va nusxalardan iborat haqiqiy materiallarni zo‘r berib to‘plash davri bo‘lgan. Shampolyon o‘zidan oldin o‘tgan olimlarning ishini davom ettirib, qadimgi Misr tarixi va madaniyatini o‘rganish yuzasidan katta reja belgiladi. U o‘zining “Misrga adabiy sayohat loyihasi haqida maktubi”da, Misr madaniyatidan qolgan moddiy yodgorliklarning hammasini shu joyning o‘zida o‘rganish zarur, deydi. Uning fikricha, bu ish qadimgi Misr tarixini hattoki, butun qadimgi sharq tarixini yangi tarzda, aniq ma’lumotlar asosida qaytadan barpo qilishga imkon beradi. Shampolyon qadimgi Misrliklarning san'ati, dini va mifologiyasi bilangina emas, balki Nil vodiysida hunar va fanning taraqqiyoti hamda “Fir'avnlar mamlakati”ning (u vaqtlarda qadimgi Misrni shunday deb ataganlar) siyosiy tarixi bilan ham qiziqqan. Shuning uchun Shampolyon Fiva maqbaralarining devorlarida tasvirlangan va aholining turli tabaqalarining turmushiga oid suratlardan sinchiklab nusxalar olishni zarur deb bilgan. Bunda, xususan “etnografik buyurtma tasvirlar”ga “astronamik suratlar”ga va asosan iyeroglif, qisman ikki tildagi yozuvlarga e’tibor berishi zarurligini aytgan. Shampolyon 1828-1829 yillarda Misrga arxeologik ekspeditsiya uyushtirib, o‘zining o‘sha chuqur mulohaza bilan tuzgan loyihasini amalga oshirishga muvaffaq bo‘lgan.

Shampolyon bu ekspeditsiyasi bilan Misrda bir yarim yilcha turib qazish ishlari oʻtkazgan, Qadimgi yodgorliklarni toʻplagan, rasmlar chizgan va yozuvlardan nusxalar olgan. Atoqli olimning ana shu tarzda zoʻr gʻayrat bilan qilgan ishlarining juda qimmatli samaralari, uning oʻlimidan keyin bosilgan “Misr va Nubiya yodgorliklari” degan albomlar seriyasida nashr etilgan. Uni ilm – fanga ayniqsa, Misrshunoslik va lingvistikaga qoʻshgan hissasini inobatga olgan holda 20 yoshida Grenobl universiteti professori ilmiy unvoni berilgan. Uning 41 yoshida erta vafot etishi, koʻplab asarlarini yakunlashiga toʻsqinlik qildi. Shunga qaramay akasi uning “Misr grammatikasi” va “Ieroglif yozuv lugʻati” kabi muhim asarlarini 1830-1840-yillarda nashr etadi.

XIX asr oʻrtalarida nemis Misrshunoslari L. Lepsius va K. Brugsh katta arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etib, Misrga bordilar. Ular faqat Misrni emas, balki Suriya, Falastin, Sinay yarimoroli, Nubiya va Sudanni, shuningdek Misrga yaqin viloyatlarni ham oʻrganishdi. Ushbu ekspeditsiyalar natijasida koʻplab qimmatbaho qadimgi yodgorliklar toʻplandi va ular keyinchalik Berlinda tashkil etilgan Misr muzeyi uchun asos boʻldi. Lepsius oʻtkazgan qazishlar va arxeologik tadqiqotlar natijalarini, qadimgi yodgorliklarning rasmlari va juda koʻplab yozuvlarning nusxalarini “Misr va Efiopiya yodgorliklari” nomli katta va nafis albomlarda nashr etdi. Shu bilan birga, Mariett kabi iste’dodli olimlar Misrda rejali va keng koʻlamli qazish ishlarini boshladilar. Mariett butun hayotini Misrdagi arxeologik tadqiqotlar va qazishlarga bagʻishlab, fanga jon-dilidan bagʻishlangan faoliyat olib bordi.

Gaston Maspero

Mariett, Shampolyon va Lepsius singari olimlar Misrning qadimgi yodgorliklari bilan tanishishni faqat tasodifan topilgan buyumlarni yigʻish, ayrim yodgorliklarning suratini olish yoki har joyda qazishlar oʻtkazish bilan cheklamaydilar. Ular birinchi marta Misr maydonidagi ayrim arxeologik komplekslarni imkon qadar toʻliq qazib koʻrishga jur’at etdilar. Shu bilan birga, Memfis yaqinidagi muqaddas hoʻkizlar — Apis maqbarasi, Sakkaradagi

Qadimgi Podsholik maqbaralari, Abidosdagi XIX sulola ibodatxonalari kabi yirik obidalarni o‘rganishdi, shuningdek, qadimgi Misr poytaxti Fiva tumanida ham keng ko‘lamli qazish ishlarini boshladilar.

Mariett Misrda qazish ishlari va qadimgi yodgorliklar bo‘yicha maxsus boshqarma tashkil etilishiga, shuningdek, Qohirada Misrshunoslik muzeyi barpo etilishiga katta hissa qo‘shdi. Uning arxeologik ishlarini Shampolyon bilan davom ettirgan mashhur fransuz Misrshunosi Gaston Maspero (1846–1916) munosib tarzda rivojlantirdi.U serg‘ayrat va charchamas arxeolog bo‘lishi bilan birga, chuqur bilimli filolog va g‘oyat zo‘r tarixchi ham bo‘lgan. Maspero V-VI sulolalarning Sakkaradagi piramidalarini sinchiklab tekshirib, ularning ichiga kirishga muyassar bo‘lgan va bu piramidalarning ichki dafn xonalaridan juda muhim diniy matnlar topgan. Maspero bu yozuvlarni “Sakkara piramidalarining yozuvlari” nomi bilan nashr etgan. Fivaga yaqin Dayrilbaxrda Maspero Yangi Podshohlik davridagi eng mashhur bir qancha fir'avnlarning mo‘miyosini yashirin bir joydan topishga muyassar bo‘lgan.

Maspero Misrning turli joylarida ko‘p qazishlar o‘tkazib, Misrda qadimgi yodgorliklarni saqlash, o‘rganish va nashr ettirish ishlarini uyushtirgan va bu ishlarni ancha yuksak darajaga qo‘ygan. XIX asr oxirida maxsus “Misrni tekshiruv fondi” tashkil etilgan: Buning tashkil etilishi Misrda arxeologik qazish ishlarining keng ko‘lamda rivojlanib ketishiga yordam bergan. O‘sha vaqtda birinchi marta arxaik davr yodgorliklarini ochgan de Morgan, so‘ngra malika Hatshepsutning ibodatxonasini sinchiklab tekshirgan Navill, nihoyat, o‘zining butun umrini (1856- 1942 yillar) Misr yodgorliklarini arxeologik jihatdan tekshirishga bag‘ishlagan ingliz arxeologi Flinders Petri Misrda eng katta qazishlar o‘tkazganlar. Petri Misrning turli joylarida katta va samarali qazishlar o‘tkazgan. U Abidosda sulolalardan ilgarigi davrga oid podsholarning maqbaralarini sinchiklab qazib olishga muyassar bo‘lgan. U Fayum vohasi yonida O‘rta Podsholik shahrining xarobalarini, nihoyat, Dafneda va Navkratisdagi grek koloniyalarining qoldiqlarini topgan.

Petri o‘tkazgan qazishlar natijasida fanga moddiy madaniyatning juda ko‘p va qimmatli yodgorliklari va juda ko‘p yozuvlar qo‘shilgan. Bularni Petrining o‘zi ham, boshqa bir qancha olimlar ham nashr etgan.

XX asrda arxeologik qazishlar ancha tartibga solindi va ancha chuqur ilmiy tayyorgarlik ko‘rib, puxta arxeologik metodika asosida o‘tkazila boshladi. Misrning turli tumanlarida keng ko‘lamda qazish ishlari o‘tkazgan va qimmatli natijalar bergan arxeologlar orasida bir qator katta muzeylarning namoyandalari, shuningdek Misrning yosh olimlari koptlar[10] va arablar maydonga chiqdi. Bu yosh olimlar Qohirada yangi mahalliy Misrshunoslik maktabini vujudga keltirdilar. XX asrdagi arxeologiya ishlari ilgarigiga qaraganda ancha kattaroq uchastkalarni o‘z ichiga oladi. Bunda arxeologlar qadimgi yodgorliklarning muayyan bir kompleksini arxeologik jihatdan mukammal ravishda tekshirib chiqishga harakat qildilar. Arxeolog Reysner, Hufu piramidalari atrofidagi maqbaralar tumanlarini va ayniqsa Gizedagi Menkuarni juda diqqat bilan tekshirdi. Reysner bu erda qadimgi Podsholik zamoni malikalari va zodagonlarining maqbaralarini topishga muvaffaq bo‘ldi. Ana shu qazish ishlari natijasida Reysner juda ko‘p tarixiy materiallarni qo‘lga kiritdi. Bu materiallar qadimgi

[10] Koptlar — Misrning tub (mahalliy) aholisi bo‘lib, asosan xristian diniga e’tiqod qiluvchi etnik-diniy jamoa hisoblanadi.

Podsholik davridagi Misr maqbarasining evolyutsiyasini tiklashga imkon berdi. Medumdagi piramidalar atrofida A. Rou juda katta qazish ishlari olib bordi. Ingliz va fransuz arxeologlari Fert, Genn, Lauer va Jekelar Sakkarada juda katta arxeologik ishlar olib bordilar. Zinapoya shaklli Joser piramidasi atrofidagi juda katta arxitektura kompleksi hamda VI sulolaning maqbara va ibodatxonalari diqqat-e'tibor bilan qazildi. Oʻrta Podsholik zamoniga mansub boʻlgan piramida yonida kambagʻallar qishlogʻi topildi. Dayrilbaxrda ham huddi oʻsha davrga oid oʻziga hos maqbara ibodatxonasining xarobalari topildi. Talal-Yaxudiyada Petri giksoslar davriga oid lagerning qoldiqlarini topdi. Al-Amarnadagi qazishlar vaqtida fir'avn Exnatonning poytaxti, "Aton gorizonti" degan muxtasham shaharning maqbaralari va xarobalari topildi. Bu shahar oʻzining hashamatli saroylari, ibodatxonalari, katta mansabdorlarning qoʻrgonlari, park va koʻchalari juda koʻp binolari bilan, saraton issigʻi hammayoqni kuydirib turgan choʻlda toʻsatdan paydo boʻlgan ajoyib saroyni eslatadi.

Talon-taroj boʻlmay zamonamizgacha butunlay saqlanib kelgan XVIII sulola fir'avni Tutanhamon maqbarasining topilishi kutilmaganda katta voqea boʻldi. Karter bilan Karnarvon shu yashirin maqbaraning toʻrt xonasida kichkina Misr saroyining juda boy buyumlarini va Misr fir'avnining tillaqosh, oltin niqob, juda koʻp qimmatbaxo ziynatlar, tumorlar hamda podsholik hokimiyatining barcha alomatlari bilan bezatilgan va sira qoʻl tegmagan mumiyosini topdi. Misrning qadimgi poytaxti Fivaning ancha keng maydonida katta qazish va tiklash ishlari oʻtkazildi. Fivada xudo Amon sharafiga bino qilingan hashamatli ibodatxonalarning juda katta xarobalari hozirgi vaqtlargacha saqlanib kelmoqda. Madinat-Abudagi Ramzes III ibodatxonasi va saroyining xarobalari arxeologlar tomonidan ayniqsa diqqat e'tibor berib qazilgan edi. Bu yodgorliklar Misrda tushkunlik boshlangan oʻsha davrni oʻrganish uchun juda boy arxitektura va epigrafik materiallar beradi. Soʻngi yillar ichida A. Rou Atribdagi keyingiroq zamonlarga oid yodgorliklarni qazib topdi, Feyrmen esa Sesebida (Su-danda) XVIII-XIX sulolalar zamonining mustahkamlangan butun bir shahar xarobalarini topdi. Nubiyada

va Meroeda o‘tkazilgan qazishlar g‘oyat katta ilmiy ahamiyatga ega. Bu qazishlar natijasida ana shu janubiy mamlakatlarining hozirgacha uncha ma’lum bo‘lmagan tarixini o‘rganish va ming yillar davomida ularning Misr bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini belgilashga imkoniyat tug‘ildi. Shunday qilib, yuz yildan ortiqroq vaqt ichida Misrda o‘tkazilgan qazishlar natijasida juda ham ko‘p moddiy madaniyat yodgorliklari, juda xilma-xil yozuvlar, san'at asarlari va diniy e'tiqod buyumlari qo‘lga kiritildi. Topilgan qadimgi yodgorliklarni o‘rganish qadimgi Misr tarixini oydinlashtirib, ilmiy Misrshunoslikning yanada rivojlanishiga jiddiy sabab bo‘ldi. Shu jihatdan erishilgan eng muhim yutuq qadimgi Misrliklar tili va yozuvini chuqur o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Bunga esa Misr iyeroglif yozuvini Fransua Shampoloning o‘qib chiqargani tufayli erishildi.

Maxalliy olimlarning izlanishlari. Maxalliy arxeologlar ham so‘nggi yillarda muvvafaqiyatli izlanishlar olib bormoqdlar. 1954 yilda M.Z. Xonayim er.avv. XVIII asrda hukmronlik qilgan Sexemxet ko‘milgan piramidani topdi. Ammo o‘g‘irlanganlik belgisi bo‘lmasada bo‘sh chiqdi. Olimning xulosa qilishicha biror – bir panaroq joyga ko‘milgan bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda Misrda ko‘plab mahalliy arxeologlar faoliyat yuritib, mamlakatning boy tarixiy merosini tadqiq etmoqdalar. Ular orasida Zaxi Xavass alohida ajralib turadi. 2008 yilda uning rahbarligi ostida 200 yildan ortiq vaqt davomida yo‘qolgan piramida topilgan bo‘lib, uning yoshi taxminan 4 ming yilga tengligi aniqlandi. Keyinroq uning rahbarligidagi jamoa 2021 yilda Luksor shahri yaqinida 3400 yillik qum ostidagi shaharni kashf etdi. Bu shahar eramizdan avvalgi 1388-1351 yillarda hukmronlik qilgan XVIII sulola shohi Amenxotep III davrida qurilgan aniqlandi.

Shuningdek, 2020 yilda arxeologlar tomonidan Qohira yaqinidagi Sakkara nekropolida kamida 59 ta qadimiy sarkofag topilganini ma’lum qildi. Bu sarkofaglar eramizdan avvalgi 664-525 yillarda yashagan ruhoniylar, mansabdor shaxslar va elita vakillariga tegishli bo‘lgan.

Masalaning yana bir qiziq jihati borki, ba’zan kutilmagan jarayonlarda ham noyob kashfiyotlar qilinishi mumkin. 2017 yil 9

mart kuni Misr poytaxti Qohira yaqinida kanalizatsiya quvurlarini qazish jarayonida buyuk Ramzesning 8 metrli xaykali topildi. Xaykalni tadqiq qilgan olimlar fikricha bu shu hildagilarni eng zoʻri degan xulosa kelishgan.

2025 yilda Buyuk Britaniya va Misr arxeologlari tomonidan Fiva qabristonida eramizdan avvalgi 1500 yillar atrofida Qadimgi Misrda hukmronlik qilgan fir'avn Tutmos II qabri topildi. Maqbaraning asosiy yoʻlagiga kirish joyi 2022 yil oktyabr oyida Luksor (qadimgi Fiva) atrofidan ham topilgan. Dastlab olimlar bu maqbara Tutmoslar sulolasiga mansub qirollik oilasi a'zolaridan biriga tegishli boʻlishi mumkin, deb taxmin qilgan edi. Chunki unga yaqin joyda Tutmos II ning rafiqasi — uning vafotidan soʻng taxtga chiqqan malika Xatshepsut maqbarasi, shuningdek, Tutmos II ning oʻgʻli fir'avn Tutmos III ning xotinlari maqbarasi joylashgan edi. Bundan tashqari, arxeologlar fir'avnning dafn jihozlari qoldiqlarini ham topdi. Topilgan parchalar orasida koʻk rangli yozuvlar tushirilgan suvoq qoldiqlari, shuningdek, Qadimgi Misr fir'avnlarining maqbaralarida uchraydigan "Am-Duat kitobi" tasvirlari mavjud.

Olimlarning fikricha Fir'avn Tutmos II dafn etilganidan koʻp oʻtmay, suv toshqini sodir boʻlib, qabrning ichki qismiga jiddiy zarar etgan. Tadqiqotchilar suv toshqinidan keyin qabr ichidagi narsalar boshqa joyga koʻchirilganini aniqladi.

Aslida Tutmos II ning mumiyosi 1881 yilda Fiva nekropolidagi Dayr al-Bahri yashirin qabrida topilgan edi. Soha olimlari ta'kidlashicha bu yashirin joyda oʻnlab mumiyolangan inson qoldiqlari, jumladan, fir'avnlar Tutmos III, Seti I, Ramzes II va Ramzes III ning mumiyolari saqlanib kelgan. Tutmos II ning dastlabki dafn etilgan joyi esa shu paytgacha noma'lum boʻlib kelayotgandi. Yangi qazishmalar natijasida bu qabr fir'avn Tutmos II ning oʻziga tegishli ekani aniqlandi. Bunga topilgan ashyolar, ayniqsa, marhum Tutmos II va malika Xatshepsutning nomlari bitilgan alebastr koʻzalar boʻlaklari dalil boʻlmoqda. Misrlik arxeologlar mamlakatning turli hududlarida qazishma ishlarini olib borib, qadimiy sivilizatsiyalar izlarini oʻrganishda davom etmoqdalar.

Ilm-fan tarixi. XIX va XX asrda topilgan juda koʻp yodgorliklar (biz yuqorida ulardan baʼzi birining muhim namunalarini aytib oʻtdik, xolos) qadimgi Misrning oʻtmishini oʻrganish uchun asos yaratdi. Dastlabki vaqtlarda asosiy eʼtibor din, adabiyot, sanʼat hamda siyosiy tarixga qaratilgan edi. Ijtimoiy muammolarga kam eʼtibor berilgan. Ushbu yoʻnalishda amerikalik Misrshunos olim D. G. Brested II tomli "Misr tarixi" asarlarini yaratdi.

Shu oʻrinda rus Misrshunoslaridan V.S.Golenishchen bilan B.A. Turayevni alohida koʻrsatib oʻtish kerak. V. S. Golenishchev bir qancha yodgorliklarni sharhlagan va nashr qilgan edi (halokatga uchragan kema haqidagi ertak, sehrgarlik matnlari, nasihatlar va hokazo). B. A. Turayev juda koʻp tadqiqotlardan tashqari din va adabiyotga doir juda katta asarlar ("Xudo Tot", "Misr adabiyoti") yozib qoldirdi. Misrning harbiy tarixi yuzasidan V. I. Avdiyevning asarini, M. A. Korostovsevning Misr adabiy yodgorliklariga izohlarini, "Qadimgi Misrning hattotlari" haqida monografiyasini, T. N. Saveleva, R. I. Rubinshteyn, Y.V. Cherezov, N. S. Petrovskiy, O. D. Berlyov, I. S. Katspelson, I. A. Stuchevskiylarning asarlarini koʻrsatib oʻtish lozim.

Misrshunoslikning yangi davri XX asrning 20-yillariga toʻgʻri keladi. Angliyada "Kembridj Qadimgi tarixi" seriyasi chop etilib (I-XI tomlari 1928-1938-yillarda chop etildi), nemis olimlari A. Erman va X. Trope (1926-1931 y) V tomli Misr lugʻatini tuzdilar.

Eng qadimgi Misr hududi va tabiati. Misrning serunum yerlari asosan Nil daryosi oqizib keltirgan tuproqlardan vujudga kelganligini grek tarixchilari va geograflari Gerodot hamda Strabonlar taʼkidlab oʻtgan. Nil daryosining toshqinlari natijasida yaxshi sugʻoriladigan Misr yerlari shimoliy va sharqiy Afrikaning keng choʻllari iskanjasiga qisilgan buyuk vohaga oʻxshaydi.

Yirik daryo - Nil havzasi boʻyida joylashgan qadimgi yirik sivilizatsiya Misr sivilizatsiyasidir. Ushbu daryoning uzunligi taxminan 6671 kmni tashkil etadi. Daryo qirgʻoqlari boʻylab turli hududlarda oʻrtacha 10–20 kilometrgacha boʻlgan hosildor vodiylar shakllangan. Misr hududi Afrika qitʼasining shimoli-sharqiy qismida joylashgan boʻlib, iqlimi nisbatan issiq va sugʻorma dehqonchilikni rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Mamlakat hududidan Nil daryosi oqib oʻtadi. Daryo

toshqinlari natijasida Afrikaning ekvatorial hududlaridan olib kelingan unumdor tuproqlar Misr hududiga yoyilib, mavsumiy toshqinlar (odatda iyun–noyabr oylarida) tufayli daryo sohillarida to‘planib, yuqori hosildor vodiylarni vujudga keltirgan.Misrliklar o‘z mamlakatlarini tasviriy ieroglif bilan tekis yer shaklida tasvirlaganlar, ba’zida tekis yer ariq va kanallar bilan bir qancha hududlarga bo‘lib ko‘rsatilgan va Misrni obrazli qilib “Qora tuproq” (Ta-Kemet) deb ataganlar. Ayrim tarixchilar fikricha bu, cho‘l qismidagi “oltin tuproq”dan farqlash uchun ishlatilgan. Shu bilan birga Misrda ro‘y bergan Nil toshqinlari natijasida yuzaga kelgan loyqa, qora tusda ko‘ringani uchun ham shunday atalagan bo‘lishi mumkin. Misrliklar yer, suv va o‘simlik xudosi Osirisni azaldan beri serhosil Nil mamlakatining yuragi deb hisoblaganlar. Nilning cho‘l hamda Nil vodiysida joylashgan dehqonlarning Nil atrofidagi cho‘llarda yashovchi ko‘chmanchilar bilan azaldan olib borgan kurashlari Misrliklarning yozuvlarida, tilida aks ettirilgan.Misr geografik jihatdan ikki qismga: Yuqori Misrga-tor va uzun vodiyga hamda Quyi Misrga - Nilning uchburchak shaklida tarmoqlanib, O‘rta dengizga borib quyiladigan keng deltasiga bo‘linadi. Nil vodiysi uzunligi 700 km ga yaqin va kengligi 20 km dan 50 km o‘rtasida bo‘lgan tor joydan iborat bo‘lib, birinchi bo‘sag‘adan to delta tepasigacha cho‘zilib boradi. Quyi Misr qadimgi vaqtlarda tamoman botqoqliklardan iborat bo‘lgan. Greklar Quyi Misrning tashqi qiyofasi o‘zlarining uchburchakli bosh harfiga o‘xshaganligi tufayli buni delta deb atashgan. Misrdan Osiyoga chiqadigan yo‘l deltaning shimoli-sharqiy burchagidan boshlangan. Bu yo‘l Suvaysh bo‘yini va Sinay yarim oroli orqali Falastinga, Suriyaga va Old Osiyoning bundan ham uzoq mamlakatlariga cho‘zilib ketgan. Misr istilochilari, savdogarlari va kolonistlarining Osiyoga chiqadigan asosiy yo‘li ham shu bo‘lgan. Osiyo istilochilarining qo‘shinlari va Misrga turli tovarlar olib boruvchi savdo karvonlari ham Nil vodiysiga huddi shu yo‘ldan kelgan.



Dunyodagi eng katta daryolardan biri bo‘lgan Nil (uzunligi 6671 km) Misrning allyuvial tuprog‘inigina vujudga keltirib qolmay, balki o‘zining vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan toshqinlari bilan Misr yerhosil va unumli qilib, vodiyda va deltada insonning yashashi va qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy shart-sharoitlarni tayyorlab beradi. Arabiston tog‘laridagi qorlarning erishi va Efiopiyada vaqt-vaqti bilan bo‘lib turuvchi yomg‘irlar tufayli Nilning suvi iyun oyida asta-sekin ko‘paya boshlaydi. Sentabr oyida Nil toshqini ayni avjiga chiqadi va Nil suvi butun mamlakatni bosib ketib, mamlakat bir ko‘ldan iborat bo‘lib qoladi.

Eng qadimgi davrlarda Shimoliy Afrikaning iqlimi keyingi vaqtlarga qaraganda ancha yumshoq va namroq bo‘lgan, shuning uchun ham Misrga yondosh mamlakatlar, hozirgi vaqtdagidek cho‘llardan iborat bo‘lmay, balki maysazorlar bilan qoplangan dashtdan iborat bo‘lgan. Misrning hayvonot dunyosi ham hozirgi vaqtdagiga qaraganda ancha boy bo‘lgan. Misrda va unga yondosh viloyatlarda fillar, jirafalar, karkidonlar, yovvoyi ho‘kizlar, yovvoyi cho‘chqalar, ohular yashagan. Ana shu turli-tuman yovvoyi hayvonlarni, qushlarni va baliqlarni ovlash manzaralari

arxeologik izlanishlar natijasida topilgan koʻpgina tasvirlarda saqlanib qolgan.

Tabiiy boyliklar. Misr hududi tabiiy resurslarga juda boy boʻlgan. Misr zamini mis, oltin, qoʻrgʻoshin va yarim qimmatbaho maʼdanlariga boy maskan hisoblangan. Misni asosan Sinay yarim orolidan qazib olganlar va tosh bilan birga ziroatchilik va chorvachilikda keng qoʻllashgan. Iqtisodiyot uchun muhim boʻlgan ohaktosh, granit va kvars Misrda koʻp uchragan. Maʼdanga boy rudalar Barka togʻidan qazib olingan. Mashhur geograf va iqlimshunos olim L. S. Berg hamda amerikalik tarixchi-geograf K. V. Butserning tadqiqotlarida qayd etilishicha, Misr hududining iqlimi nisbatan moʻtadil boʻlib, koʻp jihatdan Yaqin Sharq mintaqasi iqlimiga yaqin hisoblanadi.

Misrda har xil tarkibli toshlar, mis va boshqa tabiiy resurslar ishlab chiqarilgan. Bu jarayon albatta, hunarmandchilik, iqtisodiyot va savdo kabi sohalarni rivojlanishiga imkon bergan. Ayniqsa, tosh - Misrning asosiy tabiiy boyligi boʻlgan. Hattoki toshning qimmatligi sabab, oddiy aholiga undan foydalanish imkoniyatini pasaytirgan. Tosh uylarni qurish faqatgina imkoniyati bor boʻlgan shaxslarga va amaldorlargagina nasib etgan. Misrliklar eng qadimgi asboblar va turli qurollar tayyorlash uchun zarur boʻlgan chaqmoq toshlarni yalang tepaliklardan kovlab olganlar. Bu esa toshtaroshlik hunarining yuksak darajada rivojlanishiga imkon bergan.

Misrliklar metallarni, xususan misni Nil vodiysini Qizil dengizdan ajratib turgan Arabiston choʻli deb ataluvchi sharqiy choʻldan, shuningdek Sinay yarim orolidan olib kelishga majbur boʻlganlar. Misrliklar oltinni Nubiyadan olib kelganlar. Grek tarixchisi Diodor oʻzining asarida Nubiyaning oltin konlarini tasvirlab bergan. Misrga har xil xom ashyoni chetdan keltirish zarurligi eng qadimgi va eng muhim savdo yoʻllarini ham belgilab bergan. Mamlakatning eng muhim savdo magistrali Nil daryosi boʻlib, bu daryo mamlakatning turli qismlarini bir-biri bilan, shuningdek butun Misrni vodiyning janubiy chegaralaridagi dastlabki busagʻaga yondosh boʻlgan Nubiya bilan bogʻlagan. Deltaning shimoli-sharqiy burchagidan Sinay va Falastin orqali Suriyaga katta savdo yoʻli oʻtgan. Nil vodiysidan gʻarbiy vohalarga

turli yo‘llar o‘tgan. Sharq tomonda Qizil dengiz qirg‘oqlariga olib boradigan muhim yo‘llar bo‘lgan.

Aholisi. Misrliklar boshqa ko‘pgina qadimgi sharq xalqlari singari bir qancha qabilalarning sekin-asta aralashib ketishi natijasida tashkil topgan. Qadimgi Misr xalqini bunyod qilgan qabilalar Shimoliy va Sharqiy Afrikaning mahalliy qabilalaridir. Misrdagi arxaik davrga oid kishilarning o‘ziga xos haykalchalari, Negadadagi arxaik mozorlardan topilgan bosh suyaklarni o‘lchab ko‘rish natijalari, shuningdek qadimgi Misr tilining galla, somali va boshqa qabilalarning tiliga birmuncha o‘xshab ketishi eng qadimgi Misrliklarning tropik sharqiy Afrikadagi qabilalar bilan qarindoshligini ko‘rsatadi. Qadimgi Misr tasvirlariga ko‘ra, Sharqiy Afrikada (Misrliklarcha Punt mamlakatida) yashagan eng qadimgi qabilalar o‘zlarining tashqi qiyofalari bilan Misrliklarga juda ham o‘xshab ketadilar. Shubhasizki, qadimgi Misrdagi, samoviy sigir shohli xotin qiyofasida tasvirlangan unumdorlik ma’budasiga hamda sersoqol, pakana Bess xudosiga e'tidod qilish afrikalik xalqlarning diniy e'tidodlari bilan bog‘liqlikni anglatadi.

Bundan tashqari, eng qadimgi Misr qabilalari Shimoliy Afrikaning liviyalik qabilalari bilan ham juda yaqin qarindosh bo‘lganlar. Qadimgi Misr tili o‘zining ba’zi xususiyatlari bilan Shimoliy Afrikadagi barbar tillariga ham o‘xshab ketadi. Misrda va Nil vodiysini o‘rab olgan baland tog‘liklarda o‘tkazilgan qazishlarning ko‘rsatishicha, o‘ziga xos Misr madaniyatini vujudga keltirgan qabilalar qadimgi tosh davridan (paleolit) buyon Shimoli-Sharqiy Afrikada yashaganlar. Fayum manzilida sof Afrika gallasining qoldiqlari topilgan edi. O‘tkazilgan tekshirishlar natijasida Efiopiya gallarining yovvoyi xillari borligi ma’lum bo‘ldi. Bu yovvoyi gallalarni eng qadim zamonlarda Shimoli-Afrika qabilalari iqlimlashtirgan. Nihoyat, Misrliklar Shimoliy va Sharqiy Afrikada mis topishni ham bilganlar. Bu hol qadimgi Misrda o‘ziga xos metallurgiyaning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Shu dalillarga ko‘ra, ayrim tarixchilarning Misr xalqi, uning tili va madaniyati Osiyolik semitlardan kelib chiqqan, deb takidlashga urinishlari bor, biroq bu fikrga aksariyat tarixchi olimlar qo‘shilmaydilar. Bilamizki, bu holat afsuski bugungi XXI asrga ham xos bo‘lib,

ayrim davlatlar oʻzlarini oʻtmish tarixlarini soxtalashtirishga, buyuklik davolarini olgʻa surishga urinishlar koʻzga tashlanadi.

Bu kabi holatlar ayniqsa, XX asrning 30 – yillarida Germaniyada natsizmning, Italiyada fashizmning vujudga kelishi oqibatida paydo boʻlgan edi. Jumladan, Tarixni soxtalashtiruvchi fashist tarixchilar Misrliklarning kalla suyaklarini tadqiq etish orqali, ularni oriylarning kalla suyaklariga yaqin boʻlgan deb, qadimgi Misr madaniyatini ham zoʻrlik bilan oʻsha madaniyatga bogʻlamoqchi boʻldilar. Tarixni soxtalashtiruvchi fashistlarning bu daʼvolari mutlaqo notogʻri ekanligi koʻplab arxeolog, etnograf va tarixchi olimlar tomonidan hech qanday asosga ega emasligini ilmiy asoslab berganlar. Bu yerda faqat qadimgi Misrliklar bilan Sinay yarim oroli, Falastin va Arabistondagi qoʻshni semit qabilalari oʻrtasida boʻlgan ayrim madaniy munosabatlar toʻgʻrisidagina soʻz boʻlishi mumkin. Bu oʻzaro munosabatlar ayrim Osiyolik qabilalar Misrga kirib kelgan yoki bostirib kirgan davrlarda birmuncha kuchaygan. Tarixiy davrlarda bunday bostirib kirish hollari bir necha bor boʻlgan. Ammo arxaik davrda osiyoliklarning Misrga qilgan katta istilolari haqida hech qanday maʼlumot yoʻq.

Misr qadimiy aholisi antropologiyasini tadqiq etgan ayrim olimlarning fikricha “Misrliklar – sersoqol boʻlmagan, tasvirlarga yaxshilab qarasak, podsholarni uzun va quyuq soqollari sunʼiy boʻlganligini bilish qiyin emas” deb taʼkidlaydilar.

Qadimgi Misrliklar tilining qadimgi semit (finikiyaliklar, akkadliklar, ossuriy va qadimgi yahudiy) tillariga bir qadar yaqin boʻlishining sababi qisman shuki, Misr bilan Old Osiyo mamlakatlari oʻrtasida boʻlgan siyosiy va madaniy aloqalar tufayli ular bir-birlariga taʼsir qilganlar. Qadimgi Misrliklar tili eramizdan avvalgi birinchi va ikkinchi ming yilliklarda Misrga bostirib kirgan chet el istilochilari giksoslar, liviyaliklar, habashlar va boshqalarning tillari bilan chatishib ketganida, pirovard natijada, qadimgi Misrliklar tili doimo dominantlik qilgan.

Ayrim olimlarning fikricha Misrliklar “Mesopatamiya oralig‘idagi koʻp qabilalardan farq qilib” yuqorida

ta’kidlanganidek, bir tilda gapiradigan samit-hamit guruhiga mansub yagona xalq bo‘lgan[11].

Shimoliy Afrikaning ovchilik bilan mashg’ul bo‘lgan ko‘chmanchi qabilalari Nil deltasi va vodiysida o‘troq bo‘lib yashay boshlaganlar va bu yerlarda o‘z xo‘jalik taraqqiyotining umumiy saviyasiga muvofiq o‘troq dehqonchilik hayoti ko‘rinishlariga o‘ta boshlaganlar. Geografik sharoitlarning qulayligi dehqonchilik xo‘jaligiga o‘tish jarayonini ancha tezlashtirgan. Afrikaning Misr atrofidagi turli tumanlarida arpa va bug‘doyning dastlabki navlari bo‘lgan boshoqli yovvoyi o‘simliklarning mavjudligi bu yerda yashovchi qabilalarning mahalliy boshoqli o‘simliklarni iqlimlashtirib, ovchilik va chorvachilikdan dehqonchilikka o‘tishlariga imkon bergan.

Misrning turli joylarida - deltada, Fayum vodiysida hamda mamlakatning janubiy qismida yangi tosh asri (neolit) davridagi dalalar topildi. Bu dalalardan topilgan buyumlar Misrning neolit davridagi madaniyati Shimoliy Afrikaning eng qadimgi madaniyati bilan juda yaqin bo‘lganligini ko‘rsatadi. 1934-1935 yillarda Yunker va Menghin tomonidan deltaning shimoli-g‘arbidan, Qohiradan 40 km uzoqlikdagi Merimda Bani-Salam degan joyda o‘tkazilgan qazishlar katta arxeologik material berdi. Bu yerda katta bir daha topildi. Bu daha ikki ko‘chadan iborat bo‘lib, bu ko‘chalar bir-birlaridan 5 metr oraliqda joylashgan. Ko‘chalar mahallalarga bo‘lingan. Bu mahallalarning har biri taxminan 13 kulbadan iborat bo‘lib, uzunligi 100 metrga boradi. Bu kulbalarning ba’zilari sinchli qamish devordan qurilgan, ba’zilari paxsadan yoki hom plitdan qurilgan. Bir nechta hujradan iborat bo‘lgan bu tuxumsimon kulbalarning pollari qo‘pol qilib qo‘lda quyilgan to‘g‘ri burchakli va uch burchakli pint yotqizib ishlangan.

Yuqori Misrdagi Badari degan joyni qazishda moddiy madaniyatning bundan ham yuksak ko‘rinishlari ma’lum bo‘ldi. Aholi bu erda o‘troq bo‘lib, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan, qoramol boqqan hamda arpa ekan. Hunarmandchilik bu erda Merimda va Fayumga qaraganda birmuncha ko‘proq rivojlangan.

[11] Mana shu fikr yuzasidan munozara tashkil qiling. Ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rsating.

Diniy e'tiqodlar, xususan oʻlganlarning ruhini yodlash marosimi yanada aniqroq shaklga kirgan. Badaridagi gʻorlarda gʻujanak qilib koʻmilgan oʻlik suyaklari, juda koʻp gʻor asboblari, gʻorlar ustiga gʻishtdan qurilgan sagʻanalar, shuningdek tumorlar va totemizmning bu davrdagi diniy e'tiqodiga xos boʻlgan hayvonlar tasvirlangan haykalchalar topildi.

Yuqori Misrda, xususan Ballas, Begada, Al-Amra va Abidosdagi gʻorlardan juda koʻp turli-tuman moddiy madaniyat yodgorliklari topildi. Bu yodgorliklar odatda suloladan ilgarigi davr deb ataladigan birinchi yoki ilk davrga oiddir. Toshdan buyumlar yasagan texnikasining yuksakligini koʻrsatadigan koʻpgina buyumlar, chunonchi, chaqmoq toshdan ishlangan oʻq uchlari, granitdan yasalgan gurzi boshlari va bazaltdan qilingan koʻralar, shuningdek rombasimon xanjar bu gʻor ichidan topildi.

Ilk davrda kulolchilik ham yuksak darajada rivojlangan. Suloladan oldingi ilk davrning kulollari qizil va qora rangli har xil sopol idishlar yasay bilganlar, ular bu buyumlarni mahsus yoʻl bilan pishirganlar va ularning sirli har xil geometrik naqshlar va rasmlar bilan bezatganlar Odamlarni, hayvonlarni va oʻsha zamonda Misrliklar Nilda suzib yurgan oʻziga xos eshkakli katta qayiqlarni tasvirlarni rasmlar bilan bezatilgan sopol idishlar ayniqsa ahamiyatlidir.

Demak, yuqoridagi madaniy yodgorliklardan topilgan uylar, buyumlar, ularning shakli, rasmlari, sifati, saqlanganlik holati qadimgi Misrning davlatchilikkacha boʻlgan davrida ham oʻziga xos ilmiy yutuqlarga ega boʻlganligini koʻrsatadi.

Davlatchilik ildizlari. Umuman olganda, moddiy va yozma manbalarning umumiy tahlili hamda soʻnggi tarix fani sohasidagi ilmiy yutuqlar qadimgi Misr davlatchiligini quyidagi davrlarga boʻlib oʻrganish tavsiya etiladi. Misrning qadimgi tarixi besh davrga, ya’ni Ilk podsholik (er. avv. 3100-2648-y), Qadimgi podsholik (er.avv.2648-2250-y), Oʻrta podsholik (er. avv. 2040-1783-y), Yangi podsholik er.avv.1550-1069-y), Soʻnggi podsholik (er. avv. 664-332-y)ga boʻlib oʻrganiladi. Bu orada Misr 3 ta oʻtish davrini ham boshdan kechiradi. Ammo uning xronologik chegaralari borasida hozirga qadar misrshunoslar orasida munozarali fikrlar mavjud.

Ilk podsholikni yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari. Qadimgi Misr tarixida ilk bor sinfiy tabaqalanish er. avv. V ming-yillikda, Nil vohasining o‘zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. “Sulolagacha bo‘lgan davr” deb, yuritiluvchi mazkur davr Misr tarixida ikkiga bo‘linib, ya’ni “Amrat”(Negada I) va “Gerzey” (Negada II) madaniyatlari sifatida o‘rganiladi. Ushbu madaniyatlar qadimgi Misrda irrigatsiyaning o‘sishi va chorvachilik ovchilikdan ustun kela boshlashi haqida ma’lumot beradi. Hunarmandchilik o‘z navbatida dehqonchilikdan alohida xo‘jalik sifatida ajralib chiqdi va natijada qadimgi Misr jamiyatida mulkiy tabaqalanish jarayoni yanada o‘sib bordi. Aynan mana shu davrda Nil daryosi qirg‘oqlarida ilk davlatchalar (“sepat” yoki “nom”) paydo bo‘ldi. Shu tariqa ilk davlatchilik paydo bo‘lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy zamin yaratildi.

Nomliklar soni Nil bo‘yi aholisining o‘sishi bilan bevosita bog‘liq edi. Ularning hududiy chegaralari doimiy tusga ega bo‘lmagan. Har bir nom dastlab mustaqil ravishda ichki va tashqi siyosat yuritgan. Nil bo‘yi davlatchalari “nomarx”lar tomonidan boshqarilgan. Nomlik o‘z gerbi, diniy va siyosiy markaziga hamda harbiy qismlariga ham ega edi. Natijada ichki urushlar (misrshunoslikda “nol sulolasi”) davrida har bir nomarx oliy hukmronlikka intildi. Umumiy 42 ta nomlik ikkiga ya’ni, Yuqori Misr va Quyi Misr davlatiga birlashdi. Madaniy jihatdan ushbu davlatlar bir-biridan farq qilgan deb, bo‘lmaydi. Ammo diniy va siyosiy mafkurasida sezilarli tafovut bo‘lgan. Qadimda iyerogliflarda misrliklar mamlakatini “Ta-kemet” yoki “Ta-ui”deb ataganlar. Shu tariqa, harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillar mazkur hududda davlatchilik tizimini shakllanishiga imkon yaratdi. Ilk podsholikni Misrning Tinis nomligi (Abidosdan uncha uzoqda bo‘lmagan hudud)dan chiqqan Menes (Axa yoki Mina) tuzadi va birlashtiradi. Ayrim manbalarda uni Narmer deb ham atashadi. Poytaxt sifatida Nil bo‘yidagi yangi shahar Memfis tan olindi. Dastlabki I-sulolaga asos solindi. Shunday bo‘lsa-da Quyi Misr nomliklari o‘ziga xos muxtoriyatni saqlab turgan. Ilk podsholik davrida misrliklar hayotida urug‘chilikni ta’siri hali kuchli bo‘lgan va ular,

asosan tosh, mis mehnat qurollaridan koʻproq foydalanishgan, bronza esa kam edi. Nomliklar orasidagi separatizmni fir'avnning siyosiy mavqei muvozanatda ushlab turgan. Ilk podsholik fir'avnlari Jer (er. avv. 2970-2923-y), Uadji (er.avv.2922-2915-y), Den (er. avv. 2915-2910-y), Adjib (er. avv. 2910-2900-y), Semerxet (mil. avv. 2900-2890-y)lar davrida Misr davlatchiligi asoslari mustahkamlandi. Misr fir'avnlari Den va Adjiblarni yuzlab qullari narigi dunyoga "kuzatib" qoʻyish uchun ular bilan birga dafn etilganlar[12].

Oddiy misrlik aholi vakillari esa, odatda choʻlda yuzi sharqqa qaratib qumga koʻmilgan. Hukmdor Adjib oʻziga "Nesu-bit" podsholik unvonini qabul qiladi. "Nesu" tushunchasi yuqoridan, hokimiyatni otadan oʻgʻilga oʻtishi va "bit" fir'avn oʻlimidan soʻng ham boshqaruvni tutib turuvchi ma'nolarini anglatar edi. Ya'ni, bunda hukmdor oʻz oʻgʻlida qayta gavdalanishiga ishora qilingan.

1-sulolaning soʻnggi podshosi Kaa (er. avv. 2890-2864-y) Abidos yaqinida Umm al-Kaab nekropoli yonida oʻziga mahobatli maqbara qurdirgan. Fir'avn Kaa oʻlimidan soʻng II-sulolaga Xotepsexemui asos soladi. Davlat boshqaruv tizimi din bilan ajralmas tusga ega boʻlgani uchun, ijtimoiy tabaqalanishning qonuniylashuvi rivojlanib bordi. Xotepsexemuidan soʻng Raneb, Ninecher, Veneg, Sened, Nubnefer, Paransin va boshqa fir'avnlar Misrni boshqardilar. Ularning hukmronligi xronologiyasi borasida hozir ham misrshunoslar orasida qarama-qarshi fikrlar mavjud.II-sulolaning soʻnggi fir'avni Xasexem (taxminan. er. avv. 2686-2648-y) oʻz podsholigini Deltadagi (Quyi Misr) qoʻzgʻolonni bostirishdan boshladi. Natijada 48205 nafar kishi oʻldirildi va 47209 tasi asir olindi. Soʻngra, Yuqori va Quyi Misr yagona davlatga yana birlashtirildi. Birlashish jarayonida Misr davlati ilk bor fuqarolar urushini boshdan kechirdi. Endi markaziy hokimiyatning oʻrni avvalgiga qaraganda ancha oshdi. Nubiyaga harbiy yurushlar qilindi va boy oʻljalar olib kelindi. Butun mamlakat boʻylab ichki va tashqi savdo-sotiq (ayniqsa Yaqin Sharqdagi Bobil shahri bilan) qayta tiklandi. Natijada Misrning iqtisodiy qudrati oshadi. U quyi Misr malikasi Nematapni xotinlikka oladi va separatizmga chek qoʻyishga

[12] Dastlabki davrlarda qullarni "Tirik murdalar" deb atalishi shundan kelib chiqqan.

harakat qiladi. So‘ngra fir’avn o‘z ismini Xasexemui (Ikki hokimiyatni mujassamlashtiruvchi) deb o‘zgartiradi. Uning Abidosdagi mahobatli maqbarasi oldida avvalgidek xizmatkor va qullar qatl etilmagan. Chunki, uning davrida bo‘lib o‘tgan fuqarolar urushi, fir’avn boqiy va o‘lmas degan tushunchani vaqtinchalik yo‘qqa chiqargan edi. Insonlarni inson uchun qurbon qilish odati tugatildi. Shu tariqa Qadimgi Misr tarixida Ilk podsholik davri o‘z nihoyasiga yetadi.

Qadimgi podsholik davrida Misr. Er. avv. XXVII-XXIII asrlar, ya’ni qadimgi podsholik davrida Misr kuchli unitar davlat bo‘lib, unga mis konlariga boy bo‘lgan Sinay yarimoroli qo‘shib olindi. Fir’avn Joser u yerga harbiy ekspeditsiya uyushtiradi[13]. Ko‘p o‘tmay Falastinning ayrim hududlari va Shimoliy Nubiyani (hozirgi Sudan) o‘z ta’sir doirasiga oladi. Misrliklarning fikricha, mamlakat taraqqiyotining eng yuqori o‘sish davri qadimgi podsholik asoschisi Joser davriga to‘g‘ri keladi. U Memfis shahrining poytaxt mavqeini tikladi. Fir’avn hokimiyatini kuchaytirdi, jumladan, podshoning jismi xudolar jismiga o‘xshab, oltindan yaratilganini anglatadigan yangi unvonni kiritdi. Podsho mamlakatda tinchlik va osoyishtalik timsoliga aylangan edi. Joserning “xeb-sed” deb atalgan marosimda yugurayotgan holdagi tasviri yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Joser va II-sulola vakillari xom g‘ishtdan qurilgan maqbaralarda dafn etilishni istamadi. Josergacha Misr fir`avnlarini xom g‘ishtdan qurilgan yassi bino-mastaba (arabcha-o‘tirg‘ich)ga dafn qilar edilar. Fir’avn o‘z maqbarasini birinchi marotaba zinapoyali ehrom shaklida toshdan qurdiradi. Joserning maqbarasi ilk piramida shaklidagi biri ustidan ikkinchisi ustma-ust qo‘yilgan zinapoyasimon 6 mastabadan[14] (balandligi 60 metr) iborat bo‘lib, ohaktoshdan bunyod qilingan edi. G‘arb olimlarining fikricha, (S.Bauer) Joser piramidasini Sakkara hududida saroy me’mori, bosh maslahatchi, vazir Imxotep loyihasi asosida yaratilgan bo‘lishi mumkin. Aynan Imxotep boshchiligida yangi yil hisobi Sirius yulduzini tongda paydo bo‘lishiga asoslangan yangi taqvim joriy qilinadi. Unga

[13] Shu masalada ilmiy izlanishlar olib borib, taxliliy munozara qiling. XXI asrda ham ushbu mineral resurslar masalasi ustuvor bo‘lmoqda. 2026 yil, 3 yanvarda Venesuellaga amalga oshirilgan “harbiy operatsiya” doirasida ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

[14] Qadimgi Misrda podsholar va amaldorlar uchun qurilgan to‘rtburchak shakldagi qabr inshootidir.

muvofiq mavsumiy hosil yig‘im-terimi astronomik izlanishlar bilan
bevosita bog‘landi. Natijada hosildorlik oshib, Misr aholisi soni o‘sdi va bu yerga qo‘shni davlatlardan savdogarlar (tamkarlar) ko‘p kela boshladi. Impxotep haykali ostida fir’avn unga taqdim etgan unvonlar birin-ketin sanab o‘tiladi. Jumladan,u “podshoning Quyi Misrdagi g‘aznachisi”, “Yuqori Misrda podshodan keyin birinchi”, “Saroy boshqaruvchisi” va “Geliopolisning oliy kohini” sifatida tilga olindi. Ko‘p o‘tmay uni tabobat xudosi sifatida ilohiylashtiradilar.

Joserdan keyingi fir`avnlar Memfisdan g‘arbda o‘z piramidalarini qurdilar. G‘arb olimlarining fikricha, III-sulolaning so‘nggi fir’avni Xuni davrida Meydum ehromi qurila boshlaydi. Ammo, sakkiz zinapoyali qilib qurilishi kerak bo‘lgan ehrom, oxirigacha bitmay qoladi. Uni yangi fir’avn Snofru (taxminan er.avv. 2613-2589-y) bitirishga muvaffaq bo‘ldi hamda to‘rtinchi sulolaga asos soldi. Aynan uning hukmronligi davrida qo‘shni mamlakatlar hujumlar amalga oshirilgan. U Efiopiyaga yurishi natijasida 7000 asir va 200 ming bosh chorva haydab kelganligi manbalarda aks etgan. Yana bir e’tiborli jihat borki, olimlar orasida haligacha bahsga sabab bo‘layotgan masala ya’ni Misliklar juda katta hududlar bosib olishni va qat’iy o‘ziniki qilib olishni maqsad qilib qo‘ymaganlar. Faqat o‘lja uchun Liviya, Efiopiya va Falastinga har zamonda hujum qilib turganlar.

Qadimgi podsholik davrida qo‘shinda yollanma askarlarni xizmat qilishi nisbatan o‘sdi. Ya’ni, liviyalik va Nubiyaliklar harbiy xizmatga olina boshlandi. Keyingi fir’avnlar davrida ulkan ehromlar qurilishi davlatning diniy mafkurasi miqyosidagi ishga aylandi. Xeops (taxminan er. avv. 2589-2566-y) podsholigi davrida yuqorida eslab o‘tilganidek, balandligi 147 metrga teng bo‘lgan ulkan ehrom qurildi.

Qadimgi Misrliklar tilida fir’avnning to‘liq ismi Xnum-Xufu (Xeops) yani “Xnum meni himoya qilmoqda” degan ma’noni anglatgan. Ma’lumki misrliklar tasavvurida Xnum xudosi Nil homiysi va insonlarni kulolchilik charxida loydan yaratgan degan tasavvur mavjud bo‘lgan. Xeops davrida Nil daryosi qirg‘oqlarida ko‘plab qishloqlar qurildi va mamlakatda hosildorlik oshdi.U

bunyod ettirgan ehromlar 2,5 tonnaga yaqin ohaktoshdan qurilib, granit toshli plitalar bilan qoplangan. Uning o‘g‘li Xafra (Xefren) qurgan piramidaning balandligi (143 m.) sal pastroq edi. Eng so‘nggi ulug‘vor piramida Xafraning o‘g‘li Menkaura (Mikerin) tomonidan qurilgan bo‘lib, balandligi 66 metr edi. Piramidalar ohaktoshlardan qurilib, granit plitalar bilan qoplangan. Piramidalar qurilishiga yuz minglab kishilar jalb qilingan. Ushbu mahobatli qurilish inshootini bunyod etilishi uchun yuz minglab odamlar mehnat qilishga majbur edilar.

Tarixchi Gerodot Xeopsni shafqatsiz hukmdor sifatida tilga oladi. Shunday bo‘lsa-da, Xeops Misr aholisini doimiy ish bilan band qiladi. Ustalar va ishchilar qurilish yaqinidagi shaharchada istiqomat qilganlar. Ularga ovqat, non, pishloq, baliq, pivo va boshqa taomlar doimiy etkazilgan. Ehromlar yonidan tandirlar, oziq-ovqat omborlari va o‘choqlar qoldiqlari topilgan.Ehrom qurilishi jarayonida oddiy quruvchidan usta darajasigacha etish mumkin edi.Fir’avn Xafra (“Turin papirusi”ga muvofiq taxminan er. avv. 2558-2532-y) davrida Misr ibodatxonalarini yopganlar hamda yangi umumdavlat Quyosh xudosi Raga sig‘inishni joriy qiladilar. Misrda qadimgi podsholikning yuksalgan davrida fir’avn hokimiyati qudrati oshib boradi. Fir’avnning qo‘lida ulkan yer zahirasi, dehqonlar (ishchi kuchi) to‘plangan edi. Fir’avnlar “Quyosh o‘g‘li” unvonini qabul qiladilar. Misr davlatining qonuniy podshosi (Quyosh xudosi)ni yerdagi ayol bilan yaqinligidan dunyoga kelgan degan fikr mavjud edi. Hech kimga fir’avn ismini aytish mumkin emas edi. Zero, misrliklar e’tiqodiga ko‘ra, uni nomini aytish podshoga ziyon etkazish bilan barobar bo‘lgan. Shuning uchun, uning ismini “Fir’avn[15]” ya’ni “ulug‘ xonadon”, “katta uy” deb atashgan. Agar olimlar tadqiqotlariga tayansak, uni nomi (per-o, fir`avn so‘zi shundan kelib chiqqan) bo‘lishi mumkin. Odamlar orasida fir’avn tirik iloh deb tasavvur qilingan. U tog‘lar xudosi Gorning qiyofasi, Quyosh xudosi Raning o‘g‘li, hamda o‘limidan keyin xudo Osiris sifatida ulug‘langan va unga sig‘inish uchun ehromlar yonida ibodatxonalar bunyod etilgan. Fir’avn bosh kohin sifatida ham gavdalangan. Qadimgi podsholik fir’avnlari ilohiy “Ra” bilan qondosh ekanligiga ishonganlar va

[15] Firavn so‘zini Ra xudosi nomi bilan ham bog‘lashadi.

o‘zlarini samoviy hukmdor deb e’tirof etganlar. Unga dunyoviy va diniy hokimiyat timsoli sifatida qaralgan. Qadimgi podsholik davrida 42 ta nomliklarning mustaqilligi deyarli tugatildi. Nomarxlar markaziy hokimiyatga qaram bo‘lib, bir nom (yoki sepat)dan ikkinchisiga almashtirib turiladigan davlat amaldorlariga aylantirildilar. Separatizmga yo‘l qo‘ymaslik uchun nomliklar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlar ham davlat nazoratida bo‘lgan.

Shu o‘rinda savol tug‘iladiki, fir’avnlarning bunchalik cheksiz qudrati nimaning natijasida yuzaga keldi? Albatta, Qadimgi podsholik davridan boshlab barcha yerlar, kon va tosh konlar (misrda tosh juda qimmat bo‘lgan) hammasi fir’avnniki hisoblangan. Bundan tashqari yig‘iladigan soliqlar xalq ehtiyojiga esa, fir’avnning shaxsiy ehtiyojiga sarf qilingan. Shundan ayrim marosim odatlari kelib chiqqan. Masalan, fir’avn oldida turgan fuqaro yerga yotib qorni yerga tekinucha ta’zim qilib yerni o‘pishga, ayrim nufuzli shaxslargina hukmdor oyog‘ini o‘pishga xaqli bo‘lganlar. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, Misr Sharqning o‘ziga xos yakka hukmronlikka asoslangan despotik davlatlaridan biri bo‘lgan. Keyingi fir’avnlar ulkan qurilishlarni to‘xtatdilar, Quyosh xudosi (Ra)ga sig‘inish markazi sifatida Geliopol (hozirgi Baolbek) shahri ulug‘landi. Kohinlar davlatdan yangi ekin maydonlarini oldilar. Ularning ta’siri yanada ortib bordi.Yozma manbalarga ko‘ra, (Gerodot) fir’avn Menkauraning o‘g‘il farzandi bo‘lmaganligi tufayli taxtga Menkauraning jiyani Userkaf (er. avv. 2494-2487 y) keladi va V-sulolaga asos soladi. Undan so‘ng fir’avnlar Saxura (er.avv. 2487-2475 y), Neferirkara Kakai (er. avv. 2475-2465 y), Shepseskara (er. avv.2465-2460 y), Neferefra (er. avv. 2460-2458 y), Niuserra (er. avv. 2458-2422y), Menkauxor (er. avv. 2422-2414 y), Djedkara Isesi (er. avv. 2414-2375 y) va boshqalar ketma-ket hukmronlik qiladi. Ushbu sulola davrida misrliklar Sinay va Nubiyada o‘z ta’sirini yo‘qotmadilar. Liviyada urushni davom ettirdilar va savdo-sotiq uchun imkoniyat kengaydi. Fir’avn Isesi davrida misrlik savdogarlar uzoq Punt (Somali) o‘lkasiga sayohat qiladilar. Er. avv. XXIV-XXII asrlarda Misrda tashqi siyosat yanada faollashdi.Uning podsholari Falastinga yurish qildilar. Finikiyaning Bibl shahri Misr

qo‘shinining tayanch punktiga aylanadi. Misr chegarachilari bu yerda doimiy yashar edilar. Ularning madaniyatiga Misr madaniyati chuqur ta’sir qiladi. Nubiyadan misrliklar oltin va fil suyagini olib kelishadi. Garchi Misrning iqtisodiy qudrati o‘sganligiga qaramay, beshinchi sulolaning so‘nggi fir’avni Unis kichik ehromga dafn etilgan. Maqbarasida “O Ra, bu podsho Unis seni o‘g‘ling, yoningga bormoqda”degan so‘zlar bitilgan. Davlat markazlashgan despotik (yakka hukmdor) ko‘rinishni olib, tarmoqlangan byurokratik apparatga ega edi. Boshqaruv apparatining oliy amaldorlari zodagonlardan bo‘lib, ularning lavozimi merosiy bo‘lgan. Ular fir`avn nomidan mamlakatni boshqarganlar. Boshqaruvda mirzalar alohida o‘rin tutgan. Barcha joylarda hisob-kitob ishlariga katta ahamiyat berilgan. Zodagon amaldorlarning o‘zlari mirzalik kasbini yaxshi o‘zlashtirib olganlar. Bu kasbni o‘g‘illariga o‘rgatishni majburiy deb bilganlar. Zodagonlarning o‘g‘illarini o‘zi ko‘pincha o‘z otalarini xo‘jaligida mirzalik qilganlar. Biroq qadimgi Misrda davlat amaldori bo‘lishni asosiy shartlaridan biri kishilarning hat savodli bo‘lishlari shartligidir. Savodli bo‘lish hammaga ham nasib qilmagan. Maktab aynan shunday shaxslarni etkazib berish bilan shug‘ullangan. O‘z navbatida hat savodli kishilar Misrni tashqi dunyoda ham madaniyatini targ‘ib qiluvchilari sifatida qadrlangan.

Qadimgi Misrda hududlardagi davlat boshqaruv tizimi uch bug‘indan iborat bo‘lib – markaziy, viloyat (nom), mahalliy (qishloq-jamoalariga) bo‘lingan. Nomlar (sepat) boshqaruvi markaziy boshqaruv kichikroq ko‘rinishidagi shakli bo‘lgan. Ko‘p hollarda nomarxlar separatizmi mavjud bo‘lgan. “Jad-jad”, “Kanbet” atamalari jamoa kengashlari nomini bildirib, ular mahalliy sug‘orish tizimini kuzatish bilan birga, jamoada ichki sud ishlarini ham amalga oshirar edilar. Oilalar jamoa kengashlariga, ular esa o‘z navbatida, yuqori hokimiyatga bo‘ysundirilgan. Ammo mansabdor odamlar tizimi markaziy hokimiyatga bog‘liq edi. Qadimgi podsholik davlat boshqaruvi tizimi fir’avnning yagona va cheklanmagan hukmronligiga asoslangan edi. Misr fir’avnlarining yaqin maslahatchisi va yordamchisi “chati” (bosh vazir) bo‘lgan. U hukumat amaldorlariga boshliqlik qilganligi borasida tarixiy manbalarda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga chati

mamlakatdagi sun’iy sug‘orish ishlarini va hosil yig‘imini ham nazorat qilar edi. Mamlakatdagi chorvachilik ishlarini nazorat qilish, hunarmandlar, harbiy tayyorgarlik, soliqlarni yig‘ish, lashkar to‘plash, bosh qozilik, diniy miqyosdagi qurilishni boshqarish ham bosh vazirning zimmasida edi. O‘z navbatida hatto kichik lavozimdagi saroy amaldori ham bir vaqtning o‘zida qo‘shin qo‘mondoni, saroy oqsoqoli, Yuqori Misrni boshqaruvchisi, biror-bir ibodatxonaning bosh kohini vazifalarini ham bajarganligi tarixdan ma’lum. Fir’avn o‘zini oddiy xudo emas, balki “ulug‘ iloh” deb ulug‘lagan.

Davlat markazlashgan despotik (yakka hukmdor) ko‘rinishni olib, tarmoqlangan byurokratik apparatga ega edi. Boshqaruv apparatining oliy amaldorlari zodagonlardan bo‘lib, ularning lavozimi merosiy bo‘lgan. Ular fir`avn nomidan mamlakatni boshqarganlar. Boshqaruvda mirzalar alohida o‘rin tutgan. Barcha joylarda hisob-kitob ishlariga katta ahamiyat berilgan. Zodagon amaldorlarning o‘zlari mirzalik kasbini yaxshi o‘zlashtirib olganlar. Bu kasbni o‘g‘illariga o‘rgatishni majburiy deb bilganlar. Zodagonlarning o‘g‘illarini o‘zi ko‘pincha o‘z otalarini xo‘jaligida mirzalik qilganlar.

Oltinchi sulolaning birinchi fir’avni Teti davrida Misrda markaziy hokimiyatga bo‘ysunish kuchsizlanadi. Ayrim nomlar podshoni nomigagina yoki marosimiy shaklda tan olganlar xolos. VI-sulola fir’avnlari davrida podsho hokimiyati zaiflashgan vaqtda ham Misr podshosi barcha xudolardan ko‘ra, ulug‘roq deb tan olingan. Uning o‘zi mamlakat boshqaruvining qonuniylik timsoli edi. Yuqori va kichik amaldor zodagonlar yuksak lavozimlarni egallagan bo‘lsalar-da, hunarlarni egallashdan uyalmaganlar[16]. Ular hatto ustaxonalarga, qurilish ishlariga boshchilik qilganliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qadimgi podsholik davrida Misrda harbiy ishlar rivojlandi. Qo‘shinning asosiy quroli o‘q-yoy bo‘lgan. Qurol-aslaha va o‘q-yoy zaxirasi yaratilib, maxsus joylarda saqlangan. Sinay yarimoroli va Efiopiya (Nubiya) chegaralarida chegara harbiy qismlari mavjud bo‘lgan. Ko‘ngilli qo‘shinga alohida harbiy boshliqlar boshchilik qilgan. Davlat qo‘shini asosan erkin ziroatkor va chorvador misrliklardan tashkil etilgan bo‘lib,

[16] Munozara uchun: ushbu holat yana qaysi davlat tarixida uchraydi?

oʻq-yoy, nayza, kalta bronza chopqi bilan qurollangan piyodalardan iborat boʻlgan. Shimoliy va janubiy chegaralarda garnizonlar turgan. Qoʻshin asosan koʻngillilardan iborat piyodalar boʻlib, fir’avnning vakolatli odami va harbiy boʻlmagan mansabdor shaxslar boshchiligida yurushga chiqqan. Kambagʻal jangchilar oddiy kamon va oʻqlar bilan qurollanganlar. Jang aravalari va otliqlardan foydalanilmagan. Misr aholisining yashash joylari ham oddiy va sodda boʻlgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor boʻlib, papirus novdalari, xom gʻisht va loydan qurilgan edi. Yetishtirilgan hosildan soliq sifatida undirilgan gʻalla, maxsus davlat omborlarida saqlangan. Bu davrda misrliklarning uylarining polis somonli loy bilan suvalganligi arxeologik ma’lumotlarda keltiriladi. Dehqonlar oʻz uylarida don mahsulotlarini asosan xumlarda saqlaganlar. Qadimgi devoriy tasvirlarda kambagʻal ziroatkorlar bellarini bir parcha mato bilan oʻrab yurganliklari tasvirlanadi. Oʻsha davrda oddiylik misrliklarga xos xususiyat edi. Misrlik ovchiva baliqchilar gavdani beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashgʻulotlari Shunga bogʻliq edi. Tez oqar Nil daryosi mamlakat uchun muhim savdo va strategik kommunikatsiya bugʻini hisoblangan. Fir’avn Teti hukmdorligi davrida oʻzini “Sexeteptavu” (yani, ikki yerni tinchlantiruvchi) deb atashi, mamlakatni yana Yuqori va Quyi Misrga boʻlinib ketganligidan dalolat berar edi. Tetining oʻgʻli Piopi I (er. avv. 2310-2260-y) saroy a’yonlari ta’siriga tushib qoladi. Markaziy hokimiyat esa sezilarli darajada kuchsizlanib qoladi. Piopi II davriga kelib, Misr nomliklarga boʻlinib keta boshlaydi. Darhaqiqat, aynan Piopi II Qadimgi podsholikning soʻnggi fir’avni sifatida aksariyat gʻarb mutaxassislari tomonidan e’tirof etiladi. Garchand, Memfis shahri poytaxt maqomini saqlab tursa-da uning siyosiy mavqeyi yoʻqolgan edi.

Qadimgi Misr podsholigining inqirozi. Er. avv. XXIII asrda nom (yokisepat) va davlat xizmatidagi zodagonlarning mavqei oshib bordi. Aksariyat amaldorlarning koʻpchiligi soliq majburiyatlaridan ozod boʻlganlar.Davlat qudrati kuchsizlandi (VI-VII sulolalar davridan), lekin mahalliy hokimlar-nomarxlar katta moddiy boyliklarga ega boʻldilar. Memfisdagi fir’avnlarning hokimiyati joylarda nomigagina tan olinar edi. Misr zaiflashib,

mamlakatda siyosiy anarxiya hukm surar, davlat esa bir-biriga dushman nomlarga bo‘linib ketdi. Qaroqchilik va ehromlarni talon-toroj qilish oddiy hol bo‘lib qoldi. Qadimgi podsholik davrida yagona davlatning yemirilishi bilan Misr tarixidagi I-o‘tish davri yoki siyosiy tarqoqlik davri (er. avv. 2250-2050-yillarning oxiridan) boshlandi. Davlatning zaiflashuvi keskin tabiiy o‘zgarishlar cho‘llarni kengayishi bilan bevosita bog‘liq edi. Nil daryosining suvi keskin pasayib bordi. Mutaxassislarning fikricha, hosilning kamayishi,ochlik va ijtimoiy norozilikning kuchayishi pirovardda davlat tizimining yemirilishiga sabab bo‘ldi. Mil. avv. XXII asr boshlarida Yuqori Misrning markazi bo‘lgan Memfisda VIII-sulola bilan bir vaqtning o‘zida Nil vodiysining o‘rta qismida yangi IX-sulola hukmronlik qila boshladi. Unga er. avv. 2120-yilda fir’avn Axtoy III asos soladi. Fir’avnning misrcha to‘liq ismi Uaxkara Xeti (yoki Xeti I) bo‘lib, Gerakleopol shahri atrofida mamlakatni birlashtirishga urinib ko‘radi.Yangi hukmdor deyarli butun Misr ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Shu bilan birga, Gerakleopol fir’avnlari Germopol, Fiva va bir necha nomlarning avtonomiyasini yo‘qota olmadilar. Ayniqsa, Yuqori Misrning muqaddas shahri Abidosni Gerakleopol fir’avnlari tomonidan talon-toroj etilishi natijasida, Siut va Germopol nomlari ularni qo‘llab quvvatlamay qo‘ydilar. Bunga javoban ular nomlarni to‘la o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qildi. Axtoy Osiyo ko‘chmanchilariga qarshi urush olib bordi. Axtoyning ayrim masalalarda kelajak avlodlarga qilgan nasihatlari etib kelgan. Ulardan biri hozirgi kunimizda Ermitaj muzeyida saqlanayotgan o‘g‘li Merikaraga nasihati saqlanadi. Unda “Zodagonlar bilan inoq bo‘lgin, katta amaldorlarga o‘lim jazosi bermaslikni, oddiy xalqni qo‘zg‘olonini shavqatsizlik bilan bostirishni maslahat” bergan. ”Er.avv. III ming yillik oxirida Misrning xo‘jalik ahvoli mamlakatni birlashtirishni talab etardi. Irrigatsiya tizimi tushkunlikka uchradi, aholi orasida ochlik oddiy hol bo‘lib qoldi. Asrning oxirida Fiva nomining hokimlari mamlakat janubini o‘z hokimiyatlari ostida birlashtirib, fir’avn unvonini (XI-sulola) oldilar va shimol podsholarining jiddiy raqibiga aylandilar. Gerakleopollik (X-sulola) fir’avnlardan Xeti III (er.avv. XXI asr o‘rtalari) Siut nomarxi Tefeb bilan ittifoqda Fivaga qarshi uzoq urush olib boradi va

ulardan Abidosni tortib oladi. Ittifoqchilarning Nil daryosidagi floti,ularga strategik ustunlikni berdi. Ammo Fiva nomarxi Iniotef II (er. avv 2118- 2069-y)ni to‘liq engib bo‘lmadi. Natijada ikki o‘rtada sulh tuzildi. Fir’avn Xeti III o‘z o‘g‘li Merikaraga, Fiva nomligiga nisbatan hurmatda bo‘lishni nasihat qilgan edi.

Qadimgi Misr podsholigining qulashining yana bir sababi, yevropalik olimlarning fikricha, mintaqa ro‘y bergan radikal o‘zgarishlar sabab bo‘ldi, bu o‘zgarishlar eramizdan avvalgi 2200-2150 yillar oralig‘ida Afro-Yevroosiyoni ham qamrab oldi. Mesopatamiya va Harappaliklarga Misrliklarga singari bu o‘zgarishlar qattiq ta’sir ko‘rsatdi[17]. (Bahs uchun: Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, qaysi o‘zgarishlarni radikal deyish mumkinligi haqida fikr yuriting. Qanday holatlarda sulolar inqirozga uchraganligini boshqa davlatlar tarixiga tegishli ma’lumotlar asosida bahslashing.)

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misr tarixini o‘rganishda qo‘llaniladigan manbalarni turlari bo‘yicha tasniflang
2. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlimiy sharoiti va aholi joylashuvi xususiyatlarini tahlil qiling.
3. Jahon Misrshunoslik (egiptologiya) fanining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar faoliyati, guruhlarga ajralgan holda bahs uyushtiring.
4. Qadimgi Misr hududida ilk shahar-davlatlar va siyosiy birlashmalarning paydo bo‘lish jarayonini yoriting.
5. Qadimgi Misr tarixi bo‘yicha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan muhim topilmalarni tahlil qiling, ularning tarix fanini rivojlantirishdagi ahamiyatini baholang.
6. Qadimgi Misrning tabiiy boyliklari (yer, suv, foydali qazilmalar) va ularning davlatchilik hamda iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri mavzusida ilmiy esse tayyorlang.
7. Qadimgi Misrda ilk davlatchilikning vujudga kelishi jarayoni va nom (sepat)lar tizimidagi boshqaruv shakllarini tahlil qiling, markazlashuvning sabab va oqibatlarini ochib bering.

[17]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.85.

8. Qadimgi Podshohlik davrida (er. avv. III ming yillik) yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni kompleks tarzda tahlil qiling.

9. Qadimgi Podshohlik davridagi davlat boshqaruv tizimini tavsiflang, fir’avn hokimiyati, amaldorlar apparati va ma’muriy tuzilmaning o‘zaro munosabatlarini yoriting.

10. **Keys-savol:** Agar siz Qadimgi Misrda Qadimgi Podshohlik davrida yashagan amaldor yoki boshqaruvchi bo‘lganingizda, Nil toshqinlarini nazorat qilish va sepatlar ustidan markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun qanday chora-tadbirlarni taklif qilgan bo‘lardingiz? O‘z javobingizni tarixiy voqelik va mavjud boshqaruv tizimiga tayangan holda asoslab bering.

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

3-MAVZU. O‘RTA PODSHOLIK DAVRIDA MISR DAVLATI

Reja

1. O‘rta podsholik davrida Misr davlatchiligi.
2. Ichki va tashqi siyosat.
3. O‘rta podsholikning inqirozi sabablari.

O‘rta podsholik davrida Misr davlatchiligi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Qadimgi podsholikni inqirozida ko‘plab ichki va tashqi omillar sabab bo‘lgan edi. Birinchi o‘tish davrida (er. avv. 2250-2055-y) Misr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz iskanjasida edi. Mamlakat siyosiy anarxiya natijasida parchalanib, har bir nomarx o‘z yerida hukmronlik qilar va Gerakleopoldagi markaziy hokimiyatni deyarli tan olmas edi. Er. avv. XXII asr Gerakleopol va Fiva nomliklari o‘rtasida doimiy raqobat va kurash davri sifatida tarixda qolgan. Yuqori Misrning qudratli nomlaridan biri Ineotef Kattaning o‘g‘li Mentuxotep I (er. avv. 2133-2117 y) Fivada XI-sulolaga asos soladi. Va shu tariqa Misr davlatchilik tarixida nisbatan taraqqiy etgan davrlardan biri hisoblangan O‘rta podsholik davriga (er. avv. 2020-yil – er. avv. 1750-yillar) asos solindi deyishimiz mumkin. Garchand u fir’avn unvonini qabul qilmagan bo‘lsa-da, Fiva nomligining Yuqori Misrda gegemonligiga yo‘l ochdi. Gerakleopol hukmdorlari Quyi Misrga ham ta’sir o‘tkazib, mamlakat shimolini tashqi dushmandan muhofaza qila oldilar. Ammo, Fivani bo‘ysundira olmadilar. Chunki, “Turin papirusi[18]” ma’lumotlariga ko‘ra podsholar ro‘yxati ichida Gerakleopol hukmdorlari bilan bir qatorda Fiva nomarxlarining ham ismlari keltiriladi. Ichki urushlar Fiva nomarxi Nextnebtepnefer Intef III (er.avv.2063-2055-y)ning vorisi Nebxepetra Mentuxotep II (er. avv. 2055-2004-y) va Gerakleopol hukmdori Merikara o‘rtasida kurash bilan tarixda qolgan. Hukmronligining 39-yili Mentuxotep II Yuqori va Quyi Misrni birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Misr yana yagona davlatga aylandi.

[18] Munozara uchun: Turin papirusi haqida bahs uyushtiring.

U Deyr-Al-Baxridagi ibodatxonada dafn etilgan. Fir’avn Mentuxotep III o‘z otasining siyosatini davom ettirdi, Amon va Montu (Fiva shahri ilohi) xudolariga atab ibodatxonalar bunyod qiladi. Mil. avv. 1992 yil fir’avn Mentuxotep III vafot etdi va orada yetti yil Mentuxotep IV (hukmron sulolaga umuman aloqasi yo‘q kishi) mamlakatni boshqardi. Mentuxotep III ning saroyida chati (vazir) lavozimida ishlagan Amenemxet I ham podsho naslidan emas edi. Shunday bo‘lsa-da fir’avn vafotidan so‘ng aynan u podsholik taxtiga chiqdi. Amenemxet I (er. avv. 1976-1956 y) fir’avn bo‘lgach, XII-sulolaga asos soladi. Afsonaviy Narmerga ixlos qilib, poytaxtni Memfisdan taxminan 20 mil (30-32 km) janubda joylashgan Iti-Taui (Ikkala yerni birlashtiruvchi) shahriga ko‘chiradi[19]. Tarixchi olimlar fikricha haqiqiy mustahkam davlatni aynan yangi XII–sulola barpo qilgan. XII-sulolani asoschisi Amenemxet I (er. avv. 1976-1947-yillar) fir`avn bo‘lganiga qadar XI sulolaning oliy amaldori edi. Yangi poytaxt Yuqori va Quyi Misrni muvozanatda



[19] Tarixda poytaxt ko‘chirishlar qanchalik samarador bo‘lgan? Hatto bugun ham Indoneyziya, Eron kabi davlatlarda ushbu masala kun tartibida turibdi. Ushbu masala yuzasidan guruxlarga bo‘linib munozara qiling.

ushlagan holda boshqarish uchun tanlangan edi. Amenemxet I xattotlariga o‘zi haqida bashorat (Neferti bashorati) shaklidagi afsona yozishni ham buyurdi. Shuningdek, qo‘shinlarni Nil deltasiga yuborib, qal’a va mudofaa devorlarini (Hukmdor devori) qurdirdi. Osiyolik ko‘chmanchilarning Misrga kirib kelish to‘lqini nazoratga olindi. Iti-Taui shahri yaqinida o‘zi uchun kichik ehrom ham bunyod ettirdi. Afsuski, Amenemxet I fitna natijasida o‘z soqchilari tomonidan yotoqxonasida o‘ldiriladi. Bu hodisa haqida keyinchalik uning o‘g‘li Senusert I yozma ma’lumot qoldirgan. Senusert I (er. avv. 1956-1911-y) hokimiyatga kelishdan oldin otasining buyrug‘i bilan Nubiya va Liviyaga harbiy yurushlar qiladi va katta o‘ljalar olib kelgan. Fir’avn Amenemxet I o‘ldirilgan paytda, shahzoda Liviyada harbiy yurushda bo‘lgan. Poytaxtga qaytgach, otasining qotillarini jazolaydi va taxtni qo‘lga kiritadi. So‘ngra saroyda unvonlar tizimini tartibga soladi. Mamlakat iqtisodiyotini tiklaydi hamda Fayum vohasini o‘zlashtirishni kengaytirgan. Markaziy hokimiyat kuchayib, umummisr sun’iy sug‘orish tizimi qayta tiklandi. Fayum (“ko‘l yeri”) vodiysidagi bepoyon botqoqliklar o‘zlashtirildi. Fayum suv ombori barpo etilishi natijasida ko‘plab yangi yerlar ochildi.

Katta suv ombori qurilib, kanal bilan Nil daryosiga qo‘shildi. Fayum vohasida tarmoqlangan sug‘orish tizimi barpo qilindi. Janubiy delta, Fayum va uni atroflarini obod qilinishi XII sulola fir’avnlarining poytaxtni Fivadan yangi qurilgan shahar Ittaun (“Ikkala yerni birlashtiruvchi”) shahriga ko‘chirishlariga sabab bo‘ldi. Uning davrida vazirlik (chati) lavozimlarida Antefoker, Obekxotep va Mentuxotep kabi amaldorlar faoliyat ko‘rsatishgan.

Tashqi siyosatda Senusert I ko‘proq e’tiborni qo‘shni Nubiyani zabt etishga qaratdi. Uning harbiy unvonlari orasida “Iuntiuni mavh etuvchi” va “Nubiyaliklar chegarasiga chiquvchi” kabilar e’tiborga molik. G‘arb olimlarining fikricha,“Iuntiu” atamasi o‘sha vaqtda aynan Nubiya qabilalariga nisbatani ishlatilgan.Nubiyaga uyushtirilgan yurushlar dastlab talonchilik uchun qilingan bo‘lsa, keyinchalik bosib olish xususiyatini o‘zida aks ettirdi. Er. avv. 1929 yil fir’avn Senusert I Nubiyaga yana bir katta harbiy yurushni amalga oshirdi.Bu safar misrliklar Nil daryosining 2-pog‘onasidan o‘tib, Kush mamlakatiga kirib keldilar. Ammo

Senusert I ning asosiy maqsadi Nubiyaning harbiy salohiyatini o‘rganib chiqish edi. Misrliklar Finikiyaning Bibl va Ugarit shaharlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldilar. Nil daryosi Nubiya bilan savdo vositasiga aylandi. Shu bilan bir qatorda Egey dengizi orollari xalqlari bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalar o‘rnatildi.

O‘rta podsholik davrida Misrning ichki va tashqi siyosati. Ichki siyosatda mahalliy nomliklar o‘z mustaqilligini nisbatan saqlab qoldilar. Nomlik hududi ichida nomarxlar cheklangan qo‘shinlariga ham ega bo‘lishgan. Mahalliy davlatchalar, ularga tegishli ilohlar va kohinlar, markaziy hokimiyat tomonidan tan olingan. Aslida ular mahalliy nomarxlarni bo‘ysundirish uchun harbiy harakatlar qilindi, ammo g‘alaba bo‘lmagan. Nomarxlik otadan bolaga meros tariqasida o‘tgan, fir’avn uni faqatgina tasdiqlagan. Fir’avn Senusert I davrida Misrni konfederativ shakldagina markazlashgan davlat sifatida ko‘rish mumkin. Hayotining so‘nggida Senusert I o‘z hokimiyatini o‘g‘li Nabkori Amenemxet II (er. avv. 1911-1877 y) bilan bo‘lishib boshqardi. Bu esa hokimiyatni tinch yo‘l bilan me’ros qilib berish hamda ichki urushlarni oldini olish demakdir. Shu bilan birga uning boshqaruvida liberallik, kelishuvga moyillik holatlari borligini ko‘rsatadi. Va bu albatta uning oldingi hukmdorlarga nisbatan taxt boshqaruvini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini berganligini ham ko‘rish mumkin.

Amenemxet II otasidan qudratli, iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli davlatni qabul qilib olgan edi. Uning hukmronlik yillarida deyarli 30 yil yirik urushlar bo‘lmadi. Topilgan manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra u fitnachilar tomonidan o‘ldirilgan. Misr bilan chegaradosh barcha davlatlar savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatgan edilar. Krit, Suriya, Kichik Osiyo va Mesopotamiyadan tamkarlar (savdogarlar) mamlakatga kelishgan. Natijada Misrga Osiyoliklarning ko‘chib o‘tishi kuchaygan. Aynan shu davrlarda Qadimgi podsholik davridagi kabi yirik ehromlar o‘rniga sag‘analar qurish keng tarqalgan. Fir’avnlarning sag‘analari endi oldingi kabi qimmatbaho toshlardan emas, balki, ko‘rimsiz loydan barpo qilinib, kamtarona tusda qad rostladi[20]. Agar bugungi XXI

[20] Piramidalar o‘rniga sag‘analar qurishga o‘tilishi nima bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin? Shu masalada

asr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bugungi kunga qadar Qadimgi podsholik davriga tegishli Piramidalar yaxshi saqlangan, biroq O‘rta podsholik davriga xos bo‘lgan sag‘analar yaxshi saqlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Aynan shu davrda nomarxlarning qoyalarga o‘yilgan sag‘analari ham paydo bo‘ldi. Fir’avnlar eski aslzodalarning mavqeini pasaytirishga urinib, davlat mansablariga o‘rta qatlam vakillarini tayinlay boshladilar. Xizmatdagi zodagonlar moddiy jihatdan podshoga to‘la qaram edilar. Er. avv. 1877 yil taxtni Amenemxet II ning o‘g‘li Senusert II (er. avv.1877-1870 y) egallaydi. Uning hukmronligi yillarida Fayum vohasi irrigatsiyasi tartibga solinib, qishloq xo‘jaligida katta qurilish ishlari amalga oshirildi. Shu yerda fir’avn o‘z ehromi (xom g‘ishtdan qurilgan) va Xotep-Senusert (Senusert mamnun) shaharini ham qurdirgan. Shaharning zodagonlar yashaydigan qismi va podsho saroyi alohida mustahkam devor bilan o‘rab olingan. Butun shahar alohida mudofaa istehkomiga ega edi. Yangi yerlar o‘zlashtirildi va dehqonchilikka kata e’tibor qaratildi.

Senusert II vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Senusert III (er. avv. 1870-1831 y) keladi. Hukmronligining 6, 8, 10, 16-yillarida Nubiyaga qator harbiy yurushlar uyushtirdi. Misrliklar mamlakatni talab vayron qiladilar va mahalliy aholini shafqatsiz qirg‘in qilib, quduqlarni zaharlab, ayollar hamda bolalarni qullikka olib ketdilar. O‘sha davrda Misr chegaralari janubga, ya’ni Nil daryosining 2-pog‘onasidan ham o‘tib ketgan edi. Fir’avn buyrug‘i bilan chegara qal’alari qurilib, bojxona tartibga solindi. Endi Misrga maxsus ruxsatsiz kirib kelish (savdodan tashqari) cheklab qo‘yildi. Daxshurda (shaxar) Senusert III ning buyrug‘i bilan XII-sulolaning eng katta ehromi bunyod etiladi. Uning vorisi Amenemxet III (er. avv. 1831-1786 y) davrida O‘rta podsholik madaniyati yuqori cho‘qqisiga yetdi. Memfisdagi Ptax ibodatxonasi kengaytiriladi va Biaxmuda (shimoliy-g‘arbiy Fayum atroflari) ibodatxona quriladi XII-sulola fir’avnlari mamlakatni barqaror holatga keltirdilar. Ular faol ichki va tashqi siyosat yuritib, Misrni kuchli davlatga aylantirdilar. Fayum vohasini

guruhlarga bo‘linib bahs uyushtiring!

oʻzlashtirish davom etdi[21]. Markaziy hokimiyat kuchayib, umummisr sun'iy sugʻorish tizimi qayta tiklandi. Amenemxet III davrida amaldorlardan biri bolalariga nasihatnomasida podshoni koʻklarga koʻtaradi va oʻgʻillarini unga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi. Chunki "podsho – bu emish" – deya alohida ta'kidlagan.XII sulola fir`avnlari hokimiyatning merosiyligini kafolatlash maqsadida oʻz oʻgʻillari bilan birgalikda hukmronlik qilish an'anasini kiritadilar.

Er. avv. 2000-1775-yillarda XII sulola fir'avnlari mamlakatni barqaror holatga keltirdilar. Ular faol ichki va tashqi siyosat yuritib, Misrni kuchli davlatga aylantirdilar. Fayum ("koʻl yeri") vodiysidagi bepoyon botqoqliklar oʻzlashtirildi. Fayum suv ombori barpo etilishi natijasida koʻplab yangi yerlar ochildi.

Katta suv ombori qurilib, kanal bilan Nil daryosiga qoʻshildi. Fayum vohasida tarmoqlangan sugʻorish tizimi barpo qilindi. Janubiy delta, Fayum va uni atroflarini obod qilinishi XII sulola fir'avnlarining poytaxtni Fivadan yangi qurilgan shahar Ittaun ("Ikkala yerni birlashtiruvchi") shahriga koʻchirishlariga sabab boʻldi. Nubiyadagi boy oltin konlari ishlatila boshlandi.Nubiyada yangi qal'alar qurilib, bu yerga Misrdan aholi koʻchirib keltirildi.Nilning har ikki qirgʻogʻida, ikkinchi pogʻonasida Semna va Kumna nomli mustahkam qal'alar qurildi. Nubiyaning katta qismi amalda Misrning viloyati boʻlib qoldi. Sharqiy Oʻrtayer dengizi hududlaridan kumush, qurilish yogʻochi (asosan kedr yogʻochi) olib kelindi. Finikiyaning bir necha shaharlari Misrga qaram boʻldi.

Mehnat qurollari takomillashdi. Sinayda mis xomashyosi qazib olish koʻpaydi. Qishloq xoʻjaligi yuksalib, yangi qulay omoch paydo boʻldi. Ilk jez qurollar oʻzlashtirildi. Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlari jez qurollarni bundan ancha oldinroq qoʻllay boshlagan edilar. Misrning bu sohada qoloqligining sababi, Nil va uning atrofida jez xomashyosining yoʻqligi edi. Boshqa yutuqlardan biri shishaning kashf etilishi edi. Iqtisodiyotning jonlanishi metallarga, kumush, qurilish yogʻochiga ehtiyojni kuchaytirdi. Bu chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarini faollashuviga olib keldi. Misr savdo karvonlari Nil, Suvaysh boʻyni

[21] Misrning iqtisodiy taraqqiyotida muhim hudud boʻlgan Fayum vohasi haqida esse tayyorlang!

orqali Kichik Osiyo va Bobilga chiqdilar. Janubiy Nubiya va Puntdan oltin olib kelindi. Sinay yarimorolida mis xomashyosini qazib olish koʻpaydi. Shimoliy Nubiya tabiiy resurslarga boy hudud boʻlib, u yerda Misrning say harkatlari bilan oltin va mis xomashyosini qazish yoʻlga qoʻyildi.

Ular foyda keltiradigan barqaror xoʻjalik edi. Bozor bilan bogʻlanish va qoʻl mehnatidan foydalanish kuchaydi. Kichik xoʻjaliklarning soni keskin ortganligini koʻrish mumkin. Moddiy boylikning asosiy yaratuvchilari ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollaridan mahrum boʻlgan “xemuu-nesut” – “podsho odamlari” deb atalgan ishchilar boʻlgan. Ular podsho, ibodatxona, zodagonlar yerida ishlab, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana olganlar. “Podsho odamlari” yoshlik paytidan aholi roʻyxatidan oʻtkazilib, ma’lum hunarlarga taqsimlanar edi. Misrda oʻsha zamonga
mos qat’iy huquqiy tartib oʻrnatildi.XII-sulola vakillari kuchli qoʻshinga tayanib, bosqinchilik siyosatini olib borganlar. Ayniqsa, Nubiya va Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻiga nisbatan istilochilik hujumlari kuchaydi. Mamlakatga koʻplab qullar keltirila boshlandi. Oqibatda Misrda boshqa millat va etnoslarni koʻrish mumkin edi.

Oʻrta podsholik davrigacha asosiy qiymat oʻlchovi “don” boʻlgan, keyin uning oʻrnini oltin egallagan. Bu davrda piramidalar qurishda oʻzgarish boʻladi, ya’ni taroshlangan toshlardan emas, arzonroq – gʻishtdan quriladigan boʻldi. Oqibatda hozirgi kunimizgacha bu piramidalar shaklini yoʻqotib oddiy tepalik boʻlib saqlangan xolos. Bu albatta davlatning iqtisodiy qudrati bilan bogʻliq holat boʻlishi ham mumkin.

Oʻrta podsholikning inqirozi sabablari. Ammo er. avv. XVIII asr oʻrtalarida Oʻrta podsholikning zaiflashuv alomatlari koʻrina boshladi. Mamlakatda er. avv. 1750-yillar atrofida kuchli gʻalayonlar boshlandi. Bu haqda “Ipuser soʻzlari”, “Neferti soʻzlari” deb atalmish manbalar aniq ma’lumot beradi.

Fir’avn Amenemxet IV vafoti bilan mamlakatda XII-sulolaning erkak vakillari qolmadi. Garchand uning oʻgay singlisi Nefrusebek fir’avn sifatida taxtga koʻtarilsa-da, Misrda ichki nizolar ortib bordi. Er. avv. 1786-yil XII-sulola oʻrniga XIII-sulola vakillari keldi. Mamlakatda XIII sulola vakillari bilan bir vaqtda mustaqil

hukmronlik qiladigan bir necha markazlar vujudga keldi. Misrning yagona davlat sifatida yemirilishining birinchi belgisi-deltaning g‘arbiy qismida, markazi Ksois shahri bo‘lgan. Shu bilan birga XIII sulola bilan bir vaqtda hukmronlik qilgan va unga bo‘ysunmagan XIV sulolaning paydo bo‘lishi ham inqirozni bosh sabablaridan edi.

Bu voqea er. avv. 1700-yillar atrofida yuz berib, bu O‘rta podsholik davrining tugashini bildiradi. Bu voqeadan yangi II O‘tish davri (er. avv. XVI asr o‘rtalarigacha) boshlanadi.Ushbu sulola vakillaridan Sebekxotep II va Amenemxet V davrlarida siyosiy inqiroz avj ola boshladi. O‘rta podsholik yana nomliklarga bo‘linib ketdi. “Turin papirusi” ma’lumotlariga ko‘ra, mil. avv. 1675 yil Quyi Misrga Osiyodan ko‘chmanchi giksos qabilalari kirib keldi va Deltani egalladi. Bu haqida er. avv. III asrda yashagan misrlik kohin Manefon o‘zining “Misr tarixi” asarida giksoslarni “cho‘ponlar-podshosi” deb tilga oladi. Misrliklar ularni “shasu” (“ko‘chmanchilar”, keyinchalik arab mualliflari asarlarida amalikitlar) deb ataganlar.

Arxeologlar Giksoslar haqida yana bir tasdiqlovchi dalil topdilar. Unga ko‘ra, Qadimgi Misrni boshqargan giksoslar mamlakatni zabt etmagan, balki sharqdan ko‘chib kelgan. Ko‘rinadiki, giksos ayollari mahalliy misrlik ashroflarga turmushga chiqqan, ularning avlodlari esa asta-sekin mahalliy elitani siqib chiqargan. Olimlar bu xulosaga giksoslar poytaxti – Avaris shahri aholisining qoldiqlaridagi stronsiy izotoplari[22] nisbatini tahlil qilib kelgan.

Giksoslar, Misrga Shimoliy Arabiston, Falastin va Suriya yerlaridan kirib kelganlar. Giksoslar sardori Xian fir’avn maqomini qabul qilib XV-sulolaga asos soldi[23] va bugungacha ta’kidlab kelinayotgan Misrni boshqargan o‘ttizta sulolani biri aynan ularga tegishlidir.Ular Quyi Misrni 100 yildan ko‘proq (ayrim manbalarda 150 yil atrofida) boshqardilar. Ammo,Yuqori Misr nomligi Fiva shahri boshchiligida mustaqillikni saqlab qoldi. Giksoslar Avarisni poytaxt qilib, u yerdan Deltani boshqardilar. Ko‘chmanchilarning g‘alabasini jangovar ot va aravalar ta’minlab

[22] Stronsiy izotoplari deganda stronsiy elementining atomlari bo‘lib, ular yadrosidagi neytronlar soni turlicha bo‘lgan turlari nazarda tutiladi.

[23] Bahs uchun:Jahon tarixida yana qaysi ko‘chmanchi xalqlar imperiya tuzishga erishgan?

berdi. Misr qo‘shini piyoda jang qilishga ko‘nikkan edi. Demak, Giksoslar harbiy ustunligi tufayli, ko‘chmanchi bo‘lsada, madaniyatli, ehromlar qurgan, yozuv yaratgan, ilk sivilizatsiya o’chog‘i bo‘lgan o‘troq misr xalqi ustidan g‘alaba qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Giksoslar Misrni bosib olib, Avaris (Xat-Uart-misrcha) shahrini poytaxt qildilar. Demak, shuni ta’kidlash kerakki, ular o‘zlari bilan haligacha Misrda bo‘lmagan otlarni va jang aravalarni olib keldilar. Ayrim tarixchilarni ma’lumotiga ko’ra tuyalarni ham aynan ular Misrga olib kirgan.

Giksoslar Misr xudolaridan chet el mamlakatlari homiysi hisoblangan Setiga alohida e’tiqod qildilar.

Yuqori Misrning ayrim nomliklari giksoslarga o‘lpon to‘laydigan bo‘ldilar. Giksos fir’avnlaridan Xian va Apepilar davrida Quyi Misr kuchaydi, ammo butun Yuqori Misr hududini butunlay egallay olmadilar. Bu yerda ham oddiy haqiqatni, ya’ni faqat ko‘chmanchilik bilan shug‘ullangan xalq g‘olib bo‘lishi mumkin, ammo bu holat uzoq cho‘zilmaydi. Ya’ni siyosiy jihatdan va xalq bilan muvozanatli boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda yetarli tajriba bo‘lmaydi. Bu esa zaiflikni keltirib chiqaradi. Giksoslar boshqaruvida aynan shunday holat ro‘y berdi. Ular Abidosga qadar o‘z ta’sir doiralarini saqlab tura olishlari mumkin edi. Yuqoridagi dalillarga tayanib fikr yuritilsa, Misr tarixida giksoslar shartli XV-XVI sulolalar (1710-1580-yillar) sifatida belgilanadi. Bosqinchilar uyushmagan edilar. Shu sababli, yagona davlat barpo qila olmadilar.Giksoslarga bo‘ysunmagan Fiva hokimlari nisbatan mustaqil bo‘lib qoldilar va chet elliklarni haydab yuborish uchun kuch to‘play boshladilar. Natijada bir oz vaqt o‘tib, Yuqori Misrliklar bosqinchililar ta’siri deyarli bo‘lmagan Fivada XVII-sulolaga asos solishga va oldingi an’anaviy boshqaruvni tiklashga muvaffaq bo‘ldilar. Fiva nomligi tez orada Yuqori Misr nomliklarini Kamesu boshchiligida birlashtira oldi. Nil daryosida harbiy flot tuzildi, qo‘shin tartibga solindi. Avaris hukumati, giksos fir’avni Apopi boshchiligida Kush podshosiga maktub yozadi va Fiva nomligini bo‘lib olishni taklif qiladi. Fiva nomarxi Kamesuning 1-2 tosh bitiklarida keltirilishicha, elchi yo‘lda qo‘lga tushib qoladi va Kamos giksoslarga qarshi urushni boshlaydi. Keyinchalik urushda to‘liq g‘alabaga Kamosning ukasi Yaxmos I

erisha oladi. Koʻchmanchilar markazi boʻlgan Avaris shahri, janubiy Falastindagi giksoslar tayanchi Sharuxen qal'asi ishgʻol qilindi. Giksoslarning haydalishi bilan Misr tarixida Yangi podsholik (er. avv. 1584-1075-yillar) davri boshlandi. Yaxmos yangidan Misrni birlashtirgan XVIII sulola asoschisi boʻldi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi va Oʻrta podsholik davrlarida Misrning davlat hokimiyati qanday tuzilgan?
2. Oʻrta podsholik davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yorituvchi esse yozing.
3. Oʻrta podsholiklarning tashqi siyosatida asosiy yoʻnalishlarni koʻrsating.
4. Aholi mashgʻulotlari va ularning turlari haqida bahs yuriting.
5. Misrga bostirib kelgan xalqlar haqida ma'lumot toʻplang.
6. Hukmdorlar faoliyatini qiyosiy tahlil qiling.
7. **Keys topshirigʻi:** Agar siz Qadimgi Misrda Oʻrta Podshohlik davrida fir'avn saroyidagi amaldor boʻlganingizda, Nubiya va Yaqin Sharq bilan tashqi siyosiy aloqalarni mustahkamlash uchun qanday takliflar bergan boʻlardingiz?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e'lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

4-MAVZU.YANGI PODSHOLIKLIK DAVRIDA MISR DAVLATI

Reja

1. Yangi podsholikni yuzaga kelishi.
2. Podsholikning ichki va tashqi siyosati.
3. Savdo va iqtisodiy taraqqiyot.
4. Armiya tuzilishi va davlat boshqaruvi.
5. Amenxotep IV davridagi islohotlar.

Yangi podsholikni yuzaga kelishi. Misrdagi nisbatan mustaqil va harbiy qudratli nomlardan biri bo‘lgan Fiva fir’avni Kamesu (er.avv.1554-1549 y) otasi Taa II Sekenenraning siyosatini davom ettirib, giksoslar bilan urush olib bordi. Kamosga Nil daryosining 1-pog‘onasidan14-nomlikning Kus shahrigacha bo‘lgan yerlar bo‘ysunar edi.Hukmronligining 3-yilida Kamesu kengash chaqirib, giksoslar va kushliklar bilan hokimiyatni boshqa bo‘lishib olmasligini ta’kidlab o‘tdi. Uning qo‘shinlari Nil daryosiga tushirilgan kemalarda, shimolga giksoslar nazoratidagi hududlarga kirib bordilar.

Kamesu o‘zining yirik g‘alabalari haqida mashhur tosh bitigida (1-2 “Kamos stellasi”) ma’lumot berilgan. Ammo ko‘p o‘tmay Kamesu halok bo‘ladi va Fivada uning xotini Yaxxotep (regent) taxtga keladi. Shunday bo‘lsa-da, Giksoslar bilan urush davom etadi. Bir oz vaqt o‘tib (taxminan sakkiz yil) hokimiyatga Yaxmos I chiqadi hamda Misr tarixida XVIII-sulolaga asos soladi. Yaxmos I (asli kelib chiqishi Fiva nomligidan bo‘lmagan) giksoslarni poytaxti Xat-uarit (Avaris)ni egallashga muvaffaq bo‘ladi va Misrdan ularni haydab chiqarib, Finikiyada mamlakat ta’sirini qayta tikladi. U hozirgi G‘azo[24] yaqinidagi Sharuxen qal’asini olti yil qamal qiladi va egallaydi. Misrliklar kamonchilar, piyodalar va jangovar aravalardan (giksoslardan o‘rganganlar) unumli foydalanib, imperiya tuzishga kirishadilar. Yaxmos I davlatni boshqarishda xotini Yaxmos-Nefertari bilan birga idora qiladi. Yaxmos-Nefertari turmush o‘rtog‘idan keyin o‘g‘li

[24] Ushbu davr voqealarini bugungi zamonaviy davrdagi vaziyatga taqqoslab o‘rganing. Masalan, G‘azoda bo‘lgan voqealar asosida(2025 yil yanvar holati) taxlil qiling.

Menxotep I va fir’avn Tutmos I davrida ham hayot bo‘lganligi tarixdan ma’lum. Shu tariqa Misrni qariyb 500 yil boshqargan Yangi podsholik (er. avv. 1570-1075y) davri boshlanadi. Arxeologik va yozma ma’lumotlarga ko‘ra, Yaxmos I ning o‘g‘li Amenxotep I (er. avv. 1525-1504 y) Osiyoda hech qanday urush olib bormadi.U faqat Misrning janubidagi Nubiyani qayta bo‘ysundirib, otasining g‘alabalarini mustahkamlaydi. Amenxotep I dan keyingi fir’avn Tutmos I (er. avv. 1504-1492 y) Yaxmos I ning qizi Yaxmesga uylangan edi. Tutmos I asli kim bo‘lganligi borasida hozirga qadar olimlar munozarali fikrlar bildiradilar. Uning otasi haqida ma’lumotlar yo‘q, lekin onasini ismi Reniseneb deb ta’kidlangan. Fir’avnning Misrcha ismi Dxauti-masiya’ni “Tot xudosidan tug‘ilgan” – degan ma’noni bildiradi. Taxtga keliboq, Tutmos I Nubiyadagi qo‘zg‘olonni bostiradi, isyonchilar sardorini o‘ldirib, uning tanasini Nil bo‘ylab suzuvchi kemaga osib qo‘yadi. Albatta, bunday jazolarni qo‘llashdan maqsad boshqalarni qo‘rquvda saqlash bo‘lgan. So‘ngra istilo yurishlarini kuchaytirib, Nilning 3-pog‘onasiga qadar o‘z kemalarida kirib boradi va Dongola viloyatigacha bo‘lgan yerlarni Misrga bo‘ysundiradi. Nubiyada bir necha o‘nlab qabilalar qulga aylantiriladi. Janubdagi g‘alabalaridan so‘ng, Tutmos I Falastin va Suriyaga talonchilik yurushlarini uyushtiradi. Ko‘ryapmizki, O‘rta yer dengizi atroflariga Misr har doim qiziqish bildirib kelgan. Hattoki, Suriyaning sobiq prezidenti Bashar Asad (2001-2024 yillar) 2015 yildan boshlangan mamlakatdagi notinchlik harakatlari yuzasidan OAV vakillari savollariga javob berganida ham alohida ta’kidlab, bu yerlarda azaldan, ya’ni eramizdan avvalgi ikki ming yillarda ham yirik imperiyalarni manfaatlari to‘qnash kelganligini eslab o‘tgan. Yaqin Sharq notinchligi sabablarini tarixdan qidirish kerakligi haqida fikr bildirgan edi.

Misr qo‘shinlari Frot daryosigacha chiqib, u yerda Naxarina (Mitanni)liklarni jiddiy qarshiliklariga qaramay mag‘lub etadi. Suriya knyazliklari katta qarshilik qilmadilar.Misr askarlari o‘ljalar bilan yurtlariga qaytadi. Tutmos I davrida Misr Yaqin Sharqning eng katta davlatlaridan biriga aylandi. Misr Mitannidan shimoliy Suriyani tortib olib, o‘z nazorati ostiga oldi. Nubiyada

misrliklar Nilning uchinchi pog‘onasida ilgari mustaqil bo‘lgan Kush davlatining poytaxti Kermani egalladilar.Tutmos I ning vorisi, uning kichik xotinidan bo‘lgan o‘g‘li Tutmos II (er.avv. 1492-1479 y) bo‘lajak mashhur malika Xatshepsutga uylandi.

Taxtda uzoq o‘tirmasa-da, ammo Nubiya va Falastindagi qo‘zg‘olonlarni bostirishga muvaffaq bo‘ldi. Misr qo‘shinlari Nubiyadan isyonchilar sardorining o‘g‘lini garovga olib qaytadi.Tutmos II vafot etgach, malika Xatshepsut o‘z o‘gay o‘g‘li Tutmos III ni davlat ishlaridan chetlashtirishga harakat qildi. Vaqt o‘tishi bilan malika yodgorliklarda o‘zini mustaqil fir’avn sifatida tasvirlay boshladi. Malika erkak fir’avn kabi o‘z hokimiyatining to‘laqonligini ta’kidlash uchun gavda tuzilishini erkaklarga o‘xshatib, soqol qo‘yilgan holda tasvirladi. Malika Xatshepsut fir’avn jangchi unvoniga da’vo qila olmas edi. Shunga qaramasdan u Puntga **(**Eritreya**)** katta ekspeditsiya tashkil qildi. Malika davrida Karnakda “Xed-sed” bayrami sharafiga katta ibodatxona va Dayr-al-Bahrda o‘zi va otasi Tutmos I ga atab ibodatxona barpo qiladi. Bu inshootlarning yaqinida Xatshepsut davrida oliy kohin, me’mor Senemutning sag‘anasi qad ko‘tardi. Senemut fir’avn Xatshepsut davrida uning eng yaqin kishisi sifatida davlatni boshqarishda qatnashadi. Ammo Xatshepsut vafotidan so‘ng, Tutmos II ning Isida ismli kanizagidan tug‘ilgan o‘g‘li Tutmos III taxtga keldi va o‘gay onasidan qolgan barcha yodgorliklardan uning ismini o‘chirtirib tashladi. Ayol fir’avn Xatshepsut davlatni boshqargan bo‘lsa-da, ammo rasman taxtda Tutmos III o‘tirar edi. Lekin u 20-yilga yaqin qo‘g‘irchoq podsho hisoblangan. Keyinchalik tabiatan lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo‘lgan fir’avn qo‘shinni qayta tuzib, harbiy yurushlarga tayorgarlik ko‘radi. Tutmos III (er. avv. 1479-1438 y)istilochilik urushlari olib bordi. G‘ayratli sarkarda Tutmos III Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘ini Misr ta’siri ostiga o‘tishi uchun uzoq harbiy tayyorgarlik ko‘rdi. Tutmos III Falastinga ko‘p sonli qo‘shin tortdi. Megiddo shahri yonida Suriya va Falastinning shahar-davlatlari Kadesh shahri boshchiligidagi birlashgan qo‘shinlari Tutmos III armiyasi bilan uchrashdi. Qonli jang misrliklar g‘alabasi bilan tugadi. Dushman askarlarining qoldiqlari Megiddo devorlari ortiga berkindilar. Shahar yetti oy qamal qilindi va Kadesh shahri hukmdori o‘z ittifoqchilari bilan

birga misrliklarga taslim bo‘ldi. Natijada Misr Suriya va Falastinning katta qismini egallab oldi. Mitanni o‘z qo‘shinlarini Frot ortidan chaqirib oldi va Misrga Suriya, Finikiya va Falastin hududlarini yon berishga majbur bo‘ldi. Misr askarlari Frot daryosidan o‘tib mitanniliklarni taqib qilganliklari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Fir’avn Tutmos III ning yurushlari Suriya knyazliklari (Kadesh va keyinchalik Tunip)ga qarshi qaratilgan edi. Sakkizinchi yurush paytida esa Mitanni chegarasini (Frot daryosi) ham buzib o‘tishga muvaffaq bo‘ladi. Tutmos III umuman hayoti davomida o‘n besh marta harbiy yurush qilib, Frot daryosigacha bo‘lgan hududlarni bosib oldi. Frot daryosi bo‘yidagi Karxemish shahrini ham egallaydi. Bu esa o‘z navbatida, Misr qo‘shinini Kichik Osiyo chegarasigacha chiqishiga olib keldi. Janubda Misr Nilning to‘rtinchi ostonalarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z tasarrufiga oldi. Misrning shimolidan janubigacha chegarasi 3200 km ni tashkil qildi.



Ichki siyosatga e’tibor qaratsak, Yangi podsholik davrida ayollarning mavqei nisbatan yuqoriroq bo‘lganligini, hattoki ularning hokimiyatda bo‘lgan vaqtdagi boshqaruvlari o‘ziga

xosligi bilan jamiyatga ega hisoblandi. Agar davr nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo‘lsak, bu davrda boshqa hududlarda ayollarning siyosiy hokimyatlarda deyarli ko‘rmaymiz. Bu shundan dalolat beradiki, Qadimgi Misrda gender tenglikning o‘ziga hos shakli bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Podsholikning ichki va tashqi siyosati. Tutmos III ning istilochilik urushlari natijasida Misr er. avv. XV asrda Old Osiyodagi eng qudratli davlatga aylandi. Old Osiyoning Mitanni, Xett va Bobil kabi kuchli davlatlari Misrning kuch-qudrati bilan hisoblashishga majbur bo‘ldilar.Ular Misr bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga harakat qildi. Bu to‘grisida o‘sha davrda yozib qoldirilgan ko‘pgina yozma va moddiy manbalar ma’lumot beradi. Mil. avv. 1386 yilda taxtga Tutmos IV ning o‘g‘li Amenxotep III o‘tiradi, uning davrida Misr ichida tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Ammo tashqi siyosatda muammolar yuzaga keldi.

Amenxotep III (er. avv. 1424-1388-yillar) zamonida ahvol yanada yomonlashgan. Bu vaqtda Misr Suriyadagi mulklarini himoya qilish uchun yetarli harbiy kuchga ega bo‘lmadi. Suriya shaharlari zaiflashib qolgan Misrni zulmidan qutilish uchun ittifoq tuzdilar. Bu ittifoqni esa, xettlar qisman qo‘llab-quvvatlaganlar. Bu ittifoqning boshida turgan Suriya hokimi Aziru Suriyani Misr ta’sirining qolgan-qutganlaridan ham ozod qilish uchun qattiq kurash olib borgan. Suriya va Finikiyaning Misrga sodiq bo‘lgan ko‘p shaharlari xettlar va Aziru qo‘shinlarining hujumlaridan o‘zlarini arang himoya qilib turganlar. Bu shaharlarning ba’zilari Misr fir’avnidan yordam so‘raganlar.

Misrning o‘sha vaqtdagi xalqaro munosabatlari XVIII sulola oxiridagi Misr fir’avnlarining Tel-Amarnadan topilgan katta davlat arxividagi hujjatlardan bizga yaxshi ma’lumdir. Bu arxivda Bobil, Ossuriya, Mitanni, Xett davlatlari va Kipr podsholarining, yana Suriya va Falastindagi ko‘p hokimlarning Misr fir’avniga yuborgan diplomatik xatlari saqlanib qolgan. Shu xatlarga qaraganda, Misr Old Osiyodagi bir qancha davlatlar bilan juda mustahkam savdo va diplomatik munosabatda bo‘lgan. Ayrim davlatlar o‘rtasida bo‘ladigan muzokaralar maxsus elchilar yordami bilan olib borilgan.

Xett istilosi xavfi aniq bo‘lib qolgach, Mitanni va Misr podsholari bosh ko‘tarib kelayotgan dushmanni birgalikda yengish maqsadida birlashganlar. Misr bilan Mitanni o‘rtasida ittifoq tuzishga imkoniyat tug‘ilgan. Bu ittifoq bir necha sulolaviy nikohlar bilan mustahkamlangan. Mitanni podshosi Tushrattining Misr fir’avni Amenxotep III ga yozgan xatlarida Misr bilan Mitanni o‘rtasida o‘ta mustahkam munosabatlar o‘rnatilishiga olib kelgan diplomatik muzokaralarning ayrim bosqichlari ravshan va jonli qilib tasvirlangan.

Misr Amenxotep hukmronligi yillarida uzoq Suriyadagi o‘z yerlarini xettlardan himoya qilish uchun yetarli harbiy kuchga ega bo‘lmaganligidan Mitannining yordamiga tayanishga majbur bo‘lgan.

Garchand Nubiyaga yurish uyushtirilgan bo‘lsa-da, bu harbiy kompaniya ikkinchi darajali xarakterga ega bo‘lgan. Mamlakat iqtisodiyoti izga tusha boshladi.Mitanni davlati bilan do‘stlik aloqalarini tiklaydi. Mitanni podshosi Shutarna II fir’avnga xotinlikka malika va 317 ta xizmatkorni yuboradi. Zero, Amenxotep III ona tomondan Mitanni podshosi Artadamning nevarasi edi. Aslida bu harakatlarning tag zamirida manfaat turganligini anglash qiyin emas. Bunday jarayonlarda “Nikoh dmplomatiyasi”dan ham foydalanishga urinilgan. O‘z navbatida, qo‘shnisini kuchsizlantirish maqsadida, Mitanni vassali Ashshur podshosi bilan yashirin aloqalar olib boradi. Mashhur Amenxotep IV Exnaton (mil. avv. 1375-1336 y) davrida Misrning tashqi siyosiy ahvoli yomonlashdi. Mitanni Janubiy Suriyaning katta qismini bosib oladi. Osiyoda yana bir raqib Xett davlati urushga tayyorlana boshladi. Exnatonning kuyovlari Semnexkar (er. avv. 1348-1347-yillar), Tutanxamon (“otasining tirik qiyofasi” er. avv. 1347-1338-yillar)lar davrida ahvol o‘zgarmadi.

Exnatonning diniy islohoti (Aton xudosini ulug‘lash) mamlakat mafkurasini ikkiga bo‘lib yubordi[25].Eski din kohinlari quvg‘in qilindi va ibodatxona boyliklari davlat hisobiga musodara qilindi. Quyida islohotdan ko‘zlangan maqsad, islohotni amalga

[25] Ushbu islohotdan ko‘zlangan maqsad nima edi, kutilgan natijani berdimi? Shu haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plab, bahs yuriting.

oshirilishiga asosiy to‘siqlar nimalardan iborat bo‘ldi kabi masalalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Amenemxet IV ning islohotlari. Qaram yerlar va Misr aholisining talanishi natijasida hukmron tabaqa, ayniqsa ko‘p sonli yaxshi uyushgan kohinlar tabaqasi boyib ketgan. Ibodatxonalar minglab gektar yerlar, chorva mollari, qullar va boshqa moddiy boyliklarga egalik qilganlar. XVIII sulola davrida fir’avnlarning homiysi Amon ibodatxonasi Misr bosh xudosi sifatida alohida ta’sirga ega bo‘lgan. Xudo Amon bayrog‘i ostida Fiva hukmdorlari giksoslarni haydab chiqarganlar. Fivadagi Amon ibdoatxonasi nihoyatda katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. Fir’avnlar tomonidan bu ibodatxonaga o‘n minglab qullar, yer, minglab bosh qoramol, oltin-kumushlar hadya qilingan. Karnak va Luksorda xudo Amon sharafiga hashamatli ibodatxonalar qad ko‘targan. Mamlakatda Amon ibodatxonasi kohinlarining mavqei kuchayib ketgan. Ular Misr iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsata boshlaganlar. Jumladan, Amon ibodatxonasining oliy kohinlari taxt vorisining nomzodini ko‘rsatishdek, imtiyozli huquqni olganlar. Boy Amon ibodatxonasining oliy tabaqa kohinlarini kuchayib ketishi, davlatning ichki va tashqi siyosatiga aralashuvi, ularning boyib ketishi, zodagonlarni chetga surib qo‘yish hukmron tabaqaning noroziligiga sabab bo‘lgan. Bu holat davlat hokimiyatiga katta muammolarni tug‘dirgan. Natijada Amenxotep IV hukmron tabaqaga suyanib, Amon kohinlarining kuch-qudratini sindirishga jur’at qiladi. U diniy islohot o‘tkazadi. Amenxotep IV (er. avv. 1365-1348) davrida Misr xudolaridan “Quyosh shu'lasi” xudosi Aton birinchi o‘ringa qo‘yila boshlananadi. Bu fir’avnning o‘z nomini o‘zgartirishida ham o‘z ifodasini topgan. Fir’avn Exnaton degan yangi nom olgan. Shu bilan birga, Exnaton Fiva kohinlari bilan uzil-kesil aloqani uzib, Fivadan chiqib ketadi. Go‘zal saroy va ibodatxonalar bilan bezalgan yangi poytaxt Axetaton (Aton shahri)ga Exnaton o‘zining butun saroy amaldorlari va yangi Quyosh xudosining kohinlari bilan birga ko‘chib keladi. Axetaton shaxrida oliy xudo Atonga bag‘ishlab ibodatxona quriladi. Bu

ibodaxonalarning xarobalari 1883, 1891 va 1912 yillarda qazib chiqarilgan[26].

Fir’avn Exnaton hukmronligining oltinchi yilida Aton Misrning yagona va oliy xudosi deb e’lon qilinadi. Exnaton o‘zini Atonning yagona o‘g‘li deb Amenxotep (“Amon rozi”) ismini Exnaton (“Amonga yoqadigan”) degan ismga almashtiradi.

Aton butun dunyoni va Misrni yaratuvchisi hisoblanib, odatdagidek, hayvon qiyofasida emas, balki Quyoshning yerga nur sochayotgan shu'lasi sifatida ifodalangan. Yangi xudoga sig‘inishni istamagan zodagonlar qatl etilib, ularning jasadlari yoqiladi. Faqat Exnaton Quyosh xudosini yagona va sevimli o‘g‘li sifatida Atonni bevosita o‘zidan vaxiy olishi va fuqaro, kohinlarga amr-farmon qilishi mumkin edi.

Exnaton tomonidan o‘tkazilgan bu diniy islohot ko‘ngildagidek natija bermadi. Exnaton Fiva kohinlari va nomlaridagi quldor zodagonlarni qudratini vaqtincha bo‘shashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Juda katta er-suv, moddiy boylikka ega bo‘lgan kohinlar Exnatonning qat`iy chora–tadbirlariga qarshi chiqishga jur`at eta olmadilar va vaqtinchalik chekindilar. Ular payt poylab turadilar. Exnatondan keyin taxtga o‘tirgan fir’avnlar uni diniy siyosatini davom ettira olmaganlar. Islohotchi fir`avn vafotidan so‘ng, ular hujumga o‘tib, o‘z mavqelarini tiklashga qat`iy kirishdilar. Fiva kohinlari Exnatonni va u barpo qilgan shaharlarni lan`atladilar. Fir`avn Tutanxamon Fiva kohinlariga yon berib, Amon e’tiqodini qaytadan tiklashga va hatto, o‘z ismini ham shunga yarasha o‘zgartirib, “Tutanxamon” deb atashga majbur bo‘lgan. Shunday qilib, bu diniy islohot qattiq qarshiliklarga uchragan. Exnatonning vafotidan keyin poytaxt Memfisga ko‘chirilgan.

Exnaton boshqa sohalar rivojlantirishga ham e’tibor qaratib, ajdodlari kabi Nil daryosi qirg‘oqlaridagi irrigatsiyani rivojlantirdi. Savdo hajmi oshib boradi, ammo Mitanni janubiy Suriyaning katta qismini bosib oldi. Osiyoda yana bir raqib Xett davlati urushga tayyorlana boshladi. Exnatonning o‘g‘li Tutanxamon (mil. avv. 1336-1327 y) davrida ham yuqorida ta’kidalaganimizdek, tashqi siyosatda jiddiy o‘zgarish kuzatilmadi.

[26] Rajabov. R. Jahon tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 69-70.

Tutanxamon 10 yoshidan fir’avn taxtiga o‘tirdi va bir yil o‘tmay otasi qurgan shahar Axetatondan chiqib ketdi. Fiva yana diniy markazga aylandi.U eski xudolar (Amon, Ptax,Tot, Gor, Osiris va Anubis)larga sig‘inishni qayta tikladi. Quvg‘inga uchragan kohinlar uni qo‘llab-quvvatladilar.Tutanxamon vafotidan so‘ng, Eye hokimiyatga keldi, ammo ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o‘zgarmaydi.

Tutanxamonning bevasi Anxesenpaamon taxtni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun Xett podshosi Suppilulium I ning o‘g‘illaridan biri Sannansaga turmushga chiqishga rozi bo‘ldi. Xett shahzodasi Misrga keldi, lekin misrlik zodagonlar uni o‘ldirdilar. Anxesenpaamon Atonning oliy kohini Eyega turmushga chiqishga majbur bo‘ldi. Eye (er. avv. 1338-1334-yillar) XVIII sulolaning so‘nggi fir’avni bo‘ldi. Xett podshosi o‘g‘lining o‘limi uchun qasos olish maqsadida Misrga qarshi yurish qilib, misrliklarni Osiyodan to‘la haydab chiqardi. Misr qo‘shinlarining qo‘mondoni Xoremxeb Eyeni taxtdan ag‘darib (er. avv. 1334-1306-yillar), keyingi fir’avn bo‘ldi.

Taxtga Tutanxamonning qarindoshi lashkarboshi Xoremxeb (er. avv. 1323-1295y) kelgach, u 19-sulolaga asos soladi. Asli kelib chiqishi Yuqori Misrning18-nomligidan (Xa-nislik) bo‘lib, qobiliyatli siyosatchi va sarkarda edi.U Misr armiyasini ikkiga ajratib (shimoliy va janubiy), Nubiyani nazorat qilish maqsadida janubiy va Osiyodagi mulklarni nazorati uchun shimoliy qo‘shinlarni javobgar qilib qo‘ydi. Er. avv. 1295-yilda Xoremxeb olamdan o‘tadi va fir’avnlik taxtiga Ramzes I (ayrim olimlarning fikricha, u XIX-sulola asoschisi hisoblanadi) keldi. Yangi hukmdor Misr qo‘shini tarkibidagi yollanma askarlar sonini oshirdi hamda fir’avnni qo‘riqlash uchun maxsus qismlarni joriy etdi. Biroq, xettlar bilan Suriya masalasida vaziyat keskinlashadi. Tarixni takrorlanishini bugungi zamonaviy kunimizda ham kuzatishimiz mumkin. Bugungi 2025 yil yanvar oyi holatiga ko‘ra Suriya hududlarida qadimiy Xett davlati hududlarida mavjud bo‘lgan Turkiya o‘zining ta’sirini kengaytirishga urinmoqda.

Ramzes I bir yil hokimiyatda o‘tiradi. So‘ngra kelib chiqishi otasi Ramzes I kabi Quyi Misrdan bo‘lgan Seti I (“Set xudosiga tegishli”) fir’avn bo‘ldi. Bu ma’lumotdan anglash mumkinki,

xudolarning nomlari ham ism sifatida keng miqyosda foydalanilgan. Uning davrida Falastin va Suriyaga harbiy yurush qilindi. Seti I ning o‘g‘li Ramzes II (er.avv.1279-1213y) davrida xettlar bilan Suriyani nazorat qilish uchun urush olib borildi. Ko‘ryapmizki, Ramzes II hukmronligi 66 yil davom etgan. Bu davrda Misr davlati va madaniyati gullab-yashnagan.

Nil daryosining sharqiy qismida Ramzes II yangi poytaxt Per-Ramzes shahrini qurgan[27]. Ramzes II 87 yil yashadi. Uning merosxo‘rlari davrida ichki va tashqi siyosatda kuchli ziddiyatlar yuzaga kelgan Uzoq vaqt uning katta o‘g‘illaridan biri Memfis xudosi Ptaxning bosh kohini Xaemuas voris bo‘ldi, lekin u otasining o‘limigacha yashamadi. Ramzes II boshqalardan farqli o‘laroq ibodatxona boyliklarini ham urushga sarfladi. Uning davlat boshqaruvidagi yutuqlaridan ta’sirlangan bo‘lsa kerak, Misrni zamonaviy davrdagi Prezidentlaridan biri bo‘lgan Husni Muborak (1981-2011) ham o‘zini “Yangi Firavn” deb atab, aynan Ramzesni ulug‘lagan ekan.

Tarixda o‘zini o‘tmishdagi buyuk hukmdorlarga bog‘lash holatlari tez – tez uchrab turadi.

Kadesh yonidagi jangda Xett podshosi Muvatalis bilan to‘qnashdi. Fir’avn g‘alabaga erishdi, ammo jangda halok bo‘lishiga oz qolgan edi.Misrliklar halok bo‘lgan xettlarning qo‘llarini chopib olib, o‘z fir’avnlariga keltirdilar.Er. avv. 1279 yoki 1270-yillar atrofida Xett podshosi Xattusili III tashabbusi bilan Misr va Xett podsholigi o‘rtasida tinchlik shartnomasi tuziladi. Diplomatiya nuqtai nazaridan ushbu tuzilgan tinchlik shartnomasi tarixdagi shu mazmundagi ilk hujjat hisoblanadi. O‘z navbatida savol tug‘iladiki, bir necha yildan buyon davom etib kelayotgan urush nima sababdan tugadi. Qanday tashqi omil sabab bo‘ldi? Albatta, bundan ikki davlat uchun ham xavf solib turgan Ossuriya davlati tahdidining kuchayib borishi, bu ikki davlat o‘rtasidagi

[27] Aynan shu hukmdor Ramzesning “Pasporti bor firavn” deb ham atashadi. Shunga oid ma’lumotlar to‘plab bahs munozara o‘tkazing.

dushmanlikni doʻstlikka aylanishiga, urushni tugatish boʻyicha shartnoma imzolashga majbur etgan. Shartnomalarda davlatlar oʻrtasidagi chegaralar kelishib olingan, ularni buzmaslik, birovning hududida yangi shaharlarga asos solmaslik va biror tomonning, shunga oʻxshash urinishlariga yoʻl qoʻymaslik kabi majburiyatlar belgilangan. Har ikki tomon uchun qaram boʻlgan podsholar bilan uchinchi tomon ittifoq tuzishi man etilgan. Agarda Xett podshosi urushga kirgan paytda, u bilan shartnoma tuzgan tomon oʻz "betarafligi"ni e'lon qilsa, Misr xettlar dushmani bilan maxfiy aloqalarda boʻlgan deb, hisoblangan. Tuzilgan tinchlik bitimining moddalarida ichki va tashqi dushmanlarning har qanday hujumiga qarshi birgalikda chiqish ta'kidlandi. Birinchi da'vatning oʻzida kontragent (shartnoma tuzgan har ikki tomonning biri) oʻzining qoʻshinlari bilan yordamga kelishi lozim edi. Huddi XXI asrdagi kelishuvlarga oʻxshaydi. Ushbu bitimning ayrim bandlari faqat bir tomon uchun taalluqli boʻlishi mumkin edi. Kelishuvda aytib oʻtilgan shartlarning toʻliq bajarilishi nazorati har ikki tomondan mingta yaqin guvoh-xudolar haykalchalari bilan belgilandi.

Natijada Ramzes II ning oʻn uchinchi oʻgʻli Merneptax (er. avv. 1224-1214-yillar) taxtga chiqdi. Bu fir'avnning vafotidan keyin Misr davlat hokimiyatining zaiflashuv jarayoni boshlandi. Keyingi fir'avnlar Amenmes (mil.avv.1200-1194 y), Satnaxt (mil. avv. 1192-1190y) davrlarida Misr oʻz qudratini saqlab qolishga astoydil urindi.

XX sulola asoschisi Setnaxt mamlakatni tartibga keltirdi. Uning vorisi Ramzes III (er. avv. 1192-1175-yillar) qoʻshinni qayta tiklaydi va qoʻshinning sonini koʻpaytirdi. Liviyaliklar va dengiz xalqlarining hujumlari qaytarildi. Ramzes III Falastin va Suriyada qisqa vaqtga boʻlsada, Misrning ta'sirini qayta tiklaydi. Ramzes III kohinlarning ma'naviy-siyosiy qoʻllab-quvvatlashiga erishish uchun mamlakatdagi yirik ibodatxonalarga koʻplab yer-suv, oltin, qimmatbaho toshlar va qullarni in'om qilgan. Misr ibodatxonalari katta yer-mulkka ega boʻlib, savdo-sotiq, hunarmandchilik va boshqa xoʻjalik sohalari bilan shugʻullanganlar. Katta miqdorda iqtisodiy qudratga ega boʻlgan kohinlar tabaqasi davlat ishlariga

aralashganlar. Bu saroy zodagonlarining noroziligiga sabab bo‘lgan.

Ramzes III vorislari davrida Misr zaiflasha boshlaydi. Er. avv. 1075-yillar atrofida XX sulolaning so‘nggi vakili Ramzes XI vafoti bilan Misr ikki qismga bo‘linadi va Quyi Misrni birlashtirgan, markazi Tanis shahri bo‘lgan ikkinchi davlat paydo bo‘ladi.

Er. avv. XIII-XI asrlarda Misrda kambag‘al aholining noroziligi kuchayadi. “Dengiz xalqlari” sharqiy chegaraga, liviyaliklar g‘arbiy chegaralarga bostirib kirganlar. Ibodatxonalar davlatdan mustaqil bo‘lib, o‘ta boyib ketdilar (uzunligi 40 m bo‘lgan “Xarris katta papirusi”dagi asosiy yozuvlarda fir’avnning ibodatxonalarga hadyalari sanab o‘tilgan). Ramzes II dan keyin Misrda yana 8 fir’avn hukmronlik qildi. Ularning hukmronligi davrida Misrga liviyalik va osiyoliklarning yangi hujumlari kuchaydi. Fir’avn hokimiyati zaiflasha bordi. Nomlarning mustaqilligi kuchaydi. Shu bilan qadimgi Misr tarixidagi oltin davr tugab, III O‘tish davri (er. avv. 1075-656-yillar) boshlanadi.

Savdo va iqtisodiy taraqqiyot. Yangi podsholik davriga kelib Misrda ichki va tashqi savdo ham rivojlandi. Savdo aloqalarining geografiyasi ancha keng bo‘lib, Nil, O‘rta yer dengizi, Qizil dengiz va quruqlikdagi yo‘llar orqali olib borildi. Yangi podsholik davrida qul mehnatidan foydalanish kuchayadi. Eng avvalo, podsho va ibodatxona xo‘jaliklarida, keyin esa, xususiy xo‘jaliklarda qul mehnatidan keng foydalanila boshlangan. Ramzes II o‘zining 30 yillik hukmronlik davrida ibodatxonalarga Suriya va Falastindan 100 ming asirlarni, 1 mln sechat (50 ming ga) ekin yerni hadya qiladi. Lekin asosiy moddiy ne`mat yaratuvchisi turli soliq va majburiyatlar bilan chulg‘angan oddiy Misr jamoachi dehqonlari, hunarmandlari bo‘lib qolaverdi. Asirlardan tashqari, Misrga juda katta moddiy boyliklar oqib kelgan. Misr bosib olingan hududlarda har yili belgilangan miqdorda xiroj to‘lovini joriy qilgan. Jumladan, Efiopiya oltin qumi, fil suyagi, Falastin va Suriya kumush, qo‘rg‘oshin, qalay, bo‘yoq, gazlama, lazurit, qimmatbaho toshlar, kemasozlik yog‘ochi, noyob kedr yog‘ochini yetkazib berish majburiyatini olganlar. Misrda qo‘shimcha ishchi kuchining kelishi (qullar), turli xil xomashyolarning mo‘l-ko‘lligi iqtisodiyotga ijobiy ta’sir qilgan. Xo‘jalik ishlab chiqarishi va uning

texnologiyasi takomillashgan. XIX sulola davridan boshlab jezdan foydalanish keng tarqalgan. Uning xomashyosi Suriyadan oʻzlashtirib olingan. Metall ishlab chiqarish texnologiyasi ham takomillashtirilgan. Misning juda qimmatligi sababli, tosh qurollardan foydalanish davom etdi. Bu davrdan ba`zi temir buyumlar saqlanib qolgan. Temir Misrda yana ilgariroq ma`lum boʻlgan. Lekin XVIII sulola nihoyasida ham temir nodir hisoblangan. Faqat er. avv. VII-VI asrlardan boshlab Misrda mehnat qurollari temirdan yasala boshlandi. Oʻrta podsholik davrida gorizontal ip yigiradigan toʻquv dastgohi mavjud edi. Yangi podsholik davrida esa, vertikal ip yigiradigan toʻquv dastgohi kashf qilingan. Bu vaqtda xira rangli shisha tayyorlash alohida xoʻjalik sohasiga aylanadi. Moʻmiyolash san`ati misli koʻrilmagan darajaga yetdi. Buning yaqqol misoli, Tutmos IV ning moʻmiyolangan jasadi qoldiqlari, malika Tayaning ota-onalari, XIX sulola fir`avnlari Seti I va Ramzes II ning moʻmiyolangan jasadlari qoldiqlarini koʻrsatish mumkin.

Omoch takomillashadi. Suvni yuqoriga chiqarib beradigan mexanizm “shoduf” ixtiro qilingan. Yangi oʻsimliklar oʻzlashtirilgan (chechevisa, smola daraxtlari). Chorvaning yangi turlari (xachir, tuya) paydo boʻldi. Yilqichilik mustaqil sohaga aylandi. Bogʻdorchilikda Osiyodan mevali daraxtlarni yangi navlari: zaytun, shaftoli, bodom, olma va qaroli daraxtlarini oʻzlashtirish boshlandi.

Gʻildirakli aravalar tarqala boshladi. Ikki gʻildirakli ot qoʻshilgan arava harbiy maqsadlarga yoki zodagonlarni chiqishlarida foydalanilgan. Qoramol-hoʻkizlardan, huddi eshak singari dehqonchilik va yuk tashish uchun ishlatilgan. Yuklar qadimgi podsholik davridagidek, yangi podsholik davrlarida ham hoʻkiz qoʻshilgan chanalarda tashilgan. Tutmos III Finikiyada yasalgan qayiqlarni Suriya va Frot orqali hoʻkiz qoʻshilgan gʻildirakli aravalarda olib kelgan.

Qoʻychilikda koʻp jun beradigan, shoxlari qayrilgan qoʻchqorlar, mayin junli qoʻylar zoti paydo boʻldi. Choʻchqa podalarini soni koʻpaydi. Yangi podsholik davrida tovuqlar paydo boʻldi. Suriya va Falastindan yirik qoramol, echki-qoʻylar, Efiopiyadan hoʻkizlar olib kelingan. Bunday moʻl-koʻl chorvaning

boʻlishi Misrda choʻl hayvonlarini qoʻlga oʻrgatishdek an’anani xoʻjalikda yoʻq boʻlishiga olib keldi. Shu vaqtdan boshlab antilopa, ohu, arxarlar poda hisobida tilga olinmaydi, tasvirlarda uchramaydi. Ular faqat qurbonlik keltirilgan va it, mushuk, maymundek “uy” hayvoni sifatida saqlangan.

Sun’iy sugʻorish inshootlarini qurish, ta’mirlash va tartibga solish, yangi yerlarga suv chiqarish fir’avnlarning asosiy e’tiborida turgan. Fayum vohasida yangi yerlar koʻplab ochilib, voha Misrning gʻalla omboriga aylangan. Eski kanal, toʻgon va ariq-anhorlar tozalangan. Nil daryosining toshqin suvlarini chiqishi ustidan muntazam nazorat oʻrnatilgan. Nil vodiysida uzumchilik, asalchilik va bogʻdorchilik gullab-yashnagan. Yangi podsholik davrida Misr iqtisodiyotida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi soha sifatida mahsulotni koʻplab yetkazib bergan. Misrda yerlar sayoz haydalgan, chuqur haydalgan taqdirda yerni shoʻr bosgan.

Fir’avnlar kuchli iqtisodiyotga tayanib, tashqi siyosatda jiddiy yutuqlarga erishdilar. Me’morchilik, qurilish sohasi yuqori darajada rivojlangan. Bir necha yangi shaharlar, jumladan, Per-Ramzes nomli yangi shahar qurilgan. Noyob san’at namunalari hisoblangan me’morchilik inshootlari barpo qilindi: Luksor va Fivada Amon ibodatxonalari, fir’avn sogʻona-ibodatxonasi bunyod qilingan. Fir`avn Ramzes Abidosda Osiris ibodatxonasini qurgan. Nubiyada qoyatoshda Abu-Simbel ibodatxonasi (balandligi 33 m., kengligi 38 m., uzunligi 65 m.) barpo qilinadi. Bundan tashqari, bu yerda Ramzes II ning balandligi 24 m boʻlgan haykali va uning oyogʻi ostida bolalarining 200 haykallari barpo qilingan.

Bu davrda Misr madaniyatining taraqqiyoti uchun qulay ichki va tashqi imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga sabab boʻlgan. Yangi savdo aloqasi tobora kengaygan. Suriyaning ayrim viloyatlari bilan Misrning savdo aloqalari mustahkamlangan. Misrliklar bu hududdan qishloq xoʻjalik mahsulotlari: don, sharob, asal hamda chorva mollari olib kelganlar. Livandan binokorlik yogʻochlari keltirilgan. Misrga Suriya orqali uzoq mamlakatlardan, Xett davlatidan, Egey dengizlaridagi orollardan va Mesopotamiyadan juda koʻplab mahsulot olib kelingan. Suriya bilan savdo-sotiq ishlari

quruqlikdagi yo‘llar orqali ham olib borilgan. Bu davrda misrliklarning dengiz floti bo‘lgan va shuning uchun ular mahsulotlarni Suriyadan yelkanli kemalarda olib kelganlar. Suriyadan keyin Misr savdosining eng muhim tayanch nuqtalaridan biri Bobil shahri bo‘lgan.

Bu davrda misrliklar bir qator yangi mamlakatlarga: Kipr, Kichik Osiyo, Mesopatamiyaga savdo ekspeditsiyalari va istilochilik niyatida qo‘shin yuborganlar. Bu vaqtga kelib, Sinaydagi mis konlari xomashyosi tugay deb qolganligi sababli, misrliklar o‘zlariga zarur bo‘lgan misning yangi manbalarini qidirishga majbur bo‘lganlar. Yangi podsholik davrida misrliklar o‘zlariga zarur bo‘lgan misni Kipr orolidan olib kelganlar. Kipr oroli qadim zamonlardan o‘zining juda katta mis konlari bilan ham nom chiqargan. O‘sha vaqtdan saqlanib qolgan ba’zi hujjatlarda, Kipr orolidan Misrga juda ko‘p mis yuborilgani haqida malumot beriladi. Misol uchun, Kipr podshosi Misr fir’avniga bunday deb yozgan: “Men senga 500 talant (150000 kg) mis yubordim. Men buni birodarimga sovg‘a qilib yubordim. Birodar misning kamligini ko‘nglingga olma. Mening mamlakatimda egam Nergalning qo‘li (vabo) mamlakatimdagi odamlarning hammasini qirib yubordi. Endi misni tayyorlaydigan hech kim yo‘q”.

Bu davrda Kichik Osiyodan, xususan, uning xettlar joylashgan sharqiy viloyatlaridan Misrga temir keltirilgan. Temir o‘sha vaqtlarda Misrda nodir hisoblangan.

Misr savdosi shimoli-sharqqa Mesopotamiya viloyatlariga kirib borgan. Ikki daryo oralig‘ining shimoli-g‘arbida joylashgan Mitanni davlatidan jez, lojuvard, gazmol, kiyim-kechak, moy, jang aravalari, otlar va qullar olib kelingan. Misrliklar Bobildan ham xuddi shunday tovarlar, ya’ni kumush, yog‘ochdan tortib oltin va fil suyagi bilan bezatilgan qimmatbaho buyumlar keltirganlar. Misr bilan Ossuriya o‘rtasida ham savdo aloqalari o‘rnatilgan. Yozma manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda, misrliklar Ossuriyadan jang aravalari, otlar va lojuvard keltirganlar. Misrliklar Old Osiyodan olgan mahsulotlari evaziga bu mamlakatlarga asosan quyma oltin yoki tilla buyumlar, fil suyagi yoki lojuvard bilan bezatilgan buyumlar, gazmol, kiyim-kechak, asosan qimmatbaho metallar yuborganlar. Savdo – sotiq ishlarida

ayiriboshlash keng qo‘llanilgan. Ammo buyumlarning narxini belgilash uchun ma’lum bir og‘irlikdagi oltin, kumush va mis quymalari pul o‘rnida ishlatilgan.

Ijtimoiy munosabatlar. Avvalgidek, Misr jamiyati uch qatlamga bo‘lingan edi: 1. Hukmron tabaqa quldorlar, ustaxona va uy egalari.

2. Kichik mayda ishlab chiqaruvchilar, o‘z mehnati bilan kun kechiruvchi hunarmand va dehqonlar.

3. O‘z mulkiga ega bo‘lmagan qaram qullar. Yangi podshohlik davrida ijtimoiy qatlamlar va ijtimoiy tizimda, ularning ichida ko‘pgina o‘zgarishlar yuz bergan. Quldorlik munosabatlari mustahkamlangan. Yuz minglab asirlar qulga aylantirilgan. 1-3 qulga ega bo‘lgan mayda quldorlar paydo bo‘lgan. Hukmron tabaqa va uning tarkibida keskin o‘zgarishlar yuz bergan. Aslzoda bo‘lmagan, ma’muriyatda o‘rta va kichik lavozimlarni egallagan, fir’avnga qaram bo‘lgan kichik va o‘rta quldorlar paydo bo‘ldi. Ular fir’avn hokimiyatining asosiy tayanchi edilar.

Hukmron tabaqa ichida xizmatdagi zodagonlar, qo‘shinning qo‘mondon tarkibi, merosiy zodagonlar, xudo Amon ibodatxonasi boshchiligidagi oliy kohinlar alohida o‘rin egallaganlar. Nom zodagonlari va oliy kohinlar XVIII sulola davrida istilochilik urushlaridan ulkan boylik orttirdilar. Yillar davomida moddiy boyliklarni to‘plab olgan Fiva kohinlari davlat hokimiyatiga kuchli ta’sir o‘tkazib, fir’avnlarni siyosatiga faol aralashganlar. Fiva kohinlari bilan nom zodagonlari va xizmatdagi zodagonlar o‘rtasida kuchli qarama-qarshilik paydo bo‘lgan. Natijada bu kurash Exnatonning diniy islohatlari bilan tugagan.

Misrdagi ijtimoiy vaziyat ziddiyatli edi. Istilochilik yurishlari natijasida mamlakatga moddiy boyliklar, urush o‘ljalari, minglab qullar oqib kelgan. Harbiylar, zodagonlar, ibodatxonalar bu boyliklarni katta qismini o‘zlashtirganlar va yanada boyib ketganlar. Oddiy xalq esa, kambag‘alligicha qolavergan.

Misrdagi ijtimoiy jarayonlarni o‘rgangan olimlar ta’kidicha, dastlab kishini ismiga ota ismi emas, ona ismi qo‘shib aytilgan. Bu albatta, matriarxat davri bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayollarga ayrim masalalarda jazolar juda qattiq bo‘lganligini ko‘ramiz. Masalan, bevafolik qilgan xotinni er gulxanga tashlab kuydirishi mumkin

boʻlgan. Ammo erkakni vafosizlik qilishi haqida hech narsa uchramaydi. Yana bir ahamiyatli jihat shuki muhim majlislarda ayollar ham erkaklar bilan teng ishtirok etganlar. Bu fikrlardan qadimgi Misrda gender tenglikning ayrim belgilari boʻlganligini koʻrish mumkin.

Armiya tuzilishi. Yangi podsholik davrida Misr qoʻshinlari qayta tashkil qilindi. Giksoslar ta'siri ostida qoʻshin tarkibiga jang aravalari kiritildi. Misrda ot zavodlari tashkil qilinib, xoʻjalikning yangi sohasi yilqichilik paydo boʻldi. Ot zavodlari davlat hokimiyati tomonidan tashkil qilindi va ularni oliy mansabdor boshqargan. Piyodalar asosiy harbiy qoʻshinning asosiy qismi boʻlib qoldi. Ammo uning qurol turlari yangilandi. Qilichning 2 turi: ogʻir, toʻgri va yengilroq oʻroqsimon qilichlar paydo boʻldi. Dushmanlardan yaxshiroq himoyalanish uchun askarlar plastinkali sovut kiya boshladilar. Qoʻshin safini ogʻir qurollangan kamonchi va nayzachilar toʻldira boshladi. Qoʻshinning yangi turi-harbiy dengiz floti paydo boʻldi. Mudofaa inshootlarini (fortifikasiya) qurish san'ati takomillashdi. Misrliklar bosib olingan hududlarda kuchli mustahkamlangan qal'alarni qur`a boshladilar. Qoʻshinni toʻldirish tartibi oʻzgardi. Askar olishning yangi qoidasiga koʻra, har 10 balogʻatga etgan erkaklardan biri harbiy xizmatga chaqiriladigan boʻldi. Ammo bu tartib qoʻshinni toʻliq toʻldirish imkoniyatini bermadi. Shu sababli, XIX sulola davridan boshlab yollanma chet el askarlari qoʻshinning yarmini tashkil qila boshladi.

XVIII sulola kuchli qoʻshinga tayanib, bosqinchilik siyosatini olib bordi. Ayniqsa, Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻiga nisbatan istilochilik hujumlari kuchayib ketdi.

Davlat boshqaruvi. Yangi podsholik davrida davlatni idora qilishning murakkab apparati yuqori darajada mukammal shakllangan. Oʻsha vaqtdan qolgan juda koʻp hujjatlar markaziy va mahalliy idora tizimi bilan tanishib chiqishimizga imkon beradi. Markazlashgan byurokratik idora tizimi borgan sari kuchayib boradi. Ota-bobosi fir'avn boʻlgan Yaxmosning ittifoqchisi Al-Kaba nomarxlaridan tashqari, boshqa viloyatlarning ilgarigi mustaqil hokimlari oʻz mustaqilliklarini yoʻqotganlar va fir'avnga tamomila itoat qilishga majbur qilinganlar. Mamlakat Shimoliy va Janubiy

Misrni oʻz ichiga olgan ikkita katta maʼmuriy okrugga boʻlingan. Okrugga firʼavnning maxsus hokimi qoʻyilgan. Bu esa, idora qilish ishini yanada koʻproq markazlashtirishga imkon bergan. Nomlarni idora qilish podsho amaldorlari qoʻliga topshirilgan. Har bir viloyatning boshida maxsus amaldor turgan. Uning mirzasi va alohida devoni boʻlgan. Shaharlarni fir`avn tayinlagan maxsus mansabdorlar boshqarganlar.

Hujjatlarda sud ishining qanday tashkil qilinganligiga oid baʼzi bir maʼlumotlar saqlanib qolgan. Oʻsha davrdayoq sud qonunlari toʻplami boʻlgan. Shunday tasvirlar saqlanib qolganki, bu tasvirda biz sud mahkamasida bosh sudyaning oʻtirganini va uning oldida bir sandiq boʻlib, uning ichida 40 ta qonunlar toʻplamining yozilgan matni borligini koʻramiz. Exnaton III oʻzini “Qonun oʻrnatuvchi” deb atagan. U oʻz yozuvlarida qonunga doimo rioya qilinganligini bayon qiladi.

Bu davrda boshqaruv xodimlari soni oʻsib ketdi, boshqaruv boʻgʻinlari koʻpaydi. Lavozimlar aniq darajalarga boʻlinadi. Tutmos III ning bosh vaziri Rexmirning davlat apparatini murakkabligini koʻrsatadigan yoʻriqnomasi bizgacha yetib kelgan. Ushbu hujjatga koʻra, XVIII sulola davrida davlat apparati bir necha boʻgʻinlarga boʻlingan. Bu yoʻriqnoma quyidagi soʻzlardan boshlanadi: «Shahar boshligʻi, janubiy shahar va qarorgoh vaziri vazir devonida oʻsha toʻra-vazir majlis qurganida, shu vazir devonida eshitib turgan chogʻida qilishi lozim boʻlgan hamma ishlar xususida farmoyish beradi va u vazir kursisida oʻtiradi. Yerga boʻyra solingan, tepasida taxtiravon, uning orqasida ham teri, oyoq ostida ham teri yoyib tashlangan qoʻlida aso, oldida 40 kun uning kamida ikki tomonida janubning 10 ta kibori, ichki qasr boshligʻi uning oʻng tomonidan daromadlar boshligʻi, chap tomonda vazirning mirzalari qoʻliga yaqin joyda turadigan…». Bu yoʻriqnomaga qaraganda, bu oliy mansabdagi amaldor butun mamlakatni idora qilish ishini oʻz qoʻliga olgan. Markaziy boshqaruv apparati bir necha boʻgʻinlarga boʻlingan. Xazina boshligʻi, uy boshqaruvchisi (soliq yigʻuvchi, xiroj toʻlovchi), ekinlar mudiri, chorva boshligʻi, qabulxona boshligʻi, sud mudiri, harbiy palatalar boshligʻi kabi vazifalariga ega boʻlgan vazir qoshida 10 ta Yuqori Misr amaldorlari boʻlgan. Keyingi boʻgʻin hududiy-maʼmuriy boshqaruv apparati boʻlgan.

Rexmir yoʻriqnomasiga koʻra, vazir toʻrtta maʼmuriy hududlarni boshqaradigan amaldorlarni tayinlagan. «U (vazir) Yuqori va Quyi Misr va Yuqori Misrning janubiy qismi (Fiva boshchiligidagi poytaxt okrugi). Nilning viloyati. Ular barcha yuz bergan voqealar toʻgrisida har toʻrt oyda hisobot berishlari kerak. Ular vazirlarga oʻzlarining boshqaruvlari yozuvlarini yetkazadilar» (Oʻsha davrdagi hujjatdan parcha).

Davlat xavfsizligi uchun muhim boʻlgan qoʻshinda yollanma askarlar soni koʻpaytirilgan. Shu maqsadda Liviya qabilalaridan koʻplab askarlar olingan, qoʻmondonlik tarkibi va qoʻshinning moddiy ta`minoti mustahkamlangan. Tashkiliy jihatdan qoʻshinlar shimoliy va janubiy qismlarga boʻlingan.

Yuqoridagi maʼlumotlardan shu narsani anglash mumkinki, shu davrlarda xorijliklarni Misr qoʻshiniga yollash kengaydi. Masalani chuqquroq tadqiq etish yana shuni koʻrsatadiki, Misrga koʻp vaqtlarda bosqinchilik yurishlari, dastlab unga askar boʻlib kirgan xalqlar tomonidan amalga oshirilgan. Buni biz koʻhna qadimgi Gʻarb tarixida Rim imperiyasini qoʻriqlagan german xalqlarini bosqinlari misolida ham koʻrishimiz mumkin. Chunki ular ham dastlab, federal yaʼni ittifoqchi sifatida kirishgan edi. Demak, ittifoqchilarga ham sergak munosabat bildirish maqsadga muvofiq degan xulosa kelib chiqadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yangi podsholik davrida Misr davlati boshqaruvida qanday oʻzgarishlar boʻlgan?
2. Yangi podsholik davrida Misr va Old Osiyo munosabatlarini yoritib bering.
3. Ramzeslar davrida ichki va tashqi siyosatda qanday yutuqlarga erishildi?
4. Yangi podsholik davrida aholi ijtimoiy qatlamlari haqida bahs yuriting.
5. Yangi davrni oʻrta podsholik davridan farqi nimada?
6. **Keys topshirigʻi:** Agar siz Qadimgi Misrda Yangi Podshohlik davrida, Ramzeslar sulolasi hukmronligi paytida davlat amaldori yoki harbiy-siyosiy maslahatchi boʻlganingizda,

Misrning tashqi harbiy yurishlari, diplomatik munosabatlari (xususan, Xett davlati bilan aloqalar) hamda davlat qudratini mafkuraviy jihatdan mustahkamlash uchun qanday chora-tadbirlarni taklif qilgan bo‘lardingiz?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

5-MAVZU. SO‘NGGI PODSHOLIK DAVRIDA MISR DAVLATINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI

1. Misrda ajnabiy liviyaliklar hukmronligi.
2. Misrliklar Efiopiya va Ossuriya tazyiqi ostida.
3. Sais sulolasi. Misr davlatining so‘nggi yuksalishi.
4. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar.
5. Qadimgi Misr madaniyati.

So‘nggi podsholik davri. Bu davrning boshlarida Quyi va O‘rta Misrda markazi Tanis shahri bo‘lgan (er. avv. 1075-945-yillar) XXI sulola hukmronlik qildi. Janubiy Misr Xerixorning vorislari Amon-Ra ibodatxonasining oliy kohinlari boshqaruvi ostida edi. Bu vaqtda alohida nomlar kuchayib ketdi. XXI sulola va Amon-Ra ibodatxonasi oliy kohinlari nomlarni merosiy nomarxlari separatizmiga qarshi tura olmadilar. Ichki kurashlar sababli, parokandalikka yuz tutgan mamlakat tez orada chet elliklarga qaram bo‘la boshladi. Misrda bu davrda liviyaliklarning ta`siri kuchayib ketdi.

Liviyaliklar deltaning g‘arbida va Nil daryosining shimoliga tutashgan joylarda hamda g‘arbiy vohalarda qadimdan yashab kelganlar. Bu qabilalar mustaqil, lekin madaniy jihatdan Misrga qaraganda, ancha orqada edilar. Yangi podsholik fir’avnlari davrida Misr gullab-yashnaydi va misrliklarning liviyaliklar bilan aloqalari yanada kuchayadi. Shu davrdan boshlab liviyaliklar Misr madaniyati bilan tanishib, Misrga ko‘plab kelib o‘rnashganlar.

Fir’avnlar liviyaliklarni yollanma askar sifatida xizmat qabul qilib, ularga asosan deltadan chek yerlarni ajratib berganlar. XX-XXI sulola vakillari davrida liviyaliklarning ko‘chib kelishi yanada jadallashgan. Liviya zodagonlaridan ba’zi birlari asta-sekinlik bilan oliy kohinlik lavozimlarini egallaydilar. Liviyalik yollanma askarlar boshliqlari ayrim hududlarni bosib olganlar.

Harbiy qo‘mondon va Gerakleopoldagi Xerilfe xudosining ibodatxonasi bosh kohini bo‘lgan bir liviyalik odam o‘zining yozma ma’lumotida ta’kidlashicha, bu odamning o‘zidan avval o‘tgan ota-bobolaridan 15 tasi shu yerda umr kechirib o‘tganligi aytiladi. Bu yozuvga qaraganda, uning ajdodi liviyalik Byuvava XXI

sulola davrida Gerakleopolga koʻchib kelgan. Uning avlod-ajdodlari liviyalik qoʻshinlarning «ulugʻ boshliqlari» va Gerakliopol ibodatxonasining kohinlari lavozimini egallagan. Bu liviyalik aslzodalar urugʻidan biri podsho oilasi bilan qarindosh ham boʻlib olgan.

Ana shu liviyalikning avlodi boʻlgan Bubastis nomining nomarxi Sheshonk podsholik taxtini egallab, XXII sulolaga asos solgan. Koʻrinishidan u Fiva kohinlari bilan til topishgan va ularni qoʻllab-quvvatlashiga tayangan. Kelib chiqishi liviyalik boʻlgan yangi hukmdorlar Fiva kohinlari bilan maslahatlashganlar va ularga tayanib ish koʻrganlar. Yangi sulola podsholari eski podsho xonadoni bilan qarindosh boʻlib, oʻz bolalarini Fivadagi ibodatxonaga bosh kohin qilib tayinlaydilar.

Yangi podsholik davrida yagona davlatning yemirilishi bilan Misrda III oʻtish davri (er. avv. 1075-656 y) boshlandi. Bu davrda Misrda rasman yagona podsho hokimiyati mavjud boʻlsada, siyosiy tarqoqlik oʻzining yuqori choʻqqisiga chiqdi.Nomlar oʻrtasida kuchli ziddiyatlar kelib chiqib, markazlashuvga qarshi holat mavjud edi. Dastlab er.avv. 943 yilda asli meshauashi (liviyalik) lardan boʻlgan Sheshonk (er. avv. 943-922y) XXI-sulolaning soʻnggi vakili Psusennes II oʻlimidan soʻng yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib hokimiyatga keladi va XXII-sulolaga asos soladi. Bir vaqtlar talonchilik oʻlkasi deb e'tiborsiz qarab kelingan Liviya bugun hokimiyatgacha yetib keldi. Poytaxtni Nil deltasining sharqidagi Per-Bastet (Yunoncha Bubastis) shahriga koʻchiradi. Oʻz oʻgʻli Osorkonni sobiq podshoning qizi Maatkaraga uylantirib, taxt vorisligi tizimini oʻz foydasiga hal qilishga muvaffaq boʻladi. Bu yerda ularning usta siyosat yuritayotganligini ham koʻrish mumkin, dastlab askar, keyin hukmdor, vaziyatni va merosxoʻrlikni qoʻlga kiritish uchun oʻgʻlini "Nikoh diplomatiyasi" yordamida huquqiy jihatdan qonunlashtirishga erishgan. Liviya sulolasiga asos solgan Sheshonk I (er. avv. 945-924-yillar) sergʻayrat hukmdor boʻlgan. Liviyaliklarning harbiy kuchlariga va Fiva kohinlariga tayanib turib, Sheshonk I oʻzini XVIII-XIX sulola zamonidagi buyuk istilochi fir'avnlarning ishini davom ettiruvchi sifatida koʻrsatadi. U Karnakdagi ibodatxona yonida "Bubastislar hovlisi" (saroyi)ni

bunyod qilib, katta minora ham qurdiradi. Sheshonk I nomarxlar separatizmini bir qadar to‘xtatishga erishib, mamlakatda vaziyatni biroz barqaror qiladi. U er. avv. 930-yili Falastin ustiga yurish qilib, katta o‘ljalar bilan Misrga qaytgan. Misrning bu hududdagi avvalgi mavqei vaqtincha bo‘lsada, qayta tiklangan. “Bubastislar hovlisi” dagi o‘ymakor tasvirlarda va zafarnomalarda Falastinda erishilgan g‘alaba tasvirlangan. Bu yerdagi osiyolik asirlardan 156 tasini arqonga bog‘lab borayotgan xudo Amonning kattakon tasviri, ayniqsa diqqatga sazovordir.

1938-1939-yillarda Tanisda o‘tkazilgan qazish vaqtida Sheshonkning hali qo‘l tekkizilmagan maqbarasi topildi. Bu maqbaralardan fir’avnning oltin, kumushdan qo‘shib ishlangan sarkofagi (tobuti) va unda mo‘miyolangan fir’avnning yaxshi saqlangan jasadi topilgan edi.

Shu tariqa Misr tarixida Bubastislar, ya’ni liviyalik fir’avnlarning boshqaruv davri boshlanadi. Fir’avnlar Osorkon (er. avv. 922-887 y), Sheshonk II (er.avv.887-885 y), Takelot (er. avv. 885-872-y), Osorkon II (er. avv.872-837y), Sheshonk III (er. avv. 837-798 y), Sheshonk IV (er. avv.798-785y), Pami (er.avv.785-778-y) va boshqalar davrida Misr taraqqiyoti avvalgidek emas edi. Er.avv.760 yili Yuqori Misrga Nubiyaning Napata shahridan Kashta (mil. avv. 760-752y) ismli podsho qo‘shin tortib keldi. Shu tariqa efioplar taxtga o‘tirib, XXV-sulolaga asos soldilar. Misr tarixida er. avv. 760-656 yillar efiopiyalik fir’avnlar davri hisoblandi. Mamlakat yana ichki nizolar oqibatida kuchsizlanadi. Ushbu sulolaning yirik namoyondalaridan Pianxi va Shabakalar davrida Yuqori va Quyi Misr efioplar sulolasiga (er. avv. 715-yilda) bo‘ysundirildi. Ammo er. avv. 674–yilda Misrga Ossuriya podshosi Asarxaddon bostirib keladi. Mamlakat 10 yildan ziyod ossurlarga qaram bo‘lib qoladi.

Sharqda kuchayib ketgan Ossuriya Misr ta`siri ostida bo‘lgan hududlarni istilo qila boshladi. Falastin, Finikiya va Suriya Ossuriyaliklar zulmi ostiga tushib qolishi yaqqol ko‘rindi. Suriya, Finikiya va Falastin shahar-davlatlari podsholari birlashib, Ossuriya podshosi Salamansarga qarshi bosh ko‘taradilar. Qarkara yonida (Oront daryosi bo‘yida) er. avv. 853-yilda birlashgan ittifoqchilar va Ossuriya qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tgan.

Fir`avn Osorkon II ittifoqchilarga yordamga ozgina qo‘shin yubordi xolos. Afsuski, jangda ittifoqchilar yengiladi. Bu urushdan keyin o‘z-o‘zidan ma’lumki, Misrning obro‘si tushib ketadi. Ichki kurashning keskinlashuvi mamlakatni bir necha kichik davlatlarga ajralib ketishiga olib kelgan. XXII sulola bilan birga, XXIII sulola vakillari ham mamlakatni boshqara boshladilar. XXIII sulola vakillari rasman o‘zlarini butun Misr fir’avni deb e’lon qilganlar. Misrning bir-biriga dushman bo‘lgan, lekin kuchsiz nomlarga bo‘linishi saqlanib qoldi.

VIII asrda hukmronlik qilgan XXIV sulola vakillari, xususan Bokxoris davrida (721-715-yillar) davlatni inqirozdan qutqarish uchun ayrim ijtimoiy islohotlar amalga oshirilgan. Bokxoris qarzdorlarni qulga aylantirishga qarshi chiqqan. Lekin bu islohotlar ham mamlakatni inqirozdan chiqara olmagan. Misrdagi bu inqiroz chet ellik bosqinchilarning hujumini yanada tezlashtirgan.

Nil daryosining birinchi ostonasidan janub tomondagi o‘lkalarda azaldan nubiyaliklar yashab kelganlar. Misr fir’avnlari Qadimgi podsholik davridan Nubiyada o‘lja, qullarni bosib olish, uning yerlarini egallash uchun muntazam bosqinchilik yurishlari olib borganlar. Fir`avnlar muntazam hujumlar qilib, Nubiyani xarob qilib kelar edilar. XVIII sulola vakillari zamonida Misr askarlari Nubiyaning to‘rtinchi ostonasigacha bo‘lgan hududlarni istilo qilib, u yerda mustahkam o‘rnashib olish uchun qal’alar va ibodatxonalar qurdilar. Misrning bir necha yuz yillar davomida Nubiyani o‘z ta`siri ostiga olishi, har ikki mamlakat o‘rtasida aloqalarni muntazam yo‘lga qo‘yilishiga olib keldi. Natijada Nubiyaning zodagonlari Misr madaniyatini qabul qiladilar.



Kohinlarning XXI-XXII sulolalari hukmronligi davrida Misrning zaiflashganidan foydalangan Nubiya qabilalari o‘z mustaqilliklarini tiklashga harakat qildilar. Nubiyada er. avv. VIII asrda markazi Napate bo‘lgan mustaqil davlat tashkil topadi. Nubiya hokimlari Misrning

madaniyatini qabul qilib, oʻzlarining hokimiyatlarini Misr fir'avnlari kabi tashkil qilishga harakat qildilar va oʻz yozuvlarini misr tilida tuzadilar. Nubiya hokimlari Jabal-Barkal qoyalari yonidagi oʻz poytaxtlari Napateda Misrning oliy xudosiga sigʻinganlar. Ular bu xudoni oʻzlarining boy xazinalari manbai boʻlgan oltin konlari sharafiga "Oltin xudo" deb ataganlar. Bu oltin konlari bir vaqtlar Fiva ibodatxonasiga qarashli boʻlgan. Liviyaliklar hukmronligi ostida kuchsizlanib, parchalanib borayotgan Misrda hokimiyatni qoʻlga olish uchun nubiyaliklar Fiva kohinlari bilan aloqani tiklaydilar. Zamonamizning XXI asrida ham Liviya oʻziga hos rivojlanishga erishdi. Ammo tashqi kuchlarning aralashuvi ostida mamlakatni 42 yil boshqargan(1969-2011 yillar) prezidenti Muammar Kaddafiy hokimiyatdan tushirilib, keyinchalik oʻldirilgan.

Misrning bunday zaif holga tushishi va mayda nomlarga boʻlinishi haqida oʻsha zamondagi esdalik-«Podsho Petubastis siklidagi qissalar» yozma manbasida saqlanib qolgan. Yunon tarixchilari bu davrni "Dodekarxiya", ya'ni 12 podsholik hukm surgan davr deb ataydilar. Liviyaliklar sulolasidan boʻlgan podsholarga butun mamlakat hududi boʻysunmaganligini Liviya sulolasi podsholari ham oʻzlarining rasmiy yozuvlarida yozib oʻtishga majbur boʻlganlar. Liviyalik fir'avnlar Yuqori va Quyi Misrdagi liviyalik boshliqlarni va oliy kohinlarni birlashtirishni oʻzlarining doimiy siyosiy vazifalari deb bilganlar. Biroq ular bu muddaolariga toʻliq erisha olmaganlar. Bir vaqtning oʻzida ikki sulola vakillari mamlakatni boshqarganlar. Shulardan XXIV sulola vakillari va Petubastis davrida ham Misr oʻz qaddini rostlay olmadi. Misrning ichki tushkunliklar tufayli xoʻjaligi izdan chiqib, savdo, iqtisodiy va siyosiy vaziyat yomonlashadi.

Napate hokimi Pianxi (er. avv. 729-728-yillar) tashqi siyosat sohasida otasi olib borgan ishni davom ettirib, zoʻr gʻayrat bilan Misrni istilo qilishga kirishadi. U Yuqori Misrning ancha qismini va jumladan, Fivani bosib oldi. Mahalliy nufuzli kohinlar bosqinchilarni toʻla qoʻllab-quvvatladilar. Chunki kohinlar efioplarning yordami bilan oʻzlarining oldingi hukmron mavqeilarini tiklamoqchi edilar. Pianxi bu istiloni oʻzining batafsil yozuvida aks ettirgan. Napatedan topilgan bu yozuv hozirda

Qoxira muzeyida saqlanadi. Bu qimmatli tarixiy ma’lumotga qaraganda, Sais hokimi Tefnaxt Pianxini asosiy raqibi bo‘lgan. Tefnaxt delta bilan Yuqori Misrning anchagina hududlarini o‘z atrofiga birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Pianxi esa, o‘zini Misr fir’avnlarining qonuniy merosxo‘ri «O‘zim podshoman, xudo Atumning jonli siymosi marhamatli xudoman» deydi. Tefnaxt esa, “G‘arbning boshlig‘i” va o‘rta delta o‘lkalaridan birining hokimi hisoblangan.

Pianxi yozuvida o‘zini ko‘p sonli qo‘shinga boshchilik qilib, janub tomonga qarab kelayotgan Tefnaxtdan Misrni ozod qiluvchi deb ko‘rsatadi. Tefnaxt va Pianxi o‘rtasida bir necha janglar bo‘lib, so‘nggi jang Pianxi g‘alabasi bilan tugaydi. Pianxi o‘zini Misr fir’avni deb e’lon qiladi. Shunday qilib, er. avv. 715-yilda Misr Kush tomonidan to‘la bosib olinadi. 715-yildan 664-yilgacha Misr Kush fir’avnlari tomonidan boshqarilgan. Efiopiya sulolasi poytaxt qilib Memfis shahrini tanlaydi. Pianxi o‘limidan so‘ng, uning o‘g‘li Shabaka Misr taxtiga chiqib, 15 yil hukmronlik qiladi. Manefon asarida saqlanib qolgan rivoyatga ko‘ra, u Quyi Misr fir`avni Bokxorisni asirga olib, uni tiriklayin o‘tda kuydiradi. Shundan so‘ng, Misr nisbatan tinchlikka ega bo‘ladi. Shabaka davrida qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo biroz jonlandi. Efiopiya sulolasi davrida Misrda ichki ahvol biroz

yaxshilandi.

Ammo tobora qudrati oshib borayotgan Ossuriya Misrga qo‘shni hududlarni bo‘ysundirib, Misr chegaralariga yaqin kelib qolgan edi. Pianxining taxt vorislaridan biri Taxarka Misrni Ossuriyadan himoya qilishga majbur bo‘lgan. Taxarka foydali ish qilganini ta’kidlab, bu mamlakat “Butun borliq hukmdori” zamonida hamma narsa mo‘l-ko‘l bo‘lganligi kabi, mening vaqtimda ham farovon hayot bo‘ladi deb g‘urur bilan aytgan. Biroq Taxarka Ossuriyaliklarning Misrga bostirib kelishini to‘xtata olmagan. Ossuriya podshosi Asarxaddon 671-yilda Misrni istilo qiladi. Taxarka esa, qochib ketishga majbur bo‘lgan. Asarxaddon Arabiston ustidan o‘z hokimiyatini mustahkamlagandan so‘ng, Misrni bosib olgan va Taxarka to‘plagan Misr-efiop qo‘shinlariga bir necha marta zarba bergan. Asarxaddon o‘z yozuvlarida ulug‘ Misr podsholigining eng qadimgi poytaxti Memfis shahrini yarim kun ichida bosib olib, uni xarobazorga aylantirib, Misrdan efiopiyaliklarning ildizini sug‘urib tashlaganini ta’riflagan. Misrda Ossuriyaliklar bir qancha qiyinchilikka duch kelganlar. Er. avv. 663-yilda osurlar bilan Taxarkaning vorisi Tanutamon qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘ladi. Bu jangda efiopiyaliklar yengilgan va XXIV efiop sulolasi tugatilgan. Ossuriyaliklar Misrda o‘z hukmronliklarini mustahkamlash uchun mamlakatni 20 nomga bo‘lib boshqaradilar. Efiop sulolasi osurlarga qarshi kurashni davom ettiradi. Har bir nom Ossuriyaning Misrdagi noibiga so‘zsiz itoat qiladi. Bosqinchilar mamlakatni birlashuviga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladilar.

Sais sulolasi. Misr davlatining so‘nggi yuksalishi. Er. avv. 656–yilda Ossuriyaliklar Misrdan haydab chiqarildi. Sais hukmdorlari Misrni birlashtirishga boshchilik qiladilar. Sais Quyi Misrning yirik nomlaridan biri bo‘lib, bu shahar deltaning g‘arbiy qismida joylashgan. Atrofi botqoq bilan o‘ralgan Saisda 665-yildan boshlab Psammetix hokimlik qilgan. Psammetix (er. avv. 656-610-yillar) Tefnaxt avlodidan bo‘lib, liviyalik aslzoda urug‘idan kelib chiqqan. U Ashshurbanipalning yordamida ish ko‘rgan. Ossuriyaliklarning sodiq ittifoqchisi bo‘lgan Psammetix butun Misrni o‘z qo‘li ostiga birlashtirib, yangi XXVI sulolaga asos solgan.

Keyingi fir`avn Nexo II Suriyada o‘z hukmronligini o‘rnatishga harakat qilgan. Er. avv. 608-yilda Yaxudiya davlati qo‘shinlari Falsatin shimolidagi Megiddo shahri yonida Misr qo‘shinlariga qarshi jang qildi va yengildi. Shundan so‘ng, Yaxudiya Misrga oltin va kumush bilam katta miqdorda o‘lpon to‘lay boshladi. Uch yildan so‘ng, er. avv. 605-yilda Bobil Misrni Suriya va Falastin ustidan hukmronligini tugatdi. Misr Yaxudiyani Bobilga qarshi kurashda qo‘llab–quvvatladi. Fir’avn Apriy Finikiya shaharlaridan biri Sidon floti ustidan g‘alaba qildi. Er. avv. 586-yilda Misr qo‘shinlari Quddusda paydo bo‘ldi, lekin tez orada Bobil tomonidan bu hududdan siqib chiqarildi.

Sais sulolasi davrida Misr so‘nggi bor o‘z taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqadi. Biroq bu Misr davlati va madaniyatining so‘nggi marta, lekin kuchsizroq rivoj topgan davri edi. Uzoq davom etgan urushlar va ossur qo‘shinlarining mamlakatni xarobaga aylantirgan hujumlari natijasida tinkasi qurigan Misr endi o‘z chegaralarini dushmandan himoya qilishi va Osiyodagi obro‘sini saqlash uchun zarur bo‘lgan ko‘p sonli qo‘shinni to‘play olmadi. Shu sababli, Sais fir’avnlari Kichik Osiyodagi yunonlardan yollangan askarlarga tayanib ish ko‘rishga majbur bo‘ladilar. Bu davrda yunonlar Misrga jadal kirib kela boshladilar. Yunon tarixchisi Gerodot yunon savdogarlari, yollanma askarlarining Misrga kirib borganligi to‘g‘risida yozib, Sais fir’avnlarining «Yunonistonga moyilligi» va o‘sha zamonda misrliklar bilan yunonlar o‘rtasida juda yaqin madaniy aloqa bo‘lganini ko‘rsatadi. Psammetix I taxtga o‘tirgandan so‘ng, yunon yollanma askarlari va savdogarlariga tayanishga urinadi. Yunonlarning Navkratisdagi savdo koloniyalariga katta-katta imtiyozlar va yengilliklar beradi. Sais nomligida taxminan 665-yildan boshlab Psammetix I hokimlik qiladi. Psammetix I (mil.avv.655-610y) asli liviyalik zodagonlardan edi.

Sais fir’avnlari ichki siyosat sohasida liviyalik harbiy aslzodalar, Mirs kohinlari va yunon savdogarlari bilan muvozanatda bo‘lgan muomala-munosabatni yo‘lga qo‘yadilar. Ular Misrning nufuzli kohinlariga qarshi, shuningdek, haligacha ham ba’zi bir mustaqillikka ega bo‘lishni da’vo qilib kelayotgan ko‘p hokimlarga qarshi kurash olib bordilar.

Psammetix I Fiva kohinlarini oʻziga boʻysundirib olish uchun oʻz qizi Neytikertni Amonning oliy kohini Shepenopet II (“Xudoning qalligʻi”)ga qiz qilib beradi. Toʻgʻrirogʻi, Shepenopet II ni shunga majbur qiladi. Bu ma’lumot alohida hujjatga yozilgan boʻlib, bizgacha yetib kelgan.

Psammetix I oʻzini sobiq tushkunlikka yuz tutib borayotgan homiysi Ossuriyaga yordam berishga harakat qiladi. Chunki Psammetix I ning hokimiyatini kuchayishiga Ossuriya podsholari katta yordam qilgan edilar. Bundan tashqari, Psammetix I Ossuriya davlatining barqaror turishidan manfaatdor edi. Old Osiyoda kuchlar nisbatining muvozanatini saqlab turish, Bobilni kuchayib ketishiga yoʻl qoʻymaslik uchun Misr halokat sari borayotgan Ossuriyani qoʻllab-quvvatladi.

Psammetix I Ossuriyaga qoʻshin tortib kelayotgan Bobil hukmdori Nabopalasarga qarshi Ossuriyaga yordam berish maqsadida, Frot daryosi boʻylarida paydo boʻladi. Psammetix I ning oʻgʻli Nexo ham Ossuriyaga yordam berishga koʻp harakat qiladi. Nexo 611-yilda taxtga oʻtirgandan soʻng, birlashgan kuch bilan Xarranni bosib olish uchun oʻz qoʻshinlarini Ossuriyaga yordamga joʻnatadi. Misr-Ossuriya qoʻshinlari Karxamesh shahrini ishgʻol qiladilar. Navuxodonosor misrliklar bilan Ossuriyaliklarni ittifoqchi qoʻshinlariga zarba beradi. Karxameshda oʻtkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida misrliklar bilan yunon yollanma askarlarining bu shaharda boʻlganligini koʻrsatuvchi muhim dalillar topildi. Xususan, yunon buyumlari, Gorgonaning surati solingan ioniy qalqon, shuningdek, jezdan yasalgan haykalchalar, fir`avn Nexoning nomi bitilgan tasvirlar va Psammetix nomi yozilgan uzuk topilgan.

Soʻnggi podsholik davrining Sais sulolasi hukmronligi davrida yunonlar bilan doʻstona munosabatlar yaxshilanadi. Gerodotning yozishicha, yunonlar Psammetix II huzuriga elchi yuborib, Olimpiya musobaqalarini qanday qilsak, yaxshiroq oʻtkazishimiz mumkin deb misrliklardan maslahat soʻraganlar. Qadimgi misrliklarning donishmandligi va ularning madaniy taraqqiyoti yuksak boʻlganligi yunonlar tomonidan har doim zavq bilan maqtalgan.

Sais davrining keyingi podsholari Uaxibra (Apriy) bilan Yaxmos II (Amazis) o‘tmishdoshlari siyosatini davom ettirganlar. Korinf dubulg‘asida podsho Uaxibraning tasviri saqlanib qolgan. Misr fir’avni kiyinishda yunonlarga taqlid qilganligi ma’lum. Podshoning yunonlarga moyillik siyosati Misr aholisi o‘rtasida norozilik tug‘dirgan va qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. Yaxmos isyonchilarga bosh bo‘lib, asosan yunon yollanma askarlaridan iborat qo‘shinlarni tor-mor keltirgan va hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan.

Yaxmos II yunon ibodatxonalariga katta sovg‘alar yuborib, bu bilan yunonlarning o‘ziga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lishiga, ularni yordam berishi va qo‘llashiga erishadi. Yaxmos II ning faol tashqi siyosat olib borganligi Bobil yozuvlarining birida aks etgan. Bu yozuvda Misr qo‘shinlarining hujumlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi va Amazisning nomi tilga olinadi. Lekin bu davr Misr davlati mustaqilligining so‘nggi yillari edi. Bu vaqtda sharqda Ahmoniylar Eroni kuchayib, butun Sharq dunyosini o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qilayotgan edi. Eronning kuchli qo‘shini hujumini qaytarishga Misrda yetarli kuch yo‘q edi. Fir`avn Yaxmos II dan so‘ng, Amazis hukmronligi davrida (er. avv. 570-526-yillar) mamalakatning ahvoli yanada yomonlashadi. Eron podshosi Kambiz 525-yilda Misr yerlariga bostirib kirib, Pelusiya yonida bo‘lgan jangda Misr ustidan g‘alaba qozonadi. Fir`avn Psammetix III taxtdan tushiriladi. Kambiz Misr podshosi deb e`lon qilinadi (XXVII sulola). Misr bir necha bor forslar hukmronligidan qisqa vaqtda mustaqil bo‘ladi (XXVIII-XXX sulolalar).

Sais davri madaniyati. Bu davrda misrliklar bir qancha qo‘shni xalqlar bilan aloqa qilib, madaniy jihatdan ularga ancha ta’sir ko‘rsatadi va o‘z navbatida, ulardan ham ko‘p yutuqlarni o‘rganadilar. Misr bilan Egey dunyosi, Old Osiyo va Nubiya o‘rtasida o‘zaro madaniy aloqa va ta’sir tobora kuchayib boradi. Bu davrda Misrning siyosiy ta’siri kamayib, Misr o‘zining chet ellardagi yerlaridan mahrum bo‘ladi. Misr boshqa mamlakatning ta’siriga uchrab, istilo qilingan so‘nggi davrda ham uning qo‘shnilar bilan madaniy aloqalari saqlanib qolgan edi.

Liviyalik, Ossuriyalik va efiopiyalik istilochilar Misrning yuksak qadimgi madaniyatini bir qadar ta’siriga tushmasligi

mumkin emas edi. Madaniy jihatdan qoloq bo‘lgan liviyaliklar va efiopiyaliklar Misrni istilo qilganlaridan so‘ng, bir vaqtlar giksoslar singari Misr madaniyati ta’siriga tushib qoldilar.

Misrni istilo qilib, u yerda o‘z sulolalarini barpo etgan liviyaliklar va efiopiyalik podsholar Misr fir’avnlari unvonlarini qabul qildilar. Ular Misr xudolariga sig‘indilar. Misr yozuvlari namunasida o‘z yozuvlarini yaratdilar. Ular o‘zlaridan oldin o‘tgan Misr fir’avnlarining rasm-rusmlariga taqlid qildilar. Chunonchi, Taxarka o‘zini “Gorgon-ikki tojning egasiman” deb e`lon qiladi. Nubiya oldin ham Misrning madaniy ta’siri ostida edi. Efiopiyaliklar Misrni bosib olgan vaqtda esa, bu ta’sir yanada kuchayadi. Misr ibodatxonalarining Nubiya hududlarida saqlanib qolgan ko‘pgina xarobalari Misr madaniyati Nubiyaga naqadar kuchli ta’sir qilganligidan dalolat beradi. So‘nggi meroit alifbosi ham Misrning “demotic” yozuvi asosida vujudga kelgan.

Misr madaniyati Old Osiyo o‘lkalari asosan Falastin, Finikiya va Suriyaga, hattoki, Kipr oroligacha yetib borgan. Finikiya va Falastin hududlaridan misrliklar san’atidan dalolat beradigan ko‘pgina madaniy yodgorliklar topilgan. Finikiyada Misr xudolarining, xususan Tot, Ptax, Xatxor, Gor va asosan Osiris kabi xudolarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Aytishlaricha, xudo Osirisning jasadi solingan tobutni yoki uning boshini dengiz to‘lqinlari Bobil shahri devoriga olib kelib qo‘ygan emish. Qadimgi yahudiylarning “Tavrot”ida to‘plangan dunyoviy va diniy manbalarda qadimgi Misrning ta’siri g‘oyat kuchlidir. Tarixchi V.I. Avdievning ta’kidlashicha Aton sha’niga aytilgan bir madhiya Dovud surasidagi oyatlardan biriga o‘xshaydi. Misrliklarning lirikasi Tavrotdagi “Qo‘shiqlar qo‘shig‘i” ga yaqin keladi. Misrliklarning “nasihatnoma va karomatlari” Tavrot adabiyotidagi va boshqa unga o‘xshash asarlarda aks etgan.

Misrning qadimgi madaniyati yunon qabilalarining endigina yuzaga kelayotgan yosh madaniyatiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Yunonlar Misr kohinlarining qadimgi donishmandligiga, Misrdagi dabdabali ibodatxonalari tilsimlariga va zeb-ziynatlariga maftun bo‘lgan edilar.

Yunon dostonlaridan biri “Iliada”da Misrdagi Fiva shahrining 100 ta eshigi bo‘lib, har bir eshikdan ot mingan va jang aravasi

haydagan 20 ta botir yonma-yon bir qator tizilib, bemalol chiqib ketishi mumkinligi aytiladi. Yunon xudosi Apollonning oldingi haykallari gavdasining old tomoni va shu davrdagi boshqa haykallarga xos bo‘lgan belgi-kulib turish Misr haykallariga, xususan Sais davri haykallariga juda mosdir. Yunonlarning Misrga kelishiga keng yo‘l ochgan Sais fir’avnlari yunon madaniyatiga ham Misr darvozalarini ochib berdilar.Yunon rassomlari, hunarmandlari o‘zlari ishlagan buyumlari, san’at asarlari bilan Misrni to‘ldirib yubordilar.

Yunon va Misr san’atining o‘zaro ta’siri jarayoni kuchayadi. Misrga qo‘shiqchi va shoirlar-Orfey, Musey, Gomer, Dedal, Likurg va Solonlarning sayohat qilgani to‘g‘risida afsonalar mavjud[28]. Yunonlarning vaza san’atida Afrika, Misr motivlari: lotos, raqsga tushayotgan negrlar, Misr ma’bud va ma’budalari keng tasvirlangan. Gerodot Misr tarixini o‘z sayohatidan olgan taassurotlari, odamlardan eshitgan hikoya, qissa, ertaklar asosida yoritishga urinadi.Yunonlarning Misrdagi yagona koloniyasi Navkratisda yunon hunarmandchiligi yaxshi rivojlanadi.

San’atdagi badiiy realizm er. avv. VI asrda o‘zining yuqori cho‘qqisiga etadi. Misrning shu zamonga xos o‘ymakor rasmlarida rassom odam gavdasini yon tomonini tasvirlab, yuza qismiga odamlar va buyumlarni erkin joylashtiradi. Bu davrda Misrda portret haykaltaroshligi badiiy jihatdan yuksak rivojlanadi. Imxotep haykalining bosh qismi va kohin haykalining yashil shiferdan yasalgan bosh qismi portret haykaltaroshligining eng nodir namunalaridan hisoblanadi.

Shu davrda Misrda boshqa diniy e’tiqodlarning kirib kelishi ham keng quloch yoyadi. Masalan, Misrga Xanandan olovga qurbonlik-kuydirish odati kirib keladi. Finikiyalik va yahudiy kolonistlar Misrda o‘z xudolariga atab ibodatxonalar qurdiradilar. Bularning barchasi ba’zi bir jihatdan misrliklarning diniy e’tiqodlarini o‘zgaririshiga olib keladi. Misrda liviyaliklar hukmronlik qilgan davrdan boshlab liviyaliklarning qadimgi ma’budasi Neytga sig‘inish kuchayib, liviyalik podsholar va ularning vorislari Saisda o‘rnashib qolgan XXVI sulola fir’avnlari

[28] Talabalar yuqorida ismi keltirilgan har bir shoir haqida alohida Referat tayyorlashi va seminar jarayonlarida munozara qilish masala mohiyatini puxta tushunish imkoniyatini oshiradi.

bu ma’budaga kuchli e`tibor beradilar. Soqolli, pakana xudo Besga sig‘inish Misrda so‘nggi vaqtlarda keng yoyilib, to xristianlik davrigacha saqlanib qoladi.

Misr bilan qo‘shni davlatlar o‘rtasida o‘zaro madaniy aloqalar chuqurlashib borayotgan davrda Misr davlati asta-sekin holdan toyib, kuchsizlanib boradi. Bu holat Misrga chet elliklarning kirib kelishi bilan, bu xalqlarning madaniyati Misr madaniyatiga o‘z ta`sirini o‘tkazadi. Bu davrda Misrning qadimgi dini va an’analarini unutilib yuborilishiga qarshi kuchli harakat seziladi. Sais sulolasi davrida chet elliklar ta’siriga qarshi kurash boshlanadi. Misrning ilk gullab-yashnagan davridagi qadimgi davlat ko‘rinishlarini shu davrdagi til, yozuv, san’at va dinni tiklash, xullas, hamma sohada Misrni qayta tiklash boshlanib ketadi. Misr kohinlari din va turmush sohasida bir qancha ta`qiqlar kiritish yo‘li bilan Misr xalqini va birinchi navbatda, o‘zlarini chet elliklar ta’siridan himoya qilishga urindilar. Gerodotning yozishicha: “Misrning na erkagi, na xotini hech qachon yunon odamining pichog‘i, qoshig‘i, qozonini tutmas, hattoki, yunon odamining pichog‘i bilan chopib so‘yilgan halol mol go‘shtini ham emas edi[29]”. Urf-odatlarning ado etilishidagi qat’iy talablar, ba’zi bir ovqatlarni yeyishni man qilinishi misrliklarni chet elliklardan uzoqlashtiradi. Ko‘pdan-ko‘p unutilgan urf-odatlarni tiklash, ularni davom ettirish, to‘la-to‘kis urf-odatlarga rioya qilish o‘sha davr yozuv va adabiy yodgorliklarida, san’at asarlari va diniy rasm-rusumlarda ochiq sezilib turadi. Alifbo yozuvi alomatlarining keng tarqalishiga va ish hujjatlarini yozishga qulay bo‘lgan yozuvning, ya’ni demotikaning sodda bo‘lishiga qaramasdan murakkab va qadimgi iyeroglif yozuv tizimi saqlanib qoladi va hatto, bir muncha murakkablashadi. Diniy matnlarda Qadimgi podsholik davridagi piramidalardan olingan matn parchalari uchraydi. Qadimgi misrliklarning xudolari bo‘lgan Isida va Osirisga sig‘inish keng tarqala boshlaydi.

Yaxmos II zamonida yashagan va bir qancha yuqori mansablarni egallagan Pefnefdineyt nomli bir mansabdor yigit o‘zini Abidosda Osiris ibodatxonasini tiklash va kengaytirishda

[29] Ushbu ma’lumotlarni talabalar Geradotni “Tarix” kitobini o‘qish orqali yanada aniqlashtirishlari va munozara qilishlari kerak.

koʻrsatgan xizmatini batafsil yozib qoldirgan: “Xarob boʻlib ketgan muqaddas yozuvlar uyini yana qaytadan tikladim va Osiris sharafiga qilinadigan nazr-niyozlar roʻyxatini, hamma yozuvlarni tartibga soldim”-deb gʻurur bilan soʻzlaydi. Ammo Misrda turli hayvonlarga sigʻinish, jumladan, Bubastisda izzat qilingan maʼbuda Bastetga bagʻishlangan, muqaddas xoʻkiz (Apis)lar bilan muqaddas mushuklarga sigʻinish soʻnggi vaqtlarda keng tarqaladi. Muqaddas hayvonlarning katta qabrlari va hayvonlarning hozirda misrshunoslik muzeylarida saqlanadigan koʻpdan-koʻp haykalchalari va tasvirlari bundan dalolat beradi.

Bu davrda afsun-sehrgarlik ham keng yoyilgan. Sanʼat va adabiyotda uzoq oʻtmishni qayta tiklash, eski zamondagi anʼanalarga, narsalarga taqlid qilish harakati boshlanadi. Tasviriy sanʼat sohasida Qadimgi podsholik zamonidagi badiiy asarlarga taqlid qilish, baʼzan esa, toʻgʻridan-toʻgʻri ulardan nusxa olishga intiladilar. Bularning barchasi qadimgi madaniyatni sun'iy ravishda tiriltirish bilan mazkur davrdagi madaniy-iqtisodiy shakllar oʻrtasida katta ziddiyatlarni tugʻilishiga sabab boʻladi.

Keyinchalik, Misr davlati Eron Axamoniylari davlati (er.avv. 525-332 yillar) tarkibiga kiradi. Biroq Misr madaniyati yoʻq boʻlib ketmadi. Bu madaniyat qoʻshni xalqlarning, ayniqsa, yunonlarning madaniy taraqqiyotiga juda kuchli taʼsir qildi.

Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. Misr oldingi gullab-yashnagan zamoniga qaraganda, tushkunlik davrini kechirayotgan boʻlsa ham, xoʻjalik hayoti batamom toʻxtab qolmagan edi. Misrliklar bu davrda hunarmandchilik ishlab chiqarishning baʼzi bir sohalarini, hatto, anchagina mukammallashtirgan ham edilar. Ular jezdan turli xil buyumlarni, nafis haykallarni juda mohirlik bilan ishlay olganlar. Bu haykalchalarni kumush yoki oltin tolalari bilan bezaganlar. Takushet nomli misrlik ayolning Efiopiya-Sais davriga oid haykalchasi shunday tolalar terib ishlash texnikasining ajoyib namunasidir. Podsho Pasebxaning yaqinda Tanisdan topilgan kumush sarkofagi (tobuti) metallni badiiy jihatdan ishlash sohasida ajoyib yutuqlarga erishilganini koʻrsatadi. Toʻqimachilik kasbi ham yuksak darajada rivojlangan. Misrda toʻqimachilik ishlab chiqarishning alohida markazlari vujudga keladi. Shunday markazlardan biri Memfis boʻlgan.

To‘qimachilar va yigiruvchilar sexga o‘xshash alohida-alohida guruhlarga birlashganlar. To‘qimachilik ishining, hatto, Tait degan alohida ma’budasi, O‘rta Misrda to‘qimachilik ishining Xets-xetep (“Poki Raxmat”) degan xudosi mavjud bo‘lib, unga sajda qilganlar. Fayans buyumlar ishlab chiqarish rivojlanadi. Fayansdan turli xil uy-ro‘zgor buyumlari, bo‘yi 25 sm ga yetadigan nafis haykalchalar yasaladi. Mamlakatda boy-badavlat odamlar va chet ellarga chiqarish uchun tayyorlanadigan zeb-ziynat buyumlari jumlasiga har turli xushbo‘y moylar va atir-upa buyumlari ham kirgan. Shu davrdayoq nilufardan maxsus moy olishni bilganlar. Bu boy amaldorlarni yangi mansabga tayinlash vaqtida ularning yuziga surtish uchun ishlatilgan.

Er. avv. I ming yillikda iqtisodiyotdagi hal qiluvchi omil xo‘jalikda temirdan foydalanish bo‘ladi. Er. avv.VII-VI asrlardayoq Misrda temirni ishlash texnologiyasi o‘zlashtirib olinadi. Hunarmandchilikda metall ishlash etakchi tarmoq bo‘ladi. Bu davrga kelib topilgan hujjatlardan savdo yanada rivojlanib va murakkablashib borganligidan guvohlik beradi. Chet el savdogarlari Misrga tez-tez kelib ketib turganlar. Tashqi savdoda Misrning asosiy hamkorlari Finikiya va Karfagen edi. Misr savdogarlari yunon polislari bilan savdo aloqalari o‘rnata boshlaydilar. Fir’avn Nexo davrida Nil daryosini Qizil dengiz bilan tutashtiradigan kanal qurish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. Bu kanal qurilishi bilan Misrdan Nubiyaga va hatto, undan uzoqdagi Puntga to‘g‘ri boradigan suv yo‘li ochilar edi. Gerodot ma’lumotiga ko‘ra, Nexoning buyrug‘i bilan finikiyalik dengizchilar kemada Afrikani aylanib chiqqanlar.

Misr Kichik Osiyodagi Kariya-Lidiya (zamonaviy Turkiya hududi) xalqlari bilan keng savdo olib boradilar. Tashqi savdoning rivoji va Misrning yunonlar bilan bo‘lgan iqtisodiy aloqalarining mustahkamlanishi natijasida pul xo‘jaligining ilk shakllari paydo bo‘ladi. Misrning iqtisodiy jihatdan vaqtincha bunday rivoji quldorlardan va yer egalaridan iborat aslzodalarning hukmron qatlamini, kohinlar, liviyalik harbiy aslzodalar, yunon savdogarlarning hamda ma’lum darajada yollanma askarlarning boyib ketishiga sabab bo‘ladi. Misrliklar o‘zlariga kerakli mollarni ko‘p qismini avvalgidek, Suriyadan keltirganlar.

Gerodotning yozishicha, Misr podshosi Yaxmos II misrliklar uchun bir qonun chiqaradi. Bu qonunga muvofiq, Misrning har bir fuqarosi tirikchilik qilish uchun qanday mablag‘larga ega ekanligini har yili viloyat boshligiga kelib aytishga majbur bo‘lgan. Buni bajarmagan odamga yoki qonuniy yo‘l bilan topilgan mablag‘lar hisobiga yashayotganini isbot qila olmagan kishiga o‘lim jazosi berilgan. Bu qonun orqali Misr aholisi g‘oyat farovonlikda yashagani ko‘rinadi. O‘sha davrning ijtimoiy tuzumidagi yana bir xususiyat shu ediki, mansab va kasb otadan bolaga meros bo‘lib o‘tgan. Shu sababli, kohin, askar va hunarmandlarning tor doiradagi ijtimoiy guruhlari mavjud bo‘lgan. Bu toifaviy yopiqlik yurish-turish va urf-odatlarning an’anaviyligida ham yaqqol ko‘rinadi. So‘nggi davr mafkurasida e’tiqod, urf-odat, unvonlarga, til, adabiy uslubda, me’morchilik va san’atda qadimiylikka qaytish kayfiyati hukm suradi. Qadimgi va O‘rta podsholik davri “Oltin asr” deb atalib, bu davr siyosiy ideal sifatida tasavvur qilinadi.

Qadimgi Misr madaniyati. Sharq davlatchiligini tadqiq qilar ekanmiz, Misr o‘zining o‘ziga hosligi, boshqa madaniyatlarga sezilarli ta’sir o‘tkazganligi, o‘z o‘rnida foydali bo‘lgan boshqa xalqlarni ham madaniyatlarini qabul qilganligini natijada esa alohida sivilizatsiya Misr madaniyati vujudga kelganligini ko‘ramiz.

Nil vodiysining g‘aroyibotlari Mesopatamiya va Hind vodiylaridan farqlanib turadi. Bundan 2500 yil oldin yunon tarixchisi va geografi Gerodot Misr Nilning tuxfasiligini va uning uzunligi bo‘yicha dunyoda alohida o‘rinda turishini eslatib o‘tgan[30].

Olimlar o‘zoq yillardan buyon Misrliklar tili, yozuvi, adabiyoti va diniy e’tiqodlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Masalan, Er. avv. IV ming yillikda qadimgi Misr aholisi Nil qirg‘oqlarini o‘zlashtirish paytida qaysi tilda so‘zlashganliklari hozirga qadar olimlar orasida munozarali fikrlarga sabab bo‘lmoqda. G‘arb mutaxassislarining fikricha, qadimgi misrliklarning ilk so‘zlashgan tillari afro-osiyo tiliga (yoki Chad

[30]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.63.

xalqlari tiliga) yaqinligi ta’kidlab o‘tiladi. Keyinchalik boshqa etnoslarning Misrga kirib kelishi natijasida mahalliy til yanada boyib va sayqallanib borgan. Va quyidagi besh bosqichni bosib o‘tgan.

1. Qadimgi podsholik davridagi til;
2. O‘rta Misr klassik tili (bu tilda noyob adabiy asarlar yaratilgan);
3. Yangi Misr tili (er. avv. XIV-VIII asrlar);
4. Demotik til (er. avv. VIII-eramizning V asri);
5. Kopt tili (III-VII asrlari).

Ilk podsholik davriga qadar misrliklar ***iyeroglif*** yozuvni ixtiro qilganlar. Har doimgidek ilk iyeroglif yozuvlar diniy timsol va mulkiy tabaqalanishni belgilovchi omil bo‘lib xizmat qilgan. Har bir iyeroglif ma’lum bir so‘z yoki ma’noni anglatar edi. Iyerogliflar soni masalasida hozirga qadar taniqli olimlar munozarali fikrlar bildirmoqdalar, lekin doimiy ishlatiladigan yozuvlar va belgilarning soni 750 taga yaqinligi ta’kidlanadi. Qadimgi Misrda ***maktablar*** (mirzolar maktabi) bo‘lib, uyerda tarbiyaviy va ta’lim intizomiga katta e’tibor berilgan. Tartibni buzgan, yalqov o‘quvchilar hatto tan jazosi bilan ham jazolanar edi. Keyinroq ushbu tan jazosi ta’lim va tarbiya jarayonida Yunonistondagi Sparta davlatida ham foydlanilganligini ko‘ramiz.Misrda ta’lim va tarbiya doimiy bog‘liqlik asosida amalga oshirilgan.

Maktablarda o‘quvchilar, asosan iyerogliflarni sopol sathiga va papirusga yozib o‘rganishgan. Misrda o‘rta va oliy maktablar bo‘lib, bunday ta’lim maskanlarida fir’avnlar, zodagonlar, kohinlar va moliyaviy imkoniyati bor barcha kishilarning farzandlari tahsil olganlar. Ilk bor qadimgi Misr iyerogliflarini fransuz olimi J.F.Shampolon, 1798 yilda Rozetta shaxridan topilgan toshdagi yozuv asosida, uzoq yillik urinishlardan so‘ng 1822 yilda o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Iyerogliflarda xo‘jalik ishlari qaydnomalari, savdo-sotiq bitimlari, mamlakat tarixi va siyosiy kelishuvlarga oid yozuvlarda keng foydalanilgan. Misrliklar yozuvida 1 sonidan tortib, millionni bildiruvchi alohida belgilar ham mavjud bo‘lgan. Bu esa, o‘z navbatida, matematik bilimlar yuqori darajada o‘qitilganini bildiradi. O‘lchov birligi sifatida podsho “tirsagi”, “barmog‘i” va “kafti” umumdavlat standarti vazifasini bajargan.

Shu bilan birga, qadimgi Misr adabiyotida ham iyerogliflarning ahamiyati katta edi. Bunda turli xil janrdagi tasviriy san’at usullari keng qo‘llanilgan.Qadimgi podsholik davrida dafn marosimlarida diniy madhiyalarni yozib qoldirilganligi yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi.Xattotlar katta mahorat bilan bo‘lib o‘tgan marosimlarni tasvirlashga harakat qilganlar. Ammo qadimgi misrliklarning 1% gina savodli bo‘lib, qolganlari dehqonlar, hunarmandlar va doimo xattotlar xizmatiga muhtoj bo‘lgan savdogarlardan iborat edi. Shuning uchun xattotlik kasbini egallash muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.Xattotlar asosan qamishdan yasalgan qalam bilan papirusga iyerogliflarni yozishgan.Ular asosan kohinlar tomonidan ibodatxonalarda o‘qishga va yozishga o‘rgatilgan. Shu bilan birga mohir xattotlar fir’avnlarning harbiy yurushlarini saroy ibodatxonalar tosh devorlarida tasvirlab yozishgan.

Yuqorida eslab o‘tganimizdek, 1798-yilda Napoleon Bonapartning Misrga yurishlari davrida Rozetta toshi stellasi topilgan bo‘lib, unda 3 ta matn parallel tarzda yozilgan. Ularning bittasi piktogramma usulida, ikkinchisi demotik yozuv (Misr yozuvining stenografiya usuli), uchinchisi yunon tilidagi yozuv edi. Aynan shu yozuvlar qadimgi Misr belgilarini tushunishga kalit bo‘lib xizmat qildi. Bu hujjat paydo bo‘lganidan so‘ng qadimgi misrliklar yana “gapirishni” boshladilar va ularning yozuvi deshifrovka qilingani sari bu millat o‘zining buyukligi va go‘zalligini ochib berdi. Misr iyeroglifik yozuvining kodini Fransiyaning Grenobl universitetida 20 yoshida professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan olimi J.F.Shampolyon 31yoshida ochib berdi.

Adabiyotning rivojlanishi uchun qulay omil bo‘lib xalq og‘zaki ijodi xizmat qildi. Ilk abadiy asarlar er. avv. IV ming yillikda shakllandi. Ertaklar, didaktik nasihatnomalar, zodagonlar tarjimai hollari, diniy matnlar va poetik asarlar Qadimgi podsholik davridayoq paydo bo‘ldi. Ertaklar Misr adabiyotida alohida bir janr sifatida shakllandi. Ulardan eng mashhurlari “Fir’avn Xufu va sehrgarlar”, “Kema halokatiga uchraganlar”, “Egri va to‘g‘ri”, “Ikki aka-uka” va “Fir’avn Petubastis to‘g‘risida” gi bir necha ertaklardir.

Qadimgi Misr adabiyotining yorqin na’munalaridan “Podsho Xeops saroyi haqida ertak”, “Gapga chechan dehqon”, “Aka-uka haqida ertak”,“Unu-Amonning sayohati ”, “Ajali etgan shahzoda haqida ertak”, “Sinuxet hikoyasi” va boshqalar hisoblanadi. Ular orasida O‘rta podsholik davrida vujudga kelgan “Sinuxet hikoyasi” alohida o‘rin tutadi. Mazkur hikoya syujeti misrliklar va ko‘chmanchi badaviylar turmush-tarzi, urf-odatlari farqlanishi asosiga qurilgan. Sinuxet saroy amaldorlari hiyla-nayranglari natijasida Osiyodagi badaviylar orasiga ketishga majbur bo‘ladi. U aqlliligi va jasurligi tufayli ko‘chmanchilar orasida katta ta’sir kuchiga, hayoti esa ko‘pchilikka ibrat bo‘ladi. Biroq, yurt sog‘inchi uni doimo qiynab kelgan. Shundan so‘ng Misr fir’avni Senusert I uni avf etib, vataniga qaytishga ruxsat bergan.Ushbu hikoyada jasurlik va vatanparvarlik g‘oyalari keng targ‘ib etilgan. O‘rta podsholikning notinch davr ijtimoiy qarama-qarshiliklari “chiroyli so‘zlovchi ko‘chib kelgan haqida qissa”da namoyon bo‘ladiki, unda adolatsiz kamsitilgan qissa qahramonining haqiqatni himoya qilishga yo‘naltirilgan nutqi katta qiziqish uyg‘otadi.

Misr adabiyotida nasihatnoma va bashoratlar didaktik janri to‘laroq aks etgan. Nasihatnomalardan eng qadimgisi “Ptaxotep nasihatnomasi”dir. Keyingilari “Gerakleopol podshosi Axtoyning o‘g‘li Merikaraga nasihati”, “Fir`avn Amenemxet I ning nasihatnomasi” kabi asarlarda davlatni boshqarish yo‘l-yo‘riqlari bayon qilingan. “Axtoyning o‘gli Duaufaga nasihati”da mirzalikni boshqa kasblardan afzalligi ko‘rsatiladi.Yangi podsholik davrida nasihatnomalardan “Ani nasihati”, “Amenemope nasihati”da turmush axloqi va an’anaviy axloq qoidalari batafsil bayon qilinadi.

Yangi podsholik davrida, ayniqsa gullab-yashnagan badiiy tarixiy adabiyot podsho-yilnomalari va yirik amaldorlar “tarjimai hollari” bilan ifodalangan.Qadimgi Misrliklar azaldan dramatik san’at bilan tanish bo‘lib, dastlabki teatrlar ya’ni misteriyalar tashkil etilgan. Ularda dramalashtirilgan janoza va ibodatxona marosimlari yoki afsonaviy syujetli diniy dramalar sifatida namoyish qilingan. Ba’zida bunday “spektakllar” faqatgina diniy ma’no kasb etmagan, balki siyosiy yoki targ‘ibot yo‘nalishiga ham ega bo‘lgan. Demak, bundan xulosa qilib aytganda dastlabki

teatrlar aynan Misrda paydo boʻlib, keyinchalik uning madaniyatidan oziqlangan Yunoniston va Rimda oʻzining yuqori choʻqqisiga, ommaviy tomoshalarga aylanib ketganligini koʻrish mumkin. Boy she'riy adabiyot orasida - xudolar va podsholarga bagʻishlangan madhiyalar, muhabbat lirikasi, maqtov qoʻshiqlarini e'tirof etish mumkin. She'r ritmi zarbli bugʻinlarga asoslangan, zarbsiz bugʻinlar soni esa muhim boʻlmagan. Sevimli adabiy usullar- parallelizm (barcha she'rlari parallel iboralardani borat) va alliteratsiya nasriy adabiyot uchun ham xos boʻlgan.Turli xil adabiy janrlar koʻpincha hikoyachining nutqi orqali ifodalangan, "chegara" ichiga olinib u muqaddima va xulosani tashkil qilgan. Misrliklar soʻz oʻyinini juda ham yoqtirishgan, ammo bu usulni baholaganda shunga e'tibor berish kerakki, soʻz misrliklar uchun alohida ma'noga ega boʻlgan.

Afsonaga koʻra, Amon-Ra insonlarni oʻz koʻz yoshlaridan yaratgan, ammo bu holat faqatgina soʻz oʻyini emas ("koʻz yoshi" va "insonlar" soʻzi misrliklar tilida ohangdosh), balki jism va soʻz oʻzaro uzviy bogʻliqlikga ega ekanligiga ishonchning namoyishidir. Qadimgi Misr tarixini oʻrganishda muhim tarixiy ma'lumotlar beradigan
manbalar kamchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari, bu manbalarning aksariyati papirusda yozilgani bois, ulardan faqat ayrimlarigina bizgacha etib kelgan.Ular orasida "Ipuser nasihatlari" nomli manba ham papirusga yozilgan. Papirus matnida Misrda roʻy bergan yirik ocharchilik, qurgʻoqchilik, Misrdan qullarning katta mol-mulk bilan qochib ketishlari, "qul va quldorning oʻrnini almashib qolishi" va butun Misr boʻylab oʻlim dahshatining yopirilgani hikoya qilinadi. Mazkur papirus adabiyotlarda Ipuser nomli mahalliy donishmand tomonidan yozib qoldirilgan. Ushbu manbaga koʻra, muallif Misrdagi halokatlarning guvohi boʻlganini tushunish mumkin. Papirusda Misr podsholigining tanazzuli, Misr zodagonlarining ayanchli ahvoli xususida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Qadimgi Misrda ibodatxonalarda dastlabki teatr koʻrinishidagi diniy dramalar doimiy ravishda qoʻyilgan. Misrliklar musiqa va raqs san'atidan xabardor xalq hisoblanadi. Qadimiy devoriy suratlarda torli

musiqa asboblaridan tashqari nay, urib chalinadigan doʻmbira va boshqalar tasvirlangan.

Misr meʼmorchiligini asosi boʻlgan piramida va sogʻonalar qurish uchun I-II sulola firʼavnlari dafn qilingan mastabalar namuna boʻlib xizmat qildi. Qadimgi Misr meʼmorchiligini Gizadagi mahobatli ehromlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ehromlarning dastlabkisi Qadimgi podsholik davrida Sakkara shahrida firʼavn Joser tomonidan bunyod etiladi. III sulola firʼavni boʻlgan Joser uchun balandligi 60 m boʻlgan zinapoyasimon ilk piramida mastaba oʻrnida qurildi. Bu kichrayib borayotgan olti ustma-ust qoʻyilgan mastaba edi. IV sulola firʼavni Xufu piramidasi (146,6 m balandligi, uzunligi 233 m, maydon hajmi 54 ming. kv. m, 2 tonna 2,3 mln. tosh), Xafra piramidasi (balandligi 140 m, uzunligi asosi 220 m) bunyod qilindi. Xafra piramidasidan soʻng, piramidalar kichik hajmda qurila boshlandi. Ibodatxonalar qurilishi oʻzgacha meʼmorchilik shaklida boʻldi. Karnak va Luksorda xudo Amon-Raga bagʻishlab ibodatxonalar qurildi. Bu ibodatxonalar xarobalari bizgacha etib kelgan.

Eng mashhur ehrom Xufu (Xeops) ga tegishli boʻlib, uning meʼmori sifatida Imxoteb tilga olindi. Yuqorida tilga olinganidek balandligi 146 metrdan ortiqroq boʻlgan ushbu inshootni ilmiy – tadqiq etish ishlari bugun ham izchil davom etmoqda Ammo mutaxassislarni maʼlumot berishicha bugungi kunda (2025 yil) uning balandligi 138 metrdan oshadi, xolos. Ushbu noyob arxitektura yodgorligi 1979 yilda xalqaro Yunesko tashkilotining butun jahon moddiy merosi roʻyxatiga kiritilgan. Shuningdek, Giza shahridagi Xafra (Xefren), Menkaura (Mikerin) ehromlari ham juda mashhur sanalgan. V sulola davridan boshlab, ehromlar ichidagi bino devorlariga iyerogliflarda “ehrom matnlari” bitila boshlangan. Shu bilan birga Karnak va Luksordagi ulkan ibodatxonalar kishilar eʼtiborini tortadi.

Amarnadagi saroylar xarobalari qadimda Misr firʼavnlarining qudratidan dalolat beradi. Misr firʼavnlari koʻkka boʻy choʻzgan baland monolit (yaxlittosh) yodgorliklarni ham toshdan yasatganlar. Misr arxitektorlari oddiy mehnat qurollari yordamida toshdan ulugʻvor binolarni qurganlar.Ular orasida Tutanxamon maqbarasi 1922-yilda ingliz Govard Karter tomonidan Luksor

shahridan uncha uzoq bo‘lmagan “Shohlar vodiysi”da topilgan. Topilma XX asr qadimgi dunyo tarixi fanida katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi, chunki fir‘avn Tutanxamon maqbarasi o‘g‘irlanmagan, o‘zining dastlabki ko‘rinishida topilgan shoh dahmalari ichida yakka-yagona hisoblanadi. Chunki firavnlar katta miqdordagi qimmatbaho boyliklar bilan birga dafn etilgan. Buni bilgan turli guruxlar, qaroqchilar maqbaralarni kovlab, boyliklarni olib ketishga urinishlar ko‘p bo‘lgan. Oqibatda ularni chalg‘itish maqsadida turli choralar ham ko‘rilgan. Masalan, haqiqiy va sohta qabrlar ham shuning natijasi deyishimiz mumkin. Undagi qimmatbaho narsalar shu qadar ko‘p ediki, ularni tavsiflash, tizimlashtirish, ilmiy o‘rganish uchun hamda Misr muzeyiga eltish uchun rosa besh yil vaqt ketdi. Demak, Misrga tashrif buyurgan sayyohlar poytaxt Qohira shahrida joylashgan Misr muzeyida ushbu noyob eskponat bilan tanishishlari mumkin. Muzeyda uchta tobut qo‘yilgan, ulardan birining og‘irligi 110 kilogramm bo‘lib, sof oltindan quyilgan. Yosh Tutanxamonning oltin niqobi endilikda butun dunyoga mashhur. U 19 yoshida (hokimyatga 10 yoshida kelgan) vafot etgan bu yosh fir’avnning chehrasini ishonchli tarzda qayta gavdalantiradi. Yana bir bebaho buyum– Tutanxamonning qimmatbaho javohirot bilan bezatilgan oltin taxtidir. Dastalari ilon shaklida ishlangan, o‘rindiqning har ikki biqinida arslon boshlari o‘rnatilgan.Taxt suyanchig‘ida o‘zining sevimli xotini bilan fir’avnning o‘zi tasvirlangan.Shuningdek, Luksor atrofida ham qator ibodatxonalar hozirga qadar saqlanib qolgan. Luksordan 67 km. uzoqlikda Dender shahridagi Xatxor xudosiga bag‘ishlangan ibodatxona, undan shimolroqda fir’avn Seti I tomonidan Osiris sharafiga bunyod etilgan ibodatxona yoki Esna shaharchasida xudo Xnum sharafiga barpo etilgan ibodatxona shular jumlasidandir. Qadimgi Misr afsonalarida ushbu xudo kulolchilik charxida dunyo va odamlarni yaratgan deb hisoblaydilar. Haykaltaroshlik qadimgi Misrda san’at darajasiga ko‘tarilib, haykallar asosan, ohaktosh va granitdan yasalgan. Ilohlar va fir’avnlar tasviriga alohida e’tibor berilgan. Qadimgi Misr xudolari va fir’avnlarning ulkan tosh haykallari aholi ko‘rishi uchun tashqariga joylashtirilgan. Misol uchun fir’avnlar Amenemxet III, Tutmos III, Amenxotep IV, Tutanxamon, Ramzes II

va boshqalarning ulug‘vor haykallari e’tiborga loyiqdir. Haykaltaroshlik san’ati Misrda qadimgi podsholik davridayoq yuksak darajada bo‘lgan. Qimmatbaho diorit toshidan yasalgan va hozirgi kunda Qohira muzeyida saqlanayotgan Xafraning bosh haykali dunyodagi eng nodir asarlaridan biridir. Bu asarda fir’avnning boshi bilan elkasi tasvirlangan. Uning yasama sochi, orqasidagi homiysi xudo lochin Xoryusning qanotlari orasiga yashiringan. Portretda birorta keraksiz egri, ortiqcha chiziqlarni topish qiyin. U yuksak darajada mahorat bilan ishlangan. Bu darhaqiqat,qudratli siymodir. Savlatli elkalar haqiqatan ham shohlarga xos buyuklikni sezdirib turadi. U ham shoh, ham xudo hisoblangan.Qadimgi podsholik davridagi haykallarning ko‘pchiligi shunga o‘xshash sifatga ega bo‘lgan. Keyingi sulolalar davrida san’at ko‘proq vatanparvarlik yo‘nalishida bo‘lgani bilan u hech qachon qadimgi podsholik davridagi singari ta’sirchanlik darajasiga ko‘tarilgan emas. Haykaltaroshlikda sfinkslar ham alohida o‘rin tutadi. Dastlabki sfinks qadimgi sulola vaqtida tayorlangan. U erda yotgan sherni aks ettiruvchi qoya bo‘lgan. Eng mashhur sfinksni yuz qiyofasini keyinchalik Napoleon Bonapart askarlari uning Misr yurushlari davrida vaqtichog‘lik uchun o‘qlar otib buzishga harakat qilishgan. Shu o‘rinda qiyos uchun ta’kidlab o‘tish kerak bo‘lgan jihat shuki, zamonamizda ham bu kabi vandalizm holatlari uchrab turibdi. Jumladan, Yunesko ro‘yxatida bo‘lgan qadim Palmira shaxridagi ko‘plab noyob arxitektura yodgorliklari buzib vayron etildi. Unga misol qilib 2015 yil oktyabr oyi boshida buzg‘unchi jangarilar antik davrga oid obidalardan biri bo‘lgan Triumfal arkani portlatib yubordi. Qayd etish kerakki, miloddan avvalgi II asrga mansub ark shu davrgacha tarix silsilalariga dosh berib, o‘zining 20 metrlik balandligini saqlab kelgan edi. Demak, ming yillik madaniy merosni asrash uchun er yuzida har bir inson musuldir.

Keyinchalik sfinkslar ibodatxonalar oldida ko‘plab barpo etiladi. Qadimgi misrliklar turli xil ilohlarga sig‘inganlar. Misrda din ilk urug‘chilik jamoalarida vujudga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Diniy an’analar mustahkam va turg‘un bo‘lgan fetishizm, totemizm, ayniqsa, hayvonlarga topinish Misrda uzoq davom etgan. Ularning dinida ko‘pxudolik alohida ahamiyatga ega

edi. Masalan: Ptax ilohi yaratuvchi timsolida gavdalangan, unga Yuqori va Quyi Misrda ham ibodat qilganlar. Ra-quyosh xudosi, Osiris-hosildorlik va marhumlar dunyosida sudyalik qiluvchi xudo, Isida onalik ilohasi, Set- urush va o‘lim xudosi, Anubis-marhumlar xudosi, Tot- donishmandlik va oy xudosi, Xor-tog‘lar va osmon xudosi, Bastet-go‘zallik va hursandchilik ilohasi, Maat-adolat va haqiqat ilohasi, Montu-urush xudosi, Sebek-daryolar va ko‘llar xudosi, Seshat- yozuv, hisob-kitob va xotira ilohasi, Xapi-Nil xudosi va boshqalar. Umumiy hisob bilan qadimgi Misr tarixida mingga yaqin xudolar bo‘lgan.

Hayvonlar ilohiy hisoblanib, ular ibodatxonalarda saqlangan. Ibodatxonada ular yaxshi parvarish qilingan. Masalan, ilohiy hayvonlardan biri buqa xuddi shunday parvarish qilingan. U kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Misrliklar bu buqaga sigir tanlashda ham alohida ahamiyat berishgan. Agar buqa o‘lib qolgudek bo‘lsa, uni mo‘miyolab, marosimlar o‘tkazib, alohida bir qabrga ko‘mishgan. Va uning o‘rniga yangi tug‘ilgan ho‘kizcha izlashgan. Bu juda mushkul ish hisoblangan. Chunki ho‘kiz qora rangli bo‘lib, peshonasida uchburchak shakldagi oq belgisi bo‘lishi kerak edi. Bunday hayvonni topish juda mushkul bo‘lgan. Misrliklar daraxtlar, o‘simliklar va gullarga ham e’tiqod qilishgan.

Qadimgi Misrda o‘z xudolarini yarim inson va yarim hayvon qiyofasida tasvirlaganlar va inson o‘limidan keyin uning boqiy ruhi mavjud deb o‘ylaganlar va dafn marosimlarida buni hisobga olganlar.

Quyoshga sig‘inish Misr dinida eng yuqori o‘rinda turgan. Misrning o‘zi “Quyosh mamlakati”, uning fir’avnlari esa “Quyoshning o‘g‘li” deb atalgan. Qadimgi podsholikda Ra-Quyosh xudosi hisoblangan. Keyinchalik, u Amon-Ra bo‘lgan. Yangi podsholik davrida esa, fir’avn Amenxotep IV (Exnaton) diniy islohot o‘tkazib, yakkaxudolikni joriy qiladi. Ya’ni u hammani Atonga (“Quyosh shu'lasi”) sig‘inishga da’vat etadi. Quyoshning belgisi (ramzi) turlicha bo‘lib, u qanotli sher qiyofasida, sher ko‘pgina qo‘llar bilan, bu qo‘llar esa, nur qiyofasida, lochin qiyofasida tasvirlangan. Unga atab ko‘p madhiyalar aytilgan.

Misr hukmron tabaqalari ya’ni qirollarning asosiy vazifalari qonun va barqarorlikni ta’minlashdan iborat. Qirollar adolat va

adliya ilohasi Maat sifatida bilishgan[31]. Misr madaniyatida o‘lim bilan hayot doimo bir-biriga qarama-qarshi turgan. Ajalsiz ruh Misr dinida alohida o‘rin egallagan. Mana shu ajalsizlikka intilish ko‘mish marosimlarining shakllanishiga olib kelgan. Diniy marosimlarda har bir odam alohida xususiyatga ega bo‘lgan. Masalan, sax-inson jismi, shunt-uning soyasi, rek-uning ismi, ax-uning arvohi hisoblangan. Bu erda eng muhim rolni Ra-insonning joni, ya’ni ajalsizlikning negizi o‘ynagan. Misr diniga ko‘ra, Ra o‘z jismiga birikishi va qayta dunyoga kelishi kerak bo‘lgan. Chunki odam o‘lganda faqat uning jismi o‘ladi, ammo ruhi abadiy yashash uchun narigi dunyo-o‘liklar saltanatiga mangu yashash uchun ketadi. Qadimgi misrliklarning ana shunday diniy tasavvurlari asosida odamning jasadini abadiy saqlash fikri tug‘iladi va mo‘miyolash jarayoni vujudga keladi. Shuningdek, ularning tanasiga hech qanday shikastlar etmasligi uchun yoki boshqa shovqinlardan xalos bo‘lish uchun piramidalar qurish fikri tug‘iladi.

Fir’avnlarni ko‘mishdan oldin uning tanasi kohinlar tomonidan mumiyolangan. Bu jarayon 70 kun davom etgan. Mumiyolash orqali fir’avn tanasini saqlab, tosh tobut “sarkofag”ga qo‘yishgan. Qadimgi misrliklarning tasavvurida har bir inson “Ka” deb nomlangan ilohiy quvvatga ega bo‘lib, o‘limidan keyin ushbu quvvat yashashni davom ettirishiga ishonganlar. Uning yuragi, jigari, talog‘i maxsus idish (kanopa)ga saqlangan. Qadimgi misrliklar tasavvuriga ko‘ra, marhumning ruhi 70 kundan so‘ng, narigi dunyoga mangu yashash uchun jo‘natilgan. O‘liklar saltanatiga borgan odamlarni ikkinchi o‘lim kutgan. U dunyoda marhum Osiris va Anubis xudolari o‘tkazadigan sudda odam o‘ldirmagani, o‘g‘rilik qilmagani, yolg‘on gapirmagani to‘g‘risida qasam ichishi lozim edi. Bu esa, asosan “O‘liklar kitobi”, “Darvozalar kitobi”, “Yerosti g‘orlari kitobi” kabi diniy kitoblarda aytilgan. Yangi podsholik davridan sog‘onalarga “O‘liklar kitobi”ning mazmunini o‘zida aks ettirgan papirus yozuvlari qo‘yilgan.

Qadimgi Misrda ilm- fan sohasida, ayniqsa, geografiya, geometriya, matematika, astronomiya, tibbiyot yaxshi rivojlangan

[31]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.64.

edi. Masalan, Misrda maktablar mavjud bo‘lganligini aytib o‘tgan edik, ularni orasida tibbiyot maktablariga ega bo‘lgan Geliopol va keyinchalik Sais shaharlarida kohin tabiblarni tayorlaydigan ta’lim dargohlari borligi taxsinga loyiq edi. Ular bemorlarni davolashda, hatto jarrohlik amaliyotidan ham foydalanishni bilganlar. Chunki, misrlik kohin- tabiblar mumiyolash jarayonini yaxshi bilgani uchun, inson a’zolarining ichki tuzilishidan xabardor bo‘lganlar. Shu bilan birga shifobaxsh o‘simliklar yordamida odamlarni davolay olganlar. Yillar davomida Imxotepni hunarmandlar homiysi ma’bud Ptax va ma’buda Sakxmetning farzandi sifatida ardoqlab keldilar va Ptolemey davrigacha unga sig‘indilar. Ilohiylashtirilgan Imxotep sharafiga Karnak va Sakkarda ehromlar bunyod etildi. Sakkardagi ehrom Asklepeyon, kasalxona deb atalar edi,bu erda Imxotep bemorlarni davolardi. Aynan Imxotep sharafiga keyinchalik yunonlarda tabiblik ma’budi Asklepiy, rim mifologiyasida esa ma’bud Eskulap paydo bo‘ldi. Yuz yildan ortiq umr ko‘rib, Imxotep yorug‘ olamni tark etadi. Uning shogirdlari o‘z ustozlarini tangri tiriklay osmonga olib chiqib ketganiga ishonar edilar, zero u mo‘jizaviy tarzda g‘oyib bo‘lgan va uning jasadi qayerda ekanini hech kim bilmas edi. Eng qizig‘i bu rivoyat hali-hamon yashab kelmoqda.

Misr jarrohlari butun Old Osiyoga mashhur bo‘lganlar. Bizgacha 10 ta manba ya’ni tibbiyot papirusi etib kelgan. Tabiblar 100 ga yaqin kasalliklarni davolash usullarini bilganlar. Qon aylanishi va yurak faoliyati to‘g‘risida bilimga ega bo‘lganlar. Misrliklar ilk bor tish protezini qo‘yganlar. Qadimgi Misrning tibbiyot retseptlari, magiya mantlaridan o‘rta asrlarda arablar va Yevropa tibbiyoti foydalangan. Qadimgi misrliklar quyosh kalendarini kashf etib astronomiya **f**aniga ulkan hissa qo‘shganlar. Unga ko‘ra bir-yil uch faslga bo‘linib, har bir fasl 4 oydan iborat bo‘lgan. Bir oy esa 30 kunni tashkil qilib, u dekadaga (10 kunlik) bo‘lingan. Shunda bir yil 36 dekadani tashkil qilgan. Qolgan besh kun bayram sifatida nishonlangan.Demak, qadimgi misrliklar hisobi bo‘yicha bir yil jami 365 kundan iborat bo‘lgan. Astronomiya bilan, asosan kohinlar shug‘ullanganlar. Ularning hisobiga ko‘ra bir sutka 24 soatni tashkil qilgan. Astronomlar kuzatuviga muvofiq, erta tongda Nil toshqinlarini yuz berishi

yarqirab turuvchi Sirius yulduzining paydo boʻlishi bilan toʻgʻri kelgan. Bu jarayon yillar davomida kuzatilganiga qaramay, misrliklar oʻz taqvimlariga oʻzgartirishlar kiritishmagan. Chunki, ularning taqvimida kabisa yili boʻlmagan[32]. Shuning uchun har toʻrt yilda Sirius yulduzini paydo boʻlishi yangi kirib kelgan yil bilan bir kunga farqlangan.120 yil oʻtib, bu xato bir oyni tashkil etgan. Ushbu xatoni bartaraf etish loyihalari boʻlishiga qaramay, unga oʻzgartirish kiritilmagan. Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, ular Nil daryosi suvi toshqini sabablarini uzoq vaqt bilishmagan. Holbuki, Misr hududlariga na qor yogʻadi na yomgʻir, biroq daryo toshadi. Oʻrta asrlarda Arab halifaligi davrida Misr va Markaziy Osiyo xalqlari bir davlat tarkibida yashadi. Shunday jarayonlarda bizni koʻplab allomalarimiz poytaxt shaxar Bogʻdodda ijod qilishgan. Ulardan biri mashhur astronom va geograf Ahmad al-Fargʻoniy xalifa topshirigʻiga koʻra 861 yilda oʻzining shogirdlari bilan Misrga borib, suv toshqinini oldindan aniqlash imkonini beruvchi Nilometrni qurib beradi. Keyinchalik uning bu xizmatlari e'tirofi ularoq 2007 yilda Qohirada bobomizning xaykali oʻrnatildi. Tarixning bugungi kun uchun ahamiyati shundaki, Oʻzbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2023 yil fevral oyida Misrga amalga oshirgan davlat tashriflarini aynan bobomiz qurgan Nilometrni koʻrishdan, Ahmad Fargʻoniyni ziyorat qilishdan boshlaganliklari, koʻhna Misrga qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri boʻlgan. Oʻzbekiston diyordan kelganliklariga ishora edi deb hisoblash mumkin.

Misrliklar vaqt oʻlchovida misrliklar kunduzi quyoshni soyasiga qarab soatni aniqlashgan. Tunda esa vaqtni aniqlash uchun suv soatlardan foydalanganlar. Shuningdek, xoʻjalik ishlarida qum soatlari ham keng qoʻllanilgan. Davlat boshqaruvida ish yuritish hamda xoʻjalikni rivojlanishi matematika fani taraqqiyotiga turtki berdi. Ular ehromlarning umumiy uzunligi, yuzasi va aylanasini hisoblashni bilganlar. Ijtimoiy fanlar orasida tarixfani oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan. Qadimgi davrdan boshlab Misrda podsholar dinastiyasi va muhim tarixiy voqealar yozib borilgan. Misrliklar

[32] Kalendarlar haqida har bir talaba ma'lumotlar toʻplashi va guruhlarga boʻlingan holda bahsli dars tashkil etilsa, masala mohiyati yanada tushunarli boʻladi.

qadimgi so‘z ensiklopediyalarini tuzgan birinchi xalqlardir. Umuman qadimgi Misr madaniyati, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishida muhim o‘rin tutgan edi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Liviya-Sais sulolalari davrida Misr.
2. So‘nggi podsholik davrida iqtisodiy taraqqiyot.
3. So‘nggi podsholik davrida ijtimoiy qatlamlar, qulchilik.
4. Antik mualliflar asarlarida er.avv. VIII-IV asrlardagi Misr tasviri.
5. Misrda adabiyotning qaysi janlari rivojlandi?
6. Misr tibbiyoti.
7. Ilmiy bilimlarni rivojlanishi.
8. Keys topshirig‘i: Tasavvur qiling, siz So‘nggi Podsholik davrida Misrda oddiy dehqon yoki shahar aholisi edingiz. Mamlakat xorijiy sulolalar ta’siri ostida bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy hayot qiyinlashmoqda.Siz kundalik hayotingizni yaxshilash va jamiyatdagi adolatsizliklarga munosabatni qanday boshqarasiz? Javobingizni tarixiy sharoitga tayangan holda asoslang.

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

6-MAVZU. QADIMGI MESOPOTAMIYA MIL.AV. IV – II MING YILLIKDA

Reja

1. Qadimgi Mesopatamiyaning geografik o‘rni va tabiiy sharoiti
2. Qadimgi Mesopotamiya aholisi.
3. Ilk davlatlar va davrlashtirish.
4. Mesopotamiyaning qadimiy tarixiy manbalari.
5. Tarixnavislik.
6. Arxeologik ma’lumotlar.

Qadimgi Mesopatamiyaning geografik o‘rni va tabiiy sharoiti. Qadimgi Mesopatamiya, ya’ni Ikki daryo oralig‘i kishilik madaniyati erta rivojlangan o‘lkalardan biridir. Mashhur ingliz olimi A.Toynbi Ikki daryo oralig‘i sivilizatsiyasini puxta o‘rganib[33], uning jahon xalqlari uchun qoldirgan madaniy merosi va ta’sirlari haqida fikr yuritgan. Bu o‘lka Janubiy-G‘arbiy Osiyoning bir qismini tashkil qilib, har jihatdan qulay geografik o‘rinni egallagan edi. U geografik jihatdan Shimolda Armaniston tog‘laridan janubda Fors qo‘ltig‘igacha, sharqda Eronning tog‘li viloyatlaridan g‘arbda Suriya-Mesopotamiya cho‘llarigacha cho‘zilib ketgan hudud qadimda yunon geograflari tomonidan Mesopotamiya (Ikki daryo oralig‘i-Frot va Dajla daryolari oralig‘i) deb atalgan. Hozir bu asosan Iroq Respublikasi hududidir. Dajla va Frot daryolari Arman tog‘laridan boshlanib, Fors qo‘ltig‘iga quyiladi. Daryo suvlari minerallarga boy loyqa olib borib, toshqin vaqtida dalalarga toshib, hosildor qatlam hosil qiladi.

Ikki daryo oralig‘ida hosil olish uchun yil davomida sun`iy sug‘orish ishlarini (melioratsiya) ishlarini amalga oshirish kerak bo‘lgan. Bu yerda qadimdan odamlar kanal va dambalar qurganlar. Mesopotamiya iqlimi shimol va janubda bir xil emas. Shimolda quruq subtropik zonada qishda ba’zida qor yog‘adi, bahor va kuzda yomg‘ir bo‘ladi. Janubda esa qish qisqa, yozi juda uzoq va issiq, iqliml esa quruqdir. Mesopotamiya qadimda loy va

[33] Toynbi. A.J. Postijenie istorii: Sbornik / Per. s angl. Ye. D. Jarkova. -M.: Rolf, 2001. - 640 s.

tabiiy asfalt moʻl-koʻl boʻlgan. Shimolda qoʻrgʻoshin, qalay, temir va tosh ham uchraydi. Yogʻingarchilik davri boshlanib togʻlardagi qorlar eriy boshlagach, har ikki daryoning suvi ortib, toshqinlar boshlangan[34]. Toshqin suvlari huddi Nildagi kabi turli tuproq, oʻsimlik va togʻ jinslaridan iborat loyqalarni olib kelib, erlarni oʻgʻitlagan. Shu hihatdan Mesopatamiya yerlari serunum boʻlgan. Bu haqida yunon tarixchisi Geradot ham aytib oʻtgan.

Mesopotamiya florasi juda kambagʻal. Faqat shimolda togʻli hududda har xil daraxtlar uchraydi. Qadimda daryo vodiysida tol daraxti, janubda qamishning turli xillari boʻlgan. Xurmo palmasi muhim rol oʻynagan. Strabonning aytishicha, qadimda uning 360 xil foydali xossasini bilganlar. Uzum va mevali daraxtlar, tariq, polba, kanop, kunjut, arpa, bodring, sarimsoq, baqlajon, oshqovoq, loviya va noʻxat oʻstirilgan.

Qadimda Mesopotamiya faunasi xilma-xil koʻrinishda edi. Daryolarda baliq koʻp boʻlgan. Qushlar, eshak, choʻchqa, kiyik, quyon, tuyaqush, sherlar toʻqay va sahrolarda moʻl-koʻl boʻlgan. Mesopotamiya Yaqin Sharqning keng boʻshligʻida joylashganligi uchun xalqaro savdoda etakchi rol oʻynagan. Koʻpgina yoʻllar gʻarbdan sharqqa, shimoldan janubga shu yerdan oʻtgan. Qishloq xoʻjaligining vujudga kelishi bilan insoniyat tarixida yana bir qadam oldinga siljish boʻlib, buning natijasida jahon tarixida sivilizatsiyalar paydo boʻldi.

Olimlar fikricha ilk sivilizatsiya mil.avv. 5000 ming yillikda Yaqin Sharqda qishloq xoʻjaligining vujudga kelishi bilan paydo boʻldi. Bu vaqtga qadar qishloq xoʻjaligi madaniyati faqatgina ayrim minglab odamlar yashagan hududlarda mavjud boʻlgan[35]. Soʻnggi tadqiqotlarga koʻra sivilizatsiyaning paydo boʻlishi Qadimgi Mesopotamiyada Uruk va Jemdet-Nasr davrlari (miloddan avvalgi IV asrning oʻrtalari – III ming yillikning boshlari) bilan bogʻlanadi, ilk davlatlarning vujudga kelishi esa Erta sulolalar davri (miloddan avvalgi XXVIII–XXIV asrlar)ga toʻgʻri keladi.

Sivilizatsiyaning yana bir xususiyati shaharlarning mavjudligi madaniy almashinuv va texnologik rivojlanishga

[34] Shu oʻrinda Misrdagi Nil daryosi toshqinlarini eslang va bu ikki sivilizatsiyani taqqoslang.
[35] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r.11.

ko‘maklashishdir. Shuningdek qishloq xo‘jalik jamiyatining nozik savdo-sotiq bilan bog‘liq savdogar sinfi rivojlanganligidir. Bu rivojlanish davomida hujjatlar yuritish va byurokratiya, xalqaro aloqa va savdoni kengaytirish, ilm fandagi rivojlanishlar boshlangan[36].



Tabiati va iqlimi. Mesopotamiya shimolda Armaniston tog‘laridan boshlanib, janubda Fors ko‘rfazigacha cho‘ziladi. Uning sharqida Eron tog‘lari (Zagros), g‘arbda esa Suriya cho‘li joylashgan. Mesopotamiyaning asosiy daryolari – Yevfrat va Tigr bo‘lib, hozirgi kunda ular Fors ko‘rfaziga quyilishidan avval Shatt-al-Arab nomli yagona yo‘lakka qo‘shiladi. Qadimda esa ular ko‘rfazga alohida-alohida quyilgan va janubiy (yoki quyi) Mesopotamiyada deyarli parallel ravishda oqar edi. Shimoliy (yoki yuqori) Mesopotamiyada esa Tigr va Yevfrat avval boshda turli tomonlarga oqardi: Tigr darhol janubga tomon yuz tutadi, Yevfrat esa g‘arbga — Shimoliy Suriyagacha boradi va u yerda qaytib burilib, Fors ko‘rfaziga yetib boradi.

Yevfrat va Tigr Arman tog‘ligida boshlanib, Fors ko‘rfaziga quyiladi. Qadim zamonlarda ular alohida ikki daryo sifatida

[36] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r.12.

koʻrfazga toʻkilardi, hozir esa ular Shatt-al-Arab deb ataluvchi keng qoʻshilma yoʻlak orqali quyiladi.

Bu daryolar tog‘ yoʻllari orqali keladigan suvlar bilan toʻyintiriladi va yuqori oqimda Yevfrat – Tavr va Antitavr tog‘ tizmalari orqali, Tigr esa tog‘li Kurdiston hududidan oʻtadi. Fors koʻrfaziga quyilish joylariga yaqinlashganda daryolar tekis yerlar boʻylab toshib, katta botqoq hududlarni hosil qiladi. Qadimgi Mesopotamiya aholisi bu botqoq hududlarni “Tuzli daryo” deb atagan.

Daryolar bir necha yirik shoxobchalarga ega: Yevfratning eng kattalari — Balix va Xabur, Tigrniki — Yuqori va Quyi Zab hamda Diyala. Tigr Yevfratga qaraganda ancha toʻlaroq va tez oqimga ega boʻlgan. Tigr va Yevfratning toshqini Arman tog‘laridagi qorlarning erishiga bog‘liq boʻlgan. Odatda, toshqinlar mart–aprel oylariga toʻg‘ri kelgan. Biroq Nil daryosiga nisbatan, ularning toshqini doimiy vaqtga ega emas edi, chunki Tigr va Yevfrat oʻz yoʻlida turli iqlim hududlarini kesib oʻtar, tog‘ qorlari har yili bir xil vaqtda erimas edi.

Daryolarning suvi oʻsimlik qoldiqlari va tog‘ jinslaridan hal qilingan tuzlardan iborat boʻlgan ilni olib kelardi va toshqin paytida bu il dalalarda qolib, ularni oʻg‘itlar edi. Mesopotamiya yerlari beqiyos hosildorligi bilan ajralib turardi — bu haqda Gerodot (484-425 y) va boshqa qadimgi mualliflar oʻz asarlarida yakdillik bilan ta’kidlab oʻtganlar.

Mesopotamiyaning iqlimi shimol va janubda turlicha edi. Bunday bir davlatda bir nechta iqlim holatini Falastinda ham koʻrish mumkin. Shimolida, quruq subtropiklar hududida, qish faslida ba’zan qor yog‘ar, bahor va kuzda yomg‘ir yog‘ardi. Janub esa oʻta issiq va quruq iqlim bilan ajralib turardi.

Mesopotamiya hududida glina va tabiiy asfalt katta miqdorda uchrardi. Mamlakatning shimoliy qismlarida metall (qoʻrg‘oshin, qalay, temir) konlari bor edi, tog‘li hududlar esa turli xil toshlarga boy edi.

Mesopotamiyaning oʻsimlik dunyosi ancha kamyob boʻlgan. Faqatgina shimolda, tog‘li hududlarda turli xil daraxt turlari oʻsardi. Daryolar sohillarida terak va taloq daraxtlari oʻsgan, ayniqsa botqoq janubda kamishning turli xillari juda koʻp boʻlgan.

Mamlakat hayotida xurmo palmasi alohida ahamiyatga ega edi. Strabonning ta’kidlashicha, qadimda insonlar uning 360 xil foydali xususiyatini bilgan. Shuningdek, uzum va mevali daraxtlar (olma, anjir va boshqalar), g‘alla (arpa, polba, tarq), texnik ekinlar (kunjut, zag‘ir), sabzavotlar (piyoz, sarimsoq, bodiring, baklajan, qovoq) hamda dukkakli ekinlar (chechevitsa, lubiya, no‘xot) yetishtirilgan.

Qadimda Mesopotamiyaning hayvonot dunyosi juda boy edi. Daryolar baliqqa to‘la bo‘lgan. qamishzorlar, botqoqlar va daryo bo‘ylarida ko‘plab qushlar yashagan. Atrofdagi dashtlar va daryo bo‘yi butazorlarida yovvoyi bo‘qalar, eshaklar, ho‘kizlar, gazellar, qo‘ng‘irlar, tuyaqushlar, sherlar va boshqa hayvonlar uchragan.

Mesopotamiya ochiq maydonda va Yaqin Sharqning markazida joylashgani sababli, qadimdan xalqaro savdoda yetakchi o‘rin tutgan. G‘arbdan sharqqa va shimoldan janubga o‘tuvchi ko‘plab quruqlik yo‘llari shu yerdan o‘tgan. Savdo daryolar orqali ham amalga oshgan (garchi daryolarda kema yuritish qiyin bo‘lgan bo‘lsa ham) va Fors ko‘rfazi orqali ham yuritilgan (Oldingi Osiyodan Arabiston va Hindistonga).

Daryolar toshqini Mesopotamiyada bahorda — mart-aprel oylarida, Arman tog‘larida qor erishi va yomg‘irlar yog‘ishi boshlanganda sodir bo‘ladi. Avvalo Tigr toshadi, ikki haftadan so‘ng Yevfrat. Toshqin vaqti hosil yetilish davridan kamroq davom etadi, shu sababli Mesopotamiyada sug‘orish inshootlarisiz (irrigatsiyasiz) dehqonchilik amalga oshmaydi. Suvni kanallar va havzalarga yo‘naltirish, keyin esa u yerdan dalalarga taqsimlash kerak bo‘ladi.

Janubiy Mesopotamiya umuman yashash uchun noqulay hudud hisoblanadi. Bu yerda yilning yetti-sakkiz oyida yomg‘ir yog‘maydi, havo harorati 30° S dan past tushmaydi va ko‘p hollarda 50° S dan oshib ketadi. Soha yo‘q, qamishzorlarda xavfli hayvonlar (ellikdan ortiq turdagi zaxarli ilonlar va o‘qurjalar) yashaydi, soni beqiyos bo‘lgan chivinlar uchadi. Qadim zamonlarda bu yerlarda yirik yirtqichlar, ayniqsa sherlar ko‘p uchragan. Shumerlar shakallar, gienalar, gazellar, Mesopotamiya kiyigi, burgutlar va toshbaqalarni yaxshi bilishgan.

Mesopotamiyaning tabiiy boyliklari juda kam. Bu yerda tosh ham, daraxt ham yoʻq edi, shuning uchun ularni tashqi tomondan olib kelishga toʻgʻri kelardi va bu savdoning Mesopotamiya tarixidagi muhim rolini belgilab bergan. Bu yerda asfalt koʻlmaklari bor. Asfalt va glina aralashmasidan gʻisht tayyorlangan va ulardan xudolar uchun zinapoyali ibodatxonalar — zikkuratlar qurilgan. Mesoptamiyada metall ham yoʻq edi.

Don ekinlari ichida eng muhimi arpa boʻlgan, garchi shumerlar polba (u emmer yoki ikki donakli bugʻdoy deb ham ataladi) va haqiqiy bugʻdoyni ham yetishtirishgan. Ammo ularning vorislari — akkadlar bugʻdoydan voz kechishgan: yerni notoʻgʻri ishlov berish natijasida u shoʻrlanib qolgan. Dalalarga kelgan suv tezda bugʻlanar, choʻldan esa shamol orqali qum olib kelinardi. Suv bugʻlangandan soʻng yer yuzasida mineral tuzlar qolar, bu tuzlar vaqt oʻtishi bilan qattiq qavat hosil qilib, namlik oʻtishiga toʻsqinlik qilardi. Yerning shoʻrlanishi tanlab boʻlmaydigan darajaga yetib borganida esa bu maydonlar tashlab ketilib, yangisiga oʻtiladi. Ammo yangi maydonlarda ham huddi shu holat takrorlangan. Arpa esa bugʻdoyga nisbatan shoʻrlanish sharoitida uzoqroq hosildorligini saqlab qolardi, shuning uchun XIII asrdagi moʻgʻul bosqinigacha uni ekish davom ettirilgan.

Qadimgi Mesopotamiya aholisi. Mesopatamiya shaharlarida koʻchmanchilarning oqsoqollari chet ellik boʻlgan degan ehtimol bor, ammo ular bir-biriga begona boʻlmagan. Ular Mesopatamiya shahar hayotiga va madaniyatini anglashda muhim roʻl oʻynagan. Bu qishloq odamlari hayvonlarni sugʻorish uchun daryo yaqinida qishlaganlar. Jazirama yozda oʻzlarining salqin vodiylariga qaytishgan[37].

Mesopotamiyada odamlar qadimdan oʻrnasha boshlagan. Olimlar Dajla daryosining Zab irmoqlari boʻylaridan bundan 70-80 ming yil ilgari yashagan odamlarning manzilgohlarini topganlar. Ibtidoiy odamlar ozuqa izlab asta – sekin Mesopatamiya tekisligiga tushib kelganlar. Neolit davrida bu jarayon tezlashgan. Dastlab iqlimi qulay shimol oʻzlashtirilgan. Mil. avv. VI ming yilliklarda Dajla va Frot daryolarining vodiylariga aholi koʻchib kela boshlaydi. Tell-al-Ubeyd madaniyatini yaratgan xalq aynan

[37]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.96.

ushbu davrda, janubiy Mesopotamiyada istiqomat qilgan. G‘arb olimlarini fikricha, bu erning odamlari (subariylar) qadimda protodajla tilida (yoki “banan tilida”) so‘zlashganlar. Tog‘li hududlarda termachilik, chorvachilik va keyinchalik ziroatchilik unsurlari paydo bo‘la boshladi.

Er. avv. VI ming yillik o‘rtalariga kelib, Mesopotamiyada qadimiy Tel Xassuna madaniyati taraqqiy etdi. Bu erdan o‘roqlar, tosh boltalar, tosh tegirmonlar, keramika qoldiqlari va xonakilashtirilgan hayvonlar suyaklari topib o‘rganilgan. Shu bilan birga sig‘inish tumori hisoblangan ayollar haykalchalari arxeologlar tomonidan topilgan. Qabrlarda mayit oldiga sopol idishlarda ovqat qo‘yib dafn etish odatining mavjudligi, qadimda Tel-Xassuna aholisi orasida diniy tasavvurlar bo‘lganligidan dalolat beradi.

Er. avv. IV ming-yillik oxirida Jamdat-Nasr (yoki Uruk III) madaniyati davrida toshdan tashqari mis va bronza mehnat qurollari ishlatila boshlandi. Jamdat-Nasr janubiy Mesopotamiyaning ilk bronza davriga oid manzilgohi hisoblanadi. Dastlab ushbu manzilgoh 1926 va 1928 yillarda mashhur olimlar Stiven Lengdon hamda Genri Fildlar tomonidan o‘rganilgan. 1988-1989 yillarda esa Rodjer Metyus tomonidan qayta tadqiq etiladi. Jamdat-Nasr, Qadimgi Shumerda ilk sulolaviy davrga o‘tishning so‘nggi bosqichi hisoblanadi.

Mesopatmiya qadimiyati Xalaf madaniyatida ham yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, u eneolit davri (mil. av. 5ming yillik)ga oid madaniyat hisoblanadi. Turar joy xarobalari, guldon, sopol idishlar, mis buyumlar topilgan. Aholi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ammo qadimgi Xassuna, Xalaf madaniyatining etnik kelib chiqishi noma’lum. Shumerlarning Janubiy Mesopotamiyada paydo bo‘lishi taxminan, er. avv. IV ming yilliklar bilan belgilanadi. Shumer tilining qaysi til oilasiga mansubligi ham noma’lum. Shumerlar mahalliy aholi bilan aloqa o‘rnatib, ulardan bir qancha xo‘jalik yutuqlari, diniy e’tiqodlar va toponomik nomlarni o‘zlashtirib olganlar.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, fikrlaydigan bo‘lsak, Mesopatamiya xalqlari atrofdan kelgan juda ko‘p qabilalarning mahalliy aholi bilan qo‘shilib aralashuvi natijasida vujudga kelgan.

Qadimda mamlakat janubini Shumer, aholisini shumerlar, shimoldagi yerlarni Akkad, aholisini esa akkadlar deb atashgan. Shumer va Akkad aholisi tashqi qiyofalari jihatidan bir – birlaridan farq qilganlar. Shumerlar past boʻyli, kaltabaqay, jussador, kulcha yuzli, tanqaygan burunli, soqol va moʻylovining siyrakligi bilan akkadliklardan ajralib turganlar. Semit qabilalariga mansub akkadlar esa kelishgan jussali, norgʻil, qirra burun, yuzlari choʻziq, koʻzlari katta-katta, sersoqol va sermoʻylov boʻlishgan.

Mesopotamiyaning shimolida er. avv. III ming yillikdan boshlab sharqiy semit chorvador qabilalari yashagan. Ular akkad tilida soʻzlashgan. Er. avv. III ming yillik oxirida gʻarb-Suriya choʻllaridan Mesopotamiyaga gʻarbiy semit chorvador qabilalari kirib kelgan. Akkadlar ularni amoriylar deb atashgan (akkadcha “Amurri”, “Suriya” yoki “Gʻarbˮ ma`nosini anglatadi). Er. avv. III-II ming yilliklarning birinchi yarmida amoriylar Mesopotamiyada bir necha hukmdor sulolalarga asos solganlar. Qadimgi Shimoliy Mesopotamiya, Shimoliy Suriya va Arman togʻlarida xurrit qabilalari yashagan. Shumer va akkadlar ular va ularning mamlakatini Subarti deb atashgan.

Er. avv. III ming yillikdan Shimoliy-Sharqiy Mesopotamiyada Diyali daryosidan Urmiya koʻligacha boʻlgan hududda yarim koʻchmanchi kutiy (gutiy) qabilalari yashagan. Kassit qabilalari Shimoliy-GʻarbiyEronda, elamlardan shimolda hayot kechirgan. Ular er. avv. XVI asrda Bobilni bosib olib, oʻz sulolalariga asos soldilar. Kassitlar mahalliy madaniyat, tilni qabul qilib, mahalliy aholini assimilyatsiya qildilar. Er. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Armaniston va Suriya choʻlidan Shimoliy Mesopotamiya hududlariga gʻarbiy semit guruhiga mansub kassit qabilalari kirib keldi. Ular er. avv. XII asr oxirida Shimoliy Suriya va Janubiy-GʻarbiyMesopotamiyada kichik davlatlar barpo qildilar. Ular er. avv. I ming yillik boshlarida xurrit va amoriy aholisi bilan qoʻshilib ketdilar. Oromiy tili bu yerda keng tarqaldi. Er. avv. X asrda Janubiy Mesopotamiyaga oromiylarga qarindosh xaldey qabilalari kelib oʻrnashdi. Bu etnik guruhlarning qadimgi Mesopotamiyaga migratsiyasi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar yuz berdi.

Ilk-shahar davlatlar. Olimlar haligacha dunyodagi eng qadimgi davlatchilik vatani masalasida bahslashib kelmoqdalar. Yagona to‘xtamga kelish imkoniyatini yo‘qligiga, bu xaligacha davom etayotgan yangi tadqiqotlar va ularni berayotgan materiallari sabab bo‘lmoqda. Ammo aksariyat olimlar aynan Mesopatamiya eng qadimgi shahar davlatlarning vatani degan ilmiy g‘oyani olg‘a suradilar. Mesopotamiya hududida er. avv. IV ming yillikdan III ming yillikgacha ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish jarayoni bordi. Shumerlarning er. avv. IV ming yillikni boshlarida Janubiy Mesopotamiyaga kelishi bilan Uruk madaniyati boshlandi.

Er. avv. III ming yillikdan boshlab mamlakatning janubiy qismida shumerlarning kichik shahar-davlatlari paydo bo‘ldi. Er. avv. III ming yillik ilk sulola davri deb ataladi. Bu davrda ilk shahar-davlatlar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, janubda shumerlarning Eredu, Ur, Lagash, Larsa, Uruk, Umma, Shuruppak, Isin, Nippur va Kish kabi shahar-davlatlar paydo bo‘ldi. Er. avv. III ming yillikning oxiri kuchli mutloq monarxiyalar tashkil topish davri hisoblanadi. Er. avv. XXIII-XXI asrlar siyosiy markaz Mesopotamiyaning markaziga ko‘chib, bu yerda Akkad davlati tashkil topadi va uning tarkibiga Shumer janubi va Shimoliy Mesopotamiya kiradi. Gutiylar hujumi sababli, Akkad podsholigi yemirilib, yetakchilik Shumer-Akkad podsholigi qo‘liga o‘tadi[38].

Davrlashtirish masalasi. Yuqorida ko‘rib o‘tganmizdek, Mesopatmiya davlatchiligi tarixi juda xilma – xil tarzda rivojlandi. Bu holat tarixchilardan ilmiy yondashuvni talab qilgani holda alohida davrlarga bo‘lib o‘rganishni talab etadi. Albatta, geografik joylashuv, qo‘shni davlatlarni geosiyosiy va geoiqtisodiy maqsadalari ham bunga ta’sir qilgan aniq. Turli xalqlar va davlat birlashmalari mavjudligi, shuningdek, ularning geografik joylashuvi hamda ayrim davlatlarning o‘z kuch-qudratining yuksalishi va mintaqada ustunlikka erishishi bilan bog‘liq davrlarni hisobga olgan holda, Mesopotamiya tarixi quyidagi davrlarga bo‘linishi mumkin:

1. Yozuvgacha bo‘lgan davr.
2. Davlatchilikgacha bo‘lgan davr. Shumer shahar-davlatlari.

[38]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.96-97.

3.Akkad – miloddan avvalgi III ming yillikning birinchi yarmi (Sargoniylar).

4.Guteylar hukmronligi. Shumer-Akkad podshohligi — Urning III sulolasi davri.

5.Qadimgi Ossuriya – mil. av. XX–XVIII asrlar.

6.Qadimgi Bobil – mil. av. XIX–XVI asrlar.

7.Mittani – mil. av. XVII asr (Xettlar – mil. av. XVI–XV asrlar)

8.Kassitlar – mil. av. XV–XIII asrlar.

9.O‘rta Bobil podshohligi – mil. av. XVI–XII asrlar.

10. O‘rta Ossuriya podshohligi – mil. av. XV–XI asrlar.

11. Semit aramey xalqlarining ko‘chish to‘lqini – mil. av. XII asr oxiridan XI asr oxirigacha.

12. Yangi Ossuriya podshohligi – mil. av. X asr oxiri – VII asrlar.

12.1.Yangi Ossuriya podshohligining vujudga kelishi – mil. av. X asr oxiri – IX asrlar.

12.2.Urartuning yuksalishi – mil. av. IX – VIII asrning birinchi yarmi.

12.3. Buyuk Ossuriya davri – mil. av. VIII asrning ikkinchi yarmidan 605 yilgacha.

13. Yangi Bobil podshohligi – mil. av. 605–538 yillar.

4. Mesopotamiyaning qadimiy tarixiy manbalari. Qadimgi Mesopotamiya tarixi bo‘yicha asosiy manbalarga moddiy madaniyat yodgorliklari, yozma hujjatlar va adabiy asarlar, antik mualliflar asarlari kiradi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari. Hozirgi kunimizgacha Meopatamiya qadimiyatini o‘rganish, moddiy yodgorliklarni tadqiq ishlari davom etmoqda. Yildan – yilga yangi natijalarni olinishi, ayrim raqamlarni va ilmiy xulosalarni nisbiy ekanligini ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay olingan moddiy va yozma manbalarga asoslangan holda Mesopotamiya tarixida miloddan avvalgi III ming yillikni mustaqil va to‘liq tugallangan bir davr sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Uning boshlanishi Janubiy Mesopotamiyada bir necha shumer shahar-davlatlarining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi, oxiri esa Urning III sulolasi podsholigi qulashi (miloddan avvalgi 2003 yil) bilan yakunlanadi. Umuman olganda, miloddan avvalgi III ming yillik Mesopotamiya tarixida

shumer madaniyatining ustuvor davri bo‘lgan. Shu bilan birga Mesopotamiya sivilizatsiyasining shakllanishiga boshqa xalqlar ham, birinchi navbatda, shumerlardan oldingi Ikki daryo oralig‘i aholisi va semitlarning akkad shoxobchalari ham katta hissa qo‘shgan.

Eramizdan avvalgi III ming yillik Mesopotamiya sivilizatsiyasini yorituvchi yozma manbalarning deyarli barchasi Mesopotamiyaning o‘zida yaratilgan bo‘lib, shumer yoki akkad tillarida yozilgan. Bundan mustasno hollar sifatida Elamdan topilgan bir necha elam va akkad yozuvlari, shuningdek, Ebla (G‘arbiy Suriya) shahridan topilgan ancha miqdordagi shumer va qadimgi kanoan (xanaaney) tillaridagi matnlar ko‘rsatiladi. Biroq bular faqatgina ilmiy muomalaga kirib kela boshlagan. Ushbu davrga oid boshqa Sharq yozma yodgorliklari yo Mesopotamiya haqida umuman so‘z yuritmaydi (masalan, Misr yodgorliklari), yoki hozircha o‘qib bo‘lmaydi (masalan, Hind yozuvlari).

Antik mualliflar – Mesopotamiya tarixining keyingi bosqichlarini o‘rganishda juda muhim bo‘lgan manba egalari – esa bu eng qadimgi davr haqida hech narsa ma’lum qilmaydi. Faqat Iosif Flaviy va Yevseviy asarlarida shumerlarning ilk podshohlari haqidagi afsonaviy ma’lumotlar saqlangan bo‘lib, ular buni Aleksandr Poligistor va Abiden tomonidan qayta aytilgan, III asrda miloddan avval yunon tilida yozilgan va yo‘qolgan, bobillik ruhoniy Berosning tarixiy asaridan olganlar.

Eramizdan avvalgi III ming yillikdagi Mesopotamiya sivilizatsiyasiga oid yozma yodgorliklar sonini to‘liq aniqlashning iloji yo‘q, biroq ularning soni shubhasiz yuz minglab bo‘lib, doimiy ravishda ortib bormoqda. Ushbu matnlarning faqat nisbatan kichik qismi nashr etilgan, asosiy qismi muzeylar fondida saqlanadi; ularning hammasi ham haligacha aniqlanmagan va kataloglarga kiritilmagan. Muzey fondlaridan yangi muhim mixxat yodgorliklari topilishi arxeologik qazishmalar davomidagi topilmalardek juda tez-tez sodir bo‘ladi.

Bu mixxat matnlarining jami bir xil turdagi manbalar emas; aksincha, ular mavzusi, voqelikni qamrab olish darajasi (masalan, harbiy yurishlar haqidagi podsholik yozuvi bilan ishchiga urug‘ berilganini qayd etuvchi ibodatxona arxivi jadvalini solishtiring)

va xabarlarning ishonchlilik darajasiga koʻra oʻta farq qiladi. Manbaning qiymati esa tadqiqotchining oʻzi oldiga qoʻygan aniq ilmiy vazifaga bogʻliq boʻladi.

Er. avv. III-I ming yilliklarga oid moddiy madaniyat yodgorliklari Mesopotamiyaning qadimgi Eredu, Uruk, Lagash, Larsa, Nippur, Eshnunna, Mari, Ashshur, Nineviya va Bobil kabi shaharlarining xarobalarini arxeologik oʻrganish natijasida ma'lum.

Ur, Uruk, Eredu, Ashshur, Mari va boshqa ba'zi shaharlar oʻz faoliyatini miloddan avvalgi IV ming yillikdayoq neolit davridagi kichik qishloq joylar sifatida boshlagan. Mesopotamiya shaharlarining vayronalaridan zikkurat deb ataluvchi past-qadamli mingala minoralar, podshohlik saroylari, ulkan ibodatxonalar, turar-joy va xoʻjalik binolari, maktablar, qamal devorlari va sugʻorish inshootlari, shuningdek, qabristonlar, san'at asarlari va xoʻjalik buyumlari topilgan.

Tarix uchun hatto bir qarashda ahamiyatsizdek tuyulgan, lekin moddiy jihatdan muhim boʻlgan kichik yodgorliklar ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Mesopotamiyada juda koʻp uchraydigan silindrik muhrlar va ularning bosmalari shular jumlasidandir. Bunday muhrlarning Misrda, Bahrayn orollarida, Hindistonda va boshqa mamlakatlarda topilishi Ikki daryo oraligʻi shaharlari bilan savdo aloqalari mavjud boʻlganini koʻrsatadi, voqealarning bir vaqtda sodir boʻlganligini aniqlash va bir necha davlatlarning xronologiyasini tiklash imkonini beradi. Har bir Mesopotamiya shahri va har bir davrga xos boʻlgan muhr yasash uslubi, keng tarqalgan tasvirlar va mashhur materiallar (steatit, lazurit, serdolik va boshqalar) mavjud boʻlgan. Muhrlar mamlakat mifologiyasi haqida boy ma'lumot beradi, chunki ularda koʻpincha mifologik sahnalar oʻyib tushirilgan boʻladi. Shuningdek, ular mulk alomatlari hisoblanib, mulk munosabatlarining rivojlanganligidan dalolat beradi. Yozma manbalar miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiriga kelib paydo boʻlgan. Ular bir necha turlarga boʻlinadi: xoʻjalik hujjatlari, huquqiy va diplomatik hujjatlar, solnomaviy yozuvlar va boshqalar.

Yozma manbalar. Tadqiqotchilar manbalarni tahlil etganda, koʻproq yozma manbalarga ishonishlarini bildirib oʻtadilar. Shu

jihatdan Mesopatamiya tarixini oʻrganishda ham ularni ahamiyati nihoyatda kattadir. Eramizdan avvalgi III ming yillikka oid eng qadimgi yozma manbalaridan biri —“podshohlik yozuvlari” hisoblandi. Ya’ni, bu matnlar turli vaziyatlarda shahar-davlatlar podshohlari yoki hukmdorlari nomidan tuzilgan. Bunday manbalar tarixiy voqelikni keng qamrab olishi bilan ajralib turadi hamda mualliflari nuqtai nazaridan shahar yoki mamlakat hayotidagi muhim voqealar haqida koʻplab ma’lumotlarni oʻz ichiga oladi. “Podshohlik yozuvlari”ni ikki guruhga boʻlish mumkin: birinchisi — zamondoshlarga qaratilgan matnlar, ya’ni xatlar, farmonlar, qonunlar, shartnomalar; ikkinchisi esa xudolar va kelajak avlodlarga bagʻishlangan matnlar — qurilish yoki bagʻishlov yozuvlari, shuningdek, podshohlarning qilgan ishlari va jasoratlarini abadiylashtiruvchi stelalardagi yodgorlik yozuvlari va boshqalar.

Ba’zan ayrim yozuvlar podshohning qurilish faoliyati bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan, hatto kutilmagan ma’lumotlarni ham oʻz ichiga oladi. 1878 yilda Tello (qadimgi Girsu)da olib borilgan qazishmalar vaqtida Urinimgin (taxminan eramizdan avvalgi 2318–2312 yillar) ismli shahar hukmdorining deyarli bir xil mazmundagi uchta gilam konusi topilgan. Ularda kanal qazish ishlari haqida qurilish yozuvlari boʻlgan. Biroq matnning katta qismi Urinimgina tomonidan amalga oshirilgan islohotlar — soliq yukining yengillashtirilishi, ayrim majburiyatlarning bekor qilinishi, amaldorlarning oʻzboshimchaligini cheklash haqida hisobotdan iborat. Matnda islohotlardan oldin mavjud boʻlgan soliq yigʻimlari va suiiste’mol holatlari batafsil sanab oʻtilgan, soʻngra esa taqvodor podshohning aralashuvidan keyin ahvol qanday oʻzgargani haqida ma’lumot beriladi. Shu tariqa, oddiy qurilish yozuvi orqali shumer shahar-davlatidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid nihoyatda qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin.

Ilmiy izlanishlar shuni koʻrsatadiki, hatto qisqa va standart koʻrinishdagi yozuvlardan ham muhim tarixiy ma’lumotlarni olish mumkin. Masalan, Suza shahrida topilgan Shulgiga (eramizdan avvalgi 2093–2046 yillar) tegishli qisqa yozuv manbasida Uruning III sulolasiga mansub ushbu podshoh tomonidan Inshushinak

xudosi uchun ibodatxona qurilgani xabar beriladi. Bunday yozuvning aynan Suzada topilgani “Shumer va Akkad” qirolligi bilan Elam o‘rtasida miloddan avvalgi XXI asrning birinchi yarmidagi munosabatlar tabiatiga oydinlik kiritadi. Bunday yodgorlik yozuvlarida tez-tez uchraydigan podshohlarning nasab ma’lumotlari va ularning rasmiy unvonlari orqali hukmdorlar o‘zaro qay tartibda hukmronlik qilgani, ularning hududiy chegaralari va shuningdek, ular hukmronlik qilgan davrda sodir bo‘lgan yirik siyosiy voqealar haqida ma’lum fikr yuritish imkonini beradi.

Akkad davri san’atining yana bir yorqin namunasi — Naram-Suen (eramizdan avvalgi 2236–2200 yillar)ning g‘alaba stelasi[39] hisoblandi. Unda akkadliklarning Zagros tog‘lariga qilgan yurishi va lullubey qabilalarini tor-mor etgani haqida yozuv mavjud. Shuningdek, akkad podshohlari Rimush va Sargonga tegishli yodgorlik yozuvlari ham katta qiziqish uyg‘otadi. Sargon va Naram-Suenning G‘arb tomonga qilgan yurishlari haqidagi g‘alaba yozuvlarining eski bobil davriga mansub nusxalari ham saqlanib qolgan. Ushbu yozuvlarda Ebla shahrining tor-mor etilgani ham tilga olinadi.

1952 yilda amerikalik olim S.N. Kramer Istanbul muzeyi fondida dunyodagi eng qadimiy qonunlar to‘plamini — Uruning III sulolasiga asos solgan Ur-Nammu (taxminan miloddan avvalgi 2112–2094 yillar)ning Sud hujjatini (Qonunlar to‘plami) aniqladi. Nippurdan topilgan va katta qismi shikastlangan gilam tablichkada Uruinimgin konuslaridagi yozuvni eslatadigan batafsil kirish qismi hamda qonun matnlari mavjud edi. Keyinchalik ushbu sud hujjatning boshqa parchalari ham topildi. Jami taxminan o‘ttizga yaqin modda saqlanib qolgan. Ularda nikoh munosabatlari tartibga solinadi, qochib ketgan qulni ushlab, egasiga qaytargan shaxsga to‘lanadigan mukofot belgilanadi, tanga shikast yetkazish, yolg‘on guvohlik va moddiy zarar uchun jarimalar miqdori ko‘rsatiladi. Shuni taxmin qilish mumkinki, agar umumiy tamoyillarda bo‘lmasa ham, ayrim moddalarda Ur-Nammu sud

[39] Stella – bu toshdan, marmardan, granitdan yoki yog‘ochdan yasalgan, ustiga matnlar yoki tasvirlar o‘yib yozilgan vertikal plita. Qadim zamonlarda bunday plitalar yoki ustunlar chegara belgi sifatida, qabrtosh yoki yodgorlik maqsadida o‘rnatilgan.

hujjati odatdagi huquq normalaridan chetga chiqqan boʻlib, podshoh yoki uning yaqin maslahatchilari ijodining samarasi boʻlgan.

Ur-Nammu davri qonunlari haqida fikr yuritar ekanmiz, Hammurapi qonunlari ham yodimizga keladi. Ayrim tarixchilar dastlabki qonun namunalari deyilganda aynan Hammurapi qonunlari, eng qadimiysi deb hisoblab kelishadi. Aslida qonunlar undan avvalgi podshohlar davrida ham bor boʻlganligini, yuqoridagi yozma manba tasdiqlab turibdi.

Xoʻjalik hujjatlari. Xoʻjalik va tijorat hujjatlari miqdor jihatidan boshqa barcha turdagi mixxat yozuvlaridagi manbalardan bir necha barobar koʻpligi aniqlangan. Ularning aksar qismi ibodatxonalar va saroy arxivlaridan topib oʻrganilgan, biroq jismoniy shaxslarga tegishli hujjatlar ham ancha miqdorda saqlanib qolgan. Eng qadimiy xoʻjalik arxivlari Uruk va Jemdet-Nasrda topilgan.

Ular piktografik belgilar bilan yozilib, hali oxirigacha oʻqilmagan. Lagashdan er. avv. III ming yillikka oid xoʻjalik hujjatlari topilgan. Ayniqsa, er. avv. II ming yillikka oid koʻpgina xoʻjalik hujjatlari mavjud. Ular davlat arxivlari, ibodatxona va xususiy arxivlarda saqlanib qolgan. Hozirgi Turkiya hududidagi Kultepadan er. avv. II ming yillikka oid osur va amoriy savdogarlariga tegishli qarz, tilxat va sud qarorlari aks etgan 10.000 loy taxtachalardan iborat arxiv; er. avv. II ming yillikka oid qadimgi Arrapxadan topilgan 4000 loy taxtacha; er. avv. XII-XI asrlarga oid Ashshur shahri arxivi, er. avv. I ming yillika oid Nippur, Bobil, Borsippa, Ur va Uruk shaharlari kesishgan joylardan topilgan arxivlar qadimgi Mesopotamiya xoʻjalik hayoti toʻgʻrisida muhim ma`lumot beradi. Ayniqsa, Nippurdagi savdo-tadbirkorlik bilan shugʻullangan “Murashu uyi”dan topilgan er. avv. V asrga oid 700 hujjat diqqatga sazovordir.

Gʻarb olimlarining ta’kidlashlaricha Dunyodagi ilk shaharlashgan markazlardan biri qadimiy Uruk shahri boʻlgan. Janubiy Mesopatamiyada Yefreyt daryosi irmogʻida joylashgan edi, milodda avvalgi soʻnggi toʻrt mingyillikkacha 10 000 dan ortiq insonlarga boshpana boʻlgan va koʻplab ijtimoiy infratuzilmalar va ibodatxonalar bilan maqtana olar edi. Bir ibodatxona miloddan

avvalgi 3000-yilgacha saqlanib qolgan edi; ustidan ohak suvalgan paxsa devorlardan iborat boʻlib, tekislik ustida qad rostlagandi. Boshqa bir muqaddas qadamjoda, ma`muriy binolar va ibodatxonalar puxta ishlab chiqilgan ustunlar bilan bezatilgandi. Rangdor toshli konuslar puxta geometrik oʻlchovlar asosida yaratilib, binolar ustini oʻrab turardi, bu esa Uruk shahrini qirol Gilgameshga bagìshlangan dostondagi “Nur taratuvchi shahar”ga qiyoslardi.

“Podshohlar roʻyxati” haqida. Mesopotamiyaning eng qadimiy tarixini oʻrganishda “Podshohlar roʻyxatlari” oʻta qimmatli manba hisoblanadi. Ular ichida eng qadimgisi — shuningdek “Shumer podshohlar roʻyxati” deb ataladigan manba — Mesopotamiyaning turli shaharlarida hukmronlik qilgan podshohlar roʻyxatini oʻz ichiga oladi. Bu roʻyxat podshohlik “osmondan tushgan paytdan» boshlab, Urning III sulolasi davrigacha (ayni shu davrda “Roʻyxat” yaratilgan boʻlishi mumkin) boʻlgan davrni qamrab oladi. Keyinchalik ushbu roʻyxat davom ettirilib, miloddan avvalgi II ming yillik boshidagi podshohlar ham unga qoʻshilgan. “Shumer podshohlar roʻyxati”ga taqlidan, keyinchalik ossuriyalik va bobillik podshohlarning roʻyxatlari ham tuzila boshladi va bu an’ana Salavkiylar davrigacha yetib bordi. Bu an’ananing aks-sadosi miloddan avvalgi III asrda yunon tilida yozgan bobillik kohin Beros asarlarida ham uchraydi.

“Shumer podshohlar roʻyxati” bizga turli xil tahrirlarga mansub boʻlgan va bir-biridan ancha farq qiluvchi koʻplab parchali nusxalarda yetib kelgan. “Roʻyxat” Eredu, Bad-tibira, Larak, Sippar va Shuruppak shaharlarida ketma-ket hukmronlik qilgan 8-10 nafar “toʻfondan avvalgi” podshohlarning ismlari bilan boshlanadi. Keyin esa “toʻfondan keyingi” sulolalar podshohlari, ya’ni Kishning I sulolasi podshohlaridan boshlab zikr etiladi.

Har bir shahar podshohlari nomi va ularning hukmronlik davrini koʻrsatgandan soʻng, “Roʻyxat” muallifi mazkur “sulola”ning umumiy hukmronlik muddatini hisoblab chiqadi. Bundan keyin esa doimiy ravishda quyidagi shakldagi ibora keladi: “Falonchi shahar qurol bilan yengildi; podshohlik falonchi shaharga koʻchirildi”. Shu tarzda, bir vaqtning oʻzida turli

shaharlarda hukmronlik qilgan koʻplab sulolalar “Roʻyxat”da ketma-ketlikdagi hukmronlik sifatida koʻrsatilgan.

Bu holat, ehtimol, siyosiy maqsadlar bilan bogʻliq boʻlishi ham mumkin. Qiziq holat shundaki “Shumer podshohlar roʻyxati”da siyosiy yoʻnaltirilganlik belgilarini aniqlash mumkin. Masalan ayrim tahrirlarda dushman shaharlar va sulolalar nomlari butunlay tushirib qoldirilgan.

Shunga qaramay, “Shumer podshohlar roʻyxati” faqatgina qadimgi mesopotamiyaliklarning oʻz oʻtmishi haqidagi tasavvurlarini oʻrganish uchun emas, balki tarixiy ma’lumot sifatida ham juda muhim manba boʻlib qolmoqda. “Roʻyxat”da saqlanib qolgan podshohlar zanjiri ba’zan muayyan bir shahar tarixi davrini bildiradigan yagona ma’lumot hisoblanadi. Shu bois, boshqa manbalardan olinayotgan yangi ma’lumotlar doimo ushbu “Roʻyxat”dagi ma’lumotlar bilan taqqoslanadi.

Tarixchi olimlar orasida ushbu roʻyxatni boshqa manbalarga taqqoslab oʻrganish maqsadga muvofiq deb hisoblovchilar ham anchagina topiladi. Bunga albatta topilayotgan yangi manbalar asos boʻlib xizmat qilmoqda. Jumladan, “Shumer podshohlar roʻyxati”ni toʻgʻri talqin qilish va Mesopotamiyaning ilk davri tarixini oʻrganishda katta ahamiyatga ega boʻlgan manbalardan biri – “Tummal yozuvi” topilishi ayni muddao boʻldi. Bu yozuv 1914 yili A. Pyobel tomonidan nashr etilgan (tablichkaning yetishmayotgan qismi 1955 yili Yena universiteti muzeyida S.N. Kramer tomonidan topilgan).

Miloddan avvalgi III va II ming yilliklar chegarasida Issinning I sulolasiga asos solgan Ishbi-Erra Tummaldagi (Nippur atrofidagi hudud) Ninlil ma’budasiga bagʻishlangan ibodatxona majmuasi necha marta qayta qurilganini aniqlash maqsadida roʻyxat tuzishga qaror qiladi. Mazkur ibodatxonani qayta tiklagan podshohlarning nomlari qay tartibda keltirilganiga qarab, tadqiqotchilar quyidagi xulosaga keldilar: “toʻfondon keyingi” ilk davrda uchta sulola amalda bir vaqtda hukmronlik qilgan. Bu esa “Shumer podshohlar roʻyxati”dagi sulolalarning ketma-ketligiga shubha bilan qarash va uning tarixi haqidagi tasavvurni aniqlash imkonini beradi.

Huquqiy hujjatlar. Mesopatamiya tarixini oʻrganishda huquqiy manbalarni ham oʻrni katta hisoblanadi. Bugungi davrlargacha eramizdan avvalgi III ming yillikka tegishli Mesopotamiya hududidan juda koʻp huquqiy hujjatlar - fuqarolik va jinoiy ishlar boʻyicha sud qarorlari va hukmlar, sud muhokamalari protokollari va boshqa shunga oʻxshash yozma manbalar yetib kelgan.

1894 yilda Tello shahridagi (qadimgi Girsu) “Tablichkalar tepaligi” deb nomlangan joyda arxeologik qazishmalar vaqtida Urning III sulolasi davriga tegishli keng qamrovli sud hujjatlari arxivi topilgan. Arxivning asosiy qismini ditilla deb ataluvchi sud qarorlari tashkil etadi. Bu tablichkalarda: ajrashish ishlari, nikoh shartnomasi buzilishi yuzasidan da’volar, meros ishlari, qullar tomonidan oʻzlarining haqiqiy erkinlik maqomi haqidagi da’volari kabi masalalar muhokama qilingan.

Ayniqsa, qiziqarli hujjatlardan biri — Amar-Suen va Shu-Suen davriga oid ikki sud tablichkasi boʻlib, Axuma ismli shaxs 15 yil davomida bir necha bor sud orqali qul emasligini isbotlashga uringani haqida ma’lumot beradi. Ushbu arxivda, shuningdek, oʻgʻirlik, oʻldirish kabi jinoyat ishlari boʻyicha ham sud tablichkalari saqlangan. Bu hujjatlar oʻsha davrdagi huquqiy tizim va jamiyatdagi adolatni amalga oshirish jarayoni haqida muhim ma’lumotlarni beradi.

Mesopotamiya tarixi boʻyicha eng muhim manbalardan biri — bu huquqiy yodgorliklar, ayniqsa, qonunlar toʻplamlari hisoblanadi. Qadimgi Sharqning hech bir mamlakatida Mesopotamiyadagidek koʻp sonli huquqiy majmualar saqlanmagan.

Eng qadimiy qonunlar — Shulgi qonunlari — miloddan avvalgi III ming yillik oxiriga taalluqli boʻlib, ulardan Urning III sulolasi hukmronligi davrida Shumer-Akkad podshohligida foydalanilgan. Bu qonunlar yomon saqlangan boʻlib, bugungi kungacha faqat kirish qismi va bir nechta moddalar yetib kelgan.

Eramizdan avvalgi XX asrga taalluqli yana bir muhim huquqiy hujjat — bu Eshnuna qonunlari. Eshnuna — Diyola daryosining yuqori havzasida joylashgan bir periferiya podshohligi boʻlib, ushbu qonunlardan kirish qismi va 59 modda saqlangan.

Eramizdan avvalgi II ming yillik boshlaridan esa Larsa va Issin shaharlariga oid qonunlar fragmentlari topilgan. Xususan, Lipit-Ishtar podshohligi davrida tuzilgan qonunlar to‘plamidan muqaddima, xulosaning bir qismi va taxminan 40 modda saqlanib qolgan. Bu qonunlar Mesopotamiyada huquq tizimi, jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi haqida muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Eng katta huquqiy to‘plam — bu Bobil podshohi Hammurapi (eramizdan avvalgi 1792-1750 yillar) davriga taalluqli qonunlar majmuasi bo‘lib, muqaddima, 282 moddadan iborat asosiy qism va xulosadan tashkil topgan. Bugungi kunga qadar 247 ta moddadan iborat shaklda yetib kelgan[40]. Hammurapi qonunlari boshqa sharq qonunnomalaridan farq qilib, o‘zida diniy qoidalar va nisahatgo‘ylik elementlarini ifoda ettirmagan. Avvaliga bu qonunlar gil tablichalarda yozib borilgan, keyin esa, Hammurapi hukmronligining oxirida, “tantanali shakl” kasb etgan — ya’ni qora bazalt toshiga o‘yib yozilgan. Ushbu tosh ustunining yuqori qismida qonunlarning muallifi bo‘lgan podshoh Hammurapining tasviri bor: u duo holatida Quyosh, adolat va haqiqat xudosi Shamash oldida turibdi, Shamash esa unga hokimiyat ramzlarini topshirmoqda. Bu qonunlar yozilgan ustunni fransuz arxeologlari 1901-1902 yillarda Elamning poytaxti — Suza shahridagi arxeologik qazishmalar davomida topganlar. Ushbu ustun eramizdan avvalgi XII asrda elamiylar tomonidan harbiy o‘lja sifatida olib ketilgan va shu sababli Suzada saqlangan. Bugungi kunda ushbu qonun yozilgan tosh ustun Fransiyaning Luvr muzeyida saqlanmoqda. Bundan tashqari Er. avv. II ming yillik o‘rtalariga oid O‘rta Ossuriya qonunlari, Yangi Bobil podsholigiga oid 20 ga yaqin qonun moddalari bizgacha yetib kelgan.

Qonunlar to‘plami tadqiqotchilarga boy material taqdim etadi, ular asosida iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarni, oila strukturasini, siyosiy tuzilmani, huquqiy me’yorlar va sud jarayonini, shuningdek, qadimgi Mesopotamiyadagi diniy qarashlarni tahlil qilish mumkin.

[40] Samedjanov A. va boshq. Qadmiy huquqiy yodgorliklar: Xammurapi qonunlari, Doro I ning Behistun qoyalaridagi yozuvlari. T.: “Adolat” nashriyoti, 2016. – B.5.

Diplomatik munosabatlar va unga oid hujjatlar. Davlatlararo munosabatlarda diplomatik aloqalar alohida o‘ringa ega hisoblandi. Harbiy yo‘l bilan yechib bo‘lmagan muammolar aynan diplomatik vositalar orqali hal etilgan. Endi savol tug‘iladiki, dastlabki diplomatiya qaysi hududlarda, davlatlarda paydo bo‘ldi? Bu borada Ikki daryo oralig‘i davlatlari ham ma’lum bir natijalarga erishganliklarini topilgan manba va hujjatlar tasdiqlamoqda. Olimlarning aniqlashicha eng qadimgi diplomatik hujjatlardan ikki loy silindrda bitilgan er. avv. XXIV asrga oid Lagash va Umma o‘rtasidagi chegara janjali to‘grisidagi yozuv bizgacha yetib kelgan[41]. Yana bir chegara masalasini hal qilgan shartnoma eramizdan avvalgi XXIII asrda Akkad shohi Naram-Suen va Elam podshohlaridan biri o‘rtasida uzoq davom etgan harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng tuzilgan. Eramizdan avvalgi II mingyillik boshlariga taalluqli diplomatik arxiv Mari (Suriya) shohi Zimrilim saroyi xarobalarida olib borilgan qazishmalar vaqtida topilgan. Bu arxivda Bobil, Mari, Suriya va Finikiya knyazliklari hukmdorlari hamda davlat arboblari o‘rtasidagi keng ko‘lamli yozishmalar jamlangan. Ushbu manbalardan ma’lumki, davlatlar o‘rtasida elchilar va xabarchilar qatnab turgan, elchixonalarni ta’minlash masalalari muhokama qilingan, ularning xavfsizligi kafolatlangan, maktub va sovg‘alar almashilgan, shartnomalar tuzilgan va hokazo. Saroy yozishmalarida ayniqsa harbiy harakatlar va harbiy-siyosiy shartnomalar tuzilishi haqidagi ma’lumotlar, jumladan, kuzatuv va maxfiy ma’lumotlar muhim o‘rin egallagan. Bunday axborot manfaatdor tomonlarga darhol yetkazilgan.

Eramizdan avvalgi II mingyillik va undagi xalqaro munosabatlar tarixini o‘rganishda Mesopotamiya davlatlari uchun beqiyos ahamiyatga ega manbalardan biri bu – Qadimiy Misr hududida topilgan Tell-Amarna diplomatik arxividir. Ushbu arxivda Mitanni, Bobil va Ossuriya podshohlarining Misr fir’avnlari Amenxotep III va Exnatonga (er.avv. XIV asr) yozgan maktublari mavjud. Shuningdek, Anadolining qadimgi Xattusa shahri (hozirgi Turkiya)da olib borilgan qazishmalarda topilgan

[41] Ammo tarixdagi dastlabki diplomatik aloqalar tarixini Misr va Xett munosabatlariga bog‘laydigan tarixchilar ham bor. Shundan kelib chiqib, ushba masalani chuqurroq o‘rganing va seminar mashg‘ulotlarida taxlil qiling.

hujjatlar – xett podshohlariga tegishli arxiv – ham diplomatik va tijoratga oid akkad tilidagi hujjatlar bo‘lib, ular eramizdan avvalgi II mingyillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

Eramizdan avvalgi I mingyillikda tuzilgan xalqaro shartnomalar orasida Ossuriya shohlari va ularga tobe davlatlar o‘rtasidagi kelishuvlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, 1955 yili Qalhu (Iroq)da olib borilgan qazishmalar davomida miloddan avvalgi VII asrga oid bo‘lgan Ossuriya shohi Asarxaddon va Midiya knyazlari o‘rtasidagi shartnomalar topilgan. Ushbu shartnomalar Ossuriyada Asarxaddonning o‘g‘illarini taxt vorislari deb e’lon qilish va ularga sadoqat qasamini qabul qilish munosabati bilan tuzilgan. Yuqoridagi tadqiqotlar va arxiv ma’lumotlaridan shu narsani anglash mumkinki, Qadimgi Sharqda diplomatik aloqalar ancha kuchli rivojlangan, harbiy mojarolarni hal etishda elchilar xizmatidan unumli foydalanilgan.

Tarixiy mazmundagi yozuvlar. Mesopatmiya dunyo sivilizatsiyalari ichida o‘ziga xos mixxat yozuvlarini yaratgan kam sonli madaniyat beshiklaridan hisoblanadi. Topilgan yozma manbalar ham aynan shu ko‘hna yozuvda bitilgan manbalar hisoblanib, tarixni nomalum davrlarini o‘rganish imkoniyatini beradi.Qadimgi Mesopotamiya davlatlari, jumladan, Shumer, Akkad, Bobil, Ossuriya va boshqa davlatlar hukmdorlarining tarixiy yozuvlari katta qiziqish uyg‘otadi.

Eramizdan avvalgi XXV asrda Lagash davlatining yuksalishi, uning tashqi siyosiy qudratining ortishi va qo‘shni Umma shahri bilan keskin kurashi Lagash hukmdori Eanatumning yozuvlarida, ayniqsa, uning “Qo‘rg‘oshinlar stellasi”da batafsil aks etgan. Miloddan avvalgi XXIV asrdagi Lagashda amalga oshirilgan islohotlar haqida Lagash hukmdori Uruinimgin yozuvlarida ma’lumotlar mavjud. Miloddan avvalgi XXII asrda hukmronlik qilgan boshqa Lagash hukmdori – Gudea qurilish va bag‘ishlov yozuvlarini qoldirgan.

Eramizdan avvalgi XXIII asrga oid bo‘lgan Akkad shohlari, xususan Rimush tomonidan qoldirilgan yozuvlar orqali Akkaddagi qo‘zg‘olonlarni bostirish va Elamga uyushtirilgan harbiy yurishlar haqida ma’lumot olish mumkin. Bu davrning yana bir qimmatli

yodgorligi – “Manishtushu obeliski[42]” bo‘lib, u podshohlik yer jamg‘armasining qanday kengaygani, jumladan, jamoa kishilaridan yer sotib olish hisobiga, qanday shakllanganini tasvirlaydi.

Ossuriya shohlarining yozuvlari juda ko‘p miqdorda saqlangan. Eng qadimiylarida asosan harbiy voqealar va qurilish ishlari qisqacha bayon etilgan. Sargon II va undan keyingi shohlariga (er.avv. VIII–VII asrlar) tegishli yozuvlar esa, aslida, badiiy-tarixiy asarlar bo‘lib, voqealarni dinamik tasvirlash, original yondashuv va shubhasiz ijodiy individuallik bilan ajralib turadi. Ular orasida, ayniqsa, Sargon II ning 714 yilda Urartuga uyushtirilgan yurishi haqidagi “Sargonning Ashshur xudosiga maktubi” hamda Ashshurbanapal solnomalari ajralib turadi. Bu yozuvlar boy tarixiy ma’lumot va yuksak badiiy uslubi bilan e’tiborga loyiq. Biroq, ular g‘alaba xabarlari sifatida yozilgani uchun voqealarni bir yoqlama yoritadi.

Eramizdan avvalgi VI asrga oid bo‘lgan 140 dan ortiq Navuxodonosor II va Nabonid kabi Yangi Bobil shohlariga tegishli yozuvlar ham saqlangan. Ularda saroy, ibodatxona, shahar qurilishi, ibodatxonalarga bag‘ishlangan sovg‘alar va qurbonliklar haqida ma’lumotlar bor. Nabonid yozuvlari ayniqsa muhim, chunki ularda shoh nafaqat o‘z hukmronlik davridagi, balki ancha ilgarigi davrlar voqealarini, ularning xronologiyalari, sulolalarga oid rivoyatlar va podshohlarning amallarini bayon qilgan.

Ibodaxona qurilishi, xudolar haykallari yaratilishi munosabati bilan qilingan yozuvlar, xudo va shohlar sharafiga yozilgan madhiyalar ham katta ahamiyatga ega. Ularning katta qismi tantanaviy xarakterga ega bo‘lib, faqat gilamga emas, balki tosh (marmar, bazalt va boshqalar), tilla, kumush, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, fil suyagi kabi moddalarga ham bitilgan. Ular diniy ma’lumotlardan tashqari, ichki va tashqi siyosiy hayot haqidagi faktlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ossuriya saroy arxivlarida saqlangan shohlik yozishmalari ham juda qadrli manba hisoblanadi. Ular diplomatik, josuslik, xo‘jalik, ma’muriy va boshqa hujjatlar bo‘lib, podshohlar, ularning noiblari, amaldorlar, sarkarda va ruhoniylar tomonidan yuritilgan.

[42] Obelisk — bu yuqoriga qarab torayib boruvchi ustun ko‘rinishidagi yodgorlik hisoblanadi.

Bunday 1500 dan ortiq maktub eramizdan avvalgi VIII–VII asrlarga oid bo‘lib, Nineviya, Qalhu va boshqa shaharlardagi saroylardan topilgan.

Haqiqiy tarixiy hujjatlardan yana biri – shohlarning muayyan orakullarga[43] murojaatlari hisoblanadi. Ular orqali shohlar o‘z yurishlari yoki muhim qarorlarining natijalari haqida oldindan bashorat so‘rashgan. Bunday murojaatlar o‘ta muhim, chunki ularda shohlar, tantanaviy yozuvlardan farqli o‘laroq, xavotir, qo‘rquv, beqarorlik kabi his-tuyg‘ularini yashirmagan va bu orqali o‘sha davrning siyosiy muhitini aniq tasvirlab berishgan.

Mesopotamiya davlatlarida shohlik ro‘yxatlari ham bo‘lgan. Masalan, miloddan avvalgi XXI asrda tuzilgan “Shumer podshohlar ro‘yxati” to‘fongacha bo‘lgan shohlardan boshlanib, keyin eramizdan avvalgi XVIII asrgacha davom etgan. Ossuriyaliklar esa limmu (yuqori amaldorlar) ro‘yxatlarini tuzishgan (m.a. 911–648), shu orqali solnomalar yuritilgan. Podshohlik ro‘yxatlari ham saqlangan (er.avv. II mingyillik boshidan VII asr oxirigacha). Ular ichidagi 763 yil 15 iyuldagi quyosh tutilishining real sanasi bu ro‘yxatlarni xronologiyani aniqlashda mustahkam asosga aylantiradi. Bobil shohlari ro‘yxatlari ham xronologik tartibda saqlangan.

“Sinxronistik tarix” deb nomlangan asar eramizdan avvalgi XVI–IX asrlardagi Ossuriya va Bobil o‘rtasidagi munosabatlar tarixini yoritadi. “Nineviyaning qulashi haqidagi xronika” VII asrdagi Ossuriya davlatining yo‘q bo‘lishi va parchalanishi haqida xabar beradi. “Bobil xronikasi” esa Fors shohi Kirning Yangi Bobil davlatini zabt etishini tasvirlaydi. Ushbu xronikalar shohlik yozuvlari bilan birga Qadimgi Mesopotamiya tarixini tiklashda mustahkam asos hisoblanadi.

Asli tarixiy asarlar esa nisbatan kechroq — eramizdan avvalgi IV–III asrlarda paydo bo‘lgan. Misol uchun, Marduk xudosining Bobildagi kohini Beros mamlakat miflari, afsonalari va tarixini yaxshi bilgan, qadimiy yozuv va xronikalarni o‘qigan va shu bilan birga yunoncha ta’lim olgan. U “Suv toshqinidan avvalgi” davrdan boshlab Iskandar Maqdununiyning vafotigacha bo‘lgan “Bobil va

[43] Hozirgi zamon tilida “Orakul” deganda kelajakni bashorat qiluvchi shaxs, shuningdek, fikr va xulosalari shubhasiz haqiqat va vahiy sifatida qabul qilinadigan odam tushuniladi.

Xaldeya tarixi”ni uch qismda yozgan. Shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, u bilimdon Bobillik bo‘lgani uchun u yerdagi ibodaxonalarda saqlanayotgan asl yozma manbalardan foydalana olgan. Matnni asli saqlanmagan, faqat Iosif Flaviy (I asr), Yevseviy (IV asr) va boshqa antik va ilk o‘rta asr mualliflari asarlarida parchalar saqlangan.

Shumer-Akkad adabiy yodgorliklari. Bizning davrimizgacha Mesopatmiya tarixiga oid ko‘plab adabiy yodgorliklar yetib kelgan. Ushbu yodgorliklarni tadqiq etish bo‘yicha ayrim natijalarga erishilmoqda. Olimlarning aniqlashicha, Shumer-Akkad adabiyotining eramizdan avvalgi III ming yillikka tegishli deyarli barcha yodgorliklari faqatgina keyingi davr nusxalarida saqlanib qolgan. Pensilvaniya universiteti ekspeditsiyasi tomonidan Nippurda 1889–1900 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan ko‘p yillik arxeologik qazishmalar vaqtida mifologik mazmundagi matnlar, epik qo‘shiqlar, madhiyalar, shaharlar va ibodatxonalar vayrona bo‘lgani haqidagi yodlar, maqollar va nasihatlar to‘plamlari yozilgan 2000 dan ortiq tosh tablichalar topilgan. Nippur tablichalari orasida miloddan avvalgi taxminan 2000 yilga tegishli bo‘lgan eng qadimgi adabiy matnlar ro‘yxati aniqlangan bo‘lib, unda yigirmadan ortiq podshohlarga bag‘ishlangan madhiyalar, xudolarga bag‘ishlangan madhiyalar, epik qo‘shiqlar va shahar vayrona bo‘lgani haqidagi yodlar zikr etilgan.

Adabiy matnlarning boshqa muhim topilmalari sifatida (1924 yilda Jenuyok tomonidan nashr etilgan) Kishdan topilgan 300 ta fragment, Britaniya muzeyida saqlanayotgan Urdan topilgan taxminan 400 ta loy taxtacha va Berlin muzeyi hamda Luvr tomonidan antikvarlardan sotib olingan bir necha yuzlab tablichkalarni ko‘rsatish mumkin. Loy taxtachalarning o‘zi eramizdan avvalgi XVIII asrning o‘rtalariga tegishli bo‘lsa-da, ularda yozilgan asarlar III ming yillikning ikkinchi yarmigacha bog‘lanadi.

Tarixiy voqealar bilan eng yaqin bog‘langan asarlar shaharlar vayrona bo‘lgani haqidagi yodnomalar va podshohlarga bag‘ishlangan madhiyalardir. Yodnomalar — bu poetik asarlar bo‘lib, shaharlar va ibodatxonalarning vayrona bo‘lganini yod

etish maqsadida yozilgan. Umma hukmdori Lugalzagisi tomonidan Lagashning vayrona qilingani haqidagi yodnoma, Ur va Nippurning vayronaligi, Akkad shahridagi falokatlar va Shumerning halokati haqidagi yodnomalar ma'lum. Bu yodnomalarda bir paytlar shuhrat qozongan shaharlar va hududlarning qanday tashlab ketilgani va vayrona holga tushgani tasvirlanadi.

Urning III sulolasi va Issinning I sulolasi podshohlari uchun yozilgan madhiyalar hamda xudolar va ibodatxonalarga bag'ishlangan madhiyalar ko'pincha tantanali va mufassal o'z-o'zini maqtash shaklida bo'ladi. Barcha madhiyalarga xos bo'lgan mubolag'a va ritorikaga moyillikka qaramay, ayrimlarida mamlakatdagi vaziyatni yoki muhim tarixiy voqealarni yoritib beradigan qiziqarli detallarga uchrash mumkin. Masalan, Shulgiga bag'ishlangan madhiyada shunday deyiladi: "Yo'ldan ketayotgan odam tunda ham yura oladi va o'zini mustahkam qal'adagidek his qiladi".

"Enmerkar va Arattaning bosh ruhoniysi" yoki "Gilgamesh va Aga" kabi shumer epik poemalarida Ilk tarixiy sulolalar davridagi Mesopotamiya jamiyati hayoti, shahar-davlatlar o'rtasidagi va ular ichidagi mojarolar tasvirlangan. Biroq shunga e'tibor berish kerakki, qahramonlik va epik janrdagi matnlarda tarixiy haqiqat folklor janrining ichki qonunlariga bo'ysungan holda g'aroyib tarzda ifodalanadi.Mifologik mazmundagi ko'plab matnlar Mesopotamiya aholisining xudolar olami, sivilizatsiyaning kelib chiqishi va o'zlarining qadimgi tarixi haqidagi tasavvurlarini yoritib beradi. Bu miflarni talqin qilishda ularni yer yuzida sodir bo'lgan voqealarning bevosita aks ettiruvchisi sifatida qarashdan saqlanish kerak: mif va reallik o'rtasidagi bog'liqlik juda murakkab va og'riqlidir. Ko'plab shumer miflari S.N. Kramer tomonidan o'rganilgan va uning ingliz tilidagi "Shumer mifologiyasi" kitobiga kiritilgan.

Eramizdan avvalgi II ming yillik boshlarida Mesopotamiyada shumercha va akkadcha maqollar hamda lafziy ifodadagi hikmatlardan iborat katta to'plamlar tuzila boshlaydi.

Maqollar va ta'limotlar ustida olib borilgan tadqiqotlar orqali qadimgi odamlarning psixologiyasi, oilaviy va ijtimoiy

munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va ta’blar haqida juda qiziq ma’lumotlar olish mumkin. Masalan, Abu-Salabix nusxasida shunday deyiladi: «Dono so‘zlar — osmon yulduzlaridek», yoki: «Mulki butun bo‘lgan odam, o‘g‘lim, tengi yo‘q narsadir!». Bunday umumiy hikmatlar bilan birga amaliyotga yo‘naltirilgan maslahatlar ham uchraydi, masalan: chet ellik qulni sotib ol, o‘z hamqavmingni yoki uyda tug‘ilgan qulni emas. E. Gordon shumer maqollarini o‘rganib, qadimgi Mesopotamiya maqollari, lafziy hikmatlari va hikoyatlarining keng to‘plamini nashr qilgan.

Ijtimoiy munosabatlar, oila, psixologiya masalalariga oid ma’lumotlarni “kichik” janr — maqol va hikmatlar orqali ham olish mumkin. Masalan: “Quvvatli kishi qo‘l mehnati bilan yashaydi, ojiz kishi esa farzandlarining bahosiga”. Yoki hayotdan pessimistik shikoyat ifodalangan maqol: “Qashshoqqa yashagandan ko‘ra o‘lgan afzal: agar unda non bo‘lsa, tuzi yo‘q, agar tuz bo‘lsa, non yo‘q, agar go‘shti bo‘lsa, qo‘zi yo‘q, agar qo‘zi bo‘lsa, go‘sht yo‘q”. Boshqacha, hikmatli va tasalli beruvchi maqol ham bor: “Ko‘p kumushi bor kishi baxtli bo‘lishi mumkin, ko‘p arpasi bor kishi ham baxtli bo‘lishi mumkin, lekin hech nimaga ega bo‘lmagan odam tinch uxlaydi”.

Shumer, Bobil va Ossuriyaning adabiy yodgorliklaridan tarixiy ma’lumotlar olish mumkin. Bunday ma’lumotlarning haqiqiy xazinasi — “Gilgamesh dostoni” bo‘lib, uning matni Nineviyadagi shoh kutubxonasida topilgan va eramizdan avvalgi II ming yillik boshlariga tegishlidir.

Qadimgi Sharq mamlakatlari manbalari. Mesopotamiya geografik jihatdan Yaqin va O‘rta Sharqning markazida joylashgani tufayli, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ko‘plab mamlakatlar bilan turli-tuman aloqalarga ega bo‘lgan. Shu sababli, uning hududidan boshqa xalqlarga mansub buyumlar arxeologik izlanishlar natijasida tez – tez topilib turadi. Masalan, so‘nggi yarim asrlik izlanishlar davomida Mesopatamiya hududidan Misrga tegishli haykalchalar, janubiy Arabiston yozuvlari, Suriya, Finikiya, Falastin, Urartu, Eron va Hindistondan kelgan zeb-ziynat va hunarmandchilik buyumlarini topilishi naqadar yaqin aloqalar yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin.

Boshqa tomondan esa, Bobilning silindrik muhrlari, ossuriyalik qurolsozning bronza buyumlari va temir asbob-uskunalari Misr hududida topilgan xazinalardan aniqlangan. Shumer muhrlari Hind sivilizatsiyasi markazlaridagi qazishmalarda aniqlangan. Hammurapi qonunlari to‘plami va Manishtushu obeliski Elamning poytaxti Suza shahridagi qazishmalar chog‘ida topilgan. Qadimgi Mesopotamiyaga tegishli tijorat, diplomatik va adabiy hujjatlar Kichik Osiyo, Misr, Falastin, Suriya, Eron kabi mamlakatlarda ham topilgan.

Yaqinda topilgan muhim topilmalardan biri — Suriyaning qadimgi Ebla shahridagi arxeologik qazishmalardir. Aleppo (qadimgi Xalpa) shahridan janubda joylashgan bu shaharda italiyalik arxeologlar bir necha ming loy taxtachalarni topdilar. Ular shumer va semit tillarida yozilgan. Bu loy taxtachlar Osiyoning eng qadimgi arxivlaridan biri hisoblanib, u miloddan avvalgi III ming yillikka taalluqlidir. Arxivda adabiy matnlar, o‘quvchilar uchun “darsliklar” va “daftalar”, tijoratga oid hujjatlar hamda katta hajmdagi davlat hujjatlari: diplomatik yozishmalar, elchilar va qo‘mondonlarning hisobotlari, ma’muriy farmoyishlar va boshqalar saqlangan.

Mesopotamiya tarixi bo‘yicha muhim xorijiy manbalar qatorida Bibliyani ham zikr etish joiz. Unda Ossuriya va Yangi Bobil podsholarining Sharqiy O‘rtayer dengizi hududiga uyushtirgan yurishlari, Falastin bilan Mesopotamiya davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar haqida hikoyalar mavjud.

Mesopotamiya tarixi uchun ahamiyatli bo‘lgan fors manbalari ham saqlangan. Ular orasida Bobilni zabt etgan Kirning silindri, Doriy I yozuvlari, ayniqsa, Behistun yozuvi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yozuvlarda bobilliklarning fors hukmronligiga qarshi ko‘tarilgan isyonlari haqida ma’lumotlar bor.

Antik mualliflar asarlari. Yaqin Sharq va Old Osiyoning qadimgi davlatlari haqida grek va rim tarixchilari ancha salmoqli ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. Antik mualliflar Mesopotamiya tabiati, iqlimi va aholisining urf-odatlari, diniy e’tiqodlari, yutuqlari va tarixiy afsonalari to‘g‘risida yozib qoldirganlar.

Mesopotamiya to‘g‘risida eng batafsil ma’lumotlarni Mesopotamiyaga sayohat qilgan yunon tarixchisi Gerodot beradi

(er. avv V asr). Chunki u miloddan avvalgi 477-455 yillarda koʻplab mamlakatlarga, jumladan, Mesopatamiyaning Bobil, Ashshur kabi hududlarida ham boʻlgan. Uning (ya'ni Mesopotamiyaning) tarixiga kelsak, bu yerda yunon muallifi asosan afsonaviy rivoyatlarga tayanadi: bir nechta folklor obrazlari – Nin, Semiramida, Sardanapal va haqiqiy shaxs sifatida Sinaxerib – Ossuriya tarixi haqidagi ma'lumotlarni tashkil etadi; Bobil tarixi haqidagi ma'lumotlar esa yanada kam – bu yerda asosiy ishlar va mashhur inshootlar afsonaviy malika Nitokridaga tegishli qilib koʻrsatiladi. Bu holat esa tadqiqotchilarda Geradotning ma'lumotlariga oʻz davrida ham va bugungi kunda ham tanqidiy qarashni shakllantirgan. Bunga oʻz vaqtida Geradot "men eshitganlarimni yozishga majburman, ammo ishonishga majbur emasman" – deya javob qaytargan edi. Geradot uzoq yillik sayohatlari natijasida 9 kitobdan iborat "Tarix"[44] asarini yozadi. Asarda bevosita Mesopotamiya tarixiga doir ma'lumotlar asosan I kitobda aks etgan. Unda Bobil, Ossuriya va Fors podshohligining oʻtmishdagi holati, urf-odatlari va me'morchiligi haqida koʻproq ma'lumot beradi.

Koʻp yillar Eronda yashagan Gerodotning kichik zamondoshi knidlik Ktesiy (441-397 yillar) 23 kitobdan iborat "Fors tarixi" asarida Mesopotamiyaga ancha katta oʻrin ajratgan. Ammo Ktesiy tarixini bayon qilish afsonaviy an'analarga asoslangan boʻlib, voqealarni soxtalashtirish, xatolarni koʻpligi uchraydi. Agar biz uni hayotida e'tibor qaratsak, u asir sifatida Fors davlatiga olib ketilganligini koʻramiz. Shu bilan birga u shoh saroyida 17 yil yashagan va shu vaqtning bir qismida Ahmoniylar sulolasidan boʻlgan podshoh Artakserks II saroyida uning shaxsiy shifokori sifatida xizmat qilgan. Ktesiy Artakserksning onasi Parisatida tomonidan alohida ishonchga sazovor boʻlgan. U miloddan avvalgi 401 yilda Artakserks bilan birga Kir Kichikka qarshi yurishda qatnashgan va "Anabazis" asarida qayd etilishicha, Artakserksga Kir tomonidan yetkazilgan nayza yarasini davolagani qayd etilgan. Faqat parchalar holatida saqlanib qolgan Ktesiyning "Fors tarixi" asari keyinchalik Diodorning miloddan avvalgi I asrda yozilgan

[44] Geradotning "Tarix" kitobi va uning 9 ta qismi asosida ilmiy munozara tashkil eting.

“Tarixiy kutubxona” nomli asarining asosiga aylandi, shuningdek, boshqa yunon mualliflarining asarlariga ham kiritilgan.

Er. avv. V asrda fors shahzodasi Kirning yollanma qo‘shinida askar bo‘lib Mesopotamiyaga kelgan yunon tarixchisi Ksenofontning “Kiropediya” va “Anabasis” asarlarida Dajla va Frot daryo vodiylari tasviri, mamlakat xalqlari va urf-odatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Strabonning “Geografiya” asari (er. avv. 64 yildan-eramizning 24 yili) 17 ta kitobdan iborat bo‘lib, aynan 16-kitobi Mesopotamiyaga bag‘ishlangan.

Mesopatmiya tarixiga bag‘ishlangan asarlar sirasiga Iosif Flaviyning milodiy I asrda yozilgan “Qadimgi Yahudiy tarixi” asarini ham kiritish mumkin. Unda Ossuriya va Bobilning Falastin davlatlari bilan bo‘lgan munosabatlari yoritilgan bo‘lib, unda “Ossuriya merosi” ya’ni uning mag‘lubiyatidan so‘ng Bobil va Midiya o‘rtasida taqsimlanishi hamda ularning manfaatlarining Misr bilan to‘qnash kelishi tasvirlangan.

Mesopotamiya tarixi bo‘yicha ma’lumotlarni rimlik tarixchi, miloddan avvalgi I asrda yashagan Pompey Trogning asarida ham uchratish mumkin. Uning eng mashhur asari “Filipning tarixi” bo‘lib, u 44 kitobdan iborat. Bu asarda uning asosiy diqqati Makedoniyalik Filipp va uning urug‘lari, shu jumladan Aleksandr Makedonskiy va uning hokimiyati davridagi tarixi, siyosiy va harbiy faoliyatlariga qaratilgan. Asar antiqa davlatlar tarixini, jumladan Ossuriya va Bobilning tarixini qamrab oladi, va uning tushuntirishlari tarixi va siyosiy tizimlarning o‘ziga xos ta’siriga aylanadi. Ushbu yirik asarni yozishda Gerodot, Ktesiy, Efor, Timey, Polibiy va Diodor kabi tarixchilarni asarlaridan foydalangan.

Ayrim tarixchilarning fikricha u Bobil va Ossuriya tarixini asosan afsonaviy podshohlar va malikalar atrofida shakllangan voqealar zanjiri sifatida bayon qiladi. Shunga qaramay, uning quyidagi masalalar bo‘yicha bergan izohlari alohida qiziqish uyg‘otadi:Ossuriyaning yurishlar olib borish siyosatining sabablari; Qadimgi buyuk imperiyalarning vujudga kelish shart-sharoitlari; Zabt etilgan hududlarni boshqarish usullari; Bunday yirik davlat birlashmalarining qulashi sabablari. Ushbu masalalar Pompey Trog asarini nafaqat Mesopotamiya tarixi, balki qadimgi

davlatchilik va siyosiy tafakkurni tushunish nuqtai nazaridan ham muhim manbaga aylantiradi.

Tarixnavislik. **Mixxatning o‘qilishi (deshifrovkasi).** Yuqorida ko‘rib o‘tilgan turli manbalar orqali Mesopatamiyaning ijimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixini to‘la qonli o‘rganish mumkinmi degan tabiiy savol tug‘iladi? Soha tadqiqotchilari fikriga ko‘ra bu yetarli emas. Chunki qadim Dajla va Frot vodiysida yashagan odamlar gaplashgan, ammo unitilgan tillarning tiklanishi tufayligina ularning tarixini chuqur o‘rganishga imkoniyat tug‘ilishi mumkin[45]. Buning uchun dastavval mixsimon xat deb atalmish, deyarli ikki ming yil avval (eramizning I asrida) mutlaqo istemoldan chiqib qolgan yozuvni o‘qib chiqish zarur hisoblandi. Masalaning murakkabligi yana shundaki, Mixxat yozuvlarning ko‘pchiligi chuqur yer ostiga ko‘milib ketgan, ammo ulardan ba’zi birlari qoyatoshlar sirtida yoki yarim vayrona binolarning devorlarida saqlanib qolgan.

XVII – XVIII asrlarda Persopol saroyi (Janubiy-g‘arbiy Eron) vayronalaridagi tosh taxtalar ustida yozilgan belgilar haqidagi ma’lumotlar Yevropaga yoyila boshlagan. Bu ponasimon va turli shakllarni ifoda etgan yozuvlarni naqshlar deb hisoblagan sayyohlar ham bo‘lgan. Ayrimlari esa bu o‘ziga xos yozuv namunasi ekanligini anglab turishsada, o‘qiy olishmas edi. Natijada Yevropaga ushbu yozuvlarning nusxalari tarqala boshladi. Uni o‘qishga va tadqiq qilishga qiziquvchilar paydo bo‘ldi.

Mesopotamiya va Eronga birinchi ilmiy sayohat XVIII asrda nemis millatiga mansub, daniyalik olim K. Nibur (1733-1815 y) tomonidan amalga oshirilgan. U Persepoldagi saroydan mixxat yozuvli yozuvlar nusxalarini Yevropaga olib kelgan. U ushbu yozuvlarda turlicha belgilar soniga ega uch xil yozuv tizimi mavjudligi xulosasiga kelgan.

Deshifrovka jarayoni eng oson mixxat yozuvi ya’ni Fors tizimidan boshlandi. 1802 yili nemis klassik tillar o‘qituvchisi Grotefend bu yozuvlar Ahmoniylar sulolasiga mansub fors podsholariga tegishli ekanini taxmin qildi va ulardan birida Doro,

[45] Bugungi Iroq Respublikasi hududlarida aholi asosan arab tilida so‘zlashadi. Ammo qadimiylikning saqlagan xalqlar bugun ham bor degan qarashlar bor.

Kserks hamda Doroning otasi Gistasp ismlarini oʻqishga muvaffaq boʻldi. Shu tarzda u 39 ta mixxat belgidan 9 tasini deshifrovka qildi va yozuvlardan biri qadimgi fors tilida yozilganini aniqladi. Qolgan ikki qismdan birini u toʻgʻri ravishda Bobil (akkad) tilida deb topdi, ikkinchisi esa keyinchalik elam tilida ekani maʼlum boʻldi.

Grotefenddan mustaqil ravishda, XIX asrning 30–40-yillarida ingliz ofitseri va diplomati G. Raulinson ham mixxatni oʻrganishga katta hissa qoʻshdi. U oʻzining missiyasini bajarar ekan, Eron boʻylab tez-tez sayohatlar qilgan va haqiqiy yodgorliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega boʻlgan. U Yaqin Sharqda koʻp yillar ishlagan va Erondagi Hamadon (Midiyaning qadimiy poytaxti Ekbatan) yaqinida joylashgan 100 metr balandlikdagi Behistun togʻidagi Doro I podshoning uch tildagi katta yozuvini qiyinchilik bilan koʻchirib oladi va uni oʻqishga kirishdi. U bu yozuvni sinchiklab oʻrganish uchun 12 yil vaqt sarfladi (1835-1847 yillar) va natija samarali boʻlib 1847 yilga kelib u Bobil qismidagi 600 dan ortiq belgining 250 tasini aniqladi.

Mixxat yozuvlari genezisi boʻyicha rus ossurshunosi M.V. Nikolskiyning (1848-1917 yillar) tadqiqotlari ham ancha salmoqlidir. U mixxat belgilarining eng dastlabki rasm-surat yozuvi yaʼni piktogrammalardan kelib chiqqanligiga oid ilmiy izlanishlarni olib bordi. Taxminan 900 ta shumer tablichkasini va ossuriya matnlari korpusini nashr etgan, va ulardan biri sifatida shumer piktografiya yozuvi bilan mixxat yozuvini taqqoslashga urinish qilgan. Ammo piktografik yozuvni yanada chuqurroq oʻrganish ishlari undan keyin ham, bugun ham davom etmoqda.

Yevropalik olimlar J. Oppert, E. Xinks va boshqalar ham Mesopotamiyadan topilgan taxtalardagi matnlar asosida akkad mixxatini oʻrganishga katta hissa qoʻshdilar. 1855 yilga kelib Behistun yozuvining uchinchi qismi — elam tilidagi mixxat ham deshifrovka qilindi. XIX asrning 90-yillarida nemis olimi F. Delissh esa akkad tilining grammatikasi va lugʻatini yaratdi.

Mixxatni oʻqishda erishilgan muvaffaqiyatlar yangi ilmiy sohaning tan olinishiga olib keldi — bu soha Ossuriyalogiya deb ataldi (oʻsha davrdagi asosiy tadqiqotlar Ossuriya yozuvlari va moddiy madaniyati yodgorliklari asosida olib borilgan). Hozirgi

kunda ossuriyalogiya deb qadimda Yaqin Sharqning ayrim hududlarida yashab, mixxatdan foydalangan xalqlarning tili, tarixi va madaniyatini oʻrganadigan fanlar majmuiga aylangan.

Yangi mixxat hujjatlari topilishi natijasida bu yozuv tizimidan faqat bobilliklar va ossuriyaliklar emas, balki xurritlar, ulardan oldin esa ikki daryo vodiysida yashagan — shumerlar ham foydalangani aniqlandi. Mesopotamiya xalqlaridan mixxatni urartlar, elamitlar, xettlar va boshqalar ham oʻzlashtirishgan. Shu tufayli ossuriologiyadan alohida sohalar — shumerologiya, elamitologiya, urartologiya, xettologiya ajralib chiqdi.

Mixxatning asosi hisoblangan shumer yozuvini oʻqish — materialning sekin yigʻilishi va katta qiyinchiliklar tufayli — ancha keyin, XX asrning birinchi yarmida amalga oshirildi. Bunda F. Tyuro-Danjen, A. Pebel, A. Daymel, A. Falkenshteyn kabi olimlar katta hissa qoʻshgan boʻlib, ular shumer tilining grammatikasi, darsliklari va lugʻatlarini tuzishgan. Hozirgi kunda Pensilvaniya universitetida shumer tilining oʻn sakkiz tomlik yangi lugʻati nashrga tayyorlanayotgan boʻlib, 1992 yilga kelib ikki tomi chop etilgan. Shumer yozuvining ilk bosqichi boʻlgan piktografiya — hali ham toʻliq deshifrovka qilinmagan va tadqiqot jarayonida.

Arxeologik maʼlumotlar. Bilamizki, koʻhna sivilizatsiya markazlarini oʻrganishda, yozma manbalarni oʻrni benihoya katta hisoblanadi. Biroq, yozuvni eramizdan avvalgi III ming yillikda paydo boʻlganligiga hisobga olgan holda arxeologik manbalarga ehtiyoj seziladi. Arxeologik izlanishlar Mesopatamiya hududlaridan paleolit davrlaridan odamlar yashab kelayotganligini tasdiqlovchi koʻplab maʼlumotlarni topgan. Ana shunday paleolit davrining eng qadimiy yodgorliklari — bu zamonaviy Kurdiston hududida joylashgan ovchi-qavmlarga tegishli aholi hududlari (Barda-Balka, Shanidar) hisoblanadi.

Mezolit davri (eramizdan avvalgi XI–VIII ming yilliklar) esa Zavi-Chemi-Shanidar, Mlefaat, Karim-Shaxir manzilgohlarida olib borilgan qazishmalar asosida oʻrganilgan. Bu yerlarda insonlarning yashash tarzidagi yangi shakllar namoyon boʻlgan: qishki mavsumda gʻorlarda, yozda esa daryo boʻylarida istiqomat qilishgan. Shu davrda ishlab chiqaruvchi xoʻjalik — dehqonchilik (arpa va bugʻdoy donlari, chaqmoqtoshdan tayyorlangan oʻroq

boʻlaklari topilgan) va chorvachilik (qoʻy suyagi topilgan)ning boshlanishi kuzatiladi.

Neolit davri (eramizdan avvalgi VII–V ming yilliklar) Mesopotamiyada bir necha arxeologik madaniyatlar bilan namoyon boʻladi. Ular orasida eng muhimlari — Jarmo (miloddan avvalgi VII–VI ming yilliklar), Xassun (VI ming yillik) va Tell-Xalaf (V ming yillik) madaniyatlaridir. Bu davrni oʻrganish uchun asosiy manbalar — manzilgohlar va dafn marosimlaridir. Ushbu yodgorliklar guruhlaridan muhim arxeologik ma'lumotlar olinadi.

Manzilgoxlarning geografik joylashuviyoq shuni koʻrsatadiki, eramizdan avvalgi VII ming yillikda Mesopotamiya vodiysiga Zagros togʻlaridan tushib kelgan togʻ qavmlari tomonidan sharqdan gʻarbga tomon bosqichma-bosqich koʻchib kelish jarayoni boshlangan.

Qazishmalar nafaqat shu davr xoʻjaligining shakllari haqida, balki ularning rivojlanish bosqichlari toʻgʻrisida ham ma'lumot beradi. Madaniy oʻsimliklar donlari inson tomonidan yangi nav va turlarining oʻzlashtirilayotganini koʻrsatsa, mehnat qurollari — yerga ishlov berish va hosil yigʻish texnikasidagi ilgarilashni tasdiqlaydi. Turli xil urugʻ omborlarining mavjudligi hosil miqdorining ortishi va uni saqlash usullarining yaxshilanganidan dalolat beradi. Dambalar qoldiqlari va kanal izlari xassun davridayoq sun'iy sugʻorishning paydo boʻlganini koʻrsatadi.

Jarmodan Xalafgacha boʻlgan davrda xonaki hayvonlar suyaklari asosida chorvachilikning rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich kuzatiladi.

Hunarmandchilik buyumlari topilmalari kulolchilik, toʻqimachilik, zargarlik va toshni ishlov berish kabi hunarlarning rivojlanganini koʻrsatadi. Ayniqsa, sopol ishlab chiqarishga oid materiallar juda koʻp boʻlib, unda Jarmo davridagi oddiy, qoʻlda yasalgan keramikadan tortib, Xalaf davridagi kalavalash va rang-barang boʻyoqlar bilan bezatilgan, shaklli idishlar va figuralargacha koʻrish mumkin. Hunarmandchilik rivojiga metallni kashf etilishi ham ijobiy ta'sir qilgan. Buni Jarmo davri uchun Tell-Sotto qazishmalaridan topilgan ikkita mis tusli toʻgʻnoq va muhr, Xassun davri uchun Yarimtepa I dan topilgan mis toʻgʻnoqlar va pichoq, Xalaf davri uchun esa misdan tayyorlangan xanjarlar va

uskunalarni topilishi isbotlab turibdi. Sopol topilmalari Mesopotamiyaning Kichik Osiyo, Suriya, Eron, Kavkaz va Kavkaz orti bilan iqtisodiy aloqalar oʻrnatganini koʻrsatadi.

Turar joylar, xoʻjalik va madaniy binolar qoldiqlari, koʻcha va yoʻllar yotqizilgan pardoz fragmentlari oʻsha davrdagi meʼmorlik shakllari, qurilish texnikasi hamda foydalanilgan qurilish materiallari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Dafn marosimlarini oʻrganish orqali esa Mesopotamiyada turli etnoslar mavjud boʻlganligi, jamiyatda ijtimoiy farqlanish jarayoni boshlangani, qadimgi diniy eʼtiqodlar va ayniqsa, (dafn) marosimining evolyutsiyasi haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Shunday qilib, yuqorida sanab oʻtilgan moddiy madaniyat yodgorliklari orqali eramizdan avvalgi VII–V ming yilliklardagi, yaʼni neolit davridagi Mesopotamiya hayoti va tarixiy taraqqiyotining umumiy manzarasi yaqqol namoyon boʻladi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari Mesopotamiyaning V ming yillikning soʻngi toʻrtdan biri — III ming yillikning boshlariga toʻgʻri keladigan davri, yaʼni eneolit davri tarixi uchun ham asosiy manba hisoblanadi. Bu davr Eredu, El-Ubayd, Uruk va Jemdet-Nasr kabi ketma-ket rivojlangan arxeologik madaniyatlar bilan ifodalanadi. Ushbu manzilgohlarning Mesopotamiyaning janubida joylashgani qabilalarning yanada janubga, mintaqa ichiga qarab koʻchib borishini koʻrsatadi.

Dehqonchilik xoʻjaligi sunʼiy sugʻorish tizimining yaratilishi hisobidan yuksalish davrini boshdan kechiradi. Hunarmandchilik sohasining rivojlangani haqida maʼlumotlar mavjud. El-Ubayd davrida kulolchilikda kulollik charxining paydo boʻlishi, standart shakllar va geometrik bezaklar bilan bezatish kuzatiladi. Uruk davrida esa tez aylanuvchi kulollik charxi, kulol ustaxonalari va kulrang hamda qizil rangli idishlarning ommaviy ishlab chiqarilishi kuzatiladi. Haykal va bareleflar bilan bezatilgan tosh idishlar, qimmatbaho toshlardan yasalgan muhrlar, ulardagi mifologik, harbiy, ijtimoiy sahnalar va naqshlar, hayvonlarning monumental haykallari — bularning barchasi toshni ishlov berish hunarining yuksalishini koʻrsatadi. Lekin eng yaqqol namoyon boʻlgan taraqqiyot sohasi — bu metallni qayta ishlash hunari: misdan tayyorlangan turli mehnat qurollari, quyish texnikasining

oʻzlashtirilishi (El-Ubayd davri), qimmatbaho metallarni qayta ishlash asosida zargarlik san’atining rivojlanishi (Uruk davri), mehnat qurollari va qurol-yarogʻlarning misdan ommaviy ishlab chiqarilishi, hatto bronzadan tayyorlangan buyumlarning paydo boʻlishi (Jemdet-Nasr davri). Shuningdek, kema va xarobalarning tasvirlari hamda gilimodellari — ushbu davrning eng muhim transport vositalari haqida ma’lumot beradi.

El-Ubayd davrida maydoni 10 gektargacha boʻlgan kichik va yirik manzilgohlar mavjud boʻlgan. Uruk davrida esa hunarmandchilik va savdo markazi boʻlgan ilk shaharlar vujudga keladi. Ushbu davrda turli turdagi turar joylar uchraydi: koʻchma uylar, koʻp xonali uylar, hatto pishiq gʻishtdan qurilgan, qalin va mustahkam devorli saroysimon binolar (masalan, Tell-Ukayrda) mavjud boʻlgan. Har qancha vaqt oʻtgan sayin ibodatxonalarning ahamiyati ortgan: agar eramizdan avvalgi IV ming yillikning birinchi yarmida ular sun’iy platformalar ustida qurilgan boʻlsa, Uruk davrida butun ibodatxonalar majmualari — freskalar, kolonnalar va mozaikalar bilan bezatilgan holda qurila boshlangan. IV–III ming yilliklar chegarasida esa turli markazlarda buyuk ibodatxonalar barpo etilgan: Urukdagi osmon xudosi An uchun “ Oq ibodatxona”, Tepe-Gavradagi uchta ibodatxona, Tell-Brakdagi “muqaddas koʻz” ibodatxonasi shular jumlasidandir. Ibodatxonalarning ma’muriy-xoʻjalik, siyosiy va ideologik markazlar sifatidagi oʻrni yanada ravshanlashgan. Shu bilan birga, harbiy istehkomlar elementlari paydo boʻladi, bu esa ichki va tashqi siyosiy vaziyatning beqarorligidan dalolat beradi.

Ham manzilgohlarda, ham qabrlarda turmush buyumlari – zeb-ziynat buyumlari (toʻgʻnoqlar, bilakuzuklar, osma buyumlar va boshqalar), muhrlar, oʻyin toshlari topiladi. Bu esa oʻsha olis davrlarda yashagan odamlarning qiyofasi va ularning hayot tarzini yanada ravshanroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy farqlanish qabrlar tadqiqotlari asosida aniqlanadi: oddiy yer kavlab yasalgan qabrlar va tosh yoki xom gʻishtdan qoʻyilgan maqbaralar, mulk belgisi boʻlgan muhrlar mavjudligi, relef va muhrlardagi ruhoniy-hukmdorlar tasvirlarining ularga itoat etuvchi shaxslarga nisbatan ancha katta koʻlamda berilgani,

shuningdek, bog‘langan yoki zanjirlangan odamlar tasvirlari kabilar shular jumlasidandir.

Eramizdan avvalgi IV ming yillikning oxirida, Uruk davrida, ilk yozma yodgorliklar paydo bo‘ladi. Ular sopol taxtalarga chizma (piktografik) yozuv bilan yozilgan bo‘lib, protoshumer yozuvi deb nomlangan. Bu yozuvda butun bir tushunchani ifoda etuvchi belgilar soni taxminan 2000 tani tashkil qiladi. Uning mohiyati — xo‘jalik hisobotlaridan iborat hujjatlar: yer uchastkalarini o‘lchash, mahsulot va vositalarning chiqimi va kirimi, kasblar ro‘yxati, joy nomlari va boshqalar. Eng ilk xo‘jalik arxivlari — asosan ibodatxonalarga tegishli — Uruk va Jemdet-Nasrdan topilgan. Qator xo‘jalik hujjatlarida “tog‘li yurt erkaklari” zikr etiladi, bu esa asirlar yoki qullar deb talqin qilinadi. Agar ilgarigi matnlarda bunday shaxslar soni o‘nlab bo‘lsa, keyinchalik bu raqam 700 gacha yetadi. Protoshumer yozuvi hozirgacha to‘liq shifrlangan emas.

Mesopotamiyaning eng qadimgi tarix davriga oid moddiy madaniyat yodgorliklari va qisman yozma manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular asosida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va do‘nyoning eng qadimgi sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan ikki daryo oralig‘ida ilk tabaqalashgan jamiyatning shakllanish jarayonini tarixiy jihatdan xolis tiklash mumkin.

Mesopotamiyada arxeologik qazishmalar XIX asrning o‘rtalaridan boshlangan bo‘lib, dastlab ularni arxeologiya sohasining mutaxassislari emas, balki qadimiy yodgorliklarni izlashga muhabbati baland bo‘lgan havaskorlar amalga oshirganlar.

Qadimgi Mesopotamiyadagi birinchi arxeologik qazishmalar XIX asr o‘rtalarida uning shimoliy qismi Ossuriya joylashgan joyda amalga oshirildi. 1842-yil fransuz diplomati P.Botta Kunjik tepaligini qazishni boshladi. Bu joy mahalliy afsonalarga ko‘ra, Ossuriya davlatining poytaxti Nineviya bo‘lgan. Ammo tepalikni qazish aytarli natija bermagach, P.Botta bu yerda ishni tugatib, Xorsabod qishlogida qazish ishlarini boshladi. Xorsabodda olib borilgan arxeologik qazishmalar o‘z natijasini berdi. Bu yerdan 1843-yil Ossuriya podshosi Sargon I ning Dur-Sharrukin saroyi

qoldiqlari topildi. P.Botta topgan yodgorliklar Luvr muzeyining Ossuriya kolleksiyasi asosi bo‘ldi.

1845-1847-yillarda sharq tillarini yaxshi bilgan ingliz diplomati G. Leyyard Nimrud tepaligi (Kichik Osiyo)da arxeologik qazishma ishlarini boshladi. Ossuriya poytaxti Nineviya hisoblangan Kunjik tepalagidan ossur podsholari saroyi, bu saroydan ulkan odam-ho‘kiz, odam-sher haykallari topildi. Ossuriya podshosi Sinaxxerib (er. avv. VII asr) saroyi uning nevarasi podsho Ashshurbanipalning loy kitoblar bilan to‘la kutubxonasi bilan birga topildi. Leyayrd topilmalari Londondagi Britaniya muzeyi qadimgi Sharq kolleksiyasining asosi bo‘ldi. Leyyardning xodimi U. Rassam Kunjik tepaligida qazish ishlarini davom ettirdi va harbiy manzaralar tasvirlangan ajoyib rel`efli boy podsho kutubxonasi bilan Ashshurbanipalning saroyi qoldiqlarini topdi. Rassam tomonidan Nimrud yaqinidagi Balavat degan joydan er. avv. IX asrga oid Ossuriya yodgorliklari, jumladan, harbiy yurish va xiroj keltirish tasvirlangan 4 jez taxta-Balavat darvozasi qoplamasi topildi.

Ingliz olimlari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida qadimgi Shumer shaharlari Uruk, Larsa va Eredu qazib ochildi. XIX asrning oxirida fransuz arxeologlari Shumer shahri Lagash va uning hukmdorlarini ko‘p sonli haykallari, Gudeaning kumush va alebastr vazalari, “Kalxatlar stelasi”, ibodatxona xo‘jaligi va 3000 yillik tarixga ega Nippur shahrini ochdilar. Nippur xarobalaridan umumshumer xudosi Enlil ibodatxonasi, 6000 loy taxtachadan iborat ibodatxona-kutubxona, saroy, maktab, bozor, do‘konlar, uy-joylar va xo‘jalik binolari topildi. XIX asrda Mesopotamiyadagi arxeologik kashfiyotlar hammani lol qoldirdi. Ammo arxeologik izlanishlar ishqiboz qiziquvchan kishilar tomonidan hech qanday ilmiy rejasiz, ilmiy usullarsiz olib borildi. Bu vaqtda arxeologik qazishmalarning ilmiy usulining ishlab chiqilmaganligi, arxeologiya fanining shakllanmaganligi, havaskor qiziquvchilarning tartibsiz, ilmiy asoslanmagan qazishma ishlari butun-butun madaniy qatlamlarni yo‘qotishga olib keldi. Faqat XX asrning boshlaridan arxeologik izlanishlar qat’iy ilmiy usullarga suyangan holda olib borila boshlandi.Mesopatamiyaning tadqiq etishda nemis olimlarining ham xizmati katta bo‘lgan. Nemis

arxeologi Koldevey bugungi (2025 yil) Iroq poytaxti Bag‘dod yaqinida qadimgi Bobil shahri xarobalarini ochdi. 1899-1917-yillarda Bobil shahri xarobalaridan shahar devorlari, Navoxudonosor II (er. avv. VII asr) saroyi, diniy marosimlar ko‘chasi, bosh xudo Marduk ibodatxonasi, ulkan zikkurat qoldiqlari topildi. Topilgan ko‘plab yodgorliklar asosida Berlin muzeyida alohida ajoyib kolleksiya tashkil etildi.

Mesopotamiyada boshqa nemis arxeologlari tomonidan ham qiziqarli kashfiyotlar amalga oshirilgan. 1903–1914 yillar oralig‘ida V. Andre qadimiy Ossuriyaning ilk poytaxti — Ashshur shahrida arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu yerda podshohlik saroylari, ibodatxonalar, jumladan, oliy ossuriyalik xudo Ashshur ibodatxonasi, podshohlik qabrlari, aholi turar joylari va ko‘chalarning xarobalari aniqlangan.

Nemis arxeologlari (ular orasida R. Koldevey va V. Andre) shuningdek, zamonaviy Fara qishlog‘ida ham qazish ishlarini olib borishdi. Bu yerda qadimgi shumer shahri Shuruppaka qoldiqlari, shu jumladan, eng ilk xo‘jalik matnlari jamlangan kutubxona topildi. Boshqa bir joy — Bobil atrofidagi Borsippa shahrida balandligi 49 metrga teng zikkuratning qoldiqlari ochildi. Shuningdek, shumerlar shahri Umma ham aniqlangan. Birinchi jahon urushi tufayli ma’lum muddatgacha Mesopotamiyadagi arxeologik qazishmalar to‘xtab qoldi. 1920–1930-yillarda bu hududda arxeologik ishlar qayta jonlandi.

1933–1939 yillar davomida fransiyalik arxeologlar, A. Parro rahbarligi ostida, qadimgi Mari shahrida qazishmalar olib borishdi. Bu ishlar natijasida eramizdan avvalgi II ming yillik boshlariga taalluqli bo‘lgan ulkan saroy ochildi. Ushbu saroy Mari podshohi Zimrilim tomonidan qurilgan bo‘lib, u 20 000 dan ortiq xo‘jalik va diplomatik hujjatlar saqlangan arxivga ega edi.

Qazishmalar shunchalik samarali kechdiki, ular Ikkinchi jahon urushi sababli vaqtincha to‘xtagan bo‘lsa-da, keyinchalik qayta boshlanib, 1970-yillarning o‘rtalariga qadar davom ettirildi. Qazishmalar jarayonida yana uchta saroyning (miloddan avvalgi IV va III mingyilliklar) qoldiqlari, hosildorlik ma’budasi Ishtar ibodatxonasi, dafn marosimiga oid ob’yektlar hamda yangi loy taxtachalari aniqlandi.

1922–1934 yillar davomida ingliz arxeologi L. Vulli rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan qadimgi Ur shahrida izchil arxeologik qazishmalar amalga oshirildi. Ushbu ishlar natijasida IV mingyillik miloddan avvalgi davrdan boshlab to miloddan avvalgi IV asrgacha bo‘lgan shahar tarixini tiklash imkonini beradigan bir qator yodgorliklar ochildi. Ular qatorida oy xudosi Nannar va uning rafiqasi — Ningal ma’budasiga bag‘ishlangan ibodatxonalar, eramizdan avvalgi III ming yillikning oxiriga taalluqli zikkurat (Ur-Nammu podshoh tomonidan qurilgan), ilk dinastiyalar davriga mansub podshohlik qabrlari, maktablar, ustaxonalar, bozor, port, mehmonxona, yashash kvartallari, ibodatxona, davlat va xususiy arxivlar mavjud edi.

Mesopotamiyaning chekka hududlarida ham arxeologik qazishmalar olib borilgan. 1925–1930 yillar oralig‘ida Amerika arxeologlari Arrapxadagi qazishmalar paytida uchta tepalik ostida sitadel, saroylar, ibodatxonalar, xo‘jalik va turar joy binolari, shuningdek, eramizdan avvalgi II mingyillikka oid yirik arxivlarni aniqlashdi.

1930–1936 yillarda esa Amerika olimlari tomonidan Diyala daryosining havzasida joylashgan, kichik mesopotamiya qirolliklaridan biri bo‘lgan qadimgi Eshnuna shahri topildi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Mesopatamiyaning tadqiq etish jarayonlarida Iroqlik arxeolog va tarixchilar ham faol ishtirok eta boshladilar. Olimlar fikricha bu davrdagi o‘rganishlarni o‘ziga hos tarzda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Birinchidan, Avvalo, arxeologik tadqiqotlarda mahalliy tadqiqotchilar, yevropalik va amerikalik hamkasblari bilan bir nechta yangi madaniy makonlarni aniqlashga erishdilar. Jumladan, Eshnunna podsholigi hududida joylashgan Shaduppum shahrida Faud Safar va Taxa Bakir rahbarligida o‘tkazilgan qazishmalar davomida Eshnunna qonunlari (70 tacha moddadan iborat bo‘lgan) deb nom olgan eng qadimiy huquqiy majmualardan biri bitilgan gili tablichkalar, shuningdek, matematik tablichkalar va boshqa yodgorliklar topildi[46].

[46] Seminar jarayonida ushbu qonunnomalarni qiyosiy taxlil qiling: Ur-Nammu, Eshnunna va Xammurapi.

Iroqlik olimlar Eredu shahrida ham arxeologik ishlar olib bordilar va bu yerda 14 ta madaniy qatlamning aniqlab, mazkur janubiy shumer shahrining nihoyatda qadimiy ekanligini asoslab berdilar.

1950–1960-yillarda iroqlik arxeologlar Nabi-Yunus tepaligida qazishmalar olib borishdi. Bu tepa ostida qadimgi Nineviya shahri qoldiqlari mavjud bo‘lib, ular orasida Ossuriya podshohi Asarxaddonning saroyi, harbiy arsenal, xo‘jalik binolari va ko‘plab yozma hujjatlar topildi.

Bog‘dod va boshqa shaharlar muzeylari o‘z kolleksiyalarini jiddiy ravishda boyitdi. Ilgarigi davrlarda topilgan ashyolar ko‘p hollarda Yevropaga va Amerikaga olib ketilar yoki mahalliy aholi tomonidan sayyohlarga sotilar edi. Endilikda esa muzeylar o‘z kolleksiyalariga oid materiallarni nashr eta boshladi.

Bag‘dodda chop etiladigan milliy jurnal — “Sumer”[47] muntazam ravishda qazishmalar natijalari va yangi hujjatlarni e’lon qilib boradi.

Iroqda arxeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish maqsadida Qadimiy yodgorliklar bo‘yicha Bosh direktorat (Generallik direksiyasi) tashkil etildi. Bu o‘z navbatida ko‘plab qadimiy yodgorliklarni ta’mirlash imkoniyaini yaratib, jumladan, istiqbolda qadimgi Bobilning tiklanishi va uni muzey-turizm markaziga aylantirish loyihasi ham ishlab chiqilgan edi.

Bugungi Bobil haqida. Afsuski, tarixiy rivojlanish jarayonlariga e’tibor bersak, aksar hollarda yirik sivilizatsiyalar urushlar va bosqinlar oqibatida inqirozga yuz tutganligini ko‘ramiz. Bu holat Mesopatmiya sivilizatsiyasiga ham xosdir. 2003 yildagi AQSh boshchiligidagi harbiy harakatlar (Iroq urushi) Iroqdagi ko‘plab tarixiy yodgorliklarga, jumladan, Bobil shahrining arxeologik yodgorliklariga ham jiddiy va salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Arxeologik maydonning harbiy bazaga aylantirilishi natijasida yuzlab yillar davomida saqlanib kelingan arxeologik qatlamlar buzib yuborildi. Qadimgi Ishtar darvozasi, Nabukadnesarning saroy devorlari, zikkurat asoslari va boshqa bir qancha me’moriy qismlar mexanik shikast ko‘rdi. Bu

[47] Bag‘dodda chop etiladigan milliy “Sumer” jurnali muntazam ravishda qazishmalar natijalari va yangi hujjatlarni e’lon qiladi” (Sumer, Bag‘dod).

urushlarning moddiy zararidan tashqari ma’naviy zarari ham katta bo‘ldi. 2003 yildagi xaos paytida Bag‘dod arxeologiya muzeyi (Iroq milliy muzeyi) talon-taroj qilindi. Minglab qimmatli ashyolar, jumladan Bobil, Ur, Nippur kabi shaharlardan topilgan nodir eksponatlar o‘g‘irlab ketildi.

2004 yilda YUNESKO va xalqaro arxeologlar AQSh harbiylarini Bobilga yetkazilgan zarar uchun tanqid qildi. 2009 yilda AQSh harbiylari hududni Iroq rasmiylariga qaytardi. 2019 yilda YUNESKO Bobilni Butunjahon Madaniy meros ro‘yxatiga kiritdi, biroq “xavf ostidagi meros” sifatida qayd etildi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2003 yilgi harbiy harakatlar Bobil shahrining noyob va qadimiy arxeologik merosiga katta zarar yetkazdi, bu esa faqat Iroq uchun emas, balki butun insoniyat tarixi uchun ham yo‘qotish hisoblanadi. Hozirda Iroq va xalqaro tashkilotlar tomonidan tiklash va muhofaza qilish ishlari olib borilmoqda, ammo Bobilning asl tarixi shaklida tiklanishi uzoq vaqt va murakkablikni talab qiladi[48].

Mesopotamiyani arxeologik jihatdan o‘rganishda 1950–1980-yillar davriga xos ikkinchi muhim xususiyat — bu XIX asr va XX asrning boshlarida qazilgan yodgorliklarga yangidan, ammo zamonaviy ilmiy metodlar bilan qurollangan holda qaytishdir.

Masalan, nemis arxeologlari Uruk shahrida izchil qazish ishlarini amalga oshirdilar. Ular III mingyillikka oid ziyoratgohni, hosildorlik ma’budasi Inannaga bag‘ishlangan ibodatxonani, shaharning qadimgi devorini (pishmagan g‘ishtlardan qurilgan — afsonaviy Uruk hokimi Gilgamish devori deb ham yuritiladi), hunarmandchilik ustaxonalarini, boy jihozlangan dafn marosimlarini hamda ossuriya va bobil podshohlarining yozuvlarini tadqiq etdilar.

Angliyalik arxeologlar esa, M. Mellouen rahbarligida, ularning vatandoshi Leyyard tomonidan avval ochilgan Nimrud tepaligiga yana qaytdilar. Bu yerda “Salmanasar qal’asi” deb nomlangan mustahkam sitadel qazildi. Qal’a murakkab minora va devorlar, kazarmalar, rasmiy qabulxonalar, xo‘jalik omborlari va eramizdan avvalgi IX–VII asrlarga oid ossuriya podshohlarining saroylari hamda bir nechta ibodatxonalarni o‘z ichiga olgan.

[48] Shunga o‘hshash holatlar: Suriya, Falastin hududlari misolida ma’lumotlar to‘plab muhokama qiling.

Amerika arxeologlari esa Nippur shahridagi qazish ishlarini qayta boshladilar. Bu shahar yanada katta miqdorda yozma hujjatlar bilan ta’minladi. Mazkur davrda Mesopotamiyadagi arxeologik tadqiqotlarda AQShning Pensilvaniya va Chikago universitetlari yetakchilik qilgan.

Uchinchi xususiyat — arxeologlarning Mesopotamiyaning eng qadimgi davrlariga, ya’ni uning tarixgacha bo‘lgan bosqichlariga murojaat qilishidir[49]. Endi diqqatni jalb etuvchi va sayohatchilar, xazina qidiruvchilar va rassomlarni o‘ziga tortadigan diqqatga sazovor vayronalar emas, balki tashlab qo‘yilgan g‘orlar va ko‘zga ko‘rinmas tepaliklar arxeologik tadqiqotlar ob’ektiga aylandi. Ana shunday ishlar natijasida Shanidara g‘oridagi paleolit davriga oid odam maskanlari, neolit davriga oid Jarmo, Xassun va boshqa qadamjolar topildi. Bu Mesopotamiya tarixining dunyoga noma’lum bo‘lgan eng qadimgi sahifalarini ochdi.

Shu tarzda — qadimgi Ossuriya saroylaridan to paleolit davri g‘orlarigacha — ushbu mamlakatning o‘tmishi arxeologik jihatdan tadqiq qilindi. Ilk paytlarda kuzatilgan diletantlik (noilmiy yondashuv) o‘z o‘rnini haqiqiy ilmiy metodikaga bo‘shatdi. Arxeologiya endi sensatsion ashyolarni izlashdan voz kechib, Mesopotamiya tarixidagi butun bir bosqichlarni yoritish, uning eng muhim muammolarini hal qilish vazifasiga o‘tdi.

Xorijiy tadqiqotchilarning asosiy faoliyat yo‘nalishlari. Tarixchi olimlar ilmiy xulosalariga ko‘ra Ossuriyalogiya ilmining shakllanishi murakkab jarayon bo‘lgan. XIX asrda ossuriyalogiya yodgorliklari asosan Bibliya ma’lumotlarini tasdiqlash yoki rad etish uchun qo‘llanilgan.

Mesopotamiya madaniyatining qadimgi manbalari aniqlanishi, ayniqsa bibley mifologiyasining ko‘plab syujetlari Mesopotamiya namunalariga bog‘liq ekanligi aniqlanishi bir tomondan ossuriyalogiyani bibley tanqididan ozod qildi, ikkinchi tomondan esa Shumer-Bobil madaniyatining Yaqin Sharq va butun dunyo sivilizatsiyalari rivojiga qo‘shgan hissasi katta ekanini yangicha baholashga olib keldi. Bu “panbobilchilik”

[49] Tarixigacha bo‘lgan bosqich degani - Mesopotamiyaning yozma manbalar paydo bo‘lishidan oldingi davrlari, ya’ni paleolit (tosh asri), mezolit va neolit (ya’ni er dehqonchiligi va chorvachilik boshlangan davrlar) nazarda tutilmoqda.

nazariyasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi va bu nazariya XIX asr oxiri – XX asr boshida, ayniqsa nemis ossurologlari orasida keng tarqaldi.

Ossuriyalogiyaning rivojlanishi asosan arxeologik qazilmalar orqali topilgan katta hajmdagi manbalarning chop etilishi bilan rag‘batlantirildi. Bu jarayonda birinchi tashabbuskorlaridan biri mixxatni o‘quvchi G. Raulinson bo‘ldi. Britaniya muzeyi gravyori Dj. Smitning nomi tarixga munosib kirdi. U mixxatni mustaqil o‘rganib, akkad tilidagi ko‘plab adabiy, ilmiy, diniy matnlar, yozuvlar, letopislar va ma’muriy hujjatlarni topib, tarjima qilib, nashr etdi. Smit katta vaqt va mehnatni “Gilgamesh eposi”ni qism-qism to‘plashga sarfladi. Ammo yosh olim o‘zining uchinchi ekspiditsiyasini amalga oshirish vaqtida Suriya cho‘lida xoleradan vafot etdi.

XIX asr oxiridan boshlab Yevropa muzeylarida saqlanayotgan mixxat hujjatlarining ko‘p tomlik nashrlari chiqarildi. XX asrning ikkinchi yarmida bu ishlar yanada faollashdi va unga AQSh olimlari ham qo‘shildi. Masalan, AQShlik shumerolog S. Kramer bir necha o‘n yil davomida AQSh, Turkiya, Iroq va boshqa bir qator davlatlar muzeylaridagi shumer hujjatlarini nashr qilish, tarjima va o‘rganish ishlarini olib bordi, jumladan Pushkin nomidagi Davlat rassomlik san’ati muzeyidan ham manbalarni kiritdi. Biroq mixxat hujjatlarining katta qismi hali chop etilmagan bo‘lib, bu ilmiy xulosalarning yangilanmay qolishiga sabab bo‘lmoqda.

XIX asr oxiridan boshlab Mesopotamiya tarixi bo‘yicha umumiy asarlar yaratila boshlandi. Ular orasida nemis tarixchilari K. Besold va B. Maysner, AQShlik olimlar A. Olmsted, A.L. Oppengeym va boshqalarning tadqiqotlari alohida ajralib turadi.

Ossuriyalogiyaning 100 yildan ortiq rivojlanish davrida xorijiy ilmda quyidagi masalalar eng ko‘p o‘rganildi:

Siyosiy tarix va davlat qurilishi muammolari: Lekin ba’zi tadqiqotlarda sharq despotizmining idealizatsiyasi, uning abadiy va o‘zgarmas ekanligi tasavvurlari, urushlarni millat mentaliteti yoki xarakteriga bog‘lash va hatto siyosiy sabablar bilan izohlash kabi qarashlarni uchratish mumkin. 1940-50-yillarda Daniya-Amerika shumerologi T. Yakobsen Shumerda davlatchilik

shakllanishining turli bosqichlarini, ya’ni ilk demokratiyadan despotizmga o‘tishni tadqiq etdi.

Qonunchilik muammolari: Buyuk ahamiyatga ega, chunki qadimiy Sharq mamlakatlari orasida eng ko‘p huquqiy yodgorliklar Mesopotamiyadan topilgan. Xususan, Hammurapi qonunlari ko‘p tadqiq qilingan. Bundan tashqari, Ur –Nammu, Eshnunna qonunlari ham qisman o‘rganilgan.

Madaniyat va din: Mesopotamiya madaniyatining turli jihatlari: paydo bo‘lishi, mifologiyasi, adabiy yodgorliklari, san’at xususiyatlari, ilmiy bilimlarning shakllanishi, Shumer, Bobil va Ossuriyaning hissasi, shuningdek boshqa qadimiy Sharq xalqlari madaniyatiga ta’siri keng o‘rganildi. Bu qiziqishning bir qismi “panbobilizm” g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, uning namoyandalari F. Delich, G. Vinkler, A. Ieremiyas kabilar edi. B. Maysner va K. Besoldning asarlari bundan ko‘ra tanqidiy va o‘lchovli hisoblanadi.

Etnogenez va Shumerlar paydo bo‘lishi: Mesopotamiyadagi xalqlar, ayniqsa Shumerlar va ularning semit tilli xalqlar bilan munosabatlari masalalariga katta e’tibor berildi.

Iqtisod va ijtimoiy munosabatlar: Xorijlik tadqiqotchilar bu sohalarga kamroq e’tibor bergan. Bu muammolarni o‘rganish uchun jamiyat tarixi va rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda to‘g‘ri metodologiya zarur edi. XIX asr oxiri – XX asr boshida Edvard Meyerning “siklizm” nazariyasi keng tarqalgan edi: sivilizatsiyalar feodalizmdan boshlanib, kapitalizmga yetib, ichki ziddiyatlar oqibatida yopiladi va sikl takrorlanadi, deb hisoblanar edi. Ushbu nazariyada Sharq jamiyati doimiy feodalizm holatida ko‘riladi. Shuning uchun XX asr boshida, ayniqsa nemis ossurologlari B. Maysner, P. Koshaker va boshqalar qadimgi Mesopotamiya jamiyatini feodal deb baholagan.

Tarixiy jarayonlarning noaniqligi va tartibsizligi nazariyalari G‘arbda keng tarqalgan bo‘lib, Mesopotamiya jamiyatlari rivoji muammolarini chuqur o‘rganishga ko‘mak bermadi. Asosiy yo‘nalish faktografiya bo‘lib, ko‘proq filologik qirrasi bor edi.

So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tuzilma, iqtisodiyot, shaharlar shakllanishi, hunarmandchilik va savdo, ibodatxona xo‘jaligi kabi masalalar bo‘yicha keng tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ma’muriy hujjatlar nashr

qilinmoqda (A. Falkenshteyn, A.L. Oppengeym, I. Gelb, V. Lemans, A. Salonen va boshqalarning asarlari).

Ossuriyalogiya maktablari taraqqiyotiga kelsak, dastlab bu ilm Angliya va Fransiyada shakllandi. XIX asr oxiri – XX asr boshida markaz Germaniyaga ko‘chdi, bu yerda qiziq, biroq ba’zan noto‘g‘ri nazariy ishlanmalar yuz berdi, katta filologik baza yaratildi va ilmiy tayyorlangan arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Fashistik diktatura o‘rnatilgach, Germaniya va Yevropa olimlari AQShga ko‘chib o‘tishdi. Hozirda AQShda dunyoga mashhur ossurologiya markazlari faoliyat yuritmoqda. Chikagoda 30 tomlik akkadcha lug‘at tuzilmoqda.

Hozirgi kunda AQSh ossuriyalogiya markazidan tashqari Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderland, Germaniya, shuningdek Turkiya, Iroq va Isroilning sharqiy maktablari ham katta nufuzga ega. Chexiya ossurologiya maktabi B. Grozniy tomonidan asos solingan bo‘lib (Y. Klima, V. Souchek kabilar) mashhurdir. Polsha (Yu. Zabloska, K. Lichkovska) va Vengriya (G. Komorotsi) ossurologlarining asarlari ham tanilgan.

Mesopotamiya tarixini rus va sovet davri ilmida o‘rganish.

Rus “Ossuriyalogiya maktabining” asoschisi sifatida munosib tarzda M.V. Nikolskiy hisoblanadi. Uning katta ahamiyatga ega bo‘lgan ikki tomlik asari — “Eng qadimgi Xaldeyning iqtisodiy hujjatlari” (1908; 1915)da III ming yillikdan oldingi davriga mansub 500 dan ortiq iqtisodiy hujjatlar nashr etilgan va tahlil qilingan bo‘lib, ular akademik N.P. Lixachyov kolleksiyasidan to‘plangan edi. M.V. Nikolskiyning o‘g‘li N.M. Nikolskiy esa Mesopatamiyaning jamoat tarixi va qullikka oid, shuningdek, Bobil madaniyati haqida bir qator ilmiy asarlar e’lon qildi.

Ossuriyalogiyaning rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlar sirasiga B.A. Turayev kiradi, u o‘zining yirik asari — “Qadimgi Sharq tarixi”da Mesopotamiya madaniyati va tarixi masalalariga alohida e’tibor qaratadi. V.K. Shileyko esa Qadim Mesopotamiyaning adabiy, mifologik va tarixi asarlarini ravon tarjima qildi.

XX asr boshida rus ilmidagi eng yaxshi an’analar oktyabr inqilobidan keyin shakllana boshlagan sovet ossurologiyasining

asosini tashkil etdi. Sovet ossuriyalogiyasi tarixiy materializm metodologiyasiga asoslanib rivojlandi va xorijiy ilmdan fundamental jihatdan farq qildi. 1920–1950-yillarda uning rivojiga katta hissa kiritgan olimlar sirasiga akademiklar V.V. Struve va A.I. Tyumenev kiradi. A.I. Tyumenev III ming yillikdan oldingi Mesopotamiyada yer mulk va ijtimoiy munosabatlar muammolari bilan samarali shug‘ullandi. Uning tadqiqotlari natijasida “Qadimgi Shumer davlat xo‘jaligi” (1956) monografiyasi yozildi.

V.V. Struve esa juda ko‘p qirrali olim bo‘lib, “Qadimgi Sharq tarixi” (1941), kollektiv asar “Jahon tarixi”da ishtirok etdi, tarixiy xronologiya masalalarini hal qilishga hissa qo‘shdi, jamoa, ibodatxona va saray o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o‘rgandi. Uning diqqat markazida erta dinastik Lagash tarixi turdi. U Mesopotamiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xususan, Ur III dinastiyasi podshohlik qullik latifundiyalari haqidagi tadqiqotlar asosida qadimiy sharq jamiyatining qullikka asoslangan xarakterga ega ekanligi haqidagi xulosalarni yuzaga chiqardi. Bu xulosalar sovet sharqshunoslari tomonidan keyingi vaqtlarda qabul qilindi, ammo 1930 va 1960-yillarda qullik, osiyolik va feodal ishlab chiqarish usullari tarafdorlari o‘rtasida qattiq bahs-munozaralar bo‘ldi.

Ossuriyaloglar maktabi sekin-asta shakllana boshladi. Ular orasida I.M. Dyakonov alohida o‘ringa ega bo‘lib, uning tadqiqotlari markazida Qadim Mesopotamiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi turdi. I.M. Dyakonovning nazariyasida qadimiy sharq jamiyatlari rivojlanish yo‘llari, davlat va jamoat-xususiy iqtisodiy sektorlar munosabati, qadimiy sharqdagi qullik tabiati, jamoa, shaharlar va savdo roli, qadimiy sharq davlatlarining rivojlanish bosqichlari va tipologiyasi kabi muammolar o‘rin olgan. U o‘zining benazir konsepsiyasi orqali Qadimiy Sharqning jahon sivilizatsiyalari tizimidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlab berdi. Shuningdek, u Qadimiy Mesopotamiyaning adabiy, tarixiy va huquqiy yodgorliklarini nashr etishga katta hissa qo‘shdi. Olimning tadqiqotlarida yozuv va ushbu hududda yashagan xalqlar tillarini o‘rganish masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

1950–1990-yillarda sovet ossurologiyasi koʻplab ilmiy muammolarni hal qildi. Ular orasida M.A. Dandamayev Bobilning keyingi davridagi qullik va boshqa bogʻliqlik shakllarini, qadimiy Sharq uchun muhim ijtimoiy toifalardan biri — yozuvchilarning hayotini oʻrgandi. Birlamchi jamoaviy jamiyatdan ilk darajali qavmlar jamiyatiga oʻtish masalasi Mesopotamiyaning boy arxeologik materiallari asosida V.M. Massonning asarlarida ochib berildi. Hozirgi paytda davlat va huquq, adabiyot va san'at masalalari, mixxat hujjatlari tadqiq etilmoqda va muzeylarida saqlanayotgan manbalar nashr etilmoqda.

Sovet olimlari qadimiy Mesopotamiya yodgorliklarini arxeologik oʻrganishda faol ishtirok etib, 1969 yildan boshlab Iroqning shimol gʻarbidagi hududlarda qazish ishlarini olib bormoqdalar. Ular VIII–IV ming yilliklarga mansub erta dehqonchilik mahallalarini oʻrganganlar. Qazishlar materiallari va ularning tahlil natijalari (P.M. Munchaev, N.Ya. Merpert va boshqalar) nashr etilgan. Ossuriyalogiyasining yutuqlari koʻp tomlik akademik asar — "Qadimgi Sharq tarixi" (1-2 j., M., 1983–1988)da umumlashtirilgan.

Ilk shahar davlatlar oʻrtasidagi raqobat. Qadimgi Shumer shahar-davlatlari daryo boʻyidagi unchalik katta boʻlmagan sugʻoriladigan yerlarda joylashgan edi. Uning atrofida shaharga tegishli qishloqlar boʻlgan. Shahar-davlatlar bir-biridan uzoq joylashmagan boʻlib, ular orasida doimiy savdo va madaniy aloqalar mavjud edi. Gʻarb olimlarining fikricha, qadimgi Shumerning eng qadimgi shahri Eredu hisoblangan.

Shunday boʻlsa-da "buyuk toʻfondan keyin[50]" Kish shahri Shumerda gegemonlikni qoʻlga kiritadi. Ikki daryo oraligʻida Kishning ilk podshosi sifatida afsonaviy Gaur ismli shaxs tilga olindi. Soʻngra, taxtga Gulla-Nidaba-Annapad kelishi manbalarda ta'kidlanadi. Ularning hukmronligi davri borasida hozirga qadar olimlar orasida munozarali fikrlar mavjud. Ayniqsa, I Kish sulolasining oʻn uchinchi podshosi Etana davrida Kish shahri yuksaldi. Shumerda siyosiy barqarorlik yuzaga keldi. Rivoyatlarga koʻra, hukmdor Etana, xudolar oldiga "tugʻilish maysasi"ni olish va

[50] Shunday afsona haqida qadimiy diniy – falsafiy kitoblarda ma'lumotlar keladi. Shu haqida Referat tayyorlang va bahs uyushtiring.

merosxo‘r voris tilab osmonga ko‘tarilganligi ta’kidlanadi. Qadimgi Mesopotamiyada “Kish lugali[51]” unvoni uzoq vaqt katta obro‘ga ega bo‘lgan. Keyinchalik bu maqom, Shumer shahar-davlatlarida taxtga da’vogar podshoning hokimiyatni qonuniylashtirish timsoliga aylanib qolgan.

Kishning zaiflashuvi Urukning yuksalishi bilan boshlangan. Mil. avv. 2675 yillar atrofida Kish shahrini lugali Aggi Uruk shahrining eni Gilgamishga urukliklar bilan irrigatsiya ishlarida qatnashishni talab qiladi. Gilgamish esa, Kish lugaliga rad javobini berdi. Shundan so‘ng, Aggi Urukni o‘z qo‘shini bilan qamal qiladi. Ammo tez orada mag‘lubiyatga uchraydi. Gilgamish Kish ustidan g‘alabaga erishadi. So‘ngra Shumer yerlarini birlashtiradi va uning shaxsi ilohiylashtiriladi. Urukning I sulolasi vakillari Urnungal, Utulkalama, Laba Shum, Ennuntaraxana va boshqa podsholar davrida Uruk, Shumerda gegemonlikni saqlab turdi. Masalani tahlil qilayotganda, qiyoslash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblandi. Ya’ni, Mesopatmiyada qulay vaziyat bo‘lganda shahar davlatlar o‘zlarining ta’sir doiralarini kengaytirishga uringanlar va harbiy bosqinlar amalga oshirilgan. Shu sababdan, biz huddi Misrdagidek, yagona markazlashuvni bu davrda Mesopatamiyada ko‘rmaymiz.

Keyinchalik Ur shahar-davlati Janubiy Mesopotamiyada ustunlikni qo‘lga kiritdi va Urning I sulolasi podsholari gegemonligi boshlanadi. Er. avv. 2563-yili Ur shahrida taxtga lugal Mesanepada chiqadi. U “Kish lugali” unvoniga ham ega bo‘lib, butun Shumerda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Ur shahar-davlati o‘z rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga yetadi. Bu yerda lugallar uchun hashamatli binolar quriladi. Keyinchalik siyosiy qarama-qarshiliklar kuchayishi natijasida Ur shahar-davlati zaiflashib, Lagash shahri ustunlikka erishadi.

Lagashning Shumerda gegemonlik uchun kurashida, asosiy dushmani Umma shahri edi. Er. avv. 2450-yilda Eanatum, Lagash shahrining lugali unvoniga sazovor bo‘ladi. So‘ngra Umma shahar-davlati eni Ushni jangda yengadi. Ummaliklar, Lagashda ehtiromli hisoblangan Ningisu va Nanshe (baliqchilik ilohasi) xudolari

[51] Lugal – bu urush paytida xalq yig'ilishi tomonidan harbiy harakatlarga rahbarlik qilish uchun saylanadigan Shumer shahar-davlatining harbiy rahbari.

ibodatxonasi foydasiga, bug‘doy bilan o‘lpon to‘laydigan bo‘ldilar. U deyarli barcha Shumer shaharlarini (Nippurdan tashqari) bo‘ysundirib, mamlakatni elamliklar[52] bosqinidan asrab qoladi. Vaqt o‘tib Lagash podsholari Enannatum I, Entemena, Enannatum II, Enentarzi, Lugalanda va boshqalar davrida Lagash shahar-davlati Shumerda ustunlikni saqlab turadi. Er. avv. 2319-yilda Lagashda Urukagina (yoki Uruinimgin) hokimiyatga keladi.

Yangi hukmdor ijtimoiy qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun islohotlar yo‘lini tanlaydi. Ibodatxonalarning oliy kohinlari soliqlardan ozod qilinadi. Lugal Urukagina (mashhur tarixchi I.M.Dyakonovning fikricha) zodagonlar va kohinlar tabaqasi vakili sifatida, davlat amaldorlarining ibodatxona yerlarini nazorat qilishiga qarshi kurashadi. Ibodatxonalarning qaram kishilarga natural mahsulot

to‘lovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlandi. Soliqlar tartibga solinib, bevalar va yetimlar davlat himoyasiga olindi. Soliq yig‘uvchilar va mansabdor shaxslar sonini kamaytirdi. Jamoalarning o‘z-o‘zini boshqarish tizimi tiklandi. Lekin ichki nizolar Lagashni kuchsizlantiradi.

Bu orada podsho Lugalzagisi (er. avv. 2336-2311 y) boshchiligida Umma va Uruk shahar-davlatlari birlashdi. So‘ngra Lugalzagisi Lagashni bosib olib, Shumerda uzoq vaqt gegemonlik qildi. Umma shahar-davlati nazoratidagi hudud O‘rtayer dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar kengaydi.

Shumerdagi davlatchilikni tahlilidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin, birinchidan Shumer sivilizatsiyasi bu daryo bo‘yida shakllandi, turli shahar davlatlar jumladan, Kish, Uruk, Ur Lagash vaziyatga qarab hokimyatni qo‘lga oldidar va ma’lum muddatdan ketma - ket holda butun millodan avvalgi uch ming yillikda Mesopatmiya hududlarini boshqarishga harakat qildilar.

Akkad davlatining kuchayishi va hukmronligi. Davlatchilikni rivojlanishi er. avv. III ming yillik oxirlariga kelib janubdan shimolga ko‘chdi. Bu albatta, janubni kuchsizlanishi va shimolda qudratli hokimiyatni paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holatdir. Bunda albatta, tarixda munosib iz qoldirgan aslida quyi tabaqadan chiqqan, hukmdor Sargonning xizmati kattadir. Sargon

[52] Elam – qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri, hozirgi Eron hududlariga to‘g‘ri keladi.

I (er. avv. 2316-2261 y) o‘zini Akkadda “Sharrum-ken” (ya’ni asl podsho ma’nosida) deb e’lon qiladi. Podsho bo‘lguniga qadar oddiy suv tashuvchining tutingan o‘g‘li (asl otasi haqida ma’lumot yo‘q) bo‘lib, o‘zi esa bog‘bon bo‘lgan edi. So‘ngra Kish lugali Ur-Zababaning xizmatkori (sharob quyuvchisi) bo‘lgan. Ayrim afsonlarda aytilishicha uning onasi kambag‘al ayol bo‘lib, o‘g‘lini boqa olmay qamishdan yasalgan savatga solib Frot bo‘yiga tashlab ketgan. Mabuda Ishtar uni yoqtirib qolib, uni Akkadga podsho qilib qo‘ygan. Ayrim tarixchilar ma’lumtiga ko‘ra Akkadlar semitlarga mansub hisoblangan.

Lugalzagisi Kishni egallagach, shimolroqda Akkadi shahriga yetadi va kichik shahar-davlatni qudratini oshiradi. Tarixda birinchi marta Sargon I taxminan 5400 askardan iborat yaxshi qurollangan muntazam qo‘shin tuzadi. Askarlar podsho hisobidan ta’minlanar edi. U Shumer shimolidagi Akkad davlatiga asos soldi. Umma hokimi Lugalzagisi uni qo‘llagan 50 hukmdor bilan uzoq urush olib bordi. Natijada Sargon I kuchli qo‘shin bilan Shumer shaharlarini birin-ketin istilo qiladi. Lugalzagisi esa qatl etiladi[53] va Uruk mudofaa devorlari buziladi. Keyinchalik podsho Sargon I shaxsi afsonalarda ilohiylashtirish darajasigacha ulug‘langan edi.

Yangi hukmdor “Kish lugali” maqomiga ham sazovor bo‘ldi. Sargon I podsholigi davrida butun Mesopotamiyani o‘z davlati qo‘l ostiga birlashtirdi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto, uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurushlar qildi. Akkad qadimgi dunyoning eng kuchli davlatlaridan biriga aylanadi.

Sargon I davlati Mesopotamiyadagi shahar-davlatlardan farq qilgan holda markazlashgan hududiy davlat edi. Sargon I va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, savdo-sotiq, sun’iy sug‘orishga asoslangan ziroatchilik rivojlandi. Uning yakka hokimlikka (yoki tiraniyaga) asoslangan hokimiyati zodagonlar va oqsoqollar kengashining qarshiligiga olib keldi. U o‘z hokimiyatini kuchaytirish uchun xizmatidagi zodagonlar, amaldorlar va ayrim hollarda kohinlarga tayanib ish ko‘rdi. Sargon I, Akkad shahri homiy xudosi Aba va Kish shahri ilohi Zababalarni ulug‘ladi. Shu bilan birga Nippurdagi Shumerning umumiy xudosi Enlilga ham

[53] Manbalarda uni xudo Enlila sharafiga qurbonlik qilgan.

hurmat bajo keltirdi. Hukmdor ayrim shaharlarning hokimlarini oʻzi tayinlar edi.

Sargon I tashkil etilgan muntazam qoʻshinga doimiy ravishda gʻamxoʻrlik qiladi.

Jangchilarga harbiy xizmatiga qarab yer ajratib berdi. Podsho Sargon I tashkil qilgan davlatda hokimiyat toʻla monarxga tegishli boʻlib, keyin uning merosxoʻrlariga oʻtishi kerak edi. Shumer shahar-davlatlarining hududi Sargon I davlatining viloyatlari boʻlib qoldi. Ularning tepasida turgan ensi yoki lugal podsho noiblari hisoblanar edi. Ibodatxona xoʻjaligi va mulklari esa, podsho davlat xoʻjaligining bir qismi edi. Sargonning qoʻlida katta miqdorda iqtisodiy kuch toʻplanib, uning yordamida ichki isyonlar va faol tashqi siyosat yuritish uchun harbiy qismlarni saqlab turush mumkin boʻldi. Mamlakatni 55 yil boshqargan Sargon oʻzini “toʻrt iqlim poshosi” deb atagan. Uning hukmronligini oxirlarida Mesopatmiya va boshqa oʻlkalarda noroziliklar kuchayib, qoʻzgʻolonlar boshlangan. Uning vafotidan keyin Sargonning vorislari Rimush, Manishtusi, Naram Suen va Sharkalisharrilar (2261-2176) davlatni boshqarganlar.

Podsho Sargon I vafotidan soʻng vorisi Rimush (er. avv. 2261-2252 y.) hokimiyatga keladi. Hukmronligining dastlabki yillarida otasidan meros boʻlib qolgan deyarli barcha davlatlar unga qarshi isyon koʻtaradi. Qoʻzgʻolonning boshida Ur hokimi Kaku turadi. Shu bilan birga Umma shahri ham isyonchi Kaku tomoniga oʻtib ketadi. Ammo Rimush ularga qarshi qoʻshin tortib bordi va jangda gʻalaba qozondi. Minglab qoʻzgʻolonchilar asir olindi. Soʻngra podsho Rimush Fors qoʻltigʻiga harbiy yurushni amalga oshiradi. U yerda ham isyonlar bostiriladi. Qoʻzgʻolonlarga chek qoʻyish yoʻlidagi Rimushning keyingi yurushlarida, isyonchi shaharlar Umma va Derning 13 mingga yaqin aholisi qirib tashlandi.

Rimush ichki siyosatda kohinlarga tayanishga harakat qilib, ularga koʻp hadyalar qildi. Elamga bir necha talonchilik yurushlarni amalga oshirdi. Ammo Rimush oʻz yaqinlarining fitnasi (podsho oldiga qurol bilan kirib boʻlmasligi tufayli uni zodagonlar, tosh muhrlari bilan urib oʻldirganlar) qurboni boʻladi.

Uning ukasi yangi podsho Manishtusu (er. avv. 2252-2237 y) bir nechta isyon va qoʻzgʻolonlarni bostirishga majbur boʻladi. U

Elamga ikki marta bostirib kirdi va u yerni talon-toroj qildi. Fors qoʻltigʻining sharqiy qirgʻogʻi tomon dengiz orqali yurush ham uyushtirdi. U Shumer va Elamdagi ruhoniy aslzodalarga katta – katta hadyalar berib, ularni oʻziga qaratib olgan.U podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun jamoa yerlarini sotib ola boshlaydi, natijada davlat hisobidagi yerlarini kengaytirib oladi. Oʻzini tarafdorlarni koʻpaytirish, markaziy hokimyatni kuchaytirish maqsadida Akkad va Shumer aslzodalariga hamda oʻz askarlariga yerlar boʻlib bergan. Podsho Manishtushu ham navbatdagi saroy fitnasi natijasida oʻldiriladi.

Taxtga uning oʻgʻli, Sargon I ning nabirasi Naram-Suen (er. avv. 2237-2200 y) oʻtiradi. U hukmronligining dastlabki yillarida quyi Mesopotamiyaga qoʻzgʻolonlarni bostirish uchun yurush qilishga majbur boʻldi. Naram-Suen ham podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, ayirmachi "ensi"lar, urugʻ zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib boradi. Shu orada Akkadning yuksalishidan norozi boʻlgan janubdagi shahar-davlatlar qoʻzgʻolon koʻtaradi. Shunday boʻlsa-da isyonlar shafqatsizlik va katta qiyinchilik bilan bostiriladi. U Suriya, Falastin, Magan, Meluxxa, Subarti, Elam va Fors qoʻltigʻi sohilidagi mamlakatlar ustiga bir necha marta qoʻshin tortib, ularni oʻziga boʻysundirishga erishgan.

Podsho Naram-Suen davrida Akkadning yuksalishi kuzatildi. Mesopotamiya shaharlari toʻla Sargon I sulolasi hukmi ostiga oʻtgach, Naram-Suen oʻzini "Akkadning qudratli xudosi" deb ulugʻlab, toshga oʻyib yozilgan tasvirlarda (hozirda "Naram-Suen gʻalaba stellasi" nomi bilan Parijning Luvr muzeyida saqlanadi) ilohiylik ramzi boʻlgan shohli bosh kiyim bilan tasvirlanadi. Aholi unga iloh sifatida sajda qilishi kerak boʻlgan. Uni yana "toʻrt iqlim podshosi" va "Olam

podshosi" deb ham yuksaklarga koʻtarishgan. Shunday boʻlsa-da Akkad davlati, Elamni butunlay oʻz nazoratida tutib tura olmadi. Naram-Suen hukmronligining soʻnggi yillarida Zagros togʻlari tomonidan, Akkad yerlariga koʻchmanchi gutey qabilalarining dastlabki toʻlqini kirib keldi. Naram-Suendan soʻng taxtga Sharkalisharri (er. avv. 2200-2176 y) oʻtiradi. Uning davrida Mesopotamiyaga gʻarbdan, kelib chiqishi somiylardan

boʻlgan amoriylar, janubiy-sharqdan elamliklar va shimoli-sharqdan esa guteylar xavf sola boshladi. Ammo hududlarni nazorat qilish muammo edi. Shu bilan birga doimiy bosqinchilik yurushlari va ichki nizolar, mamlakat iqtisodiyotini inqiroz yoqasiga olib keladi. Akkad davlati kuchsizlanadi va tashqi dushmanga qarshilik qila olmay qoladi. Oqibatda Guteylar Mesopotamiyani istilo qildilar va 125 yil davomida hukmronlik qildilar.

Guteylar istilosi oqibatlari. Jahon tarixida qadimgi va oʻrta asrlarda qiziq bir holat tez tez koʻzga tashlanadi. Ya'ni koʻchmanchi chorvador xalqlar madaniy oʻtroq xalqlarni hududlarini istilo qiladi. Shunda savol tugʻiladiki, koʻchmanchi, yozuvi ham yoʻq, biror bir madaniy kashfiyotni amalga oshirmagan xalq qanday qilib gʻalaba erishdi? Aynan, shu masala, Mesopatamiyaga ham xosdir. Qudratli Sargoniylar sulolasini hokimiyatdan toʻliq agʻadarish aynan koʻchmanchi Guteylar tomonidan amalga oshirildi.

Guteylar Mesopatamiyaning sharqidagi Zagros togʻlari orasida qadimdan yashab kelgan chorvador xalqdir. Ular tabiatan juda jangari boʻlib, Mesopatamiyaga tez-tez hujumlar qilib turgan. Ammo qudratli Akkad davlati ularni kirishiga imkon bermagan. Masalan, miloddan avvalgi 2200 yillarda Guteylarning oliy rahbari Erridupizir Akkad qiroli Naram-Suennni magʻlub etadi, Nippur shahrini yegallashga muvaffaq boʻldi va qirollik unvonini oldi. Uning buyrugʻi bilan Sippar ulamolari uning gʻalabalari sharafiga shu kungacha saqlanib qolgan yozuvni oʻyib yozishgan. Bu yozuv noyob manba sifatida bugungi kunda ham oʻrganilmoqda. Ammo keyingi yillarda akkadlar togʻliklarning bosqinlarini muvaffaqiyatli qaytarishdi.

Erridupizirning ikki vorisi Akkadliklardan jiddiy magʻlubiyatga uchradi va keyingi qirol Sarlagab (2191-2185 y) hatto Akkad qiroli Sharkalisharri tomonidan asirga olingan.

Biroq miloddan avvalgi 23 asrning oxirgi - 22 asrning boshlarida sargoniylar saltanati kuchsizlanganidan foydalanib, harbiy bosqinni amalga oshirib, bosib oldilar va taladilar. Ayniqsa, Sharkalisharri vafot yetgach, Guteylar birin-ketin gʻalaba

qozonishni boshladilar va tez orada deyarli butun Mesopotamiyani egallab olishga muvaffaq bo‘lishdi.

Hamma ko‘chmanchilarga xos bo‘lgan tarzda, ular ham mamlakatni Shumer va Akkad amaldorlari orqali boshqarganlar[54]. Ularning biri Lagash hokimi Gudea bo‘lib, u Shumerni guteylar nomidan 20 yil (2142-2122 y) boshqargan. Ahamiyatli jihati shuki, aksariyat ko‘chmanchi xalqlar harbiy qudratli bo‘lsada, madaniy qoloqligi har doim pand bergan. Guteylar ham Mesopatamiya madaniyatini qabul qilganlar. Ular Mesopatamiyada qariyb yuz yilga yaqin hukmronlik qilib, bu davrda 20 ga yaqin hukmdor boshqargan.Olimlarning fikricha Mesopatamiya sivilizatsiyasida ularning ta’sirlari deyarli sezilmaydi.

Urning III- sulolasi davrida Shumer va Akkad. Mesopatamiya aholisi har doim bosqinchi Guteylarga qarshi kurashib kelgan. Va nihoyat er. avv. 2109-yilda guteylar Ur podshosi Utuxengal (2112-2104 yillar) tomonidan tor-mor qilinadi. Guteylar hukmdori Tirikan (2109 yil) mag‘lub etilganidan so‘ng, Mesopotamiya Utuxengal boshchiligida birlashtiriladi. Shu bilan birga u “to‘rt iqlim podshosi” unvonini ham qabul qiladi. Shumer va Akkad yerlari yana birlashtiriladi. Ammo Utuxengal irrigatsiya ishlarini nazorat qilayotganda baxtsiz hodisa tufayli vafot yetadi.

So‘ngra Utuxengalning tarafdori Ur-Nammu (er. avv. 2112-2094 y) taxtga chiqadi va mamlakatda III Ur sulolasi hukmronligi boshlanadi. Ur shahri poytaxtga aylanadi hamda guteylar davrida vayron qilingan mudofaa devorlari qayta tiklanadi. Ur-Nammu islohotlar o‘tkazib, 57 ta moddadan iborat qonunlarni tuzadi.Ur shahrida ulkan zikkurat qurushni boshlaydi, lekin bitkazishga ulgurmaydi[55]. Keyinchalik guteylar bilan jangda halok bo‘ladi. Uning o‘g‘li Shulgi (er. avv. 2094-2046 y) davrida balandligi 10 metrga teng Urdagi zikkurat qurilishi bitkazilib, yangi qonunlar kiritildi.

Hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan podsho ustaxonalari ishi yo‘lga qo‘yiladi. Iqtisodiyotda davlatning o‘rni oshdi. Yirik

[54] Shu masalada, boshqa davlatlarga qiyoslagan holda guruhlarga bo‘linib bahs uyushtiring.
[55] Ushbu qonunnomani Hammurapi qonunlari bilan solishtirib, ilmiy bahs uyushtiring.

chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklari tashkil qilindi. Mesopotamiyada ishdan chiqqan sun’iy sug‘orish tizimi to‘liq qayta tiklanib, yangi to‘g‘on va kanallar quriladi. Mamlakatdagi asosiy yer zaxirasi podshohniki hisoblangan. Armiyada ham islohotlar o‘tkazishga muvaffaq bo‘ladi. Shulgi ibodatxonalar va davlat xo‘jaliklariga tegishli yerlarni markazlashtiradi. So‘ngra ular ustidan davlat nazoratini o‘rnatadi. O‘zini “to‘rt iqlim podshosi” deb atagan. Podsho Shulgi davrida Shumerda cho‘ri ayollarning xo‘jalikdagi mehnatidan unumli foydalanishgan. Ularni “Ngeme” deb atashgan bo‘lsa, qullardan farq qilmaydigan “gurushi” kabi aholi qatlami ham mavjud edi.

Podsho Shulgi, jamoa yerlarida ishlaydigan aholini qashshoqlashuv jarayonini sekinlashtirish uchun bunday yerlarni sotish va sotib olishni bekor qiladi. Ammo oddiy xalqning yersiz qolishi kuchayib boradi. Kambag‘al aholini o‘z bolalarini qul qilib sotishi, qarz uchun biroz vaqt o‘z ozodligini yo‘qotib qulga aylanishi kabi holatlar ko‘p uchraydigan bo‘lib qoladi. Mamlakatda qullar soni oshib boradi. Ijtimoiy tabaqalanish kuchayib ketdi. Tashqi siyosatda Shulgi, Elamning katta qismini bosib, u yerga Shumerliklarni noib qilib tayinlaydi. Shimolda Ashshur shahrini o‘ziga bo‘ysundiradi. Lulubey qabilalari bilan ham urush olib boradi. Shu payt Mesopotamiyaga g‘arbdan somiy tilli “amoriy ” qabilalari kirib kela boshlaydi.

Ular shimolda Frot daryosi bo‘yidagi Mari shahrini bosib oladilar. Er. avv. 2046 yilda podsho Shulgining vafotidan so‘ng, taxtga uning o‘g‘li Amar-Suen (yoki Amar-Sin) keladi. Mamlakat armiyasiga elamliklar va amoriylardan iborat yollanma askarlar olina boshlaydi. O‘ziga qaram shaharlardagi isyonlar bostiriladi. Ammo keyingi podsho Shu-Suen davrida amoriylar hujumi kuchayadi va podsho o‘z shaharlarini himoya qilish uchun ularni mudofaa devorlari bilan o‘ray boshlaydi. III Ur sulolasining so‘nggi vakili Ibbi-Suen mamlakatni ko‘chmanchi amoriylardan va elamliklardan mudofaa qila olmaydi. Natijada er. avv. 2004- yilda Ur, Elam qo‘shini tomonidan egallanib, talon-toroj qilinadi va III Ur sulolasi tugatiladi. Oradan 6 yil o‘tib, elamliklar Ur shahridan qo‘shinlarini olib chiqib ketadi. Ichki nizolar va tashqi

hujumlardan kuchsizlangan Mesopotamiyada hukmronlik I-Issin sulolasi qo‘liga o‘tadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Mesopotamiyaning geografik joylashuvi va aholisi haqida nimalarni bilasiz?
2. Mesopotamiya xududlarida ilk davlat uyushmalari qachon vujudga keldi?
3. Mesopotamiyada vujudga kelgan shahar davlatlar va ularning siyosiy boshqaruvi xaqida ma’lumot bering?
4. Ossuriya davlati va uning boshqaruv shakli haqida ma’lumot bering.
5. Ossuriyaning Old Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarini qo‘shimcha manbalardan foydalanib kengroq yoritib bering.
6. Qadimgi Mesopotamiyadagi diniy e'tiqodlar va ularni xalqning turmush tarziga ta’sirini ochib bering.
7. Mesopotamiya madaniyatini jahon madaniyatiga ta’sirini misollar yordamida tahlil eting.
8. **Keys savoli:**Qadimgi Mesopotamiya shaharlarida qanday siyosiy boshqaruv shakllari mavjud edi va ular odamlarning kundalik hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

7-MAVZU. QADIMGI BOBIL PODSHOLIGI

Reja

1. Bobilning markazlashuv jarayoni.
2. Hammurapi qonunlari- tarixiy manba.
3. Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.
4. Bobil kassit sulolasi davrida.
5. Yangi Bobil podsholigi.

Kirish. Dunyo tamaddunlari orasida Mesopotamiya alohida ajralib turadi. Olimlar eng qadimiy asorul atiqalarni aynan Mesopatamiya va uning ajralmas qismi bo‘lgan Bobil hududlaridan topib o‘rganmoqdalar. Ilmiy tadqiqot ishlari va arxeologik izlanishlar 2025 yil holatiga ham davom etmoqda. Qadimgi davrlarda Bobilning qudrati uning markaz sifatidagi rolini oshirish uchun hukmdorlar katta ishlar qildi. Hattoki, Qadim muqaddas shahar bo‘lgan Quddusdan ham maqomini oshirishga urinib, uni istilo qilib aholisini esa Bobilga ko‘chirish holatlari ham bo‘lgan. Dunyo markaziga urinishni shahar darvozalariga xudolar nomlarini qo‘yilganligi orqali ham anglash mumkin. Albatta, Bobilni insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rsatishda, dunyo yetti mo‘jizalaridan biri bo‘lgan “Bobil osma bog‘ini” qurilishi ham muhim o‘rin tutadi. Demak, dastlabki mukammal qonunlar yaratgan, dunyo markazi bo‘lishga urinilgan, me’morchilikda noyob bog‘lar va minoralari bilan mashhur Bobil tarixi bugun ham insoniyatni hayratga solishda davom etmoqda.

Bobilning markazlashuv jarayoni. Iqtisodiy tizimning inqirozi, Ur III sulolasining qulashi, ko‘plab shumer-akkad markazlarining chorvador amoriylar tomonidan vayron qilinishi va ularning Mesopotamiya hududi bo‘ylab keng tarqalishi markazlashgan davlatning vaqtinchalik tanazzuliga hamda mamlakatda siyosiy parokandalikning qayta tiklanishiga olib keldi. Oqibatda janubda markazi Larsa shahrida joylashgan mustaqil podshohlik shakllandi, undan shimolda esa Issin shahri atrofida yana bir mustaqil davlat vujudga keldi. Mesopotamiyaning shimoliy qismlarida Yevfrat bo‘yidagi Mari,

Tigr boʻyidagi Ashshur va Diyala daryosi hududidagi Eshnunna kabi davlatlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu davlatlarda amoriylarning harbiy qoʻshilmalariga tayangan sulolalar hukmronlik qilgan.

Eramizdan avvalgi XX–XIX asrlarda bu davlatlar oʻzaro uzoq muddatli ichki urushlar olib borganlar. Ana shu siyosiy kurashlar jarayonida Babil (Bab-ili — “Ilohiy darvoza”) shahri mustaqillikka erishib, tobora yuksalib bordi. Bu yerda Bobil I, ya’ni Amoriylar sulolasi hokimiyatni qoʻlga oldi. Mazkur sulola hukmronlik qilgan davr tarixda Qadimgi Babil davri (eramizdan avvalgi 1894–1595 yillar) deb nomlanadi.

Mesopotamiyaning markazida joylashgan Bobil shahrining yangi siyosiy markaz sifatida roli kuchayadi. Ikki daryo oraligʻining qoq oʻrtasida joylashuv, barcha sun'iy sugʻorish inshootlarining va Old Osiyoning quruqlik va daryo yoʻllarining tutashgan joyda oʻrnashgani Bobilning siyosiy, iqtisodiy markaz boʻlishiga qulay omillar boʻladi. Bobil ham aynan shu daryolardan oziqlanib ulgʻaygan tamaddun oʻchoqlaridandir.

Oʻzaro urushlar shahar-davlatlarni zaiflashtirdi. Larsa shahrini Elam bosib oldi. Elam hokimi Rimsin (er. avv. 1822-1763-yillar) kanallar va ibodatxonalar barpo qildi. Uruk, Nippur, Issin va Larsa shaharlari Elamga qaram boʻldi.

Janubiy Mesopotamiyadagi jamiyat juda keskin ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirganidan soʻng, asta-sekin qayta tiklana boshladi. Irrigatsion dehqonchilikning rivojlanishi kuzatildi, savdo aloqalari va shahar hayoti jonlandi. Biroq ushbu ijobiy jarayonlarga siyosiy parokandalik va oʻzaro urushlar toʻsqinlik qilar edi. Shu boisdan, yana bir bor markazlashgan yagona davlatni tashkil etish masalasi kun tartibiga chiqdi.

Bunday sharoitda yangi markaz — Bobil (Bobil) shahrining ahamiyati va nufuzi bosqichma-bosqich ortib bordi. Olimlar fikricha uning Tigr va Yevfrat daryolari yaqinlashadigan markaziy vodiy qismida joylashgani strategik jihatdan ham hujum, ham mudofaa uchun qulay edi. Bu tabiiy omil shaharni butun mamlakat uchun siyosiy markazga aylantirishga zamin yaratib berdi. Janubiy Mesopotamiya hayotining asosi boʻlgan irrigatsiya

tizimining asosiy tarmoqlari aynan shu yerda tutashar, shuningdek, butun Qadimgi Yaqin Sharq uchun muhim boʻlgan quruqlik va daryo yoʻllari ham Bobil orqali oʻtar edi.

Demak, Bobilda amoriylar sulolasi asos solgan davlatning birinchi vakili Sumuabum boʻlib, uning merosxoʻrlari Ikki daryo oraligʻining shimoliy podshohliklari — Kazallu, Sippar va Kish bilan jang olib borishdi. Sumuabumning vorisi, podshoh Sumu-la-El Babil hukmronligini Kish va Sippargacha kengaytirishga muvaffaq boʻldi.

Biroq sulola tarixidagi eng yirik muvaffaqiyatlar oltinchi podshoh — Sinmuballitning oʻgʻli Hammurapining (eramizdan avvalgi 1792–1750 yillar) hukmronligi davrida erishildi. U yirik davlat arbobi, mohir diplomat, nufuzli strateg, oʻziga hos tadbirkor, qonunshunos, hisob-kitobga tayangan samarali tashkilotchi sifatida tarixda nom qozongan.

Hammurapi Bobil uchun foydali boʻlgan ittifoqlar tuzishda mohir diplomat boʻlib, bu ittifoq oʻz vazifasini oʻtab boʻlgach, tezda undan voz kechgan. Hammurapi dastlab Larsa bilan ittifoq tuzadi va janubda Ur va Issin shaharlarini bosib oladi. Mari bilan ittifoq tuzib, Eshnunna shahrini bosib oladi. Unga xavfli raqib boʻlgan Elamni 10 yillik urushdan soʻng, Mari podshosi Zimrilim qoʻshinlari bilan birlashib, er. avv. 1764-yilda yanchib tashlaydi. Mari bilan birgalikda sobiq ittifoqchisi Larsani oʻziga boʻysundirgach, Hammurapi er. avv. 1759-yil Mari shahrini bosib oladi. Shimolda faqat zaiflashib qolgan Ossuriya davlati qoladi. Uning yirik shaharlari Ashshur va Nineviya Bobil hokimiyatini tan oladi. Hammurapining 42 yillik hukmronligi davrida Bobil kichik shahardan butun Mesopotamiyani birlashtirgan yangi qudratli davlatning poytaxti, Old Osiyoning yirik siyosiy–iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Mesopotamiyada yagona markazlashgan davlat tashkil topadi. Hammurapi uni ikki qismga: akkad tillarida soʻzlashadigan, Shumer-Akkad xudolariga sigʻinadigan asosiy hududga va Elam Suzasi, Yuqori Mesopotamiyaning xurrit-amoriy hududlarini oʻz ichiga olgan viloyatga boʻldi.

Buyuk hukmdorlar faoliyatiga e’tibor qaratsak, ularning oʻtkazgan islohotlari koʻp holatlarda katta muvaffaqiyatlarga

sabab boʻlganligini koʻramiz. Hammurapi ham xalq uchun qulaylik yaratish maqsadida bir nechta, jumladan ma'muriy va sud huquq sohalarida islohotlar oʻtkazdi.

Ma'muriy islohoti: U mamlakatni "*shapir-matim*" – "mamlakat ishlarini boshqaruvchilar" boshchiligidagi ma'muriy hududlarga boʻldi. Ular aholi tomonidan davlat bojlari va majburiyatlarini bajarishni, soliq yigʻilishini, harbiy safarbarlikni tashkil qilishni va sud ishlarini nazorat qilishni zimmalariga olgan edilar. Ularning itoati ostida, podshoh tomonidan tayinlanadigan jamoa boshliqlari – *rabianumlar* faoliyat yuritardi. Podshoh yer mulkidan iborat maxsus yer fondini boshqaruvchi alohida amaldor ham mavjud edi. Shuningdek, podshoh safarda boʻlgan vaqtda uning oʻrnini bosadigan bosh maslahatchi ham boʻlgan. Davlat tuzilmasida boshqa amaldorlar, jumladan, soliq toʻplovchilar va mehnat majburiyatlarini nazorat qiluvchilar ham mavjud edi. Podshoh armiyasida qat'iy intizom va lavozimlar bir xil tartibda yoʻlga qoʻyilgan. Savdogarlar – tamkarlar esa davlat xizmatchilariga aylantirilgan.

Sud-huquq islohoti: Jamoaviy asosdagi keksalar sudi rabianumlar itoatiga oʻtkazildi. Shu bilan birga, har bir shaharda podshoh sudyalari — dayyanu-sharrimlar faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Ularga ibodatxonalar huzuridagi sudlar ham boʻysundi. Bu sudlar aholini qasamyodga keltirish, ont ichish va suv orqali sinov (ordalya)dan oʻtkazish kabi jarayonlarni amalga oshirar edi. Podshoh sudyalari oʻz faoliyatida yozma qonunlar va podshoh farmonlariga tayangan. Hammurapi Qadimgi Yaqin Sharq tarixidagi eng mukammal va batafsil qonunlar toʻplamini qoldirgan.

Hammurapi puxta tayyorgarlikdan soʻng qator yurishlar uyushtirdi. U Eshnunna, Malgium va Elamni zabt etdi, Nippurni egalladi, Larsaga hujum qilib uni egalladi, Mari va yana bir bor Eshnunnani tor-mor qildi, keyinchalik Ashshur va Nineviyani ham oʻz itoatiga oldi. U "Shumer va Akkad podshohligi asoslarini mustahkamladi" va "Amoriylar podshohi" unvonini qabul qildi. Mamlakat poytaxti nomi bilan butun Mesopotamiya hududi endilikda "Bobil" (Bobil) deb ataladigan boʻldi. Hammurapi yutuqlari natijasida mahalliy ilohlar panteonida oʻzgarish yuz

berdi: Enlilning oʻrnini Bobilning homiy ilohi — Xayya (yoki Ea)ning oʻgʻli Marduk egalladi. Bu butun davlat hududlarida Bobil mafkurasi oʻrnatilganligini anglatadi.

Shu tariqa Mesopotamiya hududida faqat ikki yirik davlat qoldi: butun Janubiy va Markaziy Mesopotamiyani birlashtirgan Babil (Bobil) va uning ittifoqchisi Mari, uning hukmdori oʻzini "Yuqori mamlakat hukmdori" deb atagan.

Mari shahri Bobil uchun jiddiy va xavfli raqib hisoblangan, chunki u Yevfrat daryosining oʻrta oqimida joylashgan boʻlib, oʻz atrofida bir qancha daryoboʻyi shaharlarini (ular orasida eng yirigi — Terka) birlashtirgan va Suriya-Mesopotamiya sahrosidagi ayrim koʻchmanchi qabilalarni (didanlar, xaneniylar) itoat ettirgan. Mari davlati faol savdo olib borgan va Sharqiy Oʻrta yer dengizi sohilida joylashgan davlatlar — Bibl, Ugarit, Karxemish, Yamxad, shuningdek Kipr va Krit orollari bilan diplomatik aloqalar oʻrnatgan.

Terka shahridan hatto misrlik skarabeylar va xettlarga tegishli muhrlar ham topilgan. Zimrilim hukmronligi davrida Mari shahrida ulkan va murakkab saroy qurilgan boʻlib, u toʻrt gektar maydonni egallagan va 300 dan ortiq xonadondan iborat boʻlib, ular yashash, maishiy, diniy va boshqa maqsadlar uchun moʻljallangan binolardan iborat boʻlgan. Saroyda mukammal bezatilgan koʻprangli freskalar bilan bezalgan taxt zali, koʻplab haykallar, terrakota vannalari, kanalizatsiya tizimi, xorijiy elchilar va xizmatchilar uchun moʻljallangan xonalar, xoʻjalik va diplomatik arxivlar saqlanadigan joylar mavjud edi. Bu saroy oʻz davri uchun haqiqiy "qadimgi dunyo moʻjizasi" sifatida baholangan va unga Ugarit, Yamxad, Bobildan maxsus elchilar va mehmonlar tomosha uchun kelganlar.

Zimrilimni Hammurapiga qaraganda ojiz yoki kelajakni koʻra olmaydigan hukmdor, deb baholash notoʻgʻri boʻlar edi[56]. Bobilda uning diplomatlari va kuzatuvchilari doimiy ravishda faoliyat yuritgan va hatto Bobil-Mari munosabatlari yaxshi boʻlgan davrda ham bu kuzatuvchilar ittifoqdoshning har bir qadamini diqqat bilan kuzatib borganlar. Bu haqda Zimrilim saroyining arxivida saqlangan maktublar guvohlik beradi. Bobil, Larsa, Eshnunna va

[56] Ikki hukmdor faoliyatini qiyosiy jadval asosida taxlil qiling.

Ossuriya oʻrtasidagi munosabatlar barcha murakkab jihatlari bilan Mari podshohiga ma’lum boʻlgan. U vaziyatning oʻzgarishini birinchi boʻlib anglab yetdi va Larsa yaqinida bobilliklar bilan birga harakat qilayotgan oʻz qoʻshinlarini qaytarib oldi. Biroq bu taktik chora-koʻrish katta strategik xato — Bobilning Mariga nisbatan ancha kuchli boʻlib ulgurganini bartaraf etib qoʻya olmadi.

Eramizdan avvalgi 1759 yilda Hammurapi Zimrilim tomonidan ittifoqning buzilishi kabi yetarlicha asosli bahona bilan Mari devorlari ostida paydo boʻldi, shaharni egallab, bu katta shimoliy Mesopotamiya davlatini oʻz hukmronligiga boʻysundirdi. Koʻp oʻtmay Zimrilim boshchilik qilgan qoʻzgʻolon Hammurapini Mariga yana qaytib kelishga majbur etdi — u shaharni qaytadan bosib oldi, devorlarini vayron qildi va podshoh saroyini yoqib yubordi. Bu halokatdan soʻng Mari davlati rasman yoʻqqa chiqdi, harchand bir vaqtlar gullab-yashnagan Mari shahrining oʻzi ancha muddat, eramizdan avvalgi III asrgacha, hokisor holda yashab qolgan.

Shimolda esa ittifoqchilardan mahrum, kuchsizlangan Ossuriya qolgan edi. Uning yirik shaharlari — Ashshur, Nineviya va boshqalar Bobil hukmronligini tan oldilar. Shu tariqa butun Mesopatamiya hududlari Bobil davlati tarkibiga qoʻshib olindi.

Hammurapi hukmronligining 35 yili (umumiy 42 yil boshqargan) Bobil buyuk davlatini barpo etishga bagʻishlangan boʻlib, yuqorida ta’kidlanganidek, butun Mesopotamiya hududini qamrab olgan. Bu yillar ichida Bobil kichik shahardan katta davlatning nafaqat poytaxtiga, balki butun Qadimgi Yaqin Sharqning yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaziga aylandi[57].

Biroq dastlabki muvaffaqiyatlarga qaramasdan, koʻplab xalqlarni birlashtirgan davlatchilikni zaif tomonlari ham bor edi. Jumladan, ichki ziddiyatlarning kuchayishi, ayniqsa, jamoa a’zolari, askarlar, soliq toʻlovchilar va davlat himoyachilarining qashshoqlashuvi bilan bogʻliq muammolar hamda tashqi siyosiy qiyinchiliklar davlatning unchalik ham mustahkam emasligini koʻrsatdi. Ayniqsa, bu jarayonlar Hammurapining oʻgʻli —

[57] Seminar darslarida Xammurapi islohotlarini ilmiy taxlil qiling. Bugungi zamonaviy davlatchilik uchun ahamiyatini koʻrib chiqib, bahs uyushtiring.

Samsuilun (eramizdan avvalgi 1749–1712 yillar) hukmronligi davrida namoyon bo‘la boshlaydi. Albatta, u ham otasi kabi siyosat yuritishga, o‘zining nufuzini saqlab qolishga harakat qiladi. U tomonidan zikkuratlar qurdi, ibodatxonalarni bezab, ularda xudolar sharafiga zar taxtlar o‘rnatdi, yangi kanallar qazdirdi va “itoat qilmagan mamlakatlarni jilovlaganini” e’lon qildi.

Biroq, real voqelik boshqacharoq edi. Janubda elamliklar bobilliklarni qisib borar, ular birin-ketin shumer shaharlarini egallar edilar; Sipparda qo‘zg‘olon ko‘tariladi, u qattiq zo‘ravonlik bilan bostiriladi, shahar devorlari va ibodatxonalari vayron qilinadi; orqasidan Issin ham Bobildan ajralib chiqadi. Samsuilunning o‘z yozuvida 26 nafar o‘zini podshoh deb e’lon qilgan uzurpator[58] ustidan qozonilgan g‘alaba zikr etilishi mamlakatda ichki siyosiy barqarorlik jiddiy ravishda buzilganini ko‘rsatadi.



Bobil uchun tashqi siyosiy vaziyat ham tobora murakkablashib boraveradi. Mamlakat hududiga jangovar kassit qabilalari faol kirib kela boshlaydilar. Mesopotamiyaning shimoli-

[58] Uzurpator — qonuniy huquqqa ega bo‘lmagan holda hokimiyatni egallab olgan shaxs.

g‘arbida hurritlar ko‘chib kelib joylashadilar va Bobilni Kichik Osiyo hamda Sharqiy O‘rta yer dengizi sohiliga olib boruvchi muhim savdo yo‘llaridan uzib qo‘yadilar.

Oxir-oqibat, miloddan avvalgi 1595 yilda xettlar Bobiliyaga hujum qilib, uni bosib oladi va talafotga uchratadi. Ular Bobilning homiy ilohi — Mardukning qimmatbaho haykalini olib ketadilar. Bu voqea Bobil I sulolasi hukmronligining tugashi va uch asr davom etgan Qadimgi Bobil (yoki Qadim Bobil) davrining yakunlanishini belgilab beradi.

Hammurapi qonunlari – tarixiy manba. Qadimgi Mesopatamiya davlatlarida huquqning eng qadimgi manbai odat huquqi bo‘lgan. Davlatchilik shakllanishi natijasida odob-axloq qoidalari majburiy xususiyat kasb eta boshlagan. Yozma qonunchilikda ibtidoiy tuzumning ayrim belgilari saqlangan.

Huquq manbai – qonun juda erta paydo bo‘lgan. Podsholar qonunlarining paydo bo‘lishi davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishining uzluksiz shart-sharotlari, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumni yaxshilash jarayonlari bilan bog‘liqdir. Amoriylar davrida Bobilning iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy tuzumi Hammurapining qonunlar to‘plami, uning noib va amaldorlar bilan yozishmalari, xususiy hujjatlar orqali ma’lum.

Qonunlar to‘plamining tuzilishi Hammurapining jiddiy siyosiy tadbiri edi. Chunki bu to‘plam Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Qonunlar to‘plami kirish, qonunlar va xulosani tashkil qilgan uch qismdan iborat.

Qonunnomaning matnida sud va sud jarayoni (1-5-moddalar), mulk huquqining buzilishi va unga qo‘llaniladigan jazolar (6-120-moddalar), nikoh, oila va meros masalalari (127-195-moddalar), jinoyat masalalari (shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar) uchun javobgarlik, (196-214-moddalar), mehnat va mehnat qurollari (215-282-moddalar) hamda boshqa munosabatlar to‘g‘risidagi me’yorlar mustahkamlangan.

Tadqiqotchi va talabalar ushbu masalani tadqiq qilish davomida eng ko‘p beriladigan savol, Hammurapigacha ham qonunlar bo‘lganmi, agar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, uning qonunlari qanday xususiyati bilan oldingilaridan farqlanadi, deb bahs

yuritishadi. Ha albatta, Hammurapigacha ham qonunlar boʻlgan, ammo ular tizimli va keng qamrovli emas edi, deyish mumkin.

Kodeksni tuzishda eski odat huquqi, shumer qonunlari va yangi qonunlar asos qilib olingan (masalan, podsho Ur Nammu qonunlari, Isina podsholigining hukmdori Lipid Ishtar qonunlari, Eshnunna podsholigi hukmdori Bilalam qonunlari, Oʻrta Ossuriya qonunlari shular jumlasidandir). Hammurapi qonunlari boshqa sharq qonunnomalaridan farq qilib, oʻzida diniy qoidalar va nasihatgoʻylik elementlarini ifoda ettirmagan. Shunday boʻlsa-da, unda talion tamoyili (“koʻzga koʻz” “tishga tish”) ordaliya (suv, olov va boshqa usullar bilan sinab koʻrish) kabi urugʻdoshlik tuzumi belgilari va yana ba’zi an’analar saqlangan[59]. Jumladan, aybdor noma’lum boʻlsa, butun jamoaning javobgarligi, ota-ona uchun farzandlarning javobgarligi, aybdorning oʻz yashash hududidan haydab yuborilishi va h.k. Jazo tizimi ayblanuvchi va jabrlanuvchining ijtimoiy mavqeiga qarab, turlicha qoʻllanilgan. Jazolar, birinchi navbatda, Bobildagi quldorlik tuzumini saqlab turishga qaratilgan. Jinoiy jazolar turlariga qoʻshimcha izza qilish, muayyan faoliyat yuritish huquqidan mahrum qilish va mansabidan boʻshatish jazolarini ham aytish mumkin. Demak, qadimgi davrdagi jazolar faqat qatldan iborat boʻlmaganligini ham koʻrish mumkin.

Hammurapi davrida Bobil iqtisodiyoti sun’iy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik, bogʻdorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdodan iborat boʻlgan. Qadimgi Bobilda bu davrda ekin yerlari koʻpaydi. Bogʻdorchilikda xurmo yetishtirish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Podsho “Hammurapi kanali” deb atalmish katta kanal qurdirgan. Gʻalla ekinlari, moyli oʻsimliklardan yuqori hosil olindi. Bunday yutuqlar faqat sun'iy sugʻorish tizimini butun mamlakat miqyosida kengaytirish asosida amalga oshirildi. Maxsus amaldorlar katta-kichik kanallarni qurish va ta’mirlashni nazorat qilib turganlar. Mari arxiv hujjatlariga koʻra, aholining barcha mehnatga qobiliyatli qismi erkin kishilardan tortib qullargacha sugʻorish

[59] Batafsil qarang: Qadimiy huquqiy yodgorliklar: Hammurapi qonunlari. Doro I ning Behistun qoyalaridagi yozuvlari. Tarjima asar. Mualliflar jamoasi: A. Samedjanov, A. Muhamedov, N. Turgunova. T.: “Adolat” nashriyoti, 2016. – 96 bet.

inshootlarini qurish va ta’mirlash majburiyatini o‘tagan. Bu majburiyatdan bosh tortganlarga o‘lim jazosi berilishi mumkin bo‘lgan. Hammurapi qonunlarida maxsus to‘rt modda dehqon jamoasining o‘z yerida, sug‘orish inshootlariga befarq qarashiga qarshi qaratilgan. Agar dehqonning yeridan qo‘shnilar yeriga suv toshib ketsa, u keltirilgan zararni to‘lashga majbur bo‘lgan. Agar puli bo‘lmasa, o‘zi va mol-mulki qo‘shniga keltirgan zararni qoplash uchun sotilgan.

Hamurapi bu qattiy harakatni san’at darajasiga olib chiqqan va qonuniy tartibga solgan. Bu adolat ritorikasi bilan boshlangan va yakunlangan. Masalan, uning o‘zi qarorni tushuntirishda “tinchlik olib kelgan cho‘pon uning odillik hassasiligini bo‘lgani, mening muruvvat soyam, mening shahrim bo‘lib tarqalgan, men Akkad va Bobil yerlaridagi odamlarni tizzamda asrayman” degan. Hamurappi qonunlarida 300 dan ortiq jinoya va ularning jazolari to‘plangan. Xudolar dunyoni boshqarishiga qaramay qirol odamlar orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunlarni buyuruvchi bo‘lgan[60].

Chorvachilik yirik hajmda rivojlangan. Qonunlarda bir necha bor yirik va mayda chorva to‘grisida eslatiladi. Ko‘pincha qoramol dala ishlari, xirmon yanchish va yuk tashishga ijraga berilgan. Hunarmandchilikning xilma-xil sohalari rivojlangan. Qonunda bajarilgan ish uchun qat’iy baho berilgan va ishning past sifati uchun hunarmand qattiq jazo olgan. Hammurapi qonunlar to‘plamining 229-moddasida shunday deyiladi: «Agar quruvchi kishiga uy qurdi va o‘z ishini mustahkam qilmadi. U qurgan uy yiqilib, uy egasini o‘ldirib qo‘ydi. Bu quruvchi o‘limga hukm qilinishi lozim». Erkin kishini muvaffaqiyatsiz muolaja qilgan jarrohning barmoqlari chopilgan (218-modda). Agar tabib birovning qulini bronza pichoq bilan kesib, og‘ir operatsiya qilayotganda qul o‘lib qolsa, qul uchun qul berishi lozim bo‘lgan (219 modda).

Qonunnomada jazolar ichida qarz masalasiga ham alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu masala bugungi zamonaviy davrimizda ham dolzarb masala sanalib kelmoqda. Masalaning yanada qiziqligi shundaki, bugungi kunda

[60]Worlds Together,Worlds Apart. W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.99.

davlatlar ham qarzdor hisoblandi. Masalan, 2025 yil holatiga eng ko‘p qarzi bor davlat AQSh bo‘lib qolmoqda. Hammurapi bu masalada ancha o‘zigacha bo‘lgan hukmdorlardan ko‘ra liberalroq yondashganligini ko‘rish mumkin. Masalan, undagi normaga ko‘ra qarzdorning o‘zi emas, balki uning xotini yoki bolalari faqat uch yil davomida qarz badaliga ishlab berishi lozim, buning ustiga, mazkur qaram kishilar qullardan farq qilib, qonun yo‘li bilan qo‘riqlangan va qarzdor otasining qarzi badaliga ishlab berayotgan o‘g‘li sudxo‘rning kaltagidan o‘lib qolguday bo‘lsa, u holda qarz berganning o‘g‘li ham o‘ldirilishi lozim bo‘lgan. Yana bir e’tiborga molik jihat shuki, “Er qarzdor - qul bo‘lib qolishi mumkin emas”. Qonunda belgilanishicha, qarzdorning xotini yoki bolalari qul sifatida emas, balki garovga olinganlar sifatida ishlab bergan. Garovga olinganlar uch yil o‘tgandan so‘ng qarz summasi qancha bo‘lishidan qat’i nazar ozod qilingan va qarz to‘landi deb hisoblangan. Bu hatto bir yarim avval ya’ni Yunonistondagi Salon davridagi qulga aylantirish jazosidan ham ancha yengil ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari mulkiy munosabatlarga ham jiddiy e’tibor qaratilgan. Ya’ni hukmdor o‘z qonunlari bilan mayda va o‘rta quldorlar hukmron kuch bo‘lgan davlatning ijtimoiy tuzumini mustahkamlashga harakat qilgan. Hammurapi qonunlari quldorchilik tuzumini, xususiy mulkchilikni aks ettiruvchi birinchi yirik va mashhur qonunlar to‘plami bo‘lgan. Hammurapi qonunlarida majburiyatlarni to‘la o‘tash, oldi-sotdi shartnomalarini bajarishga, qarz shartnomasi bilan bog‘liq munosabatlarga ham alohida o‘rin berilgan. Ancha qimmatbaho mulklar (yerlar, qurilish binolari, qul, hayvon singarilar)ni sotish guvohlar ishtirokida yozma shaklda amalga oshirilgan. Bunday shartnomalar quyoshda quritilgan yoki olovda kuydirilgan loydan yasalgan qattiq loytaxtachaga yozib qo‘yilgan. Oldi-sotdi shartnomasida ashyoni sotuvchi faqat mulkning haqiqiy egasi bo‘lishi talab qilingan. Zero, mulk uchinchi shaxs tomonidan sotilib, so‘ngra mulkning haqiqiy egasi mazkur mulk uning xohish-irodasiga zid ravishda sotilganini da’vo qilsa, ushbu mulk haqiqatan ham unga qarashli ekanligini guvohlar yordamida isbotlasa, tuzilgan shartnoma haqiqiy emas, deb topilgan.

Hammurapi o‘z qonunlarida qarzdorlik asoratini cheklashga, ochko‘z sudxo‘rlarning (katta foizlar hisobiga qarz beruvchilarning) haddan ziyod ishtahasini tiyib qo‘yishga va qarz uchun qulga aylanish jarayonining o‘sishini to‘xtatishga harakat qilgan, shuningdek, mumkin qadar qarzdorlar ahvolini yaxshilashga intilgan.

Butun Mesopotamiyaning yagona Bobil davlatiga birlashuvi savdoning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Bobildan g‘alla, xurmo, kunjut yog‘i, jun va hunarmandchilik buyumlari eksport qilingan. Metall, qurilish toshi va yog‘och, qullar va zeb-ziynat buyumlari import qilingan. Bobilda savdo bilan maxsus savdo agentlari-tamkarlar shug‘ullangan. O‘z xizmatlari uchun ular yer, bog‘, uy olganlar va sudxo‘rlik bilan ham shug‘ullanganlar. Bobil, Nippur, Ur, Larsa kabi yirik shaharlar katta savdo markazlari bo‘lgan. Erkin kishi “avelium”-(“odam”) deb atalgan. Qonunlarning barcha moddalarida xususiy mulk himoya qilingan.

Bobil aholisining asosiy qismini xazinaga tushadigan soliqlarni to‘lovchisi mayda ishlab chiqaruvchi va mayda mulkdorlar tashkil qilgan. Shu sababli, ularning huquqlari qonun moddalari bilan himoyalangan. Misol uchun, ba’zi moddalar ularni sudxo‘rlar zo‘ravonligidan himoya qilgan. Sudxo‘rga qarz uchun hosilni olish ta’qiqlangan. Qarz uchun qaramlik 3 yil muddat bilan cheklangan. Kumush uchun qarz foizi 20, g‘alla qarzi uchun 33 % bilan cheklangan. Garovga olingan kishiga nisbatan shafqatsiz muomala qilingani uchun qat’iy chora-o‘lim jazosi qo‘llangan. Bobil jamiyatida erkin kishilardan tashqari mushkenumlar-jamoa bilan aloqasi uzilgan, yeri bo‘lmagan kishilar bo‘lib (“mushkenum” atamasi “pastga egilgan” ma’nosini bildirgan), ular cheklangan fuqarolik huquqiga ega bo‘lganlar. Ular podsho xo‘jaligida ishlaganlar, podshodan yerni shartli olganlar. Mushkenumlarga tan jarohati yetkazilsa, qoidaga ko‘ra, pul jarimasi to‘langan. Mushkenumni davolash erkin kishiga nisbatan ikki marta arzon bo‘lgan. Qonunlarga qaraganda, mushkenumlar pul mablag‘i va mulkka egalik qilganlar. Erkin kishiga nisbatan talion huquqi (ko‘z uchun ko‘z, tish uchun tish) qo‘llanilgan.

Bobil jamiyatinig eng quyi tabaqasi qullar (“vardum”) boʻlgan. Qullikning manbasi urushlar, mulkiy tabaqalanish natijasida qarzi uchun qul qilish, otaning patriarxal hokimiyati ostida oila a’zolarining huquqsizligi, otaning farzandlarini garovga berish, qullikka sotish huquqi, ba’zi jinoyatlari uchun qul qilish (misol uchun, asrandi oʻgʻilning oʻz ota-onasidan voz kechishi, xotinning isrofgarchiligi, jamoachining sun'iy sugʻorish inshootiga loqayd qaragani) va qullarning tabiiy koʻpayishi boʻlgan. Bobilda qulchilik oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan. Qul uncha katta boʻlmagan mulkka ega boʻlishi mumkin boʻlgan. Quldan boʻlgan bolalarga mulk vasiyat qilish mumkin boʻlgan.

Bobil oilasi ota va er hukmron boʻlgan patriarxal oila boʻlgan. Oila nikoh shartnomasi asosida qurilgan va er nikoh sovgʻasi, xotin sep keltirgan. Xotin oʻz sepiga va erining sovgʻasiga oʻz huquqini saqlagan. Erining oʻlimidan soʻng, bolalar balogʻat yoshiga yetguncha beva oila mulkiga egalik qilgan. Qonunlar ayolning sogʻligʻini himoya qilgan. Agar ayol eriga yomon muomala qilsa va uni mol-mulkini sovursa, ayol qulga aylantirilgan. U eriga xiyonat qilsa, oʻlim jazosiga hukm qilingan. Ajralish va qayta erga chiqish qiyinlashtirilgan. Ota-ona mulkiga “somondan oltingacha egalik qilish” huquqiga oʻgʻil-qiz ega boʻlgan. Ammo oʻgʻilga koʻproq moyillik bildirilgan.

Qadimgi Bobil davlatida podsho hokimiyati mutloq boʻlgan. Davlat boshida podsho turgan. U diniy qonunchilik, sud va ijroiya hokimiyatiga ega boʻlgan. Podsho yer zahirasi bepoyon boʻlgan. Bu yerlar ijaraga va xizmati uchun berilgan. Sud hokimiyati mukammal shakllangan. Podsho sudi yetakchi oʻrinda turgan. Shuningdek, ibodatxona sudi, jamoa sudi va kvartal sudlari mavjud boʻlgan. Sudyalar kollegiyalarga birlashganlar. Ularga jarchilar, choparlar, kotiblar kabi sud xodimlari boʻysungan.

Moliya-soliq mahkamasi kumush va mahsulot, chorva, hunurmandchilik buyumlari bilan olinadigan soliq yigʻish bilan shugʻullangan. Podsho hokimiyati ogʻir va yengil qurollangan jangchi (redum)lardan iborat qoʻshinga tayangan. Podsho Hammurapi armiyaning jangovarlik qobiliyatini mustahkamlash, qattiq intizom oʻrnatish choralarini koʻrgan. Askarlarning huquq-majburiyatlari Hammurapi qonunlar toʻplamining 16-moddasida

belgilangan. Harbiylar xizmatlari uchun yer-mulk olganlar. Qonun askarlarni harbiy boshliqlar zo‘ravonligidan himoya qilgan. Ularni asirlikdan qutqarish uchun to‘lov belgilangan. Askar oilasi davlat tomonidan moddiy ta’minlangan. Askarlar harbiy xizmatni sidqidildan o‘tashlari zarur bo‘lgan. Aks holda, ular o‘lim jazosiga hukm qilinganlar. Mobodo, jangchi yurishlarda qatnashishdan bosh tortsa, o‘limga mahkum etilgan va unga berilgan barcha mol-mulklar tortib olingan. Agar jangchi o‘z o‘rniga o‘rinbosarini jo‘natsa, bunda ham u o‘limga mahkum qilinib, uning mulki o‘sha jangga borgan o‘rinbosariga o‘tkazilgan. Agar harbiy boshliqlar (dekum va lubuttum) jangchining mulkidan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalansalar yoki ijaraga bersalar o‘limga mahkum etilganlar, jangchining xizmati “abadiy” hisoblangan.

Ushbu qonunnomani har bir moddasi bilan tanishar ekansiz, unda beixtiyor, naqadar mukammal tuzilganligiga qoyil qolasiz. Masalan, nikoh masalasi bilan tanishar ekanmiz, bugungi kunimizda (2025 yil) amalda bo‘lgan “nikoh shartnomasi” aynan Hammurapi zamonida ham qonuniy tarzda mavjud bo‘lganligini ko‘ramiz. Unga ko‘ra Nikoh Bobilda yozma tuziladigan shartnoma asosida rasmiylashtirilgan. “Agar kishi xotin olsa va yozma shartnoma tuzmasa, bu ayol unga xotin emas” (128-modda). Demak, shartnomasiz nikoh haqiqiy emas deb topilgan. Nikoh shartnomasi kuyov va kelin o‘rtasida yoki kuyov va kelinning oilasi o‘rtasida tuzilgan. Biroq, shuni aytish kerakki, shartnoma mazmuniga bo‘lajak xotin ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Masalan, ayol kishi nikoh shartnomasida bo‘lajak eri zimmasiga qarzlari evaziga xotinini garovga qo‘ymaslik majburiyatini yuklashi mumkin bo‘lgan (151-modda). Nikoh shartnomasi tuzilishidan avval kuyov bo‘lajak qaynonasiga qalin puli – “tirxatum”, kelinning oila a’zolariga to‘y sovg‘alari “biblum” berishi lozim bo‘lgan. Kelinning otasi qiziga sep -sidirg‘a “sheriktum” topshirgan, bu albatta, keyin kuyovga foydalanish uchun o‘tkazilgan. Sep-sidirg‘a, odatda, qalin pulidan ancha katta qiymatga ega bo‘lgan.

Nikoh munosabati bilan ota tomonidan qiziga berilgan sep-sidirg‘a kelinning mulki hisoblangan va erning foydalanishiga o‘tkazilgan. Xotin vafot etsa, bolalariga qoldirilgan, bolalari

boʻlmasa, oʻlgan ayolning otasiga qaytarilgan, bunda qaynota qalin pulini kuyoviga qaytarib berishi lozim boʻlgan. Sep-sidirgʻa er oʻlsa, xotinda qolgan (171-172-moddalar).

Ota bolalari ustidan toʻliq hukmronlikka ega boʻlgan. U qizini kohinlikka berishi, bolalarini qul sifatida sotishi, qarz badaliga ishlab berishga topshirishi, yollab ishlatishi va bundan keladigan daromadlarga toʻla egalik qilishi mumkin edi. Ota-onasiga boʻysunmagan, ularga qarshi ish tutgan farzandlar qattiq jazolangan[61].

Qasddan odam oʻldirganlik uchun oʻlim jazosi nazarda tutilgan (erini oʻldirgan xotin qiynab oʻldirilgan, 153-modda). Ehtiyotsizlik oqibatida odam oʻlimiga sabab boʻlish uchun oʻlim jazosi belgilangan. Masalan, uy, imorat buzilib uy egasining oʻgʻli oʻlsa, quruvchining oʻgʻli ham oʻldirilgan (230-modda).

Hammurapi qonunlarida jazolarning xilma-xil turlari nazarda tutilgan boʻlib, ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: oʻlim jazosi, tana a'zolariga jarohat yetkazish (mayib qilish) jazolari, tan jazolari (darra bilan urish), sharmandalik belgisini qoʻyish, yashab turgan joyidan yoki uyidan haydab yuborish, pul jarimalari va nihoyat, kelajakda muayyan mashgʻulot bilan shugʻullanish huquqidan mahrum etib, mansabidan boʻshatish. Oʻlim jazosi juda keng qoʻllangan. Qonunnomada oʻttizdan ortiq holatlarda oʻlim jazosi nazarda tutilgan. Buning ustiga oʻlim jazosi turli koʻrinishlarda: suvga choʻktirish, yoqib yuborish, azob berish, osish kabi koʻrinishlarda amalga oshirilgan. Tana a'zolariga jarohat yetkazish jazolari avvalo talion yoʻli bilan berilgan. Bundan tashqari, jinoyat tananing qaysi a'zosi bilan qilinsa, oʻsha qismini kesib tashlash ramziy talion ham qoʻllanilgan. Masalan, farzandlikka olingan shaxs otasiga "sen mening otam emassan" desa, tili kesilgan, otasini urgan oʻgʻilning oʻsha urgan qoʻli kesilgan va hokazo.

Hammurapi qonunlari qadimgi dunyo tarixiga mansub boʻlishiga qaramay, bugun ham oʻz dolzarbligini saqlab kelmoqda. Mazkur qonunlar qadimgi dunyo hayotida ijtimoiy me'yorlarni oʻrnatish va tartibsizliklarning oldini olishga qaratilgan boʻlib,

[61]Qarang: Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. -T., 1999, 1-qism, 104-105, 111-114-betlar.

davlatni mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, ushbu hujjat qadimgi davlatning rivojlanish darajasini tavsiflab beradi. Uni o‘rganish davomida Qadimgi Bobil ancha yuqori rivojlanish cho‘qqisiga ega bo‘lganligi va murakkab ijtimoiy munosabatlarni shakllantirganini, ularni huquqiy tartibga solganini kuzatish mumkin.

“Qonunnoma” nafaqat qadimgi Bobil, balki qadimgi Sharq huquqini o‘rganishda muhim manbalardan bo‘lib, qadimgi Mesopotamiyaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tasavvur qilish, o‘rganish uchun qimmatli birlamchi manbalardan biri sifatida benihoya ahamiyatlidir.

Bobil kassit sulolasi davrida. Kassitlar — Eronning shimoliy markaziy tog‘li hududlarida yashagan qabilalar guruhlaridan biri hisoblanadi. Ularni Bobilga qiziqishlari Hammurapi vafotidan ko‘p o‘tmay boshlanib, qisqa qisqa vaqtda Mesopotamiya chegaralarida paydo bo‘ldilar. Taxminan miloddan avvalgi 1742 yilda kassitlar boshlig‘i Gandash Bobilga bostirib kirib, o‘zini “Dunyoning to‘rt tomoni podshohi, Shumer va Akkad podshohi, Bobil podshohi[62]” deb atagan, biroq bu vaqtda mamlakat hali to‘liq ularni nazoratiga tushmagan edi. Faqat xettlar tomonidan yuz bergan vayronkor hujumdan so‘nggina kassitlar Bobil taxtida to‘liq mustahkamlanishga erishdilar.

Agar geografik nuqtai nazardan chuqurroq e’tibor qaratsak, Kassitlar Zagros tog‘i va Erondan Janubiy Mesopatamiyaga kirib kelishgan. Mil.avv II ming yil oldin dehqonlarning daryo bo‘ylariga o‘rnashib, Bobil jamiyatiga qo‘shilishgan.

Bobilning I-sulolasi Xettlar tomonidan vayron etilganda Kassitlar hokimyatni egallab, o‘rnashib olishadi. Milloddan avvalgi 1475-yilgacha bu hududni qayta tiklaganlar. Keyingi 350 yil mobaynida ular butun janubiy Mesopatamiyani o‘z nazoratiga olgan va Shimoliy Afrikadan Janubiy Osiyogacha bo‘lgan hududlarni yagona ulkan davlatga birlashtirishdi[63]. Er. avv. 1595-yildan Bobilda kassit sulolasining hukmronligi boshlanib 1055-yilgacha davom etdi. Bu davr “O‘rta Bobil davri” deb ataladi. Kassitlar Bobilning yuksak madaniyatini qabul qildilar.

[62] Ushbu tushunchalarni taxlil qiling.
[63]Worlds Together,Worlds Apart. W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.99-100.

Kassitlar davrida harbiy ishlarda va transportda otlardan muntazam foydalanish, qishloq xo‘jaligida (plug-seyalka) foydalanish, yo‘llar tarmog‘ini yaratish, tashqi savdoning faollashuvi kuzatiladi. Ammo, umumiy hisobda, xo‘jalikda ishlab chiqarishning va qullar oqimining kamayishi tufayli iqtisodiyotda ma’lum bir to‘xtab qolish seziladi.

Shu bilan birga, kassit urug‘i zodagonlarining boyishi va katta xususiy yer mulkdorligining shakllanishi jarayoni jadallashdi. Bu yerlar jamoaviy mulkdan ajratiladi va podshoh farmonlari orqali mustahkamlanadi. Bunday farmonlarda aristokratlarning berilgan yerlarga bo‘lgan mulk huquqi va jamoa majburiyatlari hamda soliqlardan ozod etilishi tasdiqlanadi. Bu farmonlar maxsus chegara belgilash toshlariga ya’ni “kudurru”larga o‘yib yozilgan.

Kassitlar ham huddi boshqa chorvador, ko‘chmanchi xalqlar kabi o‘zlaridan ustun madaniyatlarni qabul qilganlari kabi yuksak Bobil madaniyatini qabul qilib, o‘z ilohlarini bobillik ilohlar bilan ayniqsa tenglashtirganlar va Mesopotamiya din an’analarini qo‘llab-quvvatlashgan. Masalan, miloddan avvalgi XVI asrda Agum II xettlar yurishi davrida olib ketilgan Marduk va uning rafiqasi Sarpanitning muqaddas haykallarini Bobilga qaytargan va ularning ibodatxonalarini ta’mirlash hamda bezash ishlarini amalga oshirgan. Miloddan avvalgi XV asrda Uruk shahrida ibodatxona qurilgan, XIV asrda esa Urda zikkuratlar va ibodatxonalar ta’mirlangan.

Kassitlar davrida markazlashuv biroz zaiflashdi, chunki Bobilning ayrim hududlarini boshqargan kassit urug‘larining boshliqlari ma’lum darajada mustaqillikka ega edilar. Bundan tashqari, yirik shaharlar - Bobil, Nippur va Sippar - ham mustaqil maqomda bo‘lib, ular nafaqat barcha soliqlar va majburiyatlardan ozod etilgan, balki o‘zlarining harbiy qo‘shinlariga ham ega edilar. Immunitet huquqi beruvchi hujjatlarga ega bo‘lgan kassit zodagonlari keyinchalik mahalliy, ya’ni bobillik zodagonlar bilan qo‘shilib ketgan holda va Bobiliyaning yirik ibodatxonalari, ayniqsa Enlilning Nippurdagi ibodatxonasi, muayyan siyosiy ta’sirga ega bo‘lganlar.

Kassit podshohlarining tashqi siyosati keng qamrovli bo‘lgan. An’anaga binoan o‘zlarini “Dunyoning to‘rt tomoni podshohlari”

deb atagan kassitlar Quyi Mesopotamiyani (bu yerda Primor davlatini anneksiya qilganlar), “Kashshu mamlakati” — ya’ni Janubiy Markaziy Zagros tog‘larida kassit qabilalari yashagan hududni, shuningdek, Shimoliy Markaziy Zagrosdagi Kutium (kutiylar mamlakati)ning ayrim tumanlarini, O‘rta Yevfrat vodiysini va miloddan avvalgi XV–XIV asrlar chegarasida Tadmor markazi bo‘lgan Suriya dashtining katta qismini, hatto Janubiy Suriya va Iordan vodiysi chegaralarigacha o‘z nazoratiga olganlar. Kassit podshohlari Markaziy va Janubiy Eronga ham yurishlar uyushtirib, u yerlarda mustahkamlanishga harakat qilganlar.

XV asr oxirida Misrga qarshi chiqqan kassit podshohi Karaindash Misrni Mitanniga tinchlik shartnomasi tuzishga majbur qilib, “Amarna xalqaro tizimi”ni tashkil etgan asoschilardan biriga aylandi. Natijada, miloddan avvalgi XV asr oxirlaridan boshlab Bobil va Misr o‘rtasida barqaror tinch munosabatlar o‘rnatildi — elchilar doimiy ravishda qatnaydigan, savdo karvonlari yuradigan bo‘ldi. Kassit podshohlari odatda Misr fir’avnlariga sovg‘a sifatida otlar va aravalari, bronza idishlar, qimmatbaho yog‘lar, lovjuvard toshidan yasalgan buyumlar va boshqa narsalar yuborishgan. Javoban ular oltin, qimmatbaho yog‘ochdan yasalgan va tilla hamda fil suyagi bilan bezatilgan ajoyib mebel, zargarlik buyumlari kabi sovg‘alarni qabul qilishgan.

Munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida kassit podshohlari o‘z qizlarini Misr fir’avnlariga turmushga berishgan, ammo Misr podshohlari bunday taklifni rad etishgan — chunki an’anaga ko‘ra misrlik shahzodalarni xorijga turmushga berish mumkin emas edi[64]. Tell-Amarna arxividan topilgan maktublarga ko‘ra, Bobil va Misr o‘rtasida “do‘stlik” va “aka-ukalik” shartnomalari tuzilgan va vaqti-vaqti bilan yangilanib turgan, bunday shartnomalarda o‘zaro yordam borasidagi bandlar ham bo‘lgan.

Misr vaqtincha zaiflashgan paytda Bobil hukumati talabchanroq bo‘ladi. Maktublarda norozilik kayfiyati seziladi. Miloddan avvalgi XIV asr o‘rtalarida hukmronlik qilgan Burna-Buriash II Misr fir’avnining uning kasalligiga nisbatan beparvoligidan, ayniqsa, unga yuborilgan sovg‘alar ichida oltin

[64] Nikoh diplomatiyasi – haqida seminar mashg‘ulotida bahs yuriting.

yo‘qligidan g‘azablanadi. U Exnatonga yozgan maktubida shunday deydi: “Agar sen otang kabi saxiy bo‘la olmasang, hech bo‘lmaganda yarmini yubor”. Bobil ayniqsa, Misrda Ossuriya elchisining qabul qilinishiga qattiq norozi bo‘ladi, chunki XIV asr boshlarida Ashshur Bobilning vassali bo‘lgan va shundan beri bobilliklar uni mustaqil davlat sifatida tan olishni va tashqi siyosiy salohiyatini qabul qilishni rad etishgan.

Burna-Buriash II hukmronligi kassitlar qudratining cho‘qqisi hisoblanadi. U Arrapxuni egallaydi, Elam va Janubiy Eronda o‘z ustunligini o‘rnatadi, xett podshosi Suppiluliuma bilan ittifoq tuzadi (uning qizini Xatti podshoxiga turmushga beradi) va Suriya dashti hamda O‘rta Yevfratga birinchi yurish qilgan aramey qabilalarini nisbatan muvaffaqiyat bilan to‘xtatadi. Ammo u vafot etgach, Bobil bilan kuchayib borayotgan Ossuriya o‘rtasidagi tinimsiz urushlar boshlanadi, bu to‘qnashuvlar taxminan yuz ellik yil davom etadi. Ular har xil natijalar bilan kechadi, ba’zan bobilliklar uchun fojiali tugaydi. Masalan, miloddan avvalgi taxminan 1230–1220 yillarda ossuriya podshohi Tukulti-Ninurta I Bobiliyani vaqtincha to‘liq anneksiya qiladi. Bu davrda Bobilning xalqaro nufuzi tushib ketadi. Xettlar bilan ittifoq davom etgan bo‘lsa-da, Bobil ulardan norozi bo‘ladi. Xattusili III ga yozilgan maktubda shunday deyiladi: “Sen bizga aka-ukadek emas, balki qullaringga buyruq berayotgandek yozyapsan”.

Shu bilan birga, eramizdan avvalgi XII asr boshlarida podshoh Adadshumusur hukmronligida kassitlar qudrati qisqa muddatga qayta tiklanadi, shu darajadaki, hatto Ossuriya ham uning ta’siriga tushadi.

Biroq Kassit Bobiliyasiga halokatli va kutilmagan zarbani elamitlar beradi. Miloddan avvalgi XII asrning ikkinchi choragida ular Mesopotamiyaga bir necha vayronkor yurish uyushtirib, Bobiliyani to‘liq bosib oladi. Taxminan miloddan avvalgi 1150 yilda Gandash sulolasining so‘nggi podshohi taxtdan ag‘dariladi va kassitlar sulolasi barham topadi. Bu vaqtga kelib, Mesopotamiyadagi kassitlar bobilliklar bilan to‘liq singishib ketgan edilar.

Eramizdan avvalgi XIII asr oxirida Bobiliya iqtisodiy va siyosiy tanazzulga yuz tutadi, bu imkoniyatdan uning qo‘shnilari —

Ossuriya va Elam foydalanishadi. Elamitlar tomonidan uyushtirilgan hujumlar ayni paytda juda xatarli boʻlib, miloddan avvalgi XII asr oʻrtalarida Bobiliya toʻliq egallanadi, shaharlar va ibodatxonalar talon-taroj qilinadi, soʻnggi kassit podshoh va uning zodagonlari asir qilinadi. Bobilliklar uchun muqaddas boʻlgan Marduk haykali ham Elamga olib ketiladi. Shunday qilib, kassitlar sulolasining toʻrt asrlik hukmronligi tugaydi. Elam podshohi Bobiliyaga oʻz nomzodini vakil qilib tayinlaydi va elamitlar Tigr, Diyala va Zagros togʻlari orasidagi hududda kengayishni davom ettiradilar.

Elamga qarshi kurash tashabbusi Bobiliyaning gʻarbida joylashgan Issin shahriga oʻtadi. Mamlakat sekin-astalik bilan oʻz kuchini tiklay boshlaydi va Navuxodonosor I (eramizdan avvalgi 1125–1104 yy.) hukmronligida qisqa boʻlsa-da, qayta rivojlanish davri boshlanadi. Der shahri yaqinidagi jangda elamitlar ustidan gʻalaba qozongan bobilliklar Elam hududiga yurish uyushtirib, unga shunday zarba berishadiki, Elam keyingi uch asr davomida (821 yilgacha) manbalarda umuman zikr etilmaydi.

Eramizdan avvalgi XI asr oʻrtalarida Yevfratning gʻarbiy sohillarida yashagan aramey koʻchmanchi qabilalari Bobiliya va Ossuriyaga hujum qilishni boshlaydi. Ushbu umumiy tahdid oldida har ikkala davlat birlashishga majbur boʻladi. Miloddan avvalgi VIII asr oxirida arameylar Bobiliyaning gʻarbiy va shimoliy chegaralarida mustahkam oʻrnashib oladilar.

Eramizdan avvalgi IX asrdan boshlab Bobiliya tarixida xaldeyalik qabilalar tobora muhim rol oʻynay boshlaydi. Ular aramey tilining bir dialektida gaplashgan va ilk bor miloddan avvalgi 878 yilda Ossuriya podshohi Ashshurnatsirapal II ning annallarida zikr etilgan. Xaldeyaliklar Fors koʻrfazi sohillarida, Tigr va Yevfrat daryolarining quyi qismidagi botqoq va koʻl hududlarida yashagan. Ularning olti qabilasi ma’lum. IX asrda ular Bobiliyaning janubiy qismini egallab, asta-sekin shimolga harakat qilganlar, shu bilan birga qadimgi bobil madaniyati va dinini oʻzlashtirganlar. Ular yarim koʻchmanchi turmush tarzi kechirib, chorvachilik, baliqchilik va dehqonchilik bilan shugʻullanganlar. Ular urugʻ-urugʻ boʻlib, oʻz boshliqlari rahbarligida yashaganlar va

bir-biridan ham, janubiy Bobiliyani egallashga uringan ossuriyaliklardan ham mustaqillikni saqlashga intilishgan.

Olimlarning tadqiq etishicha Kassitlardan keyingi Bobil jamiyatining tuzilishi hali yetarlicha ma'lum emas. Mamlakat 14 ma'muriy okrugga bo'lingan. XII asr oxirlaridan boshlab poytaxt yana Bobilga ko'chirilgan.

Podshoh keng davlat yerlar fondiga ega bo'lgan va bu yerlardan xizmatlari evaziga askarlarga, amaldorlarga va ibodatxonalarga ulushlar ajratib berilgan. Yerning ayrim qismi shaxsiy mulk sifatida alohida shaxslarga ham tegishli bo'lgan.

Armiya piyoda askarlar, otliqlar va aravachilardan tashkil topgan. Eramizdan avvalgi XII–XI asrlardagi urushlarda aravachilar juda katta rol o'ynagan, Navuxodonosor I ning g'alabalari aynan ular hissasiga to'g'ri kelgan.

Bobil er. avv. II ming yillik oxiri-er. avv. I ming yillikning I yarmida. Yangi Bobil podsholigi. Er. avv. XII asrda kassitlar Bobiliga qo'shni Elam davlati halokatli zarba berdi. Elam bir necha urushlardan so'ng, er. avv. 1150-yillar atrofida kassitlar sulolasi hukmronligini tugatdi. Lekin biroz vaqt o'tib, Navuxodonosor I (er. avv. 1124-1108-yillar) II Issin sulolasi davrida elamliklar Bobildan haydab yuborildi. Elamga shunday zarba berildiki, Elam haqida uch asr (er. avv. 821- yilgacha) biror-bir matn xabar bermaydi.

Bobilda Ossuriya hukmronligi(miloddan avvalgi VIII–VII asrlar). Er.avv. IX asrning oxiriga kelib, ossuriyaliklar bir necha marta Bobilga bostirib kirib, mamlakatning shimoliy hududlarini bosib oldilar. Er.avv. VIII asrning o'rtalariga kelib, kuchayib borgan Ossuriya davlati Bobil uchun katta xavf tug'dira boshladi. Er.avv. 744 yilda Ossuriya qiroli Tiglatpalasar III Bobilga yurish qilib, Sippardan to Fors ko'rfazi botqoqliklarigacha bo'lgan hududdagi qabilalarni tor-mor etdi va "Shumer va Akkad podshohi" unvonini qabul qildi. Shundan so'ng, Bobil Ossuriya hukmronligini tan olishga majbur bo'ldi. Bobil shaharlaridagi ruhoniylar, amaldorlar va savdogarlar Ossuriya hukmronligining mustahkam tayanchiga aylandilar. Biroq, mamlakat mustaqilligi uchun kurashda tashabbus oddiy xalq va shahar kambag'allariga o'tdi.

Bu tarixiy jarayonni taxlil qilar ekanmiz qiziq holatga, ya’ni hamma davrlarda ham shunga o‘xshash vaziyatlar ro‘y berib turganligi haqida manbalardan ma’lumotlar olamiz. Hatto Mo‘g‘ullar bosqini davrida ham imkoniyati borlar mamlakatdan ketishni xohlagan. Zamonaviy XXI asrdagi harbiy to‘qnashuvlar bo‘layotgan davlat va mintaqalarga e’tibor qaratsak ham shu manzara ko‘zga tashlanmoqda.

Er.avv. 729 yilda Tiglatpalasar III Bobilni egallab, uni to‘liq mustaqillikdan mahrum etdi. Biroq u Bobilni oddiy bir provinsiyaga aylantirmasdan, uni Ossuriya davlati tarkibida alohida podsholik sifatida saqlab qoldi.

Sargon II hukmronligi davrida Ossuriyaliklar Bobil ustidan nazoratni saqlab qola olmadilar. Xalq qabilalardan birini yetakchisi Marduk-apla-iddin II Bobilni egallab, o‘zini mamlakat podshohi deb e’lon qildi. U Elam bilan ittifoq tuzib, Ossuriyaga qarshi urush boshladi. Er.avv. 720 yilda Der qal’asi yaqinidagi jangda elamiylar Ossuriyaliklarni mag‘lub etdilar. Marduk-apla-iddin II ataylab jangga kech kelib, Ossuriyaliklar tortila boshlagan paytda maydonga yetib keldi. Bu g‘alaba Bobilga o‘n yilcha tinchlik baxsh etdi va Marduk-apla-iddin II m.a. 721–710 yillarda Bobil taxtida o‘tirdi. Er.avv. 710 yilda Sargon II Elamga muvaffaqiyatli yurish qilib, so‘ngra Marduk-apla-iddinga qarshi yurish boshladi. U Bobilning janubiga chekindi va keyinchalik o‘z vatani bo‘lmish Bit-Yakinga qochib ketdi. Er.avv. 709 yilda Sargon II Bobilga kirib kelib, u yerda tantanali ravishda taxtga o‘tirdi.

Er.avv. 705 yilda Sinaxxerib Ossuriya taxtiga o‘tirgan paytda, Marduk-apla-iddin II kuchli koalitsiya tuzishga muvaffaq bo‘ldi. U Bobilning janubiy shaharlariga va ayrim aramey qabilalariga tayandi, shuningdek, Ossuriyaning ehtimoliy dushmanlari — Yahudo, Tir, Arvad, Askalon shaharlari va Elam bilan ittifoq tuzdi. U Ossuriya nazoratidagi hududlarda qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi.

Er.avv. 703 yilda u Bobilni egalladi, biroq bir qator harbiy va diplomatik mag‘lubiyatlardan so‘ng uni tark etib, mamlakatning janubiy botqoqliklariga qochishga majbur bo‘ldi. Er.avv. 692 yilda bobilliklar yana Ossuriyaliklarga qarshi qo‘zg‘aldilar va Elam, Zagros qabilalari va arameylar bilan ittifoq tuzdilar. Bu

koalitsiyaning asosiy quvvati elam va eronlik harbiy otliqlar, piyoda askarlar va otliq qoʻshinlar edi. Ularning sadoqati Bobil ibodatxonalaridan olingan oltin va boshqa boyliklar evaziga sotib olingan edi. Hal qiluvchi jang er.avv. 691 yilda Tigr daryosi yaqinidagi Xaluleda boʻlib oʻtdi. Ikkala tomon ham katta yoʻqotishlarga uchradi, ammo hech biri hal qiluvchi gʻalabaga erishmadi.

Er.avv. 690 yilda Sinaxxerib Elam podshohining falaj boʻlganini bilib, Bobilga qamal e'lon qildi. Shaharda ochlik boshlandi, ozuqa narxi 75 baravar oshib ketdi. Koʻchalar va maydonlar dahshatli darajadagi qurbonlar jasadlari bilan toʻlib ketdi. Elamdan yordam kelmagach, er.avv. 689 yil aprelda Bobil taslim boʻldi. Sinaxxerib shaharni butunlay vayron qildi. Xususiy uylar va ibodatxonalar talon-taroj qilindi, aholisi qirib tashlandi, omon qolganlar qullikka olib ketildi. Shahar yer bilan yakson qilindi va uning hududi suv ostida qoldirildi. Endi Bobil Ossuriyaning oddiy provinsiyasiga aylantirildi.

Yangi Ossuriya qiroli Asarxaddon oʻz hukmronligining boshlarida Bobilni qayta tiklash va omon qolgan aholisini qaytarish buyrugʻini berdi. Er.avv. 669 yilda, vafotidan sal oldin, u Ossuriya imperiyasini ikki oʻgʻli oʻrtasida boʻlib berdi. Ashshurbanapalga Ossuriya, Shamash-shum-ukinga esa vassal podshoh maqomida Bobil nasib etdi.

Er.avv. 652 yilda Shamash-shum-ukin Misr, Suriya hukmdorlari, Elam, arameylar va arablar bilan maxfiy ittifoq tuzib, Ossuriyaga qarshi qoʻzgʻolon koʻtardi. Der qal'asi yaqinida Ossuriyaliklar bilan Bobil-Elam qoʻshinlari oʻrtasida jang boʻlib oʻtdi, ammo u hal qiluvchi gʻalabani ta'minlamadi. Keyinchalik, siyosiy fitnalar va saroy toʻntarishlari orqali Ossuriyaliklar Elamni kurashdan chiqarishga muvaffaq boʻldilar. Qolgan ittifoqchilar esa samarali yordam koʻrsata olmadilar.

Ossuriya qoʻshinlari Shamash-shum-ukin hukmronligidagi shaharlarni uch yil muhosarada ushladi. Uzor muhosara davomida Bobilda epidemiyalar va odamiylik holatlari kuzatildi. Er.avv. 648 yil yozda shahar quladi. Shamash-shum-ukin boshchiligidagi soʻnggi himoyachilar yonib ketayotgan saroyda halok boʻldilar. Qutulib qolgan aholi yana bir bor qattiq jazoga duchor boʻldi.

Nabopolasar davrida Ossuriyaning mag‘lub etilishi va Yangi Bobil davlatining tashkil topishi. Bobil – Yaqin Sharqning eng rivojlangan mintaqalaridan biri sifatida – mustaqillik sari intilishdan hech qachon to‘xtamagan. Er.avv. 626 yil boshlarida Ossuriya hukmronligiga qarshi xalq qo‘zg‘oloni boshlandi. Bu harakatga xalq vakili bo‘lgan ancha ta’sirga ega Nabopolasar rahbarlik qildi. U mamlakatning shimolida hokimiyatni mustahkamladi va Elam bilan an’anaviy ittifoqni tikladi. Bir nechta muvaffaqiyatli harbiy operatsiyalardan so‘ng, er.avv. 626 yil oktyabrida Bobil Nabopolasar tomonga o‘tdi. 25 noyabr kuni u tantanali ravishda Bobil taxtiga o‘tirdi va xaldeylar (yoki Yangi Bobil) sulolasining asosini qo‘ydi. Biroq faqatgina urushning birinchi o‘n yilligi oxiriga kelib, bobilliklar mamlakatning yirik shaharlaridan biri Urukni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Keyinchalik, avval ossuriyaliklarga sadoqat bilan xizmat qilgan muqaddas Nippur shahri ham og‘ir qurbonlar evaziga qo‘lga kiritildi.

Er.avv. 616 yilda Bobil qo‘shinlari Ossuriya poytaxti Ashshurni qamal qildi, biroq uni olishga erishmadi. Kutilmagan yordam sharqdan keldi. Er.avv. 614 yilda midiyaliklar Ossuriyaning Arrapxa viloyatini egallab, Nineviyani muhosaraga oldilar. Qal’ani yetib bo‘lmas deb hisoblab, ular Ashshurni bosib olib, uning aholisini qirib tashladilar. Shahar vayron bo‘lganidan so‘ng, Nabopolasar o‘z qo‘shini bilan u yerga yetib keldi. Midiya va Bobil o‘rtasida ittifoq tuzildi va u Nabopolasarning o‘g‘li Navuxodonosor bilan midiya qiroli Kiaksarning qizi o‘rtasidagi nikoh diplomatiyasi orqali mustahkamlandi.

G‘oliblar boyliklarni bo‘lish bilan mashg‘ul bo‘lib turgan paytda, ossuriyaliklar Yevfrat vodiysidagi janglarni davom ettirish uchun yana bir marta kuch to‘pladilar. Biroq midiya va bobilliklar Nineviyani qamal olib, uch oydan so‘ng, er.avv. 612 yil avgustda uni egallab, batamom vayron etdilar. Aholisi butunlay qirib tashlandi. Bu Ossuriya tomonidan Yaqin Sharqda yuzlab yillar davomida qilingan talonchilik va xalqlarning qirilishiga nisbatan qattiq intiqom edi.

Ossuriya qo‘shinlarining bir qismi G‘arbiy Mesopotamiyadagi Xarron shahriga chekinib, u yerda qarshilikni davom ettirdi. Biroq

er.avv. 609 yilda midiyaliklar va bobilliklar ularga hal qiluvchi zarba berdilar. Shunday qilib, Bobilning Ossuriya hukmronligidan ozodlik uchun koʻp asrlik kurashi oʻz nihoyasiga yetdi.

Ossuriya imperiyasining parchalanishi natijasida midiyaliklar Ossuriyaning markaziy hududlarini va Xarron shahrini egallab, bobilliklar esa Mesopotamiyaning qolgan qismlariga ega boʻldilar. Bu vaqtda Yaqin Sharqda faqat uchta yirik davlat qolgan edi: Midiya, Bobil va Misr. Shuningdek, Kichik Osiyoda Lidiya va Kilikiya kabi kuchli davlatlar mavjud edi. Bobilliklar harbiy yutuqlarini davom ettirib, kuchli Midiyaga tayanayotgan holda, Yevfratning gʻarbidagi, avval Ossuriyaga tegishli boʻlgan yerlarni egallashni maqsad qildilar. Biroq bu yerlarga Misr ham da'vo qilardi, bu esa misr-bobil munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi.

Er.avv. 607 yilda Nabopolasar davlatning ichki ishlarini oʻz qoʻlida saqlagan holda, harbiy qoʻmondonlikni oʻgʻli Navuxodonosorga topshirdi. Uning birinchi maqsadi Yevfratda joylashgan Karxemish shahrini egallash edi, u yerda kuchli misr garnizoni bor edi. Er.avv. 605 yilda boʻlib oʻtgan shiddatli jangda garnizon toʻliq yoʻq qilindi va shahar vayron qilindi. Shundan soʻng, Bobil Suriya va Falastinni hech qanday qarshiliksiz egalladi.

Navuxodonosor II davri. Er.avv. 605 yilda Nabopolasar vafot etgach, Navuxodonosor II Bobilning yangi qiroli deb e'lon qilindi. U tez orada Gʻarbda harbiy harakatlarni qayta boshladi. Shu yili finikiyaliklar shahri Askalonni zabt etdi. Er.avv. 598 yili esa janubiy Arabistonga yurish qilib, u yerda karvon yoʻllari ustidan nazoratni qoʻlga kiritdi. Shu vaqtda Misr koʻmagida Yaxudiy davlati Bobildan yuz oʻgirdi. Er.avv. 597 yilda Navuxodonosor II Yaxudiy poytaxti – Quddusni muhosaraga oldi va uni egallab, 3000 nafar yahudiyni asirlikka Bobilga olib ketdi. Bu voqea tarixda "Bobil asirligi" nomi bilan mashhur.

Biroq Gʻarbdagi vaziyat barqaror emas edi. Bobilga qarshi chiqishlar vaqtida misrliklar finikiya shaharlari – Gʻazo, Tir va Sidonni egallab, yahudiylarni yanada isyonga

undadi. Bobilliklar misr armiyasini avvalgi chegaralarga chekinishga majbur etib, Quddusni ikkinchi marta muhosaraga oldilar. Ikki yillik muhosaradan so‘ng, er.avv. 587 yilda shahar qo‘lga olindi. Navuxodonosor Yaxudiy davlatini tugatdi va uni Bobilga bog‘liq viloyatga aylantirdi. Minglab yahudiylar asirga olinib, Bobil va boshqa shaharlarga joylashtirildi. Shundan so‘ng bobilliklar Finikiyaning Tir shahrini muhosara qilishdi. Bu muhosara 13 yil davom etdi va faqat er.avv. 574 yildagina muvaffaqiyatli yakunlandi.

Retrospektiv taxlil. Iroq Respublikasini uzoq yillar (1979-2003 yillar) boshqargan prezidenti Saddam Husayn o‘zini qadimgi Bobil podsholaridan Navuxodonosor II ga qiyoslagan. U 1980–1990-yillarda Bobil tarixini o‘z hokimiyatini legitimlashtirish uchun ramz sifatida qo‘llagan. Uning tashabbusi bilan Bobil xarobalarida restavratsiya ishlarini olib borib, ayrim g‘ishtlarga “Navuxodonosor davrida Bobil qurilganidek, Saddam Husayn davrida ham qayta tiklandi” mazmunidagi yozuvlarni tushirtirgan. Shu orqali u o‘zini Iroqning tarixiy davomchisi va kuchli hukmdori sifatida ko‘rsatishga uringan. Iroq sudi hukmiga ko‘ra 2006 yil 30 dekabr sanasida dorga osib qatl etilgan[65].

Iqtisodiy va madaniy yuksalish. Navuxodonosor II hukmronligi Bobilning iqtisodiy ravnaqi va madaniy tiklanishi davri bo‘ldi. Bobil shahar aholisi taxminan 200 000 nafarga yetdi va qadimgi Sharqning eng yirik markaziga aylandi. Shahar Yevfrat daryosi va uning ikki yirik kanali bo‘ylab joylashgan edi. Yevfratning g‘arbidagi yangi shahar qismi 123 metrlik ko‘prik orqali markaziy Bobil bilan bog‘langan edi. Shaharning bir chetida podshohlik saroyi, ikkinchi chekkasida esa asosiy ibodatgoh – Esagila joylashgan edi. Bu to‘rt burchakli majmua har tomonlama 400 metrgacha cho‘zilgan bo‘lib, Etemenanki zikkurati –ibodat manzili unga tutashgan edi. Balandligi 91 metr bo‘lgan Etemenanki “osmon va yer burchak toshi ibodatxonasi” deb atalgan. Bu bino keyinchalik “Bobil burjini” anglatgan deb hisoblanadi va qadimgi dunyo mo‘jizalaridan biri sifatida tan olingan. Zikkuratdan asosiy kirish joyigacha kengligi 35 metrga yetadigan ibodat marosimlar uchun mo‘ljallangan tosh yo‘lak

[65] Ushbu mavzu qiyosiy o‘rganing. Dars jarayonlarida bahs munozara qiling.

yotgan. Bu yo‘l Ishtarga bag‘ishlangan 12 metrli baland darvozaga olib borgan. Darvoza mifologik hayvonlar tasvirlari bilan bezatilgan edi.

Navuxodonosor II xotini – midiyalik malika xotirasini yod etish maqsadida, mashhur “osma bog‘lar”ni qurdirgan, bu bog‘lar baland terasalar ustida barpo etilgan bo‘lib, ekzotik daraxtlar bilan to‘ldirilgan edi. Ular ham dunyo mo‘jizalaridan biri sifatida tan olingan[66]. Sippar yaqinida katta sun’iy ko‘l (yoki “dengiz”) kovlangan bo‘lib, u yerdan yuzlab kilometrga cho‘zilgan irrigatsiya kanallari orqali maydonlar sug‘orilgan.

Bobil tashqi tahdidlardan himoya qilish uchun mustahkam harbiy qamal devorlar bilan o‘ralgan. Shahar ikki qatlam devor bilan muhofaza qilingan, devorlar yonida xandaqlar qazilgan. Tashqi devor 8 metr, ichkisi 11–14 metr balandlikka ega bo‘lgan. Devorlar 8 ta asosiy darvoza, qirol sarbozlari va 20 metr oraliqda joylashgan mingdan ziyod ustuvor minoralar bilan qo‘riqlangan.

Nabonid boshqaruvi va davlatning qulashi. Er.avv. 562 yilda Navuxodonosor II vafotidan so‘ng, Bobil zodagonlari va ruhoniy doiralari siyosiy hayotga faol aralashib, o‘zlariga ma’qul bo‘lmagan podshohlarni tez-tez almashtira boshladilar. Uzoq davom etgan taxt uchun kurashlardan so‘ng, er.avv. 556–539 yillarda Nabonid taxtga keldi. Uning otasi aramey qabilasidan bo‘lib, onasi Xarrondagi Sin ibodatxonasida ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan. Midiyaliklar Xarronni egallaganidan so‘ng, u o‘g‘li bilan Bobilga qochib keladi va keyinchalik Nabonidga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Nabonid Marduk, Nergal, Shamash kabi an’anaviy bobil xudolariga e’tiqod qilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u Sin – oy xudosi – kultin birinchi o‘ringa qo‘ydi. Bu xudo aslida bobilliklar uchun markaziy iloh emas, balki arameylarning bosh ilohi edi. Shunday qilib, Nabonid Sinni davlat xudosi sifatida tanitib, butun Yaqin Sharqdagi aramey qabilalarini birlashtirishga intildi. Bu esa Bobil ruhoniylari bilan ziddiyatni keltirib chiqardi.

Er.avv. 553 yilda, Midiya podshosi Astiag Fors hududlariga qarshi urush boshlashi munosabati bilan o‘z garnizonini

[66] Semiramida bog‘lari – ammo bu haqida turli taxminlar bor. Talabalar seminar mashg‘ulotida “Etti mo‘jiza” haqida ma’lumotlar to‘plab, munozara qiling.

Xarrondan chiqargan paytda, Nabonid bu holatdan foydalanib, Xarronni qaytarib oldi va 609 yilda vayron qilingan Sin ibodatxonasini tiklashga farmon berdi. U shuningdek Arabistonning markazida joylashgan Teyma mintaqasini ham zabt etib, u orqali o‘tadigan muhim karvon yo‘lini nazoratga oldi. Bu yo‘l Misrgacha borib, Bobilning savdo aloqalari uchun strategik ahamiyatga ega edi, chunki VI asrning o‘rtalariga kelib Yevfrat o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan va Ur orqali Fors ko‘rfaziga olib boruvchi dengiz yo‘llari amalda qolmagan edi. Nabonid o‘z saroyini Teymaga ko‘chirib, Bobilda hokimiyatni o‘g‘li Bel-shar-usurga (Tanaxdagi Valtasar) topshirdi.Biroq Nabonid G‘arbda faoliyat yuritib turgan paytda, Bobilning sharqiy chegaralarida yangi kuchli raqib – Fors davlati – paydo bo‘ldi. U Midiya, Lidiya va Hindistongacha bo‘lgan barcha hududlarni zabt etib, Bobilga yaqinlashib kelardi.

Urush yaqin ekanligi ayon bo‘lganida, Nabonid Bobilga qaytib, mudofaa tayyorgarliklariga kirishdi. Biroq mamlakatning ichki ahvoli nihoyatda og‘ir edi. Aholi forsliklar tomoniga og‘ib ketgan, ruhoniylar esa Nabonidning diniy siyosatidan norozi bo‘lgan. Savdogarlar ham forsliklar tomonini qo‘llab-quvvatlardi, chunki qadimiy savdo yo‘llari endi perslar qo‘lida edi. Asrlar davomida asirga olib kelingan turli xalqlar forsliklarni qutqaruvchi sifatida kutayotgan edilar. Qishloq ahli va hunarmandlar Nabonidning urush tayyorgarliklariga befarq qarashardi, armiya esa Arabistondagi uzoq va halokatli yurishlardan charchagan edi. U Fors armiyasining sifat va miqdor jihatdan ustunligiga dosh bera olmasdi.

Er.avv. 539 yil bahorida Kir II boshchiligidagi Fors qo‘shinlari Diola vodiysi orqali yurish boshladi. Navuxodonosor II tomonidan qurilgan Sippardan to Opisgacha cho‘zilgan mustahkam mudofaa chiziqlari, jumladan Bobilning devorlari, qayerdadir uzoq muddatli qarshilik ko‘rsatish imkonini berishi mumkin edi. Biroq mamlakat ichidagi siyosiy tanglik va xalqning passivligi bu imkoniyatni yo‘qqa chiqardi.

Er.avv. avgust oyida Opis yaqinida forsliklar Bel-shar-usur qo‘mondonligidagi Bobil armiyasini mag‘lub etdilar. Kir armiyasi Yevfratdan yuqoriga o‘tib, Sipparni muhosara qildi, bu yerda

Nabonid shaxsan mudofaaga rahbarlik qildi. Biroq Sippar qarshiliksiz taslim boʻldi va Nabonid Bobilga chekindi. Ammo barcha harakatlar behuda ketdi – 539 yil 12 oktyabrida Kirning qoʻshinlari Bobilga kirdi. 17 kundan soʻng Kir II oʻzi tantanali ravishda shaharga kirib keldi. Nabonid hibsga olinib, Karmaniya viloyatiga sharafli surgunga yuborildi, oʻgʻli Bel-shar-usur esa qatl etildi.

Fors hukmronligi va Bobil davlatining tugashi. Fors maʼmuriyati mamlakatni tezda tartibga solish uchun kuchli targʻibot kompaniyasini boshladi. Kir Silindri va Bobil solnomalari kabi hujjatlarda Kir Nabonidning zolimligidan xalqni ozod qilgan qutqaruvchi sifatida tasvirlanadi. Nabonid butlarga behurmatlikda, ibodatxonalarni tahqirlashda, xalqni qiynashda, hatto aqlsizlik va johillikda ayblanadi. Marduk goʻyo Kirga Bobil taxtini meros qilib bergan.

Bu manbalar tanqidiy yondashuvni talab etadi – ularning aksariyati Bobil ruhoniylari tomonidan Kir buyurtmasiga asosan yozilgan boʻlib, kuchli targʻibot taʼsiri seziladi. Ammo Kirning siyosati ossuriyalik va bobillik podshohlar siyosatidan farq qilardi – u mahalliy diniy urf-odatlarga hurmat bilan yondashdi, mahalliy xudolarga qurbonliklar qildi va asirga olingan xalqlarga vataniga qaytishga ruxsat berdi.

Kir Bobilni Fors davlatining alohida siyosiy birligi sifatida saqlab qoldi, mamlakatning ijtimoiy tuzumi oʻzgarmadi. Bobil podshohlik rezidensiyalaridan biriga aylandi. Maʼmuriy tizimda ham jiddiy oʻzgarishlar yuz bermadi – mahalliy amaldorlar oʻz lavozimlarida qoldirildi, savdo-iqtisodiy faollikni qoʻllab-quvvatlashga eʼtibor qaratildi. Koxinlar oʻz qadimiy dinlarini tiklashga imkon topdi va Kirning hokimiyati Marduk nomi bilan qonuniylashtirildi.

“Bobil va barcha mamlakatlar podshohi” unvonini oldi va bu unvon Kserks I davrigacha saqlandi. Biroq asl holatda Bobil tashqi siyosatda mustaqilligini toʻliq yoʻqotdi. Ichki boshqaruvda ham asosiy lavozimlar forslik amirlar qoʻlida boʻldi. Er.avv. 522–521, 484 va 482 yillarda Bobilda Fors hukmronligiga qarshi bir necha marta qoʻzgʻolonlar boʻldi. Eng soʻnggi isyondan soʻng (482 yilda), Bobil podshohligi tugatilib, Forsning oddiy satrapiyasiga

aylantirildi. Demak, Bobilni Eron Ahmoniylari davlati to‘liq zabt etdi.

Er. avv. VII–IV asrlarda Bobil iqtisodiyoti va jamiyati.

Er. avv. VII–IV asrlarda Bobilda asosiy ishlab chiqarish tarmog‘i, avvalgi davrlar kabi, qishloq xo‘jaligi hisoblangan. Qayta ishlashga yo‘naltirilgan yerlarning katta qismi ibodatxonalarga, podshohlik oilasi a’zolariga, yirik savdogarlarga hamda davlat va ibodatxona ma’muriyatiga mansub amaldorlarga tegishli bo‘lgan. Mayda dehqonlar odatda ⅓ gektardan bir necha gektargacha yerga egalik qilgan. Yer juda qimmat bo‘lgani uchun, dehqonchilikka nisbatan bog‘dorchilik bilan shug‘ullanish foydaliroq hisoblangan. Dehqonchilik sun’iy sug‘orish tizimiga asoslangan. Mamlakatda ko‘plab kanallar mavjud bo‘lib, ular davlat tasarrufida bo‘lgan, ayrim hollarda esa ibodatxonalar yoki xususiy shaxslarga ham qarashli bo‘lgan. Belgilangan to‘lov evaziga bu kanallardan barcha yer egalari va ijarachilari foydalanish huquqiga ega bo‘lishgan.

Mayda yer egalari o‘z yerlarini odatda oila a’zolari mehnati bilan ishlatishgan. Podshoh, ibodatxonalar va boshqa yirik yer egalari esa yerlarni to‘liq yoki qisman ijaraga berib kelgan. Ijara to‘lovi ikki xil tarzda belgilangan: yoki shartnoma tuzishda yer sifatidan kelib chiqib aniq summasi ko‘rsatilgan, yoki esa hosilning ⅔ qismi ijarachiga, ⅓ qismi esa yer egasiga tegishli bo‘lgan.

Yangi-Bobil davrida hunarmandchilik jadal rivojlangan. Matnlarda tosh usta, to‘quvchi, temirchi, misgar, binokor, zargar, yuvuvchi, nonvoy, pivo tayyorlovchi kabi kasb egalari zikr etilgan. Ayrim hunarmandlar mahsulotini bozorda sotgan bo‘lsa, aksar hollarda buyurtma asosida ma’lum haq evaziga buyum tayyorlab berish uchun shartnoma tuzishgan. Ayrim shaxslar o‘z qullarini hunarga o‘rgatish uchun ustalarga topshirishgan, chunki malakali hunarmand oddiy qulga nisbatan egasiga ancha ko‘p daromad keltirgan. Qullarni charm ishlash, oqsoqollik, to‘quvchilik, bo‘yash, duradgorlik, uy qurish kabi kasblarga o‘rgatish to‘g‘risidagi shartnomalar saqlanib qolgan. Ko‘p hollarda ustalarning o‘zi ham qullardan iborat bo‘lgan. O‘qitish murakkabligiga qarab 15 oydan 6-8 yilgacha davom etgan va shu davr mobaynida o‘quvchi

ustaning qaramog‘ida bo‘lgan. Qul egasi uni o‘zi boqib, kuniga taxminan bir litr arpa va kiyim-kechak bilan ta’minlagan. Ustaga to‘lov sifatida qulning mehnati xizmat qilgan va ta’lim muvaffaqiyatli yakunlangandan so‘ng usta egasidan sovg‘a ham olgan. Ammo agar usta qulni yetarlicha o‘rgatmasa, o‘quv davridagi mehnat to‘lovi — odatda kuniga 6 litr arpaga teng miqdordagi, yiliga o‘rtacha 12 sikl kumushga teng mablag‘ni egasiga qaytarishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, shartnomani buzgan hollarda u 20–30 sikl miqdorida jarima to‘lashi shart bo‘lgan. O‘qish tugagach, qul yo egasi xo‘jaligida ishlagan, yoki ustasi qaramog‘ida qolib, uning o‘rniga ishlab haq to‘lagan. Ayrim hollarda esa qul mustaqil ustaxona ochib, egasiga muayyan obrok to‘lagan.

Bunday ta’lim berish imkoniyati faqat juda boy shaxslardagina bo‘lgan, chunki ta’lim jarayonida qul egasi na foyda ko‘rar, balki unga sarf-xarajat ham qilishi kerak bo‘lgan. Kam sonli qulga ega shaxslar bunday muddatli sarmoya qilish imkoniyatiga ega emas edilar.

Bobil jamiyati to‘la huquqli fuqarolar, fuqarolik huquqidan mahrum erkin shaxslar, yarim erkin aholi qatlamlari va qullardan iborat bo‘lgan. To‘la huquqli fuqarolar mahalliy ibodatxonalar huzuridagi xalq yig‘inlarining a’zosi bo‘lib, oilaviy va mulkiy nizolarni hal qilishda sud vakolatiga ega bo‘lgan, ibodatxona marosimlarida qatnashgan va ibodatxona daromadidan muayyan ulush olish huquqiga ega bo‘lgan. Ular qatoriga davlat va ibodatxona amaldorlari, ruhoniylar, savdogarlar, hunarmandlar va yer egalari kirar edi. Ular huquqiy jihatdan teng hisoblangan va maqomi merosiy tusda bo‘lgan. Ular barchasi shaharlarda istiqomat qilgan va tegishli shaharning atrofidagi hududda yerga egalik qilgan.

Fuqarolik huquqidan mahrum erkin shaxslar qatoriga podshohlik qo‘shinlarida xizmat qiluvchi kolonistlar, podshoh xizmatidagi xorijlik amaldorlar va boshqa turli sabablarga ko‘ra Bobilda istiqomat qiluvchi chet elliklar kirar edi. Ular ayrim hollarda o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotini tuzishlari mumkin bo‘lgan. Masalan, er.avv. VI asrning 30-yillarida Bobilda yashovchi misrliklar o‘z xalq yig‘iniga ega bo‘lib, misrliklarga oid turli

masalalarni hal qilgan. Bobilda istiqomat qilgan yahudiylar ham o‘z xalq yig‘inlariga ega bo‘lishgan. Ammo chet elliklar mahalliy xalq yig‘inlariga a’zo bo‘la olmagan, chunki ular shahar yer fondidan yer olish huquqiga ega emas edilar.

Zaminsiz yer ishlovchilari — davlat, ibodatxonalar va xususiy shaxslar yerlarida avloddan-avlodga ishlab kelgan, yersiz dehqonlar ham jamiyatning qaram qatlamini tashkil qilgan. Huquqiy jihatdan ular qul sanalmagan va ularni sotish mumkin bo‘lmagan.

Qullar qatlami Bobil jamiyatida muhim o‘rin tutadi. Qullar o‘z egalarining to‘liq mulki bo‘lib, huquqga emas, faqat majburiyatlarga ega bo‘lgan. Qullar ibodatxonalarga, xususiy shaxslarga va podshohga tegishli bo‘lgan. Ibodatxona xo‘jaliklarida yuzlab qullar ishlagan, boy shaxslar 3–5, yirik savdo uylari esa o‘nlab, ba’zan yuzlab qullarga ega bo‘lgan. Lekin soniga ko‘ra qullar erkin fuqarolardan kam bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi asosan erkin dehqonlar va ijarachilar mehnatiga, hunarmandchilik esa oilaviy meros tariqasida o‘tadigan erkin hunarmandlarga tayangan. Agar egasi qul mehnatidan foydalanishni ma’qul ko‘rmasa, unga muayyan mulk (pekuliy) berilib, u o‘z egasiga yillik obrok to‘lash majburiyatini olgan. Pekuliy ko‘char (pul, mol) va ko‘chmas (yer, uy) mulklardan iborat bo‘lgan. Qul bu mulkdan egasining manfaatini ko‘zlab foydalanishi lozim bo‘lgan. Yillik obrok o‘rtacha 12 sikl kumushni tashkil etgan. Bu summa yollanma ishchi mehnatining o‘rtacha yillik haqiga teng bo‘lgan. Qulning o‘zi 60–90 sikl kumushga baholangan[67].

Mesopotamiyadagi tabaqaviy jamiyatning uzoq rivojlanishi jamiyatda murakkab va ziddiyatli shakllarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Er. avv. I mingyillikda ayrim qullar oilaga, mulkka, o‘z qullariga va xatto muhrlarga ega bo‘lib, bitimlarda guvohlik ham berganlar. Ular boshqa qullar va erkin shaxslar bilan sudlashish huquqiga ega bo‘lgan, faqat o‘z egasi bundan mustasno bo‘lgan. Bunday qullar o‘z xo‘jaligi uchun boshqa qullar sotib olgan va hatto yollangan ishchilar (erkin va qullar)dan foydalangan. Biroq ular ozchilikni tashkil qilgan. Aksariyat qullar egasi nazoratida yashagan va mulkka ega bo‘lmagan. Qayta-qayta qochgan qullar

[67] Sikl - bu qadimgi Mesopotamiyada, jumladan Bobilda, og‘irlik va pul birligi hisoblangan.

esa maxsus tartib oʻrnatilgan ish uylarida qamoqda saqlangan. Er.avv.I ming yillikda qarzdorlik qulilik tizimi ham oʻzgarishga uchragan. Qarzdor sudsiz qarzdorlik qamoqxonasiga joylashtirilgan, lekin sotilishi mumkin boʻlmagan. U qarzini mehnat orqali toʻlagan. Avvalgi davrlarda mavjud boʻlgan oʻzini garovga qoʻyish yoki sotish amaliyoti yoʻqolgan. Oila boshligʻi xotinini endi garovga qoʻya olmagan, ammo farzandlarini berishi mumkin boʻlgan. Hammurapi qonunlarida qarz qulligiga muddat qoʻyilgan boʻlsa-da, bu davrda u amal qilmagan. Savdo-moliya munosabatlarining rivojlanishi sharoitida yollanma mehnat muhim ahamiyat kasb etgan. Bu ayniqsa ibodatxona xoʻjaliklarida keng qoʻllanilgan. Ba’zan yetarlicha ishchi topish qiyin boʻlgan va ish haqi juda yuqori toʻlangan. Hujjatlarda yuzlab ishchilar jalb etilgan holatlar qayd etilgan. Ular oʻz mehnat haqlari kechikishi yoki kamligiga qarshi norozilik bildirishgan. Bunday yollanma ishchilar qatlami kambagʻal, yersiz yoki kam yerli erkin shaxslardan iborat boʻlgan. Ayrim hollarda ular hatto Elam kabi qoʻshni mamlakatlardan jalb etilgan va hosil yigʻimidan soʻng uyiga qaytarilgan.

Ibodatxonalar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega boʻlib, yirik yer va qul egalari, shuningdek sudxoʻrlik va savdo ishlari bilan ham shugʻullangan. Ibodatxonalarning asosiy daromad manbai turli soliqlar boʻlgan. Ularning eng muhimi oʻndan biri soligʻi boʻlib, u yer egalaridan, chorvachilardan, bogʻbonlardan, nonvoylardan, hunarmandlardan hamda turli amaldorlardan undirilgan. Bu soliq odatda arpa, xurmo, pul, mol, parranda, baliq, jun va hunarmandchilik mahsulotlari bilan toʻlangan.

Bobil Eron tomonidan zabt etilgandan soʻng ibodatxonalar davlatga katta miqdorda natural soliqlar — chorva, don, xurmo toʻlash hamda shoh xoʻjaliklarida ishlash uchun oʻz qullarini yuborish bilan majbur boʻlgan. Bu jarayon shoh amaldorlari tomonidan qat’iy nazorat ostida boʻlgan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Bobil davlati va uning markazlashgan davlatga aylanishidagi asosiy omillar nimalardan iborat bo‘ldi?
2. Xamurappi davrida amalga oshirilgan islohotlar va ularning amaliy natijasi haqida ma’lumot bering.
3. Xamurappi qonunlari asosida Qadimgi Mesopotamiyadagi ijtimoiy va iqtisodiy ahvolni tahlil qilishga xarakat qiling.
4. Hammurapi qonunlarida qadimgi Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
5. Hammurapi qonunlarida mulkchilik munosabatlari.
6. Yangi Bobil podsholigining ichki va tashqi siyosati.
7. Er.avv.I ming yillikda Bobilda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
8. **Keys savoli:**Hammurapi qonunlariga ko‘ra, agar er nikoh shartnomasidagi majburiyatini bajarmasa yoki xotiniga adolatsiz munosabatda bo‘lsa, qanday chora qo‘llanishi mumkin? Bu holatda xotin qanday huquqlariga ega bo‘ladi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

8-MAVZU. MITANNI DAVLATI

Reja

1. Qadimgi Mitanni davlatining geografik o‘rni, tabiiy sharoitlari va aholisi.
2. Mil. av. XVII asrda shimoliy Mesopotamiya.
3. Mitanni davlatining ijtimoiy tuzumi va ho‘jaligi.
4. Qadimgi Mitanni madaniyati.

Qadimgi Mitanni davlatining geografik o‘rni, tabiiy sharoitlari va aholisi. Qadimgi Mitanni janubi – g‘arbiy Osiyodagi quldorlik davlatlardan biridir. Bu qadimgi davlat Mesopotamiyaning shimoliy va shimoli – g‘arbiy qismida joylashgan. Uning yerusti tuzilishi shimolda tog‘lik va qir – adirliklardan, g‘arbiy qismi ham tog‘liklardan iborat. Janubiy qismi esa Mesopotamiya pasttekisliklari bilan tutashib ketadi. Mamlakat g‘arbdan Frot daryosining Xabur va Belix daryolari oqib o‘tadi.Sharq tomonidan esa quyi Zab, yuqori Zab, Dajla va uning irmoqlari oqib o‘tadi.Mitannining obi havosi quyi Mesopotamiyagacha nisbatan biroz boshqacha, yozi mo‘tadil, qishi xiyla sovuqroq.

Uning tog‘lik joylari ossuriyaliklarniki singari o‘tloq – yayolovlarga ancha boy bo‘lgan. Mitanni yerlarining qulay geografik muhiti qadim zamondan o‘rta paleolitdan boshlab ibtidoiy odamlar diqqatini jalb qilgan. Yuqori va quyi Zab daryolari vodiysida o‘rta paleolit makonlarining topilishi fikrimiz dalilidir. Mitanni aholisining asosiy qismini xurritlar tashkil etib, keyinchalik ular ossurlar, amoriylar va boshqa xalqlar bilan aralashib ketganlar. Ushbu qadimgi davlatning hududlari zamonaviy kun nuqtai nazaridan qaralsa, bugungi Suriya, Turkiya va Iroq Respublikalarini ayrim o‘lkalariga mos keladi.

Mitannining eng qadimgi ibtidoiy aholisi hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib, dastlab termachilik va ovchilik bilan shug‘illangan. Keyinchalik bu yerdagi aholi dehqonchilik, chorvachilik xo‘jaligini o‘rganib so‘ng bu joylarda

hunarmandchilik ham rivoj topib, ishlab chiqarish xo‘jaligi tashkil topa boshlagan. Shu bilan birga Mitanni tabiiy sharoiti bog‘dorchilik va lalmi dehqonchilik uchun ham mos bo‘lgan. O‘z navbatida Yuqori Mesopotamiyani shimoldan o‘rab turgan tog‘larda turli metallarning mavjudligi Mitannida hunarmandchilikning rivojlanishiga keng yo‘l ochgan.

Shuningdek, Mitanni Qadimgi Sharqning asosiy strategik yo‘llar chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu shimol bilan janubni, sharq bilan g‘arbni birlashtiruvchi muhim tranzit savdo yo‘nalishlari kesishgan nuqta bo‘lgan. Bu qulaylik Mitanni aholisining xo‘jaligida juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, hattoki xalqaro savdodan ham katta daromad olish imkoniyatlarini yaratgan.

Dehqonchilikni, chorvachilikni, hunarmandchilikni va nihoyat savdo – sotiqning rivojlanishi natijasida Mitanni aholisi orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik, kishilar orasida tabaqalanish jarayoni yuz berib, ilk davlatning barpo etilishi uchun shart – sharoit vujudga kelgan. Dastlab bu joylarda urug‘ – aymoq jamoalari tashkil topib, bir necha o‘n urug‘ jamoalari birlashib qabila jamoasini tashkil etganlar.

Tarixiy zaruriyat esa bir nechta qabilalarni birlashib qabilalar ittifoqini barpo bo‘lishiga olib kelgan. Va nihoyat qabilalarning o‘zaro birlashuvi natijasida dastlabki davlat qaror topgan. Tarixchi, arxeolog olimlarning farazlariga ko‘ra m. av. XVII – XVI asrlarda bu hududda ilk Mitanni davlati tashkil topgan.

Xurritlar - sharqiy Kavkaz etnik birligiga mansub xalqlardan biri — miloddan avvalgi III mingyillik boshlariga kelib Van ko‘lidan janub va sharqdagi tog‘li hududlarni egallab yashaganlar. III ming yillikning birinchi yarmida xurrit qabilalari bu yerlardan Falastin, Zagros va Markaziy Eron tomon harakatlana boshlaydilar. M.avv. XXII asrga kelib ular Yuqori Mesopotamiyaning katta qismini egallab, bu yerda Urkesh markazi bo‘lgan yirik davlatga asos soladilar (m.avv. XXII–XX asrlar). Ayni paytda, bu davlat — podshohlari o‘zini iloh deb e’lon qilgan hokimiyat shakli — xurritlar uchun davlat tuzilishining yuksak namunasi sifatida qaralgan. Keyingi davrlarda xurritlar orasida “Xurri” nomi bilan ifoda etilgan siyosiy birlik g‘oyasi keng

tarqalgan bo‘lib, ularning yirik davlatlari shu nom orqali bunday birlikka da’vogarlik bildirganlar.

Amoreylar bosimi ostida shimolga chekinishga majbur bo‘lgan xurritlar m. avv. XVIII asrning ikkinchi hamda XVII asr boshlari yarmida mazkur kuchlar Yaqin Sharqdagi Mesopotamiya, Shom va Janubi-Sharqiy Anatoliya hududlarida faollikni qayta tikladilar.Bu davrda xurrit qabilalari va sulolalari Suriya–Falastin, Yuqori Mesopotamiya, Shimoliy Zagros va Kichik Osiyoning janubi-sharqida hokimiyatni o‘z qo‘llariga oladilar. To‘rt asr davomida ushbu keng hududda Yaqin Sharq (ayniqsa Mesopotamiya) madaniyatlarini sintez va uzatishga xizmat qilgan alohida xurrit sivilizatsiyasi[68] vujudga keladi. Bobil Kassitlari kabi, Mitanni ham qadimgi Sharqdagi eng yirik ot boquvchi ya’ni yilqichilik rivojlangan davlatlardan biri hisoblangan.Xurritlar tomonidan harbiy ishga joriy etilgan otliq arava qo‘shinlari ularga qo‘shni xalqlar ustidan shubhasiz ustunlik bergan.

Bu davrdagi xurritlarning eng yirik davlatlaridan biri — Yuqori Mesopotamiyadagi Xurri-Xanigalbat[69] (Ya’ni Mitani) bo‘lib, u amoreylardan tortib olingan yerlarda barpo etilgan. M. avv. XVII asr o‘rtalaridan XVI asr boshlarigacha Qadim Xett podshohligi bilan bo‘lgan keskin to‘qnashuv ikkala tomonni ham zaiflashtirdi va bundan foydalangan Hind-Oriy qabilalari — “manda”lar, Arman tog‘ligi janubiy etaklarida istiqomat qilgan holda, Xurri-Xanigalbatda hokimiyatni qo‘lga oldilar va Mitanni davlatini (aniqrog‘i — Mayttanne, taxminan m.avv. 1560–1260 yy.) tashkil etdilar. Bu davlat o‘zining avvalgi nomini ham saqlab qoldi. Mitannining poytaxti Xabur daryosining yuqori qismida joylashgan, haligacha arxeologik jihatdan aniqlanmagan Vashukan shahrida bo‘lgan. Olimlar farazicha M. av. XVI –XV asrlarda Mitanni Old Osiyodagi kuchli davlatlardan biriga aylanadi. Olimlar orasida Mitani nomini etimologiyasi haqida yakuniy xulosaga kelinmagan. Ayrim tadqiqotchilar sanskritdagi “mithra / mitra” (do‘st, ahd) so‘zi bilan fonetik bog‘lashga urinishadi. Ammo fikr ham bahsli bo‘lib qolmoqda.

[68] Ammo ushbu sivilizatsiyani A. Toynbi o‘zini shu masalaga oid asarida e’tirof etmagan.

[69] Bu nom ko‘proq Ossur va Xett manbalarida uchraydi. Ayrim olimlar Akkad tilidagi nomlanishi deb ham hisoblaydi.

Mitanni davlatining kuchayishi va istilochilik yurishlari. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek m.av. XVI – XV asrlar Mitanni davlatining kuch – qudrat jihatdan gullagan davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Mitanni podsholari faol istilochilik urushlarini olib borib, Ashshur, Nineviya shaharlarini, shuningdek Ossuriyaning bir qism yerlarini ham bosib oladilar. Mitanni qo‘shinlari sharq va janubi –sharqda Zagros tog‘lari orasida yashovchi tog‘lik gutey va lulubey qabilalari yerlarini ham bosib oladilar.

M.av. XVI – XV asrlarda Mitanni xettlar bilan g‘olibona urushlar olib borib, Kichik Osiyoning sharqiy hududlari, Suriya, Finikiya va xatto Falastinga ham kirib borib ularga o‘z ta’sirlarini o‘tkazadilar. M. av. XVI asrda Mitanni davlati ta’sir doirasining Old Osiyoda oshib borishi uning atrofidagi davlatlarning e’tiborini o‘ziga tortmay qo‘ymas edi.

Er. avv. XVI asr oxirida podsho Suttarni I davrida Mitanni Zagros va Nineviyadan Shimoliy Suriyagacha bo‘lgan hududni egallab, ulkan davlatga aylandi. Shu vaqtdan boshlab bir yuz ellik yil davomida Old Osiyoda Mitannidan kuchli bo‘lgan qudratli davlat yo‘q edi. Bu davrda Mitanni Misr bilan Mesopotamiya va Sharqiy O‘rtayer dengizi havzasi uchun uzoq kurash olib bordi. Er. avv. XV asrda xalqaro vaziyat o‘zgarib, Misr bilan Mitanni o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari o‘rnatildi va sulolaviy nikohlar tuzildi. Tutmos IV va Amenemxotep III Mitanni malikalariga uylandilar.

Xususan O‘rtayer dengizi sharqiy sohillarini bosib olishga intilayotgan Misr fir’avnlarining agressiv tashqi siyosati, oxir oqibat bu yerlarga davo qilayotgan Mitanni podsholari o‘rtasida kuchli to‘qnashuvlarga olib keldi. Mazkur davrda har ikki davlat o‘rtasida Old Osiyoda ustunlikka ega bo‘lish uchun qizg‘in kurash boshlandi. Misr qo‘shinlari Tutmos I boshchiligida Frot daryosi bo‘yigacha yetib kelib, Mitanni chegarasiga g‘alaba toshini o‘rnatdi. Tutmos III davrida Misr qo‘shinlari Frot daryosini kechib o‘tib, Mitanni qo‘shinlari bilan g‘olibona urushlar olib borib Mitanni podshosi va qo‘shinlarini orqaga chekinishga majbur qiladilar. Tutmos III ham Mitanni chegarasiga g‘alaba toshini o‘rnatadi. Ammo misrliklar o‘z g‘alabalarini oxiriga yetkazmaganlar. Tutmos III yana bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirib, u yerda boshlangan qo‘zg‘alonlarni bostirishga urinadi.

Ammo o‘sha davrdagi Old Osiyo va Yuqori Misrdagi siyosiy voqealar Misr qo‘shinlariga Mitannini butunlay bosib olishga imkon bermaydi. Ikki orada sulh tuzilib Mitanni o‘z mustaqilligini saqlab qoladi. Hatto Misr bilan Mitanni o‘rtasida m.av. XV asrlarda ziddiyatli vaziyatlar bo‘lsada, Misr Old Osiyodagi bir qator davlatlar bilan juda mustahkam savdo va diplomatiya munosabatida bo‘lgan. Ayrim davlatlar o‘rtasida bo‘ladigan muzokaralar elchilar yordami bilan olib borilgan. Bu muzokaralar natijasida ko‘pincha harbiy–siyosiy ittifoq va bitimlar tuzilgan. Siyosiy ittifoqlar, chunonchi Misr bilan Mitanni o‘rtasidagi ittifoq kabi ko‘pincha sulolaviy nikohlar qilish yo‘li bilan ham mustahkamlangan. Mitanni podshosi bir xatida Misr fir’avniga chegara shaharlarini almashtirishni taklif qilgan. Mazkur davrda Kichik Osiyoning sharqida kuchli Xett podsholigi tashkil topgan. Xett podsholigi qo‘shni Mitanni viloyatlari va avvalda Misr qo‘l ostida bo‘lgan shimoliy Suriya yerlari hisobiga o‘z davlatining chegaralarini kengaytirishga intilgan. Xett davlatining kuchayishi birinchi navbatda Mesopotamiyaning shimolidagi Mitanni podsholigi uchun va Misrning Suriyadagi yerlari uchun ham xatarli bo‘lgan. Xettlarning istilo qilish havfi aniq bo‘lib qolgach, Mitanni va Misr podsholari bosh ko‘tarib kelayotgan dushmanni birgalikda qaytarish maqsadida birlashganlar. Misr bilan Mitanni o‘rtasida ittifoq tuzilib, bu ittifoq bir necha sulolaviy nikohlar bilan mustahkamlangan[70]. Mitanni podshosi Tushrattining Misr fir’avni Amenxoteb III ga yozgan xatlarida axir pirovardida Misr bilan Mitanni o‘rtasida juda ham mustahkam munosabatlar o‘rnatilishiga olib kelgan muzokaralarning ayrim bosqichlari ravshan va jonli qilib tasvirlangan. Misr Amenxotep III ning podsholik qilgan zamonida uzoq Suriyadagi o‘z yerlarini xettlarning istilosidan ximoya qilmoq uchun yetarli harbiy kuchga ega bo‘lmaganidan Mitanni yordamiga tayanishga majbur bo‘lgan. Mitanni podsholigi esa do‘stligi va yordami uchun oltin talab qilgan. Tutmos IV va Amenxoteb III Mitanni podshosi qizlariga uylanar ekan, ular o‘rtasida o‘zaro do‘stlik aloqalari o‘rnatilib, ular bir – birlariga sovg‘a – salomlar yuborib turadilar. Ammo ikki

[70] Sulolaviy nikohlar yoki nikoh diplomatiyalari o‘zaro munosabatlarga qanchalik ta’sir etgan? Ushbu masalada bahs tashkil eting.

davlat o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari uzoqqa bormaydi.

Er. avv. XV asr oxirlarida Misr kuchsizlanib qoladi. Bu vaziyatdan foydalangan Mitanni qo‘shinlari shimoliy Suriya va Biblga bostirib kirib, Falastinni ham ishg‘ol qiladilar. Bu davrda Misr bilan Ossuriya Mitanniga qarshi ittifoq tuzadilar. O‘z o‘rnida Mitanni ham Ossuriya –Misr ittifoqiga qarshi Bobil bilan ittifoq tuzadi. Mazkur davrlar ichida Xett davlati kuchayib, Xett qo‘shinlari Mitanniga bostirib kirib, Mitanni qo‘shinlarini tor – mor etadilar. Bu davrda Mitanni podshosi saroyida fitna – fujur ko‘payib, nihoyat Mitanni podshosi o‘ldiriladi. Mitannining shimoldagi

qo‘shnisi Alba bilan Ossuriyaning birlashgan qo‘shinlari Mitanni qo‘shinlariga zarba berib, uning shimoldagi yerlarini bosib oladilar. Bu vaziyatdan foydalangan Xett podshosi qo‘shinlari Mitannini ishg‘ol qiladilar. Xett podshosi Tushrattining o‘g‘li Shattivasni taxtga o‘tqazib, unga o‘z qizlaridan birini nikohlab beradi.

Er. avv. XIV asrning ikkinchi yarmida Mitanni Xettlarga tobe bo‘lib qoladi. Xettlar yordamiga tayangan Mitanni podshosi qo‘shinlari Ossuriyani bosib olish uchun ularga qarshi kurash boshlaydi. Ammo jangda Mitanni qo‘shinlari mag‘lubiyatga

uchrab, podsho oilasi bilan ossurlar qo‘liga asir tushadi. Mazkur janglar natijasida Mitanni poytaxti Vashshukan ossur qo‘shinlari tomonidan ishg‘ol qilinadi. Keyingi janglar natijasida Ossuriya qo‘shinlari Mitanni qo‘shinlarini batamom mag‘lubiyatga uchratadi. Urushlar natijasida Mitanni mamlakati vayron qilinib, janglarda juda ko‘p mitanni askarlar va oddiy aholi qirg‘inbarot qilinadi. 15 mingdan ortiq kishi asir olinib, Ossuriyaga haydab ketiladi. Ossuriyaning ketma-ket bergan zarbalari natijasida Mitanni zaiflashib, mayda davlatchalarga bo‘linib ketadi. Keyinchalik Mitanni Ossuriyaning ta’siriga tushib, davlat sifatida tarix sahnasidan tushib ketadi.

Er. avv. XIV asr boshlarida Mitannidagi sulolaviy nizo, saroy fitnalari davlatni zaiflashtirdi. Xett podshosi Suppilium Mitanniga qarshi urush ochib, Suriyani tortib oladi va Mitanniga bostirib kirdi. Yordamga chaqirilgan Ossuriya hukmdori Ashshurballit I mamlakatning sharqiy viloyatlarini anneksiya qildi. Shu vaqtdan Mitanni Shimoliy Mesopotamiyadagi kichik bir davlatchaga aylanib qoldi. Uni ustidan nazorat qilish uchun ossur va xettlar o‘zaro kurash olib bordilar. Qachonlardir qudratli davlat bo‘lgan Mitanni qoldig‘lari er. avv. 1260-yilda Ossuriya podshosi Salmanasar I tomonidan tugatildi.

Mitanni davlatining ijtimoiy tuzumi va xo‘jaligi. M. av. XVI asrdan XIII asrgacha yashagan Mitanni Old Osiyodagi davlatlar singari quldorlikka asoslangan davlat edi. Mitanni podsholigining ijtimoiy munosabatlari haqida ma’lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Ular haqida qadimgi Nuzu va Arrapxi qal’alari qazilishi natijasida topilgan yozma arxivlar ibodatxona va saroy xo‘jaliklari haqida ba’zi ma’lumotlarni beradi. Podsho xo‘jaliklari kattaroq bo‘lib, yozma arxiv ma’lumotlariga ko‘ra uning otxonalarida ko‘plab otlar, molxonalarida yuzdlab yirik va mayda shohlik sigir, buqa, buzoq, qo‘y-echki cho‘chqalar boqilgan. Shuningdek, mamlakatdagi katta-katta haydalgan yerlar, bog‘lar va o‘rmonlar podsho oilasi a’zolariga qarashli bo‘lgan. Podsho xo‘jaligidagi ishlarni saroy qullari, erkin-ozod cho‘ponlar, hunarmandlar va dehqonlar navbat bilan bajarganlar. Mitanni podsholigining ijtimoiy tuzumida hududiy jamoalar, qishloq (salu), katta oilali uy jamoalari-”dimtular” katta o‘rin tutganlar. Yer katta oilali

jamoaning mulki hisoblangan. Jamoa savdogarlar, to‘quvchi, dehqon va boshqa kasbdagi kishilardan iborat bo‘lgan. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish jamoani buzilishiga olib kelgan. Qarzdorlik va sudxo‘rlik xurrit jamiyatidagi kambag‘allarnigina emas, balki o‘rta tabaqalarni xonavayron bo‘lishiga olib keladi. Mitannida qo‘lga tushgan asirlar qulga aylantirilgan. Qarzdorlik ham qulga aylantirishning bir shakli bo‘lgan. Mamlakatda qullarni ma’lum muddatga sotish ham keng tarqalgan edi. Mitannidagi qulchilik patriarxal xususiyatga ega bo‘lib, ular ba’zi huquqlarga ega edilar. Ular cho‘rilargagina emas, ozod ayollarga ham uylanishlari mumkin bo‘lgan. Qullar mehnatidan ishlab chiqarish xo‘jaligining barcha tarmoqlarida, ya’ni bog‘dorchilikda, mol boqishda, to‘quvchilikda, kulolchilik, kir yuvish, yuk ko‘tarish, non yopish va boshqa sohalarda foydalanish mumkin bo‘lgan. Saroyda ishlaydigan qullar podsho oilasiga ancha yaqin bo‘lgan va ular podsho oilasidan katta-katta sovg‘alar olib turganlar. Ular podsho saroyida kotiblik lavozimini ham egallar edilar. Shuningdek qullar ma’lum muddatga ijaraga berilgan, sotilgan va sotib olingan. Qochqin qullar qattiq jazolangan.

Davlat tepasida podsho turib, u vafot etgan vaqtda taxt otadan bolaga yoki aka-ukalarga meros bo‘lib o‘tgan. Viloyatlarni podsho tomonidan tayinlagan “xazannu”-qishloq boshlig‘i, amaldori boshqargan. Mitanni podsholigining asosiy kuch-qudrati og‘ir va yengil aslahalar bilan qurollangan xalq lashkari, ot qo‘shilgan jang aravalaridan iborat bo‘lib, jang aravalarini “maryanni” degan aravachi-zodagonlar boshqarganlar. Mitanniliklar jang aravalarni boshqarishning mohir ustalari bo‘lishgan. Xettlar va ossurlar ot qo‘shilgan jang aravalarda jang qilishni mitanniliklardan o‘rganganlar.

Mitanni davlati egallagan yerlar tog‘lik, qisman tekisliklardan iborat bo‘lib, chorvachilik va lalmi dehqonchiligini rivojlanishiga imokon bergan. Mitannida yilqichilik ham yuksak darajada rivoj topib, mitannilik Kikkuli yilqichilikka oid ilmiy asar yozgan. Mitannini bir qismi tog‘lik bo‘lganligi uchun u yerda mis, qo‘rg‘oshin, toshlar va o‘rmonlar mavjud bo‘lgan. Bu boyliklar mamlakatda ma’dansozlik va qurilish ishlarini rivojlantirish uchun imkon bergan. Mitanni dehqonlari mamlakatdan oqib

oʻtadigan Frot daryosining Xabur va Belix, Yuqori va Quyi Zab, Dajla va uning irmoqlari oqib oʻtadigan serunum yerlarda sugʻorma dehqonchilik bilan suvsiz qir-adirlarda lalmi-bahorikor dehqonchilik bilan shugʻullanganlar. Dehqonlar asosan bugʻdoy, arpa, noʻxot, kunjut, sabzavot ekkanlar. Togʻ oldi hududlarida esa olma, nok, xurmo va boshqa mevali daraxtlarni ekib, bogʻdorchilik bilan ham shugʻullanganlar. U yerda sabzavotchilik ham yaxshi rivoj topgan. Mitanni bogʻbonlari tok ekib uzumchilikka ham katta e'tibor berganlar. Mitanni aholisi yirik shohli qoramol-sigir, buqa, xoʻkiz va buzoqlar, shuningdek qoʻy-echki kabi mayda shohlik chorva bilan ham shugʻullanganlar. Mitanni togʻlari chorva uchun oʻt-oʻlanlarga boy boʻlgan. Chorvaning hamma turi togʻ yaylovlarida boqilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Mitannida yilqichilik yuksak darajada rivojlangan boʻlib, mitanni otlari butun Old Osiyoda mashhur boʻlgan. Mitannida kulolchilik, toʻqimachilik, temirchilik, zargarlik, qurolsozlik, zargarlik, ma'dansozlik va hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari yaxshi rivojlangan edi. Mitanni podsholigi Kavkazorti va Old Osiyoning markazida joylashgan boʻlib, bu yerdan toʻrt tomonga oʻtadigan yirik savdo yoʻli mamlakat uchun juda katta iqtisodiy, siyosiy va harbiy ahamiyatga ega edi. Mitanni podsholari shu yoʻllar orqali Janubiy Mesopotamiya, Misr, Oʻrtayer dengizi sohilidagi boy mamlakatlar, Ossuriya, Urartu va Xettlar bilan qizgʻin savdo ishdlari olib borar edilar. Mitanni davlati avvalo Janubiy Mesopotamiya xalqlari, qolaversa Oʻrtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar, shuningdek Misr madaniyatidan bahramand boʻlganlar.

Qadimgi Mitanni madaniyati. M. avv. XV asrlar atrofida Mitannining asosiy hududlari butun Yuqori Mesopotamiyani qamrab olgan. Jumladan, Tur-Abdin togʻlari, Oʻrta Yevfrat vodiysi va Oʻrta Tigr atrofi, jumladan xurritlarning muhim markazi boʻlgan Nineviya ham bu yerga kirgan. Albatta, bu turfa xalqlarni yaxlit siyosiy birlik ostida yashashi, ular oʻrtasidagi oʻzaro madaniy ta'sirlarga ham olib kelgan. Mitanni podsholari hind-oriy sulola ismlarini saqlab qolib, "Mand jangchilari podshosi" va "Xurri jangchilari podshosi" unvonlariga ega boʻlganlar. Hind-oriy ma`budlari Indra, Mitra-Varuna va Nasati hukmron sulolalarning

homiy xudolari edi. Bu davlatni ehtimol oriylar asos solganlar. Shu o‘rinda ushbu ilohlar Hindistonda ham uchrashini hisobga olsak, ushbu ta’sir ancha keng hududlarga yoyilganligi ayon bo‘ladi[71]. Ammo butun davlatning homiy ilohi — xurritlarning yomg‘ir va yashin ilohi Teshshub bo‘lib, uning asosiy ibodatgohi Yuqori Zab daryosi yaqinidagi Kumme shahrida bo‘lgan. Teshub bu maqomda Urkeshning qadimiy ilohi — Kumarbining o‘rnini egallagan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Shimoliy Mesopotamiyada Mitani davlatini paydo bo‘lish shart –sharoitlarini taxlil qiling.
2. Mitanni davlati boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
3. Qaysi ho‘jalik sohalarida mohir bo‘lishgan?
4. Mitanni qaysi davlatlar bilan urush harakatlarini olib bordi?
5. **Keys savoli:**Mitanni davlati qanday sabablarga ko‘ra qudratli armiyaga ega bo‘lsa-da, tarixda uzoq yashay olmadi? Sizning fikringizcha, bu hodisa davlat barqarorligi va harbiy qudrat o‘rtasida qanday bog‘liqlikni ko‘rsatadi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

[71] Mitani va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliqni ilmiy taxlil qiling.

9- MAVZU. QADIMGI OSSURIYA

Reja

1. Arxeologik tadqiqotlar va manbalar.
2. Qadimgi Ossuriya davri.
3. O‘rta Ossuriya davri.
4. Buyuk Ossuriya harbiy davlati.
5. Ossuriyaning ijtimoiy-siyosiy hayoti.

Arxeologik tadqiqotlar va manbalar. Mesopotamiyadagi arxeologik qazishmalar XIX asr o‘rtalarida shimolda, dastlab qadimgi topilmalar bilan qiziqadigan ishqiboz kishilar tomonidan, keyinchalik mutaxassis-arxeologlar tomonidan amalga oshirildi. Ikki daryo oralig‘idagi birinchi shaharlar qachonlardir Ossuriya davlati mavjud bo‘lgan shimolda paydo bo‘lgan edi. 1842-yil fransuz diplomati E.P.Botta mahalliy afsonalarda Ossuriyaning qadimgi poytaxti bilan bog‘liq bo‘lgan Kunjik tepaligini (Turkiya) qazishdan boshladi. 1846-1847-yillarda ingliz diplomati G. A. Leyyard Nimrud tepaligini qazib, qadimiy Ossuriyaning Kalxu shahri qoldiqlarini ochdi. Tepalikdan podsho saroylari, odam-ho‘kiz, odam-sher haykallari va badiiy rel`eflar topildi. 1847-yil Leyyard Kunjik tepaligidan Nineviya xarobalarini, jumladan, podsho Sinaxxerib (er. avv. VII asr) saroyi, uning nevarasi Ashshurbanipalning kutubxonasini topdi.

Leyyardning shogirdi U. Rassam Kunjik tepaligidagi qazishmalarni davom ettirib, podsho Ashshurbanipalning va harbiy manzaralar tasvirlangan, ajoyib rel`eflar bilan bezatilgan saroyi va podshoning boy kutubxonasini ochdi. U Nimrud tepaligi yaqinidagi Balavat deb nomlangan joydan er. avv. IX asrga oid yodgorliklar, jumladan, harbiy yurish va xiroj to‘lash manzarasi tasvirlangan Balavat darvozalari deb atalgan 4 ta jez taxtani topdi.

Fransuz arxeologi V. Andre 1903-1914 yillarda Ossuriyaning qadimiy poytaxti Nineviyada podsho Ashshurbanipalning saroylari, ibodatxonalar qoldiqlarini, jumladan, oliy xudo Ashshur ibodatxonasi, podsho qabrlari, turar-joy binolari va ko‘chalarini qazib ochdi. XX asrning 50-60 yillarida arxeologlar Nineviya

shahri xarobalaridan saroy, xo‘jalik inshootlari, ko‘pgina hujjatlarni topdilar. Ossuriyashunoslikning yuz yillik tarixi davomida siyosiy tarix va davlat qurilishi muammolari o‘rganildi.

Bu yo‘nalishda Sharq davlatchiligini ideallashtirish, uning mavjudligi, statik holati va abadiyligi tasavvur qilinadi. Urushlarning sabablari, u yoki bu xalqning xarakteri va temperamenti, tor siyosiy motivlar bilan izohlanadi. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati ham o‘rganildi. Madaniyatning yo‘nalishlari, kelib chiqishi, mifologiya, adabiy yodgorliklar, san’atning xarakterli xususiyatlari, ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi qator tadqiqotlar mavjud. Tadqiqotlarda Ikki daryo oralig‘i jamiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga e'tibor berilmadi.

Tarix falsafasida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Edvard Meyerning silk nazariyasi yetakchi o‘rin egalladi. Edvard Meyer har qanday sivilizatsiya feodal tuzumdan boshlanadi, kapitalizm darajasiga yetib, keyin ichki qarama-qarshiliklar tufayli halokatga uchraydi, shundan so‘ng, sikl yana qaytariladi degan g‘oyani ilgari suradi. Shu sababli, XX asr boshlarida taniqli nemis osurshunoslari B.Maysner, P.Koshaker va boshqalar qadimgi Mesopotamiya tarixini feodal jamiyat deb baho berdilar.

Siklizm nazariyasi bilan bir qatorda tarixiy jarayonning tartibsizligi va uni bilish mumkin emasligi nazariyasi keng tarqalgan. Faqat keyingi yillarda ijtimoiy tabaqalanish, xo‘jalikni tashkil qilish, shaharlar, savdo-hunarmandchilikning o‘rni, ibodatxonalar xo‘jaligi bo‘yicha muhim ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar (A. Falkenshteyn, A. L. Oppenxeym, I. Gelba va V. Leman asarlari) paydo bo‘ldi.

Ossurshunoslik markazlari dastlab Angliya va Fransiyada, XX asr boshlaridan Germaniya bo‘ldi. Fashistik tuzum sharoitida ko‘pgina ossurshunos olimlar AQShga ko‘chib ketdilar. Hozir AQShda mashhur ossurshunoslik markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Angliya, Fransiya va Germaniyada ham ossurshunoslik maktablari ilmiy tadqiqotlarni olib bormoqdalar.

2. Qadimgi Ossuriya davri. Qadimgi Ossuriya markazi Ashshur bo‘lgan kichik hududni o‘z ichiga olgan edi. Ammo ilk Ossuriya jamiyatida savdo yetakchi o‘rin egalladi. Qadimda Ossuriya orqali Kichik Osiyo va Kavkazortidan Tigr daryosi

boʻylab Oʻrta va Janubiy Ikki daryo oraligʻi hamda Elamga, Sharqiy Oʻrtayer dengizidan muhim savdo yoʻllari oʻtgan edi.

Ashshur shahri asosiy savdo yoʻllarida oʻrnashib qolish uchun oʻz koloniyalarini barpo qilishga harakat qilgan. Ashshur Kichik Osiyoning sharqiy qismini faol kolonizatsiya qilgan. Bu yerdan mis, qoʻrgʻoshin, kumush, chorva mollari, teri va yogʻoch tashib ketilgan.

Qadimgi Ossuriya jamiyatida ibtidoiy quldorlik shakllangan boʻlib, ibtidoiy jamoa qoldiqlari saqlanib qolgan. Podsho va ibodatxona yerlarida jamoachi va qullar mehnat qilgan. Yerning asosiy qismini jamoa yer egaligi tashkil qilgan. Qulchilikning asosiy manbalari mulkiy tabaqalanish natijasida erkin jamoachilarning qarzi uchun qul qilish va chetdan qul sotib olish boʻlgan.

Er. avv. XVI asrgacha Ossuriya podsholari Alum-Ashshur, shahar-jamoa esa, Ashshur deb atalgan. «Kichik va ulugʻlar» xalq yigʻini oʻz ahamiyatini yoʻqota borgan. Hokimiyatning oliy organi «Shahar uyi» boylardan tuzilgan oqsoqollar kengashi edi. Kengash a'zolari ichidan bir xil muddatga alohida lavozimli shaxs-«limmu» tayinlanib, u shahar xazinasini boshqargan. Uning nomi bilan joriy yil boshlangan. Oqsoqollar kengashi sud va ma'muriy ishlar bilan shugʻullanadigan mansabdor shaxs-«ukulluma»ni tayinlagan. Shahar-davlatning merosiy hokimi «Ishshiakkum» lavozimi ham mavjud boʻlib, u diniy vazifalarni bajarib, ibodatxonalar qurilishiga rahbarlik qilgan. U urush vaqtida harbiy boshliq boʻlgan. Er. avv. XX asrda xalqaro vaziyat Ossuriya uchun noqulay kelgan. Frot havzasida Mari davlati yuksalib, Ashshurning gʻarb savdosiga jiddiy toʻsiq boʻlgan. Xett davlati Ossuriya savdosini Kichik Osiyoda toʻxtatib qoʻygan. Amoriy qabilalarini Ikki daryo oraligʻiga yurishlari ham vaziyatni beqaror qilib, Ossuriya savdosiga zarar yetkazgan.

Faqat er. avv. 1781 yillar atrofida amoriylardan boʻlgan yoʻlboshchi Shamshi-Adad Ashshur shahrini oʻzining Yuqori Mesopotamiyadagi davlati markaziga aylantirgan. Ashshur Ikki daryo oraligʻining shimolidagi shaharlarni bosib oladi. Marini boʻysundirib, Karxemish bilan ittifoq tuzadi. Suriya shaharlari ham bosib olinadi. Ashshur gʻarb savdosida vositachilikni oʻz

qo‘liga oladi. Davlat boshqaruvida podshoning mavqei kuchayadi. Shamshi-Adad davlat boshqaruvini bevosita o‘z qo‘liga olib, mutloq hukmdor sifatida davlat boshlig‘i, oliy harbiy boshliq va sudya vazifasini o‘taydi. Boshqaruvni takomillashtirishga zaruriyat tug‘iladi. Mamlakat hududi, aholisi okruglarga bo‘linib, ularni boshqarish uchun noiblar yuboriladi. Er. avv. 1757-yilda Shamshi-Adadning o‘g‘li Ishme-Dagan davrida Ashshurni Hammurappi bosib oladi.

Er. avv. 1740-yillar atrofida kassitlarning Mesopotamiyaga hujumi davrida Shamshi-Adadning avlodlari hokimiyatni yana o‘z qo‘llariga oladilar. Ammo bu sulola tez orada hokimiyatni boshqalarga topshirishga majbur bo‘ladi. Lekin Shamshi-Adad sulolasining boshqaruvi Ashshur tarixining eng yorqin davri deb tan olingan. Keyinchalik, Ossuriya podsholari ro‘yxatida Shamshi-Adad va uning ajdodlari ham kiritiladi.

Er. avv. XVI asrda Bobilda amoriylar sulolasi quladi va bu hududda kassitlar hukmronligi boshlandi. Er. avv. 1500-yillar atrofida Mitanni davlati Shimoliy Suriya viloyatlarini bosib oldi va o‘z qudratining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Zaiflashib qolgan

Ossuriya Mitannining hokimiyatini tan olishga majbur boʻldi. Ossuriya qudratli Mitannining tazyiqiga qarshi Misr bilan diplomatik aloqa oʻrnatdi. Ammo er. avv. XV asr oʻrtalarida Mitanni podshosi Shaushaattar Ashshurni bosib olib, uni Mitanniga qaram qiladi. Mitanni Ashshurni gʻarbga chiqadigan savdo yoʻlidan butunlay mahrum qiladi. Keyingi asr boshlarida Ossuriya oʻz mavqeini tiklash uchun Bobil bilan yaqinlashib, Mitanniga qarshi urush olib bordi. Lekin Bobilning hukmronligini tan olishga majbur boʻldi. Buning evaziga Mitanni zulmidan ozod boʻldi. Ossuriya tez orada Bobilning zaiflashib qolganidan foydalanib, oʻz mustaqilligini toʻla qayta tikladi va bu hududda Bobilga qarshi oʻz ta`sirini oʻtkazish uchun harbiy harakatlarni boshladi.

3. Oʻrta Ossuriya davri (er. avv. II ming yillikning II yarmi). Er. avv. 1353-1318-yillarda podsho Ashshuriballit Ossuriyani qudratli davlatga aylantiradi. Zaiflashib qolgan Mitanni xettlar tazyiqiga qarshi Ossuriyaga ittifoqchi sifatida chiqadi. Tez orada Ossuriya xettlarni Yuqori Mesopotamiyadan haydab chiqarib, Frot daryosiga chiqadi. Natijada Mitannining sharqiy viloyatlari, bu yerdagi diniy markaz Nineviya bosib olinadi. Mitanni, keyinchalik Bobil ham Ossuriya ta'siri ostiga tushib qoladi. Ossuriya shahar-davlatdan qudratli davlatga aylanib, yetti yuz yil davomida oʻzining talonchilik yurishlari, bosib olingan hududlar aholisiga nisbatan shafqatsizligi bilan qoʻshni hududlarga qoʻrquv va dahshat tugʻdiradi.

Ossuriya davlatining shakllanishi er. avv. 1295-1264-yillarda hukmronlik qilgan podsho Adad-Nerari davrida tugallandi. U birinchi boʻlib, rasmiy ravishda oʻziga podsho unvoni berib, Old Osiyo buyuk davlatlari hukmdorlariga teng boʻlgan "Buyuk podsho" unvoniga da`vo qiladi. Er. avv. XIII asrda Xett davlati ossur savdogarlarini Kichik Osiyodan siqib chiqardi. Misr Suriyada oʻz ta`siridan mahrum boʻldi. Mitanni davlati esa, Ossuriya uchun gʻarbga chiqadigan yoʻlni butunlay yopadi. Er. avv. XIII-XII asr boshlarida Ossuriya Yuqori Mesopotamiyaning qoʻshni hududlarini toʻrt marta oʻziga qoʻshib oldi va toʻrt marta yoʻqotdi.

Ossur podshosi Tukulti-Ninurta I (er. avv. 1233-1197-yillar) Bobilga va Kavkazortiga gʻolibona harbiy yurishlar uyushtirdi. U

Bobilni bosib olib, u yerga oʻz noibini tayinladi va Bobil shahridagi Esagila ibodatxonasidan xudo Mardukning haykalini Ashshurga olib ketdi. Podsho Ashshur oʻrniga oʻzi uchun yangi poytaxt-Kar-Tukulti-Ninurta shahrini qurdirdi. Ammo uning hukmronligining soʻnggi yillarida xettlar va Bobil Ossuriyani u bosib olgan hududlarning katta qismidan mahrum qildilar. Mamlakat uzoq urushlar natijasida zaiflashib qolib, ichki tartibsizliklar yuz berdi. Er. avv.XI asr oʻrtalarida podshoning oʻgʻli va ossur zodagonlari podshoning zaif tashqi siyosatidan norozi boʻlib, uni taxtdan tushirib, oʻldirdilar. Ossuriya tushkunlikni boshdan kechiradi. Bolqon qabilalaridan boʻlgan mushklar Frot daryosi vodiysiga kelib, Xett davlatini halokatga uchratdilar. Keyin esa, elamliklarning hujumini qaytardilar.

Podsho Tiglatpalasar I (er. avv. 1114-1076-yillar atrofida) davrida xalqaro vaziyat Ossuriya foydasiga oʻzgardi. Bu davrda Xett podsholigi halokatga uchrab, Misr siyosiy tarqoqlik tomon yoʻl tutdi. Ossuriya qulay vaziyatdan foydalanib, Shimoliy Suriya va Shimoliy Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy-sharqiy qismini oʻz ta’siri ostiga oldi. Ossuriyaning gullab-yashnashi er. avv. XII-XI asrlarda Arabistondan oromiy qabilalarining bostirib kelishi natijasida tugadi.

4. Buyuk Ossuriya harbiy davlati (er. avv. I ming yillik). Er. avv. I ming yillikda Old Osiyoda temirdan keng miqyosida foydalanishning boshlanishi qadimgi Sharqda iqtisodiy oʻsishga olib keldi. Quruqlik va dengiz savdosi keng hajmda rivojlanadi. Xett va Mitanni kabi qudratli davlatlar tarix sahnasidan tushib ketdi. Bobil va Misr ichki va tashqi siyosatda tushkunlikka yuz tutdi.

Er. avv. XI asrning I choragida Arabiston yarim orolidan yarim koʻchmanchi oromiylar Mesopotamiya va qoʻshni mamlakatlarga bostirib keldilar. Er. avv. 1000-yillar atrofida ular Frot daryosidan oʻtib, Ossuriyani bir necha janglarda magʻlubiyatga uchratdilar. Ossuriya davlati zaiflashib qoldi.

Er. avv. X asr oxirlarida Ossuriyaliklar Shimoliy Mesopotamiyada oʻz hukmronliklarini qayta tikladilar va faol istilochilik yurishlarini boshladilar. Bu vatqda Ossuriya armiyasi oʻzining soni yuqori darajada tashkilashtirilganligi, qurollanish

darajasi va jangovor qobiliyati bilan Old Osiyodagi eng birinchi qo‘shinga aylandi. Ossuriya podshosi Ashshurnasirpal Bobil va Suriya hududlarini istilo qilib, hatto, bu yerdagi aholini ozgina qarshilik ko‘rsatgani uchun ham qirib tashladi. Istilochilar bo‘ysunmaganlarning terisini shildilar va ularni qoziqqa o‘tqazdilar yoki bir-biriga bog‘lab o‘ldirdilar. Aholining qolgan qismini asir qilib Ossuriyaga jo‘natdilar. Er. avv. 876-yilda Ossuriya qo‘shinlari Finikiya qirg‘og‘iga chiqdilar. Salmanasar III (er. avv. 859-824 yillar) Suriyaga yangi yurish uyushtirdi. Bu hududda Ossuriyaning ekspansiyasiga qarshi bir necha shahar-davlatlarning Damashq podsholigi boshchiligida ittifoqi tashkil topdi. Suriya, Falastin, Finikiya, Kilikiya va Damashqning birlashgan qo‘shinlari osur qo‘shinlarini jangda mag‘lubiyatga uchratdilar (er. avv. 853-yil Oront daryosi yonidagi jang). Er. avv. 845-yilda Salmanasar III 120 ming kishilik qo‘shin bilan Suriyada yana jang harakatlarini boshladi. Lekin bu harbiy harakatlar ham muvoffaqiyatli chiqmadi. Ossuriyaliklar vaqtinchalik Suriyadan chekinishga majbur bo‘ldilar. Ammo tez orada ittifoqchi shahar-davlatlar o‘rtasida kelishmovchiliklar boshlanib, ossurlar bundan juda yaxshi foydalandilar hamda er. avv. 841-yilda harbiy harakatlarni boshlab, Suriyada o‘z hukmronliklarini o‘rnatishga erishdilar. Er. avv. 840 yildagina Frot daryosi ortida 16 yurishdan so‘ng, Damashq podsholigi bo‘ysundiriladi. G‘olibona yurishlar boy o‘ljalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini tug‘dirdi. Ossuriya hukmdorlari Ashshur va Kalxu shaharlarida ulug‘vor saroy va ibodatxonalar bunyod qildilar. Bu vaqtinchalik hukmronlik uzoq davom etmadi. O‘n yoshida taxtga chiqqan Adat-Nerari III davrida uning onasi Sammuramat amalda hokimiyatni ko‘p yillar davomida boshqardi. Suriyaga yurishlar yana qayta boshlanib, Bobilda ham Ossuriyaning hukmronligi o‘rnatildi.

Ossuriya o‘zining iqtisodiy, harbiy qudratini qayta tiklab, siyosiy markazlashuv va barqarorlikka erishdi. Istilochilik urushlari natijasida Ossuriya iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan xomashyo (metall, yog‘och)ga boy bo‘lgan hududlar egallandi. Rivojlanayotgan shaharlar hunarmandchigi va dehqonchiligi hamda quldorlik xo‘jaligi uchun ishchi kuchi-qullarga ehtiyoj tez o‘sdi. Ossuriyaning istilochilik urushlari olib borishining yana bir

sababi, mamlakat quruqlik va dengiz savdo yoʻllari kesishgan hududda joylashgani uchun yetakchi oʻrinni egallashga harakat qildi.

Ossuriya Kichik Osiyo va asosan, Oʻrtayer dengizining sharqiga oʻz taʼsirini kuchaytirishga urindi. Bu hududlarda savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi keng yoʻlga qoʻyilgan, tabiiy boyliklarga boy edi. Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlaridan muhim xalqaro savdo yoʻllari oʻtgan boʻlib, bu yerda boy savdo – hunarmandchilik markazlari Tir, Sidon, Arvad, Bibl, Damashq va Karxemish kabi shaharlar mavjud edi. Ossuriya uzoq vaqt olib borilgan urushlar natijasida zaiflashib qoldi. Er. avv.VIII asrda Ossuriya iqtisodiy tushkunlikka yuz tutadi. Ichki ziddiyatlar, qoʻzgʻolon va isyonlar boshlanadi.

Ossuriyaning yangidan yuksalishi er.avv. 745-727-yillarda hokimiyatni bosib olgan harbiy boshliq, podsho Tiglatpalasar III davrida boshlandi. Gʻayratli sarkarda, mohir tashkilotchi Tiglatpalasar III podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun qator islohotlar oʻtkazdi. Jumladan, viloyatlarni kichik-kichik noibliklarga boʻlib yubordi. Noiblar ustidan markaziy hokimiyatning nazorati oʻrnatilib, noiblarning vazifalari cheklandi. Ularning huquqlari soliqlarni toʻplash, fuqarolarning majburiyatlarni bajarishini tashkil qilish va oʻz viloyatlari harbiy qismlariga rahbarlik qilish bilan cheklandi.

Boʻysundirilgan aholiga nisbatan ham munosabat oʻzgardi. Tiglatpalasar III gacha harbiy yurishlarning asosiy maqsadi talonchilik, oʻlpon olish va bosib olingan hududlarning aholisining bir qismini olib ketib qul qilish edi. Endilikda esa, bunday odamlarni ommaviy ravishda boshqa viloyatlarga koʻchirib oʻtkazish, ularning oʻrniga boshqa boʻysundirilgan viloyatlardan asirlarni olib kelib joylashtirish boshlandi. Ba`zida boʻysundirilgan aholi oʻz yerida qoldirilib, ularga ogʻir majburiyatlar yuklangan. Bosib olingan hudud esa, Ossuriya tarkibiga kiritilgan. Ular dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullanib, xiroj toʻlaganlar. Shuningdek, ular qurilish, yoʻl qurish ishlari, sugʻorish inshootlarini ta`mirlash ishlariga tortilganlar. Bundan tashqari, yana ular qoʻshinda yordamchi qismlarga xizmat qilishlari shart boʻlgan.

Tiglatpalasar III xazinadan maosh oladigan koʻp sonli muntazam qoʻshin tuzdi va koʻngillilarni harbiy xizmatga chaqirishdan voz kechdi. Harbiy xizmatga aholining oʻrta va past tabaqalari jalb qilindi. Ossuriya qoʻshini davlat bosqinchilik siyosatining asosiy quroli boʻlgan. Qoʻshin qurollariga qarab, bir necha qismlarga boʻlingan. Piyoda qoʻshinlar son jihatdan eng koʻp sonli boʻlib, u yengil va ogʻir qurolli qismlarga boʻlingan. Er. avv. IX asrdan boshlab otliq qismlar paydo boʻladi. Ular ogʻir va yengil qurollantirilgan qismlardan tuzilgan edi. Qoʻshinning zarbdor qismi jang aravalari boʻlgan. Jang aravalari qoʻshinning imtiyozli qismi edi. Vaqt oʻtishi bilan ularning oʻrnini otliq qismlar egalladi. Shahar va qal'alarni qamal qilishga Ossuriyaliklar turli qamal qurollaridan foydalanganlar. Ossuriya qoʻshinlari mustahkamlangan harbiy manzilgohlar qurish, harbiy qarorgohlar, yoʻllar qurish malakasiga ega edilar. Ular devor buzuvchi, metalldan yasalgan qurilmalar va yondiruvchi qurollarni qoʻllay olganlar.

Ossuriya davlatining uchinchi gullab-yashnashi er. avv. VIII asrning 40-yillaridan VII-asrning 40 yillari oxirigacha boʻlgan davrga toʻgʻri keldi. Bu davr Ossuriya va Old Osiyo tarixida alohida oʻrin tutdi. Qaysiki, Ossuriyaning faol ekspansiyasi unga qoʻshni boʻlgan hududlar, davlatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida hal qiluvchi ta'sir oʻtkazdi. Ossuriyaning harbiy kuchga asoslangan davlat hokimiyatining tashqi siyosati faqat qoʻshni mamlakatlarga nisbatan harbiy tazyiq oʻtkazish orqali oʻz ta'siri ostida ushlab turishga yoʻnaltirilgan edi. Bunday siyosat Old Osiyoning oʻsha davrdagi va keyingi asrlardagi siyosiy taraqqiyotiga kuchli ta'sir oʻtkazdi.

Yaxshi qurollangan koʻp sonli qoʻshin bilan Ossuriya podsholari Tiglatpalasar III (er. avv. 745–727-yil), Sargon II (er. avv. 722-705 yil), Sinnaxxerib (er. avv. 705-680 yil) gʻolibona yurishlar olib bordilar. Er. avv. 743-740-yillarda Shimoliy Suriya va Kichik Osiyo hokimlarining birlashgan kuchlari ittifoqi tor-mor qilindi. Urartu davlatiga qarshi gʻolibona yurishlar olib borildi va mamlakat talon-taroj qilindi. Sharqda Ossuriya Midiyaning bir qismiga ega boʻlib, bu yerda bir necha provinsiyalar tashkil qilindi. Er. avv. 729-yilda Bobil bosib olinib, Ossuriya podshosi bu yerda

toj kiydi. Sargon II (er. avv. 722-705-yil) davrida er. avv. 722-yilda Isroil podsholigi bosib olindi. Hokimiyatni noqonuniy ravishda bosib olgan Sargon II podshoning yangi qarorgohi-Dur-Sharrukin (“Sargon qal’asi”)ni qurdi. Uning avlodlari-Sargoniylar Ossuriyani uning halokatigacha boshqarganlar.

Badjahl podsho-jangchi Sinaxxerib (er. avv. 705-681-yillar) poytaxtni Nineviyaga ko‘chirdi. Ossuriya Kichik Osiyoning janubiy-sharqini qo‘ldan chiqardi. Yahudiyaning qarshiligini bostira olmadi va uni qo‘llab-quvvatlagan Misrni bo‘ysundira olmadi. Uning vorisi Asarxaddon (er. avv. 680-669-yillar) vayron qilingan Bobilni qayta tikladi. Bobilni Ossuriya bilan ittifoqda bo‘lgan alohida podsholik deb e’tirof etdi. Asarxaddon shimoliy-g‘arbda er. avv. 679-yilda paydo bo‘lgan dushmanni bartaraf qilib, Eronning shimoliy-g‘arbida yashagan skiflar bilan er. avv. 672-yilda ittifoq tuzdi. Sinaxxerib yo‘qotgan Suriya qaytib olindi, Misr bilan yana urush boshlandi. Bu vaqtda Quyi Misrda Sais va Tanis sulolalari o‘rtasida kurash kuchaygan, Fivada efiop sulolasi hukm surar edi. Ossuriyani tobora kuchayib borayotgan efiop sulolasi bezovta qildi. Asarxaddon efiop podshosi Tirgakka (er.avv. 693-666 yillar) qarshi yurish boshladi. Askalon yonida er.avv. 673-yilda efiop qo‘shini yengildi. Ossuriya hukmdori arab qabilalari bilan shartnoma tuzdi. Arablar osur qo‘shinlarini ozuqa bilan taminlash majburiyatini oldilar. Asarxaddon Arabiston sahrosidan o‘tib, efioplarni yana bir bor yengdi va Memfisga g‘olib sifatida kirib keldi. U Memfis va Fivadagi xazinalarni bosib olib, Ossuriya odatiga ko‘ra, Misrni 20 hududga bo‘ldi. Har bir viloyatga kuchsiz noiblarni qo‘ydi. Sais hokimi Nexoni ularning ustidan boshliq etib tayinladi. Ossuriyaning Misrga hukmronligi 16 yil davom etdi(er.avv. 671-655yillar). Bu davrda Ossuriya davlati chegaralari Nil daryosining birinchi ostonalaridan Kavkaz ortigacha, Eron past tog‘idan Kichik Osiyogacha, O‘rtayer dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha cho‘zildi. Bu bepoyon davlatni boshqarish Ossuriyaga juda katta qiyinchiliklarni tug‘dirdi.

Er.avv. VIII-VII asrlarda osur podsholari faol tashqi siyosat olib borib, uzluksiz bosqinchilik urushlari vositasi bilan Ossuriyaning kuch-qudratini mustahkamlashga urindilar. Tiglatpalasarning vorislari Sargon II (er. avv. 722-705), Sinaxxerib

(er. avv. 705-681), Asarxaddon (er. avv. 681-869) va Ashshurbanipal (er. avv. 669-629) yuz yil davomida yuzlab istilochilik urushlari natijasida tashkil etilgan ulkan imperiyani saqlab qoldilar. Ammo Ashshubanipal hukmronligining so‘nggi yillarida imperiyaning yemirilishi boshlandi. Uning alohida markazlari o‘zaro raqobat qila boshladilar. Ashshurbanipal er.avv. 629-yilda vafot etdi. Sinshariskun taxtga chiqdi. Uch yildan so‘ng, joylarda Ossuriyaning hukmronligiga qarshi kuchli noroziliklar boshlanib, oxir-oqibatda uning halokatiga olib keldi. Imperiyaning jadal yemirilishi boshlandi.

Bobil, Elam, xaldey, oromiy hokimliklari, Suriya va Finikiya shaharlari Ossuriya hukmromligiga qarshi bosh ko‘tardi. Natijada Ossuriya halokat yoqasiga kelib qoldi. Bobil va Midiya birgalikda Ossuriyaga qarshi ittifoq tuzib, er. avv. 614-yilda Ashshurni, er. avv. 612-yilda Nineviyani vayron qildilar. Er. avv. 590-yilda Xarran yonidagi jangda Ossuriyaning harbiy qudrati to‘liq sindirildi. Natijada butun Old Osiyoni tarixda ilk bor yagona davlat tarkibida birlashtirgan va bir necha yuz yil hukmronlik qilgan qadimiy Sharqning eng katta davlati tarix sahnasidan tushib ketdi. Ossuriyaning yemirilishi natijasida midiyaliklar Ossuriyaning o‘zini va Xarranni bosib oldilar. Bobil Mesopotamiyada o‘rnashib, Suriya va Falastin ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishga tayyorlandi. Misr ham bu mamlakatlarga o‘zining o‘tmishdagi ta`sirini qayta tiklashga harakat qildi. Shu tarzda, Old Osiyoda faqat uch qudratli davlat: Midiya, Bobil va Misr qoldi. Bundan tashqari, Kichik Osiyoda ikki kichkina mustaqil davlat-Lidiya va Kilikiya qoldi.

5. Ossuriyaning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Ossuriya katta-katta hududlarni bosib olishi natijasida hududlar, shaharlarda savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlandi. Mamlakatda ko‘plab yerlar o‘zlashtirildi. Irrigatsiya va suv ta’minoti yaxshilandi. Bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun turtki bo‘lgan temir qurollar keng tarqaldi. Metallurgiya, qurolsozlik sohalari yuqori darajada taraqqiy qiladi. Talonchilik urushlardan olingan ko‘plab o‘ljalar va qullardan Ossuriya shahar va qal’alarni qurishda keng foydalaniladi. Yangi shaharlar quriladi, jumladan, Kalxu shahri qayta tiklanadi.

Ossuriyaning yangi poytaxti «Tukulti-Ninurtu qal'asi» asir olingan kassit, xurrit va urartu qabilalari kuchi bilan qayta tiklangan.

Ossuriya jamiyatining hukmron tabaqasi harbiylar, davlat xizmatidagi zodagonlar, ibodaxona va savdo ahlidan iborat bo‘lib, ular juda katta boylik va imtiyozlarga ega bo‘lganlar va mavjud siyosiy hokimiyat bilan yaqin aloqada bo‘lib, uning istilochilik siyosatini qo‘llab-quvvatlaganlar. Ossuriya jamiyatining quyi tabaqalarini kichik ishlab chiqaruvchi yer egalari, jamoa a'zolari va hunarmandlar tashkil etgan. Ular xazinaga qishloq xo‘jalik mahsulotlari, chorva mollari va kumush bilan soliq to‘laganlar.

Ijtimoiy tizimning eng pastidagi ko‘chib kelganlar, asirlar va qullar qaram ishchilar toifasini tashkil qilganlar. Ular ko‘p hollarda podsho xo‘jaligida va ayrim hollarda ibodatxonalar, xususiy yerlarda ishlaganlar.

Ossuriya davlati o‘z tarixining so‘nggi davrida qadimgi Sharq davlatchiligining o‘ziga xos shakliga ega bo‘lgan. Podsho qo‘lida dunyoviy, harbiy va diniy sohalardagi cheklanmagan hokimiyat to‘plandi. "Podshoga hokimiyat muqaddas xudolar tomonidan topshirilib, xudolar homiyligi ostida hukmdorlar davlatni boshqaradi" tushunchasi xalq ommasi ongiga singdirilgan edi.

Davlatni boshqarishda osur hukmdorlari qo‘shin va yaxshi tashkil etilgan boshqaruv apparatiga tayanganlar. Ossuriya davlati boshqaruvida harbiy va moliya muassasalari yetakchi o‘rinni egallagan. Harbiy muassasa mamlakat ichida va bo‘ysundirilgan hududlarda "tartib"ni saqlagan. Moliya muassasi esa, davlat xazinasiga soliq va o‘lponlarni o‘z vaqtida to‘lovi uchun javob bergan. To‘lov va majburiyatdan faqat podshoning "himoya" yorliqlariga ega bo‘lganlar ozod qilingan. Ayrim shaharlar (Bobil, Borsippa, Sippar, Nippur, Xarran va Ashshur) ibodatxonalari va saroy ahllarigina bunday imtiyozlardan foydalanganlar.

Er. avv. IX-VII asrlarda Ossuriya davlati boshqaruvi quyidagi shaklda bo‘lgan: Bosib olingan hududlarning ko‘pchiligida provinsiyalar (Ossuriya, Kichik Osiyoning ayrim shahar va viloyatlari, Xaldey va Oromiy knyazliklari.) tashkil qilingan. Ular Ossuriya noiblari tomonidan boshqarilgan. Ba'zi hududlarda Ossuriyaga xiroj to‘laydigan qaram podsholiklar (Finikiya shaharlari, Yahudiya, Moav, Edem, Tabal, Manna) saqlanib qoladi.

Ossuriyadan uzoq bo‘lgan bir qadar kuchli davlatlar o‘z mustaqilligini ma’lum darajada saqlab qoladi (Lidiya, Urartu, Midiya, Elam va Shimoliy Arabiston yerlari). Bo‘ysundirilgan Misr alohida mavqega ega bo‘lgan. U 20 ta kichik hududlarga bo‘linib, ularning tepasida mahalliy hokimlar (podsho, nomarx, kohinlar) turganlar. Shu bilan birga, bo‘ysundirilgan hududlarda Ossuriyaning ko‘p sonli amaldorlar apparati va harbiy ma’muriyati qoldirilgan. Bobil shahri alohida boshqarilgan. Bobil podsholari rasman o‘z mustaqilliklarini saqlab qoldilar.

Ossuriya o‘zining janubiy qo‘shnisi Bobilning madaniyati, e`tiqodi va san`atini o‘zlashtirib oldi. Ular Mesopotamiya orqali Kichik Osiyo, Misr bilan aloqa o‘rnatdilar. Ossur kohinlari o‘z kasbdoshlari bo‘lgan Misr, Bobil kohinlari bilan hamkorlik qildilar. Poytaxt Nineviyadagi Ashshurbanipal kutubxonasidagi Bobil adabiyotining eng noyob namunalari, jumladan, Gilgamesh dostoni saqlanar edi. Ossuriyaning mashhur hukmdori Ashshurbanipal adabiyot ishqibozi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. U shunday yozuv qoldirgan: “Shumerlarning chiroyli, lekin tushunarsiz yozuvlarini va akkadlarning chalkash matnlarini takrorlash men uchun katta quvonch bo‘lar edi.”

Ossuriyada me`morchilik san`ati yuksak rivojlangan edi. Bobil shahridan so‘ng, Old Osiyoda aholi soni bo‘yicha (170 ming kishi) ikkinchi o‘rinda bo‘lgan Nineviyada hukmdorlarning hashamatli saroylari, ulkan ibodatxonalar qurilgan. Ayniqsa, Sargon II ning saroyi odam boshli, qanotli ulkan ho‘kiz haykallari bilan bezatilgan. Ossur saroylari rel`ef tasvirlarida dunyoviy syujetlar yetakchi o‘rin tutadi. Tasvirlarda ossur podsholarining g‘alaba va yurishlari, kuch-qudrati o‘z ifodasini topgan. Hukmdor ulug‘vor jiddiy yuz ifodasi bilan ovda, jangda tasvirlangan. Soqolsiz haram og‘alari hamrohligida malika bilan dushman ustidan g‘alaba sharafiga bazmda tasvirlanadi. Rel`eflarda podsho ishtirokida dushmanlarni qoziqqa o‘tqazish , asirlarni tilini sug‘irib olish va terisini shilish tasvirlanadi. Ovda yirtqich hayvonlar, bo‘kirayotgan sher, sahroda tuya, yugurib ketayotgan ot ajoyib, hayotiy ifodalanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ossuriya davlatining paydo bo‘lishi va uning xalqaro maydondagi o‘rni haqida bahs-munozara qiling.
2. Ossuriya hududida olib borilgan arxeologik qazishma ishlarida asosan qaysi davlat olimlari jonbozlik ko‘rsatdi?
3. Ossuriyaning tashqi siyosatidagi o‘ziga xosliklar nimalardan iborat?
4. Ossuriya harbiy qudratini kuchayishiga qaysi omillar sabab bo‘lgan?
5. **Keys savoli:**Ossuriya dunyodagi birinchi markazlashgan derjava sifatida qudratini qanday mustahkamladi va bu boshqa davlatlar bilan munosabatlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

10-MAVZU. QADIMGI KICHIK OSIYO

Reja

1. Xett davlati tarixi manbalari va tarixnavisligi.
2. Davlatchilikni sakllanishi.
3. Yangi Xett podsholigi davrida buyuk Xett davlati
4. Xett davlati harbiy tashkiloti.
5. Xett diplomatiyasi.
6. Urartu davlati.

Xett davlati tarixi manbalari va tarixnavisligi. Er. avv II ming yillikda halokatga uchragan Xett davlati to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar XX asr boshlarigacha deyarli yo‘q darajada edi. Bu vaqtgacha Kichik Osiyo va Shimoliy Suriyada sirli iyeroglif yozuvlar va tasvirlar topilgan edi. 1887 yil tadqiqotchilar Tell-Amarna arxividagi diplomatik yozishmalarda Xett podshosining Misr fir’avniga tengligi (uning birodari) eslatib o‘tiladi. Bu kashfiyot Old Osiyoda qadimda yana bir buyuk davlat mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. 1906 yil nemis olimi Y. G. Vinkler Bug‘ozqoyada (Turkiya) xettlar poytaxti Xattusi xarobalarida arxeologik qazishmalarga kirishadi. Qazishmalar natijasida Yaqin Sharq tillarida bitilgan o‘n minglab taxtachalardan iborat arxiv, jumladan, Xett-Misr tinchlik shartnomasining mixxat varianti topiladi. Chex tadqiqotchisi B. Grozniy 1915 yilda chuqur tadqiqotlar natijasida xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub degan xulosaga keladi. Natijada Xett davlati tarixini o‘rganish kuchayib tarixini umumiy ocherkini yaratdi. Bundan tashqari A. Getse 1933 yilda Kichik Osiyo tarixi umumiy ocherkini chop etadi. Muallif Xett davlatining harbiy va sulola tarixiga asosiy e’tiborini qaratadi. U Xett jamiyatining bir qancha ijtimoiy-siyosiy muassasalari o‘xshashligiga (yer-mulk, majburiyatli yer egaligi) asoslanib, xettlarning ijtimoiy tizimini feodal tuzum deb ta`rifladi. Lingvist va arxeologlar Xett madaniyati asoslarini yaratishda protoxettlar, xurrit qabilalarini o‘rnini ko‘rsatadigan dalillarni topdilar.

Kichik Osiyo davlatchiligida bevosita Xettdan keyin Yunon tasiri kuchayib, Troya davlati tashkil topib o‘z davrning qudratli davlatiga aylanadi. Qadim Troyani tadqiq 1870 yildan etgan nemis olimi G. SHliman aynan Turrkiyaning shimoliy – g‘arbiy xududlarida eramizdan avvalgi 2 ming yillikning oxirlarida o‘ziga xos davlatchilik bosqichi bo‘lganligini aniqladi[72].

Davlatchilikni shakllanishi. Qadimgi Xett podsholigi (er. avv. XVIII-XVI asrlar). Er. avv. XX-XVIII asrlarda Kichik Osiyoda ashshurlik savdogarlar bir necha savdo koloniyalarini barpo qiladilar. Bu savdo koloniyalari orqali xalqaro savdo olib boriladi. Eng avvalo, metallar va yuqori sifatli gazlamalar savdosi amalga oshiriladi. Bu davrda Sharqiy Kichik Osiyoda xett qabilalari boshqa mahalliy tub joy aholini assimilyatsiya qiladilar.

Kichik Osiyodagi Nesa (Kanes), Burusxan, Kussar va Xattusi kabi shaharlarni o‘z ichiga olgan siyosiy birlashmalar vujudga kela boshlaydi. Kichik Osiyoning bu siyosiy birlashmalarining ilk birlashuvi er. avv. XVIII asrning birinchi yarmida yuz beradi. Viloyatlarning birini hokimi Anitta Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi Tuz ko‘ligacha bo‘lgan hududlarni egallab, bepoyon davlatni barpo qiladi.

Qadimgi Xett davlatida urug‘-jamoa qoldiqlari hali kuchli bo‘lgan. Xett podsholari o‘z hokimiyatlarini xalq kengashlariga tayanib amalga oshirganlar. Qurol ko‘tarishga qobiliyatli bo‘lgan barcha erkaklar podsho chiqaradigan «pankus» deb ataladigan yig‘ilishga muntazam ishtirok etganlar. Zodagonlar davlat boshqaruvida faol qatnashib, o‘zlarining kuchli tayanchi bo‘lgan zodagonlar kengashi (Tuliya) orqali xalq yig‘iniga boshchilik qilganlar. Zodagonlardan tashqari, davlat boshqaruvida podsho oilasi: aka-ukalari va boshqa qarindoshlari muhim rol o‘ynaganlar.

Qadimgi Xett an’anasiga ko‘ra, podshoning vorisi podsho oilasidan tanlangan. Ko‘pincha voris tanlashda podshoning jiyanlari, uning opa-singillarining o‘g‘illariga imtiyoz berilgan. Odatga ko‘ra, davlatni ikki hukmdor: podsho va malika boshqargan. Agar podsho vafot etsa, malika o‘z unvonini yangi podsho hukmronligi davrida ham saqlab qolgan. Yangi podshoning rafiqasi malika bo‘lish uchun, sobiq podshoning

[72]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.77.

bevasi-malikaning oʻlimini kutib turgan. Anita vafotidan keyin, er. avv. XVII asr oxirida boshqa Xett urugʻi hokimiyat tepasiga keladi. Xett davlati asoschilarining birlashtiruvchi siyosatini istilochi va islohotchi podsho Labarna (yoki Tabarna, er. vv. 1675-1650 yillar atrofida boshqargan) tugallaydi. U istilochilik yurishlarini davom ettirib, Tavr togʻ tizmasining shimoliy qismini egallaydi va Shimoliy Qora dengizga chiqadi. Xett davlati chegaralarini "dengizdan-dengizgacha" kengaytirdi. Uning ichki va tashqi siyosatidan kuchli ta`sirlangan va tan bergan keyingi vorislari Labarna va uning rafiqasi Tavannanna nomlarini oʻzlariga unvon sifatida qabul qildilar.

Labarna mavjud Xett an'analariga zid ravishda oʻgʻli Xattusilini oʻz vorisi deb e'lon qiladi. Xattusili I (er. avv. 1650-1625-yillar atrofida) poytaxtni xettlarning sobiq bosh markazi Xattusiga koʻchiradi (Shu voqeadan keyin, davlat rasmiy ravishda "Xatti" zamonaviy fanda "Xett" deb atala boshlanadi).

Uning vorisi Mursili I (er. avv. 1625-1590 yillar atrofida) davrida Xett podsholigida markazlashuv kuchayadi. U Mesopotamiyadan Finikiyaga boradigan yoʻldagi asosiy savdo

markazi bo‘lgan Shimoliy Suriyadagi Xalpa shahrini bosib oladi. Mursili I er. avv. 1595-yilda uzoq Bobilga yurish qilib, Hammurapi sulolasini tugatadi. Ammo mamlakat ichida keskin vaziyat vujudga keladi. Saroy fitnachilari podsho hokimiyatini kuchayishini istamay, taxt vorisligiga ko‘pgina da’vogarlar bo‘lishiga imkoniyat beradigan an’analarni saqlab qolishga urinadilar. Oqibatda Mursili I saroy fitnasi qurboni bo‘ladi. Xett hukmron tabaqalari ichida o‘zaro kelishmovchiliklar boshlanadi.

O‘zaro kelishmovchiliklarga Telepin I (er. avv. 1530-1500 yillar atrofida) chek qo‘yadi. Uning davrida faqat podshoning o‘g‘li taxtga chiqish huquqiga ega bo‘ladi. Agar podshoning o‘g‘illari bo‘lmasa, uning singlisining o‘g‘li va eng so‘nggida podshoning kuyovlari taxtga davogar bo‘lish qoidasi o‘rnatiladi. Taxt vorisligining bunday tartibi qat’iy bo‘lib, zodagonlar kengashi «pankus»ning taxt vorisligi masalasidagi rolini tugatdi. Ammo qolgan masalalarda «pankus» o‘z huquqini saqlab qoladi. Pankusning yuqori pog‘onasi bo‘lgan «tuliya» hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tuliyaning ruxsatisiz podsho uning biror-bir a’zosi bo‘lgan zodagonni qatl qila olmas edi. Agarda tuliyaning ruxsati bilan uning biror a’zosiga podsho tomonidan o‘lim jazosi berilgan taqdirda ham podsho aybdorning oilasini ta’qib ostiga olish va mol-mulkini musodara qilish huquqidan mahrum edi. Tadqiqotchilar, bu davrni (er. avv. XVIIII- er. avv. XVI asrlar) qadimgi Xett podsholigi davri deb hisoblaydilar.

Telepin va uning o‘g‘li hukmronligidan so‘ng, Xett davlatining tushkunlik davri boshlanadi. Bu davr O‘rta Xett podsholigi davri (er. avv. XV asr) deb nom oladi. Bu davrda Xett podsholigining ahvoli yana og‘irlashadi. Bir asr davomida Xett davlati va jamiyati go‘yoki tushkunlikni boshdan kechiradi.

Yangi Xett podsholigi davrida Buyuk Xett davlati (er. avv. XIV -XII asrlar). Er. avv. XIV asr boshlarida Old Osiyoda Misr, kassitlar Bobili va Mitanni davlatlari zaiflashib, xalqaro munosabatlarda Xett davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit tug‘iladi. Er. avv. 1450-yillar atrofida kelib chiqishi xurrit bo‘lgan omadli amaldor taxtni egallab, yangi Xett sulolasiga asos soladi. Yangi sulola podsholari qadimgi Xett buyuk davlatchiligi g‘oyalarini qaytarishga da`vo qilib, harbiy-byurokratik

monarxiyani tashkil qiladilar. Podsho ilohiylashtirilgan mutloq hukmdorga aylanadi va oʻziga voris tayinlaydi (Bu voris alohida “Tuxkante” lavozimiga aylanib, bu vazifadagi kishini zarur boʻlganda almashtirish mumkin edi). Endilikda saroy toʻntarishlari isyonga aylanib ketmaydi. Shu vaqtdan boshlab podsho alohida samoviy ilohiylik egasi hisoblanib, “quyoshim” deb ulugʻlandi.

Xett podsholari ichida eng taniqli diplomat, uzoqni koʻra oladigan siyosatchi, mohir sarkarda Suppilium I (er. avv. 1380-1335-yillar atrofida) davlatning harbiy qudratini oshiradi. U yengil, tez yuradigan jang aravalari bilan qoʻshinni ta’minlaydi. Xett shaharlari, ayniqsa, poytaxt Xattusining mudofaa inshootlari mustahkamlanadi. Suppilium I Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻi mayda davlatchalarini va Mitanni davlatini oʻziga boʻysundiradi. Mitanniga tegishli Suriya viloyatlarini va shaharlarini bosib oladi. Suppilium I oʻz kuyovini Mitanni taxtiga oʻtqazdi. U Suriyada markazi Karxemish va Xalpa boʻlgan xettlarga qaram davlatlarga asos solib, bu davlatlarni hukmdori qilib oʻz oʻgʻillarini tayinlaydi. Bobil vaAxey (Miken Yunonistoni) davlatlari Suppilium bilan doʻstlik aloqalarini oʻrnatishga majbur boʻladi.

Uning vorisi Mursili II (er. avv. 1335–1305-yillar atrofida) otasining davlatini toʻla hajmda saqlab qoladi, lekin qaram hududlardagi isyonlar, qoʻzgʻolonlar va boshqa qudratli davlatlarning mamlakat hududiga tazyiqiga qarshi toʻxtovsiz urushlar olib borishga majbur boʻladi. Mursili II Kichik Osiyodagi Janubiy Frigiya va Lidiya, Milavan (Milet) hokimlarini boʻysundiradi. U an’anaviy raqib Arsava podsholigiga (Kichik Osiyo) qarshi gʻolibona yurish qilib, Egey dengizi qirgʻogʻigacha chiqadi. Ammo Mursili II podsholigining soʻnggi yillarida Misr XIX sulola davrida yanada kuchayadi va Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻi uchun Xett davlati bilan yana raqobat boshlaydi. Er. avv. 1286-yilda Kades shahri yonida har ikki tomon uchun hal qiluvchi janglardan biri boʻlib oʻtadi. Jangda Misr qoʻshinlari yengiladi. Shunga qaramasdan Misr fir’avni, iste’dodli sarkarda Ramzes II yana urushga tayyorlanib, xettlarni Falastin, Finikiya va Suriyaning katta qismidan siqib chiqaradi. Oxir-oqibatda Misr va Xett davlati er. avv. 1280-yilda tinchlik shartnomasini

imzolaydilar. Shartnoma bo‘yicha Suriyaning bir qismi va Shimoliy Finikiya Xett davlati ta’siri ostida qoladi. Har ikki davlat o‘rtasida savdo aloqalari kuchayadi. Endilikda Xattusili III kuchayib borayotgan Ossuriyaning harbiy tazyiqiga qarshi Bobil bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi, lekin Ossuriyani Yuqori Mesopotamiyadan siqib chiqara olmaydi. Xett davlati kuchli qo‘shinga ega bo‘lgan Ossuriya tazyiqini qiyinchilik bilan qaytaradi.So‘nggi Xett podsholari Tutxaliya IV va uning ikki o‘g‘li davrida axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklarni Kichik Osiyoning g‘arbida hujumini zo‘rg‘a qaytaradilar. Axeylar tor-mor qilinganidan keyin, Kichik Osiyo g‘arbidagi Ilion shahri bosib olinadi. So‘nggi Xett podshosi Suppilium II Kipr orolini yana qayta bosib oladi. Er. avv. XII asr oxirida Egey dengizi qirg‘oqlari va orollarining etnik jihatdan ola quroq «dengiz xalqlari» Xett davlatini tor-mor qildilar (er. avv. 1190-yillar). Shunday qilib, yangi Xett davlati tarix sahnasidan abadiy tushib ketdi. Markazlari Karxemish va Melida bo‘lgan so‘nggi Xett podsholiklari qoldiqlari er. avv. VIII asr oxirlarida Ossuriya tomonidan tugatildi.

Xett davlati harbiy tashkiloti. Xett davlati istilochilik siyosatini muntazam va ko‘ngillilardan tashkil topgan, yaxshi qurollangan qo‘shinga tayanib amalga oshiradi. Harbiy yurishlar asosan bahorda boshlanib, kech kuzda tugagan. Yurishlar o‘rtasida muntazam qo‘shinlarning bir qismi maxsus harbiy qarorgohlarda joylashtirilgan. Xettlarning chegara shaharlarida maxsus harbiy garnizollar joylashtirilgan. Qaram davlatlar Xett garnizollarini ozuqa bilan ta`minlashga majbur bo‘lganlar.

Qo‘shin asosan og‘ir qurollangan piyodalar va jang aravalaridan tuzilgan. Harbiy san`at tarixida xettlar qo‘shinda yengil jang aravalarini birinchi bo‘lib qo‘llaganlar. Xett jang aravasida ikki ot qo‘shilgan bo‘lib, arava haydovchi, nayzali jangchi va uni himoya qilib turadigan qalqonbardordan iborat bo‘lgan. Xettlarning jang aravalarini harbiy jangda qo‘llashi podsho Anitaning qadimgi Xett matnida uchraydi. Matnda Anitaning 1400 piyoda askari va 40 jang aravasi bo‘lganligi aytiladi. Kades yonidagi jang to‘g‘risidagi manbalarda Xett podshosi Muvatalli qo‘shinlari taxminan 20 ming piyoda askarlar

va 2500 jang aravalaridan tashkil topgani to‘g‘risida ma`lumot beriladi.

Jang aravalari yuqori darajada texnik mohirlik bilan yasalgan bo‘lib, juda qimmat turgan. Ularni yasash uchun yog‘ochning alohida navlari, teri va metallar talab qilingan. Ko‘rinishidan jang aravalarini ishlab chiqarish markazlashgan holda davlatning maxsus ustaxonalarida tashkil qilingan. Ustalar uchun jang aravalarini yasash bo‘yicha Xett podsholarining yo‘riqnomalari saqlanib qolgan. Jang aravalariga qo‘shiladigan otlarni tayyorlashni maxsus usullar bo‘lgan. Xettlar shaharlarni bosib olish uchun maxsus qamal qurollaridan foydalanganlar.

Xett diplomatiyasi. Xettlarning tashqi siyosatida diplomatiya muhim o‘rin tutgan. Ular Kichik Osiyo va Old Osiyoning ko‘p davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatganlar. Bu aloqalar ko‘p hollarda maxsus shartnomalar bilan mustahkamlangan. Xett arxivlarida Old Osiyoning boshqa mamlakatlari arxivlariga qaraganda, bir necha marta ko‘p miqdorda diplomatik hujjatlar saqlanib qolgan. Xettlar boshqa mamlakatlar bilan davriy ravishda elchilar orqali maktublar, sovg‘a-salomlar almashib turganlar. Davlatlar o‘rtasidagi aloqalar sulolaviy nikoh shartnomalari bilan mustahkamlangan.

Podsho devonxonasida xalqaro aloqalarga maxsus muassasa rahbarlik qilgan. Bu yerda elchilar, tarjimonlar, mirzolar ishlagan va shartnomalar matnlari tuzilgan. Shartnomalar odatda ikki tilda: biri xett tili, ikkinchisi akkad tilida tuzilgan. Davlatlararo shartnomalar matnlari podsho oldidagi kengashda muhokama qilingan. Shartnomalarga podsholar muhrlari tushirilgan. Matnlar loy, metall (kumush, jez, temir) taxtachalarga bitilgan. Shartnomalar matnlari yozilgan taxtachalar mamlakatning oliy xudolari haykallari oldida saqlangan. Chunki xudolar shartnomaning bosh guvohlari sifatida kim uni buzsa, jazolash huquqiga ega bo‘lganlar.

Xettlarning xalqaro shartnomalarning ko‘pchiligida Xett qo‘shinlarining harbiy g‘alabalari mustahkamlangan. Shu sababli, ularda ko‘p hollarda tomonlarning o‘zaro munosabatlarning teng huquqda bo‘lmagani ko‘rinadi. Xett podsholari ko‘pincha qaram davlatni o‘lpon to‘lashga majbur qilganlar. O‘lpon to‘lovchilar har

yili Xett podshosi oldiga kelishga, qaram davlat hududida joylashtirilgan Xett garnizonlariga g‘amxo‘rlik qilishga, birinchi chaqiriq bilan Xett hukmdoriga qo‘shin bilan yordamga kelishga majbur qilinganlar.

Qaram davlat har yili (ba`zida yilida uch marta) shartnomani o‘qishlari majbur bo‘lgan. Qaram mamlakat hukmdori o‘g‘illari, nevaralari va evaralari shartnomaga rioya qilishlari shart qilib qo‘yilgan. Xett diplomatik amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri xettlarning sulolaviy nikohlariga jiddiy e`tibor berganlaridir. Xett podsholari o‘z qizlari va opa-singillarini boshqa podsholarning nikohiga berishga harakat qilganlar. Bu nikohlar har ikki tomonning o‘zaro munosabatlarini barqaror bo‘lishini ta`minlagan. Xettlar Xett malikalari turmushga chiqqanda albatta bosh rafiqa bo‘lishi shartnomada alohida qayt qilingan. Bunday nikohlar vositasida Xett podsholari boshqa davlatlarda o‘z ta`sirlarini mustahkamlaganlar. Bundan tashqari, chet davlat taxtining qonuniy vorislari hukmdorni bosh rafiqasining o‘g‘illari bo‘lgan.

Retrospektiv taxlil[73]. Xet davlatining tashqi siyosati va Qadesh tinchlik shartnomasi. Diplomatiya tarixida Qadimgi Xet (Xatti) davlatining tashqi siyosati alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bu, avvalo, xalqaro munosabatlar tarixida ilk bor yozma shaklda rasmiylashtirilgan tinchlik shartnomasi aynan Xetlar va Misr o‘rtasida tuzilgani bilan izohlanadi. Miloddan avvalgi taxminan 1259–1258-yillarda (ba’zi manbalarda 1280-yil atrofida deb ko‘rsatiladi) Xett podshosi Hattusili III va Misr fir’avni Ramses II o‘rtasida tinchlik va o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolangan. Mazkur bitim Suriyaning strategik ahamiyatga ega Qadesh shahri uchun olib borilgan uzoq yillik harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng tuzilgan bo‘lib, ikki yirik qadimgi davlat o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini diplomatik yo‘l bilan mustahkamlashga xizmat qilgan. Qadesh jangi (mil. avv. 1274-yil) harbiy jihatdan aniq g‘alaba bermagan bo‘lsa-da, tomonlarni muzokaralar stoliga olib kelgan muhim omil bo‘lgan.

[73] Retrospektiv tahlil — bu o‘tmishda sodir bo‘lgan voqea, jarayon yoki hodisani bugungi ilmiy bilim va yondashuvlar asosida orqaga qarab (retrospektiv tarzda) tahlil qilish deganidir.

Shartnomaning mazmuni: Xett–Misr tinchlik shartnomasi o‘z davri uchun nihoyatda mukammal huquqiy-siyosiy normalarni o‘zida mujassam etgan. Uning asosiy bandlari quyidagilardan iborat:

Tinchlik va hujum qilmaslik majburiyati – har ikki tomon bir-biriga qarshi urush e’lon qilmaslik, harbiy kuch ishlatmaslik majburiyatini oladi; Hududiy daxlsizlik – tomonlar bir-birining hududiy yaxlitligini hurmat qilishga va’da beradi;Qochoqlarni (qochqinlarni) qaytarish – siyosiy yoki ijtimoiy sabablar bilan qochib ketgan shaxslarni o‘z davlatiga qaytarish majburiyati belgilanadi; O‘zaro ittifoq va harbiy yordam – tashqi dushman hujumi sodir bo‘lganda tomonlar bir-biriga yordam ko‘rsatishi lozimligi qayd etiladi; Qasamyod va ilohiy guvohlik – shartnoma xudolar nomidan tuzilgan bo‘lib, uni buzgan tomon ilohiy jazoga duchor bo‘lishi ta’kidlanadi.

Shartnomaning tarixiy va huquqiy ahamiyati: Mazkur bitim jahon diplomatiyasi tarixida bir qator muhim jihatlari bilan ajralib turadi:u dunyodagi eng qadimiy xalqaro tinchlik shartnomasi sifatida e’tirof etiladi; shartnomada qochoqlarni topshirish, hujum qilmaslik va majburiyatlarga sodiqlik kabi normalar belgilanishi zamonaviy xalqaro huquq tamoyillariga uyg‘un jihatlarni namoyon etadi; shartnoma matnining ikki nusxasi saqlanib qolgan: BMTga qo‘yilgan shartnoma kengaytirilgan replikasi 1970-yil 24-sentabrda tashkilotga sovg‘a sifatida topshirilgan va joylashtirilgan. Ushbu nusxa Turkiya hukumati tomonidan BMT bosh kotibi U Tantga sovg‘a qilingan edi va u BMT konferensiya binosining ikkinchi qavatida, Xavfsizlik Kengashi zali yonida osilgan.Shunday qilib, Xett–Misr tinchlik shartnomasi qadimgi dunyoda diplomatiya, muzokara va huquqiy majburiyatlar tizimi shakllanib ulgurganini ko‘rsatadi. Ushbu hujjat Xet davlatining tashqi siyosati faqat harbiy kuchga emas, balki muvozanatli diplomatik yondashuvga ham asoslanganini yaqqol namoyon etadi.

Yangi Xett podsholigi davrida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. Yangi Xett davrining xo‘jalik va ijtimoiy munosabatlarini tavsiflovchi asosiy manba Xett qonunlaridir. Xo‘jalikning asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik

(metallurgiya va metallardan mehnat qurollari tayyorlash, kulolchilik, quruvchilik ishlari va h.k) tashkil qilgan. Dehqonchilikda sun'iy sug'orish sezilarli bo'lmagan. Sun'iy sug'orish inshootlari cheklangan holatda barpo qilingan. Xo'jalikda savdo ham muhim o'rin tutgan. Yer egaligi podsho yerlari, ibodatxona yerlari, jamoa yerlaridan iborat bo'lgan. Davlat yerlariga egalik qilish va foydalanish natural (saxan)va mehnat (lussi) majburiyatlarini o'tash bilan bog'langan. Saxan va lussidan ibodatxona yerlari ozod qilingan. Podsho xizmatida bo'lgan xususiy kishilarning yerlari, podshodan hadyaga olingan yerlar ham saxan va lussi bilan bog'langan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkin bo'lgan. Davlatning diniy markazlari bo'lgan Arinna, Nerika va Siplanda shaharlarining kohinlari, to'quvchilari, xizmatchilari majburiyatlarni o'tashdan ozod qilinganlar.

Hunarmandchilikning rivojlangani to'g'risida ma`lumot beradigan qonunlar va boshqa hujjatlarda temirchi, kulol, duradgor va tikuvchi kasblari tilga olinadi. Mehnat qurollari va harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo dastlab mis, keyinchalik qalay bo'lgan. Temirdan faqat diniy marosimlar uchun haykalcha va boshqa buyumlar yasashda oz miqdorda foydalanilgan.

Xett davlatida podsho oilasi va podsho bosh kohin sifatida juda katta miqdorda yerga egalik qilgan. Podsho va ibodatxona yerlarida ishlovchilar o'z yerlariga biriktirib qo'yilib, turli soliq va majburiyatlarni o'taganlar. Xett davlati ma'muriyati qarori bilan ekin yerlari ishlovchilar bilan birga o'z foydasiga soliq yig'ish huquqi bilan podsho amaldorlari va ibodatxonalar ixtiyoriga berilganlar. Ayrim ibodatxonalar umumdavlat soliqlaridan ozod qiluvchi immunitet yorliqlarini olgan. Davlat va ibodatxona yerlaridan tashqari, boshqa yerlar xususiy mulk bo'lib, oldi-sotdi qilingan.

Xett jamiyatida barcha aholi ikki guruhga bo'lingan: soliq to'lovlari va boshqa majburiyatlarni o'tovchi (podsho, ibodatxona yoki xususiy shaxs foydasiga) kishilar erkin bo'lmagan mavqega ega bo'lib, kamsitilganlar. To'la ma'noda erkin kishilar deb zodagonlar, amaldorlar, kohinlar va katta yer egalari hisoblanganlar. Xett davlati ma`muriyati tomonidan bosib olgan

hududlarni boshqarmagan, balki ulardan faqat xiroj olish bilan cheklagan. Qaram hududlar, davlatlarni o‘z mahalliy hokimlari boshqargan. Lekin ular turli to‘lov va majburiyatlarni o‘tashga majbur bo‘lgan.

Shaharlarning aholi yashash markazlari sifatida vujudga kelishi dunyo tarixidagi eng uzoqqa cho‘zilgan bo‘linishni yuzaga keltirdi. Shahar va qishloqning bo‘linishi,daryo bo‘yida joylashgan shaharlarda odamlar ixtisoslashgan mehnatga va mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan hayot tarziga o‘tishdi. Bunga farqli ravishda, qishloq aholisi o‘z yerlari bilan qolishdi, dehqonchilik va chorvachilik bilan shugùllanishdi, lekin ular donli va chorva mahsulotlarini shahar markazlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ayirboshladilar. Shu sabab ushbu bo‘linish ajralishni yuzaga keltirmadi, chunki ikkala hayot tarzi o‘zaro bog‘liq edi. Shahar va qishloqning bo‘linishiga qaramasdan , ikkala dunyo o‘rtasidagi aloqa saqlanib qoldi oilaviy rishtalar, savdo, siyosat, va din orqali. Shaharlashuvning rivojlanishi intellektual siljishlarga zamin yaratdi. Ulkan siljishlardan biri yozuv tizimining kashf etilishi, u odamlarga tovushlar va so‘zlarni tasviriy belgilar orqali ifodalash va yozib qoldirish imkonini berdi. So‘zlar va fikrlarning ramziy belgilar bilan ifodalanishi misli ko‘rilmagan madaniy inqilob bo‘lib, odamlarning muloqot darajasi va xotirasini kengaytirdi: ulamolar og‘zaki gaplarni, oxir –oqibat esa hattoki daryo havzalaridagi yashash hududlari haqidagi dostonlarni ham yozuvga aylantirish yo‘llarini topishdi.

Xett madaniyati. Xett jamiyatining o‘z madaniy tarqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta’siri yaqqol seziladi. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurritlarning ta’siri kuchli bo‘lgan.

Xett dini o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan. Xettlarning ming ma’bud va ma’budalari to‘g‘risida manbalarda eslatishlar mavjud. Amalda esa, cheklangan miqdorda ilohlarga sig‘inilgan. Poytaxt Xattusining oliy homiysi chaqmoq xudosi bo‘lgan. U bilan birga, xurritlarning chaqmoq xudosi Tesubga ham sig‘inilgan. Xattusida quyosh, hosildorlik xudosi Telepinga va mahalliy Kilikiya hosil xudosi Sandanga e’tiqod qilingan. Podsho quyoshga o‘xshatilib

ilohiylashtirilgan. Shu sababli, xettlar o‘z podsholarini «quyoshim» deb sig‘inganlar.

Xett yozma asarlaridan bizgacha yetib kelgan podsholarning «tarjimai hollari» juda qiziqarli va batafsil bayon qilingan. Ularda yorqin obrazlar, chuqur kechinmalar va o‘ziga xos axloqiy qarashlar seziladi. Xett yilnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo‘lishga urinish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xett arxivlarida boshqa mamlakatlar, masalan, Akkad tarixi to‘g‘risida ma’lumotlar ham mavjud.

O‘rta va Yangi Xett podsholiklari davrida Xett adabiyotida duolar alohida o‘rin tutadi. Jahon adabiyotidagi eng birinchi yozilgan tarjimai hol Xattusili III ning tarjimai holi matni hisoblanadi. Qadimgi xett dafn qo‘shig‘i xett poeziyasining yagona namunasidir.

Xett podsholigining boshqa xalqlar bilan yaqin aloqasining mavjudligidan dalolat beradigan yana bir madaniy yodgorlik-uch tilli shumer-bobil-xett lug‘atlarining tuzilishidir. Bizgacha Xett podshosining bosh otboqari Kikkuli ismli kishi tuzgan yilqichilik to‘g‘risidagi ajoyib qo‘llanma yetib kelgan. Qo‘llanma qadimgi Xett davlati iqtisodiy hayotida yilqichilik muhim o‘rin tutganligidan dalolat beradi. Ushbu qo‘llanma dunyo tarixida yilqichilik sohasi bo‘yicha ilk yaratilgan asardir.

Xett haykal va rel`eflari vazmin va ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda ayniqsa, mudofaa inshootlari, qal’a devorlari qurish yuqori darajada bo‘lgan. Xett madaniyati ko‘p asrlik Shimoliy Mesopotamiyada va unga yaqin boshqa hududlarda yashagan qabila va xalqlarning madaniyatini o‘zida aks ettirgan va boshqa madaniyatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xett davlati halokatidan keyingi asrlarda ham xettlarning madaniy merosi boshqa qo‘shni mamlakatlar madaniyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazdi.

Frigiya. Er. avv. XIII asr o‘rtalarida Bolqon yarim orollaridagi o‘zini firigiyali deb atagan qabilalar Kichik Osiyoga kirib keldilar. Yuz yildan keyin boshqa Bolqon qabilasi Qora dengizbo‘yi friglari Kichik Osiyoga kelib, bu yerdagi birinchi to‘lqin-frigiyaliklarni qisman assimilyatsiya qilib, qisman siqib chiqardi. Yangi birlik-frigiyaliklar Ilion (Troya) shahrini to‘la buzib tashladilar. Er. avv. VIII asr o‘rtalarida Frigiya davlati amalda butun Kichik Osiyoni

Egey dengizidan Tavr va Urartugacha bosib olib, o‘zini gullab-yashnagan pallasiga kirdi. Keyingi rivoyatlarga ko‘ra, Frigiya davlatining asoschisi (er. avv. 750-yil atrofida), kelib chiqishi dehqon bo‘lgan Gordiy nomli “butun Osiyoni “ egallab olgan va mashhur “Gordiy tugunini” tuggan kishi bo‘lgan. Gordiyning o‘g‘li Midas davrida (er. avv. 725-696-yillar atrofi) Frigiya o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Frigiya xalqaro savdo yo‘llari kesishgan hududda joylashgan edi. Dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik aholining asosiy mashg‘uloti bo‘lgan. Davlat hokimiyati aholining keng qatlamlarini manfaatini himoya qilib, faol tashqi siyosat olib borgan.

Er. avv. 717-yil atrofida Midas Tavr va Kilikiyani bo‘ysundirdi. Ammo er. avv. 675 yilda Kimmeriy va Urartu ittifoqchi qo‘shinlarini zarbasi ostida Frigiya davlati quladi. Frigiyada o‘ziga xos madaniyat shakllangan edi. Frigiya ma`budalari Attisa va Buyuk ona Kibela antik madaniyatga kuchli ta`sir o‘tkazdilar.

Lidiya. Poytaxti Sard bo‘lgan Lidiya podsholigi taxminlarga ko‘ra, er. avv. XII asrda Anatoliyada (hozirgi Turkiya hududi) egey-bolqon bosqinlaridan so‘ng, xett koloniyalari mahalliy luviya qabilasi bo‘lgan meonlar tomonidan tashkil etilgan. Er. avv. VIII asrda Lidiya Frigiyaga bo‘ysundi. Er. avv. 685-yillar atrofida taxtni podsho navkari Gig (Gug) egallab olib, yangi Mermnad sulolasiga asos soldi. Bu sulola davrida Lidiya buyuk davlat mavqeini oldi. Er. avv. 675-yildan Lidiya mustaqil bo‘ldi. Biroz vaqt o‘tmay, Lidiyaga kimmeriylar bostirib kirdi. Lidiya podshosi Gig Ossuriyaga yordam so‘rab murojaat qildi va Ashshurbanipal (er. avv. 667-yil) hokimiyatini rasman tan oldi. Ossuriya bilan ittifoq bo‘lib, kimmeriylar hujumi qaytarildi. Er. avv. 654-yil Lidiya zaiflashgan Ossuriya tarkibidan chiqib, Misr bilan ittifoq tuzdi. Er. avv. 644 yilda kimmeriylar Sardni bosib oldilar. Gig o‘ldirildi, uning vorisi yana Ossuriyaga tobe bo‘ldi. Kimmeriylar skiflar tomonidan tor-mor qilindi (er. avv. 643-yil). Skif-Ossuriya urushi (er. avv. 630 yillar oxiri) Lidiyani mustaqil bo‘lishiga imkon yaratdi. Lidiya podsholar Aliat va uning vorisi Krez (er. avv. 561-547-yillar) davrida Paflagoniya, Vifiniya, Osiyodagi yunon shaharlari bo‘ysundirildi. Lidiya Likiyadan tashqari, Galis daryosidan g‘arbdagi butun Kichik Osiyoni bo‘ysundirdi. Lidiya dunyoda

birinchi bo‘lib, oltin va kumushning tabiiy qo‘shilmasi-elektron (er. avv. VII asr) tanga zarb qildi va oltin tanga VI asrda zarb qilindi. Krez davrida savdo-hunarmandchilik gullab-yashnadi. Ammo er. avv. 547-yilda Krez Sard shahri yonida Kayxusrav boshchiligidagi fors qo‘shinlari tomonidan tor-mor qilindi va Lidiya fors davlati tarkibiga kirdi.

Lidiya arxaik harbiy davlat edi. Podsho otliq qo‘riqchi va muntazam qo‘shinga tayanib, davlatni boshqargan. Podsho oldida zodagonlar kengashi va xalq yig‘ini bor edi. Lidiya tarixda musiqa san’ati rivojlangan mamlakat sifatida kirdi.

Urartu tabiati va aholisi. Urartu janubi-g‘arbiy Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri bo‘lgan. Bu davlat kuchaygan vaqtda Kavkaz orti viloyatlari Dajla va Frot daryosining boshlanishidagi yerlarni egallagan. U geografik jihatdan Ossuriya davlatining shimolida joylashgan edi, uning hududini katta qismi hozirgi Turkiya hamda Armaniston tog‘lariga to‘g‘ri keladi. Bu davlat hududidan Kura, Araks, Frot va Dajla irmoqlari oqib o‘tadi. Frotning ikki irmog‘i ham shu joydan boshlanadi. Bu mamlakatning eng muhim ko‘llari Van, Urmiya va shimolda Sevan (Hozirgi Armaniston hududida). Arman yassi tog‘liklari dehqonchilik qilishga qulay ammo qo‘shni Mesopotamiyadan unumdor yerlarning kamligi bilan farq qiladi. Mamlakatda yaylovlar ko‘p bo‘lib, azaldan Urartu aholisiga chorvachilik bilan shug‘ullanishga qulaylik tug‘dirgan. Arxeologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o‘lkada aholisi neolit davridan (5-4 ming yilliklardan) Kura va Araks daryolari vodiylarida dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalar yashagan. Dehqonchilikning rivojiga er.avv. I ming yillikda temirdan mehnat qurollarining yasala boshlanishi katta ta’sir etdi. Ayniqsa, dehqonchilik Araks vodiysida juda yaxshi rivojlangan, so‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hatto ular sug‘orish ishlarini ham olib borishgan. Insonlar uchun ishonchli suv manbalarni topish muhim edi, chunki sug’orish manbasining aniqligi yirik aholini ozuqa bilan ta’minlash uchun zarur darajada ekin ekishga imkon yaratardi[74].

[74]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.125.

Bu tog‘li mintaqada xilma-xil etnik guruhlar yashagan, ularning katta qismini Urartlar tashkil etgan. Urartlar hozirgi zamonaviy xalqlar arman va gruzinlarning qadimiy ajdodlaridir.

Urartlar til jihatdan xurrit xalqlari guruhiga kirgan. Shimoli-g‘arbiy viloyatda, Xayas mamlakatida, hind-Yevropa aholisi ko‘pchilikni tashkil etgan. Urartlarni o‘zlariga singdirib olgan arman xalqining avlod-ajdodi aynan o‘sha joydan kelgan deb faraz qilinadi.

Urartu davlati tarixshunosligi. Urartu tarixiga oid Urartu hujjatlari, podsho yozuvlari, shuningdek oz miqdorda xo‘jalik hujjatlari ma’lum. Urartlarning o‘zi iyeroglif yozuvlari bo‘lsa-da keng yoyilmagan. Urart podsholari avval Ossur tilida, so‘ngra o‘z tillarida, mixxat yozuvida yozganlar. Urartu tarixidan muhim ma’lumot beradigan tosh taxtalarga bitilgan mixxat matnlarini o‘rganishda ko‘plab olimlar xizmat qilganlar. Bunda M.V. Nikolskiy, G.A. Melikishvili, G.A. Kapantsyan, N.V. Arutyunyanlar katta rol o‘ynadilar. Urartu davlatiga tegishli moddiy yodgorliklarni izlab topish va tekshirishda I.A. Orbeli, B.B. Piotrovskiy, A.A. Martirosyan va boshqa olimlarning xizmati katta bo‘lgan. Urartu tarixini tadqiq etgan xorij olimlari A.G. Seys, K.F. Leman-Xauptalarning o‘rni alohida tahsinga loyiqdir.

Davlat uyushmalarining tashkil topishi va taraqqiyoti. Xurritlarga qarindosh bo‘lgan Urartu (Uruatriy) qabilalari er. avv. 1300-yillar atrofida qabilalar ittifoqiga birlashganlar. Er.av. IX asr o‘rtalarida bu ittifoq Biayneli (“Van”, ossurlar Urartu deb atagan) nomli davlatni barpo qildilar. Uning markazi Van ko‘lining sharqida joylashgan Tushpa shahri bo‘lgan.

Er. avv. XV-XIV asrlarda Van ko‘li atrofidagi qabilalar Urartu atrofiga birlashdi. Ushbu davlatning birinchi hukmdori Aramu (milloddan avvalgi 864-845 yillarda hukmronlik qilgan) bo‘lgan.Uning davrida Ossuriya hukmdori Salamansar III ning Urartuga bosqini muvoffaqiyatsizlik bilan tugagan.

Podsho Sarduri I (eramizdan avvalgi 835-825 yillarda) davrida Urartu davlati kuchayadi. Ossur qo‘shinlari ustidan bir necha bor g‘alabaga erishadi. Uning hukmronligi davrida Ururtu sarhadlari kengaydi. Poytaxt shahar Tushpani ham Van ko‘li sohilida bunyod ettiradi va poytaxt deb e'lon qiladi.

Menua (810-786y.) davrida Urartu davlati oʻz taraqqiyotining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Mamlakat poytaxti Tushpa shahrini mustahkamlab, koʻplab suv inshootlari, xususan “Menua kanali”ni qurdiradi. U mamlakat sarhadlarini kengaytirish maqsadida Araks va Frot daryosi atrofidagi hududlarga zafarli yurishlarni amalga oshirib, koʻplab boyliklar va asirlarni olib keladi.

Menuaning vorisi (Argishti II er.avv. 786-764 yillar) davrida Urartu janubi-Gʻarbiy Osiyodagi eng qudratli davlatga aylanadi. Hatto qudratli Ossuriya Urartu tazyiqi ostida Yaqin Sharqdagi ikkinchi darajali davlatga aylanib qoladi.

Podsho Rusa I (er.avv. 735-714 yillar) davrida mamlakat ichida ichki gʻalayonlar kuchayadi. Bundan foydalangan Ossuriya podshosi Tiglapalasar III Urartuga yurishni amalga oshirib, gʻalabaga erishadi.

Tinimsiz bosqinlar Urartu davlatining qudratini zaiflashtirdi. Shimoldan kimmeriylar, skiflar, sharqdan midiyaliklar bosqini natijasida Urartu oʻz mustaqilligini yoʻqotdi. Er. avv. 590 yilda Midiya davlati tomonidan zabt etilib, uning qaram hududiga aylanadi

Urartu madaniyati va iqtisodi toʻgʻrisida arxeologik qazishmalar boy ma’lumot beradi. Teyshebaini (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Yerevan) va Argishtihinil (podsho Argimshi qurgan) shaharlari kuchli forti fikatsiya inshootlari bilan oʻrab olingan.

Tinimsiz bosqinlar Urartu davlatining qudratini zaiflashtirdi. Shimoldan kimmeriylar, skiflar, sharqdan midiyaliklar bosqini natijasida Urartu oʻz mustaqilligini yoʻqotdi. Er. avv. 590 yilda Midiya davlati tomonidan zabt etilib, uning qaram hududiga aylanadi

Urartuning madaniyati va iqtisodi toʻgʻrisida arxeologik qazishmalar boy ma’lumot beradi. Teyshebaini (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Yerevan) va Argishtihinil (podsho Argimshi qurgan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan oʻrab olingan.

Olimlarning ma’lumot berishicha, Urartu mix-ponasimon shakldagi oʻz yozuviga ham ega boʻlgan.

Qadimgi Urartuda tibbiyot, veterenariya, dehqonchilik ilmi, yilnomalar yozish, astronomiya ilmi taraqqiy etgan.

Urartu qabilalari Ossuriya, Misr, Mesopotamiya, Xettlar bilan doimiy madaniy aloqoda bo‘lib, bir-birlarining madaniyatlaridan bahramand bo‘lish bilan birga boshqa xalqlar madaniyatiga ham sezilarli ta’sir o‘tkazganlar. Buning natijasida o‘ziga xos uyg‘un madaniyat tarkib topgan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kichik Osiyoning tabiati va aholisi haqida ma’lumot bering.
2. Ilk davlat uyushmalari shakllanish holatini yoritib bering.
3. Mitanni davlati va uning boshqaruv shakli haqida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi Xett davlati va jamiyatining shakllanishi haqida ma’lumot bering.
5. Old Osiyoda eramizdan avvalgi XIV-XIII asrlarda siyosiy yetakchilik uchun kurash haqida ma’lumot bering.
6. Xett jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma’lumot bering.
7. Xett madaniyati haqida ma’lumot bering.
8. Urart – Ossuriya munosabatlari va uning Yaqin Sharqdagi xalqaro ahvolga ta’sirini tahlil eting.
9. Urartu davlati taraqqiyoti va uning qo‘shni davlatlarga ta’siri?
7. Urartu davlati inqirozi va uning sabablari?
8. Urartu madaniyati va uning jahon madaniyatiga ta’sirini qo‘shimcha adabiyotlar yordamida keng yoritib bering.
9. **Keys savoli:** Xettlar Misr bilan muzokara va harbiy to‘qnashuvlarda qanday strategiya qo‘lladi va bu ularning qudratini saqlashda nimani ko‘rsatadi?

11-MAVZU. QADIMGI YAQIN SHARQ

Reja

1. Er. avv. III-II ming yilliklardagi davlat uyushmalari.
2. Yamxad davlati va Giksoslar birlashmasi.
3. Finikiya. Isroil-Yahudiya davlatlari.
4. Sharqiy O‘rtayer dengizi madaniyati.
5. Arabiston yarim orolining qadimgi davlatlari.

Er. avv. III-II ming yilliklardagi davlat uyushmalari. Tavr tog‘laridan va Frot daryosining o‘rta oqimidan Misrgacha bo‘lgan Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i hududi va Suriyani qadimda yunonlar Finikiya, Falastin va Suriya cho‘llari deb atadilar. Qadimda bu hududning katta qismini Xanaan deb atalgan dengiz qirg‘og‘i tashkil etgan. Bu yerda katta suv havzalari bo‘lmay, mahalliy hajmda uncha katta bo‘lmagan Falastindagi Iordan, Suriyadagi Oront daryolari mavjud edi. Suv havzalarining taqchilligi dehqonchilikning rivojiga imkon tug‘dirmadi. Livan tog‘lari Sharqiy O‘rtayer dengizini bir qancha tumanlarga bo‘lib, bir-biridan ajratgan. Cho‘l va sahro hududlarida ko‘chmanchi qabilalar joylashdi. Shu bilan birga, Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i temir rudasi, keng o‘rmonlar, jumladan, mashhur Livan kedriga boy edi. Qadimda Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘ogida yashagan qabilalar va xalqlar to‘g‘risida qo‘shni davlatlar manbalari (Misrning Tell-Amarna arxivi, Xett hujjatlari, Ossuriya ma’muriy yozishmalari) va mahalliy yahudiy dini yodgorligi bo‘lgan Bibliya (yunon tilida «kitoblar» ma’nosini bildiradi) ma’lumot beradi.Yahudiy bibliyasi xristian bibliyasining bir qismi bilan to‘liq mos keladi va Vetxiy Zavet deb ataladi. Yangi Zavet Iso payg‘ambar hayoti va uning o‘quvchilari faoliyati to‘g‘risidagi xristian kitoblaridan iborat. Vetxiy Zavet yangi asr boshlarida rasmiylashdi. U an’anaviy 3 bo‘lim: qonun yoki ta’limot (Tora), payg‘ambarlar va yozuv (Pisaniya) dan iborat.

Er. avv. IV ming yillik oxirida Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i jamoalarida hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanadi. Dastlab shimol so‘ng, janubda kulolchilik charxi va sopol kuydirish uchun

maxsus oʻchoqlardan foydalana boshlangan. Metalldan keng foydalana boshlandi. Dehqonchilikda gʻalla, zaytun daraxti va uzum yetishtira boshlandi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi er. avv. III ming yillikda shahar tipidagi manzilgohlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Ana shunday shaharlardan biri Finikiyada Bibldir. Bibl tosh devor bilan oʻrab olingan edi. Shahar tosh toʻshalgan koʻcha va tosh devorlar bilan birga, ibodatxonalarga ega edi. Bibldan Misrga kedr yogʻochi, smola, zaytun moyi olib ketilgan. Misrda smoladan moʻmiyolashda foydalanilar edi. Misrdan Biblga badiiy buyumlar, munchoqlar, alebastr va diorit koʻzalar, qimmatbaho qutichalar, tilla va kumushdan ziynatlangan qurollar olib kelingan. Qirgʻoq shaharlarida mulkiy tabaqalanish natijasida ijtimoiy qatlamlarning paydo boʻlishi kuchayib boradi Taxminlarga koʻra, shu davrda shahar-davlatlarning ilk uyushmasi paydo boʻladi. Asta-sekin qirgʻoqda Bibldan tashqari, boshqa Finikiyada Ugarit, Sidon va Tir shaharlari paydo boʻladi. Mamlakatning ichkarisi Shimoliy Suriyada Alalax shahri (er. avv. IV ming yilliklar oxiri-III ming yillik I yarmida) shakllanadi. Er. avv. III ming yillikda Suriyadagi Ebla shahrida (hududi- 56 ga) taxminan 20-30 ming aholi yashagban. Eblada asosan hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Er. avv. XIV-XIII asrda bu shaharda saroy ansambllari shakllanadi. Bu yerda arxivlar, xomashyo zahiralari, qimmatli chet el mollari saqlanadi. Ebladan Misr fir'avnlari nomlari yozilgan alebastr xumlari, 32 kg lazurit topiladi. Ebla Akkad hokimlari tazyiqiga uchraydi. Er. avv. 2225 yilda Eblani Akkad podshosi Naram-Suen bosib oladi. Ijtimoiy jihatdan Ebla shahar-davlat edi. Davlat tepasida podsho turgan va u taxminan diniy vazifalarni bajargan. Uning oldida maslahatchilar boʻlgan.

Madaniy jihatdan Ebla Shumer sivilizatsiyasi yutuqlarini oʻzlashtiradi. Shumer-Ebla lugʻati tuziladi. Ebla saroy devorlarini bezalishida Mesopotamiya me'morchiligi bilan aloqa yaqqol koʻrinadi. Er. avv. III ming yillikda Falastinda Megiddo, Quddus va Laxesh shaharlari shakllanadi. Barcha shaharlar mustahkam devorlar bilan oʻrab olinadi. Iordan daryosi vodiysida Xasor shahri yirik markazga aylanadi. Er. avv. III ming yillikda Sharqiy Oʻrtayer

dengizi qirg‘og‘i aholisi o‘z tarkibiga ko‘ra, xilma-xil edi. Shimolda xurrit qabilalari yashagan. Er. avv. II ming yilliklarda bu yerda xettlar kirib keladi. Ammo er. avv. IV ming yilliklarda asosiy aholi semit shoxobchasi tillarida so‘zlashadi. Tadqiqotchilar, Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘ida er. avv. III-II ming yilliklarda mavjud bo‘lgan eblaid, qadimgi xanaan, ugarit va amoriy tillarini ko‘rsatadilar.

Yamxad davlati va Giksoslar birlashmasi. Er. avv. XVIII asrda Shimoliy Suriyaga bostirib kirgan amoriy qabilalaridan biri bir necha shahar va davlatlarni birlashtirgan yirik davlatni barpo qilishga urinadi. Bu siyosiy birlashma Yamxad nomini oladi. Dastlab bu birlashma qabilalar ittifoqi shaklida edi. Uning asoschisi doimiy qarorgohga ega bo‘lmagan. Yamxad davlati shimolda Karxemishdan janubda Oront daryosigacha bo‘lgan bepoyon hududga hukmronlik qilgan (tax. er. avv. XVII asrning II yarmida). Xalpa (hozirgi Aleppo) shahri poytaxt vazifasini o‘tagan. Mesopotamiya shimolidagi Mari shahri bilan serqatnov savdo aloqasi o‘rnatiladi. Er. avv. XVII asrda Yamxad zaiflashib, tushkunlikka yuz tutadi. Er. avv. 1600-yillar atrofida Yamxad davlatini xettlar bosib oldilar.

Er. avv. XVIII-XVII asrda Yamxaddan janubroqda bir qancha shaharlarni birlashtirgan qudratli giksoslar ittifoqi vujudga keladi. Qo‘shinning zarbdor qismi jang aravalariga ega bo‘lgan giksoslar o‘z hokimiyatlarini Misrda o‘rnatdilar. Ular Falastin va Suriyada ham egalik qildilar. Giksoslar ittifoqiga Kadesh va Megiddo shaharlari ham kirdi. Giksoslar davlati qurama bo‘lib, unga semit qabilalari yetakchi o‘rinni egalladi. Bu davlat birlashmasiga xurrit va xett qabilalari qo‘shildilar.

Giksoslar Misrdan haydalgach, Falastin va Suriyaga chekinib, bu yerda yana qariyib yuz yil hukmronlik qildilar. Shimoliy Suriyada xettlar hokimiyatni qo‘lga oldilar, lekin tez orada Mitanni davlati bu hududni egallab oladi. Er. avv. XVI asr oxiriga kelib, Sharqiy O‘rtayer dengizi Misr va Mitanni tomonidan bo‘lib olinadi. Bu ikki davlat hududda to‘la hukmronlikni qo‘lga kiritish uchun to‘xtovsiz urushlar olib boradilar. Er. avv. XV asr oxiriga kelib, bu raqobat Shimoliy Suriyaning Mitanniga, Janubiy Suriya va Falastinning Misrga o‘tishi bilan yakunlanadi. Er. avv. XV-XIV

asrlarda Sharqiy Oʻrtayer dengizi siyosiy tarqoqlik, oʻzaro urushlar girdobida qoladi. Bu hududda halokatga uchragan Mitanni davlatining oʻrniga xettlar keladi. Er. avv. XIII-XII asr boshlarida Suriya va Falastin Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻi egey-anatoliya xalqlari («dengiz xalqlari») bosqiniga uchraydi. Ular Kipr, Karxemish va Ugarit flotini tor-mor qiladilar.

Er. avv. XII asrda ular Ugaritni batamom vayron qiladilar. Livandagi Amurri davlatini tugatadilar. Sidon va Tir shaharlarini talon-taroj qiladilar. Shundan soʻng, ular er. avv. 1180-yillar atrofida Misrga hujum qiladilar, lekin misrliklar hujumni qaytaradilar. Misrdan uloqtirib tashlangan kelgindilar Falastin qirgʻogʻiga oʻrnashib, Filistim (“Peleset”) nomi bilan davlat tuzadilar. Tez orada ular bu yerdagi mahalliy aholining tili va madaniyatini oʻzlashtirdilar. Ularning nomidan “Falastin” nomi kelib chiqadi.

Sharqiy Oʻrtayer dengizi er. avv. II ming yillikda doimiy ravishda Old Osiyodagi Misr, Ossuriya, Xett, Bobil kabi qudratli davlatlarning raqobat maydoni boʻlib qoladi. Hududda katta-kichik davlatlar, shahar-davlatlar bir-biri bilan muntazam oʻzaro urushlar olib borar edilar. Finikiyadagi Sidon shahri Tirni oʻziga boʻysundirib, keyin uning yordamida Bobilga tazyiq oʻtkazib, shimoldan dengiz orqali gʻalla olib kelishga xalaqit berdi. Er. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Ugarit shahri dengizboʻyi shahar davlati boʻlib, Mesopotamiya, Misr, Kichik Osiyo, Falastin bilan qizgʻin savdo olib boradi. Ugarit Orontning quyi oqimi va Oʻrtayer dengizi bilan cheklanib, u yerda gʻallachilik, bogʻdorchilik, vino, zaytun moyi ishlab chiqarish rivojlangan edi. Qishloq jamoasi soliqni mis va kumush bilan toʻlar edi. Bu davrda erkin aholi uch toifaga boʻlinadi:

1. Jamoachi dehqonlar.

2. Podsho yaqinlari–“podsho qullari”. Ular podshodan yer ulushlari olganlar. Ularning koʻpchiligi oʻz ota meros yerlariga ega boʻlib, qishloq jamoasi bilan rasman aloqani uzmaganlar.

3. “Podsho qulining quli”-oʻz yerlariga ega boʻlmay, zodagonlarning yerida ishlaydigan qatlam. Ular oʻz yeridan ajralib, jamoa bilan aloqani uzganlar va qisman kelgindilardan iborat boʻlgan.

Qulchilik mavjud bo‘lib, uning manbasi oldi-sotti va qarzi uchun qul qilish edi. Er. avv. XII asr boshlarida “dengiz xalqlari” hujumi natijasida Ugarit to‘la buzib tashlanadi va qayta tiklanmaydi. Shu vaqtda Sidon shahri ham bosqinga uchraydi, lekin qayta tiklanadi. Sidon er. avv. XI asr o‘rtalarida katta port shahriga aylanadi. Dengiz xalqlarining ikki shoxchasi-filistimlar va chakarlar dengiz bo‘yida o‘rnashib, mahalliy aholi bilan aralashib ketadilar.

Er. avv. I ming yillikning birinchi yarmida Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i shaharlari siyosiy kelishmovchiliklarni tugatadilar va jadal rivojlanish davriga o‘tadilar. Bu vaqtda finikiyaliklar amalda Sharqiy O‘rtayer dengiziga hukmron bo‘lib, xalqaro savdoni to‘la o‘z qo‘llariga oladilar. Misr tashqi savdosi to‘la Finikiya qo‘lida edi.

Finikiya. Finikiyaliklar hozirgi Livan va Suriyaning bir qismida yashaganlar. Ular egallagan hudud dengiz qirg‘og‘i uzunligi 5-10 mil, kengligi 5 mil edi. Livan o‘z kedri va sarv yog‘ochi, metal bilan finikiyaliklarni taminladi. Shu sababli finikiyaliklar er.avv. III ming yillikdan boshlab kemasozlik va dengizchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular o‘z qirg‘oqlarida baliq ovlashdan boshlab keyin dengiz savdosini tashkil qildilar.

Finikiya shaharlarida kemasozlik, dengizchilik yuqori darajada rivojlandi. Ular Hindiston, Britan orollariga suzib bordilar. Tir, Sidon, Bibl, Arvad, Ugarit shaharlari savdo-hunarmandchilik markazlari edi. Shaharlarda boy savdogarlar boshqaruvni o‘z qo‘llariga oldilar. Finikiya shaharlaridan dastlab Sidon er.avv. 1600-1000 yillar atrofida yetakchi mavqeni egalladi. Keyingi 600 yil Tir shahri oldingi o‘ringa chiqdi.

Finikiyaliklar dunyoda birinchi bo‘lib, koloniyalarga asos soldilar. Er.avv. XIII asrdan boshlab finikiyaliklar faol kolonizatsiya siyosatiga o‘tdilar. Ular hosildor Kipr orolini egalladilar, Krit va Rodosga kirib bordilar va Egey dengizi orollarini, Gellespontgacha ishg‘ol qildilar. Bolqon yarimoroliga Beotiyaga borib, mahalliy aholini mis qurollardan foydalanishga , devorlar qurish, tog‘-kon ishiga, alfavitli yozuvga o‘rgatdilar. Ular Yunonistondan g‘arbga yurib Malta va Gotstso orollarini o‘zlashtirdilar, Sitsiliyada (Panarmos, hozirgi Palermo),

Sardiniyada (Kalaris, hozirgi Kalyari) koloniyalariga asos soldilar. Oʻrta Italiya qirgʻoqlariga tushib, etrusklar bilan savdo qildilar. Shimoliy Afrikada Utika, Karfagen (er.avv. 825-814yillar), Gippo, Buyuk Leptes, Kichik Leptis, Taps koloniyalrini qurdilar.

Finikiya dengizchilari uzoq Pireney yarimoroliga kirib, Ispaniyaning qazilma boyliklarini qayta ishladilar, Balear va Pitius orollarini oʻzlashtirdilar. Ispaniyada Lispalis (Sevilya), Malaka (Malaga), Gades (Kadis) shaharlari barpo etildi. Gades Finikiyaning ispan koloniyalarining markazi boʻldi. Finikiyaliklar Afrikadagi Marokkoda savdo manzilgohi ochib, Atlantikaning sharqiy qirgʻoqlarigacha suzish, Olovli orollarga yetdilar. Britaniyaning janubiy qirgʻogʻiga Galliyaning shimoliga tushdilar. Ehtimol, Galliyada ular bu yerga Boltiqboʻyidan olib kelinadigan yantarni sotib olganlar.

Finikiyaliklar Hindsiton bilan boshqalar vositasida qizgʻin savdo qildilar. Xiram hukmdorligi davrida (er.avv. 989-936 yillar) finikiyaliklar Ofir mamlakatiga (Hindiston) sayohat qilib, koʻp oltin, qimmatbaho toshlar, fil suyagi, sandal daraxti, maymunlarni olib keldilar.

Finikiya shaharlari oʻrtasida birlashish ehtiyoji paydo boʻldi. Tir shahri yuksalib, Sidonni oʻziga boʻysundirib, Tir hokimlari oʻzlariga sidonliklar podshosi unvonini qabul qildilar. Tir-Sidon davlatining eng rivojlangan davri podsho Xiram (er. avv. 989-936 yillar) davriga toʻgʻri keladi. Sharqda Xiram diplomatik yoʻl bilan Falastinni bir qismini oladi. Kipr orolidagi Kitiy shahri hokimi oʻzini Axiramni (Xiram) quli (ya`ni fuqarosi) deb ataydi. Xiram davrida katta miqyosida qurilish ishlari olib boriladi. Melkart va Astart ibodatxonalari quriladi. Itobaal (er. avv. 873-847 yillar) Xiramning siyosatini davom ettirib, Shimoliy Afrikada (Utikadan gʻarb tomonda) Avzu koloniyasini barpo qildi. Podsholarning mutloq hokimiyatga intilishi boy savdogar-hunarmandlarning qarshiligiga sabab boʻldi. Natijada Tirda podsho hokimiyati zaiflashib, boy savdogar-hunarmandlarning boshqaruvdagi mavqei kuchaydi. Boy savdogarlar oʻz savdo flotlariga ega boʻlib, mustaqil ravishda dengiz savdo ekspeditsiyalarini amalga oshirdilar.

Er.avv. VI asrdan boshlab yunonlar finikiyaning tashqi savdo va koloniyalar barpo qilishdagi asosiy raqibi bo‘ldi. Yunonlar Egey dengizi orollaridan finikiya savdogarlarini siqib chiqardilar. Shuningdek, Finikiya shaharlari Misrning tashqi savdosida birinchi o‘rinda edilar. Misrda yunonlar finikiya bilan raqobat qildilar. Karfagen er.avv. V asrdan to‘rt yuz yil davomida O‘rtayer dengizida o‘z floti bilan Sitsiliya qirg‘oqlaridan Gibraltar bo‘g‘izigacha hukmronlik qildilar.

Finikiyaliklar mohir dengizchi edilar. Ularning dengizchilik san`atidan Misr, Bobil, Osur va forslar foydalandilar. Gerodot finikiya dengizchilarining fir`avn Nexo I (er.avv. 617-593yillar) buyrug‘i bilan Afrika atrofini aylanib chiqqanlari to‘g‘risida ma`lumot beradi.

Finikiya shaharlari Tir, Sidon va Bibl tranzit savdo bilan shug‘ullanib, Misr va Bobilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Yunonistonga, yunon hunarmandchilik mahsulotlarini Sharqqa sotdilar. Tir savdogarlari er. avv. VII asr oxiri-VI asr boshlarida Kichik Osiyoning sharqi va Janubiy Arabistonga suqilib kirdilar. Finikiyaliklar tomonidan Ispaniyadan kumush hamda Britaniyadan qo‘rg‘oshin olib kelingan. Misr va Mesopotamiyaga yog‘och, hunarmandchilik mahsulotlari chiqarildi. Tir shahri o‘z bo‘yoqchilik ustaxonalari bilan tanilgan edi. Ustaxonalarda dengiz chig‘anoqlaridan siqib olinadigan qizil bo‘yoq bilan chetdan keltirilgan jundan tayyorlangan mato bo‘yalar edi. Finikiya bo‘yog‘i butun Old Osiyoda yuqori baholanar edi. Sidon shisha buyumlar tayyorlash markazi bo‘lgan. Qadimgi Sharq va G‘arbda Finikiya zargarlik buyumlari (oltin va kumush jomlar, fil suyagiga o‘yilgan rel`ef tasvirlar, tilla zeb-ziynatlar) ning bozori chaqqon edi.

Finikiya dengiz savdosi dengiz qaroqchiligi bilan birgalikda olib borilgan. Dengizda va dengizbo‘yi qishloq-shaharlarida vaziyatga qarab, finikiyaliklar odamlarni bosib olar yoki o‘g‘irlab ketar edilar. Bir qism odamlar qul qilib sotilgan, qolganlari Finikiyaga olib ketilib, portda yukchi, eshkak eshuvchi, ustaxonada qora ishchi sifatida ishlatilgan. Chet elliklarni aldab qullikka sotish, olish, ishonuvchan odamlarni o‘z kemalariga aldab olib kelish va ularni qullikka sotish finikiyalik savdogar-dengiz

qaroqchilariga xos xususiyat edi. Shu sababli, boshqa hududlarda finikiyaliklarga nisbatan munosabat yomon bo‘lgan.

Boy savdo-hunarmadchilik markazlari bo‘lgan Finikiya shaharlari Old Osiyodagi qudratli davlatlarning doimiy diqqat markazida edi. Bu shaharlarga egalik qilish uchun Misr, Bobil, Xett, Ossuriya, Ahmoniylar Eroni o‘rtasida kuchli raqobat mavjud edi. Ayniqsa, Misr, Bobil Xett davlatlarining tashqi savdosida finikiyaliklar yetakchi o‘rinni egalladilar. Misr, Xett davlatlari Finikiya uchun o‘zaro uzoq kurash olib bordilar. Er. avv. VIII asrda Finikiya Ossuriyaga qaram bo‘ldi. Tir podshosi Meteni Tiglatpalasar II ga 150 talant tilla miqdorida katta o‘lpon to‘ladi. Ossuriyadan keyin, Misr va Bobil Finikiya uchun raqobat qiladilar va raqobatda Bobil g‘olib chiqadi.

Er. avv. VI asrda ulkan Ahmoniylar Eroni davrida ahvol o‘zgardi. Finikiya Ahmoniylar hokimiyatini ko‘ngilli ittifoqchilar huquqida tan oldi. Buning evaziga Ahmoniylar Finikiya hududini shimolda Iss qo‘ltig‘igacha, janubda Askalongacha kengaytirdilar. Ahmoniylar hukmronligi davrida Tir, Sidon, Arvad shaharlari federatsiyasi, uning oliy organi umumfinikiya kengashi tashkil etildi. Finikiya shaharlari Fors davlatining asosiy iqtisodiy markazlaridan biriga aylandi. Finikiya savdogarlari Ahmoniylar davlati tashqi savdosining katta qismini o‘z qo‘llarida to‘pladilar. Shaharlar o‘z kumush tangalarini zarb qildi. Ahmoniylar Finikiya shaharlaridan katta miqdorda to‘lovlar talab qilar edilar. Shu sababli, finikiyaliklar bu zo‘ravonlikka qarshi norozilik kayfiyati kuchli edi.

Er. avv. 343-yilda Sidon shahri forslarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Qo‘zg‘olon bostirilib, shahar buzib tashlandi. Tir shahri esa, makedoniyalik Iskandar tomonidan vayron qilindi. Finikiya shaharlari er. avv. III ming yillikdan to makedoniyalik Iskandar yurishlariga qadar Old Osiyo, Shimoliy Afrika, O‘rtayer dengizi havzasi xalqaro savdosida yetakchi o‘rinni egalladi. Dunyo tarixida birinchi bo‘lib, koloniyalarni barpo qildilar, O‘rtayer dengizi savdosida yetakchi o‘rinni egallab, yunonlar, etrusklar bilan raqobat qildilar. Er. avv. IV asrda makedoniyalik Iskandar yurishlari bilan Finikiya shaharlari o‘z mavqeini yo‘qotdi. Shu bilan Finikiya tarixi tugadi.

Damashq podsholigi. Damashqning yuksalishi er. avv. II ming yillik oxirida Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylar bilan bog‘liq. Ular Arabistonda tuya boqish va ko‘paytirish bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Er. avv. I ming yillik boshlarida oromiylar Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada oromiy-xurrit aholisini to‘la assimilyatsiya qiladilar. Bu vaqtga kelib, oromiy tili Old Osiyoda asosiy tillardan biriga aylanadi. Er. avv. II ming yillik oxirlarida kontinental Suriyaning savdo yo‘llari kesishgan nuqtasida Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylarning Suriyadagi bosh markazi Damashq shahri kuchayib ketdi. Damashq podsholigining iqtisodiyoti rivojlangan chorvachilik, butun Yaqin Sharqqa mashhur bo‘lgan qurolsozlik va oliy navli jun bilan vositachilik savdosiga asoslangan edi. Damashq podsholari qadimgi xurrit podsholari unvonlarini eslatadigan “Xudo Bo‘ri O‘g‘li” (“Ben-Xadad”) unvonini oldilar.

Er. avv. IX asr o‘rtalarida Damashq ossur podsholari Ashshurnasirpal II va Salmanasar III ning Sharqiy O‘rtayer dengizi hududida bosqinchilik urushlariga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Er. avv. 853-yil Damashq podshosi Ben-Xadad II va Isroil podshosi Axav boshchiligidagi birlashgan qo‘shin Qarqara

yonidagi jangda Salmanasarning 120 ming kishilik qo‘shini hujumini qaytardi. Er. avv. 841-yilda esa, Salmanasar Damashq qo‘shinlarini yengadi va shaharni qamal qiladi, lekin uni ishg‘ol qila olmadi. Er. avv. VIII asr boshlarigacha Ossuriya Sharqiy O‘rtayer dengizini bo‘ysundirishga harakat qiladi, lekin bu yerda o‘rnasha olmadi.

Er. avv. IX asrning II yarmida Damashq podshosi Ben-Xadad III faol tashqi siyosat yuritib, Isroilning Iordan daryosi ortidagi mulklarini qo‘lga kiritdi. Damashq Janubiy Falastinga ham kirib boradi va Yahudiyadan xiroj ola boshladi. Damashq podshosi Ben-Xadad III Damashq podsholigining kuch-qudratini doimiy ravishda mustahkamlashga jiddiy e`tibor berdi. U Shimoliy Suriyaning 17 hokimini birlashtirib, ularni Orontdagi o‘zining raqibi Xamat podsholigiga qarshi qo‘ydi. Lekin Damashq podsholigining gullab-yashnashi uzoqqa cho‘zilmadi. Nisbatan kichik hududni egallagan Damashq podsholigi Old Osiyoning qudratli davlatlari tazyiqiga dosh bera olmadi. Er. avv. IX asr oxirida beto‘xtov urushlar sababli, zaiflashib qolgan Damashq Ossuriya podshosi Adadnerari III qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Ossuriyaliklar bu yerda ulkan miqdorda temirni o‘lja sifatida oldilar.

Sharqiy O‘rtayer dengizida birinchilikni da’vo qilgan kuchli shahar-davlatlar-Tir-Sidon va Damashq bilan bir qatorda kichik davlatlar ham mavjud edi. Jumladan, shunday shaharlardan biri Shimoliy Suriyadagi Karxemish boy savdo hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Xett davlati yemirilgach, u mustaqil bo‘ldi va xett tili va madaniy an’analarini saqlab qoldi.

Isroil-Yahudiya davlatlari. Falastinda isroil qabilalari Misrdan kelib o‘rnashdilar. Er. avv. XIII asrda 12 yahudiy qabilalari Falastinga bostirib kirib, mahalliy Xanaan shahar-davlatlarini bo‘ysundirdilar. «Yahudiy» so‘zi etimologik jihatdan «daryo ortidagi aholi» degan ma’noni bildiradi. Saylab qo‘yiladigan yo‘lboshchi-shofetlar (“qozi”) oliy kohin vazifasini bajarib, qabilaning ko‘ngilli qo‘shinlariga boshchilik qilganlar. Ular tinchlik vaqtida esa, ajrim ishlari bilan shug‘ullanganlar. Er. avv. XI asrning oxirida yahudiy jamiyatida ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o‘tish yuz berdi. Saylab qo‘yiladigan

yo‘lboshchilar o‘rniga merosiy podsho hokimiyati shakllandi. Er. avv. XII asrda Falastin hududida kelgindi ko‘chmanchi isroil qabilalari va mahalliy xanaanlar birlashib, 12 qabila ittifoqini shakllantirdilar.

Er. avv. XI asr boshlarida Falastinda temir qurollar ishlab chiqarishda yetakchi bo‘lgan filistimlar hukmronligi o‘rnatilgan edi. Isroil qabilalari filistimlarga qarshilik ko‘rsata olmadi. Filistimlar bilan bo‘lgan janglar davomida podsho qilib Saul saylandi. U podsho hokimiyatini mustahkamlab, birinchi merosiy podsho bo‘ldi. Saul filistimlar bilan bir necha g‘olibona urushlar olib bordi. Lekin navbatdagi urushda mag‘lub bo‘lgani uchun o‘zini o‘ldirdi. Er. avv. 1000-yillar atrofida Saulning oddiy jangchisi bo‘lgan Dovud Isroil podshosi bo‘ldi. Dovud markazlashgan harbiy-byurokratik davlat tuzishga harakat qildi. Dovud (1010-970-yillar) podsholigi davrida markazlashgan davlat tuzildi. Bosib olingan Quddus yangi davlatning poytaxtiga aylandi. Mamlakatni boshqarish uchun markaziy davlat organlari tuzildi. Podsho kritlik va filistimlardan o‘ziga sodiq yollanma qo‘shin tuzadi. Dovud faol tashqi siyosat olib bordi. U filistimlar bilan sulh tuzdi. Iordan daryosi ortidagi yerlar, filistimlar va Janubiy Suriya oromiylarini bo‘ysundirib, davlat chegarasini Aqab qo‘ltig‘igacha kengaytirdi.

Dovudning taxtini uning kichik o‘g‘li Sulaymon (er. avv. 970-930-yillar atrofida) egalladi. Sulaymon davrida qurilish ishlari keng yo‘lga qo‘yildi. Uning davrida Quddusda bosh xudo Yaxva sharafiga ibodatxona qurildi. Davlat hududi 12 okrugga bo‘lindi. Ularning har biri yilda bir oy podsho saroyiga oziq-ovqat yetkazish majburiyatini oldi. Mehnat majburiyati joriy qilindi. Rivoyatlarga ko‘ra, Sulaymon dono va adolatli podsho deb ta`riflanadi. Haqiqatda esa, Sulaymon hokimiyatparast hukmdor bo‘lib, aholiga ko‘plab soliq va majburiyatlarni yukladi. Boshqa xalqlarga nisbatan shafqatsiz siyosat olib bordi.

Sulaymon podsholigining so‘nggi yillarida shimolda Damashq podsholigi kuchaydi. Sulaymonning shafqatsiz siyosatidan norozi bo‘lgan o‘n shimoliy yahudiy qabilalari ajralib chiqib, mustaqil Isroil podsholigini tashkil qildilar. Uning poytaxti yangi qurilgan Samariya shahri bo‘ldi. Dovud sulolasi hukmdor bo‘lgan Quddus

podsholigi uning bosh qabilasi nomi bilan Yahudiya davlati deb ataldi. Ikkala podsholik ham bir-biri bilan dushmanchilik munosabatida bo‘lib, vaqti-vaqti bilan konfederatsiya tashkil qildilar. Yahudiyaning parchalanganidan foydalangan Misr fir`avni Sheshonk I er. avv. 926-yilda Falastinga yurish qilib, Yahudiya va Isroilni bosib oldi.

Er. avv. VIII asr o‘rtalaridan-VI asrgacha Sharqiy O‘rtayer dengizi havzasiga Old Osiyodagi siyosiy vaziyat katta ta`sir o‘tkazdi. Er. avv. VIII asr o‘rtalarida Ossuriya (er. avv. 732-722-yillar) Damashq va Isroil davlatlarini tor-mor qildi. Tir-Sidon podsholigining katta qismi Ossuriya tomonidan bosib olinib, tobe hududga aylantirildi. Finikiyaliklar Ossuriya zulmiga qarshi kuchli qarshilik ko‘rsatdilar. Yuz yil davomida Tir shahri 5 marta Ossuriya tobeligidan qutulishga harakat qildi. Er. avv. 701-yilda osur podshosi Sinaxxerib Tirning ikkinchi qarshiligini bostirishi natijasida Tir shahri o‘ta zaiflashib qoldi. Finikiyada yetakchi mavqeni egallagan Tir shahri boshqa shaharlardan butunlay ajratib tashlandi. Natijada Tir-Sidon podsholigi dengizorti hududlari bilan tugatildi. Ossuriyaning g‘arbiy qismiga skiflarning hujumi Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘ida Ossuriya hukmronligiga chek qo‘ydi.

Yahudiya podshosi Iosiya (er. avv. 640-609-yillar) Ossuriya hukmronligiga chek qo‘ydi. U davlat mustaqilligini tiklab, podsholar-Dovud va Sulaymon davridagi davlat chegaralarini tikladi. Misr esa, Frot daryosigacha bo‘lgan yerlarni bosib olib, er. avv. 616-yilda bobilliklarga qarshi Mesopotamiyada Ossuriyaliklarga yordamga keldi. Bu vaqtda Tir shahri yana vaqtinchalik butun Finikiyada yetakchi davlatga aylandi. Iosiya davrida Yahudiyada monoteistik harakat boshlanadi. Yaxva yagona xudo deb e’lon qilindi.

Ossuriyaning halokatidan keyin, Sharqiy O‘rtayer dengizi Misr va Bobil o‘rtasidagi raqobat maydoniga aylandi. Er. avv. 609-yilda fir`avn Nexo II Megiddo yonidagi jangda Iosiy qo‘shinlarini yengib, natijada Yahudiya Misrga tobe bo‘ldi. Misr va Bobil o‘rtasidagi raqobat oxir-oqibatda er. avv. 587-yilda Yahudiyaning halokati, yahudiylarning Mesopotamiyaga asir qilib olib ketilishi, butun Sharqiy O‘rtayer dengizining Bobilga tobe bo‘lishi bilan

yakunlandi. Er. avv. 539-yilda Ahmoniylar tomonidan Bobilning bosib olinishi bilan bu hududda forslar hukmronligi oʻrnatildi. Ahmoniylar Quddus va uning atrofidagi hududlarga cheklangan muxtoriyatlar berdilar.

Er. avv. I ming yillikda Falastinda Filistim, Yahudiya va Isroil davlatlari vujudga kelishi natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turli oʻzgarishlar roʻy berdi. Savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik rivoj topdi. Tashqi savdo kuchayib, ortiqcha gʻalla va boshqa mahsulotlar Tir shahriga sotildi. Yerga xususiy mulkchlik paydo boʻldi. Jamiyatning ijtimoiy qatlam va guruhlari shakllandi.

Er. avv. VIII-VI asrlarda Falastinda quyidagi 4 toifa mavjud edi:

1.Dunyoviy zodagonlar, diniy zodagonlar (kohinlar, paygʻambarlar). 2. Yerli xalq (erkin aholining asosiy qismi).

3. Begona yurtliklar (kelgindi va koʻchib kelganlar).

4. Qullar.

Sharqiy Oʻrtayer dengizi madaniyati. Sharqiy Oʻrtayer dengizi hududining eng katta madaniy yutugʻi alfavitli yozuvning yaratilishi edi. Er. avv. II ming yillikda Sharqiy Oʻrtayer dengizi shaharlarida savdo-hunarmandchilik, dengizchilikning taraqqiyoti, barchani qondiradigan savdo ishlarini tez yuritishga imkon beradigan oddiy yozuvni yaratishni talab qildi. Er. avv. XV-XII asrlardayoq Ugaritda 30 belgili mixxat alfaviti qoʻllanildi. Finikiya yozuvining shakllanishi er. avv. II ming yillik oʻrtalariga toʻgʻri keladi. Finikiyada qulay Oʻrtayer dengizi portlarining mavjud boʻlishi boshqa xalqlar bilan gavjum savdo aloqalarini oʻrnatishga va dengizchilikning rivojlanishiga sabab boʻldi. Savdo-sotiq yozuvlari va hisob kitoblarni olib borish zaruriyati oʻqish, oʻrganish uchun qulay boʻlgan yozuvni yaratishni tezlashtirdi.

Finikiya yozuvining eng qadimgi yodgorliklari (Xiram, Azerbal, Abibal, Elibal, Shafatbal yozuvlari) er. avv. XI-X asrlarga tegishli. Yozuv 22 grafik belgidan iborat boʻlib, har bir harf ma`lum bir undosh yoki yarim undosh tovushdan iborat edi. Dunyo tarixida ilk sof tovushli yozuv paydo boʻldi. Nisbatan kam sonli belgilar yordamida har qanday soʻzni uzatish mumkin edi. Finikiya yozuvining paydo boʻlishi insoniyat ma`naviy taraqqiyotida tub burilish yasadi. Endilikda yozuv faqat ayrim

toifalar foydalanadigan tushunarsiz, sirli san`at bo‘lmay qoldi. U jamiyat uchun zarur bo‘lgan va unga tegishli bo‘lgan, hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan boylikka aylanadi. Ana shu sababli, finikiya yozuvi tez va jadal sur`atda boshqa xalqlar o‘rtasida er. avv. IX asrdan boshlab tarqaladi. Hisoblarga ko‘ra, bizga ma`lum alfavitli yozuv tizimlarining 4/5 qismi bevosita yoki bilvosita finikiya yozuvidan kelib chiqadi. Qadimgi finikiya yozuvi asosida oromiy, yunon, janubiy arab, yahudiy, karfagen, braxma yozuvlari kelib chiqdi.

Sharqiy O‘rtayer dengizi xudolar panteoni tabiat kuchlarini aks ettiradi. Finikiyaliklar tabiat kuchlariga sig‘indilar. Vaal-quyosh ilohi, Molox- olov va urush ilohi tabiatning buzuvchi kuchi edi. Astarta – sevgi va urushga moyil oy mabudasi, Molox odamni qurbonlik keltirishni talab qiladigan, ayniqsa bolalarni o‘z sharafiga olovga tashlashni yoqtiradigan iloh edi.

Vaal ham Tir shahri homiysi bo‘lsada, Melkart ham shahar podshosi hisoblangan.

Falastinda er. avv. VIII-VI asrlarda monoteistik ta’limot keng tarqaladi. Ugarit va Ebla shaharlarida hashamatli me’morchilik inshootlari saroylari bunyod qilinadi. Dengizchilik, kemasozlik sohalari yuksak darajaga ko‘tarildi. Yog‘och va toshdan podsho va ma’budalar haykallari yasaladi.

Finikiyaliklar dunyodagi birinchi dengizchilar edi. Ularning kemasozlikka asos soldilar. Finikiya dengizchilari va kemalaridan butun Old Osiyo mamlakatlari foydalandi. Finikiyalilar dunyo tarixida birinchi bo‘lib, uzoq dengiz sayohatlarini uyushtirdilar. Er. avv. 600-yillar atrofida fir`avn Nexo buyrug‘i bilan finikiyaliklarning dengizchilik tarixida ilk bor Gibraltar bo‘g‘ozi orqali Atalantika okeaniga chiqib, Afrikani aylanib o‘tishlari buyuk kashfiyot edi.

Finikiyada hunarmandchilik yuqori darajada rivojlandi. Finikiya hunarmandlari chig‘anoqlarning alohida turidan olinadigan qizil bo‘yoqni kashf qildilar. Ular shisha buyumlarni ishlab chiqarishni yuqori darajada takomillashtirdilar. Finikiya bo‘yoqlari, shisha buyumlari va kulolchilik mahsulotlari Old Osiyoda yuqori baholangan.

Arabiston yarimorolining qadimgi davlatlari.

Geografik oʻrni, iqlimi va aholisi. Arabiston Osiyodagi eng katta yarim orol boʻlib, 3 mln. kv. km. hududni egalladi. Uni gʻarbda Qizil dengiz, sharqda Fors va Ommon qoʻltiqlari suvi, janubda Adan qoʻltigʻi va Arabiston dengizi yuvadi. Arabistonning bepoyon yerlari asosan sahrolardan iborat. Daryolar juda kam. Arabiston yarimoroli tabiiy boyliklarga boy. Qadimgi Sharqda oʻzining ziravorlari va xushboʻy moylari bilan mashhur edi. Ziravor va xushboʻy moylardan qadimda kosmetika va parfyumeriya, tibbiyot, diniy marosimlarni bajarishda foydalanilar edi. Arabistonni oʻrab turgan dengizlardan qadimdan marvarid, qizil va qora marjonlar olingan. Yarimorolda oltin, temir, qalay, mis va surma kabi xomashyolar va tuz konlari mavjud boʻlgan. Janubiy-gʻarb va janubiy-sharqda qadimda oq marmar, oniks, alebastr; qimmatbaho toshlar: zumrad, berulliy, feruza bor edi.

Arabiston yarimorolining er. avv. IV-III ming yilliklardagi aholisi toʻgʻrisida aniq maʼlumotlar yoʻq. Shumer hujjatlarida Magan va Meluxxa (baʼzi tadqiqotchilar, Magan Arabiston yarimorolining sharqi deb taxmin qiladilar) mamlakatlari toʻgʻrisida eslatib oʻtiladi. Arabiston yarim orolining janubiy qismidan ilk paleolit olduvay qurollariga oʻxshash qurollar topildi. Bu topilmalar Janubiy Arabiston Sharqiy Afrikadan boshlangan odamlarning tarqalish yoʻllaridan biri boʻlganidan guvohlik beradi.

Qadimda Arabiston yarimoroli sersuv daryo vodiylari, boy flora va faunaga ega boʻlgan. Er. avv. VIII-VII ming yilliklardan boshlab yarimorolning qariyb butun hududida qurgʻoqchil iqlimning mutloqo hukmronligi boshlanadi. Odamlar Arabistonni tashlab ketdilar. Faqat uning chekka janubida va sharqida bir-biri bilan zaif aloqada boʻlgan alohida suvli voqiylar saqlanib qoldi. Er. avv. VIII ming yillikdan odamlar yashashi uchun qulay iqlim yarim orolning sharqiy qirgʻoq qismi (Qatar), keyin er. avv. VII-VI ming yilliklarda Markaziy va Janubiy Arabiston (Rub-el-Xalilning janubiy-sharqiy qismi, Shimoliy Yaman, Xadramaut)da vujudga kelib, bu hududlarga odamlar kelib oʻrnasha boshladilar. Arabistonning sharqiy qirgʻogʻi boʻylab er. avv. V ming yillikdan El-Ubayd madaniyati, keyin Jamdat-Nasr madaniyati odamlari joylashdilar. Sharqiy Arabiston er. avv. III ming yillikda, ayniqsa,

Magan (Omon) Janubiy Mesopotamiya, Baxrayn va Shimoliy-G‘arbiy Hindiston bilan dengiz savdosiga kirishdi.

Arab dengizchilari Hind okeaniga yo‘l olib, Sharqiy Afrika, Sharqiy O‘rtayer dengizi, Hindiston va Arabiston yarimoroli, Janubiy Osiyo va Sharqiy Osiyo kabi davlatlar bilan aloqa o‘rnatdi[75].

Arabiston yarimoroli orqali qadimda xalqaro savdo yo‘llari o‘tgan. Bosh savdo yo‘li «Xushbo‘y moy yo‘li» deb atalgan. Arabistonning janubiy-sharqi ikki yo‘nalish bilan Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘iga borgan: biri G‘azo va Ashdod, boshqasi Tir va Damashqqa yo‘nalgan. Yana bir savdo yo‘li Janubiy Arabistondan Janubiy Mesopotamiyaga boradi. Bundan tashqari, Arabiston qadimda Qizil dengiz va Fors qo‘ltig‘i dengiz yo‘li orqali Sharqiy Afrika va Hindiston bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi.

Er. avv. II ming yillikda Arabiston yarimorolining janubiy-g‘arbida somiy tillarining janubiy arab shevasida so‘zlashadigan Saba, Mina va Kataban qabila ittifoqlari vujudga keldi. Arabistonning shimoliy-g‘arbiy qismida er. avv. II ming yillikda midianit qabilalari yashagan.

Qadimgi Arabiston tarixi manbalari va tarixshunosligi. Arabiston yarimorolining qadimgi tarixiga oid manbalar to‘rt asosiy qismdan iborat: Epigrafik ma’lumotlar,ashyoviy yodgorliklar,yozma manbalar,antik mualliflar ma’lumotlari.

Janubiy Arabistonning tosh, jez, sopolga yozilgan va o‘z mazmuniga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadigan davlat hujjatlari (podsho farmonlari, podsholarning harbiy va ichki siyosatga oid yozuvlari) va xususiy-huquqiy qabrtosh lavhalari, sun'iy sug‘orish inshootlaridagi yozuvlardan 2500 tasi saqlanib qolgan.

Arxeologik qazishmalar bizga boy ma’lumotlar beradi. Qadimgi Saba podsholigining bosh shahri Marib xarobalari (Yaman Arab Respublikasi poytaxti Sanaga yaqin joy) o‘rganildi. Shahardan saroy qoldiqlari, devorlar va haykallar topildi. Shaharning g‘arbidagi ulkan Marib to‘g‘oni qoldiqlari kishini hayratga soladi. Kataban poytaxti Timna shahri ibodatxonalari, nekropol va qal’a qoldiqlari qazib ochildi. Nabatey podsholigi

[75]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.236.

poytaxti Petra shahridan me’morchilik inshootlari va haykallar topildi.

Bundan tashqari, Arabiston va arablar to‘g‘risidagi qisqa ma’lumotlar Ossuriya, Yangi Bobil, Eron manbalari va Bibliyada uchraydi. Antik tarixchilar Gerodot (er. avv. V asr)ning «Tarix» asarida, Feofrastning (er. avv. IV asr) «O‘simliklar tarixi», Diodorning (er. avv. I asr) «Tarixiy kutubxona» va Strabonning (er. avv. I asr) «Geografiya» kabi asarlarida qadimgi Arabiston to‘g‘risida qator ma’lumotlar bor.

Arabiston tarixi XIX asrdan o‘rganila boshlandi. Dastlab epigrafik yozuvlar tadqiq qilindi. XX asrda Belgiya, Fransiya, Avstriya va AQShda Arabiston xalqlarining geografiyasi, madaniyati, dini va xronologiyasiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar e’lon qilindi.

Shimoliy Arabiston. Qadimda Shimoliy Arabiston, Suriya va Mesopotamiya cho‘llarining keng hududlarida odamlarning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, it, eshak, yirik shoxli qoramollar boqilgan. Bu hududda yashagan urug‘ va qabilalar qabilalar ittifoqi va kichik davlat birlashmalarini shakllantirdilar. Ularning hokimlari Ossuriya hujjatlarida «podsho» deb ataladi. Qadimgi davlat birlashmalari asta-sekin harbiy san’atni va qo‘shinlarni shakllantirdi. Jangchilar tuyaga ikki kishidan minib, jang qilganlar. Arablar o‘zlarining kuchli qo‘shnilari Misr, Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘ining kichik davlatlari va Ossuriya bilan xalqaro ziddiyatlarga tortildilar.

Er. avv. 853-yilda Qarkara yonidagi bo‘lgan jangda Ossuriyaliklar arablar ham kirgan koalitsiya qo‘shinlarini tor-mor keltirdilar. Arablar Ossuriyaning Misrga qarshi yurishida asosiy to‘siq bo‘ldi. Bir necha arab qabilalari Ossuriya tomonidan bo‘ysundirildi. Arablar Ossuriyaning raqiblari-Misr va Bobil bilan ittifoq tuzdilar. Ossuriya er. avv. VII asrning 40 yillarida arab qabilalarini to‘liq bo‘ysundirishga erishdi. Yangi Bobil podsholigi ham Arabiston yarim orolida o‘rnashib olishga urindi. Bobil podshosi Nabonid Shimoliy Arabistonning bosh markazlaridan biri Teymu shahrini bo‘ysundirib, uni o‘z qarorgohiga aylantirdi. U bir necha qo‘shni arab qabilalarining shahar va vodiylarini o‘ziga bo‘ysundirdi. Er. avv. VI asrda Eron davlatining kuchayishi va

uning bosqinchilik yurishlari rejasi Arabiston yarim orolining shimoliy qismida forslarning arablar bilan aloqa oʻrnatishiga olib keldi. Shartnoma boʻyicha, fors podshosi Kambiz er. avv. 525-yil Misrga yurish vaqtida arab nabateylari yeridan oʻtish huquqini va sahrodan oʻtish davrida ulardan fors qoʻshinlarini suv bilan taʼminlashga roziligini oldi. Arab qabilalari Ahmoniylar Eroniga bir yilda ming talant (30 tonna) miqdorida xiroj toʻlash majburiyatini oldilar. Arablar harbiy yurishlar davrida fors qoʻshinlari tarkibiga kiritildilar. Ular yunon-fors urushlari davrida fors qoʻshinlari tarkibiga kirdilar. Arablar Gʻazo shahri uchun jangda (er. avv. IV asr) yunon-makedon qoʻshinlariga qattiq qarshilik koʻrsatdilar. Iskandarning Misrga yurishi davrida arab qabilalarining koʻpchiligi yunon-makedonlarga boʻysunmadi. Shu sababli, Iskandar Sharqqa yurishini tugatgach, unga boʻysunganliklarini bildirib, elchi yubormagan arablarga qarshi yurish qilishni rejalashtirdi. Lekin bu reja amalga oshmay qoldi. Arablar Rim davlati bilan ham aloqada boʻldilar. Rimliklar er. avv. 106-yillar atrofida Yamanga suqilib kirishga urindilar va Nabatey davlatini bosib oldilar.

Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari. Arabiston yarim oroli janubi va janubiy-gʻarbida (hozirgi Yaman Arab Respublikasi va Yaman Arab Demokratik Respublikalari hududi) er. avv. X-IX asrlarda bir necha davlatlar vujudga keldi. Janubiy Arabistonning chekka shimolida bosh shaharlari Isil va Karnava boʻlgan Main davlati tashkil topdi. Maindan janubroqda markazi Marib shahri boʻlgan Saba, undan janubroqda poytaxti Timna boʻlgan Kataban, Katabandan janubroqda Ausan davlati, sharqroqda markazi Shabva boʻlgan Xadramaut davlatlari bor edi.

Qadimgi Yaman davlatlari er. avv. IX-VIII asrlarda shakllana boshladi. Er. avv. VI-V asrlarda Main, Kataban, Saba va Xadramaut davlatlari oʻrtasida yetakchilik uchun kurash boshlandi. Saba, Kataban va Xadramaut dastlab Ausanga qarshi birlashib, kurash boshladilar. Natijada Ausan Katabanga qoʻshib olinadi. Main davlati Kataban va Sabaning tazyiqiga zoʻrgʻa bardosh beradi. Er. avv. III-I asrlarda zaiflashib qolgan Kataban Arabistondagi eng kuchli davlatlar Saba va Xadramaut tomonidan boʻlib olindi. Er. avv II asrda eng qudratli davlat Saba podsholigi boʻlgan. Saba

gullab-yashnagan davrida uning hududi Qizil dengizdan Xadramautgacha, Markaziy Arabistondan Hind okeanigacha choʻziladi. Bu davlat Yaqin Sharq bilan yaqin aloqalarni oʻrnatdi.

Er. avv. II asr oxirida shu vaqtgacha Kataban tarkibida boʻlgan, poytaxti Zafar boʻlgan yangi Ximyarit davlati yetakchi oʻringa chiqdi. Eramizning IV asr boshlarida Ximyarit davlati butun Janubiy Arabistonga oʻz hukmronligini oʻrnatdi. Ximyarit davlati davrida Janubiy Arabiston va Efiopiya oʻrtasida urush va tinchlik munosabatlari hukm surdi.

Er. avv. I ming yillik oʻrtalaridan eramizning I ming yillik oʻrtalarigacha Arabiston Yunoniston, Ptolomeylar Misri va Rim imperiyasi bilan juda serqatnov savdo aloqalarini olib bordi. Bu aloqalar hududda savdo-hunarmandchilikning rivojlanishiga ijobiy ta`sir qildi. Koʻchmanchi chorvadorlar savdo yoʻllarini qoʻriqlashda faol ishtirok etdilar.

Janubiy Arabiston davlatlari iqtisodiyoti birinchi navbatda, sun'iy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik va koʻchmanchi chorvachilik bilan belgilanadi. Saba davlati hududidagi Marib toʻgʻoni (uzunligi 600 metr, balandligi 15 metr) er. avv VII asrda qurildi va XIII asr davomida hududning sugʻorma dehqonchilikida suv ta`minotini amalga oshirishda yetakchi oʻrin tutdi. Gʻalla, poliz ekinlari, xurmo oʻstirildi. Yirik va mayda chorva mollari va tuya boqilgan. Hunarmandchilik sohalaridan toshga ishlov berish, qurilish ishlari, metallarni qayta ishlash, kulolchilik, toʻquvchilik va teriga ishlov berish yuqori darajada rivojlanadi.

Er. avv. I ming yillikda Janubiy Arabiston iqtisodiyotini tushkunlikka uchrashiga bir necha omillar sabab boʻldi. Ulardan biri yunonlar, misrliklar va forslarning Arabistonni chetlab oʻtib, bevosita Hindiston bilan aloqa oʻrnatishlari edi.Endilikda quruqlikdagi xavfli savdo yoʻlidan koʻra, xavfsizroq boʻlgan dengiz yoʻli yetakchi oʻrinni egalladi. Tushkunlikka sabab boʻlgan ikkinchi omil mavjud sun'iy sugʻorish tizimlarining yemirilishi, iqlimning oʻzgarishi bilan hosildor yerlarning sahroga aylanishi boʻldi. Bundan tashqari, ichki va tashqi urushlar Janubiy Arabiston davlatlarining tushkunlikka yuz tutishiga sabab boʻldi.

Janubiy Arabistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Er. avv. II ming yillik oʻrtalarida Mina, Saba va Kataban qabilalari ittifoqi

shakllana boshladi. Er. avv. I ming yillik boshida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti natijasida sinfiy tengsizlik kuchaydi. Siyosiy hokimiyatni o‘z qo‘liga to‘plagan kohin va savdogarlardan iborat hukmron siyosiy qatlam paydo bo‘ldi. Asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yer qishloq va shahar jamoalari qo‘lida edi. Asosiy xo‘jalik bo‘g‘ini patriarxal oila (yoki katta oilali jamoa) edi.

Eng katta yer egalari ibodatxonalar va davlat edi. Qullar urushlarda asir olish va sotib olish orqali paydo bo‘ldi. Qarzi uchun qul qilish zaif edi.

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi qabila ittifoqlarining davlatga aylanishiga olib keldi. Janubiy Arabiston davlatlari siyosiy tuzulishini Saba podsholigi misolida ko‘rish mumkin. Saba podsholigini 6 qabila tashkil etdi. Uning 3 tasi qaram ahvolda edi. Har bir qabila katta shoxobchaga, u yana kichik va alohida urug‘larga bo‘linar edi. Qabilalar zodagon boshliqlar (kabirlar) va ular tashkil qilgan kollegial tashkilotlar orqali boshqarilgan. Qabilalarda oqsoqollar kengashi bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Imtiyozli qabilalar o‘zlarining zodagon urug‘laridan ma’lum muddatga (Sabada 7 yil, Katabanda 2 yilga) davlatning oliy mansabdor shaxslari-eponimlarni saylaganlar. Ular oliy xudo Astar bilan bog‘liq kohinlik vazifalarini ham bajarganlar. Astronomik va astrologik taqvim nazoratlarini va yer-suvdan foydalanishni tashkil etishdek, ba’zi xo‘jalik ishlarini boshqarish ham ularning zimmasida edi.

Eponimlar bo‘yicha davlat va xususiy–huquqiy hujjatlar raqamlangan yil hisobi bilan olib boriladi. Ular 30 yoshdan mansabga chiqib, vakolat muddati tugagach, oqsoqollar kengashiga a’zo bo‘ladi.

Er. avv. III-II asrlargacha Saba podsholigining boshqaruv ishlari va ijroiya hokimiyatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar-mugarriblar bo‘lgan. Ularning vazifasiga qurilish faoliyati, sakral vazifalar (qurbonlik keltirish, diniy ovqatlanish marosimlarini tashkil etish) va davlatni tashkil qilgan qabila ittifoqlarini davriy yangilash, davlat hujjatlarini e’lon qilish, huquqiy qoidalar, shahar hududlari, xususiy mulk chegaralarini aniqlash va boshqalar kirgan. Mugarrib mansabi merosiy edi. Urush davrida mugarriblar

koʻngillilarga boshchilik qilganlar va vaqtinchalik unvon-malik, ya'ni podsho unvoniga ega boʻlganlar. Mugarriblar asta-sekin oʻz qoʻllarida butun hokimiyat vakolatlarini toʻplab, er. avv. I ming yillik oxirida amalda mutloq podsholarga aylandilar.

Saba podsholigining oliy organi oqsoqollar kengashi edi. Unga 6 qabilaning vakillari kirgan. Oqsoqollar kengashi sakral, qonun chiqaruvchi vazifalar, ma'muriy xoʻjalik vazifalarini bajargan. Boshqa janubiy arab qabilalari ham shunday davlat tuzilmalariga ega edi.

Qadimgi Arabiston madaniyati. Qadimgi Arabiston sivilizatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri yozuvning alfavit tizimining yaratilishidir. Bu yozuv farazlarga koʻra, Finikiya protosinay (Sinaydan topilgan yozuvlarga koʻra) alfavitlaridan kelib chiqqan. Shimoliy Arabiston aholisi nabateylar ham oromiy yozuvlariga oʻxshash oʻz alfavitlarini yaratdilar.

Yozuvlar toshga, qoyatoshlarga oʻyilgan; yogʻoch va loy taxtachalarga yozilgan, jez buyumga quyilgan; yumshoq buyumlarga bitilgan. Tarixiy voqealar bayoni, qonunlarning moddalari yozilgan bitiklar topilgan. Bagʻishlov va qurilish matnlari, sogʻona yozuvlari, ish yozishmalari bizgacha yetib kelgan.

Arab dengizchilari Hind okeanida yangi zamonaviy texnikadan foydalanishga qoʻl urdilar. Ya'ni ular kema oʻrni va suzayotgan yoʻnalishlarini samoviy yoʻnalishga qarab yulduzlar yordamida aniqlaganlar[76].

Monumental me'morchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Marib, Timna, Shabva va Karnava shaharlari xarobalariga koʻra, shaharlar toʻgʻri toʻrtburchak shaklida qurilib, balandligi 10-12 metrli tosh devorlar bilan oʻrab olinadi. Shahar devorlarida kvadrat shaklida minoralar bunyod qilinadi. Petra shahri qoyatosh bagʻrida bunyod qilinib, uning inshootlari qoyalarda qurilgan. Alebastr, jez va loydan haykallar yasalgan. Hayvonlar (hoʻkiz, tuya, ot) tasviri dinamik va ifodali tasvirlanadi.

Arabiston yarim oroli dini politeistik xususiyatda boʻlgan. Janubiy Arabistonda bosh xudo Astar hisoblangan. Saba qabilalarida Almakaxon oy xudosi hisoblanib, unga hoʻkiz

[76]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.236.

qurbonlik keltirilgan. Osmon, quyosh va bir necha sayyoralarga ham e’tiqod qilingan. Nabateylar Ilaxu yoki Alloh («xudo»), Dusharg (chaqmoq xudosi, dunyo boshqaruvchisi)ga sig‘inganlar.

Karfagen davlati

Karfagen tarixining ilk davri. Er. avv. II-I ming yilliklar oralig‘ida finikiyaliklar G‘arbiy O‘rtayer dengizida ilk koloniyalarini barpo qila boshladilar. Er. avv. I ming yillik boshlaridagi Finikiyaning Ispaniyadagi koloniyalari Gades, Afrikadagi Utika shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlariga aylandi. Ammo Finikiyaning barcha koloniyalari ichida Tir shahrining Shimoliy Afrikada barpo qilgan Karfagen yoki Karxemish (yangi shahar, er. avv. 825 yoki 814-yil) iqtisodiy jihatdan yuqori darajada taraqqiy qildi va siyosiy qudratga erishdi. O‘rtayer dengizida savdo va dengiz yo‘llari kesishgan qulay joyda joylashgan Karfagen asta-sekin kuchaya boshladi. Dastlab ko‘chib kelganlar yersizlikdan qiynalib, mahalliy aholi yerlarida yashash huquqi uchun pul to‘lashga majbur bo‘ldilar. Shahar boyib borishi bilan uning atrofidagi yerlar mahaliy aholidan sotib olina boshlandi yoki bosib olindi.

Karfagen G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarining markazi. Er. avv. VII asrdan boshlab Karfagen tarixida ikki yuz yilga yaqin davom etgan yangi davr boshlandi. Bu davrda Karfagen shahri G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiyaning boshqa koloniyalarining markaziga aylandi. Finikiya koloniyalari ichida Karfagenning yetakchi bo‘lishining bir qancha sabablari bor edi:

Finikiyaning Ossuriya va Eronga qaram bo‘lishi natijasida metropoliya bilan siyosiy aloqalarning zaiflashuvi.

2. Yunonlarning Janubiy Italiya va G‘arbiy O‘rtayer dengizini faol kolonizatsiya qilishi tufayli, ularning foydali xalqaro savdo va dengiz yo‘llarida hukmron bo‘lish xavfi.

3. G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarini ichki taraqqiyotini ma’lum darajada muvofiqlashtirish (koordinasiya) va hamkorlikni kuchaytirish ehtiyoji.

Er. avv. VII asr oʻrtalarida Karfagen Shimoliy Afrikadagi rivojlangan hunarmandchilik markazi, Markaziy Oʻrtayer dengizining koʻp havzalarini savdo munosabatlari bilan bogʻlagan eng yirik Finikiya koloniyasiga aylandi. Shahar hududi va aholisi tez oʻsib ketdi. Karfagenning qulay tabiiy gavani kemalarga moʻljallangan sun'iy gavan qurish hisobiga kengaydi.

Karfagen shahar-davlat doirasidan chiqib, faol tashqi siyosat olib bordi. U Gʻarbiy Oʻrtayer dengizining boshqa qismlarida oʻz koloniyalarini barpo qila boshladi. Shu bilan birga, bu yerda mavjud boʻlgan Finikiya koloniyalari ustidan oʻz homiyligini oʻrnatdi. Karfagenning Afrikadan tashqaridagi birinchi koloniyasi Ispaniya yaqinidagi Pitius orollaridagi Ebes (er. avv. VII asr oʻrtalari) boʻldi. Ebesni tayanch nuqta qilgan holda Karfagen Ispaniyaga kirishga yoʻl bermayotgan Finikiya koloniyasi Gadesni tor-mor qilib, er. avv. VII-VI asrlarda Pireney yarim oroli janubiga oʻrnashdi. Yunonlar Karfagenni Ispaniya sharqiy qirgʻogʻida oʻrnashib qolishiga yoʻl bermadilar. Karfagen Sitsiliyada faol harakat qilib, orolning gʻarbidagi Finikiya koloniyalarini oʻz nazorati ostiga oldi. Karfagen er. avv. VI asr oʻrtalariga kelib, Ispaniyadagi mulklari bilan Janubiy Sisiliyaning gʻarbi, Pitius orollari va Shimoliy Afrikagacha choʻzilib ketgan yirik davlat birlashmasi markaziga aylandi.

Karfagen er. avv. VI asr oxirida Yaqin Sharqda oʻzgargan xalqaro ahvoldan yaxshi foydalandi. Bu vaqtda Old Osiyoda oʻtmishda qudratli boʻlgan Ossuriya, Misr kabi davlatlar zaiflashib qoldi. Yangi qudratli davlat Ahmoniylar Eroni butun Old Osiyoda va Shimoliy Afrikada oʻz ta’sirini oʻtkaza boshladi. Karfagen Ahmoniylar Eroni bilan aloqa oʻrnatdi. Bu aloqa Karfagen uchun noqulay boʻlsada, lekin Karfagen Sitsiliya va uning janubiy qismini, Janubiy Italiya, Korsika va Sardiniyani yunon shaharlariga qaram boʻlishiga qarshi faol siyosat olib borish imkoniyatiga ega boʻldi. Er. avv. VI asr oʻrtalarida Karfagen Markaziy Italiyadagi etrusklar bilan doʻstona shartnoma tuzdi. Er. avv. 535 yilda Karfagen–etrusklarning birlashgan floti Korsika yonidagi Alali jangida yunon flotini yanchib tashladilar. Karfagen Sardiniya janubini egallashga muvaffaq boʻldi. Natijada yunonlarning Ispaniyaga ta’siri kamaydi. Er. avv. V asrda Bolqon yarimorolida yunon shahar-davlatlarining

zaiflashuvi natijasida Kichik Osiyoning g‘arbidagi barcha yunon shahar-davlatlari Ahmoniylar Eroni ta’siri ostiga tushib qoldi. Ahmoniylar Yevropa tomon yurish qilib, Bolqon yarimoroliga ham bostirib kirdi. Er. avv. V asrda Eronning Yunonistonga bostirib kirishidan foydalangan Karfagen qulay payt poylab, Sitsiliyadagi yunon shaharlariga hujum qildi. Hujum muvaffaqiyatsiz chiqdi. Oqibatda Karfagen Sitsiliyaning g‘arbida o‘zining bir necha shaharlarini zo‘rga saqlab qoldi.

Qudratli Karfagen davlatining tashkil topishi.

Karfagenning gullab-yashnagan davri er. avv. V asr o‘rtalaridan er. avv. III asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Sitsiliyadagi yurishlarda mag‘lub bo‘lgan Karfagen o‘z tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishini Shimoliy Afrikaga qaratdi. Karfagen hozirgi Tunis va Jazoir qirg‘oqlarini va bu hududlarning ichki hosildor yerlarini kolonizatsiya qila boshladi. Karfagen dengizchilari Mavritaniya, Marokkoning Atlantika okeani qirg‘oqlariga chiqib, bu yerlarda manzilgohlarga asos soldilar. Er. avv. VII asrda Karfagen dengizchisi Gannon 60 kema va 30 ming kishilik dengiz ekspeditsiyasi bilan Atlantika qirg‘oqlarini tekshirdi. Afrikada katta-katta hududlarni bosib olinishi, Ispaniya janubidagi, Sardiniya orolidagi va Sisiliya g‘arbidagi koloniyalar Karfagenni ko‘p sonli aholiga ega bo‘lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli va katta imkoniyatlarga ega imperiyaga aylantirdi. O‘z savdogarlarini himoya qilish, muhim savdo yo‘llarini o‘z qo‘lida saqlab turish uchun Karfagen boshqa davlatlar bilan o‘nlab shartnomalar tuzdi va faol tashqi siyosat yuritdi. Bu Karfagenning G‘arbiy O‘rtayer dengizi havzasida uzoq vaqt yetakchi o‘rinni egallashiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Karfagendagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (er. avv. V-III asrlar). Er. avv. V-IV asrlarda Karfagen O‘rtayer dengizidagi vositachi savdoning markazi edi. Karfagen Sharqiy O‘rtayer dengizining turli viloyatlariga, yunon shaharlariga va Pireney yarim orolining Atlantika qirg‘oqlariga turli mahsulotlar yetkazib berdi. G‘arbiy O‘rtayer dengizida Karfagenning savdo manfaatlarini himoya qiladigan Rim bilan uchta shartnoma tuzildi.

Er. avv. V-III asrlarda Karfagen yirik hunarmandchilik markazi edi. Kulolchilik, zargarlik va qurolsozlik ustaxonalarida oliy navli mahsulotlar tayyorlandi. Karfagenliklar mohir quruvchi bo‘lganlar. Karfagen shahri mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan edi. Shahar ichida ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar, oddiy fuqarolar uylari, ombor va doklar (kema ta`mirlanadigan va quriladigan joy) qurildi. Kemasozlik yuqori darajada rivojlandi.

Karfagen bepoyon ekin yerlariga ega edi. Dehqonchilik quldorlik xo‘jaliklarida asosiy soha edi. Tokzorlar, zaytun daraxtlari, bog‘ va polizlar mo‘l-ko‘l hosil berar edi. Er. avv. VI-III asrlarda Karfagenda rivojlangan qulchilik unsurlari bo‘lgan quldorlik jamiyati mavjud edi. Shu bilan birga, erkin ishlab chiqaruvchilar ko‘p edi. Karfagen shahrining o‘zida 200 ming aholi yashar edi. Oliy tabaqa yirik yer egalari, katta savdogarlar va kohinlardan iborat edi. Sharq mamlakatlaridan farq qilgan holda Karfagenda byurokratik boshqaruv apparati yo‘q edi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati asosini ko‘p sonli qullar va qaram aholini shafqatsiz talash tashkil qildi

G‘arbda Karfagenliklar o‘zlarining oltin tangalarini birinchilardan bo‘lib muomalaga chiqaradilar, lekin biroz vaqt o‘tib, ular chiqargan oltin tanga qadrsizlanadi va boshqa metallardan tangalar zarb qila boshlaydilar. Karfagenliklar Gárbiy Osiyo va O‘rta yer dengizida pulini ko‘p chiqarish orqali boshqa muomaladagi pullarni qadrini tushirib yuboradilar. Milloddan avvalgi 270-260 yillar Rimning katta tazyiqi ostida tangalar chiqardilar. Milloddan avvalgi 264-241 yillar Rim bilan bo‘lgan urushda, Rimga katta miqdorda o‘lpon to‘ladilar[77].

Karfagenning siyosiy tuzumi. Karfagenning siyosiy tuzumi eng boy Karfagen oilalarining tor guruhi manfaatlarining aks ettiradigan oligarxiya edi. Karfagenda er. avv. V-IV asrlarda oliy fuqarolik hokimiyati vakolati bir yil muddatga saylanadigan oliy mansabdor-ikki sufet qo‘lida bo‘lgan. Barcha davlat ishlarini 30 lar kengashi va 300 a’zodan iborat oqsoqollar kengashi hal qilgan. Oliy nazorat organi 104 lar kengashi bo‘lib, u sudyalik vazifalarini ham bajargan. Karfagenning xalq yig‘ini ahyon-ahyonda chaqirilgan. U siyosiy hayotga sezilarli ahamiyatga ega emas edi.

[77]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.216.

Biror-bir zodagon oilaning hokimiyatni bosib olishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun kengashlarda qatnashadigan oligarxlar doimiy ravishda bir-birlari bilan raqobat qildilar. Karfagenning ichki siyosiy hayoti tarixi hokimiyatni bosib olish uchun oliy tabaqa zodagon guruhlari o‘rtasidagi doimiy kurashdan iborat edi. Er. avv. VI asr o‘rtalarida dastlab lashkarboshi Malx Karfagenda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Keyin esa, zodagon Magon oilasi qariyb 50 yil davomida hokimiyat tepasida turdi.

Er. avv. V asr o‘rtalaridagina Karfagen oligarxiyasi Magon oilasining hukmronligidan qutulib, yana o‘z hokimiyatini qayta tiklay oldi. Er. avv. V asr ikkinchi yarmidan-III asr o‘rtalarigacha Karfagen O‘rtayer dengizining g‘arbidagi eng qudratli davlat bo‘lib, uning qudratini asosi yuqori rivojlangan iqtisodiyot, dinamik ijtimoiy tuzilish, oligarxiyaning barqaror tizimi edi. Karfagenning boy savdogar-hunarmandlari va kema egalari O‘rtayer dengizi g‘arbi va Shimoliy Afrikada faol tashqi savdo bilan shug‘ullandilar. Ahmoniylar Eroni va Rim bilan bir necha savdo shartnomalari tuzildi. Ammo er. avv. III asrning 60-yillariga kelib, Karfagen G‘arbiy O‘rtayer dengizi havzasida hukmronlik uchun Rim bilan keskin kurashga kirishdi.

Er. avv. III-II asr o‘rtalarida Rim-Karfagen o‘rtasidagi uch urush (Puni urushlari)lar natijasida Karfagen batamom tor-mor qilinib, uning hududi Rim Respublikasining Afrika provinsiyasiga aylantirildi (er. avv. 146- yil).

Karfagen madaniyati. Karfagenda amaliy fanlardan agronomiya, geografiya, matematika, fortifikasiya va astronomiya sezilarli rivojlandi. Karfagen dengizchilarining Britaniyaga dengiz sayohati (Giskon ekspeditsiyasi), Atlantikaning ekvatorial qirg‘og‘iga Gannonning mashhur sayohati va Karfagen atrofini yuqori darajada mohirona qurilgan mudofaa devorlari bilan o‘rab olish tabiiy fanlarning taraqqiyoti natijasi edi. Karfagenliklar qadimda Afrika, O‘rtayer dengizi, Atlantika qirg‘og‘i, Kanar va Azor orollarining eng aniq geografik xaritasiga ega bo‘ldilar. Ular qishloq xo‘jaligining dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Karfagenda dehqonchilik sohasidagi qadimgi asarlardan biri Magon tomonidan maxsus yozilgan agronomiya traktati paydo bo‘lib, u lotin tiliga tarjima qilingan. Karfagen Misr,

Xett, Bobil va Ossuriya madaniyatlarini doimiy ta'siri ostida bo‘ldi va shu sababli, uning madaniyati sinkretik (madaniyatlar qo‘shilmasi hosilasi) xususiyatiga ega edi. Karfagen aholisi savdo-hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, faqatgina iqtisodiyot ehtiyojlariga xizmat qiladigan aniq va tabiiy fanlarga e`tibor berdilar. Adabiyot, tasviriy san'at va falsafa zaif rivojlandi.

Diniy e`tiqod qadimgi Finikiya an'analari asosida rivojlandi. Karfagen panteonining bosh xudolari ma'buda Tinnit va Vaal-Melkart edi. Tinnit shahar homiysi, donolik, mo‘l-ko‘lchilik va tirilayotgan tabiat, hayotbaxsh ne'matlar yaratuvchisi edi. Dushmanlarni qo‘rqituvchi Molox urush xudosi bo‘lib, u ba'zida odamlarni qurbonlikka keltirishni talab qilgan. Bu xudolar sharafiga Finikiya an'analarini, Misr motivlarini va yunon me'morchiligi usullarini o‘zida to‘plagan sinkretik uslubda ibodatxonalar qurilgan.Karfagen madaniyati G‘arbiy O‘rtayer dengizi va Shimoliy Afrika tarixida muhim iz qoldirgan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Yaqin Sharqqa qaysi hududlar kiradi?
2. Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘ining qadimgi etnik tarkibi, tabiiy sharoiti va geografiyasi haqida bahs yuriting.
3. Isroil va Yahudiya davlatlari qaysi asrlarda paydo bo‘ldi va yuksaldi?
4. Qadimgi Sharqiy O‘rtayer dengizi mamlakatlarining Old Osiyoda tutgan o‘rni qanday?
5. Qadimgi Sharq va Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i xalqlari madaniyati haqida referat tayyorlab, seminarda muhokama qiling.
6. Karfagen davlati boshqaruvi qanday bo‘lgan?
7. Karfagenning tashqi siyosati o‘ziga xosliklarini tahlil qiling.
8. Karfagenning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qanday edi?
9. Puni urushlari va uning oqibati?
10. Diniy e'tiqodi qanday bo‘lgan?
11. Karfagen madaniyatining Afrika hududlariga ta'siri haqida esse tayyorlang.

12. **Keys savoli:**Finikiyaliklar savdo va dengizchilik orqali qanday qudratga erishdi va bu ularning siyosiy va iqtisodiy ta’sirini qanday mustahkamladi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

12-MAVZU. QADIMGI ERON

Reja

1. Qadimgi Eron hududi, aholisi va hoʻjaligi.
2. Manbalar va tarixshunosligi.
3. Qadimgi Elam siyosiy boshqaruvi.
4. Midiya podsholigi
5. Ahmoniylar saltanati.
6. Qadimgi Eron madaniyati.

Qadimgi Eron hududi, aholisi va hoʻjaligi. Mesopotamiyadan sharq tomonda atrofi togʻ tizmalari bilan qurshab olingan bepayon Eron qirlari yoyilib yotadi. Eronni Dajla va Frot havzasidan Zagros togʻ tizmasi ajratib turadi. Shimol tomondagi Elburs tizma togʻi Kaspiy dengizining janubiy qirgʻogʻi boʻylab oʻtadi, shimoli-gʻarbda esa Kopetdogʻ va Pomir togʻlari Eron bilan Oʻrta Osiyoning chegarasini tashkil qiladi.

Markaziy Eronning ancha qismi, sharqiy Eronning koʻp viloyatlari sekin-asta choʻlga va baʼzi joylari suvsiz sahroga aylanib borgan. Bunda koʻchmanchi chorvachilik ustun boʻlgan, ammo ikki oʻrkachli tuyalar (Baqtriya tuyasi) yetishtirish alohida oʻrin tutgan. Bu tuyalar er.avv. I ming yillikda Ossuriyada ham juda oz boʻlsa-da paydo boʻlgan. Dehqonchilik oʻchoqlari Eronning chekka oʻlkalarida, yerni soy suvlari bilan sugʻorish mumkin boʻlgan joylarda tashkil topgan. Oʻrta Osiyoda, Erondan farqli ravishda pasttekkislik keng joyni egallagan.

Lekin Dajla, Frot va Nil suvlarini jilovlashdan koʻra Amudaryo suvini oʻzlashtirish ancha qiyin kechgan va bunda irrigatsiya ishlari ancha keyin (er.avv. I ming yillikdagina) boshlangan. Dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi oʻchoqlari Orol dengizi boʻylarida emas, balki ancha janubroqda, Eronga chegaradosh oʻlkalarda, (hozirgi Oʻzbekiston hududida) boʻlganligi aniqlandi. Arxeologlar bunda er.avv. V ming yillikdayoq dehqonchilik boʻlganidan dalolat beruvchi arpa, bugʻdoy donlari va uy hayvonlarining suyaklarini topdilar, ammo ayni zamonda Amudaryo havzasida hali ovchilik va baliqchilik hukm surgan.

Eron bepoyon tog‘li va ko‘p cho‘llardan iborat kontinental iqlimli mamlakat. Dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tog‘ oldi manzilgohlari juda ko‘p. Shimolda Elburs tog‘ tizimi va unga Turkman, Xuroson tog‘lari qo‘shiladi. G‘arbdan va janubdan Zagros va janubiy Eron tog‘lari o‘rab turadi. Janubi-g‘arbiy Eronda (Huziston) Korun va Kerxa daryolari vodiysida yuqori hosil beradigan yerlar mavjud.

Aholisi. Eron bilan O‘rta Osiyoning qadim zamondagi etnik tarkibini aniqlash juda qiyin. Faqat bir narsani ishonch bilan aytish mumkinki, er.avv. II ming yillikkacha bundagi tillarda na semit va na hind-Yevropa tillariga o‘xshashlik bo‘lgan. Bundagi tillardan bizga ma’lum bo‘lgani elamiy tilidir.Bu til Eronning janubi-g‘arbida ustunlik qilgan, ammo uzoq qadimda elamiy tili ancha nari, sharq va sharqi-shimolda ham tarqalgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Faqat er.avv II ming yillikda, ayniqsa I ming yillikda etnogenez manzarasi oydinlashib borgan. Sho‘ro davri ilmiy adabiyotlarida O‘rta Osiyo va Eronda hind-eron qabilalari paydo bo‘lgan. Ular shimol tomondan kelgan deb faraz qilinadi. Ammo eroniy tillar shimoldan janubga kirib kelgan degan fikrlar asossizligi haqida yangi fikrlar bor, ya’ni fors ko‘rfazi manzilgohida eroniy tillarning dariy lahjasi bo‘lgani haqida farazlar bor.

Er.avv I ming yillik boshlarida g‘arbiy Eronda eron tilida so‘zlashuvchi qabilalar yashagan. Buni Ossur yilnomachilaridan bizga yetib kelgan bir qancha o‘lkalarning onomastika va toponimikasi isbotlaydi. Eronda mezolit va neolit davriga oid manzilgohlar, arxeologik topilmalar, kulolchilik buyumlari Suza shahrining ilk qatlamlari, yodgorliklari, Eron poytaxt shaharlari Suza, Ekbatana, Pasargad xarobalaridan topilgan ulug‘vor haykallar, qoyatosh releflari, qimmatbaho metallardan qilingan buyumlar-riton-qadahlar, harbiy qurollar va taqinchoq-bezaklar topib o‘rganilgan. Yevropa



olimlari J. de Margo va Grishman bu qadimgi shaharlar xarobalarini o‘rganib, eronshunoslik faniga muhim hissa qo‘shdilar. Er.avv.VII-VIming yilliklarda g‘arbiy Eronda dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan o‘troq va chorvador qabilalar er.avv. VI -V ming yilliklarda Eronning boshqa manzilgohiga tarqaladi. Er. avv. III ming yillik boshlarida janubi-g‘arbiy Eronda Elamtu (bobil va ossur tilida «mamlakat») yoki Elam ilk davlat birlashmasi shakllanadi. Elam Mesopotamiya hamda shimoliy va sharqiy Eron bilan bog‘langan Korun va Kerxa daryolari vodiylarida joylashgan. Suza shahri poytaxtga aylandi.

Manbalar va tarixshunosligi. Midiya va Eron tarixi bo‘yicha ma’lumot beradigan manbalardan biri bu yunon mualliflarining asarlari hisoblanadi. Gerodot (er. avv. V asr)ning “Tarixi”, Fukidid (er. avv. V asr) “Tarixi”, Ksenofontning “Yunon tarixi” asari, uning “Anabasis” mem’uari, sitsiliyalik Diodorning»Tarixiy kutubxona»si kabi asarlar qadimgi fors tarixiga oid boy siyosiy, ijtimoiy, harbiy-diplomatik ma’lumotlar beradi.

Eron va O‘rta Osiyoning xo‘jaligi va undagi ijtimoiy munosabatlar to‘g‘risida biz asosan arxeologiya yodgorliklaridan bilib olamiz. Uzoq o‘tmishning aks-sadolari Eronda keng tarqalgan diniy asar – “Avesto”ning ilk qatlamlarida saqlangan.

Xilma-xil hujjatlardan iborat butun bir arxiv bizgacha faqat Elam davridan yetib kelgan. Er.avv. VI asrdan boshlab Ahmoniylarning yozuvlari paydo bo‘la boshlagan. Ko‘p masalalarni hal etishda Gerodot, qisman Ktesiy va boshqa antik dunyo mualliflarining asarlari yordam beradi.

Qadimgi Eron tarixi bo‘yicha Yevropa olimlari qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. M.M. Dandamayevning “Qadimgi Eron tarixi ocherklari”, amerikalik R.Frayning “Eron merosi” asarlarda hamda J. Kameron, V. Xins, Y.B.Yusufovning asarlarida qadimgi Elamning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi yoritiladi. I.M. Dyakonov, E.A. Granovskiylarning asarlarida Eronda ilk qabilalar migratsiyasi, I.M. Dyankonovning, I.G. Aliyevning asarlarida Midiya tarixi va madaniyati yoritiladi. Qadimgi Eron diniy e`tiqodlari V.I. Abayev, V.V. Struve, Dandamayev, J. Dyushen-Gilmen, G. Videgren asarlarida o‘z aksini topgan.

Manbalar asosida qadimgi Eron tarixini to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Elam sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi va gullab yashnagan davri (er. avv. IV ming yillikning oxiridan–er.avv. VII asr oxirigacha).

2. Midiya davri (er. avv VIII–er. avv. VI asr o‘rtalari).

3. Ahmoniylar davri (er. avv. VI asr o‘rtalarida–er. avv. 330-yilgacha).

4. Parfiya davri (er. avv. III asr o‘rtalari–eramizning 224–yiligacha**).**

Elam. Eron xalqlaridan yuqorida bir necha marta tilga olingan elamiylar hammadan oldin tarix sahnasiga chiqqan. Elamiylar mamlakati fors qo‘ltig‘iga quyadigan ikki daryo - Kerxa bilan Karuna daryolari havzasini va shimol tomonda unga tutashgan tog‘li Anchan o‘lkasini ishg‘ol qilgan. Elamning poytaxti Suza (Kerhi bo‘yidagi) tekislikda joylashgan edi. Arxeologlar bu yerdan (er.avv.IV-III asrlardagi) eneolit yodgorliklarini, ayniqsa badiiy jihatdan yuksak, naqsh solingan sopol buyumlarini topganlar.

Shu narsa muhimdir, Elam butun tarixi davomida Ikki daryo oralig‘i bilan mahkam aloqada bo‘lgan va bu aloqa uning iqtisodiyoti hamda madaniyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu narsa ham ibratlidirki, Elamda paydo bo‘lgan o‘ziga xos yozuv tizimini mahalliy piktografiya asosidagi iyerog-lifikani g‘arbiy qo‘shnilardan o‘zlashtirib olgan mixxat er.avv. III ming yillikda siqib chiqargan. Dastlab mixxat matnlari akkad tilida yozilgan, er.avv. II ming yillikda esa elamiy tilida yozila boshlagan. Elamning Ikki daryo oralig‘idagi davlatlar

Mesopotamiya mixxat hujjatlari

bilan boʻlgan siyosiy munosabatlari koʻp oʻzgarib turgan. Vaqti-vaqti bilan Elam Akkadga (er.avv. XXIII asr) va Shumerga (Urning III sulolasi vaqtida -er.avv. XXI asrda) qaram boʻlib qolgan. Ammo buning aksi yuz bergan hollar ham boʻlgan, Elam podsholari gʻarbiy qoʻshinlarning kuchsizlanib qolganliklaridan foydalanib, ularga qarshi hujumga oʻtgan. Masalan, eramizdan avvalga XX-XVIII asrlarda tarqoqlik va oʻzaro urushlar davrida Elam, Dajla va Frot havzasida oʻz nazoratini oʻrnatgan.

Er.avv. II ming yillikda elamiylar yana kuchayib ketib, Bobilga yurishlar qilgan. Elamning ijtimoiy munosabatlarida qoʻshni Ikki daryo orligʻiga oʻxshagan joylari koʻp boʻlgan. Ammo, shu bilan birga, mahalliy xususiyatlari ham boʻlgan, albatta. Bunda tarkib topgan tabaqaviy jamiyat sharoitida har xil matriarxat qoldiqlari Ikki daryo oraligʻidagidan koʻra uzoqroq saqlangan, bu qadimgi Misrda roʻy bergan shu singari ahvolni eslatadi. Chunonchi, yer uchastkalari tamomila ayollar ixtiyorida boʻlgan. Taxt merosligining oʻziga xos tartibi ham ibratlidir, taxt otadan oʻgʻilga oʻtmagan, balki akadan ukaga oʻtgan (fratiarxat).

Er.avv. VIII-VII asrlarda Elam bilan Ossuriya oʻrtasida juda qattiq va keskin kurash borgan va bu kurash Ashshurbanipal qoʻshinlarining Suzani tor-mor keltirishi bilan tugagan. Shundan keyin Elam mustaqil oʻrin tutmagan, ammo elamiy tili fors va bobil tillari bilan birga yashayvergan. Behistun yozuvining uch tilda boʻlganligi bunga dalildir. Elamning qulashi yangi xalqlarning, endi bu gal eron tili guruhidagi midiy va forslarning kelib chiqishiga sabab boʻlgan.

Midiya. Midiya shimoli-gʻarbiy Eronda joylashgan edi. Mamlakatning gʻarbiy qismi Zagros togʻi manzilgohi boʻlib, keyinchalik Midiya Atropatenasi deb atalgan. Atropatenadan sharqda Midiyaning tekislik qismi joylashgan. Er. avv. III-II ming yilliklarda bu manzilgohlarda kassit, kutiy, xurrit tillarida soʻzlashadigan oʻtroq va chorvadorlar yashaganlar.

Yunon an'analariga koʻra, Midiya davlatini podsho qilib saylagan Deyok degan kishi barpo qilgan va yakka hokimlik oʻrnatgan. Midiya poytaxti Ekbatana (hozirgi Hamadon) ni barpo qilgan kishi ham oʻsha deydilar. Ekbatana oddiy bir qishloq boʻlib,

Deyok uni bir necha devor bilan qurshab olingan mustahkam qal'aga aylantirgan.

Midiya hukmdorlaridan eng atoqlisi va Midiya davlatining ayni tashkilotchisi Kiaksar bo‘lgan (er.avv. 625-585 yillar). U Ossuriyaning Bobil va Elamga qarshi kurashi natijasida zaiflashib qolganligidan, butun Old Osiyoga skiflarning bosqinchilik hujumidan imkon boricha foydalangan. Urushqoq shimoliy qabilalarning bu harakatidan garchi qisman bo‘lsa-da, Midiyaning o‘z hududini ham zarar ko‘rgan bo‘lishiga qaramay, Kiaksar skiflarni tinchitgan va hatto o‘z xizmatiga og‘dirishga muvaffaq bo‘lgan.

Midiya davlati. Ossuriya Elamni tor-mor keltirgani bilan uni o‘zlashtirishga kuch va imkoniyati qolmagan, keyin Elam Midiyaning ta’sir doirasiga kirib ketgan. Kiaksar o‘zini tiklab olgan Bobil bilan inoqlashgan. Qadimgi mualliflar Kiaksarning qabilalardan terilgan lashkarlardan iborat avvalgi terma qo‘shini o‘rniga muntazam armiya barpo qilishi uning eng katta muvaffaqiyati deb hisoblaydilar.

Ossuriya bilan kurash ajoyib yutuq bilan tamom bo‘lgan. Kiaksar er.avv. 612 yilda Ossuriyaning poytaxti Nineviyani

egallagan va ossur merosini Bobil podshosi Nabupalasar bilan bo‘lishib olgan. Urartu hududining kattagina qismi va Kichik Osiyoning sharqiy qismi – Kappadokiya ham Midiya davlati tarkibigaga kirgan.

Midiya yer-mulklarning g‘arbga qarab kengayishi shu bilan tugagan. Lidiya bilan urush Kiaksar uchun juda og‘ir bo‘lgan va u (Bobilning vositachiligida) sharq bilan yunon olami o‘rtasidagi savdo-sotiq ishlarini o‘z qo‘lida ushlab turgan qudratli va boy davlat bilan bitishishni afzal ko‘rgan. Kiaksar bilan Lidiya podshosi Aliatt o‘rtasidagi bitimga muvofiq Galis daryosi ikki davlatning chegarasi bo‘lib qolgan.

Kiaksarning o‘g‘li, Midiyaning oxirgi podshosi Astiag davrida Yangi Bobil podsholigi bilan bo‘lgan do‘stona munosabatlar buzilgan. O‘rtada nizo chiqishiga har ikki tomon da’vo qilgan chegaradagi Xarran shahri sabab bo‘lgan. Midiya qo‘shinlari g‘arbda Bobil podshosi Nabonidga qarshi juda shiddatli janglar bilan band bo‘lib turganida Eronning janub qismi Midiya podshosining oliy hukmronligi ostidagi fors podsholigi Astiagga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan. Er. avv. 585-550-yillarda podsholik qilgan Astiag davrida Midiya katta va qudratli davlatga aylanadi. Bu vaqtda Elam ham qo‘shib olinadi

Qo‘zg‘olonga Ahmoniylar xonadonidan bo‘lgan va Midiya hukmronligi ostidagi boshqa hokimlar kabi podsho unvoni olgan Kayxusrav II boshchilik qilgan. Gerodotning aytishicha (u ancha ishonchli an’anadan foydalangan bo‘lsa kerak), Kayxusrav Astiagning (ona tomonidan) nevarasi bo‘lgan. Bunda shu narsani ham nazarda tutish kerakki, midiylar bilan forslar bir- biriga yaqin qarindosh xalqlardir. Yunon mualliflari ba’zan hatto forslarni midiylar deb ataydilar, ularning bunday deyishi tasodifiy narsa emas, albatta. Eronning asosiy xalqini tashkil etgan forslar bilan midiylarning tillari va madaniyatlarida umumiylik ko‘p bo‘lgan. Kayxusravning qo‘zg‘oloni er.avv. 553 yilda boshlanib 3 yil davom etgan. Astiag bu kurashda katta g‘ayrat ko‘rsatgan, lekin armiyaning bir qismi g‘arbda band bo‘lganligi va o‘z ichidan xoinlar chiqqanligi tufayli ish pachava bo‘lgan. 550 yilda Astiag taxtidan ag‘darilib, bir qancha vaqtdan keyin o‘ldirilgan

(manbalarga koʻra Kayxusrav bundan behabar boʻlgan) va Midiya forslarga tobe qilingan.

Ahmoniylar davlatining tashkil topishi. Kayxusravning Astiag ustidan qilgan gʻalabasi natijasida qadimiy fors davlati vujudga keltirilgan va (Ahman barpo qilgan podsho xonadonining nomi bilan) Ahmoniylar davlati deb yuritilgan. Bu davlat (er.avv. 330 yilgacha) ikki asrdan ziyodroq yashagan. Eronliklarning janubiy avlodi boʻlmish forslar bu davlatda asosiy oʻrin tutganlar. Midiylar ikkinchi oʻrinda boʻlganlar, ularning koʻpchiligi Kayxusrav tomoniga oʻtib, evaziga anchagina imtiyozlarga ega boʻlganlar.

Jahon tarixida birinchi ulkan podshohlik boʻlgan Eron Ahmoniylari davlati qariyb 200 yil yashadi. Bu davlat tarkibigaga Fors yerlari,janubiy grek yerlari, Oʻrta Osiyo, shimoliy Hindiston va Misr manzilgohlari kirgan.

Midiylarning magʻlubiyatidan Bobil podshosi Nabonid xursand boʻlgan, negaki midiylar taxtid solib turgan oy xudosi Sinaning muqaddas shahri Xarranning xavfsizligi ularning magʻlubiyati bilan ta’min etilgan. Lekin yangi davlatning barpo qilinishi Kayxusravning bundan keyingi istilochilik rejalaridan xavf olgan gʻarbiy qoʻshinlarini tashvishga solgan.

Forslar podshosiga qarshi katta bir ittifoq tuzilib, bunga Eronning bevosita qoʻshnilari (Yangi Bobil podsholigi, Lidiya)gina emas, balki ancha olis Misr ham qoʻshilgan. Shuningdek, Gretsiyadan ham yordam kelishi kutilgan.

Turli davlatlarning bunday keng koʻlamdagi (Ossuriyaga qarshi ittifoqni eslatadigan) ittifoqning tuzilishi qadimgi dunyoda xalqaro aloqalarning mustahkamlanib va rivojlanib borishidan guvohlik berar edi. Bu davlatda hunarmandchilik gʻoyat taraqqiy qilgan, undagi boʻyoqchilik ustaxonalari ayniqsa shuhrat qozongan, ular jun gazlama va fil suyaklarini toʻq qizil rangga boʻyashda Finikiya ustaxonalari bilan raqobatlashganlar.

Lidiyaning soʻnggi podshohlari Aliyatt va Krez davrida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti siyosiy qudratning kuchayishi bilan qoʻshilib borgan. Kichik Osiyoning katta qismi, shu jumladan, yunonlarning dengiz boʻyidagi (Miletdan boshqa) koloniyalari ham Lidiya hukmronligi ostiga tushib qolgan.

Kayxusrav Lidiyaga qarshi otlanib ularning saralangan otliq qo‘shinini tor-mor keltirgan. Kayxusrav lidiylarga qarshi ularga ma’lum bo‘lmagan tuya minib jang qiladigan askarlarni yuborgan. Shundan keyin fors podshosi jadal zarba bilan Lidiyaning poytaxti Sardni ishg‘ol qilgan.

Lidiyadan keyin Bobilga navbat kelgan. Bobil podsholigining ichki nizolar tufayli kuchsizlanib qolganligini yuqorida aytib o‘tgan edik. U endi o‘zining qudratli mudofaa inshootlarini Kayxusrav qo‘shiniga qarshi ishlata olmagan. Kayxusravning o‘zi (bizgacha yetib kelgan yozuvlarda) “Bobilga osoyishtalik bilan kirib keldim” degan va muqaddas shaharning barcha imtiyozlarini tasdiqlab, uning xudolariga hurmatini izhor qilgan. Ikkinchi tomondan Kayxusrav toqatsizlik bilan uning kelishini kutib turgan yahudiylarni o‘z tomoniga og‘dirgan. Bir vaqtlar bobilliklar haydab olib kelgan bu yahudiy aholisining umidi puch bo‘lmagan. Kayxusrav ularni “Bobil qulligi”dan qutqazib, Falastinga qaytib ketishlariga va qayta Quddusni tiklashlariga ruhsat bergan. Misrga mo‘ljallanayotgan hujum uchun zarur platsdarm ana shunday qilib Kayxusrav qo‘liga kirib qolgan. Kayxusrav huddi shu maqsadini amalga oshirish va O‘rta dengiz sohillarida o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun Finikiyaning savdo-sotiq shaharlari bilan murosa qilishga harakat qilgan, chunki u bu shaharlarning flotidan foydalanishni mo‘ljallagan.

Dehqonchilik madaniyatining ikkinchi o‘chog‘i (hozirgi Turkmaniston tuprog‘idagi Murg‘ob vodiysi) Marg‘iyonada bo‘lgan.

O‘sha dehqonchilik zonalari atrofidagi bepayon cho‘llarda podachi sak-massaget qabilalari ko‘chmanchilik qilgan. Kayxusrav shimoli-sharqiy o‘lkalarni qat'iy o‘ziniki qilib va unumdor Amudaryo vodiysiga olib boradigan yo‘llarni qo‘lga kiritish niyatida mana shu urushqoq qabilalar ustiga o‘zi uchun fojiali yurush qilgan. Shu bepayon cho‘llarda forslar qo‘shinini dushman qurshab olgan va undagi janglarning birida Kayxusrav halok bo‘lgan. Gerodotning aytishicha, massagetlar malikasi istilochining tanasidan judo qilingan kallasini qon bilan to‘ldirilgan meshga solgan va “mana endi qonga to‘y,” deb xitob qilgan. Mahalliy an’analardan g‘olib chiqqan afsonada Qora dengiz

bo‘ylaridagi va Tog‘li Oltoy skiflariga qarindosh erkin sak qabilalarining doim istiloga intilgan bosqinchi fors podshosiga qarashlari ifoda etilgan.

Lekin Kayxusravning mag‘lubiyati va halokati Ahmoniylar davlatining kengayib borishiga to‘siq bo‘lmagan. Misrga bostirib kirish niyatida Kayxusrav tayyorlagan ishni uning o‘g‘li Kambiz (er.avv. 529-523 yillar) amalga oshirgan. U ham otasiga o‘xshab harbiy tadbirlar bilan birga diplomatiya usullarini ham ishlatishga harakat qilgan. Kambiz o‘zining qo‘shinlarini Falastinga to‘plab, Sinay sahrosi orqali Misr chegaralariga boradigan yo‘llarga egalik qiluvchi arablar bilan bitishishga kirishgan. Shu orqali u o‘z qo‘shinini tuyalarda tashiladigan suv bilan ta’min qilgan. Dengizda forslarning o‘z floti bo‘lmagan, ammo ular finikiyaliklarning va qisman yunonlarning kemalaridan to‘la foydalanganlar. Buning ustiga XXVI sulolaning so‘nggi fir'avnlari vaqtida dengiz kuchlariga qo‘mondonlik qilgan mansabdor xoinlik qilgan degan gap ham bor. Bundan tashqari Misrdagi yunon yollanma askarlarining qo‘mondoni Fanat ochiqdan-ochiq Kambiz tomoniga qochib o‘tib, unga g‘oyat katta xizmatlar ko‘rsatgan. Fors qo‘shinlari Misr chegaralariga yaqinlashib qolgan paytda Misrning g‘ayratli fir'avni Amasis to‘satdan o‘lib qolgan.

Mana shu hamma noqulay vaziyatlarga qaramay, Misr qo‘shinlari Pilusiya yonidagi chegara janglarida istilochilarga qattiq qarshilik ko‘rsatganlar. Shundan 70 yil o‘tib Gerodot shu yerga kelib jang maydonini tomosha qilgan va unda g‘oyat ko‘p o‘ldirilgan kishilarning suyaklarini ko‘rgan. Forslar bu jangda Misr askarlarining mardligini bukishga muvaffaq bo‘lganlar, keyin ularning muvaffaqiyatiga hech nima to‘sqin bo‘lmagan. Memfis bosib olingan va Amasisning o‘g‘li fir'avn Psammetix III faqat bir necha oy podsholik qilib asir tushgan (keyinroq qatl qilingan).

Kambizning Efiopiyani bo‘ysundirishga urinishi muvaffaqiyatsiz bo‘lgan. U tabiiy g‘ovlardan o‘tolmagan va o‘z mustaqilligini himoya qilayotgan aholining qattiq qarshiligini sindira olmagan.

Fors davlatining o‘zida ham muammolar tug‘ilgan. Kayxusrav vaqtida qilingan eski patriarxal odatlar bilan Kambizning hisoblashmay qo‘yganligidan va uning mustabidlik xatti-

harakatlaridan harbiy zodagonlar doirasida norozilik tug‘ila boshlagan. Kambiz o‘zining ukasi Bardiyani xoinlikda shubha qilib, fitnachilar unga tayanib ish ko‘radi deb o‘ldirishga maxfiy buyruq bergan. Ammo bu hol voqeaning tezlashishiga sabab bo‘lgan, xolos. Shahzodaning o‘ldirilganini deyarli hech kim bilmagan va tashqi ko‘rinishi Bardiyaga juda o‘xshagan Gaumata degan bir midiy kohin bundan foydalanib, qo‘zg‘olonga boshchilik qilgan. Fors davlati, Midiya va boshqa mamlakatlar uning tomoniga o‘tgan.

Kambiz qo‘zg‘olonni tinchitish niyatida shosha-pisha Misrdan vataniga jo‘nagan, lekin qaytishda juda sirli va shubhali vaziyatda halok bo‘lgan (ovozalarga ko‘ra, u tasodifan qoqilib o‘z xanjariga o‘zi qadalib o‘lgan emish).

Lekin Bardiya nomini olgan Gaumata mamlakatni uzoq vaqt idora qila olmagan. U istilo qilingan mamlakatlar aholisiga tayanib ish ko‘rgan, ularni bir necha yil oldin soliqlardan ozod qilgan. Biroq Eronning o‘zida qarshilikka duch kelgan va agar unga dushman (Behistun yozuvlarini yozgan) yilnomachilarning gapiga ishonadigan bo‘lsak, u bir qancha zo‘rliklar qilgan, qabila ibodatxonalarini vayron qilgan.

Fors harbiy zodagonlari orasida yangi podshoning qallobligi to‘g‘risida ovozalar tarqalib ketgan. Yettita mansabdor fitna uyushtirib, natijada Gaumata o‘ldirilgan. Fitnachilar taxtni Ahmoniylar xonadonining urug‘-aymog‘idan bo‘lgan Gistaspning o‘g‘li Doroga topshirishgan. Doroning taxtga ega bo‘lish huquqi to‘g‘risida qarshiliklar va bahslar bo‘lgan, ana shu bahs va qarshiliklarni bartaraf qilib, taxtga bo‘lgan huquqini mustahkamlash uchun u Kayxusravning qiziga uylangan.

Doro I (er.avv. 522-486 yillar) hukmronligi davrida Ahmoniylar davlati. Doro I taxtga o‘tirishi bilanoq mamlakatning turli burchaklarida (Bobilda, Elamda, Lidiya va boshqa joylarda) boshlangan qurolli qo‘zg‘olonlarga qarshi shiddatli kurash olib borishga majbur bo‘lgan. Eramizdan avvalgi 522 yil butunlay o‘sha qo‘zg‘olonlarni

bostirish bilan o‘tgan.

Doro I taxtga mustahkam o‘tirib olgach, ko‘p qabilali davlatning butun boshqarish tizimini qayta qurishga kirishgan, ma’muriy va moliyaviy ishlarga doir bir qancha islohotlar o‘tkazgan. U mamlakatni 20 ta satraplikka bo‘lgan. Har birining tepasiga noib (satrap) qo‘yilgan. Bu viloyatlarda joylashtirilgan qo‘shin qismlariga alohida harbiy boshliqlar qo‘mondonlik qilishgan. Shu bilan birga, satraplar bilan harbiy boshliq-

larning bir-biri ustidan chaqimchilik qilishlari rag‘batlantirilgan. Har ikkalasining ham chaqimchiligi, ularni o‘z vazifalarini vijdonan halol bajarganliklarining alomati hisoblangan.

Bundan tashqari butun mamlakatga “podshoning ko‘zi va qulog‘i” deb g‘alati nom olgan nazoratchilar yuborilgan. Istagan bir kishi ustidan shubha tug‘ilishi bilanoq ushlab olinib, hatto satrap bo‘lsa ham qatl qilinishi mumkin bo‘lgan.

Juda keng davlatning turli qismlari o‘rtasida aloqani osonlashtirish maqsadida tosh terilgan keng yo‘llar qilingan[78].

Bu yo‘llarning eng kattasi (Persepol, Ekbatan va Bobil bilan bir qatorda Ahmoniylarning rezidentsiyasiga aylantirilgan) Suza (Elamning sobiq poytaxti)dan Egey dengizi qirg‘og‘odagi yunonlar koloniyasi Efesga olib borgan. Bu yo‘llarda bir-biriga yaqin ot bekatlari qo‘yilgan. Chopqir ot mingan chavandozlar podshoning xatlari va posilkalarini (estafeta tartibida) bir bekatdan ikkinchisiga olib borganlar.

Doro I ning Persopoldagi saroyi

Soliqlar tizimiga alohida e'tibor berilgan. Doro I ni “savdogar” deb ataganlari bejiz emas. Avvalgi tasodifiy va tartibsiz yig‘imlar (“tortiqlar”) o‘rnida ham pul bilan ham mahsulot bilan to‘lanadigan badallarning aniq miqdori belgilangan. Mamlakatning fors qabilalari joylashgan asosiy qismi Persidadan boshqa butun manzilgohga xiroj solingan. Xirojning umumiy miqdori 1400 talant (400 tonna) kumushga yetgan. Uning eng

[78]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York.. 2011, r.137.

og‘ir qismi eng boy satrapliklarga, ya’ni Bobil bilan Misr o‘lkalariga tushgan.

Soliqlarni to‘plash uchun vositachilardan foydalanganlar. Bu olg‘ir korchalonlar soliqlarni sotib olib tegishli pulni oldindan xazinaga topshirganlar, keyin aholidan ortig‘i bilan shilib olganlar. Bobildagi savdogar-sudxo‘r “Murashu xonadoni“ ning yirtqichliklari to‘g‘risidagi hujjat saqlangan. Bu korchalonlar kompaniyasining vakillari fors amaldorlariga ochiqdan-ochiq pora berganlar. Uning evaziga amaldorlar talangan aholining shikoyatlarini natijasiz qoldirganlar.

O‘z davlatining turli qismlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqa’larni kuchaytirish savdo-sotiqni va pul xo‘jaligini jonlantirishni ko‘zlab, Doro I Lidiya va Gretsiyadagi kabi tanga pul tartibini o‘rnatgan. Oltin darik (8 gramm oltin) asosiy tanga pul bo‘lib, uni faqat podsho zarb qildirgan (kumush tanga pullarni esa satraplar ham zarb qildirishi mumkin bo‘lgan).

Doro I g‘ayrat bilan samarali tashqi siyosat olib borgan. U bir zamonlar Kayxusravni tor-mor qilgan sak-massagetlarni yengishga muvaffaq bo‘lgan va O‘rta Osiyoga chiqadigan yo‘lni ochgan.

Keyinchalik, Gerodotning aytishicha, fors podsholari Amudaryodagi shlyuzlarni o‘z qo‘llariga olganlar va bu ularga dehqonlarni suvdan mahrum qilish bilan qo‘rqitib, ulardan “tortiq” lar olib turishga imkon bergan.

Doro I sharqda Hindistonning bir qismini (Hind havzasidagi qismini), g‘arbda esa, Kirenaikani (Afrikada) Egey dengizidagi ba’zi orollarni (jumladan, Samos orolini), shuningdek, Frakiya bilan Makedoniyani o‘ziga bo‘ysundirgan. Ammo Qora dengiz bo‘yidagi skiflarni va Yevropadagi yunonlarni ham o‘z hukmronligi ostiga olish yo‘lidagi intilishlari tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchragan va bu Ahmoniylar davlatining zaiflashishi tamomila burilish payti bo‘lgan.

Er. avv. 559 yilda fors podshosi bo‘lgan Kayxusrav II keyingi ikki yil davomida Parfiya va Girkaniyani bosib oladi. Er. avv. 545 va 539 yillarda Kayxusrav hozirgi Afg‘oniston, O‘rta Osiyo yerlarini bosib oladi. Fors davlat manzilgohi Hindistonning shimoliy-g‘arbiy chegaralarigacha, Hindikushning janubiy

yonbag‘irlari va Sirdaryo havzalarigacha yetdi. Kayxusrav shimoli-sharqiy yo‘nalishlarda o‘z ta’sirini mustahkamlagach, Bobilga yurish qiladi. 539 yilda ikki oy davomida avgust-sentabr oylari Bobil yerlari bosib olinadi. Bobil podsholigi rasman saqlab qolinadi, uning ijtimoiy tuzilmasi o‘zgartirilmaydi. Bobil shahri fors podsholari turadigan qarorgohlardan biriga aylanadi. Bobil davlat apparatida bobilliklar yetakchi o‘rinda qolaveradi, bobilliklarning qadimgi diniy e'tiqodlariga fors podsholari homiylik qiladilar. Amalda Bobil mustaqil siyosiy birlashmadan, Ahmoniylar satrapiyasiga(viloyatiga) aylanadi, mamlakat mustaqil siyosat yuritishdan mahrum bo‘ladi, ichki siyosatda oliy harbiy va ma’muriy hokimiyat fors podshosi noibi qo‘lida edi.

Bobil bosib olinganidan so‘ng, barcha g‘arbiy mamlakatlar (Suriya, Falastin, Finikiya) Misr chegarasigacha forslar qo‘liga o‘tadi. Finikiya, Bobil va Kichik Osiyoning savdo-hunarmandlar qatlamlari tranzit savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlaydigan kuchli markazlashgan davlatdan manfaatdor bo‘lganlar. Shu sababli ular fors davlatini qo‘llab-quvvatlaydilar.

Kayxusrav Yaqin Sharqdagi Misr chegaralarini bosib olgach, fors davlatining shimoli-sharqiy chegaralari xavfsizligiga jiddiy xavf solib turadigan O‘rta Osiyodagi ko‘chmanchi qabilalar ustiga yurish boshlaydi. Kayxusrav er. avv. 530 yilda Amudaryoning shimoliy qismiga o‘tadi. Massaget qabilalari fors bosqinchilarini o‘z yerlarida tor-mor qiladilar. Kayxusrav ham bu jangda halok bo‘ladi.

Er. avv. 530 yil avgust oyida fors taxtiga Kambiz (Kombiz) o‘tiradi. Misr ichki nizo-g‘alayonlar girdobida qolgan edi. Forslar Misrga yurish qilib, uning qo‘shinini tez tor-mor qiladilar. Flot urushsiz taslim bo‘ladi, fir'avn Psammetix asirga tushadi. Bu voqea er. avv. 525 yilda yuz beradi.

Misrni bosib olgach, Kambiz Efiopiyaga qarshi urush boshlaydi. Yetarlicha oziq-ovqatga ega bo‘lmagan qo‘shin suvsiz sahroga tushib qoladilar. Qo‘shinda odamxo‘rlik boshlanib, Kambiz chekinishga majbur bo‘ladi.

Kambiz Memfisga qaytib, Misrda boshlangan qoʻzgʻolonni bostiradi. Kambizning vorisi Dor I ning Behistun qoya yozuvlarida bayon qilingan rasmiy farazlariga koʻra, Kambiz Misrga kelguniga qadar oʻzining ukasi Bardiyadan shubhalanib, uni maxfiy ravishda oʻldirishga buyruq beradi. Mag[79] Gaumata ismli kimsa bundan foydalanib, oʻzini Bardiya deb e'lon qiladi va u 522 yil 2 martda Bardiya nomi bilan taxtga oʻtiradi. Bardiya Gaumata qaram xalqlarni oʻziga moyil qilish uchun soliq va harbiy majburiyatlarni uch yilga bekor qiladi. U fors urugʻ-zodagonlarining imtiyozlarini bekor qilish, ularning iqtisodiy va siyosatdagi hukmronlik oʻrnini tugatish siyosatini yuritadi. Shu sababli u mamlakatdagi keng xalq ommasining qoʻllab-quvvatlashiga erishadi.

Hozirgi tadqiqodchilarning fikriga koʻra, Gaumata toʻgʻrisidagi faraz yolgʻon, hokimiyatga haqiqiy Bardiya kelgan. U yetti oylik boshqaruvdan soʻng, 522 yil 29 sentabrda yetti fors urugʻi aslzoda vakillari boʻlgan fitnachilar tomonidan oʻldiriladi. Fitnachilardan biri 28 yoshli Doro 1 (er. avv 522-486 yillar) podsho boʻladi. U urugʻ aslzodalari oliy tabaqasiga mansubligi tufayli Bardiya bekor qilgan imtiyozlarni qayta tiklaydi. Doro 1 taxtga oʻtirishi bilan unga qarshi Bobilda koʻtarilgan qoʻzgʻolonni bostirayotgan bir vaqtda Fors, Midiya, Elam, Margʻiyona, Parfiya, Sattagidiya (hozirgi Afgʻonistonda) Oʻrta Osiyoning sak qabilalari va misrliklar qoʻzgʻolon koʻtaradilar. Forsda oʻzini Bardiya deb e'lon qilgan Vaxayazdata nomli kimsa Doroga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarib, sharqiy Eron viloyatlari va Afgʻonistongacha boʻlgan manzilgohlarni bosib olgan. Er. avv 521 yil 16 iyulda Doro Vaxayazdata qoʻshinlarini tor-mor qilgan.

Midiyada oʻzini Midiya podshosi Kiaksar urugʻidan deb hisoblagan Fravartish (Fraorti II) hokimiyatni qoʻlga oladi. Doro bu qoʻzgʻolonni ham bostiradi. Er. avv. 521-yil yoziga kelib Doro qoʻshinlari besh jangdan soʻng, Afgʻonistonni tinchlantiradi. Doroning qaynotasi Dadarish Parfiya va Girkaniyadagi gʻalayonlarni bostirgan. Bu vaqtda Bobilda soʻnggi qoʻzgʻolon boshlanib, er. avv 521 yil 27 noyabrigacha davom etadi. Doro II

[79] Mag (mag) — qadimgi Eronda, ayniqsa Axamoniylar davrida, zardushtiy diniga aloqador boʻlgan ruhoniylar tabaqasi vakillariga nisbatan qoʻllanilgan atama.

taxtga chiqqanidan so‘ng bir yil o‘tgach, o‘z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Fors davlatini Bolqon Yunonistonida g‘olibona boshlagan urushi Kserks (er. avv 486-465-yillar) uchun mag‘lubiyat bilan tugaydi. Er. avv. 449 yil “Kalliy” sulhiga ko‘ra forslarni Yevropadagi mulklari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlaridan voz kechildi. U Kayxusrav, Kambiz hukmronligi davridagi eski chegaralarda qayta tiklandi. Keyingi podsholik davrida ichki ziddiyatlar, satraplarning o‘zboshimchaligi, O‘rta Osiyo saklarining ajralib chiqishi yuz berdi. Lekin davlat chegaralari o‘zgarmay qolaverdi. Faqat er.avv. IV asrda g‘ayratli Artakserks III er.avv 404 yilda ajralib ketgan Misrni er.avv 343-342-yillarda yangidan bosib oldi. Kichik Osiyodagi yunon shaharlari ustidan yana nazorat tikladi. So‘nggi Eron podshosi Doro III juratsiz, qo‘rqoq er.avv. 334-330-yillarda yunon-makedonlar hujumini qaytara olmadi. U Issa yonidagi jangda (er.avv 333-yil) va Gavgamela yonidagi hal qiluvchi ikki jangda Iskandardan yengildi. Doro III yengilgach, Baqtriyaga qochib ketdi va u yerda o‘z yaqinlari tomonidan o‘ldirildi. Shu bilan Ahmoniylar Eroni davlati quladi. Satrapliklar ro‘yhati Behistun qoyatoshlari va boshqa qadimgi fors yozuvlarida keltirilgan. Ularda 23 mamlakat sanalgan. Gerodot Tarixida yigirma satraplik keltirilgan. Gerodot 20 satraplik tarkibigada Ahmoniylar davlati tarkibigaga kirgan 70 ta shaharni sanaydi. Gerodot va Ahmoniylar yozuvlaridagi farqlarning mavjudligining sababi satrapliklar soni va chegaralari yangi bosqinchilik urushlari yoki ma’muriy islohotlar natijasida o‘zgarib turgan. Fors podsholari muntazam ravishda satrapliklarni bo‘lib turganlar, ularning soni oshib, manzilgohlarning hajmi kichraygan. Misol uchun Doro II davrida Kichik Osiyo to‘rt satraplikka, Doro III davrida yetti satraplikka bo‘lingan.

Satrap va harbiy boshliqlar markaziy hokimiyatni, podshoning va ayniqsa uning maxfiy xizmatini doimiy nazorati ostida bo‘lganlar. Chunki viloyatlar satraplari doimo mustaqillikka intilishga harakat qilib, ajralib chiqish xavfini tug‘dirganlar. Davlat boshqaruvi va barcha amaldorlar ustidan oliy nazorat Xazorapat deb atalgan mansabdor qo‘lida bo‘lgan. U bir vaqtni o‘zida «O‘n ming o‘lmas» podsho shaxsiy gvardiyasining boshlig‘i bo‘lgan.

Bu imperiya markazlashgan va juda madaniyatli edi. Forslar ishonishgan, bo‘ysundirilgan xalqlar teng bo‘lgan, faqat bir talabi ular qirolga sadoqatli bo‘lishi va o‘lpon to‘lashi kerak bo‘lgan. Mahalliy fors ma’murlari mahalliy tillardan foydalanishiga qaramasdan, o‘sha paytda oromiy yozuvi (uzoq G‘arbiy Osiyoda so‘zlashadigan semit tili shevasi) imperiyaning davlat tili bo‘lgan. Chunki o‘qimishli ulamolarning ko‘pchiligi Mesopatamiyadan kelgan. Ular pergament va papirusga oromiy yozuvida yozishgan va undan foydalanish tez tarqalgan[80].

Fors podsholigi qudratining asosini fors va midiyaliklar tashkil qilgan jangovar qo‘shin belgilagan. Qo‘shinnig jangovar qobiliyatini tashkil qilishda fors va midiyaliklardan tashqari O‘rta Osiyoning sak jangovar qabilalari, baqtriyaliklar muhim o‘rin tutganlar. Saklar asosan imtiyozli otliq qo‘shinlarda xizmat qilganlar. Harbiy qal'a, garnizon, tayanch manzilgohlarda odatda oliy harbiy mansabni forslar egallaganlar. Qo‘shin otliq va piyoda qismlardan tashkil topgan. Otliq qismlar, zodagonlardan, piyodalar dehqonlardan olingan. Bu ikkala qismlarning uyg‘un harakati urushlarda g‘alabani qo‘lga kiritishga sabab bo‘lar edi. Piyoda qo‘shining asosiy quroli kamon, suvoriyning qurol-aslahasi temir sovut, jez qalqon va ikki temir nayza bo‘lgan.

Misr Yunonistonga g‘alla, polotno eksport qilib, vino va zaytun moyi sotib olgan, boshqa viloyatlarni oltin, fil suyagi bilan ta’minlagan. Hindistondan oltin, fil suyagi, xushbo‘y moylar, Arabistondan oltin, So‘g‘diyonadan lazurit, serdolik, Xorazmdan feruza chiqarilgan. Bolqondagi yunon shaharlari kulolchilik mahsulotlari, Bobil g‘alla, Kichik Osiyo temir va boshqa rudalarni ishlab chiqarardi. Xalqaro dengiz savdosi finikiyaliklar qo‘lida qoladi.

Qadimgi jamiyatda qullar mehnatidan foydalanish yuqori darajada edi. Qullar oldi-sotdi qilingan va turli ishlarda ishlatilgan. Asir qullar soni juda ko‘p edi, fors podsholarining markazlashgan yirik xo‘jaliklarida ishlaydigan ishchilar (kurtashlar deb atalgan), boshqa joylardan qul qilib olib kelingan. Kurtashlarning bir qismi davlat fuqarosi deb hisoblangan.

[80]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r. 137.

Ahmoniylar davlati uchun turli xalqlarning madaniyati va diniy qarashlarni sinkretizmi xarakterli edi. Mamlakat turli manzilgohlarining doimiy iqtisodiy - ijtimoiy va siyosiy aloqasi, madaniyatlarining o‘zaro ta’siriga ijobiy turtki beradi. Turli xalqlarning yagona davlat manzilgohida yashab turishi xalqlarning, ilmiy bilimlari, san'at va adabiyotlarning bir-birini boyitishiga olib keladi.

Forslar va boshqa xalq-elatlar Bobil, Misr va Elamning qadimiy madaniyatlarini o‘zlashtirib oladilar. Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o‘ziga xos mixxatning yaratilishi bo‘lgan. Fors mixxati akkad alifbosidan farq qilgan holda bor-yo‘g‘i 40 belgidan iborat bo‘lib deyarli alifboli yozuv bo‘lgan.

Qadimgi fors san'ati, Eron madaniyati an'analari Bobil, Misr, Ossuriya va boshqa xalqlarning badiiy an'analari va texnika usullarining sintezi edi. Qadimgi fors san'ati namunalari ishida nozik did bilan toshdan ishlangan vazalar, metall qadah, fil suyagidan yasalgan riton qadahlar, zeb-ziynat buyumlari, lazurit haykallar mavjud. Badiiy buyumlar ishida agat, xalqidon, yashma kabi qimmatbaho toshlardan ishlangan tsilindrsimon muhrlarda podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Ular nihoyatda mohirlik bilan yasalgan bo‘lib, haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Fors san'atida, ayniqsa o‘simlik va hayvonlarni hayotiy tasvirlari bo‘lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi

Qirol atrofida kuchli merosiy fors zodagonlari bo‘lgan, ularning qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu odamlar kata yer egalari edi va ular ko‘pincha satrap yoki maslahatchi sifatida qirolga xizmat qilganlar. Bundan tashqari, savdogarlar ham imperiya bo‘ylab savdo qilishda shohning yaqin kishilari edi[81].

Ahmoniylar davlatining madaniyati. Ahmoniylar davlati tarkibigada xilma-xil madaniy yutuqlarga ega bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p xalqlar bo‘lgan. Forslar hukmron xalq bo‘lib olib, bu madaniy xazinadan keng foydalanganlar.

Shu bilan birga ular bu madaniyatlarni ijodiy ravishda qayta ishlab o‘zlashtirganlar. Forslar mixxatni o‘zlashtirganliklari va

[81]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r. 139.

takomillashtirganliklari to‘g‘risida gapirgan edik. Ular mixxatdagi juda ko‘p ortiqcha alomatlarni yo‘qotib faqat 42 alomat qoldirganlar. Idoralardagi (ko‘nga, papirusga, sopol taxtalarga yoziladigan) yozishmalar uchun oromiylarning alifbosini ishlatganlar.

Er. avv. VI va V asrlarda Xitoyga buddizm, hinduizmni Hindistonga kirib kelishi bilan Forsda zardushtiylik falsafa madaniyati Misr davlatlariga kirib kelgan. Bu madaniyat imperiyadan-imperiyaga o‘tish davrida o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Fors podsholari o‘sha davrda eng o‘tkir deb hisoblangan Misr tabiblarini o‘zlarining xizmatiga jalb qilganlar. Ammo Doro I podsholik qilgan davrda Misr tabiblari o‘rniga yunon tabiblari keltirila boshlangan.

Forslar Bobil va yunonlarning kalendar hisobi bilan tanish bo‘lgan, degan ma’lumot bor. Yuqorida aytib o‘tilgan “Avesto” Eron tili guruhi xalqlarining ajoyib badiiy asaridir, u O‘rta Osiyoda vujudga kelib, keyinchalik Midiya va Persiyaga tarqalgan, shu bilan birga, dastlabki nusxasiga (Gatiga) ko‘p qo‘shimchalar qo‘shilib borilgan.

“Avestoda” targ‘ib qilingan diniy ta’limot qadimgi payg‘ambar Zaratushtra (yoki yunonlar ataganicha Zoroastra)ga mansub deyilgan, ammo uning to‘g‘risida bizga hech nima ma’lum emas. Bu ta’limotning mohiyati ikki ilohiy manbani, yaxshilik xudosi Axuramazda bilan yovuzlik xudosi Ahrimanni bir-biriga qarama qarshi qo‘yishdan iborat.

Axuramazda uy hayvonlari va madaniy o‘simliklar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan tinch mehnat homiysidir. Uni aziz bilganlar yerga ishlov berishi, chorva mollarini ko‘paytirishi, yovvoyi hayvonlarni yo‘q qilmog‘i kerak. Ahriman inson ijodiy faoliyatining dushmani, yirtqich hayvonlarning homiysi, urushqoq ko‘chmanchilarning tinch hayot kechiruvchi o‘troq aholini talashiga ko‘maklashuvchi qilib ta’riflanadi.

Zorastra dinining xarakterli alomati shuki, bu din murdani yerga ko‘mishni ham, kuydirishni ham taqiqlaydi. “Murda yerni va o‘tni xarom qiladi” deb hisoblangan. O‘liklarni yirtqich qushlarga yem qilib tashlash lozim ko‘rilgan. Hindistonda, Bombeyning bir o‘lkadagi uncha katta bo‘lmagan fors mazhabi hozir ham shu

odatni saqlaydi. “Avesto” matnini ham huddi o‘sha forslar saqlaganlar.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Ahmoniylar Axuramazdani aziz bilganlari holda “Avesto”ni tan olmagan bo‘lsalar kerak. Qadimgi fors podsholarining hech bir yozuvida Zaratushtra tilga olinmaydi. Shuningdek, fors podsholarining (Kayxusravdan boshlab) maqbaralari saqlangan, bu esa „Avesto”ning taqiqiga hech ham to‘g‘ri kelmaydi. Zorastrizm faqat Parfian va Sosoniylar podsholigi vaqtidagina davlat dini bo‘lgan.

Doro I ning o‘g‘li va taxt vorisi Kserks vaqtida diniy islohot qilishga urinilgan. Devlarga ibodat qilish taqiqlangan, Axuramazda forslarning birdan-bir samoviy tangrisi deb e'lon qilingan.

Lekin bu monoteistlik (bir xudolik) g‘oyasi qaror topmagan va Kserks vorislari vaqtida quyosh xudosi Mitra bilan hosildorlik ma’budasi Anaxitga sig‘inish keng yoyilgan. Ahmoniylar san'atining yodgorliklari sinkretizm xarakteridadir. Doro I ning Persepoldagi saroyini qurishda Bobil, Misr, Lidiya va boshqa qaram mamlakatlarning ustalari ishlagan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Eron tabiati va aholisi haqida ma’lumot bering.
2. Qadimgi Eronda ilk davlatlarning paydo bo‘lish shart-sharoitlarini tushintirib bering.
3. Eron tarixiga oid manbalar va ularning tavsifi nimadan iborat?
4. Eron tarixi tarixshunosligini yoritib bering.
5. Elam davlati va uning shakllanish jarayonlari haqida fikr yuriting.
6. Midiya davlati va uning taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
7. Kiaksar va Astiag davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahvol qanday edi?.
8. Ahmoniylar davlatining boshqaruv tizimi to‘g‘risida fikr yuriting.
9. Doro I davrida olib borilgan istilochilik yurishlari va geografiyasi.

10.Qadimgi Eron madaniyati va uning jahondagi tutgan o‘rni.

11.**Keys savoli:** Ahmoniylar imperiyasi qudratini qanday mustahkamladi va yirik hududlarni boshqarishda qanday strategiyalar qo‘lladi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

13-MAVZU.QADIMGI HINDISTON

Reja

1. Qadimgi Xindiston tabiiy sharoiti va aholisi
2. Manbalar tahlili
3. Eng qadimgi Hindiston.
4. Er. avv. XV-VII asrlarda qadimgi Hindiston.
5. Buddizm va uning tarixiy roli.

Qadimgi Xindiston tabiiy sharoiti va aholisi. Hindiston hududining hajmi va aholisining soni jihatidan qadimdan Osiyoning eng katta mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Hindistonning g‘oyat katta qismi ulkan bir yarim orol, deyarli bir materikdan iborat bo‘lib, okean va dunyoda eng katta tog‘ tizmasi bo‘lmish Himolay tog‘lari uni dunyoning boshqa qismlaridan ajratib turadi. Bir necha tog‘ yo‘llari, dara va vodiylar, xususan, Qobul daryosining vodiysi orqaligina Hindiston qo‘shni mamlakatlar bilan tutashgandir.

Yog‘ingarchilikning yetarli bo‘lmasligi qadim zamonlardayoq aholini sug‘orib ekin ekishga majbur etgan, Shimoliy Hindistonning tumanlari sersuv Hind, Gang daryolari va uning irmoqlaridan yaxshi suv ichgan bo‘lib, bu yerda sug‘orib ekin ekish ayniqsa keng yoyilgan.

Hindiston inson xayoti uchun zarur tabiiy boyliklar bilan juda yaxshi zamin etilganligidan, chetdan mahsulot olib kelishgan extiyoj bo‘lmagan. Mamlakatning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyat darajada boy.Bunda arpa bilan bug‘doydan tashqari qadim zamonlardayoq sholi yetishtirganlar. Bundan tashqari Hindiston paxta,shakarning ham vatani hisoblandi.

Qadimgi Hindistonda hayvonlarning mahalliy turlarini qo‘lga o‘rgatganlar (masalan, o‘rkachli ho‘kiz – zebura Ikki daryo oralig‘iga va Misrga Hindistondan olib kelingan). Fillar ham dastlab Hindistonda qo‘lga o‘rgatilgan va ular asosan harbiy ishda foydalanilgan. Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan e’tiboran Yevropa xalqlari kuchli jangovor fillarni jangda ishlatishni hindlardan o‘rgana boshlaganlar.

Ikki azim daryoning vodiylari Hindistonning eng qadimgi dehqonchilik zonalaridir. Biri - 5 irmog‘i (Panjob) bo‘lgan Hind daryosining vodiysi bo‘lsa, (o‘sha 5 ta irmoq oti bilan vodiyga ham Panjob deb nom berilgan), ikkinchisi, bir qancha irmog‘i bo‘lgan Gang daryosining vodiysidir. Keyinchalik qishloq xo‘jaligi mamlakatning janubida ham rivoj topgan[82].

Aholisi. Eng qadimgi hind adabiy yodgorliklari, shuningdek, antik dunyo avtorlarining guvohliklari qadimgi Hindiston aholisi nihoyat darajada zich bo‘lganligi haqidagi xotiralarni saqlab qoldirgan. Hindiston aholisining etnik tarkibi qadimda (hozirgidek) juda xilma - xil bo‘lgan. Janubda qora balandlik qabilalar ko‘pchilikni tashkil etgan. Mamlakatning eng qadimgi aholisi dravit tilida, qisman undan ham burungi, dravitdan oldin o‘tgan mund tili va boshqa tillarda so‘zlashgan. Janubiy Osiyoning hozirgi aholisining katta qismi asosiy yevropoid irqiga mansubdir. Faqat yarim orolnig janubiy qismi va Shri-Lankaning aholisi irqiy belgilariga qarab (badani, sochining qora rangi va boshqalar) avstroloidlarga yaqin turadi. Shimoli sharqning qator qabilalari janubiy mongoloid irqiga mansubdir.

Shimolda Hind-Yevropa tillari (hind, bengal va boshqalar), janubda dravid (masalan, tamil.) tillarida so‘zlashadilar.

Janubiy Osiyoga xos jihat taraqqiyotning merosiyligi va davomiyligidir. Qadimgi va o‘rta asrlarda bu yerda keskin etnik o‘zgarishlar yuz bermadi. Ijtimoiy munosabatlarda kasta tuzumi va madaniy an'analarning barqarorligi ko‘rinib turadi. Qadimgi Hindistonning ko‘pgina asarlari hozirgacha hinduizm va buddizmning muqaddas kitoblari hisoblanadi. Yozma manbalar bizgacha juda ko‘plab yetib kelgan.Qadimgi Hindiston aholisi xilma-xil bo‘lgan, antik davr yunon tarixchilarining asarlarida ham, qadimgi hind eposida, jumladan, “Maxabxarata” da ham ko‘rsatilgandir.

Chitaldrug yonida (Janubiy Hindistondagi Maysorda) o‘tkazilgan qazishlar vaqtida ustma-ust taxlangan oltita madaniy qatlam topilgan, bu qatlamlarning pastkisidan er. avv. IV ming yillikka oid tosh qurollar va geometrik ornamentli keramika, yuqorigi qatlamdan esa eramizning XIII asriga oid buyumlar

[82]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.148..

chiqqan. Bu hol ayrim madaniy qal'alarning eng qadimdan mavjud bo‘lganligini hamda Hindistondagi qabila va xalqlarning madaniyati mustaqil ravishda rivojlanib kelganligini ko‘rsatadi. eramizdan. avv. 2500 yilda Hindiston Pokistonda Hind daryosi bo‘ylab Harappa sivilizatsiya (Shaharlar so‘zidan)si kirib kelgan[83].

Manbalar. Dunyodagi eng katta mamlakatlardan biri bo‘lgan Hindistonning qadimiyati haqida ma’lumot beradigan manbalar juda ko‘pdir. Tadqiqotlar taxlili shuni ko‘rsatadiki, qadimgi Hindistonda katta davlatlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beruvchi eng qadimgi yodgorliklar er. avv. III ming yillikka oiddir. Qazishlar vaqtida shu narsa aniqlandiki, Hindiston tarixining shu davridayoq Hindistonda katta shaharlar mavjud bo‘lgan, mamlakatda o‘ziga xos ieroglif yozuviga ega bo‘lgan qabilalar yashagan. Qadimgi Hindiston madaniyati ravnaq topib, er.avv. 1 ming yillikda eng yuksak darajaga yetgan. Qadimgi hind madaniyati qo‘shni xalqlarning madaniy taraqqiyotiga anchagina ta’sir ko‘rsatgan, bunga, xususan, Osiyodagi ko‘p mamlakatlarda buddizmning yoyilganligi dalildir.

Qadimgi Hindistonning tarixini o‘rganishda qadimgi hindlarning Vedalar deb ataladigan diniy to‘plamlari katta ahamiyatga egadir

Qadimgi Hindistonning bu muqaddas kitoblari er. avv. ikkinchi ming yillikka oid bo‘lib, Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to‘rtta katta to‘plam (samxita)dan iboratdir[84].

To‘rtinchi to‘plam, ya’ni Atxarvaveda eng keyin vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik dastlabki uch to‘plam qatoriga kirgan. Bu to‘plamlarning eng qadimiysi Rigveda bo‘lib, u xudolarga bag‘ishlangan diniy madhiya (gimn)lardan iboratdir.

Vedalarning qayin po‘stlog‘iga va palma barglariga yozilgan eng qadimgi tekstlari saqlanib qolmagan. Eng qadimgi qo‘l yozmalar anchagina keyingi davrga, xristian erasiga yaqin paytga oiddir. Borgan sari tushunilishi qiyinlashib borgani tufayli, er. avv. VIII asrdan boshlab Vedalarga izohlar beriladigan bo‘lgan, bular

[83] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r. 13.
[84]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.150.

orasida diniy marosimlarni tushuntirib beruvchi «Braxmanlar», har xil diniy-filosofik fikrlardan iborat bo‘lgan.

Hindistonning er. avv. 1 ming yillikdagi tarixi va madaniyatini o‘rganishda ikkita katta epik doston — «Ramayana» va «Maxabxarata» muhim manba hisoblanadi. Bu manbalarda xalq og‘zaki badiiy ijodining ko‘p elementlari bor. Bu dostonlarning birinchisi — «Maxabharata» («Bxarata avlodlarining kurashi haqida buyuk qissa»)ning asosiy syujeti podsho urug‘laridan bo‘lgan kavrular va pandular degan ikkita qardosh urug‘ning oliy hokimiyatni talashib o‘zaro qilgan kurashi haqidagi qissadan iborat bo‘lib, uning avtori afsonaviy donishmand va shoir Vyasa hisoblanadi. Bu asosiy qissa birinchi marta er. avv. I ming yillikda tuzilgandir. Keyinchalik unga ko‘pgina qadimgi afsonalar, ertaklar, masallar, ibratli hikoyalar kiritilgan, bular ko‘p jihatdan xalq badiiy ijodi negizida vujudga kelgan.



“Artxashastra” degan siyosiy-iqtisodiy traktat qadimgi Hindiston tarixi yuzasidan eng qimmatli manba sifatida juda katta ahamiyagta egadir. Buni Maurya sulolasidan bo‘lgan podsho Chandraguptaning Qautilya nomli bir vaziri yozgan. Bu traktatda davlatni idora qilishning taraqqiy etgan tizimi mufassal bayon

etilgan bo‘lib, podsho va amaldorlarning faoliyati, davlatchilik negizlari, ma’muriy idora ishlari, sud ishlari, davlatning tashqi siyosati va pirovardida, o‘sha davrdagi harbiy san'at har taraflama tasvirlab berilgandir.

Asosan ilk buddizm davriga oid yozuvlar bir qadar kamroq ma’lumot beradi. Podsho Ashoka zamonasidan ko‘pgina yozuvlar saqlanib qolgan. Ashoka ediktlari deb atalmish bu yozuvlar diniy-axloqiy nasihatlarni hamda ilk buddizmni xarakterlovchi bir qancha faktlarni, butun Hindistonda buddizmning keng yoyilishini (Afg‘onistonning ayrim viloyatlari ham shuning ichiga kiradi), shuningdek, Ashokaning jo‘shqin diniy faoliyatini tasvirlaydi.

Er. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Hindiston davlatlari Eron, Gretsiya va Makedoniya bilan turli aloqalar bog‘lay boshlaydilar. Shu tufayli bu davrni o‘rganishda chet el manbalari, ajnabiylarning Hindiston haqida aytganlari katta ahamiyatga egadir. Chunonchi, Ahmoniylar zamonidagi eron yozuvlari, xususan, Behustun, Persepol va Naqshi Rustamdagi Doro yozuvlari shular jumlasidandir. Yunon tarixchilarining qadimgi Hindiston haqida yozgan asarlari ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Gerodot (er. avv. V asr) o‘zining katta tarixiy asarida Hindiston, uning aholisi, hind qabilalarining turli madaniy darajalari hamda Hindistonning Eron podsholigi bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari haqida bir qancha ma’lumotlarni bayon qiladi. Yunon geografi va siyosiy arbobi Megasfen ancha ko‘p material to‘plagan; Megasfenni Selevi Nikator Hindiston podshosi Chandragupta huzuriga elchi qilib yuborgan va u Hindistonda uzoq vaqt yashagan. Megasfen o‘zining «Indika» degan asarida Hindistonning iqtisodini, ijtimoiy va davlat tuzumini tasvirlagan va, eng muhimi, o‘zi yashagan davrdagi Hindistonning kasta tizimini ta’riflab bergan. Afsuski, Megasfen asarining o‘zi yo‘q bo‘lib ketgan va so‘nggi davrdagi yunon yozuvchilarining, asosan, Strabon va Arrianning kitoblarida bu asardan kichkina-kichkina parchalargina saqlanib qolgan.

Qadimgi Hindistonning geografiyasi, shuningdek, uning tabiiy boyliklari, aholisining urf-odatlari va shaharlari to‘g‘risidagi bir qancha qimmatli ma’lumotlar Strabonning katta tarixiy-geografik asarida (er. avv. I acp — eramizning I asri) saqlanib qolgan.

Strabonniig asari, ayniqsa, qimmatlidir, chunki bu asar undan oldin oʻtgan tarixchilarning - Megasfen, Nearx, Eratosfen va boshqalarning maxsus asarlariga asoslanib yozilgandir.

Qadimgi Hindiston toʻgʻrisida yozgan yunon yozuvchilarining asarlari orasida Arrianning bizning davrimizgacha saqlanib qolgan va Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlariga, jumladan, uning Hindistonga qilgan harbiy yurishiga bagʻishlangan «Anabazis» degan kitobi, shuningdek, bu kitobga qoʻshimcha qilingan va kichkina boʻlsa-da, lekin qadimgi Hindiston tarixi uchun muhim boʻlgan «Hindiston» degan asari ham katta ahamiyatga egadir. Arrian oʻz asarlarida Hindistonni juda yaxshi tasvirlaydi, oʻsha davrdagi Hindistonning iqtisodi va ijtimoiy tuzumi toʻgʻrisida maʼlumotlar beradi, jumladan, u sun'iy sugʻorish va kasta tizimini tasvirlaydi. Arrian koʻpgina muhim manbalardan, shu jumladan Lagning oʻgʻli Ptolemey bergan maʼlumotlardan, Aleksandr Makedonskiyning boshqa harbiy komandirlari bergan axborotlardan, makedon qoʻshinining Hindistondan dengiz orqali qaytishini tasvirlagan Nearx asaridan, shuningdek, yunon elchilarining er. avv. IV asrga oid hind hujjatlari asosida tuzgan yozuvlaridan, jumladan, Megasfen asarlaridan tanqidiy nazar bilan foydalangan. Arrianning asarlari eramizning II asrida yozilgan boʻlib, hozirgi zamon tekshiruvchilari uchun gʻoyat qimmatlidir. Ularda qadimgi Hindistonga doir koʻpgina qimmatli maʼlumotlar boʻlib, bu maʼlumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Nihoyat, qadimgi Hindiston tarixini oʻrganishda Xitoy tarixchilari va yozuvchilarining asarlari, jumladan Sim Szyanning xronologiyani aniqlash uchun muhim boʻlgan qimmatli asari, shuningdek, er. avv. II asrda yashagan Xitoy yozuvchilarining asarlari shubhasiz muhimdir.

Eng qadimgi Hindiston. Arxeologik topilmalarga qaraganda Hindistonda odamlar qadimgi tosh davridayoq yashaganlar. Mamlakatning bir qancha togʻlik joylarida Paleolit manzillari topilgan. Undan keyingi neolit bosqichlarida avvalari kishilar yashamagan katta daryolarning vodiylari oʻzlashtira boshlangan. Hindistonning gʻarbiy rayonlari tobora oldingi oʻringa chiqa boshlaganlar, bu yerlarda Eneolit davriga kelib va ayniqsa Bronza

davrida oʻziga hos proʻtoʻxind madanyati tarkib topkan, ularning asosiy markazlari (Panjobdan) va Mahenjodaro (sinda) xarobalari topilgan shaharlar boʻlgan. Hindistonda eng qadimgi shaharlar va davlatlar boʻlganligi haqida fikr yuritishga imkon beradigan eng qadimgi va eng muhim yodgorliklar Shimoli-Gʻarbiy Hindistondan, Hind daryosi havzasidan topilgandir. Mohenjodarodan (Sind viloyati) va Xarappadan (Panjob) qadimgi katta shaharlarning kattakon xarobalari chiqqan. Yana shunga oʻxshash bir qancha qal'alar Hind daryosining quyi oqimidagi havzadan, Belujistonning shu havzaga yaqin turgan tumanlaridan topilgan, eng shimoliy qal'a Setlaj daryosi boʻyidagi Rupara qishlogʻiga yaqin joydan topilgan.

Qadimgi Mohenjodarogi shahar xarobalari ayniqsa yaxshi saqlangandir, bu shahar juda katta maydonni, 260 gektarga yaqin yerni egallagan. Bu yerda oʻtkazilgan arxeologik qazishlar natijasida ustma-ust joylashgan 9 ta arxeologik qatlam topilgan, bularning eng pastkisi 12 metr chuqurlikdadir. Qazish natijalariga koʻra, Mohenjodaro shahri oʻsha zamondagi eng yirik shaharlardan biri boʻlgan. Bu yerdan juda koʻp koʻchalar va pishiq gʻishtdan qurilgan binolar topilgan, bu binolarning balandligi hozir ham 7,5 metrga boradi. Koʻchalari toʻgʻri, koʻpincha sharqdan gʻarbga va janubdan shimolga qarab parallel ketgan boʻlib, bu narsa shahar eng qadim vaqtdayoq bilib-netib rejalashtirib qurilgan deb fikr yuritishga imkon beradi.

Mohenjodarodagi shahar yirik hunarmandchilik va savdo markazi boʻlgan. Saroyda metallurgiya ustaxonasi uchun maxsus bir bino boʻlgan. Markaziy tepalikdan janubroqda birtekis qator ketgan mustahkam rastalardan iborat kattakon bostirmali bozor topilgan. Bu yerda katta bino (51 X41 m) topilgan, bu bino xoʻjalik jihatidan katta ahamiyatga ega boʻlganligi shubhasizdir, unda turli tovarlar, balki don yoki paxta saqlangan.

Xoʻjalikning eng muhim turlaridan biri dehqonchilik boʻlgan. Hind daryosi vodiysidagi juda koʻp dalalarda bugʻdoy va arpaning qadimgi navlari ekilgan, noʻxat, qovun yetishtirilgan, nihoyat, mato toʻqish uchun paxta yetishtirilgan. Xurmo mevalaridan ham foydalanilgan. Yerlar juda qoʻpol omochlar bilan ishlangan, bu omochlarning tishlari kremniy slanetsidan qilingan. Oʻrim vaqtida

mis oʻroqlar ishlatilgan. Donlar katta omborlarda saqlangan, bu omborlarning qoldiqlari Xarappadan topilgandir.

Mohenjodaro va Xarappa xarobalaridan koʻp miqdorda qattiq tosh, yumshoq, steatit, fil suyagi va sopoldan qilingan muhrlar topilgan boʻlib, bular tarixchilar uchun ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Bu muhrlarda muqaddas hayvonlarning (ayniqsa hoʻkizning) diniy suratlari va yozuvlar oʻyilgandir.

Bu yozuvlarga qaraganda, oʻsha davrda qadimgi Hindistonda misrliklarning eng qadimgi ieroglif yozuvi bilan shumerliklar yozuvini eslatuvchi suratli ieroglif yozuvi boʻlgan. Chex olimi B. Grozniy va boshqa tekshiruvchilar bu yozuvlarni oʻqib chiqishga urinib koʻrdilar, ammo ularni oʻqishning hali iloji topilgani yoʻq.

Er. avv. XV-VII asrlarda qadimgi Hindiston. Shimoliy Hindiston xududlariga bosqinchilik er. avv. II ming yillikning oʻrtalarida yuz bergan, shu sababdan baʼzi tadqiqotchilarlar buni Shimoliy Hindistonning oriy qabilalari tomonidan bosib olinishi deb hisoblaydilar. Oriylarning Shimoliy Hindistonni bosib olish voqeasi qadimgi Hindistonning tarixiy va adabiy qissalarida mustahkam saqlanib qolgan.

Shimoliy Hindistonni bosib olgan qabilalar er. avv. ikkinchi ming yillikning oʻrtalarida Hindikush va Pomir togʻlaridan tushib, Panjob va Gang daryosining yuqori havzasidagi unumdor tekisliklarga oʻrnashib olganlar. Bu qabilalar odatda oriy qabilalari deb ataladi. Qadimgi hind tilida (sanskritda) «oriy» («oriya») soʻzining, shuningdek qadimgi fors tilidagi «ayriya» soʻzining maʼnosi: «yaxshi oiladan», «aslzoda», «aristokrat» demakdir, xususan, bu— ijtimoiy termindir. Shimoli-Gʻarbiy Hindistonga bostirib kirib, mahalliy aholini boʻysundirgan istilochilar dastlab oʻzlarini shunday deb atagan boʻlsalar kerak. Rigvedada Shimoliy Hindistonning tub qabilalari «mlechxasa» (varvarlar) va «dasa» (dushman) deb yuritiladi. Keyinchalik «daoa» soʻzi «qul» degan maʼnoni anglatadigan boʻlib qolgan, bu istilochilarning Hindistonning boʻysundirilgan tub qabilalarining mehnatkash aholisining anchagina qismini qulga aylantirganligini koʻrsatadi. Shu davrdan boshlab, hindlarda ilgari maʼlum boʻlmagan temir qurollar ishlatila boshlangan. Temirdan bolta, belkurak, turli qishloq xoʻjalik, roʻzgʻor va jangovor qurollar ishlangan. Temir

tishli omochning paydo bo‘lishi dehqonchilikning rivojlanishiga katta yordam bergan. Natijada, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib aholi o‘rtasida tabaqalanishning kuchayishiga olib kelgan.

Hindistonda er. avv. I ming yillikning birinchi yarmida tepasida podsho turgan bir nechta davlatlar tashkil topa boshlagan. Mulkiy tengsizlikning kuchayishi jamoaning turli varnalarga – toifalarga bo‘linishiga olib kelgan. Bular braxmanlar, kohinlar, kshatriylar, vayshilar va shudralardir.

Klassik hind madaniyatida buddizm ham shakllangan bo‘lib, Hinduizm bilan ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lgan. Lekin buddizm hinduizmdan kasta tizimi tartibi, ilohiy qarashlari va marosimlarni bajarilishi jihati bilan farq qilgan. Buddistlar o‘zlarini to‘g‘ri yo‘ldamiz deb hisoblashgan[85].

Er. avv. VI – milodning V asrlarida Hindiston. Er. av. taxminan VI asrda Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq mayda davlatlar bo‘lib, bular orasida ikkita katta davlat: Magadxa bilan Koshala davlati ajralib turardi. Magadxa podsholigi Gang (hozirgi Bixar) daryosi o‘rta oqimidagi havzada joylashgan. Magadha davlatining poytaxti Rajagrxa (hozirgi Rajgir) shahri bo‘lgan. Magadhadan shimoli-g‘arbda Koshala podsholigi (hozirgi Aud) bo‘lgan. Koshala davlatining poytaxti Shravasti (hozirgi Savattxi) shahri bo‘lgan. Bu ikkita ancha katta davlat er. avv. VI—V asrlarda Shimoliy Hindistonning Gang daryosi havzasidagi keng hududda ustunlik va hukmronlik qilish uchun o‘zaro qattiq kurash olib borganlar. Koshala podsholigi yuksalib borayotgan davrda podsho Kamsa Kashi knyazligi va uning asosiy shahri Kashini (hozirgi Banorasni) ham bosib olib, o‘z davlat chegarasini kengaytirgan. Magadxa podsholigi esa Shayshunag dinastiyasi podsholik qilgan davrda yuksala boshlagan. Bu dinastiyaning beshinchi podshosi bo‘lgan Bimbisara (er. avv. 519-491 yillar) ayniqsa mashhur bo‘lib, Gang daryosining quyi oqimidagi havzada joylashgan Anga podsholigini bo‘ysundirgan. Bimbisara diplomatik ittifoqlar tuzish siyosatini keng qo‘llagan.

Er. avv. V asrda Magadxa podsholigi Shimoliy Hindistonning eng kuchli davlati bo‘lib qoladi. Gang daryosi bo‘yida g‘oyat katta

[85] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r. 31.

Pataliputra (hozirgi Patna) shahri quriladi. Er. Avv. V asrda Magadxa podsholari Koshala podsholigini bosib oladilar va IV asrda Himolay tog‘lari bilan Gang daryosi o‘rtasidagi viloyatlarni o‘z davlatlariga mustahkam qo‘shib oladilar. Bu davr Magadxa davlatining gullab-yashnagan davri bo‘lgan.

G‘arbiy Hindistonda tarqoqlik uzoqroq saqlangan. Bu tarqoqlik holati Ahmoniylarning, keyinroq, Aleksandr Makedonskiyning g‘arbiy Hindistonni bosib olishlarini osonlashtirgan, Aleksandr Makedonskiy ikki yil ichida (eramizdan avvalgi 327-325 yillarda (Hind daryosining etaklarigacha butun G‘arbiy Hindistonni egallagan.

Hind qirg‘oqlarida yunon-makedon hukmronligi uzoqqa cho‘zilmagan. G‘arb istilochilariga qarshi keng xalq ommasining harakatiga mashhur hind arbobi Chandragupta boshchilik qilgan. Chandragupta (er. avv. 321-298 yillar) butun shimoliy Hindistonni birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Yunon-makedon garnizonlari Hind vodiysidan haydab chiqarildi va Mauriya davlatini tuzdi. Tarixchilar janubiy Osiyodagi birinchi imperiya sifatida Chandragupta tuzgan Mauriya imperiyasi deb hisoblashadi[86].

Istilochilik siyosati Chandraguptaning vorislari vaqtida ham, ayniqsa uning nevarasi Ashoka vaqtida (eramizdan avvalgi 273-236 yillar), davom etgan Janubiy Hindistondagi Kaling davlati Ashoka podsholik qilgan vaqtda bo‘ysundirilgan. Agar Ashoka yozuvlariga ishonish mumkin bo‘lsa, shu davlatni istilo qilish uchun bo‘lgan janglarda 100000 kishi o‘ldirilgan va 150 000 kishi asir qilib haydab ketilgan[87].

Pataliputrada va boshqa markazlarda hunarmandlar to‘plangan, ular podsho va zodagonlar xizmatida bo‘lib, ularga zeb-ziynat buyumlari ishlab berganlar.

Chandragupta yunon makedonlarini haydab chiqargani bilan u yerda faqat yunon tilida so‘zlashadigan bir qancha yunon aholisi qolib ketadi. Salavkaning qizilaridan biri bir nechta yunon ayollarining hamrohi ostida Mauriya poytaxti Pataliputra shahridagisudga boradi. Salavka qizini qutqarish maqsadida elchi Megastenesni Chandragupta huzuriga yuboradi. Megastenes

[86]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.217.
[87]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.218.

janubiy Osiyoda bir qancha yil yashagan, “Indika” nomli kitobida u yerdagi voqealarni yozib qoldirgan[88].

Ashoka Bindusaraning oʻgʻli va Chandraguptaning nevarasi boʻlib, katta tarixiy rol oʻynagan. Ashokaga oʻz otasi va bobosidan katta va qudratli davlat meros boʻlib qolgan. Bindusara hayot vaqtidayoq Ashoka Shimoli-Gʻarbiy va soʻngra Gʻarbiy Hindistonda podshoning noibi vazifasini oʻtab turgan va shu tariqa butun davlatni idora qilish uchun yaxshi tayyorgarlik koʻrgan. Ashokaning Ujayni va Taksila kabi katta shaharlarda turganligi uning shaxsiga, xarakteriga va kelgusidagi butun faoliyatiga yaxshi ta’sir koʻrsatgan. Shimoli-Gʻarbiy Hindistonning bu katta shaharlari muhim madaniy markazlar boʻlgan, ularda san'at va fan, jumladan astronomiya fani taraqqiy etgan.

Er.avv. II asr boshlarida Maurilarning soʻnggi vakili hukmronligi tugab, shu vaqtdan mamlakatda uzoq siyosiy tushkunlik boshlandi. Shimoli-gʻarbiy Hindistonda yunon-baqtriyaliklar paydo boʻldi va ular Gandxarada oʻrnashib qoldilar. Er. avv. II asrlarda sak qabilalari kirib kelib,mamlakatning shimoli-gʻarbida bir necha davlatlarni barpo qiladilar. Sak podsholari oʻzlarini «buyuk podsholar podshosi» deb ataydilar. Yirik davlat birlashmalarida noiblik, satrapliklar joriy qilinib, hududlarda satrap (kshatrap) ancha mustaqil boʻlgan.

Eramizning boshlarida shimoli-gʻarbiy Eronning ba’zi viloyatlari parfiyaliklarga boʻysundi. Eramizning II asrida Markaziy Osiyoda Kushon davlati yetakchi rol oʻynaydi. Kushonlar Hindistonning shimoli-gʻarbiy qismida oʻrnashib oladilar.

Eramizning IV-V asrlarida Magadxa Gupta sulolasi hukmronligi ostida yana rivojlana boshladi. IV asr oʻrtalarida Samudragupta (335-380-yillar) davrida Magadxa qudratli davlatga aylanadi. Samudragupta shimoliy Hindistonda unga yaqin davlatlarni, Dekanda oʻn beshta davlatlarni tugatadi. Magadxaga janubda Tamish shahri Kanshini, shimolda Nepal va Assam kabi chegara viloyatlar ham qaram boʻladilar. Dekan viloyati gʻolibona yurishga qaramasdan Gupta davlati tarkibiga kirmaydi. Chandragupta II (380-415 yillar) davrida Gupta davlati

[88]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. London. 2011, r.217.

gullab-yashnadi. Uning davri hind tarixining “oltin davri” hisoblanadi. Uning vorislari davrida o‘zaro urushlar kuchayib ketadi. O‘rta Osiyodan kelgan eftalitlar V asrda Gupta davlatini qulatdi. V asrda Shimoliy Hindiston kichik davlatlarga bo‘linib ketadi.

Buddizm va uning tarixiy roli. Mauriya sulolasi davrida hind jamiyatining diniy mafkurasida anchagina siljishlar yuz bergan. Xukmronlik qilayotgan din tizimi - Braxmanizm - mamlakatni idora qiluvchi sulolani tobora qoniqtirmay borgan. Uning aqidalari qabila tarqoqligi sharoitida tarkib topganligidan shahar hayoti taraqqiy qilib borayotgan davlat markazlashtirilgan vaziyatga mos kelmayqolgan. Braxmanizmning eski tizimi bilan davr ruhiga mos keladigan yangi diniy ta’limot o‘rtasida raqobat tobora kuchayib borgan.

Yangi dinlardan buddizm ayniqsa muhim o‘rin olgan. Bu din etiqodchilar jamoasiga kiradigan kishining nasl-nasabi bilan mutlaqo qiziqmagan. Kishining muayyan qabila va varnaga mansubligi yangi dinga kirishiga to‘siq bo‘lolmagan.

An’analarda budda diniy-falsafiy ta’limotini eramizdan avvalgi VII -VI asrlarda yashagan shahzoda Sidxarta Gautama (er avv. 563-483) yaratgan deyiladi. Bu ta’limot unga berilgan Budda («ma’rifatparvar») laqabi bilan atalgan. Bu shahzoda kishilar chekayotgan azob-uqubatlarning sabablari haqida yoshlik chog‘idayoq fikrlay boshlagan, deydilar. Ojiz gadoning, badanini yara bosgan kasal odamning ayanchli ko‘rinishi, janoza manzarasi, mana shularning hammasi unda chuqur g‘amginlik tug‘dirgan[89].

Barcha klassik madaniyat tizimlari axloqiy xatti-harakatlarni yaratishga yo‘naltirilgan. Masalan, Hindistondagi hinduizm yoki buddizm bo‘ladimi, axloqiy xatti-harakatlarini ruhiy qarashlaridan topishi mumkin[90].

U o‘zining oliy martabasidan kechib elma-el kezgani jo‘nagan, so‘ngra va’zgo‘y bo‘lib ketgan. U o‘zining ta’limotiga hayotning o‘zi yovuz degan fikrini asos qilib olgan. Kishining har qanday istagi ham azob-uqubatga olib keladi. Buning birdan-bir chorasi har qanday ehtiros va har qanday urinish-istakni bosishdir. Kishi

[89]Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, r.180.
[90] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r. 26.

bunga erishar ekan, u oʻlgandan keyin yangi azob-uqubatlarni boshidan kechirish uchun boshqa bir qiyofada qaytib tirilmaydi. Mana shu uzluksiz oʻzgarish protsessini toʻxtashi nirvana, ya'ni yuksak farogʻatdir.

Mana shu oʻziga xos ta'limotdan gʻoyat katta amaliy xulosalar chiqqan. Najot yoʻlini kishining oʻzi, istaklarini bosish irodasi bilan topganligidan diniy e'tiqod va qohinlar ortiqli bor narsa boʻlib qoladi. Kishining oʻzini-oʻzi kamolga yetkazishi, boylik va dunyo farogʻatidan voz kechishi nasl-nasabiga va jamiyatda tutgan oʻrniga bogʻliq emas. Bu tashqi momentlar tadqiqotchining yuksak farogʻatga erishishiga monelik qilmaydi. Buddachilar toifaviy va qabilaviy toʻsiqlarni yoki mulkiy tengsizlikni zoʻrlik yoʻli bilan yoʻqotishga hech qachon da'vat qilmaganlar, ularning hammasini ahamiyatsiz hisoblaganlar. Zotan, bir masalada ular tenglik printsipiga rioya qilishdan nazariy jihatdan ham bosh tortganlar. Ozod kishilargina najot topa oladi, deganlar ular. Sangxiga (ilk buddachilar jamoasiga) qullar qabul qilinmagan. Oʻz taqdiriga oʻzi ega boʻlmagan va oʻz irodasi bilan ishni tark qilolmaydigan qulga yuksak farogʻat yoʻli berk deb hisoblangan.

Mauriya sulolasining podsholari uchun buddizmning Braxmanizmga nisbatan bir qancha ustunligi boʻlgan. U imtiyozlarni yemirib oʻzgartirishga yordam bergan. Aslidalik va etnik holatga asoslangan bu imtiyozlar keng mustabid davlatni idora qilish ishiga gʻov boʻlib turgan. Bu imtiyozlar mamlakatning ayrim qismlarini birlashtirishga va davlat tuzumini yagona shaklga keltirishga xalaqit bergan. Sustkashlikka da'vat qilish quldorlarga juda ham qoʻl kelgan, ayniqsa buddachilar qullarning huquqsizligini etirof qilganlar.

Yangi din Ashoka davrida ayniqsa muvaffaqiyat qozongan. Ashokaning oʻzi buddizmni qabul qilib, Pataliputrada uning aqidalarini rasmiylashtirgan kengash chaqirgan. Bir qancha budda monastirlari ta'sis etilgan.

Lekin shu bilan Braxmanizm tugatilgan ekanda deb oʻylash yaramaydi. Ashoka uni xayoliga ham keltira olmagan. Yangi din asosan qabiladan va qishloq jamoasidan ajralib ketgan aholining aralashib ketish jarayoni kuchli boʻlgan katta-katta shaharlarda tarqalgan, etnik, toifaviy va boshqa ijtimoiy gʻovlar hiyla

mustahkam bo‘lgan qishloqlarda Braxmanizm o‘z mavqeini saqlab qolgan. Lekin har holda Braxmanizm quvg‘in qilinmagan.

Hindistondagi barcha davlatlarning hukmdorlari noan'anaviy dinlarga, asosan budda diniga homiylik qilganlar. Mauriylar budda dini targ‘ibotiga jiddiy e'tibor berganlar. Turli mamlakatlarga budda g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun missionnerlar yuborilgan. Ayniqsa, Hindiston bilan yaqin aloqa bo‘lgan viloyatlarda budda ta’limoti tez qabul qilinadi. Shri-Lankada bu jarayon tez yoyiladi.

Buddaviylik e'tiqodi yirik davlatlar hukmdorlarining homiyligi ostida bo‘ldi. Chunki budda matnlarida jahon hukmronligi g‘oyasini ilgari surilib, qaysiki, bu hukmdor orqali adolat podsholigiga asos solinadi degan tushuncha mavjud edi. Adolatni tarqalishi bir vaqtning o‘zida hukmdorning hokimiyatini kuchayishi bu diniy g‘oyaga to‘g‘ri kelishini bildiradi. Dastlab, budda dini xudosizlar dini edi. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat o‘zgardi. Uning tasviri paydo bo‘ldi. Ibodatxonalar qurilib, budda ilohiy mavjudot ekanligi aytila boshlandi. Dunyoning ohirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddaning kelishi tushunchasi shakllana boshlaydi. Budda maktablari ikki asosiy yo‘nalish: «kichik arava» («yoki qutilishning tor yo‘li») va «buyuk arava» («yoki qutilishning keng yo‘li») dan iborat edi. Ularning birinchisi eng qadimiylikka da’vo qilib, Ashoka davridayoq Lanka orolida va keyin janubi-sharqiy Osiyoga tarqaldi. «Buyuk arava» ta’limoti yanada kattaroq yutuqlarga erishdi. Buddizmda an’anaviylikdan chekinib zamonga moslashtirilgan Buddizmning Xinayana yo‘nalishi paydo bo‘ladi.Bu yuqorida ta’kidlangan “buyuk arava”yoki“qutilishning keng yo‘li”deb ta’riflanadi. Kushon podsholari homiyligi ostida bu yo‘nalish O‘rta Osiyo orqali Eron, Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqaldi.

Hindiston madaniyati. Dastlabki vaqtlarda tildan- tilga o‘tib kelgan qadimgi hind lirikasi (vedalar) va dostoni (Maxabxarata bilan Ramayona) yangi era boshiga kelib, to‘lik shakllangan va yozib olinganligini biz yuqorida aytib o‘tgan edik.

Shuningdek, xalq masallari to‘plami (Panchatantra, ya’ni Besh kitob) ham paydo bo‘lgan. Eramizning V asrida qadimgi Hindistonning g‘oyat zo‘r dramaturgi Kalidasa maydonga keladi.

Uning dramalari ichida «Shakuntala» eng mashhuridir. Drama asarning bosh qahramoni tarki dunyo qilgan va podsho yaxshi koʻrib qolgan qalandar ayol nomi bilan atalgan.

Qadimgi Hindistonda har xil falsafiy oqimlar, shu jumladan. materialistik oqim tarkib topgan. Masalan, charvak talimotiga koʻra, bilishning birdan-bir manbai tajribadir. Ruhning tandan ajrashi toʻgʻrisida Hindistonda keng tarqalgan ta'limot inkor qilingan. Ruh tandan ajralmaydi, degan fikr ilgari surilgan.

Sugʻorib dehqonchilik qilinadigan boshqa mamlakatlardagi kabi Hindistonda ham astronomiya va matematika ancha ravnaq topgan. Bunda oʻziga xos Quyosh kalendari tuzilgan. Yil 360 kundan iborat boʻlib, astronomik yilga moslash uchun har 5 yilda bir marta kabisa oy qoʻshilgan.

Eramizning V-VI asrlarida Hindistonda Yerning sharsimon ekanligini va yerning oʻziga tortish qonunini, shuningdek, yerning oʻz oʻqi atrofida aylanishini juda yaxshi bilganlar. Bu ilmiy kashfiyotlarni oʻrta asrlarda arablar hindlardan oʻrganib olganlar.

Hindiston davlatiga Yevropa xalqi tomonidan olib kelingan urf-odat madaniyati hamda diniy adabiyotning kirib kelishi katta ta`sir etgan. Er.avv. 4-asrda Gupta hamda Maurya imperiyasi davrida sivilizatsiyaning ta`siri kuzatilgan[91].

Keyinchalik hindlar matematikada ba'zi jihatlardan boshqa sharqiy davlatlardan oʻzib ketgankar. Masalan, nolni bildiradigan alomat faqat Hindistonda ishlatilgan. Biz rim raqamlaridan farq qilib arabcha raqamlar deganimizni aslida qadimgi hindlar ixtiro qilgan va keyin bu raqamlar arablarga oʻtgan. Arab algebrasida ham hindlar algebrasining ta'siri bor.

Qadimgi hind kimyogarlari sulfat, xlorat va azot kislota ishlashni bilganlar. Tabiblar kasalliklarni muayyan sistemaga solishga uringanlar va organizmdagi asosiy shiralar nazariyasini yaratganlar. Hindistonda juda koʻp til va shevalar boʻlgani filologiya sohasida tadqiqotlar olib borilishini talab qilgan.

Hind madaniyati Markaziy va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga (asosan buddizmning yoyilishi munosabati bilan) katta ta'sir koʻrsatgan. Hindiston gʻarb olamiga arablar orqali ta'sir koʻrsatgan.

[91] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r. 19.

Qadimgi hindlar mantiq, til falsafasida katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo‘yicha V asrda mashhur olim Ar'iyabxattaxa harakatning nisbiyligi asosida yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. Matematikada nolni kiritilishi, arab raqamlari deb aytiladigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi.

Eramizning II asrlarida turli adabiy janrlar mavjud bo‘lgan. Bu davrda mashhur dramaturg Shakun Kalidasa ijod qiladi. «Panchatatra» deb atalgan kitobda masallar to‘planadi, uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

Maurilar davridan so‘ng, g‘isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar, g‘arbiy Hindistondagi budda monastirlari diqqatga sazovor.

Hindiston tarixchilari kasta tizimi eskilik sarqitlari bilan xarakterlanmasligini ta’kidlaydi. Agar siz o‘zingizning kasta majburiyatlaringizni bajarib, o‘zingizga to‘g‘ri kelmaydigan ishlardan saqlansangiz kasta madaniyatingizni saqlab qolgan va guruh bilan aloqalarni yaxshilashga erishgan bo‘lasiz[92].

Yer ustidagi monastirlardan biri Sanshida bunyod qilingan. Sanshida tepalik ustida ulkan budda monastiri qurilgan. Yana bir noyob san'at yodgorligi Ashoka yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir.

Maurilardan so‘ng, haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari shimoli g‘arbiy Hindistondagi Gandxara, shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxura va Dekan viloyatidagi maktablardir. Eramizning birinchi asridan Gandxara maktabi ellin va Rim madaniyati ta’siri ostida shakllangan. Gandxara uslubi kushonlar davrida markaziy va sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga ta’sir qildi.

Madxura va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko‘proq bog‘langan. Ana shu maktablar asosida o‘rta asrlar hind va janubi- sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandi.

Maurilar davridan keyin ming yil davomida hind tasviriy san'atining noyob yodgorligi, g‘ordagi Ajanta ibodatxonasi va budda monastirlari yaratildi. Monastirlarning ba’zi zallari

[92] Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. r. 8.

devorlarida budda afsonalaridan manzaralar tasvirlangan. Ajantadagidek noyob tasvirlarga oʻxshash tasvirlar Shri-Lankadan ham topilgan.

Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qismi veda, epik va budda adabiyotlari an'anaviy janrlarga tegishli boʻlib, asrlar davomida ogʻzaki shaklda yashab keldi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, uzatish va talqin qilish, lingvistika, falsafa va mantiq kabi fanlarning rivojiga sabab boʻldi. Janubiy Osiyoda Maurilardan soʻng, turli davlatlarni gullab-yashnashi dunyoviy adabiyot-drama, poeziya va proza, me'morchilik hamda tasviriy san'atning noyob yodgorliklarini yaratilishiga sabab boʻldi. I ming yillikning oʻrtalarida (shimoliy Hindiston Guptalar davri) qadimgi janubiy Osiyoda madaniyat taraqqiyotining asosi boʻldi.

Fan. Qadimgi hindlar matematika, astronomiya, tibbiyot va tilshunoslikda katta yutuqlarga erishdilar. Hind fanining iolmiy yutuqlari boshqa xalqlarning madaniyatiga katta ta`sir oʻtkazdi. Qadimgi hind kashfiyotlari Yevropada faqat yangi davrdagina amalga oshirildi. Dunyo matematika va astronomiyasi tarixida eramizning V-VI asr boshlarida yashagan olim Ar`yabxata alohida oʻrin egallaydi. U “pi” sonining ahamiyatini aniqladi va chiziqli tenglamani yechishning oʻziga xos yoʻlini taklif qildi. Bu zamonaviy matematika yutuqlariga yaqin edi. Hind matematikasining yana bir ajoyib yutugʻi nol bilan hisoblashning oʻnlik tizimini yaratilishi edi. Oʻnlik tizim arablar tomonidan oʻzlashtirilib, ular orqali boshqa xalqlarga tarqaldi. Hozir undan butun dunyo foydalanadi. Qadimgi hind raqamlarini belgilash tizimi zamonaviy nomerlash tizimini belgiladi va zamonaviy arifmetikaning asosida yotdi. Mavhum son toʻgʻrisidagi ta`limot va raqamli tizimni yuqori darajasining ishlab chiqilishi algebra fanining yutugʻi boʻldi. Antik fanda faqat geometriyaga e`tibor berilgan edi. Qadimgi hindlar esa, matematika fanini rivojlantirdilar. Oʻrta osiyolik olimlardan al-Xorazmiyning matematika boʻyicha asari hind matematikasining yutugʻlaridan foydalanilgan holda yaratildi va bu asar 1145-yilda lotin tiliga tarjima qilingan edi.

Zamonaviy matematikada foydalaniladigan “raqam”, “sinus”, “ildiz” atamalari hindlar tomonidan taklif qilingan. Astronomiya

fanida ham hindlar katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo‘yicha V asrda mashhur olim Ar'yabxata harakatning nisbiyligi asosida yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qildi.

Qadimgi Hindistonda falsafa yuqori darajada rivojlandi. Falsafada materialistik oqim bo‘lgan lokayata maktabi vujudga keldi. Hind materialistlari diniy “erkin bo‘lish” va xudolarning kuch-qudratlilik g‘oyasiga qarshi chiqdilar. Bilimning asosiy manbasi hissiy qabul qilish deb hisobladilar. Mashhur faylasuf, targ‘ibotchi Shankara Vedanta idealistik falsafa maktabini yaratdi.

Qadimgi hind tibbiyotida uzoq yashash fani “Ayurveda” shakllandi. Hind tabiblari inson sog‘ligiga iqlimning ta`siri, o‘tlarning xususiyatini o‘rganmdilar. Shaxsiy gigiena va parhezga alohida e`tibor qaratdilar. Hind tibbiyot asarlarida 300 turli xil operatsiyalar va 120 jarrohlik asboblari eslatib o‘tiladi. Tibet tibbiyoti qadimgi hind ayurvedasiga asoslangan.

Qadimgi Hindistonda tilshunoslik fani yuqori darajada rivojlandi. Hindlar barcha fanlar va san`atlar asosida so‘z yotadi deb hisobladilar. Mashhur tilshunos Paninining “Ashtadx`yai” (“Sakkiz kitob”) grammatik asarida til materiali chuqur va asosli tahlil qilingan va mukammal til nazariyasi shakllantirilgan.

Qadimgi hind adabiyoti, falsafasi va madaniyati Yevropa va Amerikaning taniqli olimlari e’tiborini jalb qildi. Taniqli olimlar I. Gerder, I. Gyote, G. Geyne, G. Gesse, S. Sveyg, L. Tolstoy, R. Rollan, R. Kipling va boshqalar qadimgi hind syujet va motivlaridan foydalanganlar. Gerder, Gyoye, F. Shiller jahon adabiyotining yuksak namunalaridan biri bo‘lgan Kalidasining “Shakuntala” dramasini o‘qib, hayratga tushganlar. Bu dramani dunyo adabiyotining eng ajoyib namunalaridan biri deb e`tirof etdilar. Gyote hind afsonalari syujeti asosida bir qancha balladalarni yaratdi (ayniqsa, uning 1794 yilda yozgan mashhur “Xudo va raqqos” balladasi diqqatga sazovor). Mashhur Amerika yozuvchilari U. Emerson, G. Toro, U. Uitmen ijodiy faoliyatida qadimgi hind falsafasi kuchli ta`sir o‘tkazdi.

Qadimgi hind madaniyati bilan O‘rta Osiyo madaniyati juda yaqin aloqada bo‘ldi va bizning madaniyatimizning shakllanishida hind madaniyatining ta`siri qadimdan juda kuchli ta`sir qildi. O‘z

navbatida, hind madaniyati bizning ajdodlarimiz yaratgan madaniyat namunalarini o‘zlashtirdi. Har ikkala buyuk madaniyatning bir-biriga hayotbaxsh ta`siri xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtirdi. Hind madaniyati va san`atida O‘rta Osiyoning ta`siri me`morchilik san`atida yaqqol ko‘rinadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Hindistonning tabiiy joylashuvi va aholisi haqida nimalar bilasiz?
2. Qadimgi Hindistonda qaysi davrlardan odamlar yashay boshlagan?
3. Hindistonda davlatchilikning vujudga kelish shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
4. Hindistonga chet ellik bosqinchilarni (Oriylar, Ahmoniylar, Makedonlar, Kushonlar, Eftalitlar) amalga oshirgan yurishlari va uning oqibatini yoritib bering.
5. Hindiston tarixini o‘rganishda qaysi manbalardan ko‘proq foydalaniladi?
6. Er. av. XV-VII asrlarda qadimgi Hindistonda qanday davlat birlashmalari tashkil topdi?
7. Braxmanizm va Hinduizm dinlarining qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda farqli xususiyatlarini ochib bering.
8. Nima deb o‘ylaysiz, Buddizm nima uchun Hindistonda Hinduiylik dinini surib chiqara olmadi?
9. Qanday yo‘l bilan Buddizm jahon diniga aylandi?
10. Qadimgi Hindiston madaniyatini jahon madaniyatiga ta’siri qanday bo‘lgan?
11. **Keys savoli**: Hinduizm va kastaviy tizim Qadimgi Hindistonda ijtimoiy tartib va barqarorlikni qanday mustahkamladi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

14-MAVZU. QADIMGI XITOY

Reja

1. Qadimgi Xitoy manbalari.
2. Qadimgi Xitoy tabiiy sharoiti, aholisi.
3. Arxeologik tadqiqotlar.
4. Tarixshunoslik.
5. Xitoy tarixining davrlashtirilishi.
6. Chjou davlati, Xitoy shohlari oʻrtasidagi kurash.
7. Sin davlatining tashkil topishi.
8. Xan imperiyasini yuksalishi, islohotlar.
9. Qadimgi Xitoy madaniyati.

Dunyo xalqlari ichida qadimgi davrga tegishli manbalar yaxshi saqlangan sivilizatsiyalardan biri bu – Xitoydir. Juda xilma-xil manbalar hozirgi zamon tarixchilariga qadimiy Xitoy xalqining koʻp asrli tarixini oʼrgarishiga imkon beradi. Bu jihatdan ayniqsa ahamiyatlisi, shuki qadimgi Xitoy davlati tashkil topgan davrida vujudga kelgan Xitoy yozuvi tarixiy anʼananing uzluksiz ekanini saqlab, kam oʻzgarishlar bilan bugungi davrgacha yetib kelganligi tarixni mukammal saqlanishiga imkoniyat yaratgan.

Xitoy manbalari. Hozirgi zamon tarixchilari Xitoy xalqining eng qadimgi hayot yoʻlini eng soʻngi davrlargacha saqlanib kelgan etnografik maʼlumotlar yaʼni anʼanalargagina tayanib emas balki moddiy madaniyatning qadimgi hujjat va yodgorliklari asosida oʻrganish maqsadga muvofiq. Bugungi kungacha Xitoyni koʻplab hududlarida arxeologik izlanishlar olib borilib, unda AQSh, Kanada va Yevropalik olimlarning ham xizmatlari katta boʻlmoqda. Ayrim olimlarning fikricha arxeologiya materiallari qadimgi Xitoy iqtisodiyoti va texnikasi qay darajada taraqqiy qilganligini bir muncha yoritsa ham, biroq Xitoy tarixinig eng qadimgi davrini toʻla tavsiflashga imkon bermaydi. Eng qadimgi hujjatlar, jumladan eramizdan avv. II ming yillikka doir suyak qurʼalaridagi hamda toshbaqa kosalari ustidagi yozuvlar tarixchi uchun ancha katta tarixiy ahamyatga egadir.

Orakulga[93] berilgan savollardan iborat bu qisqa - qisqa yozuvlar, Shan-In davlati davridagi (eramizdan avv. XVIII-XII asrlardagi) qadimgi Xitoyning xo‘jalik ijtimoiy va davlat tuzumini bir muncha tasvirlashga imkon beradi. Diniy marosimlarda ishlatiladigan bronza idishlardagi yozuvlar bu davrning ohirgi shuningdek Chjou podsholigi zamoniga (eramizdan avvalgi XII-VIII asrlarga) oiddir. Bu yozuvlar orasida hadya yorliqlari ham uchraydi. Sin sulolasi davriga (eramizdan avvalgi III asrga) oid tosh barabanlaridagi yozuvlar katta ahamiyatga egadir. Nihoyat, Shandun viloyatida saqlanib qolgan va Xan sulolasi davriga oid (eramizdan avvalgi III asr va eramizning III asrida) bo‘rtma sur’atlar qimmatli madaniy-tarixiy material hisoblanadi.



Qadimgi Xitoyning tarixi, madaniyati va qadriyatlari eng qadimgi davrlarga xos bo‘lgan klassik adabiyotlarda ham yaxshi saqlanib qolgan. Biroq shuni nazarda tutmoq kerakki qadimgi Xitoy klassik adabiyotining aksariyat nus’xalari eramizdan avv. V-III asrlarda anchagina tahrir qilingan. Ba’zi klassik kitoblar o‘sha vaqtda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va diniy-falsafiy nazariyalar ta’siri ostida butunlay qaytadan ishlangan va shu tufayli ularning matni ancha o‘zgargan holda berilgan. Masalan, “Chun-Syu” kitobi (“Bahor va kuz”- Lu podsholigining xronikasi) tahrir qilinib tuzatilgan vaqtida, Lu hokimlaridan to‘rttasi

[93] Orakul (lotincha: *oraculum*) — yunon va rim mifologiyasida xudolardan yoki ilohiy kuchlardan kelajak haqida maslahat yoki bashorat oladigan kishi.

oʻldirilganligi, bittasi oʻz fuqarolari tomonidan haydab yuborilganligi va ikkinchisini dushmani oʻldirganligi haqida hech qanday ma’lumot bermaydi.

Shunday qilib, Xitoy klassik adabiyotining eng qadimgi asarlaridagi ayrim boblar va ba’zan esa, ularning ayrim parchalarigina haqiqatan eng qadimgi zamonga oiddir. Keyinchalik qaytadan tahrir qilingan soʻngi qismlarining hammasi tanqidiy koʻz bilan jiddiy suratda tekshirib chiqishni talab etadi.

Xitoyning turli viloyatlaridagi xalq qoʻshiqlarini uzoq vaqtlar davomida toʻplash natijasida tuzulgan mashhur “Qoʻshiqlar kitobi” (“Shi-Szin”) da juda qadim zamonlarga doir parchalar saqlangan. Bunda xalqning turli urf – odatlari, Masalan, toʻylar va xalqning ijtimoiy hayoti toʻlaroq ifoda etilgan. Mehnat haqidagi qoʻshiqlar ayniqsa qiziqarlidir, bu qoʻshiqlarda keng xalq harakati va qoʻzgʻalonlari haqida ham fikrlar berilgan. Shu bilan birga kitobda xitoyliklarning diniy tasavvurlari, qurbonliklar vaqtida aytiladigan madhiyalar haqida ham ma’lumotlar berilgan boʻlib bu Xitoy xalqining qadimiy e’tiqodlari va an’analarini tasavvur etishga imkon beradi va shuning uchun tarixchiga ancha qimmatlidir. “Qoʻshiqlar kitobi”ning eng qadimgi qismi eramizdan avvalgi. XII-VII asrlarga oiddir. Bu toʻplamning hammasi eramizdan avv. VII-VI asrlarda tuzilgan boʻlsa kerak, lekin bizga ma’lum boʻlgan koʻrinishi esa eramizdan avv. III asrdagina paydo boʻlgan.

Qadimgi Xitoyning klassik adabiyotiga kirgan tarixiy kitoblar orasida “Hujjatlar kitobi” yoki boshqacha aytganda “Tarix kitobi” (Shu – Szin)ni koʻrsatib oʻtmoq kerak, tadqiqotchilar fikricha bu kitobga qadimgi podsholar yoki ularning maslahatchilariga qarashli nutqlar, nasihatlar va amr-farmonlar kiritilgan. Bu kitobdan mamlakatning topografiyasi va boshqarish tizimiga doir qiziq ma’lumotlarni topish mumkin. Biroq “Hujjatlar kitobi” ni Konfutsiy anchagina qaytadan ishlagan va natijada u diniy hamda siyosiy tarbiya an’analari bilan kuchli ravishda sugʻorilgan nasixatlar toʻplamiga aylanib qolgan. Bu toʻplamdan tarixiy manba sifatida foydalanilayotgan vaqtda unga jiddiy tanqidiy nazar bilan qarashni talab etadi.

Asosiy dalillarni koʻrsatuvchi ba’zi bir ma’lumotlarni Xitoy tarixining eng qadimgi davirlariga oid boshqa tarixiy asarlardan,

jumladan, yilnomalardan topish mumkin. “Chun-Syu” (“ Bahor va kuz”-rivoyatlarga koʻra, Konfutsiyning vatani boʻlgan Lu podsholigining xronikasi nomi bilan yuritiladigan kitobni Konfutsiyning oʻzi yozgan deyiladi. Bu kitob eramizdan avvalgi VIII-V asrlarda Lu podsholigi davrida yuz bergan eng muhum voqealarning qisqacha xronologik tasviridan iborat. Tarixchi uchun “Bahor va kuz” xronologiyasidan koʻra keyinroq unga ilova qilingan (“Szo-chjuan”) ancha zoʻr ahamiyatga egadir. Bu Xitoy adabiyotida qadimgi Xitoy tarixining birinchi toʻla ifodasi deb hisoblanishi mumkin.

Bundan tashqari Xitoy tarixini oʻrganishda yilnomalarni ham ahamiyati juda katta hisoblandi. Ana shunday noyob manba sifatida “Bambuk yilnomalari”ni koʻrsatib oʻtish mumkin. Bunda eramizdan avvalgi 776 yilda quyosh tutulishi roʻy bergan sana, Shan-In sulolasiga mansub podsholarning roʻyxati va boshqa bir qancha qimmatli tarixiy ma’lumotlar saqlangan.

Qadimgi Xitoy tarixini oʻrganishda mashhur tarixchilaridan biri eramizdan avvalgi II-I asrlarda yashagan Sima Siyanning “Tarixiy xotiralari” kitobi katta ahamyatga ega. Bu katta tarixiy asar qadimgi davridan to eramizdan avv. II asr oxrigacha boʻlgan davirni oʻz ichiga oladi. Bu kitobda asosan qadimgi Xitoyning siyosiy va madaniy tarixiga oid, shuningdek xronologiyani tiklash uchun zarur boʻlgan ma’lumotlar beriladi. Sima-Syan oʻzining asarida Xitoy tarixining birinchi marta keng koʻlamda tasvirlab bergan boʻlib, bu keyinchalik Xitoy tarixshunosligining kiyingi rivojlanishiga kuchli ta’sir koʻrsatgan.

Tabiiy sharoiti. Xitoy- togʻli mamlakatdir,uning hududining katta qismini togʻlar va yassi togʻlar tashkil qilgan. Gʻarbiy Xitoy dunyoda eng keng joyni egallagan togʻlardan iborat boʻlib, iqlimi keskin kontinentaldir. Xitoy aholisi joylashgan eng qadimgi tuman Xuanxe daryosi (Sariq daryo) ning oʻrta va quyi oqimdagi tumanlar, shuningdek Pechiliy qoʻltigʻiga tutashgan tekislik hisoblanadi. Sariq daryo va uning irmoqlarining suvi bilan sugʻoriladigan vodiylari dehqonchilik xoʻjaligining ancha ilgari taraqqiy eta boshlashiga imkon bergan. Dehqonchilik xoʻjaligi tashkil etila boshlagan davrda qadimgi Xitoy aholisiga kanallar qazib daryo suvini butun mamlakatga bir tekis taqsimlashga, shu

bilan birga Xuanxe daryosining halokatli toshishiga qarshi tinmay va uyushqoqlik bilan kurash olib borishga to‘g‘ri kelgan. Bu suv toshqinlari qishloqlarni va dehqonlarning uylarini vayron qilib, hosilini yo‘q qilib butun mamlakatga juda ko‘p ofatlar keltirgan. Shu sababdan aholi o‘z uyi va ekin maydonlarini daryo toshqinidan saqlab qolish uchun turli choralar ko‘rishga majbur bo‘lgan.

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra mil. avv. V-IV ming-yillikda paydo bo‘lgan ilk dehqonchilik manzilgohlari Yanshao, Syuyszyalin va Davenkoular qadimgi Xitoy tarixida muhim o‘rin egallagan.

Tarixchi olim V. Avdiev ma’lumotiga ko‘ra Qadimgi zamonlarda Shimoliy Xitoyda o‘rmonlar hozirgi vaqtdagidan ancha ko‘p bo‘lgan. Qalin o‘rmonlar qoplaganligi yog‘ingarchilikning ancha tekis bo‘lishini taminlagan, odamlarning ov bilan shug‘ullanishiga imkon bergan va ularga qurol-yarog‘lar tayyorlash uchun kerakli eng qadimgi materialni (yog‘ochni) ko‘p miqdorda yetkazib bergan.

Eng qadimiy aholi. Daryolar bo‘yidagi hosildor vodiylarga yondashgan keng dashtlarda, yassi tog‘lar va tog‘li o‘lkalarda eng qadim zamonlardanoq juda ko‘p qabilalar ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Agar bugungi XXI asr bilan solishtiradigan bo‘lsak, Xitoyning juda katta hududlarida va uning Sharqiy Osiyoga tutashgan qismlarida yer yuzidagi aholining qariyib beshdan bir qismi yashaydi.Bundan tashqari bugungi davrimizda XXRda 60 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilmoqda. Demak, o‘z-o‘zidan xulosa qilish mumkinki, bu aholi qadim zamonlarda ham bir xil bo‘lmagan. Qadimgi Xitoylar doimo bir – birlari bilan to‘qnashib turgan, urushgan va azaldan savdo sotiq qilib turgan, ko‘pgina xalqlar qadimgi Xitoy tarixi manbalarida tilga olinadi. Shimolda va shimoli-g‘arbda Xitoylar tunguslar, majurlar va mo‘g‘ullar bilan janubi-g‘arbda – Tibet qabilalari bilan (bularning ota bobolari bo‘lmish “man” qabilalari qadimgi Xitoy manbalarida tilga olingan), janubda esa til jihatdan Xitoylarga yaqin bo‘lgan Birma va Hindi-Xitoy qabilalari bilan aloqada bo‘lib turgan.

Arxeologik tadqiqotlar. Xitoyda XX asrdagina boshlangan arxeologiya qazishlari juda muhum natijalar berdi. Bu qazishlar Shimoliy Xitoyda qadimgi tosh asridanoq aholi joylashganligini aniqlashga imkon berdi, shu bilan birga qadimgi Xitoy mahalliy aholisining moddiy madaniyati to eng qadimgi davlatlar tashkil topgunga qadar uzluksiz taraqqiy etib borgan.

1928-1937 yillarda Pekindan 60 km janubi-g‘arbiy qismida, ma’muriy jihatdan bugungi Fanshan tumani hududida joylashgan Chjokudyan g‘orida o‘tkazilgan qazishlarda qadimgi Paleolit davridagi manzil qoldiqlari va ibtidoiy odamning suyaklari topilgan bu sklet “Pekin Sinantropi” deb atalgan. Va bu dunyodagi ilk odam yashagan manzilgohlar sirasiga kiritildi. Ushbu hududdagi izlanishlarga e’tibor qaratsak, bu ancha yillar tizimli amalga oshirilganganligini ko‘ramiz. Dastlabki izlanishlar, 1918 yil - shved geologi Yoxan Gunnar Andersson hududda ilk geologik-qadimiy qazish ishlari orqali boshlagan. Keyinroq, 1921–1923 yillar - avstriyalik paleontolog Otto Zdanskiy qazishmalar olib borib, ilk inson tishlarini topdi. 1927 yil - kanadalik antropolog Devid Blek topilmalarni ilmiy jihatdan tahlil qilib, “Homo erectus pekinensis” (Pekin odami) atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Keng ko‘lamli arxeologik qazishlar 1928-1937 yillar - xitoy antropologi Pey Venchjun va uning hamkasblari tomonidan amalga oshirildi. Natijada inson suyaklari, bosh suyagi qismlari va mehnat qurollari topildi. 1930-yillar nemis anatom-antropologi Frans Vaydenrayx topilmalarni morfologik jihatdan chuqur o‘rganib, ilmiy tavsifini berdi.

Topilgan odam suyagining eng qadimgi odam suyagiga juda yaqin bo‘lganligini ko‘tsatadigan bu sinantroplar paleolit davrida yashagan, yirtqich hayvonlarga qarshi kurash olib borgan, ov qilib va turli narsalar yig‘ib ovqat topgan, o‘t va oddiy tosh qurollar ishlatgan. Boshqa qazishlar Shensi bilan Shansi o‘rtasidagi Xuanxe vodiysida paleolit davridayoq aholi joylashganligini ko‘rsatdi.

Ichki Mo‘g‘ulustonda, Ordosa va Shimoliy Xitoyning boshqa yerlarida ham paleolit davri odamlarining manzillari topilgan.

Keyingi o‘n yilliklar davrida o‘tkazilgan arxeologik qazishlar natijasida Xitoyning turli tumanlarda neolit davriga doir bir qancha manzillar ham topildi. Bu davrdagi neolit madaniyati yorg‘uchoqlar, jilo berilgan tosh asboblar (pichoq va boltalar), O‘q va kamonlarni ishlatish hamda eng qadimgi uy hayvonlarini – it va cho‘chqalarni- qo‘lga o‘rgatish bilan xarakterlanadi. Savat to‘qish, mato to‘qish va suyak nina bilan kiyim tikish texnikasi paydo bo‘ladi. O‘ziga xos sopol idishlar yasash ayniqsa diqqatga sazovordir.

Yan-shao (Xenan) da o‘tkazilgan qazishlar bu davrning moddiy madaniyatini o‘rganish uchun juda ko‘p material berdi, bu yerda ancha taraqqiy etgan neolit qishlog‘i topildi. Bunda tosh boltalar, poyteshalar, pichoqlar, o‘q uchlari, bug‘u shoxidan qilingan boltalar, sopol va tosh charxlar, suyak bigiz, tosh yorg‘uchoqlar, don to‘qish uchun qazilgan o‘ralar, juda xilma xil va g‘oyat chiroyli qilib ishlangan sopol buyumlar jumladan, o‘ziga xos uch oyoqli idishlar, shuningdek, rang barang naqshlar bilan qoplangan sopol idishlar topildi,bularning hammasi bu davrida kulolchilik san’ati juda taraqqiy etganini ko‘rsatadi.

Tarixshunosligi. Uzoq va sirli Xitoy haqidagi dastlabki aniq ma’lumotlar Yevropaga faqat XIII asrdan kirib kela boshlaydi.

Marko Poloning Xitoyga qilgan mashhur sayohati (1273-1291 yillar) O‘rta imperiyani[94] xatto o‘sha davrdagi o‘qimishli yevropaliklar nazaridan ham berkitib turgan pardani bir oz ochib berdi. XVI-XVII asrlarda Xitoyga portugaliyalik savdogarlar va missionerlar kirib keladi. Ular Xitoyni tarixi va madaniyatini o‘rganishga juda qiziqa boshlaydilar. Xitoyga bag‘ishlangan asarlarning eng birinchisi Mendozaning 1585 yilda chiqqan “Buyuk Xitoy podsholigining tarixi” kitobi bo‘ldi. 1618 yilda Goesning 1604–1607 yillarda

[94] Bu Xitoyga nisbatan qo‘llaniladigan tarixiy-madaniy atama.

Xitoyga amalga oshirgan sayohatiga bag‘ishlangan tasviriy asari chop etildi[95]. Yevropalik missionerlar Xitoyda uzoq muddat faoliyat yuritib, xitoy tili, geografiyasi, tarixi va adabiyotiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlarni yaratdilar. XVIII asrdayoq nashr etilgan mazkur asarlar orasida Premarning xitoy tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarini, Gobil va Maylning Xitoy tarixiga oid asarlarini, shuningdek, Noelning 1714 yilda amalga oshirgan xitoy klassik adabiyoti namunalarining ilk tarjimalarini alohida qayd etish lozim. Ushbu asarlarda juda katta faktik material to‘plangan bo‘lsa-da, mazkur ma’lumotlar yevropalik olimlar tomonidan uzoq vaqt davomida tanqidiy tahlil asosida chuqur o‘rganilmagan.

XVIII asr oxiridan boshlab yevropaliklarning Xitoyga qilgan ekspeditsiya va sayohatlari faollashib, ular muhim ilmiy natijalar berdi. Bu davrda Fransiya G‘arb ilmiy xitoyshunosligining asosiy markaziga aylandi. 1814 yildan boshlab bu yerda xitoy tili va adabiyoti o‘qitila boshlandi. Fransiyadagi yirik mutaxassislar qatorida Abel-Remyuza va Eduar Shavan alohida o‘rin tutadi. Xususan, Shavanning Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asaridan amalga oshirilgan, ammo tugallanmagan tarjimasi muhim ahamiyatga ega. XX asr boshlarida Kaulingning (1917) xitoyshunoslik bo‘yicha umumlashtiruvchi ensiklopediya yaratishga urinishi mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning ma’lum ma’noda yakunlovchi bosqichini ifoda etdi. G‘arb tarixchilaridan A. Maspero va Krill qadimgi Xitoy tarixini turli manbalar asosida chuqur va tanqidiy tahlil qilgan yirik tadqiqotchilar sifatida e’tirof etiladi.

G‘arb tarixchilari qadimgi Xitoy tarixi bo‘yicha ko‘plab qimmatli manbalar va materiallar to‘plagan bo‘lsalar-da, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ular Xitoy taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini to‘laqonli va ilmiy asosda ochib bera olmagan. Shuningdek, Yevropa mustamlakachilik qarashlari ta’sirida Xitoy madaniyati alohida, o‘ziga xos madaniy tizim sifatida baholangan.

Rus sayohatchilari va olimlari Xitoyni, Xitoy tili, tarixi va adabiyotini o‘rganish ishiga katta xissa qo‘shdilar. Rossiya XVII asr boshidayoq Xitoy bilan aloqa qila boshlagan. 1616 yilda Xitoyga V.

[95] Bentu de Goes (Bento de Góis, taxm. 1562–1607), portugaliyalik iezuit missioner va sayyoh.

Tyumenes, So‘ngra I.Petlin yuborildi, u Pekinda rus elchisi sifatida 1618 yil 4 sentyabirdan 11 oktyabirgacha bo‘ldi. Petlinning hisoboti o‘sha vaqtdagi Xitoyni qiziqarli tasvirlab beradi. Birmuncha keyin Xitoyga boyar o‘g‘li F.I.Baykov boshchiligida elchilar yuborildi, ular 1656 yilda Pekinga kelganlar. 1675 yilda Xitoyga N.G. Spafariy boshchiligida elchilar yuborildi. Spafariy o‘z sayohatlari uchun Sibirning va uning janubida “Xitoy baland devori”gacha cho‘zilgan mamlakatlarning hamma chizmalaridan foydalangan, bu esa o‘sha vaqtlarda kartografiya taraqqiy etganini ko‘rsatadi.

XIX asrning birinchi yarmida rus Xitoyshunosligining yirik vakili Ivan Bichurin Pekin missiyasida 1806–1821 yillarda yashab, Xitoy tarixi, geografiyasi, tili va Xitoyshunoslikning boshqa sohalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy materiallar to‘pladi va asarlar yaratdi. U o‘z zamonasida yirik Xitoyshunos hisoblanardi va asarlari nafaqat rus, balki Yevropa Xitoyshunosligi taraqqiyotiga ham muhim ta’sir qildi. 1837 yilda Qozon universitetida Xitoy tili kafedrasi tashkil etilishi rus Xitoyshunosligining keyingi rivojiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, Pekin missiyasi a’zolari, jumladan Palladiy Kafarov ham Xitoy tili lug‘atini nashr etdi va tarixiy hamda geografik mavzularda qator asarlar yaratdi. Shu tariqa, rus olimlari Xitoyning tarixi, geografiyasi va tilini o‘rganishda boy ilmiy meros qoldirib, Xitoyshunoslikni sezilarli darajada rivojlantirdilar.

Dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi. Qadimgi Xitoy afsonalariga ko‘ra Xuanxe daryosi qirg‘oqlarida dastlab Sya davlati paydo bo‘lgan. Arxeologik ma’lumotlarga qaraganda Sya sulolasi qabilaviy ittifoq shaklidagi davlat bo‘lgan. Qadimgi xitoyliklarning ota bobolari asosan o‘troq dehqonchilik va qisman chorvachilik bilan shug‘ullangan. Shu bilan birga Sya davrida hunarmandchilik ravnaq topadi. Bu davlat tarixi haqida ko‘plab afsonalar va hodisalar keltirilib o‘tiladi. Arxeologik ma’lumotlarga qaraganda Xuanxe va Yanszi daryolari oralig‘ida bronza quyish tizimi Sya sulolasi davrida kengaya boshlaydi. Janubiy Xitoy o‘shavaqtda bronza quyish markazi hisoblangan. Qalay va mis janubiy-sharqiy Osiyoda Xuanxe havzasidagi madaniyatlarga nisbatan oldinroq paydo bo‘lgan.Markaziy

Hindixitoyda metallurgiya Xitoydan ilgariroq tashkil topgan edi.Bu davrda mulkiy tabaqalanish tezlasha boradi va ilk yozuvlar paydo boʻladi.

Shan-In davlati. Hujjatlar va arxeologiya materiallari asosida Xitoy tarixining hozirgi vaqtda oʻrganish mumkin boʻlgan eng qadimgi davri Shan – In davlati yashagan davridir. Mil. avv. II-ming-yillikda Xitoyning Gansu viloyatidan to Shandungacha, Xebeydan Xunangacha va Szyansi daryolar etaklarigacha boʻlgan hududda ilk shahar manzilgohlari kengayib boradi. Ushbu shaharlar jamoalar tomonidan idora qilingan. Jamiyatda harbiy demokratiya ustunlik qilar edi. Aynan Shu sivilizatsiya asosida Shimoliy Xitoyda Shan shahar jamoasi vujudga keladi. Bu jamoa In qabilaviy ittifoqidan ajralib chiqadi. Uning hukmdori “van” unvoniga ega edi. Soʻngra Chen Tan ismli podsho Sya sulolasini taxtdan olib tashlab, Shan davlatini barpo yetadi. Ushbu davlat mil. avv. 1600-1027-yillargacha mavjud boʻlgan. Ayrim adabiyotlarda bu davr xronologik jihatdan er.avv. XVIII – XII asrlarga toʻgʻri kelishi yozilgan. Qadimgi Xitoyning tarixiy afsonasiga koʻra qabila boshligʻi Pan Gen er.avv. 1400 yillarda oʻz qabilasini Anyanga olib kelib Xuanxe daryosi boyida “Katta Shan shahri”ni qurdirgan va butun davlatini oʻz nomi bilan atagan.

Shan podshosi Pan Gen davrida poytaxt Yandan Beymen shahriga koʻchiriladi. Keyinchalik Beymen shahri In deb ataladigan boʻldi. Natijada davlat Shan-In deb ham tilga olindi. Podsho asosan diniy va dunyoviy hokimiyatni oʻzida mujassamlashtirgan edi. Hokimiyat (hukmdorlar U Din va U I gacha) akadanukaga yoki amakidan jiyanga meros boʻlib oʻtgan. Ichki nizolar tufayli dastlabki poytaxtlardan biri (Chun Din davrida) Syao shahriga koʻchiriladi. Soʻngra hokimiyat otadan-bolaga oʻtish tizimi (taxminan mil. avv. 1300-yil) joriy qilingan.Amaldorlar sinfi zodagon qavmlar tabaqasidan shakllangan. Davlat boshqaruv apparati podsho (yoki Van), yirik amaldorlar, kichik zodagonlar va jangchilardan iborat boʻlgan. Dehqon va qullar ijtimoiy tabaqaning eng quyi pogʻonasidan oʻrin egallagan edi. Shan davlati koʻchmanchilarning doimiy hujumi ostida ularga qarshi kurash olib borganligi haqida yozma

ma’lumotlar saqlanib qolgan. Shan podsholari Syuan-syao (sariq imperator Xuan-di) urug‘idan bo‘lgan deb hisoblangan.

Shan-In davrini o‘rganishda ko‘plab moddiy-madaniy yodgorliklari, san’at asarlari, toshbaqa kosalari va suyaklarda yozib qoldirilgan 100 mingga yaqin fol yozuvlari aniqlangan. Bular arxeologlarning 1928- yilda boshlab 1937 yillargacha olib borilgan keng miqyosdagi izlanishlari natijasi bo‘ldi.

Bu yodgorliklarni o‘rganish tarix fani oldida bir qancha yangi masalalar, jumladan, Xitoy madaniyatining kelib chiqish masalasini qo‘ydi. Shan davridagi kishilar o‘rtasidagi juda yaqin aloqa bo‘lganini aniqlashga imkon beradi. Xitoy qabilalarining g‘arbdan ko‘plab ko‘chib kelganligi haqidagi nazariya xatto yarim afsonaviy tarixiy an’analarda ham tasdiqlanmadi. Chunonchi qadimgi Xitoy adabiyotida va har xil yozuvlarda Xitoylarning g‘arbdan ko‘plab ko‘chib kelganligi to‘g‘risida hech narsa deyilmagan. Shunday qilib, Shan-In davrininig madaniyatini vujudga keltirgan qadimgi Xitoy aholisi Xitoyning azalgi tub aholisi bo‘lib, juda qadimgi zamonlardan buyon shu yerda yashab kelgan va Shimoliy Xitoy hududida neolit davrining madaniy yutuqlarini meros qilib olgan va saqlab kelgan deb faraz qilish uchun hamma asoslarni berdi.

Xo‘jalik va jamiyatning rivojlanishi. Iqtisodiyotning ilgari zamonlardan meros qilib olingan juda ibtidoiy ko‘rinishlari ko‘p vaqtlargacha saqlanib kelgan. Xo‘jalikning ibtidoiy ko‘rinishlari bo‘lgan baliqchilik va ovchilik hali ham katta xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lib kelgan.Daryo vodiylariga tutashgan katta-katta pichanzorlar va bepoyon dashtlar aholiga ko‘plab chorva mollari urchitishga imkon bergan. Neolit davridan boshlaboq yirik qoramol va mayda chorva mollarining turli zotlari, shuningdek cho‘chqa’lar o‘rgatilgan. Anyandagi qazishlar vaqtda uy hayvonlari, chunonchi: it, cho‘chqa, qoy, echki, buqa va qo‘tos suyaklari topilgan. Keyingi yillardagi qazishlar otlarni qo‘lga o‘rgatib ishlatilganini ko‘rsatadi. In davrida uy parrandalari ham paydo bo‘lgan.

Biroq In davrida xo‘jalikning eng asosiy va yetakchi turi dehqonchilik bo‘lgan. Don ekinlari orasida eng ko‘p tarqalgan tariq bo‘lgan. Tariq Shimoliy Xitoyda asosiy don ekini hisoblanadi.

Tariq namni kam talab qilgani uchun qadimgi Xitoylar uni koʻp ekkanlar.

Xitoyda In davridayoq ba'zi texnika oʻsimliklari ma'lum bulib, ipakchilik ham tarqala boshlaganligini faraz qilmoq uchun hamma asoslar bor. Kulolchilik yuksak darajada taraqqiy etgan. Sopol idishlar yasash uchun loyning juda koʻp navlari, jumladan yuqori sifatli oq qalin (chinni) loyi ishlatilgan. Idishlar kul bilan yopishtirib yasalgan, shu bilan birga loyni koʻpincha lenta shaklida choʻzib, keyin spiralga oʻxshatib jimjimador qilganlar. Xitoyda xun olish odati Konfutsiy davrigacha saqlanib kelgan. Masalan, Konftusiy, oʻgil otasi yoki onasini oʻldirgan kishida albatta xun olishi kerak, deydi.

Eng qadimgi davlatlarning vujudga kelishi.

Xitoy podsholari Shan-In davlatining qishloq va dalalariga tez-tez hujum qilib turgan harbiy togʻliklar bilan ayniqsa qattiq urush olib borganlar. Podsho togʻlardagi bosqinchi qabilalar bilan urush boshlasakmikan va bu urush muvaffaqiyatli tugarmikin, umid qilganlar.Qur'alardagi yozuvlarda mamlakat chegaralarini ajnabiylarning tinchlik bermayotganliklaridan shikoyatlar bayon qilingan.

In sulolasi podsholik qilgan davrning oʻrtalari va oxirlarida koʻchmanchilar yashab turgan togʻli hududlarni, shuningdek Vey va Fen vodiysini, yani Shensi viloyatining markaziy qismini va Shansi viloyatining janubi-gʻarbiy qismini sekin-asta Xitoyliklar egallab olib, kolonizatsiya qiladilar. Mamlakat chegaralarini koʻchmanchilardan mudofaa qilish zarurligi va qoʻshnilarining yerlarini, qullar va oʻljalar qoʻlga tushirish siyosati, armiya tuzishni va harbiy ishni yoʻlga qoʻyishni talab qilardi. Xitoy qoʻshinlari qadimgi zamonlardanoq asosiy qismlarga: piyodalarga, otliqlarga va jang aravalariga boʻlinib kelgan. Oʻrta va Sharqiy Osiyoning keng dashtlarida juda qadim zamonlardanoq otlar qoʻlga oʻrgatilgan va jang aravalari paydo boʻlgan, bu aravalardan koʻprog' janglarda foydalanilgan. Jang arava va ot In davridagi yozuvda tilga olinadi. Anyandagi qazishlarda jang aravalari yasatish uchun bronzadan ishlangan 400 ga yaqin turli zeb-ziynat asboblari va ot skeletlari topilgan. Xitoy qoʻshini juda oddiy qurollar – koʻpincha bronzadan ishlangan qurollar: qilichlar, jang

boltalari va o‘sha zamonda ko‘p tarqalgan oyboltalar, shuningdek kamalak va o‘qlarni, nihoyat, nayzalar bilan qurollangan bo‘lgan. Qo‘shinning soni 3 ming kishiga yetgan. Ko‘chmanchilar bilan uzoq vaqt olib borilgan urushlar Shan-In davlatini zaiflashtirib qo‘yadi. Vey daryosi xavzasiga joylashib olgan chjou qabilalari bir qancha katta g‘alabalardan keyin qadimgi In podsholigini tor-mor qilib, uning xarobalari ustida yangi davlat barpo qilganlar va bu davlat qabila nomi bilan Chjou davlati deb atalgan.

Yozuvning paydo bo‘lishi. Eng qadimgi piktograf (suratli yozuv) va yozuvning ieroglif yozuvi Shan-In davrida paydo bo‘lgan. Ayrim so‘zlarga quyosh, oy, yer, o‘rmon, erkak, xotin kishi, hayvonlar va qurbonliklarning suratlari va hokazolar orqali ma’no berilgan.

Chjou davlati (er.avv XII-VIII asrlar). Chjou davlatini barpo qilgan Xitoy qabilalari neolit davridanoq Shimoliy Xitoy Vey daryosi havzasida, hozirgi Shensi viloyatida anchagina katta joylarga o‘rnashib olganlar. Zamonlar o‘tishi bilan bu qabilalar Vey daryosi xavzasida yashovchi boshqa hamma qabilalar ustidan hukmronlik qila boshlab, so‘ngra ancha katta qabilalar ittifoq barpo qilganlar. O‘sha zamondagi manbalarga qaraganda bu qabilalar In davlati bilan ancha yaqin munosabatda bo‘lganlar. In podsholari Chjou hokimlariga o‘z davlatlarining shimoli-garbiy chegaralarini qo‘shni ko‘chmanchi qabilalarning hujumlaridan himoya qilishni topshirganlar. “Chjou” so‘zining o‘zi ba’zan Indagi yozuvlarda uchraydi. In davlatining zodagon oilalari va hatto podsholari ham o‘z qizlarini chjou qabilalarining boshliqlariga erga berganlar. Bu qabilalar In davlatidagi qabilalarga qarindosh bo‘lgan bo‘lishlari ham mumkin.

Chjou qabilalari eng qadimgi In madaniyatining ko‘p elementlaridan keng foydalanganlar. Chjou qabilalari yozuv, xronologiya tizimini, arxitektura uslubi, o‘ziga xos fol ochish tartibi va hatto dinning ba’zi ko‘rinishlarini inliklardan olganlar. Chjouliklar In davri madaniyatining yutuqlarini tan olganlar va o‘zlarini bu madaniyatning vorislari va davom ettiruvchilari deb hisoblaganlar.

Mil. avv. 1027-yili Chjou knyazi U Van, Shan podshosi Di Singa qarshi isyon ko‘tarib, Mu-e yonidagi jangda Shanliklar ustidan

g‘alabaga erishadi. Shan podshosi Di Sin poytaxti Chaoge shahriga qochib, o‘z saroyi “Kiyik minora”da joniga qasd qilgan. Dushman qo‘shini shaharga kirib kelib, U Vanni podsho deb elon qiladi. Shu tariqa Xitoyni 300-yil birlashtirib turgan Chjou davlatiga asos solindi. Chjou Sharqiy va G‘arbiy Xitoyni nazorat qilib turushga erishdi. Shimoliy Xitoydagi bir-necha yirik qabilalar birlashtirildi.

Bosib olingan yerlarni U Van qarindosh urug‘lari va tarafdorlariga bo‘lib beradi. So‘ngra taxtga U Vanning o‘g‘li Yosh Chen-van keladi. Hukmronligining dastlabki yetti-yilligi davrida davlatni amakisi Chjou-gun boshqaradi. Shanliklar isyoni bostiriladi va ular o‘z yerlaridan ko‘chirib yuboriladi. Shuningdek, ko‘chmanchi I qabilariga qarshi yurush qilinadi. Mil. avv. 996 yili taxtga Chen-vanning o‘g‘li Kan-van keladi. Uning davrida qaram viloyatlar boshqaruvi isloh qilinib, ularning soni 55 dan 36 taga kamaytiriladi va ixchamlashtiriladi. Yozma manbalarning ta’kidlashicha (“Bambuk kitoblar” va ”Shitszi”) o‘sha vaqtda Chjou davlatida tinchlik hukm surgan. Mil. avv. 977 yili imperator vafot yetadi. Keyingi imperator Chjao-van janubdagi isyonlarni bostirishga urinadi va Janubiy Xitoyda tuzilgan Chu podsholigi bilan urushda halok bo‘ladi.

Chjou podsholari “Shanfu” (yuz boshi) va “szay” (boshliq yoki to‘g‘rilovchi) unvonlariga ega bo‘lgan saroy a’yonlariga tayanib davlatni idora qilganlar. Podsho saroyi davlat boshqaruvining markazi hisoblangan. Davlat yerlarini nazorat qilish uchun podsho alohida mansabdor shaxsni tayinlar edi. Mil. avv. VIII asr boshlarida Chjou davlatidan shimoli g‘arbda yashagan “jun” qabilalari talonchilik yurushlarini amalga oshiradilar. Chjou podshosi YuVan (mil. avv. 781-771 y) ularni to‘xtatish uchun urush olib boradi. Chjouning o‘troq aholisi junlarni varvar qabila sifatida ko‘rar edi. Chjou (ayrim manbalarda G‘arbiy Chjou) davlatining poytaxti Xao shahridan Loi shahriga (zamonaviy Loyan) ko‘chirilishi bilan (mil. avv. 771 yil) Sharqiy Chjou sulolasining davri boshlanadi. O‘z tarixining boshlanishidan G‘arbiy Chjou davlati uni o‘rab turgan qabilalar bosqinlaridan o‘zini himoya qilishga majbur bo‘lgan, ayniqsa, shimolig‘arbda va janubi-sharqda, va bu vazifani unumli bajarayotgan edi. Chjouxouning separatistik harakatlari kuchayishi bilan vanlarning

(knyazlar) harbiy salohiyati sustlashgan, podsho hokimiyatining martabasi tushgan. Chjou hukmdorlari uchun qo‘shni qabilalarning, ayniqsa shimoli-g‘arbda va janubi-sharqda kuchaygan qabilalarning hujumlarini qaytarish borgan sari qiyinlashgan. Miloddan avvalgi VIII asrda Markaziy Osiyodan g‘arbiy ko‘chmanchi qabilalarning tuganmas bosqinlari bosimi ostida Chjouliklar o‘z ona yerlari bo‘lmish Veyxe daryosi havzasini tark eta boshladilar. 771-yilda Yu-vanning askarlari ko‘chmanchilar tomonidan mag‘lub qilindi, uning o‘zi asirga tushdi va Shundan so‘ng uning o‘g‘li Pin-van poytaxtni sharqqa ko‘chirdi. Bu voqeadan so‘ng an’anaviy Xitoy tarixshunosligida “Sharqiy Chjou”(mil. avv. 770-256-yillar) davri boshlanadi. Uning boshlang‘ich bosqichi bo‘lmish davr, ya’ni mil. avv. VII asrdan mil. avv. V asrgacha bo‘lgan davr-yilnomalar an’anasiga binoan “Chunsyu” (bahor va kuz) davri deb nomlanadi.Mamlakatning sharqida o‘rnashib olgan Pin-van bu yerda Loi shahri poytaxti bo‘lgan kichik davlatga asos soldi. Bu vaqtgacha, an’anaviy tarixshunoslikka binoan, Xitoy hududida 200 ta podsholik mavjud bo‘lgan deb hisoblab, ko‘pgina tadqiqotchilar ularni shahar-davlatlar guruhiga kirgizishadi. Umuman, Qadimgi Xitoydagi ilk davlatlar shakli haqidagi sharqiy despotiya kabi tasavvur allaqachon qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda va asosli tanqidga uchramoqda. Qadimgi Xitoyning ilk Chjou podsholiklari Veyxe daryosidan Shandun yarimoroligacha g‘arbdan sharq tomon cho‘zilib, Buyuk Xitoy tekisligini o‘z ichiga olgan. Janub va janubi-sharqda Yanszi daryosining o‘rta va quyi oqimlarini qamrab olgan, shimolda esa zamonaviy Pekin hududiga qadar etib borgan. Umumlashtiruvchi nomlar ostida bo‘lgan dushman qabilalari: “Di” (shimoliy qabilalar), “I” (sharqiy qabilalar), man (janubiy qabilalar), “Jun” (g‘arbiy qabilalar) tomonidan o‘rab olingan. “Chunsyu” davri haqida arxeologik materiallardan tashqari ko‘plab arxitektura yodgorliklari ham ma’lumot beradi. Ular o‘rtasida yuqorida eslatilgan. Lu (Shandunda) podsholigining-yilnomasi bo‘lib, uning izohlari: “Gunyanchjuan” va eng mashhur bo‘lmish “Szochjuan”va “Goyuy” (podsholiklar nutqi) mil. avv. IX asr an’analariga mos ravishda qadimgi Xitoy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Buyuk Xitoy tekisligidagi Xuanxe daryosining oʻrta va quyi havzasida tarqatilgan podsholiklar orasida ularning bir qismi oʻzlarini Chjouliklar, boshqalari Shanliklar avlodlari deb hisoblashgan. Ammo ularning barchasi oʻz ustidan Osmon "Chunsyu" – Lu podsholigi yilnosasining nomi boʻlib. Ushbu davrdab bizgacha yetib kelgan yagona yilnomadir. Oʻz ichiga mil. avv. 722-482 yillardagi ob-havo yozuvlarini mujassamlashtirgan. Ilmiy adabiyotlarda "Chunsyu davri" da uchun turli sanalar beriladi, ammo ularning barchasi mil. avv. VII-V asrlarga oid boʻlib, mil. avv. 403 yilgacha davom etgan.

Xoʻjaligi va ijtimoiy tuzumi. Mamlakatning butun iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi oʻzining yetakchilik ahamiyatini saqlab kelgan. Mamlakatning tabiiy sharoiti imkon bergan tumanlarda, asosan, chorvachilik bilan shugʻullanganlar. Shunday qilib, dasht va togʻlik viloyatlarda alohida chorvador tumanlar paydo boʻlgan, bu tumanlar maxsus amaldorlar koʻl ostida boʻlgan. Manbalarda aytilishicha, bu amaldorlar parrandalar va hayvonlarni urchitishga hamda ularning moʻl-koʻl boʻlishiga olib kelgan va undan koʻpgina turli buyumlar, asosan qurol yarogʻ-yasalgan. Bu davrda bronzani ishlash texnikasi juda ham ravnaq topgan. Xitoy tarixining huddi ana shu davrga oid boʻlgan goʻzal bronza idishlar bundan dalolat beradi. Davlatga qarashli katta hunarmandchilik ustaxonalarining boʻlganligi ham rivojlanganligini koʻrsatadi; bu ustaxonalarda qullar ishlagan va ularni hunar va san'atdan xabardor boʻlgan maxsus amaldorlar nazorat qilib turgan. Bu hunarmandchilik ishlab chiqarishni birmuncha darajada differensiyalashgan edi. Masalan, bronza ishlab chiqarish ishini boshqaruvchi alohida amaldorlar boʻlgan, ular maxsus metallurgiya ustaxonalarini boshqargan.

Chjou davrining ijtimoiy tuzumi undan avval oʻtgan davrga xos koʻp xislatlarni oʻzida saqlab qoladi. Masalan, patriarxal oila juda mahkam oʻrnashib olgan. Bu patriarxal oilada ota cheksiz hokim boʻlgan.Otaga oilaning barcha a'zolari tamoman boʻysunishlari lozim boʻlgan.Otaning obroʻsini davlat hokimyati qoʻllab kelgan. Masalan, podsho Syuanning (Eramizdan avvalgi 827-782 yillar)farmonida: "Oʻzining bevosita boshligʻi bergan amirdan shikoyat qilishga fuqaroning mutlaqo haqqi yoʻq, chunki,

agar shikoyat qilishga yo‘l qo‘yib bersa, bolalar otalari bilan sudlashadi, natijada yoshlar va yoshi ulug‘lar bilan kichiklar o‘rtasida farq ham bo‘lmay qolar edi” deyiladi. Xotinlarning shaxsiy mulkka ega bo‘lish huquqi bo‘lmagan[96].Erkakning qarindosh –urug‘lari bo‘lmagan taqdirdagina xotinlar mol- mulkka merosxo‘r bo‘la olgan.

Davlat hokimiyati yilqichilikka alohida etibor bergan, chunki armiyaga juda ko‘p miqdorda otlar zarur bo‘lgan. Podshoning maxsus saroylaridagi yilqilar boqiladigan alohida o‘tloqlar bo‘lgan.

Bu davrda oliy sud mahkamasining va jinoiy ishlarni ko‘radigan oliy sudiyaning alohida bo‘lishi sud ishlarini yo‘lga qo‘yishning rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Sud ishlari sekin asta rasmiylashib borib, eng qadimgi yozma qonunlar bilan eng qadimgi kodekslashga huquqlar paydo bo‘lgan. Masalan oliy zotni haqoratdan saqlash to‘g‘risida maxsus qonun bo‘lgan; salgina bo‘lsa ham podshoga til tegizgan odam shu qonunga muvofiq qattiq va og‘ir jazoga tortilgan. Oliy sudyadan iborat yuqori sud instansiyasi jinoyat qilganlarga o‘lim jazosi berilishi lozim bo‘lgan muhim ishlarnigina qaragan. Boshqa hamma ishlarni mahalliy sudiyalardan iborat quyi instansiya sudlar ko‘rib chiqqanlar.

Podsho rezidensiyasi ayni zamonda davlat poytaxti ham bo‘lgan. Chjou davlatining asosiy markazlari va poytaxtlari bo‘lgan Fen va Xao shaharlarining keyinchalik Lo-i nomi ham tarixiy an’analarda saqlangan. Saroy ahli va aristokratlar hayotining rang barang tasvirlari o‘sha davrning adabiy asarlarida, jumladan saroy poyeziyasida saqlanib qolgan.

Chjou davlatining siyosiy boshqaruvi. Demak, Chjou avlodidan chiqqan podsholar In davlatini istilo qilganlaridan keyin katta va kuchli podsholik barpo etganlar.Ilk Chjou sulolasi davridan boshlab hokimyat tepasiga birin ketin kelgan podsholarning nomlarigina ma’lum. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yozilgan “Osmon o‘g‘li Mu tarixi” da shu davrga oid qadimgi afsonalar saqlangan. Bu qadimgi afsonalarda podsho Chao bilan podsho Mu davlat hududini juda kengaytirgan ulug‘ istilochilar qilib ko‘rsatiladi. Shu istilolar natijasida Xitoylar

[96] Bu fikrni qo‘shimcha manbalardan ma’lumotlar to‘plab bahs tashkil qiling.

Yanszitszyan havzasiga kirib borib, Xan daryosi boʻylarida va Xubey tumanida yashovchi qabilalarni boʻysundirganlar.

Eramizdan avvalgi 842 yildan poytaxtdagi kambagʻal xaloyiq ommasi podsho Li Vanga qarshi bosh koʻtarib, saroyni shturm qilgan. Xalq agʻdarib tashlagan uquvsiz podsho Li qochishga majbur boʻlgan. Podsho hokimyatining egallash uchun kurash boshlangan. Chjou Gnu va Chjao Gun degan ikki toʻra oʻzlarini davlat regentlari deb e'lon qilib, shu bilan birga ularning hokimlik qilgan vaqtlari "Umumiy rozilik" degan xarakterli nom olgan. Eramizdan avvalgi 827 yilda, Li Van oʻlganidan keyin, regentlar hokimyatini uning oʻgʻli Syuan Vanga topshirganlar. Syuanning podshohlik qilgani toʻgʻrisidagi (Eramizdan avvalgi 827-782 yillar) aniq ma'lumotlar "Qoʻshiqlar kitobi"da va boshqa bir qancha manbalarda saqlanib qolgan.Xitoyning butun tarxiy an'anasida katta urushlarni Syuan Van qilgan u bu urushlarni qaram qabilalar oʻrtasidagi qoʻzgʻalonlarni bostirish, shuningdek asosan koʻchmanchilar joylashgan qoʻshni mamlakatlarni bosib olish uchun qilgan deyiladi.

Eramizdan avvalgi 770 yilda Chjouning deyarli nominal podshohlardan biri boʻlgan Pin Van oʻz poytaxtini sharqdagi Li-O shahrida (keyinroq Xenan viloyatidagi Lo-yanga) koʻchirgan.Xitoyning mustaqil mayda davlatlarga boʻlinib ketishi aslida ana shu davrda boshlanib bu kichik davlatlar Sharqiy Chjou davlatiga boʻysunmaydigan boʻldilar. Eramizdan avvalgi VII asrda 5 ta eng kuchli knyazlik har qaysisi butun boʻlishga uringani tufayli kuchlar muvozanatini arang saqlab tura olgan.Ular hokimlik qilgan davr ya'ni eramizdan avvalgi VII-V asrlar odatda "Besh hokim" zamoni deb ataladi. Eramizdan avvalgi V asr kelib knyazliklar oʻrtasida kurash keskinlashib ketadi. Shuning uchun ham eramizdan avvalgi V-III asrlar davri "Kurashuvchi podsholiklar " (Chjan-go) nomini olgan.

Xitoy manbalarining xabar berishicha, oʻsha davrda boylar shu qadar koʻp boʻlganki, Sin Shi Xuan-di oʻz poytaxtida savdoni taraqqiy ettirish uchun ana shunday boylardan 120 ming oilani poytaxtga koʻchirib keltirgan. Bu raqam juda mubolagʻa bilan aytilgan boʻlishi ham mumkin. Savdoning va sudxoʻrlikning rivojlanishi toifaviy kuchayishiga sabab boʻladi.Toifaviy

kurashning keskinlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ijtimoiy islohotlarning rejalari ilgari surildi, bu ijtimoiy islohot rejalari hukmron aristokratlar qatlami manfaatlarini va birinchi galda savdogarlarning badavlat o‘rta tabaqa’larning manfaatlarini yuz berishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy larzalardan qo‘riqlashni o‘ziga maqsad qilib olgan.

Eramizdan avvalgi IV asrda Sin knyazligida yerdan qadimgi jamoa usulida foydalanishni tugatishga va aristokratlar yer egaligini har taraflama mustahkamlashga qaratilgan bir qancha islohotlar o‘tkazilgan.Bu islohotlarni Sin davlatining amaldori Shan Yan o‘tkazgan.Yer islohoti shunday iborat ediki, yerni istagancha xususiy mulk qilib olishga ham yerni erkin suratda sotish va sotib olishga to‘la ruhsat etilgan. Shan Yanning soliq islohotiga muvofiq hosildan olinadigan ilgarigi soliq yer solig‘i bilan almashtirilgan, bu soliq egasining yer miqdoriga qarab har bir yer egasidan olinadigan bo‘lgan.

Eramizdan avvalgi IV asrda Sin knyazligi boshqa barcha katta knyazliklar orasida eng kuchli knyazlik bo‘lib qoladi. Sin knyazning tepasida turgan knyazlar butun Xitoyda ustun bo‘lish va hokimlik qilish uchun butun bir asr mobaynida qattiq urush olib boradilar.

Sin sulolasi davri (er.avv 256-206 yillar). Mil. avv. IV asr oxiriga kelib Xitoyni birlashtirish yo‘lida Chu va Sin davlatlari o‘zaro raqobatlashadilar. Sin podshosi Syao-Gun (mil.avv. 361-338 y)ning yirik amaldorlaridan biri Shan Yan ushbu davlatda islohotlar o‘tkazadi. U soliqlarni tartibga solib, yerni sotish va sotib olishga ruxsat beruvchi qonunlarni kiritadi. Islohot armiyada ham amalga oshirilib,Sin davlati qo‘shinlari qayta tuziladi. Natijada podsho hokimiyati kuchayadi va davlat tizimi markazlashadi. Ammo podsho Syao-Gun vafot etgach, Shan-Yan eski zodagonlar tomonidan qatl etiladi. Shunday bo‘lsada, uning islohotlari kelgusida Sin davlatining Xitoyni birlashtirish yo‘lida muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Sin Shi Xuandi

Sin knyazligi tepasida turgan knyazliklarni oʻziga boʻysundirib hamda butun Xitoyni oʻz hokimyatiga birlashtirib olgandan keyin, Sin Shi Xuand-di (Eramizdan avvalgi 246 -210 yillar) degan unvon va nom oladi. U podsholik qilgan davrda yagona va markazlashgan Xitoy davlati tiklanadi. Mil. avv. 230-yil Xan, mil. avv. 225-yil Vey, mil. avv. 223-yil Chu, mil.avv 222-yil Chjao va Yan hamda mil. avv. 221-yili Si davlatlari boʻysundirildi. In Chjen bir-necha bor unga uyushtirilgan suiqasdlardan omon qoladi. Sin podsholigi esa koʻp asrlardan buyon parchalanib yotgan Xitoyni birlashtirishga muvaffaq boʻladi. Shu tariqa "Chjango"(Kurashuvchi podsholiklar) davri nihoyasiga yetadi.

Ilgarigi mustaqil knyazliklar oʻz mustaqilliklarini yoʻqotadilar. Yagona davlat 36 oʻlkaga boʻlinib, bular faqat ma'muriy- hududiy oʻlkalar boʻlib hisoblanadi. Butun hokimyat qudratli mustabit qoʻlida toʻplanib, u mamlakatni mahkam uyushgan amaldorlar yordamida boshqaradi.Xitoyning yagona va qudratli markazlashgan davlat boʻlib birlashgan ilgarigi keng istilochilik siyosatini yana tiklashga imkon beradi, bu siyosat quldorlik xoʻjaligi va savdosini rivojlantirish uchun zarur edi. Ana shu harbiy siyosat natijasida hozirgi vaqtdagi Guandun, Guansi, Gansu va Sichuan kabi viloyatlarga joylashgan qabilalar boʻysundiriladi.Sin Shi Xuan-di davrida Xitoy davlati Xitoyning oʻzi, shu jumladan Manchjuriya va Moʻgʻulistoning bir qismi, Koreya va Hindi-Xitoy chegaralarigacha boʻlgan juda katta hududni egallagan edi. Koʻchmanchi dasht qabilalarining uzluksiz hujumlaridan davlatni himoya qilish uchun mashhur Buyuk Xitoy devori qurilishi kengaytiriladi[97], bu devor, keyinchalik, kengaytirib borayotgan Xitoy davlati atrofida uch ming kilometrdan ortiqroq masofaga choʻzilgan mudofaa inshootlarining butun bir tizimini tashkil etadi. Markazlashgan yirik davlatning tashkil topishi dehqonchilik hamda savdoni rivojlantirishni maqsad qilib qoʻygan bir qancha tadbirlani amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, Sin Shi Xuan-di davrida sugʻorish shahobchalari ancha kengaytiriladi, jumladan hozirgi Shensi viloyatida Szin daryosi bilan Lo daryosini birlashtirgan katta kanallar qazildi. Bir qancha yoʻllar qurilishi ogʻirlik, uzunlik

[97] Buyuk Xitoy devori qurilishiga oid qoʻshimcha manbalardan foydalangan holda "Debat" tashkil qiling.

va hajm o‘lchovlari yagona tizimining joriy qilinishi, shuningdek yozuvni islohot qilish ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga yordam bergan edi.

Biroq Sin Shi Xuan dining mustahkam markazlashgan davlat barpo etishni maqsad qilib olgan faoliyati yangi amaldorlar siqib chiqargan eski mulkdor aristokratiya tomonidan ham, shuningdek, qullar va dehqonlar keng ommasi tomonidan ham kuchli qarshilikka uchradi. O‘sha vaqtda Xitoy davlati ichida keskin kurash davom qilgan. Konfutsiy kitoblarining kuydirilishiga oid dalil bundan dalolat beradi. Tarixiy afsonalarga qaraganda Shi-Xuan-di tomonidan kitoblarni yashirgan va podshoni qoralagan 460 ta olimni tiriklayin yerga ko‘mdirgan ekan[98]. Shi-Xuan-di vazirlardan birining maslahati bilan tarixiy xronikalarning yana deyarli klassik asarlarining hammasi (ba’zi birlaridan tashqari) kuydirishni, unga maqul bo‘lmagan asarlarni yashirgan odamlarga esa tamg‘a bosib, Buyuk devor qurilishiga yuborishni buyurgan.

Xan sulolasi davri. (Eramizdan avvalgi 206 yil - eramizning 220 yil). Sin imperiyasi yuritgan qattiqo‘l siyosat natijasida, mavjud rejimidan norozilik kuchayib Lyu Ban boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar poytaxtni va oliy davlat hokimyatini qo‘lga olib, Sin imperiyasini qulatadi va o‘rnida Xan sulolasi hokimiyati o‘rnatiladi. Manbalarda yozilishicha, ushbu qo‘g‘olon natijasida dehqonlarning iqtisodiy ahvoli birmuncha yaxshilangan, soliqlar kamaytirilgan va davlat mehnat majburiyatlari yengillashtirilgan. Qadimgi Sharqning boshqa mamlakatlarida bo‘lgani kabi, Xitoyda ham qarzdorlik orqasidan asoratga tushish ko‘rinishlari bo‘lgan.

Urush yillarida mamlakatning odatdagi xo‘jalik hayoti izidan chiqar edi, ana shunday paytda quldorlar aristokratiyasi, davlat hokimyati apparatiga suyanib, aholiga har xil qo‘shimcha o‘lponlar solar edi. Masalan, Xan sulolasi davrida odatdagi soliqlardan tashqari, yana hosilga qarab natural bilan soliq joriy qilingan, bu soliq yeri bor odamlardan olingan; shu bilan birga, sana pul solig‘i joriy qilinib, u butun aholidan olingan. U Di hukmronlik qilgan zamonda g‘azna daromadini oshirish uchun tuz va temirga monopoliya joriy qilingan. Qul savdosi ayniqsa avj olgan, bu esa

[98] Bu masalani qo‘shimcha adabiyotlar yordamida o‘rganib, munozara qiling.

mamlakatda qullar juda ham koʻpayib ketganligini bildiradi. Maxsus qul bozorlari vujudga kelgan, shu bilan birga qul olib sotishni oʻziga kasb qilib olgan va qul savdosidan mumkin qadar koʻproq foyda olish uchun har xil tadbirlar oʻylab chiqargan alohida savdogarlar paydo boʻlgan.

Imperator U Di podsholik qilgan davrda bir loyiha ishlab chiqilgan, bu loyihaga koʻra zodagonlar va amaldorlar koʻpi bilan 5 ming oʻlchov (mu) dan ortiq yerga egalik qila olmagan shuningdek qullar soni ham shu tarzda cheklangan.Quldorlar oʻz ijtimoiy ahvollariga qarab 30 dan 200 gacha qul saqlashi mumkin boʻlgan.Ammo bu loyiha amalga oshirilmay qolib ketgan.

Tashqi savdo. Xan davrida Xitoy qanday ahvolda boʻlganligi xarakterlovchi gʻoyat muhim fakt shu boʻlganki u davrda tashqi savdo ancha oʻsgan va shu munosabat bilan keng koʻlamda istilochilik siyosati olib borilgan. Xitoylar eramizdan avvalgi II asr oxirida, imperator U Di zamonida (140-87 yillar) gʻarbning uzoq joylarigacha, to Oʻrta Osiyogacha ular “Gʻarbiy chekka” (Si yuy) deb atalgan mamlakatgacha kirib borganlar. Xitoy karvonlari Sharqiy Turkiston orqali Tarim havzasining janubiy vodiysidagi tumanlarga va Oks bilan Yaksart daryolari (Amudaryo va Sirdaryo) oʻrtasidagi oʻlkalargacha yetib borganlar.

Xitoylar Fargʻona bilan ayniqsa qizgʻin savdo sotiq munosabati oʻrnatganlar. Har xil Xitoy mollari Baqtriyaga olib borilgan, U yerda Eron savdogarlari bu mollarni gʻarbga, Suriyaga olib borib sotganlar. Xitoylar tashqariga ipak chiqargan, Chetdan esa har xil gazlama rang barang gilamlar, oyna, metallar,qimmatbaho buyumlar, yashma toshi va marjonlar, dorivorlar, Baqtriyadan ot va tuyalar olib kelganlar. Xitoy mollari Eron va Suriya orqali Rim imperiyasiga olib borilgan.

Muhim savdo yoʻllari, bozorlarni qoʻlga kiritishga intilish istilochilik siyosatining rivojlanishiga sabab boʻlgan. Xitoy sarkardasi va diplomati Ban Chao (eramizning 32-102 yillari) Sharqiy Turkistonga bir necha marta qoʻshin tortib borgan va oqibatda bu mamlakatni istilo qilgan. Eramizning 97 yilida Ban Chao Xitoy qoʻshinlarini Margʻiyona Antioxiyasigacha olib borgan. Xitoylar sharqda Koreyaga hatto Hindi-Xitoyning ayrim viloyatlariga kirib borganlar, ular Hindistonga yoʻl ochmoqchi

boʻlganlar. Xitoy hukumati juda koʻp davlatlari bilan (36 ga yaqin davlat bilan) diplomatik va savdo munosabatlari oʻrnatgan. Bu davrga oid Xitoy yozuvlarida chet mamlakatlarning nomlari uchraydi, tadqiqotchilar fikricha bu nomlar orasida Parfiya va Suriya borligini ham aniqlagan. Xitoyliklar bu mamlakatlar bilan ham savdo aloqalarini oʻrnatgan.

Van Man islohotlari. Xan davrida Xitoy davlati qudratining oshganligi madaniyatning yuksalishida ham oʻz ifodasini topgan. Manbalarda koʻrsatilishicha, bu vaqt akademiya, kutubxona tashkil qilingan, davlat yozuvchilariga homiylik qilgan, ochiq imtihonlar oʻtkazib, amaldorlarning malakalarini oshirishga gʻamxoʻrlik qilingan. Lekin bu ishlarning nechogʻli samarali boʻlgani bahsli masala hisoblanadi. Aholining koʻpchiligi juda ogʻir ahvolda yashagan. Imperator Van Man oʻtkazgan islohotlar buni ochiq oydin koʻrsatib turadi. Van Man davlat hokimyatini eramizning 8 yilda koʻtarilgan qoʻzgʻolon natijasida qoʻlga olgan edi. 9-10 yillarda Van Man bir qancha islohotlar oʻtkazgan, bu islohotlarga koʻra, aristokratlarga qarashli yerlar musodara qilinib, davlatdagi hamma yer “podsho yeri” deb e’lon qilingan. Shu bilan bir vaqtda yer fondini qaytadan taqsim qilishga hamda yer egaligini cheklab qoʻyishga harakat qilingan. Soʻngra davlatning temir, tuz, vinoga bir oz susaytirilgan monopoliyasi yana kuchaytirilgan va narx - navolar qat’iy qilib belgilangan. Ishlab chiqarish va savdoni tartibga solish maqsadida, mamlakat xoʻjalik hayoti ustida qat’iy va amaliy nazorat oʻrnatish uchun davlat hokimyatidan foydalanilgan. Biroq Van Man islohotlari muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan. Oradan uch yil oʻtar oʻtmas 12 yilda yer islohoti bekor qilingan, undan keyin esa, qullar sotish, va sotib olishga yana ruxsat etilgan. Bu islohotlar boy tabaqalarning, birinchi galda, aristokratlarning manfaatlariga anchagina daxl qilib, ular oʻrtasida norozilik qoʻzgʻatgan edi.

Kambagʻallarning ochlik natijasida koʻtargan qoʻzgʻalonlari, keng koʻlamdagi ijtimoiy harakatlar davom etavergan va tobora kuchayib borgan. Fan Chun boshchiligida koʻtarilgan mashhur “qizil qoshlar” qoʻzgʻoloni juda katta xalq qoʻzgʻoloni boʻlib u eramizning 18 yilida Shandundagi aholining juda koʻpchiligini oʻz ichiga olgan. Van Man islohotlaridan norozi boʻlgan reaksion

aristokratiya guruhlari ham qoʻzgʻolonchilarga kelib qoʻshilgan. Fan Chun qoʻzgʻolonchilarning 10 ming kishilik armiyasi yordamida, Van Man armiyasi ustidan gʻalaba qozongan. 23 yilda Van Man qoʻshinlari tor-mor qilinib, poytaxtni qoʻzgʻolonchilar egallab olgan, ammo 27 yilda "qizil qoshlar" orasiga kirib olgan aristokratlar qozgʻolonchilardan ustun kelib, ularni tor-mor keltirgan va avvalgi quldorlik tartiblarini yana tiklagan.184 ylda yana bir katta koʻzgʻolon boʻlgan. Bu, oʻsha zamonning katta siyosiy arbob Chjan Szyao va uning aka ukalari tomonidan puxta oʻylab tashkil qilingan "sariq roʻmollilar " qoʻzgʻoloni edi. Qoʻzgʻalon tashkilotchilari oddiy xalq oʻrtasida umumiy tenglik fikrini targʻib qilganlar, shuning uchun ular ta'limoti "Umumiy tinchlik yoʻli" degan nom olgan. Qoʻzgʻolonchilarning yoʻlboshchilari omma orasida juda ma'lum va mashhur boʻlib, katta obroʻ qozongan. Qoʻzgʻolonchilar armiyasi bir necha yuz ming kishiga yetgan. Bu ommaviy haqiqiy xalq xarakati juda keng tus olib ketganiga qaramay, qoʻzgʻolon bostirilgan. Biroq Xan sulolasi oliy hokimyatni oʻz qoʻlida saqlab qola olmagan. Koʻpdan koʻp qoʻzgʻolonlar Xan davlatini holdan toydirgan. Koʻchmanchilarning hujumi esa bu davlatni parchalanishiga olib kelgan.

Qadimgi Xitoy madaniyati. Xitoy jahondagi eng koʻhna, oʻziga hos madaniyat yaratilgan hududlardan sanalib, mashhur olim A.Toynbi oʻzini asarida e'tirof etgan 21 ta sivizitsiyadan biri sifatida qayd etgan. Eng qadimgi Xitoy yozuvlari ya'ni iyeroglif yozuvlarining paydo boʻlishi, koʻplab tarixiy voqealarning yozib qoldirilishiga imkon bergan. Saqlanib qolgan tarixiy-adabiy manbalar, koʻproq Xitoy diniy falsafasi, huquqshunosligi qanday paydo boʻlgani va rivojlanishi haqida ma'lumot beradi.

Qadimgi zamonda yashagan boshqa barcha xalqlarning diniy e'tiqodlari kabi, Xitoylar dini ham fetishizmdan, tabiatga sigʻinishining qadimgi koʻrinishlari va sehirgarlik bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan totemizmga e'tiqod qilishdan boshlanadi. Tarixiy manbalarda tabiatni ilohiylashtirish bilan bogʻliq boʻlgan totemistik tasavvurlar keng tarqalgan zamonlar haqida esdaliklar saqlanib kelgan.

Qadimgi Xitoyda tabiatga topinish, ayniqsa yer va tog‘ga topinish azaldan juda keng tarqalib kelgan. Xitoyda qadimdan rasm bo‘lib kelgan tog‘ga topinish odati Xitoy yerining relyefi va o‘sha zamonning xo‘jalik turmushi bilan bog‘liq bo‘lgan, chunki Xitoylarning eng qadimgi ota bobolari yozda tog‘larda, qishda esa dashtda yashab tog‘lardan daryolarga qarab ko‘chib yurganlar. Xitoyda diniy e’tiqodlar juda qadim zamonlardayoq shakllangan. Klassik adabiyot asarlarida qadimgi muqaddas matnlar bo‘lganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar saqlangan va bu matnlarni dindor odamlar juda hurmat qilgan. Ammo eramizdan avvalgi VI-V asrlarda ma’lum shaklda kirgan va eng keyingi dinlarga asos bo‘lgan diniy –filosofik tizimi Xitoyning ayniqsa katta ahamiyat qozongan. Konfutsiyning diniy-filosofik tizimi Xitoyning madaniy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Konfutsiy tizimida tarbiya elementlariga katta e’tibor berilgan.

Qadimgi Xitoyda yana bir falsafiy tizim Lao-szi tomonidan yaratilgan. Keyinchalik bu filosofik tizimdan butun bir murakkab din, daosizm shakllangan. “Dosizm” so‘zining o‘zi “dao” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yo‘l” yoki “dunyo negizi” degan ma’noni bildiradi.

Lao-szining filosofik ta’limoti Xitoyda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asrning boshida mavjud bo‘lgan murakkab toifa munosabatlarni aks ettirgan. Bu ta’limot o‘tkir va kuchli hikmatli so‘zlar shaklida solingan, bu hikmatlarning hammasi qo‘shilgan holda Dao-de-szin kitobini tashkil etadi bu ta’limot ba’zi jihatdan ekletik harakatda bo‘lgan. Uning mashhur bo‘lishiga sabab-undagi falsafiy g‘oyalar haqiqiy va yangi bo‘lishi bilan birga, unda jamiyatdagi turli tabaqalarning manfaatlari, orzulari va fikrlari aks etgan.

Biroq kundalik hayot ehtiyojlari juda qadim zamondayoq bir qancha fan kurtaklarini vujudga keltirgan.Matematika, xususan geometriya anchagina taraqqiy etgan to‘g‘ri burchakli uch burchakning xususiyatlari ma’lum bo‘lgan va gipotenuzaning kvadrati katetlar kvadratlari yig‘indisiga tengligi

haqidagi masala xal etilgan. Vaqtni hisoblash va kalendar tuzish zaruriyati astronomiyaning eng qadimgi koʻrinishining maydonga kelishga sabab boʻlgan. Astronomik kuzatishlar Shan-In davridayoq boshlangan. Xitoy astronomlari sayyora va yulduzlarning harakatini toʻgʻri kuzata bilganlar va hatto oyning qachon tutilishini hamda kometalarning qachon paydo boʻlishi oldindan aytib bera olganlar. Xitoy astronomlari Qutb yulduzi atrofidagi toʻp yulduzlarni “oy uylari”ga qarab qism qilganlar shu tariqa yulduzlar olaming kartasini tuzganlar. Xitoy astranomlari shu toʻp yulduzlarning quyosh va qutbga nisbatan turgan joylariga qarab va suv soatlaridan foydalanib vaqtni belgilaganlar.

Xitoy davlatining kengayishi va mamlakatni ma’muriy tumanlarga boʻlish zaruriyati geografiya fanining erta paydo boʻlishi va rivojlanishiga sabab boʻlgan. Chjou davridayoq amaldorlar ayrim viloyatlarning ahvoli toʻgʻrisida, ayniqsa yerning daromadliligi va toʻplanadigan soliqlar nuqtai nazarida hisobotlar tuzganlar. Shu hisobotlardan biri Shu-szin kitobiga alohida bir bob boʻlib kirgan. Eramizdan avvalgi VIII asrda yozilgan bu bobda toʻqqiz viloyatga boʻlingan Xitoy davlatining geografiyasi tasvir etilgan. Bu bobda har bir viloyatning togʻlari, daryolari, yerlari va olinadigan soliqlar mufassal bayon etilgan. Huddi shunga oʻxshash Xitoyning ancha keyinroq tuzilgan geografik tasviri Chjou-Li kitobida ham saqlangan.

Dehqonchilikning keng rivojlanishi agromaniya kuzatishlari va bilimlarining juda qadim zamonlardayoq toʻplana boshlashiga va xatto birmuncha tartibga solinishga sabab boʻlgan. Agromaniya kuzatishlari va bilimlari Xan davrida qadimgi agromaniya asarlari shaklida toʻplangan. Bu asarlarda dehqonchilik toʻgʻrisida, koʻp dalali xoʻjalik, joʻyak qilib ekish, ekinlarni navbatlab ekish, oʻgʻitdan foydalanish usullari va boshqalar toʻgʻrisida eng qadimgi Xitoy nazariyalari saqlangan.

Xitoyning qadimgi madaniyati qoʻshni xalqlar, jumladan, Moʻgʻuliston, Manchjuriya, Tibet, Hindi-Xitoy Koreya va ayniqsa Yaponiyaning keng hududlarida yashagan koʻpgina xalqaro madaniyatning rivojlanishiga katta ta’sir koʻrsatadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. Ilk davlat birlashmalari qaysi davrlarda paydo bo‘ldi?
3. Shan In davlati va uning siyosiy boshqaruvi haqida ma’lumotlar to‘plang va bahs yuriting.
4. Chjou, Sin sulolalari davrida Xitoy davlatining siyosiy va iqtisodiy holati?
5. Xitoyda Xan sulolasini hokimiyatga kelishi va markazlashuv jarayonlarining kuchayishi haqida referat tayyorlang va muhokama qiling?
6. Xitoyning O‘rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari, ipak yo‘li tarmog‘ining ochilishi haqida qo‘shimcha adabiyotlardan ma’lumotlar to‘plang va tahlil qiling.
7. **Keys savoli:** Sin Shin Xuandining markazlashtirilgan boshqaruvi va Konfutsiy ta’limotini cheklashi Xitoyda qudrat va ijtimoiy tartibni qanday shakllantirdi?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

15-MAVZU. XUNNLAR IMPERIYASI

Reja

1. Xunnlar davlatining geografik o‘rni, tabiati va aholisi.
2. Xunn qabilalari ittifoqi.
3. Yue-chjilar bilan kurash jarayoni.
4. Xunnlar qo‘shinining tuzilishi.
5. Xitoy tarixchilari ma’lumotlari.
6. Ko‘chmanchi xunnlar madaniyati.

Xunnlar davlatining geografik o‘rni, tabiati va aholisi. Qadimda Markaziy Osiyoning katta qismi va unga tutash bo‘lgan hududlarda ko‘chmanchi xunn qabilalari yashar edilar. Xunnlar mamlakati tog‘lar, yassi tog‘lar, tekisliklar va bepoyon cho‘llardan iborat edi. Bu joylarning iqlimi xilma-xil bo‘lib yozi jazirama issiq, qishi esa qahraton sovuq bo‘lgan. Markaziy Osiyoning bu qismida qishda tez-tez qor bo‘ronlari, yozda esa qum bo‘ronlari bo‘lib turgan.



Xunnlar mamlakatidagi tog‘ oralaridan kam suvli soylar oqib chiqib, cho‘llar ichida yo‘qolib ketadi. Bu o‘lkaning shimoliy qismi Tayga o‘rmonlariga yaqin bo‘lgani uchun o‘simliklar va hayvonot dunyosi boy edi. Janubiy va janubiy – g‘arbiy qismi sahro, cho‘l va dashtlardan iborat bo‘lganligi uchun hayvonot va o‘simliklar dunyosi kambag‘alroq bo‘lgan. Xunnlar mamlakati temir, mis, kumush, qo‘rg‘oshin va oltin konlariga boy bo‘lgan.

Xunnlar yashagan Markaziy Osiyo Xitoyga chegaradosh bo‘lib, qadimdan boshlab, bu yerda juda ko‘p ko‘chmanchi qabilalar yashaganlar. Bu ko‘chmanchi qabilalarning katta qismini Xunn qabilalari tashkil etgan. Arxeologlar fikricha Xunnlar Markaziy Osiyoning tub joy aholisi bo‘lib, ularning ajdodlari tosh asridan beri shu yerlarda istiqomat qilganlar. Er.avv. III-II ming yilliklarda xunnlarning ajdodlari ovchilik, ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib tirikchilik o‘tkazganlar. Er. avv. I ming yillikning birinchi yarmidan boshlab aholining asosiy qismi ko‘chmanchi chorvador bo‘lgan. Mashhur xitoy tarixchisi Sim-Syanning ma’lumotlariga qaraganda xunnlar Markaziy Osiyoning katta qismini egallaganlar. Ular yerga va aravalarga o‘rnatilgan o‘tovlarda yashaganlar. Har yer – har yerda ularning qishlov uchun qishloqlari bo‘lgan. Xunnlar asosan yilqichilikka alohida e’tibor berganlar. Qayerda o‘t, suv va yaylov ko‘p bo‘lsa, o‘sha joylarda qoramol podalari, qo‘y-echki suruvlari va ot-tuya uyurlari bilan yaylovdan-yaylovga ko‘chib yurganlar. Tinchlik va osoyishtalik paytlarida esa ular yuechji, dunxi, usun, ayniqsa xitoyliklar bilan qizg‘in savdo-sotiq ishlarini ham olib borganlar. Ular Xitoy madaniyatidan bahramand bo‘lganlar. Xunnlar janjun, dunxi, yuechji kabi qabilalar bilan mutassil urushlar olib borib, ularni o‘zlariga itoat ettirganlar. Xunnlar xitoyliklar bilan ham tez – tez urush qilib, ularning shahar va qishloqlarini talab, yondirib ko‘p o‘lja va asirlar olib vatanlariga qaytganlar.

Xunnlar davlatining tashkil topishi. Er. avv. IV asrlarda Markaziy Osiyoning shimolida xunn qabilalarining harbiy ittifoqi tashkil topadi. Xunn qabilalarining bu harbiy ittifoqi asta-sekin kuchayadi. Er. avv. III asr oxirlariga kelib Xunn qabilalarining harbiy birlashmasi asosida Xunn ko‘chmanchilari davlati tashkil topadi. Xitoy tarixchisi Sim-Syanning yozishicha, xunnlarning

harbiy sardori Shanyu deb atalar edi. Xunn sardorlari — shanyulari qattiq intizomli, qilich, kamon, nayza, dubulg‘a bilan qurollangan, tez harakat qiluvchi otliq qo‘shinga ega bo‘lganlar. Ular quyun kabi o‘z dushmanlari ustiga bostirib borib, ularni vahimaga solib qo‘yganlar.

Xunn sardorlaridan biri Maodun ichki dushmanlarini yenggach, dunxu qabilalari ustiga katta qo‘shin bilan bostirib boradi. Shiddatli va ayovsiz jang oqibatida dunxular tor-mor etiladi. Maodun dun-xular hukmdorini o‘ldirib, ko‘p odamlarni asir olib, podalarini haydatib ketadi. Er. avv. 203-202- yillarda Maodun qo‘shinlari Sayan, Oltoy va Yenisey (Enasoy) daryosining yuqori oqimidagi joylarni bosib oladi.

Er. avv. 200- yilda Xan podshosi Lyu Ban Xunnlarni ustiga qo‘shin tortadi. Maodun harbiy hiyla ishlatib, qo‘shinlari bilan Baydan tog‘lariga chekinadi. Lyu Ban esa bir guruh tezkor jangchilari bilan xunnlarni ta’qib qilib borib, asosiy qo‘shinlaridan uzoqlashib ketadi.

Xunnlar Lyu Ban qo‘shinlarini qurshab olib, ularni qirib tashlaydilar. Lyu Ban asir tushadi. U juda ko‘p mol – mulk va qizini Maodunga nikohlab berish sharti bilan asirlikdan ozod bo‘ladi. Lyu Ban va’dasini bajarmay, qizini Maodunga yuborishni paysalga soladi. Maodun katta qo‘shin bilan Xan chegaralaridan o‘ta boshlaydi. Bu xabarni eshitgan Lyu Ban katta mol-mulk bilan qizini xunnlar hukmdoriga uzatishga majbur bo‘ladi. Shundan keyin ikki o‘rtada tinchlik sulhi tuziladi. Sulhdan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik 40 yil davom etadi.

Xunnlar davlatining kuchayishi. Xunnlar Maodun va uning vorisi Maoshin (Er. avv. 174-161-yillar) davrida yuechjilar bilan 25 yil davomida urush olib boradilar. Urushda yuechjilar yengilib, ularning sardori halok bo‘ladi. Xunnlarning shanyusi Laoshin yuechji sardorining bosh chanog‘ini kesdirib olib, undan sharob kosa-qadax yasattirgan ekan. Urush xunnlarning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Yuechjilar Pomir va Farg‘ona orqali dastlab So‘g‘d so‘ng Baqtriyaga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladilar. Shundan keyin xunnlar Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatga aylanadi. Xan podsholari xunnlardan qo‘rqib, ularga ko‘p miqdorda o‘lpon va sovg‘alar yuborib turganlar. Xitoy bozorlari

xunn savdogarlari uchun ochiq deb e’lon qilingan. Er. avv. II asrning birinchi yarmi xunnlar davlatining eng kuchaygan davri bo‘lgan. Xitoy-Xunn urushlari va xunnlar davlatining zaiflashuvi er. avv. IV asrdan boshlab avval Sin podsholigi, keyin Xan podsholiklari kuchayib, U-Di davrida Xan podsholigi nihoyatda kuchayadi. Er. avv. 123- yili xitoy qo‘shinlari xunnlarni Xan saltanatining shimoliy chegaralaridan surib chiqaradilar. E. avv. 121-119- yillarda Xan qo‘shinlari Dunxuangacha bo‘lgan yerlarni bosib oladilar. Xunnlar esa xitoylarning g‘arb tomon yurishlariga qarshilik ko‘rsatadilar.

Er. avv. 119- yildagi bo‘lgan jangdan keyin xitoy qo‘shinlari xunn sardorining qarorgohini bosib oladi. Jangda 90 ming xunn askari va ko‘p xitoy askari halok bo‘ladilar. Er. avv. 99-90-yillar orasida xunnlar bilan xitoylar o‘rtasida yana qattiq urushlar bo‘lib o‘tib, ko‘pincha bu urushlarda xunnlar g‘olib chiqadilar. Xitoylar esa g‘arbda usunlar, sharqda uxuanlar va Shimolda Yenisey bo‘yi qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzib, Er. avv. 71-yili xunnlarga uch tomondan hujum boshlaydilar. Bu jang ittifoqchilarning g‘alabasi va xunnlarning ayanchli mag‘lubiyati bilan tugagan. Er. avv. 71-yilgi mag‘lubiyatdan so‘ng Xunn davlati kuchsizlanib, er. avv. 56-yili Shimoliy va Janubiy qismlarga bo‘linib ketadi.

Xun davlati tarixshunosligi. So‘nggi o‘n yilliklarda Xun (Syunnu) davlati tarixi masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tarixshunoslikda turli metodologik yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Ayniqsa, ko‘chmanchi jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, etnik tarkibi va davlatchilik an’analari masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘chmanchilar iqtisodiyotini chuqur o‘rgangan tadqiqotchi V.S. Taskinning ta’kidlashicha, xun jamiyati iqtisodiy hayotining asosini chorvachilik tashkil etgan. Xun tilida «mal» deb atalgan chorva xo‘jaligi tarkibiga, avvalo, ot, qo‘y-qo‘zi, echki, tuya hamda yirik shoxli qoramol kirgan. Ayniqsa, ot xunlar hayotida nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-strategik va ijtimoiy ramziy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Chorvachilik mahsulotlari ichki ehtiyojni qondirish bilan birga, qo‘shni o‘troq sivilizatsiyalar bilan savdo-almashuv munosabatlarida muhim o‘rin tutgan. Xunlar tarixini kompleks tarzda tadqiq etgan ko‘chmanchishunos (nomadoved)

olimlar qatoriga N.N. Kradin, L.N. Gumilyov, S.G. Klyashtorniy va T.I. Sultanov kabi mashhur tadqiqotchilarni kiritish mumkin. Ularning ilmiy xulosalariga koʻra, xunlar klassik maʼnodagi oʻtroq ziroatkor sivilizatsiyani yaratmagan boʻlsalar-da, ular mutlaqo oʻziga xos, koʻchmanchi muhitga moslashgan yangi turdagi davlatchilik modelini shakllantirganlar. Ushbu davlatchilik shaklida monoetnik davlat tushunchasi mavjud boʻlmagan. Xunlar ittifoqi turli etnik guruhlar, qabila va urugʻlarni qamrab olgan polietnik imperiya sifatida shakllangan. Bu holat, oʻz navbatida, xun davlatining siyosiy va harbiy jihatdan yuqori harakatchanligini taʼminlab, uning chegaralarining qisqa vaqt ichida kengayib borishiga imkon yaratgan.

Ayrim tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga koʻra, Xun imperiyasining eng yuksak davrida uning aholisi soni 1,5 million kishiga yaqin boʻlgan. Bu koʻrsatkich koʻchmanchi davlat uchun juda katta demografik salohiyatni anglatib, xunlarni qadimgi dunyodagi yirik harbiy-siyosiy kuchlardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Shu tariqa, tarixshunoslikda xunlar nafaqat vayronkor koʻchmanchi kuch sifatida, balki Yevroosiyo kengliklarida oʻziga xos davlatchilik anʼanalari, harbiy tashkilot va siyosiy boshqaruv tizimini yaratgan muhim tarixiy subʼekt sifatida talqin etilmoqda.

Xunnlarning gʻarbga koʻchishlari. Shanyu Xuxane boshliq janubiy xunnlar Xitoyga tobe boʻlib, ular bilan ellik yilcha tinch-totuv yashaganlar. Chji-chji boshliq shimoliy xunnlar esa xitoylar bilan chiqisha olmay gʻarb tomon siljiganlar. Lekin Xitoy qoʻshinlari ularni taʼqib qilib borib tor-mor etganlar. Milodning I asrida xunnlar oʻzlarini biroz tiklab olganlar. Ammo milodiy 87—93- yillarda xitoylar syanbi va dinliklar bilan ittifoq boʻlib xunnlarni yana tor-mor keltirganlar. Xunnlar esa Sirdaryoning quyi qismi va Orol dengizining shimoliga borib joylashganlar. Keyingi asrlar davomida xunnlar Shimoliy Qozogʻiston orqali yurib, Idil va Don daryolaridan oʻtib Shimoliy Kavkazdagi alanlarni oʻzlariga itoat ettirganlar. Xunnlar sardori Balamber 375- yil oʻz qoʻshinlari bilan Shimoliy Qora dengiz boʻylarini egallagan. Shu yerda yashovchi gottlarning bir qismi xunnlarga tobe boʻlganlar va oʻzlarini osgotlar, yaʼni sharqiy gotlar deb

ataganlar. Xunnlarga tobe bo‘lmagan gotlar Frakiyaga borib joylashib, o‘zlarini vesgottlar – g‘arbiy gotlar deb ataganlar. 394-395 yillarda xunnlarning bir qismi Kichik Osiyo, Suriya va Kapadokiyaga bostirib kirganlar.

Ular g‘arbga yurishni davom ettirib, Dunay daryosining yuqori qismidagi yerlarni bosib olganlar. Shu yerdan turib ular Sharqiy va G‘arbiy Rim saltanatiga ham tahdid solib turganlar. Xunnlarning sardori Attila davrida (434-453) Markaziy Yevropaning juda ko‘p qabilalari xunnlarga tobe bo‘lgan. 451-yilda xunnlar Galliyaga bostirib kirganlar. Ammo rimliklar, vesgottlar va franklarning birlashgan qo‘shinlari Katalaun yonidagi mashhur jangda xunnlarni yengib, ularni orqaga chekintirganlar. 453- yilda Attila vafot yetgach, xunnlar davlati kuchsizlangan. Ularning 455-yili Pannoniyaga, 469-yili Bolqonga qilgan yurishlari ham mag‘lubiyat bilan tugagan. Shundan keyin xunnlar ittifoqi tarqalib, davlat mutlaqo kuchsizlangan. Xunnlar mahalliy aholiga qo‘shilib ketganlar. Shu tariqa VII- VIII- asr hukm surgan Xunnlar davlati V- asr oxirlariga kelib barham topgan.

Xunnlar ham o‘zlariga xos oddiy, ko‘chmanchilarga xos soddagina madaniyat yaratganlar. Ammo ular Qadimgi Xitoy madaniyatidan keng foydalanganlar. G‘arbga ko‘chgan xunnlar madaniyatiga O‘rta Osiyo xalqlari va Rim madaniyati ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xun aholisi va yashagan hududlari haqida ma’lumotlar to‘plang.
2. Xun davlatining tuzilishi va boshqaruv shakli qanday bo‘lgan?
3. Xunlarni qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari haqida bahs yuriting.
4. Xunlarni Buyuk ko‘chishlarga ta’sirini tahlil eting.
5. Xun imperiyasi tarixini o‘rganilishiga oid yangi tendensiyalar.
6. **Keys savol:** Xunlar qanday qilib ko‘chmanchi armiya va strategik hududlar orqali qudratga erishgan va bu ularning Xitoy

va qo‘shni davlatlar bilan munosabatlariga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Quyidagi QR-kod orqali muallifning youtube kanalida e’lon qilingan video darsni tomosha qilishingiz mumkin.

GLOSSARIY

GLOSSARIY			
Ingliz tilida	**Rus tilida**	**O‘zbek tilida**	**Izohi**
Paleolit	Paleolit	Paleolit	“Qadimgi tosh” ma’nosini anglatadi. Fanga Paleolit, Mezolit, Bronza tushunchalarini fanga daniyalik olim K.Yu. Tomson kiritgan.
Antrops	Protsess antropogoneza	Antropogenez jarayoni	Bu odamning shakllanish o‘lkasi hisoblanib, ilk paleolit davridan boshlanib, so‘ngi paleolit davrigacha bo‘lgan o‘lka tushuniladi. Patriarxat davri – qarindoshlik ota tomonidan belgilanadigan davr (er. avv. 3 mingyillik)
Despoticstate	Despotiches-koe gosudarstvo	Despotikdavlat	Qadimgi Sharq jamiyatida vujudga kelgan davlatlar despotik ya’ni mustabid xarakterga ega bo‘lgan.
Ancient Oriental	Drevniy vostok	QadimgiSharq	Eng qadimgi davlatlar aynan shu mintaqada shakllanib rivojlangan.
Nesiy	Nesiy	Nesiy	Kichik Osiyo hududlarida er. avv. 2 ming yillikda

			yashagan qadimiy xalqlardan birining nomi.
King	Faraon	Fir'avn	Ulug‘ xonadon egasi ma’nosini anglatadi. Unga xudoni o‘g‘li deb qarashgan.
Pyramide	Piramida	Piramida	Qadimgi Misrda bunyod etilgan ehromlar shunday atalgan. Eng mashhurlari Xufu, Xafra, Menkaura hisoblanadi.
Scribe school	Shkola	Mirzolar maktabi	Qadimgi Misrda ilk tashkil topgan maktablar shunday atalgan
Mesopotamian	Mesopotamiya	Mesopotamiya	Bu ibora ilk bor qadimgi yunon manbalarida Mesopatmiya ya’ni ikki daryo oralig‘i (Frot va Dajla) ma’nosida ishlatilgan.
the first library	Pervaya bibliotek	Ilk kutubxona	Ossuriya hukmdori Ashurbanipal (er.avv.669-630 y) davrida ilk kutubxonaga asos solingan. Ushbu kutubxona XIX asrda topilgan va u yerdan 30 mingta sopol kitoblar topilgan.
Hammurapi	Hammurapi	Xamurappi	Er.avv. 1792-1750 yillarda Bobilni boshqargan hukmdor. Uning davrida 247

			moddadan iborat ilk yozma qonunlar Mesopotamiya hudularida paydo bo‘ldi.
Babylon	Bobil	Bobil	Xudolar darvozasi ma’nosini anglatgan. Chunki shaharga kiradigan darvozalar aynan xudolar nomi bilan nomlangan edi
The people of the sea	Narodы morya	Dengiz xalqlari	Old va Kichik Osiyo manzilgohlariga er. avv. 13-12 asrlarda bostirib kirgan xalqlarni misr manbalarida shunday atalgan.
Xanigalabat	Xangilabat	Xanigalabat	Akkad tilida Mitanni ma’nosini anglatadi.
Tushpa	Tushpa	Tushpa	Urartu davlatining poytaxti. Menua (810-786y.) davrida Mamlakat poytaxti
Menu channel	Kanal	Menua kanali	Suv inshooti hisoblanib, mamlakatda dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida bunyod etilgan.
Teyshebai	Teyshebai	Teyshebaini	Qadimgi Urartu tarixidan ma’lumot beruvchi, hozirgacha saqlanib qolgan noyob qal'a yodgorligidir.
Palestine	Palestina	Falastin	So‘zi mahalliy aholi “filistim”lar nomidan kelib

			chiqqan.
Shafi’s	Shafii	Shofetlar	Qadimgi falastinda sudyalar shunday atalgan.
Souza, Ekbatana, Pasargad	So‘zaы, Ekbataпы, Pasargadы	Suza, Ekbatana, Pasargad	Qadimgi Eron hududida mavjud bo‘lgan davlatlarning poytaxt shaharlari.
Medo	Midiya	Midiya	Eronning shimoli-g‘arbida joylashgan qadimgi davlat.
Gold Darien	Zolotoy Dariy	Oltin darik	Doro I davrida joriy etilgan 8 grammlik oltin tanga shunday atalib, asosiy pul vazifasini o‘tagan.
Kalliy peace	Kontrakt Kalliy	Kalliy sulhi	Eron va Yunoniston o‘rtasidagi er. avv. 492-449 yillarda bo‘lib o‘tgan urushning tugallanishi bilan er. av. 449 yil imzolangan sulh shartnomasi.
Punjab	Pendjab	Panjob	Xindistonning eng qadimgi dehqonchilik vodiylaridan biri bo‘lib, forschadan tarjimasi besh irmog‘ degan ma’noni bildiradi.
Drava language	Dravitskiy yazыk	Dravit tili	Hindiston aholisi gaplashgan eng qadimiy tillardan biri
Veda	Vedы	Veda	Qadimgi Hindistonni er. avv. ikkinchi ming yillikka oid

			muqaddas diniy kitobi. Bu muqaddas kitob Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to‘rtta katta to‘plam (samxita)dan iborat.
Maxabharata	Maxabxarata	Maxabharata	Bu qadimgi Hindiston tarixiga tegishli doston hisoblanib, bunda Bxarata avlodlarining kurashi haqida ma’lumotlar o‘z aksini topgan, uning avtori afsonaviy donishmand va shoir Vyasa hisoblanadi
Ar'iyabxattaxa	Aryabxattaxa	Ar'iyabxattaxa	V asrda yashagan mashhur olim. Matematika, astronomiya fanlari bo‘yicha harakatning nisbiyligi asosida yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi.
Western countries	Zapadnыy kray	G‘arbiy o‘lka	U-Di (er.avv. 139 yil) davrida O‘rta Osiyo “G‘arbiy o‘lka” deb yuritilgan.
Chjun	Chjun	Chjun	Konfutsiylik ta’limotida “sadoqat” deb nomlangan.

Syuo	Suyo	Syuo	Kattalarga hurmat
Li	Li	Li	Kishilar oʻrtasidagi munosabatlarga rioya qilish.
Di	Di	Di	Oliy xudo.
Rock drum	Каменныу baraban	Tosh doʻmbiralar	Doʻmbira shaklidagi toshga yozilgan asarlar.
Buddhist Sutra	Sutrы buddы	Budda sutralari	Matn yoki qoidalar.
Palestra	Palestra	Palestlar	Sport inshoati, yosh bolalar muntazam sport bilan shugʻullanadigan joy.
Gymnast	Gimnasiya	Gimnasiya	Sport inshoati, bu yerda asosan kattalar sport va fan bilan shugʻullanganlar.
Minor culture	Kultura Minoy	Minoy madaniyati	Kritning afsonaviy podshosi Minoy nomi bilan atalgan.
Fratriya	Fratriya	Fratriya	Katta tashkilot, bu yerda muhim umummasalalar yechilgan.
Kikla	Kiklad	Kiklada	Ya'ni, aylana. Yunonlar ularni orollar majmuasi deyishgan
Agora	Agora	Agora	Odamlar eng koʻp toʻplanadigan va eng gavjum joy, bu yerda savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan.
Demos	Demos	Demos	Xalq hokimiyati demakdir.
Athenian democracy,	Afinskaya rabovladelcheskaya	Afina quldorlik demokratiyasi	Quldorlarning qullar ustidan

slavery	demokratiya		hukmronligini ta’minlaydigan idora usuli.
Fet’s	Fetы	Fetlar	Afinaning kambag‘al fuqarolari.
Strategist	Strateg	Strateg	Davlatni boshqaradigan yuqori mansabdor.
Ergasteriyalar	Ergastrы	Ergasteriyalar	Hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalari.
Evpatritlar	Evpatridы	Evpatritlar	Ya’ni, nasl-nasabi olijanob bo‘lgan aristokratlar.
Geomorlar	Geomarы	Geomorlar	Yer uchastkalariga egalik qiluvchi dehqonlar.
Demi seeds	Stado demы	Demi urug‘lar	Xalq uchun ishlovchi hunarmandlar.
Sinoykism	Sinoy	Sinoykism	Birlashuv.
Polemarxlik position	Polemarx	Polemarxlik lavozimi	Askarboshilik lashkarboshilik
Arxond	Arxond	Arxond	Ya’ni boshliq yoki el og‘asi.
Athens	Afinы	Afina	Qadimgi davrdagi eng go‘zal shahar, bu shahar oliy xudo Zevsning qizi Afina sharafiga qurilgan.U hozir ham zamonaviy Gretsiya poytaxti hisoblanadi.
Areopag	Areopag	Areopag	Sudlar kengashi shunday atalgan
Gerus	Gerusiya	Gerusiya	Podsholar yoshi 60 yoshdan yuqori bo‘lgan, yigirma sakkiz aslzoda keksadan tuzilgan kengash.

Hita	Xiton	Xiton	Epik matnlariga koʻra, erkaklar qisqa koʻylak.
Crypto	Kriptiya	Kriptiya	Bosib olingan qaram viloyatlarning ilotlarga aylantirilgan aholisining qoʻzgʻolonlaridan xavfsiragan spartaliklar har yili ilotlarga daxshat solish va ularning ongida boʻysunish hissini tugʻdirish uchun ularni tunda oʻldirishni e'lon qilganlar.
Athens Sea Union	Afinskiy morskoy soyuz	Afina dengiz ittifoqi	Tarixda ikki shunday nomdagi ittifoqlar mavjud boʻlgan, birinchisi er. av. 478-yili, ikkinchisi esa er. av. 378-yili tashkil topgan
Peloponnesus war	Bitva pri Peloponnese	Peloponnes urushi	Qadimgi dunyo tarixida eng uzoq davom etgan Afina ittifoqi va Sparta ittifoqi oʻrtasidagi (er. av. 431-404-yillarda) urush hisoblanadi. Urush 27 yil davom etib, Spartaning gʻalabasi bilan tugagan
Spartak education	Spartanskoe vospitanie	Spartancha tarbiya	Qadimgi Spartada yigitlar yoshligidan harbiy tayyorgarlikka majbur etilgan.

			Ularni tayyorgarligini sinovdan o‘tkazish ayovsiz kaltaklash bilan amalga oshirilgan, shundan spartancha tarbiya kelib chiqqan.
Aristobul	Aristobul	Aristobul	Aristotelning jiyani, u doimo Iskandarning harbiy yurishlarida ishtirok etib, voqealarni yozib borgan tarixchi
Congress in Corinth	Kongress Korinfa	Korinf kongresi	Er.avv. 337 yil Filip II tashabbusi bilan chaqirilgan, bu bevosita Yunon dunyosida Makedoniyani hukmronligini e'tirof etilishi edi.
Elin	Ellin	Ellin	Tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Iskandarning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo‘lladi va uning mazmunini madaniy soha bilan chekladi

Seleucid state	Gosudarstvo Selevkidov	Salavkiylar davlati	Er.avv. 312- 64 yillarda hukmronlik qilgan ellinistik davlat.
Republic of Rome	Rimskaya Respublika	Rim Respublikasi	Er.avv. 509 yilda Jaxon tarixida birinchi Respublika (tarjimasi omma ishi) boshqaruv shakli Rimda paydo bo‘ldi. Hozir dunyoda 150 yaqin davlat aynan Respublika boshqaruvi shaklida boshqariladi.
Numismatics	Numizimatika	Numizmatika	Tangalar to‘g‘risidagi fan bo‘lib, qadimgi Rim tarixini o‘rganishda ahamiyati juda kattadir.
Pompey	Pompei	Pompey	Eramizning I asrda zilzila oqibatida ko‘milib ketgan shahar, keyinchalik u yerni arxeologik tadqiq etish, rim tarixiga oid ko‘plab ma’lumotlar olish imkoniyatini berdi.
Consul	Konsul	Konsul	Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.
Legion	Legion	Legion	Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.
Patritsiylar	Patrisы	Patritsiylar	Senatorlarning avlodlari.

plebeians	Plebei	Plebeylar	Oddiy xalq, shaharliklar, kambag‘allar.
Republic	Respublika	Respublika	“umumiy ish” ma’nosini, Senat – “Oqsoqollar kengashi” ma’nosini anglatadi.
Kvirit	Kvirit	Kvirit	Qadimgi Rimda to‘la huquqli fuqarolarning rasmiy nomi
The regime of republic	Rejim respubliki	Respublika tuzumi	Er.avv. 509- 30 yillarda Rimda amal qilgan siyosiy boshqaruv shakli
dictator	Diktator	Diktator	Mudofaa zaruriyati paytlari tayinlagan rahbar.uni 24 ta soqchi qo‘riqlab yurgan.
consul	Konsul	Konsul	Rim Respublikasini 2 ta konsul boshqargan. Uni 12 ta soqchi qo‘riqlagan.
Carthagen	Karfagen	Karfagen	Er.av. 814- yil Finikiyaliklar asos solgan koloniya. Rimliklar uni Puni deb atashgan.
Ganibal	Ganibal	Ganibal	Rimga qarshi kurashgan Karfagen sarkardasi,bir nechta g‘alabaga erishgan, er. av. 183 yili Vifiniyada zaxar ichib o‘lgan
Gasdrubal	Gasdrubal	Gasdrubal	Gannibal sarkardalaridan biri
Polis	Polis	Shahar-davlat (polis)	Tevaragidagi manzilgohlarni

			tasarrufiga olgan oʻzini-oʻzi boshqaruvchi shahar; qadimgi Yunoniston va Rimdagi kichik mustaqil davlat; polisda hokimiyat teng huquqli fuqarolar qoʻlida boʻlgan.
Dinasty	Dinastiya	Sulola (shajara)	Birin-ketin hukmronlik qiluvchi podsholar urugʻi; sulola vakillari koʻpincha bitta nom bilan aytilgan
The ziggurat	Zikkuratы	Zikkurat	Tepasida ibodatxonasi boʻlgan zinapoyali minora
Empire	Imperiya	Imperiya	Hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat
In Italy	Italiyanы	Italiylar	Apennin yarimorolida itsiqomat qilgan qadimiy qabilalar
Capitol hill	Kapitoliy	Kapitoliy tepaligi	Rimdagi eng baland tepalik
Octavian Augustus	Oktavian Avgust	Oktavian Avgust	Rim imperiyasi asoschisi er. av. 14 – eramizning 30 yilida hukmronlik qilgan. Unga berilgan Avgust laqabi muqaddas avgurlar nomidan olingan. Hozirgi avgust oyi nomi ham shundan olingan.

The principle of	Prinsipiat	Printsipat	Printseps so‘zi «birinchi kishi» demakdir. U mamlakatni viloyatlarga bo‘lib, u yerlarga o‘ziga sodiq bo‘lgan kishilardan noiblar tayinlagan. U senatni saqlagan holda davlat ishlarini o‘z qo‘lida tutib turgan
Julius Caesar	Yuliy Sezar	Yuliy Sezar	Er.avv. I asr oxirida Brut boshchiligidagi fitnachilar tomonidan o‘ldirilgan
The prison	Koloniya	Koloniya	O‘z yurtini tark etgan odamlar o‘z mamlakatidan tashqarida, yangi yerlarga asos solgan manzilgoh.
Terms	Термы	Termlar	Qadimi Rim shahridagi jamoat hammomlari
Legion	Legion	Legion	-(lot) Qadimgi Rim armiyasidagi asosiy tashkiliy birlik (4,5-10 ming kishi)
aristocracy	Аристократы	Aristokratiya	(yun) 1.Davlat idora usuli. 2.Quldorlik va feodal jamiyatda imtiyozli tabaqa.
Naumaxiya	Namuaxiya	Naumaxiya	dengiz urushi mashqi.
Plebs	Plebey	Plebey	(lot.) Qadimgi Rimda dastlab urug‘ jamoasiga kirmagan, jamoa yeridan foydalanish huquqiga ega

			bo‘lmagan ozod aholi tarkibi
Kogoro	Kogorta	Kogorta	Kamida 450 nafardan kam odam bo‘lmagan qo‘shin
Komitsiya	Komitsiya	Komitsiya	Xalq majlisi
Sukulyar	Sekulyar	Sukulyar	Yuz yillik o‘yinlar.
Fisk	Fisk	Fisk	Imperiya g‘aznasi
Eraren	Erariy	Erariy	Shaharning eski g‘aznasi.
Villa	Villa	Villa	O‘rta va yirik quldor xo‘jaliklari
Pekuliy	Pekuliy	Pekuliy	Quldor tomonidan ajratilgan bunday mulk deb atalgan
Diotsez	Diotez	Diotsez	O‘lka, hudud shunday atalgan
The Bahamas	Bagaudы	Bagaud	Galliyada qo‘zg‘olon ko‘targan dehqonlar, kalonlar va qullar harakati
Edict	Edikt	Edikt	Imperator farmonlari
Kuriyallar	Kuriya	Kuriyallar	Shahar aholisi.
Great pontiff	Velikiy Pontifik	Ulug‘ pontifik	Oliy kohin
military tribune	Voennыy tribun	Harbiy tribun	Katta qo‘mondon
Donativa	Donativ	Donativa	Xizmatdan bo‘shagan jangchilarga beriladigan maxsus tortiq, in'om.
Veteran	Veteran	Veteran	(lot) Qadimgi Rimda armiya xizmatini o‘tab bo‘lgan saldat. Ularga yer berilgan yoki pul mukofoti, shuningdek Rim fuqarosi huquqi berilgan.
Curator	Kurator	Kurator	Rimda viloyat

			boshqaruvi ustidan umumiy nazorat uchun imperator tomonidan tayinlangan mansabdor
Dominat	Dominat	Dominat	Deokletian boshqaruvi tartiblari dominat deb atalgan.
Amlok	Amlak	Amlok	O‘rta Sharq mamlakatlarida biror shaxs yoki davlatga qarashli mulk.
A municipality	Munitsipalitet	Munitsipalitet	(tssm) o‘z-o‘zini boshqaradigan va saylab qo‘yiladigan mahalliy separatistik harakat.
The separatist movement	Dvijeniya separatov	Separatistik harakat	(lot) davlat tartibidan ajralib chiqish.
Prokonsul	Prokonsul	Prokonsul	Rimda viloyat noiblari

ILOVALAR

QADIMGI MISR SULOLALARI

Sulolalardan oldingi davr

Quyi Misr

1. Tiu (taxminan er.avv. 3200 yil)
2. Tesh
3. Xsekiu
4. Vazner

Yuqori Misr

1. Skorpion (Chayon) (taxminan er.avv. 3150 yil)
2. Sokol (Login) I.
3. Ni-Xor (yoki Nu-Xor)
4. PE-Xor
5. Xat-Xor
6. Xdj- Xor
7. Krokodil (tumsoh) (fir'avn)
8. Skorpion II
9. Iri-Xor
10. Narmer

Ilk shohlik. er.avv. 3000-2740 (3032-2707) yillar. 260-325 yil davom etgan.

Fir'avnlarning I sulolasi (130-150 yil davom etgan)

1. Menes (er.avv. 3000-2980 (3032-3000)
2. Axa(er.avv. 2980 y yaqin.)
3. Jer (2980-2860 (2999-2952)
4. Jet(2860-2830 (2952-2939)
5. Den (Idumu er.avv. 2830-2810 (2939-2892)
6. Adjib (er.avv. 2810-2890 (2892-2886)
7. Semerxet (er.avv. 2890-2870 (2886-2878)
8. Kaa (er.avv. 2870-2850 (2878-2853)

Fir'avnlarning II sulolasi (110 yil)

1. Xotepsexmui (er.avv.. 2850- (2853-2825)
2. Ninechir IX (er.avv. 2810- 2767)
3. Uneg

4. Sened (er.avv. 2749)
5. Nubnefer
6. Peribsen
7. Sexemib
8. Xasexemun

Qadimiy shohlik. er.avv. 2740- 2168 (2707-2216) yillar 570-575 yil davom etgan

III sulola (70 yilga yaqin)

1. Sanaxt/ Nebka (taxminan er.avv. 2707-2690)
2. Joser (er.avv. 2690-2670)
3. Sexemxet (er.avv. 2670-2663)
4. Xaba (taxminan er.avv. 2663-2657)
5. Xuni (taxminan er.avv. 2657-2639)

IV sulola (135 yil)

1. Snofru (taxminan er.avv. 2639-2604)
2. Xufu (taxminan er.avv. 2604-2581)
3. Jedefra (taxminan er.avv. 2581-2572)
4. Xafra (taxminan er.avv. 2572-2546)
5. Menkaura (taxminan er.avv. 2546-2511)
6. Shebseskaf (taxminan er.avv. 2511-2506)

V Sulola (157 yil)

1. Userkaf (taxminan er.avv. 2504-2496)
2. Saxura (taxminan er.avv. 2496-2483)
3. Neferirkara Kakai (taxminan er.avv. 2483- 2463)
4. Shebseskara (taxminan er.avv. 2463-2456)
5. Neferefra (taxminan er.avv. 2456-2444)
6. Neuserra (taxmian er.avv. 2445-2414)
7. Menkauxor (taxminan er.avv. 2414-2405)
8. Jedkara (taxminan er.avv. 2405- 23 67)
9. Una (taxminan er.avv. 2367-2347)

VI sulola (150 yil)

1. Teti I (taxminan er.avv. 2347-2337)
2. Userkara (taxminan er.avv. 2337-2335)
3. Piopi (pepi taxminan er.avv. 2335-2285,malika Bexeny bilan birgalikda)
4. Merenra I (taxminan er.avv. 2285-2279)
5. Piope II (pepi taxminan er.avv. 2279-2219)

6. Merenra II (taxminan er.avv. 2219-2218)
7. Nitokris (malika taxminan er.avv. 2218-2216)

1 o‘tish davri. er.avv..2198-1991 yillar 207-210 yil,

VII sulola

VIII sulola

1. Nadjerkara Siptax I.
2. Menkara
3. Neferkara II.
4. Neferkara III Nebi
5. Jadkara II Sheman
6. Neferkara IV Xendu
7. Merenxor
8. Neferkamin I Sneferkar
9. Nikara I
10. Nefekara V Tereru
11. Neferkaxop.
12. Neferkara VI Piopi –seneb.
13. Neferkamin II Anu
14. Kakaura Ibi I.
15. Neferkaura.
16. Neferkauxor Xuaxapi.
17. Neferirkara II,

Gerakleopoldagi (Nen- nesut, hozirgi exnas) IX va sulolalari

1. Xeti (Axtoy)
2. Neferkara,
3. Xeti II.
4. Xeti III.

XI sulola (144 yil)

1. Mentuxotep I (taxminan er.avv. 2119-2115)
2. Iniotef / antef I (taxminan er.avv. 2115-2103)
3. Iniotef II (taxminan er.avv. 2103-2054)
4. Iniotef III (taxminan er.avv. 2054-2046)

O‘rta shohlik (er.avv. 2000 -1759/2010-1793).215-240 yil

XI sulola (davomi)

1. Mentuxotep II (2046 -1995)
2. Mentuxotep III (1995-1983)
3. Mentuxotep IV (1983 -1976)

XII sulola (182 yil)

1. Aminemxet I (taxminan er.avv. 1976 -1947)
2. Senusert I (taxminan er.avv. 1956-1911)
3. Amenemxet II (taxminan er.avv.. 1914-1876)
4. Senusert II (taxminan er.avv. 1882-1872)
5. Senusert III (taxminan er.avv. 1872-1853)
6. Amenemxet III (taxminan er.avv.. 1853-1806)
7. Amenemxet IV (taxminan er.avv. 1807-1798)
8. Nefrusebek /Sebeknefru –Misrning ayol firavni (taxminn er.avv. 1798 -1794)

2 O‘tish davri (er.avv. 1648/1650-1550)

XIII sulola (63 yil davomida 21 firavn hukm surgan)

1. Amenemxet III (er.avv. 1849 -1801)
2. Ugaf (er.avv. 1759-1757/1794-1792)
3. Xar aut-ib-ra (er.avv. 1757-1752/ 1792-1787)
4. Semenxkara.
5. Neferxotep I (1696-1685)
6. Sebekxotep III (1685-1685)
7. Sebekxotep IV (1685-1678)
8. Sebekxotep V (1678-1674)
9. Didimos (1674-1664)
10. Mernofera Aib (1664 _1641)

(6 hukmdor 20 yil davomida)

XIV sulola

76 firavn Nil deltasida, 13 sulolaning 2- davrida hokum surgan

Neferxotep Xasexemra

XV sulola 15 va 16 guksos sulolalari (samit sulolalar)

1. Salitis.
2. Sheshi.
3. Ykuber.
4. Xian
5. Apopi (apofis,Aauserra)
6. Apopi II
7. Xamudi.

XVI sulola

32 firavn 15 va 17 –sulolalarga xamzamon

XVII sulola

15 nafar Fivada giksoslar davrida hukmronlik qilgan shaxslar.

1. Iniotef VII.
2. Taa I Senaxtenra.
3. Taa II Sekenenra (taxminan er.avv. 1560)
4. Kamos Uadjxepera (er.avv. 1555-1550)

Yangi shohlik (er.avv. 1550-1069 yillar 480-485

XVIII sulola (258 yil)

1. Yaxmos (taxminan er.avv. 1550 -1525)
2. Amenxotep (taxminan er.avv. 1525-1504)
3. Tutmos (taxminan er.avv. 1504 -1492)
4. Tutmos II (taxminan er.avv. 1492-1479)
5. Xatshepsut (ayol firavin taxminan er.avv. 1479-1458)
6. Tutmos III (taxminan er.avv. 1479 -1425)
7. Amenxotep II (taxminan er.avv. 1428-1397)
8. Tutmos IV (taxminan er.avv. 1397-1388)
9. Amenxotep III (taxminan er.avv. 1388-1351)
10. Amenxotep IV (taxminan er.avv. 1351 -1334) xotin malika Nefrititi bilan birga.
11. Smenkxara (taxminan er.avv. 1337-1333)
12. Tutanxaton /Tutonxomon (taxminan er.avv. 1333-1323)
13. Eye (taxminan er.avv. 1323-1319)
14. Xoremxeb (taxminan er.avv. 1319 -1292)

XIX sulola (106 yil)

1. Ramses I (taxminan er.avv. 1292 -1291)
2. Seti I (taxminan er.avv. 1290 -1279)
3. Ramses II buyuk(taxminan er.avv. 1279-1212)xotin malika Nefartari bilan birga
4. Merneptax (taxminan er.avv. 1212-1202)
5. Seti II (taxminan er.avv. 1202 -1196)
6. Amenmes (taxminan er.avv. 1200-1187)
7. Saptax (taxminan er.avv. 1195-1189)
8. Tusert (ayol firavin) (taxminan er.avv. 1188-1186)

XX sulola (106 yil)

1. Setnaxt (taxminan er.avv. 1186-1184)
2. Ramses III (taxminan er.avv. 1184 -1153)

3. Ramses IV (taxminan er.avv. 1153 -1147)
4. Ramses V (taxminan er.avv. 1147-1143)
5. Ramses VI (taxminan er.avv.. 1143-1136)
6. Ramses VII (taxminan er.avv. 1136-1129)
7. Ramses VIII (taxminan er.avv. 1129- 1126)
8. Ramses IX (taxminan er.avv. 1126-1108)
9. Ramses X (taxminan er.avv. 1108 -1099)
10. Ramses XI (taxminan er.avv. 11991069)
11. Xerixor (taxminan er.avv. 1086-1080)

3 O‘tish davri

XXI sulola (134 yil)

1. Nesubanebdjed / cmendes (taxminan er.avv.. 1077 -1051)
2. Amenemnisu (taxminan er.avv. 1051 -1047)
3. Psusenes I (taxminan er.avv. 1047 -1001)
4. Amenemope (taxminan er.avv. 1001 -992)
5. Katta Osorkan (taxminan er.avv. 992-986)
6. Siamon (taxminan er.avv.. 986 -967)
7. Psusennes II (taxminan er.avv. 967- 943)

XXII sulola (Liviydan) 228 yil

1. Sheshonk I (taxminan er.avv. 943 -922)
2. Osorkon I (taxminan er.avv. 922-887)
3. Sheshonk II (taxminan er.avv. 887-885)
4. Takelot I (taxminan er.avv. 885-872)
5. Osorkon II (taxminan er.avv.. 872-837)
6. Takelot II (taxminan er.avv. 840-815)
7. Sheshonk III(taxminan er.avv..837 -798)
8. Sheshonk IV (taxminan er.avv. 798-785)
9. Pami (taxminan er.avv. 785 -778)
10. Sheshonk V (taxminan er.avv.. 778-740)
11. Petubastis (Petbast II / er.avv. 743-733)
12. Osorkon IV (er.avv. 733-715)

Gerakleopol, Leontopol va Tanisda (Per- Ramsesda) hokum surgan turli hukmdorlar

1. Petubastis I (Petubast I Usermaatra Setepenamon er.avv. 818 – 793)
2. Iuput I (er.avv.. 804 – 783)
3. Sheshonk IV (er.avv. 783-777)

4. Osorkon III (Usermatra Setepnamon er.avv. 777- 749)
5. Takelot III Usermatra er.avv. 754-734)
6. Rudamon (Usermaatra Setepenamon er.avv. 734-731)
7. Iuput II (er.avv. 731 -720)
8. Sheshonk VI er.avv. 720-715)

XXIV sulola (Sais va Liviydan)14 yil

1. Tefnaxt (Shepsesra er.avv. 731 -723)
2. Bakxoris (Bakenrenef Uaxkara, mil avv. 723- 717)

XXV sulola (Kushit, Efiopiydan) 104 yil

1. Kashta (ynon, Kest, er.avv. 760 -752)
2. Pianxi (Pi seneferra, er.avv. 752- 717 0
3. Shabaka (Neferkara er.avv. 717 -703)
4. Shabataka (djedkayra er.avv. 703 -690)
5. Taxarka Nefertumxura,Trgaka er.avv. 690-664)
6. Tanuatamon (Tanuatamani Bakara, er.avv. 664 -656)

XXVI sulola Saisdan) 51 yil

1. Ameris (er.avv. 715 -695)
2. Tefnaxt I (er.avv. 695 -688)
3. Nekayba (er.avv. 688-672)

So‘ngi davr

XXVI sulola (saisdan)

1. Psammetix I (taxminan er.avv. 664- 610)
2. Nexo II (taxminan er.avv. 610 -595)
3. Psammetix II (taxminan er.avv. 595 -589)
4. Apiy (taxminan er.avv. 589-570)
5. Amasis II Yaxmos II (taxminan er.avv. 570 -526)
6. Psammetix III taxminan er.avv. 526-525)

XXVII Sulola 9

1. Kambis II (msircha aytilishi Kembichet Mesutira er.avv. 525-522)
2. Bardiy (Psevdo –Gaumata er.avv..522)
3. Doro I (Misrcha aytilishiIntiriosh Setutra er.avv. 521 – 486)
4. Kserks (misrcha aytilishi Xashiarsha er.avv. 486 -465)

5. Artakserks I (misrcha aytilishi Arta xeshes er.avv. 465 -424)
6. Kserks II (er.avv. 424)
7. Sogdian (Sekudian er.avv. 424-423)
8. Doro II (er.avv. 423-405)

XXVIII sulola (Saisdan) 61 yil

1. Amirtey I (Saisda, er.avv. 460 -454 Deltada , er.avv. 454 449) O‘ldirilgan
2. Inar IX Nil deltasida, er.avv. 460 -454) O‘ldirilgan
3. Oavsiris (Saisda er.avv. 408 -404)
4. Amirtey II (Amenerdis, Saisda er.avv. 404 -399), O‘ldirligan

XXIX sulola (mandesdan) 20 yil

1. Neferit I(er.avv. 399- ?)
2. Psammut (?)
3. Axoris (er.avv..393 -380)
4. Neferit II (er.avv. 380 -380)

XXX sulola 38 yil

1. Nektaneb I (er.avv. 380-362)
2. Taxos (er.avv. 362 -360)
3. Nektanab II (er.avv. 360- 342)

XXXI sulola (forslardan) 10 yil

1. Artakserks III Oks (er.avv. 342-338)
2. Arses (er.avv. 338 -336)
3. Doro III Kodoman (er.avv. 335 -332)

338 yili Msir mustaqillikni qo‘lga olib , Xababash Firavin bo‘ldi.

Ellinistik davr

XXXII sulola (Makedoniyalik)

1. Aleksandr III buyuk.
2. Filipp III Arridey.
3. Aleksandr IV Makedonskiy

XXXIII sulola (Makedoniylik, Lagidlar) 277 yil

1. Ptolemey I Soter Lagid (er.avv. 306 -283)
2. Ptolemey II Filadelf (er.avv. 283-246)
3. Ptolemey III Everget (er.avv. 246 -222), xotin malika Berenika bilan birgalikda.

4. Ptolemey IV Filopator (er.avv. 221 – 205)
5. Ptolemey V Epifan (er.avv. 205 -180)
6. Ptolemey VI Filometor (er.avv. 180 -145)
7. Ptolemey VII Neos Filopator (er.avv..170 – 164)
8. Ptolemey VIII Everget Fiskon (er.avv.. 145
9. Ptolemey VII (er.avv. 145-116)
10. Ptolemey IX Soter Lotir (er.avv. 116 -108)
11. Ptolemey X Aleksandr I (er.avv. 108 -89)
12. Ptolemey IX Soter Lotir (er.avv. 89-81)
13. Ptolemey XI Aleksandr II (er.avv. 80)
14. Ptolemey XII Neos Dionis Filopator(er.avv. 80 – 58)
15. Berenika IV (er.avv. 58-56)
16. Arxelay (er.avv..56)
17. Ptolemey XII Neos Dions (er.avv. 56 -51)
18. Ptolemey XIII Dionis (er.avv. 51 -47)
19. Kleopatra (er.avv..47 -30) Arsining singlisi, Mark Antoniy o‘ldirgan
20. Ptolemey XIV Neoteros (er.avv..47 -44).
21. Ptolemey XV Kesarion (er.avv. 44- 30)

Mesopotamiya

Muhim sanalar

Er.avv. V –VI mingyillikda Ubayd madaniyati. Shahar markazlari (protoshahar), Sug‘orish tizmi, Ibodatxonalar, toshli ko‘chalar. Shumerlar kelishi bilan, inqiroz boshlandi.

Er.avv. IV mingyillik -Shumerlar Sivilizatsiyasi.10000 kishidan iborat shaharlar, shoh qasirlari, ibodatxonalar, zikkuratlar, hunarmandlar ustaxonalari, yozuvning paydo bo‘lishi.

Er.avv. XXXIV asr yozuvning paydo bo‘lishi.

Er.avv. XXXII asr dunyodagi birinchi yozma ma’lumot.

Er.avv. XXVIII asr Shumerning suv bosishi (Injilda nux to‘foni sifatida tilga olingan)

Er.avv.. XXVIII asr Kish shahri Shumer sivilizatsiyasining markazi.

Er.avv. XXVII asr Kishning zaiflashuvi. Uruk shahrining hukmdori – Gilgamesh Kish shahrining armiyasini mag‘lub etib uni Uruk davlatiga qo‘shib oldi.

Er.avv. XXV asr Urukning zaiflashuvi. Shumer sivilizatsiyasini markazi Ur shahri bo‘ladi.

XXIV asrda Lagash shahri shohi Eannatum davrida siyosiy hayot va davlat boshqaruvi muhim o‘zgarishlarga duch keldi. Eannatum Lagashni kuchli markazlashtirilgan davlatga aylantirib, qo‘shni shahar-davlatlar bilan siyosiy va harbiy aloqalarni mustahkamladi. Uning siyosiy faoliyati Lagashni qadimgi Mesopotamiya mintaqasida siyosiy markaz sifatida tanilishiga olib keldi. U shumerni kop qismini egallab, Elamni bosib oldi.

Er.avv. 2318 -2312 yillar Uruinimgin shohligi.

Er.avv. 2318 yili Lagashga tobe bo‘lgan Umma shahri urush e’lon qilib uning Ummi Lugalzagesi nomli podshohsi Lagash armiyasini tor-mor etadi, biroq tez orada akkad butun shumerni bosib oladi.

Er. avv XXIII asr –Shumer va Akkad davlatlari podsho Sargon (Sargon Qadima, Sargon Akkadlik, Sargon buyuk,) tomonidan birlashtirildi.

Er.avv. XXIII-XXI - Akkad davlati. Akkad imperiyasiga Shumer, Akkad, Ossuriya, Elam va boshqa davlatlar kirgan (podsho Sargon I).

Er.avv. XXI asr –Elamiylar, Xoldeylar bosqini.

Er.avv. XIX –XVIII asrlar – Ossuriyada birinchi podsholiklar.

Er.avv.XVIII asr podsho Hammurapi tomonidan Mesopotamiya va Suriyaning birlashtirilishi.

Er.avv. XVI asr – Dajlaning yuqori qismida ossuriyaliklar davlatining tashkil etilishi. poytaxti Assur shaxri. Nineviy (Nina), Nimrud, Qalxi shaharlarining barpo etilishi.

Er.avv. 743-735 yillar –Nabonassar podsholigi.

Er.avv. 729 yil Bobilni Ossuriya shohi Tiglopalasar III egalladi.

Er.avv. 680-669 yillar Ossuriya shohi Asarxaddon hukmronligi

Er.avv. 538- yil Fors shohi Kurush Bobil va Ossuriyani bosib olgan.

Er.avv. 336 yili – Aleksandor Makadonskiy Mesopotomiyani bosib oldi. Uning vafotidan so‘ng bu manzilgoh salavkiylar davlatining bir viloyatiga aylanib ketgan.

Mesopotamiyadagi eng mashhur hukmdorlar

Urukagina (taxminan er. avv. 2500 yil) shahar davlat Lagashning podshosi. Soliqlarni tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirgan.

Lugalzagesi (taxminan er. avv. 2500 yil) Umma shahar – davlat shohining o‘g‘li. Lagash shohi Urukagina armiyasini mag‘lub etgan shahar davlat Urukda 25 yil hukm surgan. Sargon I akkadlik tomonidan tor –mor keltirilgan.

Sargon I (taxminan er. avv. 2400 yil) 56-yil tuzgan imperiyasida hukm surgan.

Naram – Suen (taxminan er. avv. 2320 yil) – Sargon I akkadlikning nabirasi Imperiyani 37-yil davomida boshqargan. Ko‘pgina bosqinchilik yurishlari olib borgan.

Gudea (taxminan mil avv 2200 yil) Shemuriyning Lagash shahar _ davlat podshosi Ur podsholari Ur – Nammu va Shulgannig zomondoshi.

Rim –Sin (er. avv. 1878 -1817 yillar) Janubiy Bobilning Larsa shahar-davlatining hukmdori. 61 yil hukmdorlikdan keyin Hammurapi tomonidan mag‘lub etilib asirga olinadi

Shamsi – Adad I (er. avv. 1868 – 1806 yillarda hukm surgan)

Ossuriya podshosi.

Hammurapi (er. avv. 1848 -1806 yillarda hukm surgan) qonunlar muallifi.

Tuklti – Ninirta I (er. avv. 1243 -1207 yillar) Ossuriy shohi, Bobilni bosib olgan. 1350 yilga yaqin Ossuriya Mitanni tobeligida Ashshuruballit tomonidan ozod etiladi. Ossuriy Ireba- Adad Ashshuruballit, Adadnerari I, Salmanasar I, ayniqsa, Tukulti – Ninurta davrida rivojlanib ketadi. Tukuli –Ninurta kassitlardan bo‘lmish Bobil shohi Kashtilash IV ni tor – mor keltirgan.

Tiglopalasar I (er. avv. 1112 – 1074 yillar) Ossuriy podshosi. Tukuliti –Ninurta I davridagi Ossuriya shuhratini ushlab turishga harakat qilgan.

Ashshurnasirpal II (er. avv. 883-859 yillari)uning davrida Ossuriya imperiyasi shakllandi. Ashshurnasirpal Ashshurdan shimoldagi Kalax (Nimrud) shahriga poytaxtni ko‘chirgan.

Salmanasar III (er. avv. 858-824 yillar) –Ossuriya shoxlarining eng qudratlisi, Ossuriya imperiyasini kuchaytirgan. Sardur II ustidan g‘alaba qilib Urartu davlatining katta qismini bosib oladi. Pulu nomi bilan Bobilda o‘zini shoh deb e’lon qiladi. Suriya va Falastinni o‘ziga tobe qiladi. Davlat boshqaruvida deportasiya (bir joydan boshqa joyga ko‘chirish) usulidan foydalanadi.

Sargon II (er. avv. 721-705 yillar) Ossuriya shohi. U shoh avlodidan bo‘lmasa ham buyuk Tiglopalasar III, uning o‘g‘li Salmanasar V 726-722 yillada qisqa muddat hukm surgan)ning vorisi bo‘ldi Sargon Urartu poytaxti Tushpa shahrini mil avv. 714 yili bosib oldi, keyin er. avv. 721 yili Suriya shahri Samariyni egalab aholisini ko’chirgan. Er. avv. 717 yili Suryaning Karxemish shahrini qo‘lga kiritdi. Er. avv. 709 yili, Marduk-apal Iddinada qisqa muddatli asirlikdan keyin, sargon o‘zini Bobiliston shohi deb e’lon qildi Sargon davrida G‘arbiy Osiyo siyosiy maydonida kimmeriylar va midiyaliklar paydo bo‘ldi.

Sinaxerib (er. avv. 704 -681) Sargon II ning o‘g‘li Ossuriya shohi Bobil shahrini buzib tashlagan yaxudiylar podshosi Ezeki va payg‘ambar Isayning zamondoshi. Ierusalimni qamal qilgan, ammo ololmagan. Bobil va Elamga muvaffaqiyatsiz yurishlar uyushtirgan. Bobil hukmdori halok bo‘lgach Bobil shahrini buzib tashlab, u yerda bosh xudo Marduk haykalini Ossuriyaga olib ketgan.

Asarxaddon (er. avv. 680-669) Sinaxerib o‘g‘li Ossuriya podshosi. U Bobilni qayta tikladi. Marduk ibodatxonasini qayta qurdi. Er.avv 671 yili Misrning Nubiyalik fir’avini Taxarkani mag‘lub etib Memfisni buzib tashlaydi.

Ashshurbanipal (er. avv. 668-626 yillari Asarxaddon o‘g‘li Ossuriyaning oxirgi buyuk shohi. Uning davrida kutubxona tashkil etilib, Mesopotamiyaga oid barcha manbalar bir joyda yig’ildi.

Nabopalasar (er. avv. 625-605 yillar) Yangi Bobil (Xaldey)sulolasi shohi. Midiya podshosi Kiaksar bilan birga Ossuriya imperiyasini yo‘q qilgan. Bobil ibodatxonalarini qayta tiklagan.

Navuxudonosor II (er. avv. 604 – 562) Yangi Bobil sulolasining ikkinchi shohi. Karxemishdagi (hozirgi Turkiyaning janubida) misrliklarga qarshi muxorabada qatnashib shuhrat qozongan. Er. avv. 596 yili Ierusalimni egallab, yahudiylar shohi Ezekiyni asir oldi. Er. avv.586 –yili yana Iersalimni bosib olib,yahudiylar davlatiga barham berdi.Yahudiylarni Bobilga ko‘chirdi.

Nabonid (er. avv. 555-538) Yangi Bobil sulolasining oxirgi shohi. Oromiy qabilalari bilan birga Forslarga qarshi itifoq tuzish uchun poytaxtni Arabiston cho‘llaridagi Tayma shahriga ko‘chiradi. Bobilda uning o‘g‘li Valtasar qoladi. Nabonid oy xudosi Sinaga sig‘ingani bois Bobildagi Marduk kohinlari qarshiligiga duch keladi. Er. avv. 538 – yili Kir (Kurush) II Bobilni zabt etadi. Nabonid Bobildan uncha uzoq bo‘lmagan Borsippa shahrida Kirga taslim bo’ladi.

Qadimiy Eron

Ahmoniy (Xoxomanishlar)sulolasi (er. avv. 700 . er. avv. 331 yillar)

Bu sulola Pasargad qabilasidan bo‘lgan. Fors viloyatidan Boshida Elam va keyinchalik Mudiyaga o‘lpon to‘lab turgan.

Protoelamiylar (er. avv. 3200 – 2700 yillar).

Jiroft (er. avv. 3000- 500 yillar).

Elam (er. avv. 2700 -539 yillar)

Manna (er. avv. 1000- 700 yillar).

Midiya (er. avv. 728- 550 yillar).

Shohanshohlikdan oldingi davr (er. avv.. 700-550 yillar)

Fors shohligi (er. avv. 550. er. avv. 331 yillar).

Er. avv. 550 yillar atrofida axamoniylar shoxi Kurush (kir) II Midiya shohligiga barham beradi. Uning vorislari g‘arbda Misr va Egay dengizidan sharqda Hind Afg‘onistongacha bo‘lgan yerlarni o‘z itoatlariga kiritib duniyoda birinchi imperiyaga asos soladilar.

Axamon (Xoxomanish, er. avv. 700-675).

Chishpish (er. avv. 675 -640)

Kurush I (er. avv. 640 – 600)

Kambiz I (er. avv. 600 – 559)

Kurush II (Buzurg er. avv. 559-530)

Kambiz II (er. avv. 530 – 522)
Bardiy (Smerdis, Gaumata, er. avv. 522)
Doro (Dorovaxush)I buzurg (er. avv. 522 er. avv. 486)
Kserks I (er. avv. 486 -465)
Artakserks I (er. avv. 465 -424)
Kserks II (er. avv. 424)
Sekudian (Sogdian) (er. avv. 423)
Doro II Oks (er. avv.. 423 -404)
Artakserks II Arsak / Arshak (er. avv.. 404 – 359)
Artakserks III Oks (er. avv.. 359 – 338)
Arsak (Arses, Are, er. avv. 338-336)
Doro III kodoman (Artashat er. avv. 336 -330)
Artakserks IV Bess (er. avv. 330-329)

Ahmoniylar sulolasiga Aleksandr Makedonskiy barham berdi uning vafotidan keyin Salavkiylar tarkibiga kirib ketdi.

Salavkiylar

Salavk I. Salavkiylar Makedoniyadan bo‘lgan. Er. avv. 312 yili Aleksandrning Lashkarboshisi Salavka I Nikator (er. avv. 358 -280) Suriyada hokimiyatni qol’ga olib uzoq urushlardan so‘ng G‘arbiy Osiyo, Markaziy Osiyo Shimoliy Hindistonni egallaydi. Bu manzilgohlarda Salavka Ikkita poytaxt qurgan : Antioxiya (oronto – shimoliy Suriyada) va Salavkiy (Efrat Sohilida) Salavka va uning vorislari butun mamlakatni yunon va makedoniy zodogonlari yordamida boshqargan. Firakiya va Yunonistonga Lashkar tortgan vaqtida Lisimaxiy (frakiyda) muxorabasida Ptolemey Keravlan yengilib halok bo‘lgan.

Antiox I Soter (er. avv. 324 – 261) Salavkiyning o‘g‘li
Antiox II Teso (taxminan er. avv. 287-246)

Mil av 356 yili Yunon- Baqtiriya taxminan er. avv. 248 yili Parfiya shohligi tuzildi.

Antioxning Ptolemey II ning qizi Berenikka uylanishi, birinchi xotini Laodakdan bo’lgan farzandlaridan voz kechishi taxtga vorislik masalasini yuzaga chiqardi.

Salavk II 9 taxminan er. avv.. 265-226) taxt uchun o‘zaro sulolalar kurashdilar.

Antiox III buyuk (taxminan er. avv. 242-187).
Salavka IV Filopator (er. avv. 187 – 175)
Uzurpator Geliodon (er. avv. 174).
Antiox Epifan (er. avv. 215 -164)
Antiox V Evpator (er. avv. 164 -162)
Demetriy I Soter (er. avv. 162 -150)
Aleksandr Balas (er. avv. 152-145)
Demitiri II Nikator (er. avv. 145-139; er. avv. 130-125).
Antiox VI Dionis Epifan (er. avv. 145-142).
Diodot Trifon (er. avv. 142 -138).
Antiox VII Sedet (er. avv. 138 er.avv 129).
Aleksandr (II) Zabina (er. avv. 128-1230)
Sulolaning bo‘linishi :

Demetriy II avlodi	**Antiox VII Sidet avlodlari**
Salavk V (er. avv. 126-125)	Kleopator Tea (er. avv. 126-120),avval o‘zi keyin o‘g‘li Antiox VIII bilan birga
Antiox VIII Epifan Filometor Kallinik (Grip, er. avv. 125 -96)	Antiox IX Filopator(er. avv. 116-95)
Salavk VI Epifan Nikator (er. avv. 96-95)	Antiox X Taqvador (er. avv. 94- er. avv. 92)
Demetriy III Filopator (evker, er. avv. 95-88)	Antiox XI Filadelf (er. avv. 92)Filip I Filadelf (er. avv. 92 -83) egizak akasi Antiox XI bilan birga keyin bir o’zi hukm surgan
Antiox XII Dionis (er. avv. 89-84)	Kleopatra Selena (er. avv. 84 -83), o‘g‘li Antiox XIII nomidan va uning manfaati uchun hukm surgan

Tigan II Arman (er. avv. 83 -69) Salavkiylar mulkini bosib oldi.

Salavkiylarning qo‘zg‘alonlari: Antiox VII SIdet avlodlari Antiox XIII Dionis Filapotor Kallinik (Aziatskiy) (er. avv. 68-64)Demetri II avlodlari : Filipp II (er. avv. 65-64)

Er.avv .V-IV asrlarda Yunonistonning iqtisodiy- ijtimoiy rivojlanishi

Sarskaya dinastiya plemyon gutiev, pravivshaya v XXII veke do n. e.

- Erridupizir (Enridavazir) — ok. 2230—2202 do n. e.
- Imta — 2202—2197 do n. e. — pravil 3 ili 5 let.
- Inkeshush (Ingeshush I) — 2197—2191 do n. e. — pravil 6 let.
- Sarlagab — 2191—2185 do n. e. — pravil 6 let.
- Shulme — 2185—2179 do n. e. — pravil 6 let.
- Elulu-Mesh (Elulumesh) — 2179—2173 do n. e. — pravil 6 let.
- Inimabagesh — 2173—2168 do n. e. — pravil 5 let.
- Igeshaush (Igneshush II) — 2168—2162 do n. e. — pravil 6 let.
- Yarlagab — 2162—2147 do n. e. — pravil 15 let.
- Ibate — 2147—2144 do n. e. — pravil 3 goda.
- Yarlangab (Yarlagan I) — 2144—2141 do n. e. — pravil 3 goda.
- Kurum — 2141—2140 do n. e. — pravil 1 god.
- Xabilkin (Xabilkin) — 2140—2137 do n. e. — pravil 3 goda.
- Laerabum (Laxarab) — 2137—2135 do n. e. — pravil 2 goda.
- Irarum — 2135—2133 do n. e. — pravil 2 goda.
- Ibranum — 2133—2132 do n. e. — pravil 1 god.
- Xablum — 2132—2130 do n. e. — pravil 2 goda.
- Puzur-sin (Puzur-Suen) — 2130—2123 do n. e. — syn Xabluna — pravil 7 let.
- Yarlaganda (Yarlagan II) — 2123—2116 do n. e. — pravil 7 let.
- Sium — 2116—2109 do n. e. — pravil 7 let.
- Tirigan — 2109 do n. e. — pravil 40 dney.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Қосимов Э. ва бошқ. Жаҳон тарихи (қадимги ва ўрта асрлар даври). Т. 2013.
2. Ураков Д.Ж. ва б. Жаҳон тарихи (I том) / дарслик / Т.: “Методист нашрёти”, 2023. –366 б
3. Авдиев В.И. Қадимги шарқ тарихи. – Т., 1964.
4. Античная Юнонистон. Под. ред. Е. С. Голубцовой. – М., 1983.
5. Античная цивилизация. Под. ред. В. Д. Блаватского. – М., 1973.
6. Арутюнян Н. Биайнили (Урарту). – Ереван, 1970.
7. Бойназаров Ф. Антик дунё. – Т., 1989.
8. Геродот. История. – М., 1972.
9. Глускина Л. Н. Проблемы социально- экологической истории Афин в IV в. до н. э. – Л., 1975, 1980.
10. Дандамаев М.А, Луконин В.Г. Культура и экономика древного Ирана. – М., 1980.
11. Доватур А. И. Рабство в Аттике в IV-V вв. до н. э. – Л: ЛГУ, 1980.
12. Древние китайцы в эпоху централизованных империй. – М.,1983.
13. Дяконов И.М. Урартские писма и документы. – М. – Л., 1963.
14. Иофан Н.А. Культура Древней Японии. – М., 1974.
15. История древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. – М., 1986.
16. История древного мира // Под ред. В.И. Кузищина. – М., 1979.
17. История древного мира // Под ред. И.М. Дяконова, В.Д. Нероновой, И. С.Свенцитской. – М.,1983.
18. Қадимги дунё тарихи. Й.С. Крушкол таҳрири остида. II қисм. –Т., 1975.
19. Крюков М.В., Переломов Л.С., Сафронов М.В., Чебоксаров Н.Н. Ладынин И.А. и др. История древного мира: Восток, Юнонистон, Рим. – М., 2005.

20. Лысенко В.Г. Опыт введения в буддизм: ранняя буддийская философия. Учебное пособие. – М., 1994.
21. Меликишвили Г.А. Урартские клинообразные надписи. – М., 1960.
22. Олденбург С.Ф. Культура Индии. – М., 1991.
23. Пиотровский Б.Б. Ванское царство (Урарту). – М., 1959.
24. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2009.
25. Ражабов Р. Жаҳон тарихи – Т.: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2015.
26. Редер Д. Г., Черкасова Е.А. Қадимги дунё тарихи. 1-қисм. Ю.С. Крушкол таҳрири остида. – Т., 1974.
27. Серебряков И.Д. Очерки древнеиндийской литературы. – М., 1971.
28. Словар античности. – М., 1989.
29. Ғиёсов Т. Қадимги Ҳиндистон тарихи. – Т., 2008.
30. Три великих сказания древней Индии. – М., 1978.
31. Тюляев И.С. Искусство Индии. – М., 1983.
32. Фрай Р. Наследие Ирана. – М., 1972.
33. Хинс В. Государство Элам. – М., 1977.
34. Шарма Р.Ш. Древнеиндийское общество. – М., 1989.
35. Воҳидов Ш. Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари – Т.: “Академнашр” нашриёти, 2013.
36. Юан К.Е. Мифы древнего Китая. М., 1987.
37. История первобытного общества. Учеб. для студентов вузов по спес: “История” В.Р. Алексеев,А.И.Першис. – М.:АСТ,Астрел, 2007.
38. История древнего Востока. / учеб.пособие для студ.высш.учебных заведений. / В.И.Кўзищин, С. Кучера; под ред.В.И.Кўзищина.-М.: “Издателский сентр Академия”,2007.
39. Василев Л.С.История Востока. В 2 т. Учебник. /Л.С.Василев-4-е изд.,испр.и доп. – М.: Высш.шк.,2005.
40. История Востока. Т.1. Восток в древности. – М., 1997.
41. История древнего Востока: от ранних государственных образований до древних империй. – М., 2004.

42. Древний Восток.Учебное пособие для вузов /Руководитель проекта А.О.Чубарян.М; АСТ, Астрел, 2007.
43. Девид Р. Древний Египет (енциклопедический справочник) М.; Вече,Университет Манчестера, 2008.
44. Крол А. Египет первых фараонов: Хеб-Сед и становление древнеегипетского государства.М.: Рудомино,2005.
45. Кабиров А.Қадимги шарқ тарихи. – Т. Университет. 2015.
46. Колум П. Великие мифы народов мира. – М.: Сентрполиграф, 2007.
47. Мате М.Е. Искусство древнего Египта. – СПб.,2001.
48. Море А. Нил и египетская цивилизация. – М: Сентрполиграф.,2007.
49. Тураев Б.А. Египетская литература. – СПб.,2000.
50. Емелянов В.В. Древний Шумер. Очерки культуры. – СПб., 2003.
51. Гуляев В.И. Шумер. Бобил. Ассирия: 500 лет истории. 2-е изд. – М.: Алтейя, 2005.
52. История Израиля и Иудеи. (общественная и политическая жизн). – М.:Крафт+,2004.
53. Дубнов С.М. Краткая история евреев. – М., 1996.
54. Тибергер Ф. Цар Соломон. – М.: Центрполиграф,2005
55. Гюиз Ф. Древняя Персия. – М.: Вече, 2007.
56. Крюкова В.Ю. Зороастризм. СПб.:Азбука-классика: Петербургское Востоковедение, 2005.
57. Албедил М.Ф. Забытая цивилизация в долине Инда. – СПБ.,1991.
58. Албедил М.Ф. Индия, беспределная мудрост. 2-изд. – М.:Алтейя, 2005
59. Уиллер М. Древний Индостан: раннеиндийская сивилизатсия. – М., Сентрполиграф, 2005.
60. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация: история, религия, философия, эпос, литература, наука, встреча культур. – М., Восточная литература, 2007.
61. Вигасин А.А. Древняя Индия: от источника к истории. – М.: Восточная литература, 2007.

62. Индийская мифология (Индийский пантеон. Героический эпос.Обычаи и ритуалы. Ведическая культура. Жертвоприношения. Праздники.): энциклопедия. – М.:Ексмо, СПб, Мидгард, 2006.

63. Тюлина Е.В. Гаруда - пурана.Человек и мир. – М., 2005.

64. Василев К.В. Истоки китайской цивилизации. – М.: Изд.фирма “Восточная литература” РАН, 1998.

65. Грехй Д.Г. История Древнего Китая.– М.: Сентрполиграф, 2006.

66. История Китая /Учебник. /Под редакқией А.В.Меликсетова.-4-е изд.–М.: Изд-во МГУ, 2007.

67. История Древней Греции / В.С.Сергеев: под ред.проф.Е.Д.Фролова. / Изд-е испр. доп.-М.: АСТ.:СПб, Полигон, 2007.

68. Древняя Греции. учеб.пособие для вузов / Российская академия наук, Государственный ун-т гуманитарных наук: Научно-образоват. сентр по истории; С.В.Новиков, Л.Л.Селиванова, А.В.Стрелков; рук-л проекта А.О.Чубарян. М.; Астрел, АСТ: Хранител, 2006.

69. Квеннел М. Гомеровская Юнонистон: быт, религия, культура. – М. Сентр полиграф,2005.

70. Бюттен А.М. Классическая Юнонистон. – М.: Вече, 2006.

71. Меланченко И.В. Афинская демократия. –М.: Крафт+, 2007.

72. Волков А.В. Спарта:со щитом или на щите. – М.:Крафт+, 2005.

73. Догерти П. Александр Великий. Смерт бога. – М.:АСТ Москва:Транзиткнига, 2005.

74. Шифман И. Ш. Александр Македонский. – СПб:Изд-во СПбГУ, 2007.

75. Джеймс П. Римская цивилизация. – М.: Гранд,Фаир-Пресс,2000.

76. Роббер Ж.Н.Етрусски. – М.:Вече, 2007.

77. Зелинский Ф.Ф. Римская республика. – СПб: Алтейя, 2002.

78. Хоуелл Г. Древний Рим. – М.: Эксмо, 2006.

79. Голдсуорси А. Юлий Цезар (полководец, император, легенда) – М.: Эксмо, 2007.
80. Неродо Ж. П. Август. – М.: Молодая гвардия, 2003.
80. Радхакришнан С. Индийская философия. Т.1-2. – М., 1956.

MUHDARIJA

KIRISH 3

1-MAVZU. QADIMGI SHARQ TARIXI MANBASHUNOSLIGI.....6

2-MAVZU. ILK VA QADIMGI MISR PODSHOLIGI 31

3-MAVZU. O‘RTA PODSHOLIK DAVRIDA MISR DAVLATI.....62

4-MAVZU.YANGI PODSHOLIKLIK DAVRIDA MISR DAVLATI 72

5-MAVZU. SO‘NGGI PODSHOLIK DAVRIDA MISR DAVLATINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI..... 92

6-MAVZU. QADIMGI MESOPOTAMIYA MIL.AV. IV – II MING YILLIKDA 120

7-MAVZU. QADIMGI BOBIL PODSHOLIGI 176

8-MAVZU. MITANNI DAVLATI 210

9- MAVZU. QADIMGI OSSURIYA..... 220

10-MAVZU. QADIMGI KICHIK OSIYO..... 234

11-MAVZU. QADIMGI YAQIN SHARQ..... 251

12-MAVZU. QADIMGI ERON 279

13-MAVZU.QADIMGI HINDISTON 300

14-MAVZU. QADIMGI XITOY..... 319

15-MAVZU. XUNNLAR IMPERIYASI 346

GLOSSARIY 353

ILOVALAR..... 368

ADABIYOTLAR RO‘YHATI..... 384

ISMATULLAEV FARXODJON ODILJONOVICh

JAHON TARIXI (QADIMGI DAVR)

DARSLIK

Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI” - 2026

Muharrir: Xolsaidov F.B.

Bosishga 25.01.2026.da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90. “Cambria” garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 25. Nashr bosma tabog‘i 24,5.
Adadi 100 nusxa.

***“METODIST NASHRIYOTI” MCHJ** matbaa bo‘limida chop etildi.*
Manzil: Toshkent shahri Shota Rustaveli 2-vagon tor ko‘chasi, 1-uy.

+99893 552-11-21

Nashriyot roziligisiz chop etish taqiqlanadi.